

✓
Haydarali Muhamedov

**XORIJIY MAMLAKATLAR
DAVLATI VA HUQUQI
TARIXI**

I qism



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**


Haydarali MUHAMEDOV

XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

(Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi)

I qism

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan huquq yo'nalishi va tarix yo'nalishi bo'yicha Oliy o'quv
yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan**



Toshkent-2005

Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi): Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/Mas'ul muharrir: A.X.Saidov. Qism 1. - T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. - 287 bet.

Sarlavhada: O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi.

Mas'ul muharrir: **A.H.Saidov**, huquqshunoslik fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: **A.M.Oxunjonov**, huquqshunoslik fanlari doktori, professor.

A.T.To'laganov, huquqshunoslik fanlari doktori, professor.

O'M. Ahmadjonov, huquqshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu darslik Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixining birinchi davri - qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixiga bag'ishlanib, unda mazkur o'quv kursi o'rganadigan masalalar doirasi, ularga yondashish usullari, uning vazifasi, davrlarga bo'lib o'rganilishi, ahamiyati, ijtimoiy va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni va ular bilan o'zaro aloqadorligi, qadimgi Sharq va antik dunyo mamlakatlarida davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi sabablari, xususiyatlari, ijtimoiy va davlat tuzumi, huquqning asosiy belgilari kabi masalalar yoritilgan.

Unda xususan Qadimgi Sharq mamlakatlaridan Misr, Mesopotamiya davlatlari, Hindiston va Xitoyning, antik dunyo mamlakatlaridan qadimgi Yunoniston davlatlari (Afina, Sparta) va Rimning davlat va huquq tarixi bayon qilingan.

Darslik huquqshunoslik mutaxassisligiga oid barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari, o'qituvchilari va aspirant-tadqiqotchilari uchun mo'ljallangan.

UDK 340(09) (100)

BBK 67. 3ya73

SO`Z BOSHI

Kudrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlanganidek, "Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan ta'lukkur va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir"¹. XXI asr bo'sag'asida O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, o'qitish va ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu esa olimlarimiz zimmasiga tegishli o'quv fanlarining zamonaviy dasturlari va darsliklarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, o'zbek tilida o'quv dasturlari va darsliklar yaratish vaEIFasini yuklaydi.

Huquqshunoslik ta'limi tizimida "Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi" fani alohida o'rin tutadi. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi tarixiy-huquqiy fan hisoblanadi. O'z mazmun-mohiyati bo'yicha u huquqiy (yuridik) fandir, shu bois ushbu fan oliy yuridik o'quv yurtlarida asosiy o'quv kurslaridan biri sifatida o'rganiladi. Ammo hozirgi kunda birinchi kurs mobaynida o'rganiladigan mazkur asosiy va hajmi bo'yicha katta hamda ilmiy bilishda juda katta o'rin tutgan fan bo'yicha o'zbek tilida o'quv dasturi, qo'llanmasi yoki darslik deyarli yaratilmagan yoki hech bo'lmaganda bu sohadagi qo'shni davlatlar huquqiy tajribasi o'rganilmagan va umumlashtirilmagan.

Albatta, mamlakatimizda bu fanning o'qitilishini takomillashtirish va birinchi o'quv-uslubiy adabiyotlarni yozish borasida o'zbek olimlaridan H.S.Samatova, O.M.Ahmadjonov va Z.Muqimovlar² bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Ular tomonidan o'zbek tilida yozilgan o'quv qo'llanmalari huquqshunoslik ta'limi sohasida bilim olayotgan talabalarning mazkur fanni o'rganishlarida salmoqli hissa qo'shmoqda. Bugungi kunga kelib bu qo'llanmalar kamyob kitobga aylanib qoldi Shu bilan birga ular, ta'kidlash joizki, biroz eskirib ham qoldi. Sho'rolar zamonida yozilgan barcha tarixiy-huquqiy asarlar singari ular ham asosan markscha-lenincha nazariya yakka hokimligi ta'sirida yozilgan qo'llanmalar edi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fani bo'yicha hozirgi zamon talablari asosida o'zbek tilida fundamental darslik yaratish shu kunning dolzarb

¹ O'zbekistonning yangi qonunlari, 18-son. T.: "Adolat". 1998., -4 bet.

² Samatova H.S, Ahmadjonov O.M. Chet mamlakatlar davlat va huquq tarixi. O'quv qo'llanmasi. - T., 1960; Ahmadjonov O.M. Ekspluatator sinflar davlat va huquqining tarixiy tiplari. Leksiyalar matni. - T., 1969; Muqimov Z Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O'quv qo'llanmasi. - Samarqand: SamDU nashri. 1992.

vazifalaridan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov haqqoniy ta'kidlaganidek, "Sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilish rag'batlantirilmay edi, hukumron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldiq. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik"⁴. Shuning uchun ham ilk bor mazkur fan bo'yicha o'zbek tilida to'rt qismli darslik yozish rejasi asosida uning Toshkent davlat yuridik instituti dotsenti H.M.Muhamedov tomonidan tayyorlangan I qismini e'tiboringizga havola qilinmoqda.

Ushbu darslik muallifning ko'p yillik pedagogik tajribasi hamda so'nggi yillarda chiqarilgan mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalarni o'rganish asosida yozilgan. Uni yozishda huquqshunos olimlar Z.M.Chernilovskiy, O.A.Jidkov, N.A.Krashennikova, K.A.Batnr, A.I.Kosarev, P.N.Galanea, B.S.Gromakov, S.F.Kechekyan, I.D.Martiseyevich, R.I.Nikolskaya, K.G.Fyodorov, N.A.Seleznyov, A.K.Rogojin, V.N.Strunnikov, N.N.Straxov, X.S.Samatova, O.M.Ahmadjonov, Z.Muqimov tomonidan yaratilgan yoki ularning tahriri ostida chiqqan darslik hamda o'quv qo'llanmalariga suyanilgan va ulardan keng foydalanilgan. Qonunlar, tarixiy yodgorliklar, hujjatlar va manbalardan foydalanishda I.M.Dyakonov, S.E.Bulatov, L.I.Dembo, K.A.Popov, YE.E.Livshits, I.S.Preterskiylar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan huquqiy yodgorliklardan foydalanilgan. Shu bilan birga, darslik jahon huquqiy-tarixiy fanining eng so'nggi yutuqlariga asoslangan holda yangi manbalar bilan boyitilgan.

Mazkur darslikning boshqa darsliklardan muhim farqi shundaki, bunda davlat-huquqiy masalalar keng va atroflicha yoritilganligida, har bir muayyan davlatning kelib chiqishi va davlat tuzumi hamda huquq tizimi chuqur bayon qilinganligida, shuningdek, tarixiy-huquqiy fanlarning eng so'nggi yutuqlari hisobga olinganligida ko'zga tashlanadi. Ushbu darslik muallifning bu sohadagi dustlabki ishlaridan bo'lganligi uchun ayrim kamchiliklardan holi bo'lmashligi tabiiy. Bu haqda xolisona fikr va mulohazalar bildirgan olimlar va mutaxassislarga mas'ul muharrir va muallif oldindan o'z minnatdorchiligini izhor qiladilar.

A.X.Saidov, professor, huquqshunoslik fanlari doktori.

⁴ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'li. Tosh., Sharq NIM, 1998.-2-bet.

KIRISH

XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI - ASOSIY TARIXIY-HUQUQIY FAN

1. Fan va uning tarixi

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi ijtimoiy fan bo`lib, uni asosan tarixiy-huquqiy fan deb ataymiz. Chunki u bevosita ham tarix faniga, ham davlat va huquq haqidagi fanga aloqador.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi o`z xarakteri bo`yicha yuridik (huquqiy) fan hisoblanadi. Shu bois u yuridik oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarida o`rganiladigan asosiy o`quv kurslaridan biridir.

Tarix o`tmishning yig`ilgan, konsentratsiyalashgan tajribalarini saqlovchi, uni avlodlarga asrab yetkazib keluvchidir. Hozirgi zamonning har bir yirik masalasi hayotning qaysi sohasida bo`lmasin, jumladan, davlat va huquqiy qurilish sohasida ham mavjud bo`lgan tarixiy tajribalarni hisobga olmasdan, undan unumli foydalanmasdan, chuqur o`rganmasdan samarali hal etilishi mumkin emas. O`tmish voqea-hodisalarini bilmasdan turib, hozirgi voqelikni to`g`ri tushunish, kelajakni ko`ra bilish mumkin emas. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek, **"O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o`rgatadi, irodasini mustahkamlaydi... Inson uchun tarixdan judo bo`lish – hayotdan judo bo`lish demakdir."**⁴ Tarix fan sifatida jamiyat taraqqiyotining ob`yektiv qonunlari haqidagi bilimlar tizimini o`zida mujassamlashtiradi, ularni tushunish jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini ko`ra bilishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham umuminsoniyat tarixi fanining tarkibiy qismi sifatida respublikamiz oliy o`quv yurtlarida fanlar sohalari bo`yicha tarixiy fanlar o`rganiladi. Masalan, iqtisodiyot oliy o`quv yurtlarida iqtisod tarixi, madaniyat oliy o`quv yurtlarida madaniyat tarixi, me`morchilik o`quv yurtlarida me`morchilik tarixi o`rganiladi. Mamlakatimizda Toshkent Davlat yuridik institutida, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida, universitetlarning huquqshunoslik fakultetlarida, yuridik kollejlarda ham davlat-huquqiy xarakteridagi tarixiy fanlar o`rganiladi. Davlat va huquq jamiyatga oid hodisalar bo`lib, jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismidir. Jamiyat tarixi va unga mos holda davlat va huquq tarixi uzluksiz rivojlanish jarayonidan iborat.

Mazkur fanni va o`quv kursini o`rganishga kirishishdan oldin uning tarixiga bir nazar tashlasak.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi deyarli barcha rivojlan-

⁴ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., "Sharq" NMK, 1998.- 5-, 9-. 10-betlar.

gan mamlakatlarda mustaqil fan sohasi sifatida o`rganiladi. g`arbda uni ko`pincha huquqning umumiy tarixi, huquq va huquqiy ta`limotlar tarixi va hokazo nomlar bilan yuritadilar. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi turlicha nomlar bilan ilmiy bilishning mustaqil sohasi sifatida XVIII asrning oxiri - XIX asrdan boshlab yashab kelmoqda. Tarixiy-huquqiy bilimlarni to`plashda dastlab Germaniyadagi tarixiy huquq maktabi katta rol o`ynagan. Uning Karl fon Savini (1779-1861 yillar), Georg Fridrix Puxta (1798-1846 yillar) va boshqa namoyondalari asosan rim va milliy german huquqi tarixi bo`yicha ilmiy tekshiruvlar olib borishgan. Mashhur nemis yuristi, Berlin universiteti professori, qonunlarni isloh qilish bo`yicha pruss ministri bo`lgan Savin`i Rim huquqi va fuqarolik huquqi bo`yicha ko`p asarlarning muallifi, tarixiy huquq maktabi boshlig`i sifatida shuhrat qozongan. Uning "Bizning davr qonunchilikka va huquqshunoslikka moyilligi haqida"gi (1814 yil) degan dasturiy asarida huquq qandaydir mistik va o`z-o`zidan rivojlanuvchi "xalq ruhi" sifatida talqin qilinadi. Savini german fuqarolik huquqini kodifikatsiya qilishga qarshi chiqqan. U bunga hali vaqt erta deb hisoblagan. Savining ko`rsatishicha, huquq davlat hokimiyatidan kelib chiqmaydi, shuning uchun davlat hokimiyati qonun chiqarishni o`rnatishi mumkin emas. Uning fikricha, yuristlarning vazifasi "xalq ongini" aniqlash va unga harakatdagi qonunlarni moslashtirish bo`lmog`i lozim. Savin`ining izdoshi, ishlarini davom ettirgan yana bir nemis yuristi G.Puxta bo`lib, u ham rim huquqi tarixiga, shuningdek fuqarolik va odat huquqiga bag`ishlangan qator asarlarning muallifi va tarixiy huquq maktabining taniqli vakili hisoblanadi.

Keyinchalik g`arbda turli mamlakatlarni va tarixiy bosqichlarni qamrab olgan ko`p tarixiy-huquqiy asarlar paydo bo`lgan. Masalan, Fransiyada - E.Labul va R.Darest, Angliyada - G.Men va G.Spenser, Germaniyada - A.Post, Rossiyada - P.G.Vinogradov va N.I.Kareyev va boshqalarning asarlari bu sohada muhim o`rin tutadi. Ingliz yuristi va huquq tarixchisi Genri Men (1822-1880 yillar) o`zining "Qadimgi huquq...", "Sharqda va g`arbda qadimgi jamoalar", "Muassasalarning eng qadimgi tarixi", "Qadimgi qonun va odatlar", "Qadimgi huquq tarixi bo`yicha tekshirish" kabi asarlarida hindu, qadimgi rim, german, qadimgi irland, slavyan xalqlarini o`rganish asosida ulardagi huquq rivojlanishining keng qamrovli manzarasini yaratishga harakat qilgan. Uning safdoshi, ingliz faylasufi va sotsiologi, pozitivizm "ota"laridan biri Gerbert Spenser (1820-1903 yillar) sotsiologiyada organik maktabning asoschisi hisoblanadi. U jamiyatning sinfiy tuzilishini va uning doirasida turli ma`muriy organlarning ajralib chiqishini kishi tanasi a`zolari o`rtasidagi funksiyalarning ajralishi bilan

taqqoslab tushuntiradi.

Rossiyada Pavel Gavrilovich Vinogradov (1854-1925 yillar) va Nikolay Ivanovich Kareyev (1850-1931 yillar) kabi taniqli olimlar jahon tarixiy-huquqiy fanlar rivojiga salmoqli hissa qo`shganlar. Tarixchi-pozitivist P.G.Vinogradov g`arbiy Yevropaning, ayniqsa Angliyaning o`rta asrlardagi tarixi bo`yicha muhim izlanishlar olib borgan. Uning "Italiyada feodal munosabatlarning kelib chiqishi" degan magistrlik dissertatsiyasida (1880 yil), "O`rta asrlarda Angliyaning sotsial tarixi bo`yicha tekshirishlar" degan doktorlik dissertatsiyasida (1887 yil), "Angliyada villanlik" degan monografik kitobida (1892 yil) feodalizmning kelib chiqishining german varianti ochib berilgan. Keyinchalik bosilib chiqqan "Manorning o`shishi" (1905 yil), "Angliyada o`rta asr pomestyesi" (1911 yil), "XI asrda Angliya jamiyati" (1908 yil) kabi asarlari Angliya davlati tarixini o`rganishda juda muhim ahamiyatga ega. Xuddi shuningdek, yana bir rus tarixchisi N.I.Kareyev o`zining "XVIII asrning oxirgi choragida Fransiya-da dehqonlar va dehqonlar masalasi" (1879 yil), "Eng qadimgi davrlardan 1789 yilgacha fransuz dehqonlari tarixi ocherki" (1881 yil), 7 jildli "Yangi davrda g`arbiy Yevropa tarixi" (1892-1917 yillar), 3 jildli "Fransuz revolyutsiyasi tarixchilari" (1924-1925 yillar) kabi asarlari bilan tarixiy-huquqiy masalalarga doir manbalarni boyitishga katta hissa qo`shgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida tarixiy-qiyosiy uslub davlat va huquq tarixini iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar kontekstida o`rganishga yordam berdi; tarixiy-huquqiy izlanishlarda pozitivizm o`rniga sotsiologik yo`nalish keldi. Bu yo`nalishning rivojlanishida rus olimi M.M.Kovalevskiyning, nemis huquq tarixchisi E.Neykampning, amerika yuristi O.Xolmsning va boshqalarning asarlari muhim bosqich bo`ldi.

G`arb adabiyotida XIX-XX asrlar davlati va huquqi tarixi masalalari bo`yicha juda katta faktik material to`plangan va umumlashtirilgan. Buning natijasida ko`p puxta va asosli ishlar chiqarish imkoniyati paydo bo`ldi. Bulardan nemis olimlari Y.Koler va L.Vagnerning ko`p jildli "Huquq tarixi" (1914 yil), amerikalik huquq tarixchilari D.Vigmar va U.Siglning "Huquqiy tizimlar manzarasi" va "Huquq tarixi" (1924 yil) kabi asarlari katta ahamiyatga ega.

Ikkinchi jahon urushidan keyin huquq va siyosiy institutlar tarixi bo`yicha fransuz olimlaridan J.Ellyul, R.Monye, J.Imber, F.Garrison va boshqalar qator yirik asarlar e`lon qildilar. Tarixiy-huquqiy muammolarni yoritishda qiyosiy huquqshunoslik fanining vakillari (R.David va boshqalar) ma`lum hissa qo`shganlar. Tarixiy-huquqiy izlanishlarning rivojlan-

ishi g'arbiy Yevropa va AQShda qator universitetlarda milliy, shuningdek, xorijiy huquq tarixi bo'yicha yoki huquq va siyosiy institutlar tarixi bo'yicha maxsus kurslarning kiritilishiga imkon yaratdi. Bunday kurslarni joriy etishga bo'lgan harakat Rossiyada XIX asrning boshlarida ilk marta qilingan edi. Masalan, 1804 yilda Moskva universiteti professori P.Svetayev "Mashhur qadimgi va hozirgi xalqlarning huquqi" bo'yicha ma'ruza o'qigan, XX asr boshida esa (1907-1908 yillarda) professor V.G.Sheglov umumiy huquq tarixi bo'yicha bir necha marta kitoblar nashr ettirgan.

O'zbekistonda Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi mustaqillikka qadar Moskvada tuzilgan dasturlar asosida, rus tilida chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha o'rganib kelindi. 1979 yilning may oyida Moskvada bo'lib o'tgan davlat va huquq umumiy tarixining metodologik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-koordinatsion kengashda mazkur fanning o'qitilishini yanada takomillashtirish haqida alohida qayd etildi. Jumladan, unda so'zga chiqqan professor P.N.Galanza (Moskva) davlat va huquq tarixini bir-biridan ajratmay, bir-biriga bog'liq holda tushuntirish, bu fanning hajmini qisqartirish, dasturini yangilash haqida, professor V.A.Starodubskiy (Sverdlovsk) talabalarga faqat jahon miqyosida yetakchi rol o'ynagan tipik shakldagi davlat va huquq tarixini, shuningdek, u yoki bu huquqshunoslik tushunchasining qanday vujudga kelganligini tushuntirish mazkur fanning muhim vazifasidir, degan muhim fikrni bildirdilar⁵.

Hozirgi kunda, O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli sub'yekti sifatida xalqaro maydonga erkin chiqa boshlagandan so'ng, o'zbek tilida Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini xolisona o'rganishga asoslangan darsliklar va o'quv qo'llanmalari tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lindi.

O'zbekistonda mustaqillikka qadar huquqshunoslik fanlarini o'qitishni takomillashtirish maqsadida respublikamiz olimlari tomonidan o'zbek tilida bir qancha o'quv qo'llanmalari hamda darsliklar yaratilib, ko'p yillik tajribalar umumlashtirilgan. Bu sohada ayniqsa X.S.Samatova, O'.M.Ahmadjonov va Z.Muqimovlar bir qancha ishlarni amalga oshirganlar⁶.

Ular tomonidan yozilgan qo'llanmalar talabalarning mazkur fanni o'zbek tilida o'zlashtirib olishlariga yaqindan yordam berib kelgan. Ayni

⁵ **Qarang:** Методология историко-правовых исследований.-М.:Госюриздат,1980. - 183-184-betlar.

⁶ Samatova X.S., Ahmadjonov O'.M. Chet mamlakatlar davlat va huquq tarixi. O'quv qo'llanmasi. - T., 1960; Ahmadjonov O'.M. Eksploatator sinflar davlat va huquqining tarixiy tiplari. Ma'ruzalar matni. T., 1969; Z.Muqimov. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O'quv qo'llanmasi. - Samarqand, 1992.

vaqtda ushbu qo`llanmalar ancha noyob bo`lishi bilan bir qatorda biroz eskirib qolgan. Ularda davlat va huquq tarixi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo`linish asosida faqat markscha-lenincha nazariya hukmronligi mavqei asosida yoritilgan. Bular, albatta, qizil imperiya sharoitida bundodga kelganligi bois shunday edi. Endilikda yangi davr talabiga javob beradigan, davlat va huquq tarixini xolisona va atroflicha yoritib beradigan puxta va mukammal darsliklar yaratish hozirgi kun huquqshunoslik fanining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

2. Fanning vazifasi, predmeti va ahamiyati

"Umuman, - deb ta'kidlaydi I.Karimov, – men fanni ilg`or, taraqqiyot, progress degan so`zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kuni-mizning yo`nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo`lishini ko`rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo`lmagan millatning kelajagi yo`qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg`a siljituvchi kuch, vosita bo`lmog`i lozim."⁷

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini bilish avvalo hozirgi davlatchilikning mohiyatini chuqur anglash va uni kelajakda rivojlanishining asosiy yo`nalishlarini oldindan aytib bera olish uchun kerak.

Hozirgi voqelik o`tmishdan va kelajakdan mutlaqo ajralib qolmagan. U faqat yangi, tarixdagi yangi bosqichdir.

Hozirgi davlat va huquq tarixini bilish uchun ularning qanday kelib chiqqanligini, o`z rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o`tganligini, ularning paydo bo`lishiga, tashkil topishiga, rivojlanishiga, shakli va mazmunining o`zgarishiga qanday sabablar ta'sir ko`rsatganligini bilish juda muhim.

Ushbu fanning asosiy vazifasi – xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va uni alohida mamlakatlardagi xususiyatlarini ochishdan iboratdir. Mazkur fanda barcha xalqlarning davlati va huquqi tarixi uchun tipik bo`lgan davlat va huquq tarixi, shuningdek alohida o`ziga xos bo`lgan mamlakatlarning davlati va huquqi tarixi o`rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi davlatchilik tarixiga eng ko`p ta'sir etgan mamlakatlarning davlati va huquqining kelib chiqishi, rivojlanishi, amal qilishini tekshiradi, ma'lum vaqtda va muhitda rivojlanadigan

⁷ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q- T.. "Sharq" NMK, 1998.- 25-bet.

davlat-huquqiy jarayonlarning mazmunini tahlil qiladi, ularning o`ziga xos sabab-oqibat aloqalarini tekshiradi va muayyan-tarixiy qonuniyatlarini ochib beradi.

Bu fan umumiy tarixdan farq qilib, jamiyatni to`la va butunligicha o`rganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalarning murakkab tizimining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquq, uning alohida sohaları va institutlarining kelib chiqishi va taraqqiy etishi jarayonini o`rganadi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi, davlat va huquqqa, xususan, ularning ma`lum rivojlanish bosqichidagi ko`rinishlari, shakllari va rivojlanish jarayonlariga muayyan-tarixiy yondashar ekan, juda ko`p dalillarga, siyosiy hayotning aniq hodisalariga, davlatlar, hukumatlar, sinflar, tabaqalar, partiyalar va boshqalar faoliyatiga tayanadi. Biroq davlat va huquq tarixi davlat va huquqning o`tmishi haqidagi bilimlarni yig`ish bilanlangina cheklanib qolmaydi. U o`z oldiga davlat va huquqning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashni asosiy vazifa qilib qo`yadi.

Davlat va huquq rivojlanishining muayyan-tarixiy qonuniyatlari jamiyat rivojlanishi qonuniyatlariga qaraganda o`ziga xos xususiyatlarga ega. Zero, davlat va huquq jamiyatda alohida o`rin tutadi, nisbatan mustaqillikka ega.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi yuqoridagi muammolarni tekshirish bilan to`xtab qolmaydi. U muhim muammolar qatorida inson va fuqarolar huquqlari, hokimiyatlar taqsimlanishi, parlamentarizm, xususiy va ommaviy huquqning asosiy institutlarini kelib chiqishi va rivojlanishini o`rganadi. U o`tmishda erishilgan yutuqlardan o`rnak olishga imkoniyat yaratadi, shuningdek yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka o`rgatadi.

Shunday qilib, Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi dunyoning alohida mamlakatlari davlati va huquqini ularning vujudga kelishi va ma`lum muayyan-tarixiy sharoitda rivojlanishini xronologik izchilikda, bu jarayonlarning umumtarixiy qonuniyatlarini, shuningdek muayyan jamiyatlar rivojlanishida muhim bo`lgan, ayrim tarixiy bosqichlar doirasida harakat qiluvchi qonuniyatlarni aniqlash asosida o`rganadi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini o`rganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Tarixni ko`pincha xalqlar xotirasi deb ataydilar, u jahon ijtimoiy tajribasining ulkan laboratoriyasi hisoblanadi. Davlat va huquq tarixi o`zining bilishdagi ahamiyati, informativligi bilan tarixiy ongning shakllanishida samarali quroldir. Bu fan faqat davlat va huquq tarixini chuqur anglash imkoninigina berib qolmay, davlat va

huquqning yanada rivojlanishi haqida oldindan aytib beradi. U umuman yuristlarni, xususan, mustaqil O'zbekistonning XXI asr huquqshunoslarini iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirish, siyosiy hayotni yanada demokratlashtirib borish hamda inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy davlat barpo etish hamda fuqarolar jamiyatini qaror toptirish sohasidagi samarali faoliyatlarida zarur bilimlar bilan qurollantiradi.

3. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixining yuridik va ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni

Davlat va huquq tarixi davlat va huquqni bir butun holda olib, bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan ijtimoiy hodisalarni o'rganadi. Davlat va huquq tarixi har qaysisi alohida bo'lgan davlat tarixining va huquq tarixining mexanik ravishda qo'shilishi emas. Davlat va huquq tarixi bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq va o'zaro aloqador. U yuridik fanlarning muhim poydevori hisoblanadi. Davlat va huquq tarixi keng tarixiy va daliliy materiallarga asoslanib, bu materiallarni umumlashtirib va sintez qilib, davlat va huquqning vujudga kelishini: davlat va huquq turlarining izchil ravishda biridan keyin ikkinchisi kelishini, buning sabablarini, turli xil tarixiy turdagi va bosqichdagi davlatlar va huquqning mohiyati, mazmuni va shakllarini, turli rivojlanish bosqichidagi va turli shakldagi davlatlarning o'ziga xos tomonlarini; huquqiy manbalarning paydo bo'lishi, tuzilishi, amal qilishi, shakllari, qo'llanilishi, ularda mustahkamlangan huquq sohalari va institutlarining mohiyatini va shu singarilarni ochib beradi. Davlat va huquq tarixi o'rganadigan masalalar yuridik fanlar tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Zero, yuqorida aytilgan barcha fikrlar davlat va huquq nazariyasiga ham to'laligicha taalluqlidir. Davlat va huquq tarixi ana shu jihatlari bilan davlat va huquq nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Lekin davlat va huquq nazariyasi faqat o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan fan sohasiga ega bo'lib, o'sha jihati bilan davlat va huquq tarixidan farq qiladi. Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasi ham davlat va huquqning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Lekin davlat va huquq nazariyasi mantiqiy uslub yordamida tarixiy jarayonni abstrakt (mavhumiy) shaklda, har qanday tarixiy tasodiflardan holi tarzida aks ettiradi. U o'zining umumhuquqiy tushunchalari va toifalari tizimini ishlab chiqadi. Bunday tushuncha va toifalardan biz o'z navbatida davlat va huquq tarixi o'quv kursida keng foydalanamiz.

Davlat va huquq tarixi davlat va huquq nazariyasidan farqli o'laroq, davlat-huquqiy institutlarni va hodisalarni xronologik izchillikda va

ma'lum tarixiy muhitda rivojlanishining muayyan jarayonlarini o'rganadi. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi davlat-huquqiy jarayonni uning makon va zamonda belgilangan tarzda tekshiradi va muayyan-tarixiy qonuniyatlarni aniqlaydi. Davlat va huquq nazariyasi tarixiy-huquqiy izlanishlarning ilmiy natijalariga tayanib, davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va harakat qilishining eng umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va ochib beradi. Natijada davlat-huquqiy jarayonlarning mohiyatini ilmiy asoslangan tarzda ochish bu fanlarning o'zaro aloqasini nazarda tutadi.

Tarix o'tmishni o'rgansa, nazariya hozirgi davrni va kelajakni o'rganadi, tarix tarixiy material bilan bog'langan bo'lsa, nazariya ham tarixiy material bilan, shuningdek, davlat va huquqning hozirgi ahvoli bilan ham bog'langandir. Umuman olganda, nazariyasiz tarix, tarixsiz nazariya bo'lmaydi.

Yuqorida aytilganlar to'laligicha Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixining siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi bilan o'zaro aloqasiga ham taalluqli. Zero, siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan davlat va huquq haqidagi g'oyalar taraqqiyotini o'rganar ekan, bunda davlat va huquqiy ta'limotlarning kelib chiqishi va rivojlanishini, ijtimoiy samaradorligini ularning tarixiy muayyanlikda va xronologik izchillikda o'rganadi. Bu muammolarning davlat va huquq tarixini o'rganishga nisbatan ahamiyati, avvalo shu bilan belgilanadiki, ularni o'rganuvchilar, odatda, ma'lum g'oya va nazariyalarga, ta'limotlarga asoslanadilar.

U yoki bu mamlakatda ma'lum tarixiy zamonda hukmron bo'lgan g'oyaviy-nazariy yo'l-yo'riqlar xilma-xildir, shuningdek, nisbatan mustaqil hamdir. Shu bois ularning o'rganilayotgan mamlakatlarning davlat-huquqiy institutlari rivojlanishiga qay darajada va qanday ta'sir etganligini aniqlash muhimdir.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani bilan ham chambarchas bog'liq. Ularning har ikkisi ham tarixiy-huquqiy fan oldida turgan vazifalarni birgalikda hal qiladi, lekin o'rganadigan masalalari doirasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi hamda O'zbekiston davlati va huquqi tarixi Davlat va huquq nazariyasi va Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi bilan birgalikda tarmoq yuridik fanlarning nazariy, agar keng ma'noda aytadigan bo'lsak, gnoseologik asoslarini tashkil etuvchi nazariy-tarixiy guruhini vujudga keltiradi. Ular yurisprudensiyaning tushunchalarga oid apparatining muhim tarkibiy qismini ifodalaydi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi, shuningdek, boshqa ijtimoiy fanlar: umumiy tarix, falsafa, iqtisod nazariyasi, mantiq kabi fanlar bilan ham yaqin va mustahkam bogʻlangan. Ayni vaqtda bu fan ulardan farq qiladi.

Mazkur fan umumiy tarixdan farq qilib, jamiyatni toʻla va butunligicha oʻrganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalar murakkab tizimining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquqning kelib chiqishi va taraqqiy etishi jarayonini oʻrganadi. Shuni yodda tutmoq lozimki, umumiy tarixda oʻrganiladigan baʼzi masalalar (masalan, urushlar, madaniy rivojlanish, sulolalar tarixi va boshqalar), agar davlat va huquqda oʻzgarishlarga sabab boʻlsagina, davlat va huquq tarixining predmetiga taalluqli boʻlib qoladi. Aks holda, davlat va huquq tarixi unday masalalar bilan maxsus shugʻullanmaydi.

Maʼlumki, falsafa bizni tabiat va jamiyatga qarashlar tizimi bilan qurollantiradi. Bu tizim ularning rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarni tushuntiradi. Falsafaning ijtimoiy ongning materiyaga, borliqqa munosabati, bazis va ustqurmaning bir-biriga munosabati, ustqurmaning faol, koʻmakchilik roli toʻgʻrisidagi va boshqa xulosalari davlat va huquq tarixiga bevosita taalluqlidir. Falsafa fani davlat va huquqni umumiy tarzda, ijtimoiy toifa sifatida koʻrib chiqadi.

Davlat va huquq tarixi kursi jamiyat iqtisodiy qonunlarining amal qilishini hamda moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlarini oʻrganuvchi iqtisod nazariyasi bilan ham yaqindan bogʻlangandir. Moddiy hayot sharoitlari davlat va huquqni rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Iqtisod nazariyasi jamiyatning iqtisodiy bazisini oʻrgansa, Davlat va huquq tarixi iqtisodiy bazisdan kelib chiqadigan davlat va huquqni oʻrganadi.

Davlat va huquq tarixi mantiq fani bilan ham chambarchas bogʻliq. Chunki davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi, ularning bir shakldan boshqa shaklga oʻtishi singari masalalar soʻzsiz mantiq qoidalariga boʻysunadi.

Shu oʻrinda davlat va huquq tarixi fanining arxeologiya, semantika fanlari (tillarning kelib chiqishi haqidagi fan) bilan boʻlgan aloqasini ham alohida koʻrsatib oʻtmoq lozim. Davlat va huquq tarixi ana shu fanlar boʻyicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar, arxeologik qazilmalar natijasida yangi materiallarga ega boʻladi, ularni tarixiy-huquqiy tahlil qiladi. Masalan, agar fransuz olimi M.Shompalyon Misr mix xatlarini oʻqish usulini topmaganda yoki Jenulyak ekspeditsiyasi podsho Xamurappi qonunlarini ochmaganda, biz Misr va Bobil davlatlari qonunchiligi

bo'yicha juda kam ma'lumotga ega bo'lgan bo'lur edik, deb bejiz ta'kidlamaydi Z.Muqimov.⁸

Shunday qilib, Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi boshqa yuridik va ijtimoiy fanlar bilan bog'liq ekanligini va u o'z qiyofasi, o'z predmeti va o'z xususiyatlariga ega ekanligini qarab chiqdiki, bu hol mazkur o'quv kursini o'rganishda yanada aniqroq va to'laroq namoyon bo'ladi.

4. Fan o'rganadigan masalalarni tekshirish usublari

Har qanday fanning asosiy vazifasi o'zi o'rganayotgan narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini ochib berishdan iborat. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan har qanday fan o'z predmeti bilan birga tadqiqot usullariga ham ega. Har bir fan nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi sifatida tadqiqot jarayonida xilma-xil usullardan foydalanadi. Davlat va huquq tarixi sohasidagi ilmiy bilish tarixiy o'tmishdagi faktlar va voqealarni bayon qilishgagina olib kelmaydi. U bu faktlarning mohiyatini anglash va nazariy jihatdan tushunishni ko'zda tutadi. Bu esa o'z navbatida tekshirishning falsafiy va maxsus ilmiy usullaridan foydalanishni talab qiladi.

Davlat va huquqning murakkab, xilma-xil, rang-barang hodisalarining haqiqiy mazmunini, mohiyatini, rivojlanish qonunlarini bilishning aniq usullari mavjud bo'lib, ular ilmiy-tadqiqot va izlanishning yo'nalishini ifodalaydi. Bu yerda birinchi navbatda muayyan – tarixiy davlat-huquqiy hodisalarni, keng ma'noda tarixiy-huquqiy fanning poydevori hisoblangan tarixiy faktlarni bilish vositalari, usublari ko'rib chiqiladi.

Har qanday tarixiy voqeliklar tarixiy faktlar hisoblanadi. Ular bir-biridan ko'p tomonlari bilan farq qiladi. Tarixiy fakt sifatida faqat ayrim ko'rinishlar (masalan, me'yoriy hujjat) emas, balki ma'lum tarixiy jarayon, ya'ni o'zaro aloqador faktlar zanjiri ham to'laligicha maydonga chiqishi mumkin.

Faktlarni faqat har tomonlama va chuqur tahlil qilish asosida tarixchi-yurist o'tgan voqealarni "qayta tiklashi", o'rganayotgan hodisalarning qonuniyatlarini belgilovchi mohiyatini ochishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot jarayonida bilishning aniq shakli va usullaridan foydalanish orqali ilmiy bilimlar vujudga keladi, rivojlantiriladi. Har bir bilim tizimida ilmiy-tadqiqot jarayonida kelib chiqqan muammo yoki masalaning qo'yilishi va hal qilinishida maxsus usullardan foydalaniladi. Ular esa tarixiy aniq bilish jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Shuning uchun

⁸ Muqimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O'quv qo'llanmasi. - Samarqand: SamDU nashri, 1992. - 10-bet.

ham har bir fanning o'z predmeti va tadqiqot usuli mavjudki, ular o'zi o'rganayotgan ob'yektga nisbatan maxsus amaliy va nazariy tadqiqot usuli asosida yondashadi.

Hozirgi zamon jahon fani davlat va huquqning rivojlanish jarayonini turli mavqelardan turib tushuntirishga imkon beruvchi keng falsafiy ko'rsatmalar beradi. Tarixga monistik-materialistik qarashdan va metodologik plyuralizmdan⁹ voz kechish hozirgi O'zbekistondagi barcha ijtimoiy fanlarda bo'lganidek, Davlat va huquq tarixiga ham xosdir.

Turli mamlakatlardagi tarixiy-huquqiy adabiyotlarda davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishini tushuntiruvchi ko'pgina konsepsiyalar (qarashlar tizimi)ni ko'rish mumkin. Bunda diniy nazariyalar (neotomizm, islom fundamentalizmi)dan tortib markscha-lenincha va boshqa so'l radikal (davlat va huquq tarixini sinfiy kurashdan iborat deb ko'ruvchi) nazariyalar nazarda tutilmoqda.

Ma'lumki, mustaqillikka qadar asosan Moskvada chop etilib O'zbekistonda o'rganiladigan, shuningdek, O'zbekistonda chiqarilgan tarixiy-huquqiy adabiyotlarda ko'p yillar davomida jamiyatni markscha-lenincha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm)ga bo'lib o'rganish yagona hukmron nazariya bo'lib qolgan edi. Bu holat tarixni cheklangan tarzda va bir tomonlama o'rganishga sabab bo'lgan.

Yana shu narsa ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyotning markscha-lenincha nazariyasi dialektik va tarixiy materializm bo'lib, bunda tarixga idealistik nuqtai nazar bilan qarash keskin qoralanadi, tabiat va jamiyatni tasodiflar asosida rivojlanib boradi, deb tushuntiruvchi ta'limotlar qat'iy rad etiladi. Tarixga faqat materialistik nuqtai nazardan qarash insonni, uning ongi, ichki dunyosi va tajribasini ikkinchi o'ringa surib qo'yadi.

Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fanining yagona metodologik asosi- dialektik va tarixiy materializmdir deb hisoblash noto'g'ri. Uni o'rganishda boshqa qarashlar va nuqtai nazarlardan, xususan, xususiy, ilmiy, maxsus usulblardan foydalanish lozim.

Bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjud. Ko'pchilik fanlarda qo'llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Har bir aniq fanning o'zi qo'llaydigan xususiy usullari asosida bilim tizimi chuqurlashib borsa, umumiy usulni tadbiiq qilish orqali esa bilish doirasi yanada kengayib boradi.

Ilmiy bilishning hamma fan uchun tegishli bo'lgan umumiy usul-

⁹ Borliqning yoki bilim asoslarining bir necha yoki juda ko'p mustaqil boshlang'ichi mavjud deb da'vo qiluvchi soxta falsafiy ta'limot.

lariga analiz va sintez, induksiya va deduksiya, analogiya, mantiqiylik va tarixiylik, mavhumlikdan aniqlikka borish yoki, aniqlikdan mavhumlikka borish va boshqalar kiradi. Ilmiy bilishning bu usublari fan taraqqiyotida garchi umumiy hisoblansa ham, dialektik usulga nisbatan xususiy bo`lishi mumkin. Lekin bu usullar dialektik usul bilan bog`langan.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy-tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo`lib, ular o`zaro bir-biri bilan bog`liq. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo`lib, u barcha fanlar uchun, jumladan, tarixiy-huquqiy fanlar uchun ham metodologiyadir. Dialektik usul xususiy fanlar erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning usullari bilan birgalikda rivojlanadi, ular bir-birini to`ldiradi va boyitadi. Davlat va huquq tarixini o`rganishdagi bunday usul davlat va huquqdek ijtimoiy hodisaning mohiyatini jamiyat moddiy hayot sharoitlari bilan, iqtisodiy bazis bilan bog`lab o`rganishni ta`min etadi.

Dialektik usul davlat va huquq rivojlanadi, o`zgaradi, bir shakldan ikkinchi shaklga o`tadi, deb qaraydi. Davlat va huquqni o`rganish, bilish, tadqiq qilishning dialektik usuli - bu ilmiy bilimlar dunyosiga kirishning, davlat va huquqni bilishning asosiy kalitidir.

Dialektika hodisalarni rivojlanishda, boshqa hodisalar bilan aloqadorlikda, bir-biri bilan bog`liq holda, harakatda, miqdoriy va sifat o`zgarishida olib qaraydi. U real mavjud, muayyan vaziyatda, muayyan vaqtda va hududda vujudga kelgan. Binobarin, ularni tushunish uchun ularni vujudga keltirgan sharoitni, mavjud bo`lgan va yashayotgan davrni bilmoq kerak.

Shuni ham e`tiborga olish kerakki, davlat va huquq muayyan ijtimoiy kuchlar, ya`ni hukmron sinflar tomonidan yaratilib, keyin mustaqil kuchga, ustqurmaga aylanadi, shundan keyin o`zini vujudga keltirgan iqtisodiy bazisga ta`sir ko`rsatadi.

Davlat va huquq tarixini o`rganishda dialektik usul bilan bir qatorda tadqiqotning boshqa qator falsafiy umumiy usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Keling, shulardan ba`zilari bilan tanishib chiqaylik.

Ma`lumki, **analiz (tahlil qilish)da** o`rganilayotgan narsa va hodisa, fikr mayda bo`laklarga, ya`ni elementlarga bo`linadi va ular o`rtasidagi bog`lanishlar, o`zaro munosabat va ta`sir o`rganiladi. Tarkibiy qismlarni sintez qilish (umumlashtirish) uchun analiz qilinadi. Elementlarni yana qaytadan birlashtirganimizda analiz natijalari o`rganiladi. Turli mamlakatlarda yoki bir guruh mamlakatlarda (masalan, Sharq yoki antik dunyoda) davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Ana shunday ko`p qirrali, murakkab davlat va huquq hodisalarini o`rganish va bilish, ular to`g`risidagi tushunchalarimizni chuqur-

lashtirish uchun mamlakatlarning davlat va huquq tarixini alohida-alohida, tarkibiy qismlarga ajratib analiz qilish zarur bo`ladi. Lekin bu usul bilan davlat va huquq tarixini, uning alohida mamlakatlarda kelib chiqishi va rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini to`la bilish mumkin emas, shuning uchun u sintez yo`li bilan to`ldiriladi.

Sintez analizning natijalariga suyanib, davlat va huquqning butun sifatini, bir guruh mamlakatlardagi umumiy xususiyatlarini va alohida mamlakatlardagi o`ziga xos xususiyatini o`rganadi. Sintez analiz natijasida fikran bo`lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgari yo`q bo`lgan xususiyatlarini qaytadan yaratish usulidir.

Analiz tadqiqot jarayonida bilishning tayyorgarlik ko`rish bosqichi hisoblansa, sintez uni yakunlaydi. Analiz va sintez natijasida davlat va huquq tarixi bo`yicha umumiy tushuncha, muhokamalar tarkib topadi, ular yordamida davlat va huquq rivojlanishining o`ziga xos va umumiy sifatlari va muayyan qonuniyatlari aniqlanadi, shakllanadi.

Bilish jarayonida induksiya va deduksiyaning ham roli katta. Induksiya va deduksiya aqliy xulosaning asosiy shakli bo`lib, bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga tomon bo`lgan fikr harakatini ifodalaydi.

Induksiya ayrim fikriy bilishdan umumiy xulosalar chiqarishda qo`llaniladigan muhokama usulidir. Xususiylikni o`rganib, umumiylik bilib olinadi. Umumiylik narsa va hodisalar bilan uzviy aloqada bo`ladi. Bilishda induktiv usul asosida qonuniyatlar ochiladi, tushunchalar maydonga keladi. Bu usul davlat va huquq hodisalarining sababiy bog`lanishlarini tekshirish usuli hamdir. Fanimizda ushbu usuldan foydalanib, masalan, qadimgi Sharq davlatlarini alohida-alohida o`rganish asosida ularning barchasida jamoalarning roli kuchli bo`lganligi, doimiy irrigatsiya ishlari talab qilinadigan xo`jalikning mavjudligi, boshqarishni monarxiya shakli tanho hukmronligi (Sharq despotiyasi degan xulosa ham shundan kelib chiqqan), umuman, ularning ijtimoiy tuzilishida, davlat tizimida va huquqiy tizimida urug`chilik munosabatlarining qoldiqlari uzoq saqlanib qolganligi va hokazolar haqidagi umumiy xususiyatlarni bilib olamiz.

Deduksiya esa umumiylikdan xususiylikka olib boruvchi mantiqiy usuldir. Fandagi nazariyalar deduktiv usul natijasida yuzaga keladi. Bu usul asosan daliliy **materiallar** to`plash natijasida ularni chuqur o`rganish, tizimga solishda qo`llaniladi. Deduktiv usul turli shakllar: aksio-matik, gipotetik-deduktiv usul shaklida uchraydi. Deduktiv usul aqliy xulosa chiqarishning barcha shakllari bilan, birinchi navbatda, induksiya bilan bog`langandir. Davlat va huquq tarixi bir-biri bilan dialektik bog`liq bo`lib, bir-biri to`ldiradi. Shuning uchun ularni bir-biriga qarama-qarshi

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
Axborot-resurs markazi

Davlat 2663

qo'yish yoki ajratib qarash aslo mumkin emas.

Analogiya (moslik, aynanlik, o'xshashlik) usulida davlat va huquq rivojlanishining turli mamlakatlardagi biror xususiyatlarining o'xshashligini o'rganamiz. Bu usul yordamida ikki yoki bir necha mamlakatning ayrim olingan davrda yoki turli rivojlanish bosqichlaridagi davlati va huquqi rivojlanishining o'xshash xususiyatlari o'rganiladi.

Tarixiylik va mantiqiylik davlat va huquq taraqqiyoti jarayonining muhim xususiyatlarini bilish usullaridir. **Tarixiylik usuli** davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanib borishi aniq vaqtini, davrini bilish usulidir. Har bir davlat-huquqiy hodisani tarixiy nuqtai nazardan, aniq tajriba asosiga bog'lab o'rganmoq zarur. Tarixiylik usulining o'ziga xos xususiyati tarixiy harakatni uning butun boyligi bilan payqab olishga intilishdir. Davlat va huquq tarixini ochib berish uning taraqqiyotidagi asosiy tarixiy bosqichlar, ularning sabab-oqibat aloqalarini ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Buning uchun esa uning mohiyati haqida nazariy bilim bo'lishi kerak.

Mantiqiylik usuli predmetning nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. U tadqiqot ob'yektining eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi.

Mantiqiy bilish usuli davlat va huquqning tarixan ob'yektiv real mavjudligini, ularning o'zaro aloqalarining butun rang-barangligini aks ettirish vazifasini bajaradi. Tafakkur uslubi orqali vujudga kelgan nazariy bilimlar nisbatan tugallangan bilimlar tizimi bo'lib, o'z taraqqiyoti jarayonida o'zgarib boradi. Mantiqiy tafakkur uslubida ko'r-ko'rona harakat bo'lmaydi, balki bilimlar umumlashtiriladi, bu uslub ayniqsa tarixiylikni tasodifiy chetlashishlardan saqlaydi.

Tadqiqotning tarixiylik va mantiqiylik usullari – o'zaro dialektik bog'lanishda. Tarixiylik va mantiqiylik dialektik birlikda aniq tarixiy bilimlar asosida davlat va huquq tarixining asosiy yo'nalishlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi.

Biz yuqorida davlat va huquq tarixini o'rganishda qo'llaniladigan ba'zi umumiy usullarnigina ko'rib chiqdik xolos. Zero, davlat va huquq tarixini tadqiq qilishda **kuzatish, o'lchash, abstraksiya (mavhum tasavvur), modellashtirish, aniqlik, tasavvur, aksiomatik va boshqa umumiy falsafiy usullar** ham qo'llanilishi mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, bu usullar boshqa fanlar uchun ham tekshirishning umumiy usullari bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, davlat va huquq tarixini o'rganishda juda muhim bo'lgan ayrim **xususiy tadqiqot usullari** ham mavjud bo'lib, ular

ustida alohida to`xtab o`tish kerak.

Hozirgi zamon ilmiy bilish jarayonida keng qo`llaniladigan usul – **tizimlash usulidir**. U murakkab ob`yektlarni ilmiy bilishda qo`llaniladi. Tizimlash usuli muayyan tarzda o`zaro bog`langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan unsurlar majmuini o`rganishni o`z ichiga oladi. Mazkur usul asosida o`rganilayotgan yoki izlanilayotgan ob`yektning boshqa ob`yekt bilan umumiy bog`lanishlari, munosabatlari ochiladi. Har bir tadqiqot ob`yekti va uni tashkil etuvchi unsurlar bir butun tizim deb olinsa, shu tizimni tashkil etuvchi har bir unsur bir-biri bilan o`zining tutgan o`rni, vaqti va imkoniyatlariga ko`ra funksional bog`langan. Bu unsurlardan birining o`zgarishi ikkinchisining ham o`zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham ularni o`rganish tizimlash usuliga asoslanadi. Har bir tizimni o`rganishda uni boshqa tizimlar bilan birgalikda olib qarash kerak. Lekin bu tizimlarni birdaniga, bir vaqtda bilish mumkin emas, lekin ularni bilish, bir-biridan ajratish, o`zaro bog`liqlikda olib qarash mumkin. Demak, davlat va huquq o`z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridanoq ancha murakkab ijtimoiy qurilmalar bo`lgan ekan, tarixiy-huquqiy izlanishlarda ularni tizimlash yo`li bilan tahlil qilish samarali uslubdir. Zero, bu uslub yordamida davlat va huquqning o`zaro bog`liq murakkab butun tuzilishidan uning alohida, o`ziga xos, takrorlanmas, shuningdek, umumiy xususiyatlarga ega bo`lgan tarkibiy qismlarini ajratib olish mumkin bo`ladi.

Qiyosiy-tarixiy usul - bilish faoliyatida tadbiq qilinadigan muhim usul bo`lib, bilimlarning shakllanishi, rivojlanishida alohida bir bosqichdir. Ob`yektiv reallikdagi narsa va hodisalarni "qayta o`rganish" jarayonida ma`lum bo`lgan bilimlar bilish amali bajarilayotgan vaqtda olingan bilimlar bilan taqqoslanadi. Izlanuvchi avvalgi ma`lum bilimlarga tayangan holda izlanayotgan ob`yektga xos bo`lgan o`xshash va farqli tomonlarni taqqoslash orqali aniqlaydi. Taqqoslash bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisadan farqli va o`xshash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o`rganish usuli hisoblanadi. Qiyosiy-tarixiy usuldan foydalanish davlat va huquq rivojlanishining bir vaqtning o`zida yoki turli tarixiy bosqichlarda, lekin turli mamlakatlardagi ba`zi umumiy qonuniyatlarini va mos tushadigan belgilarini aniqlashga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qiyosiy-tarixiy usul ayrim mamlakatlarning davlat-huquqiy qurilishidagi umumiy va o`ziga xos tomonlarini bilish va shu asosda davlat va huquq taraqqiyoti qonuniyatlarini ta`riflash va aniqlash imkoniyatini beradi. Chunonchi, turli mamlakatlarda davlat va huquqning paydo bo`lish jarayonlarini bir-biriga taqqoslab, turli xalqlarda bu jarayonning umumiy qonuniyatlari va o`ziga xos tomonlari borligini bilib olamiz.

Davlat va huquq tarixini o`rganishda ayniqsa **muayyan-tarixiy yondashuv usuli** katta ahamiyatga ega. Bu davlat va huquqqa ularning o`ziga xos va takrorlanmas sharoitlarda vujudga kelishi va rivojlanishini, qator hollarda esa u yoki bu davlat yoki huquqiy tizimning noyobligini ko`rib chiqishni nazarda tutadi.

Statistik usuldan tarixiy jarayonning son-miqdor tomonlarini tadqiq qilishda, aniqrog`i, o`rganish ob`yekti ko`pdan-ko`p son ko`rsatkichlaridan iborat bo`lgan vaqtda foydalaniladi. Tadqiqotning bu usulidan foydalanish muhim masalalarni aniqlashda juda qo`l keladi. Masalan, rivojlanishning uzoqqa cho`zilganligini, keng tarqalganligini, sur`atlarini va boshqa ko`p tomonlarini statistik usul asosida o`rganish yaxshi natijalar beradi. Statistik usul tadqiqotchiga tasodifiy hodisalardan eng zarurlarini ajratib olishga, ommaviy hodisalar bilan bog`liq ma`lum jarayonlarning qonuniyligini aniqlashga yordam beradi va hokazo.

Davlat va huquq tarixini o`rganishga yuqorida ko`rsatilgan tadqiqot usullarining hammasidan foydalangan holda kompleks yondashish fanning mohiyatini to`liq ochishga yordam beradi.

5. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo`lib (sistemaga solib) o`rganish

O`quv kursi materiali xronologik izchillikda joylashtirilgan. Ma`lumki, adabiyotlarda insoniyat jamiyati tarixini quyidagi asosiy davrlarga: qadimgi dunyo, o`rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr (XX asr)ga bo`lib o`rganish qabul qilingan. Ushbu davrlarning har biri davlat va huquqning rivojlanishidagi alohida tarixiy bosqich hisoblanadi. Mazkur o`quv kursi ilgari rus va o`zbek tillarida chop etilgan o`quv kurslaridan farq qilib, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo`lishga asoslangan markscha-lenincha nazariyaga tayanmaydi. Unda alohida mamlakatlarda, ayniqsa Sharqda qadimgi va o`rta asrlar jamiyatining rivojlanishi alohida yo`llar bilan borganligi, u yerdagi qulchilik munosabatlarining antik qulchilikdan farq qilishi, g`arbdagi feodal jamiyatlar o`ziga xos yo`llar bilan rivojlanganligi hisobga olinadi.

O`quv kursida quldorlik, feodal, burjua tuzumlari degan tushunchalardan faqat sof metodik maqsadlardagina, ya`ni qadimgi davr davlati va huquqini davrlarga bo`lish zaruriyati nuqtai nazaridan shartli ravishda foydalanilgan.

Umuman davlat va huquq tarixini davrlarga bo`lishda davlatlarning madaniyatga erishganligi, tarixiy-siyosiy, mafkuraviy va boshqa muhim omillari hisobga olingan.

Mazkur o`quv kursida u yoki bu xalqlarning dini, mafkurasi, noyob tomonlarining qadimgi davr davlati va huquqi rivoji uchun ta'siriga katta e'tibor berilgan.

O`quv kursida davlat va huquq masalalariga beriladigan tavsif quyidagi tizimga asosan bayon qilinadi:

1. O`rganilayotgan davlatning tashkil topishi (kelib chiqishi, paydo bo`lishi, o`rnatilishi, e`lon qilinishi).

2. Uning ijtimoiy tuzumi, ya'ni sotsial anatomiyasi.

3. Uning davlat tuzumi - davlatning tipi, boshqarish shakli, tuzilishi, mexanizmi, armiyasi, politsiyasi va sud tuzilishi hamda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari.

4. Huquqning asosiy belgilari - huquq manbalari, sohalari va institutlari.

Ushbu tizimdan chetga chiqish faqat ba'zi hollardagina yuz berishi mumkin. Masalan, alohida mamlakatlarning davlati va huquqi rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlardan, shuningdek, ba'zi mamlakatlar davlati va huquqi o`rganilayotganda yuqoridagi elementlardan birortasi haqida to`liq ma'lumotlar bo`lmagan holatlardan kelib chiqib, o`rnatgan tizimimizdan chetga chiqishimiz mumkin.

Shuni alohida qayd etib o`tmoq lozimki, sulolalar, qo`zg`olonlar, urushlar, ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va hokazolar tavsifi Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi kursining mavzuiga kirmaydi. Lekin bular davlat va huquqda o`zgarishlar bo`lishiga ta'sir etsa u holda bu masalalar ham fanimiz predmetiga aylanishi mumkin.

MUQADDIMA BO`LIM

DAVLAT VA HUQUQ TARIXIDAN OLDINGI DAVR

1. Ibtidoiy jamiyat va davlat paydo bo`lgunga qadar mavjud bo`lgan ijtimoiy boshqarish shakllari

Insoniyat tarixi ikki asosiy davrga: ibtidoiy jamiyat va sivilizatsiyaga bo`linadi. Insoniyat rivojlanishining dastlabki (boshlang`ich) va qonuniy bosqichi hisoblangan ibtidoiy tuzum juda uzoq vaqt, hozirgi zamon fani ma`lumotlariga qaraganda, ikki million yildan ortiq vaqt hukm surgan. Ibtidoiy jamiyat tarixi odamzodning paydo bo`lishidan to davlatning tashkil topishigacha bo`lgan davrni o`z ichiga olib, bu vaqtda hali davlat va huquq bo`lmagan edi. Lekin davlat va huquqning paydo bo`lishi jarayoni aynan shu davrdan boshlanadi. Hali davlat va huquq mavjud bo`lmagan jamiyat tarixini o`rganish insoniyat taraqqiyoti boshlang`ich bosqichining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Davlat va huquqni vujudga keltirgan tarixiy sharoitlar va sabablarni bilish ularni yanada rivojlantirishning konkret usullarini topishga yordam beradi.

Insoniyat tarixida eng uzoq umr ko`rgan va rivojlanishning katta yo`lini bosib o`tgan ibtidoiy jamiyatning sotsial-madaniy qiyofasi va xo`jaligi tobora o`zgarib, taraqqiy etib borgan. Hozirgi zamon fanida insoniyatning eng qadimgi tarixini davrlarga bo`lishga olimlar turlicha yondashadilar. Ibtidoiy jamiyat tarixi bo`yicha yagona davrlashtirish mavjud emas. Tarixchilar, arxeologlar, geologlar uni o`zlaricha turli davrlarga bo`ladilar. Tarixchilar o`z davrlashtirishida ijtimoiy munosabatlar xarakteriga asoslanib ibtidoiy jamiyat tarixini ikki bosqichga: 1) ibtidoiy gala bo`lib yashash bosqichi (urug`chilik jamiyatidan ilgarigi jamiyat)ga va 2) urug` jamoasi (ona urug`i va ota urug`iga ajratiladigan urug` jamoasi) bosqichiga bo`ladilar. Arxeologlar esa moddiy madaniyat yodgorliklarini qurollar yasash materiali va texnikasiga qarab klassifikatsiya qilib, ibtidoiy jamiyat tarixini arxeologik nuqtai nazardan davrlashtiradilar. Ular qadimgi jamiyatni tosh asri, bronza asri va temir asriga, asrlarni esa qurollarning xillari va yasash texnikasiga qarab zamonlarga bo`ladilar. Masalan, tosh asri uch zamonga: 1) paleolit (qadimgi tosh), 2) mezolit (o`rta) va 3) neolit (yangi) zamonga bo`linadi. Zamonlar davrlarga (ilk va keyingi davrlarga) bo`linadi va hokazo. Lekin arxeologik davrlashtirish o`zining barcha afzalliklariga qaramay, ijtimoiy munosabatlar evolutsiyasini mutlaqo aks ettirmaydi. Buning ustiga, kishilarning ijtimoiy munosabatlari xarakterini mehnat qurollariga qarab aniqlab bo`lmaydi, chunki ayni bir arxeologik davrda turli xalqlar har xil ijtimoiy tuzumga ega bo`lganlar. Chunonchi,

bronza davrida Misr va Janubiy Osiyo xalqlari o`zlarining davlatchiligiga ega bo`lgan bo`lsa, Yevropa xalqlari esa ayni zamonda urug`chilik tuzumi bosqichida yashagan.

Davlat va huquqning vujudga kelishi ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini tushunish uchun ibtidoiy jamiyatdan ikki asosiy bosqich: o`zlashtiruvchi xo`jalik va ishlab chiqaruvchi xo`jalik bosqichini ajratib olish juda muhim ahamiyatga ega. O`zlashtiruvchi xo`jalik (terib-termachlash, ovchilik, baliqchilik)dan ishlab chiqaruvchi xo`jalik (dehqonchilik, chorvachilik)ka o`tish neolit davriga to`g`ri kelib, bunga neolit inqilobi deyiladi. Bu davr taxminan miloddan avvalgi VIII-III minginchi yillarga to`g`ri keladi.

O`zlashtiruvchi xo`jalik bosqichida hali insonning o`zini bioijtimoiy mavjudot sifatida tashkil topish jarayoni davom etgan. Bu davrda odamlar eng sodda tosh qurollardan foydalanganlar va asosan tabiatning tayyor ne`matlarini o`zlashtirish (termachilik, ovchilik, baliqchilik) hisobiga yashaganlar. Ular ko`chmanchilik (daydib yurish) hayot tarzini boshdan kechirib, yo`lboshchilar rahbarligi ostida ma`lum joy bilan chegaralangan va alohida (ajralgan) kichik-kichik guruhlarga birlashgan edilar. Bu madaniy-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning qoloq, past darajasini aks ettiruvchi sodda va primitiv ijtimoiy tashkilot shakli edi. Adabiyotlarda uni ibtidoiy to`da yoki ibtidoiy jamoa deb yuritiladi.

Ibtidoiy jamiyatning ichki hayoti tartibsiz bo`lib ko`rinsa ham, unda nafaqat o`z-o`zidan, tashqi ta`sirsiz, tasodifan vujudga keladigan jarayonlar, balki oldindan o`rnatib qo`yiladigan qoidalar, ta`qiqlar, mezonlar va boshqa yurish-turish me`yorlari bilan tartibga solinadigan jarayonlar ham mavjud edi.

Jamoa ichidagi munosabatlar egalitar¹⁰ xarakterga ega bo`lgan.

Tenglik asosan oziq-ovqat va boshqa resurslarni taqsimlash jarayonida namoyon bo`lgan. Bunday tenglik asosida jamoaga xos bo`lgan xotirlarni, oziq-ovqatlarni, mehnat qurollarini teng qiymatli ayirboshlash yotardi. Qadimiy kishilar jamoasidayoq yo`lboshchining guruhning boshqa a`zolari ustidan chinakam hokimligi yuzaga kelgan edi. Jamoa a`zolari yo`lboshchining irodasiga bo`ysunishni me`yor sifatida qabul qilgan edilar.

Shunday qilib, ibtidoiy jamoaning uzoq davom etgan evolutsiyasi jarayonida tug`ma instinktlar o`z o`rnini ijtimoiy-madaniy turmush tarziga, ya`ni ijtimoiy aloqalar tizimiga bo`shatib bergan. Bu esa insoniyat jamiyatining mavjudligi va yanada taraqqiy etishi uchun imkon tug`dirgan.

Nikoh – jinsiy munosabatlardagi muhim o`zgarishlar

¹⁰ Egalitarizm - fransuzcha egalite - tenglik so`zidan olingan.

(ekzogamiya¹¹ ning joriy qilinishi, ya'ni yaqin qarindoshlar ichida nikoh aloqalarining taqiqlanishi), so'ngra esa ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tishni boshlab bergan neolit inqilobi natijasida ijtimoiy munosabatlar yanada murakkablashgan, ibtidoiy jamoa o'z o'rmini urug'doshlik jamoasiga bo'shatib bergan. Galaning urug' jamoasiga aylanishi, hech shaqshubhasiz, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va buning natijasida ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi, shuningdek, ekzogamiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Birlashgan ishlab chiqarish jamoasidan iborat bo'lgan urug' faqat ekzogamiya xususiyati bilangina xarakterlanib qolmaydi, uning boshqa belgilari ham mavjud. Urug'da jamoaviy mehnat hukmronlik qiladi. Manzilgohlarning ov qilinadigan joylar yaqinida bo'lishi bu yerda yashagan odamlarda ishlab chiqarish faoliyati (ovchilik, terib-termachlab ovqat topish) uchun muayyan urug' hududi mavjud bo'lganligini, ishlab chiqarish vositalari umumiy mulk hisoblanganligini ko'rsatadi. Turar-joylarga va ularning atrofidagi xo'jalik xususiyatlariga qarab umumiy mehnat samaralari butun jamoaniki bo'lganligi va ulardan birgalikda foydalanilganligi aniqlangan.

Shunday qilib, urug' qon-qarindoshlardan iborat xo'jalik jamoasi bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjud bo'lgan, u ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlarining umumiy mulkligiga asoslangan; urug' - bu ekzogamiya nikoh tartibi va qarindoshlikning bir tomonlama (ona yoki ota tomondan) hisoblanishi bilan, hududning umumiyligi, nomi va e'tiqodning birligi bilan, ijtimoiy hayotdagi demokratik tartiblari bilan ta'riflanadi.

Urug' jamoasi dastlab iste'molchilar (ovchilar, baliqchilar)ning ilk urug'chilik birlashmasi sifatida, keyinchalik esa ishlab chiqaruvchilar (dehqonlar va chorvadorlar)ning rivojlangan jamoasi sifatida maydonga chiqqan. U ijtimoiy o'z-o'zini boshqarishning asosiy birligi, ibtidoiy demokratiyaning yorqin ifodasi bo'lgan edi. Neolit inqilobi odamlarni ba'zi narsalarga, aniqrog'i oziq-ovqatni o'zlari tayyorlashlariga o'rgatdi. Bu esa iste'molchilar jamoasini ishlab chiqaruvchilar jamoasiga aylantirdi. Ularni o'troq turmush tarziga o'tishga va ma'lum hududda joylashishga tayyorladi. Urug'doshlik jamoasida mehnat taqsimoti, oziq-ovqat taqsimoti va nikoh-oila munosabatlari aniq va qat'iy belgilab qo'yilgan edi. Taqsimot odamlarning yoshiga, jinsiga va boshqa belgilariga ko'ra amalga oshirilgan edi. Urug'doshlik jamoasida guruh rahbari ma'lum imtiyozlardan foy-

¹¹ Ekzogamiya - grekcha exo - "tashqari", gomos - "nikoh" degan so'zlardan olingan.

dalanishi mumkin bo'lgan. Bunday imtiyozlarga ayniqsa o'ziga yuklatilgan turli vazifalarni (masalan, guruhga boshchilik qilish, uning yaxshi yashashi uchun sharoitlar yaratish, manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni) muvaffaqiyatli ado etgan rahbarlar ko'proq egalik qilardilar. Mazkur holatda guruh rahbari boshqa a'zolar tomonidan so'zsiz qo'llab-quvvatlanar edi, uning obro'-e'tibori va hokimligi ortib borardi. Bu hokimiyat davlatdan ilgarigi, urug'dan ajralmagan hokimiyat edi. Jamoa ishlari barcha jamoa a'zolari ishtirokidagi jamoa yig'inlarida ko'rib hal qilinardi. Xuddi shu yig'inda urug' boshlig'i – guruh rahbari – oqsoqol – barcha ijtimoiy ishlarni boshqaruvchi saylanardi. Oqsoqol hokimiyati majburlashga emas, balki oqsoqolning obro'-e'tibori, hurmati va butun jamoa a'zolarining uni tan olishiga asoslanardi. Oqsoqolning o'zi ham boshqa jamoa a'zolari kabi jamoa an'analarni, urf-odatlarini, yurish-turish qoidalarini so'zsiz bajarishi lozim edi, aks holda, u o'z o'mini boshqasiga bo'shatishga majbur bo'lar edi, ya'ni uning o'rniga boshqasi saylanardi.

Urug'doshlik jamiyatida tenglikning mavjudligi, shuningdek, yo'lboshchilarning saylab qo'yilishi va almashtirib turilishi hali urug'chilik demokratiyasining mavjudligini anglatmas edi. Chunki bu jamiyatda mehnat va yurish-turishning qattiq intizomi, hammaning bajarishi shart bo'lgan diniy marosimlar mavjud bo'lgan.

Oila-urug' jamoasida ibodat, topinish, sig'inish va u bilan bog'liq diniy marosimlar, urf-odatlar, an'analari va hokazolar asosida guruhning barcha a'zolari tomonidan rioya qilinishi shart bo'lgan va uncha murakkab bo'lmagan axloq (yurish-turish) qoidalari yuzaga kelgan. Bu urug'chilik me'yorlari mifologik-ramziy niqoblangan va ko'proq, totemistik¹² marosimlarga oid bo'lib, o'zida ibtidoiy jamiyatning tabiiy yashash sharoitlarini aks ettirgan. Ular birgalikda yashash ruhi bilan kiritilgan, urug'chilik jamoasi a'zolarining o'zaro qo'llab-quvvatlashini nazarda tutgan, xo'jalik faoliyatini va nikoh munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan, jamoa a'zolari uchun turli cheklash-taqiqlar va ularning yurish-turishi hamda axloqning qat'iy qoidalarini o'rnatgan edi. Jamoa tomonidan o'lja qilib olingan mahsulotlarni taqsimlash hamda iste'mol qilishning qat'iy tartibi o'rnatilgan edi. Bunda ajratiladigan hissaga qarab, guruh a'zolari darajalarga - ranglarga bo'lingan edi. Bunday taqsimot me'yorlarini amalda tadbiq qilish yo'lboshchining muhim funksiyasi hisoblangan.

¹² Totemizm - ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, urug'chilik jamiyatida odamlar guruhlarining biror hayvon, baliq yoki o'simlik turi bilan, ya'ni muayyan guruhning "totemi" hisoblanadigan va shu nom bilan yuritiladigan guruhning o'z totemi bilan g'ayritabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonish hisoblanadi. Totemizm xo'jalik rivojlanishining ovchilik-terib-termachlab ovqat topish bosqichida vujudga kelgan. Ovchilik o'sha davrdagi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan, shu sababli urug'lar hayvonlarning nomlari bilan ataladi.

Jamoa-urug`chilik me'yorlari sinkretik¹³ xarakterga ega bo`lib, o`zida ayni vaqtda diniy, axloqiy va boshqa ijtimoiy majburiy talablarni saqlagan.

Ancha mustahkam, barqaror urug` jamoalarida yuqoridagi me'yorlar manfaatlar, diniy tasavvurlar va boshqa **qadriyatlar** kuchi bilan qo`llab-quvvatlanadigan o`z-o`zidan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarni aks ettirgan. Bu tabiiyki, ushbu me'yorlarning hukmron va majburlovchi xarakterga ega bo`lganligini ko`rsatadi. Agar oila-urug` a`zosi uning yashash qoidalariga rioya qilishni xohlamasa, og`ir nojo`ya ish qilsa, kaltaklanishi, haydab yuborilishi yoki, hatto, jamoa irodasi bo`yicha o`limga mahkum etilishi mumkin edi.

2. Jamiyat ustidagi qurilmalarning paydo bo`lishi va ilk davlatlarning tashkil topishi

Neolit inqilobi va miloddan avvalgi VII-V minginchi yillarda insoniyatning ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tishi turli xalqlarda turlicha bo`lgan va chuqur oqibatlar keltirib chiqargan.

Avvalo kishilarning yashashi va muvaffaqiyatli xo`jalik faoliyati uchun qulay mintaqalarda¹⁴ dastlabki o`troq dehqonchilik jamiyatlarining paydo bo`lganligini, shuningdek aholining soni va zichligi birdaniga o`sganligini ta`kidlash lozim. Dehqonchilik jamoalari o`sib borgan. Bu jarayon hammadan avval oila-urug` guruhlarining ajralib chiqishida namoyon bo`lgan. Yirik dehqonchilik-urug`chilik jamoalari hududlarida bir necha poseleniyalar, hatto, kvartallar tashkil topishi mumkin edi. Ulardagi xo`jalik hayotining o`sishi va jonlanishi oqibatida shahar tipidagi poseleniyalarning shakllanishi sodir bo`lgan.

Vaqt o`tishi bilan oila-urug` guruhlarining ichki tashkiliy tuzilishi murakkablashgan, ularning a`zolari yangi madaniy va ishlab chiqarish bilimlarini egallab olganlar, mehnat taqsimoti (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va hokazolar) boshlangan. Bularning hammasi jamoa va birgalikdagi ishlab chiqarish samaradorligining o`shishiga olib kelgan. Ishlab chiqaruvchi xo`jalik urug`chilik jamoalari a`zolarining nafaqat eng zarur ehtiyojlarini qondirgan, balki ortiqcha mahsulotning paydo bo`lishiga olib kelgan. Bu ortiqcha mahsulotlar dastlab urug`ning ichida yana qaytarib olish mumkin bo`lgan sharoitda ayirboshlangan. Lekin ular asta-sekin qabilalararo aloqalar doirasiga tushib, tovarga aylanib borgan. Tovar ishlab chiqarishning paydo bo`lishi o`z navbatida ortiqcha mahsulotning yanada

¹³ **Sinkretizm** - grekcha "Synkretismos" - "qo`shilgan" so`zidan olingan bo`lib, narsaning bir-biridan ajralmagan, qorishiq holatini anglatadi.

¹⁴ **Mintaqa** - o`zaro chegaradosh, bir guruh mamlakatlar yoki viloyatlardan iborat katta rayon.

o`shiga, boylikning to`planishiga olib kelgan (bu esa qadimiy urug`doshlik jamiyatida yo`q edi). Oqibatda alohida oila-urug` jamoalari, shuningdek urug`chilik guruhlari orasida mulkiy tengsizlik kelib chiqishi uchun ob`yektiv asos paydo bo`lgan.

Ijtimoiy mahsulotning ko`payib borishi mulkiy tafovutlarning chuqurlashuviga, shu bilan birga, urug`-jamoa yuqori qismi qo`lida mulkiy va ijtimoiy imtiyozlarning mustahkamlanishiga olib kelgan. Yangi sharoitlarda oila-urug` guruhida urug`chilik lavozimlarini egallab turish yo`lboshchilarga faqat obro` va nufuz keltiribgina qolmay, balki jamoa tuzumining o`tgan bosqichiga xos bo`lgan, lekin maxsus va ancha yuqori mavqe bergan. Bunda ularni saylab qo`yish tartibi hali saqlanib qolgan edi.

Yo`lboshchiga taqdim etilgan va tobora ko`payib borayotgan mulkiy va boshqa imtiyozlar (masalan, bir necha xotinga ega bo`lish huquqi)ni ularning endilikda amalga oshirayotgan ancha murakkab vazifalari va zimmalariga olgan jiddiy majburiyatlari evaziga berilgan deb qaralar edi. Oila-urug` jamoalari yo`lboshchilarining majburiyatlari tobora ko`payib borgan. Ular qatoriga ijtimoiy ishlarni tashkil qilish, yer uchastkalarini qayta taqsimlash, qo`shni oila-urug` jamoalari bilan munosabatlar olib borish kabilar kirgan. U yoki bu darajada an`anaga aylanib qolgan ushbu vazifalarga butun jamoa tomonidan ishlab chiqarilgan ortiqcha mahsulotni qayta taqsimlashdan iborat yangi va juda muhim vazifa qo`shilgan. Bu yerda endi kelajakka, davlatchilik asosida tashkil etilgan jamiyatga xos unsurlar, ekspluatatsiya tizimi paydo bo`la boshlagan.

Neolit inqilobi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining murakkablashuvi natijasida oila-urug` guruhlarining ichida hokimiyatni amalga oshirish borasida chuqur o`zgarishlar yuz bergan.

Oila-urug` guruhida yo`lboshchi hokimiyati ilgarigidek potestar karakterini saqlab qolgan. Lekin u tomondan amalga oshiriladigan vazifalar uning hokimiyatini siyosiy davlat hokimiyatiga yaqinlashtirgan, chunki u oila-urug` jamoasi a`zolari bajarishi shart bo`lgan katta kuchga ega bo`lib olgan edi. U endi ilgarigidek shaxsiy sifatlariga bog`liq bo`lmay, ko`proq eng oliy boshqaruvchi maqomiga ega shaxs bo`lib qolgan. Aynan shu bois yo`lboshchilikka intiluvchi guruh a`zolarining ko`z o`ngida yo`lboshchining obro`-e`tibori emas, balki hokimiyatchilik vazifalari eng oliy qadriyat kasb eta boshlagan. Hokimiyatga intilish jamoaga o`z irodasini o`tkazishga, hokimiyatdan ma`lum mulkiy va shaxsiy imtiyozlar olishga bo`lgan xohish-istak orqali mustahkamlangan.

Davlat va huquqning paydo bo`lishiga bevosita aloqasi bo`lgan neolit inqilobining muhim oqibatlaridan biri urug`lararo aloqalarning rivojlanishi

va jamiyat ustidagi qurilmalarning shakllanishi bo`lgan. Bu qurilmalarning vujudga kelishi va evolutsiyasi ma`lum darajada tashqi ta`sirsiz (o`z-o`zidan) kechgan va konkret-tarixiy dalillar ta`sirida turli shakllarga ega bo`lgan. Ulardan ba`zilari ayrim xalqlar uchun tipik bo`lgan, biroq boshqa xalqlarda rivojlanmagan. Davlatchilikning tashkil topishi jarayonida jamoalararo aloqalar va tashkiliy qurilmalarning shakllaridan biri - qabilaviy tuzum alohida mavqega ega bo`lgan. Biroq hozirgi adabiyotlarda uning umumiyligi va ahamiyati ba`zan shubha ostiga olinadi.

Jamoa tuzumining, ayniqsa, so`nggi urug`chilik jamoasining tabiiy evolutsiyasi (tadrijiy rivojlanishi) natijasida ko`pgina yangi oila-urug` jamoalari vujudga kelgan. Bu esa ancha yirik ijtimoiy tashkilotlar - ittifoqlar (fratriyalar) va qabilalarning, ba`zan esa qabilalar ittifoqining paydo bo`lishiga olib kelgan. Qabila, odatda, o`z hududiga, nomiga, tiliga (shevasiga), diniy va maishiy urf-odatlariga ega bo`lgan. Asta-sekin qabilaning o`zini-o`zi boshqarish organlari, avvalo qabila kengashi tashkil topa boshlagan. Uning tarkibiga, odatda, qabiladagi barcha urug`larning oqsoqollari (dohiyolari) kirgan. Qabila kengashi a`zolari, shuningdek, qabila yo`lboshchisi (dohiyisi) qabila a`zolari tomonidan saylangan va almashtirilgan. Qabilaning har qanday a`zosi Kengash majlisida so`zga chiqish imkoniyatiga ega bo`lgan va majlis qarorlari yuzasidan yoki qabila boshlig`ining xatti-harakatlari bo`yicha o`z fikr-mulohazalarini bildira olgan.

Qabila organlarining faoliyati jamoa ishlarini tashkil etishga, oila-urug` guruhlari o`rtasidagi aloqalarning kengayishiga (jumladan, jamoalararo mahsulotlar ayirboshlashga), urug`lararo nizolarni, shuningdek, boshqa qabilalar bilan o`zaro munosabatlarni tartibga solishga yordam bergan. Dastlab bu organlar faqat ayrim oila-urug` guruhlari manfaatlari doirasidan chetga chiqadigan ba`zi masalalarnigina hal qilgan.

Taqsimotchilik munosabatlari uzoq vaqtgacha qabila kengashi tomonidan yuritilmagan va qabila odatlari bilan emas, balki urug`chilik odatlari bilan tartibga solingan. Lekin asta-sekin ishlab chiqaruvchi iqtisodning rivojlanishi, ichki qabilaviy tashkilotning murakkablashuvi natijasida o`zini-o`zi boshqaruv urug`-qabila doirasidan qabila darajasiga o`sib chiqqan. Endilikda urug` jamoalari o`rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, lekin, albatta, ularning ichki hayotiga ham ta`sir etuvchi (bu so`zsiz jamoa demokratiyasining ahamiyati va mustahkamligiga putur yetkazgan) qabila me`yorlari (odatlar, marosimlar, rasm-rusumlar va boshqalar) ham katta ahamiyat kasb eta boshlagan.

Davlat va huquq tarixidan oldingi davrning muhim bosqichi - bu

jamo'a tepasida turuvchi murakkab tuzilmalarning va ularga mos bo'lgan ijtimoiy-me'yoriy tartibga solish mexanizmlarining tashkil topishi bilan bir qatorda o'z mazmuniga ko'ra davlatdan oldingi jamiyatni boshqarishning tamomila yangi asoslarining shakllanishi bo'lgan.

Boshqaruvchilik faoliyatining yangi qiyofasi jamiyat hayotining ehtiyojlari, xo'jalik faoliyatining murakkablashuvi va odamlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarining butun tizimi natijasida shakllangan. Ijtimoiy ishlarni tashkil etish va nazorat qilish, oziq-ovqat va boshqa resurslarni saqlash va taqsimlash, qo'shni guruhlar bilan ayirboshlash munosabatlarini ushlab turish zaruriyati kerakli bilimlarga va mahoratlarga ega bo'lgan maxsus ishlab chiqarishni tashkil etuvchilar qatlamining ajralib chiqishiga olib kelgan.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim turlari (dehqonchilikdan chorvachilik va boshqalarning ajralib chiqishi) bilan bir qatorda boshqaruvchilik faoliyatining ham ajralib chiqishi va asta-sekin ixtisoslashib - dmiy kasbga aylanib borishi sodir bo'lgan. Odamlarning son jihatdan ikkita noteng guruhlarga (boshqaruvchilar va boshqariluvchilarga) bo'linishi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, bu davlatning tashkil topishidagi oxirgi bosqich hisoblangan. Boshqaruvchilik mansablari ularning egalariga katta moddiy foydalar bergan, ularning butun jamoaga o'z xohish-irodalarini o'tkazishlariga imkoniyat yaratgan. Shakllanayotgan boshqaruvchilar tabaqasi o'z hokimiyatidan va imtiyozlaridan ajralib qolishni aslo xohlamas edi, uni o'z oilasi va urug'i bilan mustahkamlashga intilardi. Tashkilotchilik faoliyati siyosiy xarakter kasb etgan. Jamoaning ma'muriy oqsuyaklari (aslzodalari) davlat zodagonlariga aylangan. Jamoaning yuqori doiralari o'z an'anaviy obro'-e'tiboridan va diniy-mifologik asoslar tizimidan foydalanib, tez-tez boshqalar uchun berk bo'lgan yopiq tabaqaga yoki kastaga birlashishga harakat qilgan.

Tashkil topayotgan ilk davlatchalarda yo'lboshchi (dohiy)ning mavqei ham o'zgargan, u borgan sari ko'proq ma'muriy mansablarga tayanadigan bo'lib qolgan va shu tariqa o'z hokimiyatini kuchaytirib borgan. Shunday qilib, ilk davlatchalar urug'-qabila tizimiga tashqaridan zo'rlab kiritilgan kuch sifatida emas, balki jamoa tuzilmalarining mantiqiy va tabiiy rivojlanishi natijasida uning tadrijiy davomi sifatida vujudga kelgan. U oila-urug' guruhlarining umumiy manfaatlari va ehtiyojlari bilan mustahkamlangan, lekin ilgari ijtimoiy boshqaruv tizimidan murakkab ma'muriy iyerarxiya¹⁵ tashkil etganligi bilan farq qilgan. Bu iyerarxi-

¹⁵ Iyerarxiya – quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi.

yaning eng tepasida yo`lboshchi (dohiy) turgan, uning hokimiyati avtoritar¹⁶ va muqaddas xarakterga ega bo`lib qolgan.

Ko`p huquqiy-tarixiy adabiyotlarda jamoa ustida turuvchi dastlabki qurilmalarning va ilk davlatchalarning vujudga kelishiga sabab bo`lgan qator omillar ko`rsatiladi. Bunday omillarga odatda ekologik muhit (issiq iqlim, hosildor tuproqlar, suv resurslari va boshqalar), nisbatan ko`p ortiqcha mahsulot beruvchi barqaror ishlab chiqarish darajasi, demografik optimum¹⁷ kabilar kiritiladi. Bosqinchiliklar va urushlar, garchi ikkinchi darajali bo`lsada, davlatning tashkil topishida muhim omil hisoblanadi. Ular jamoa aloqalari tadrijiy rivojlanishining ichki jarayonlariga ta`sir eta olmaydi, lekin ilk davlatchalarning tashkil topishini tezlashtiradigan qudratli harbiy-tashkiliy qurilmalarning paydo bo`lishiga olib keladi.

Ilk davlatlarning tashkil topish fakti ayniqsa qulay tabiiy sharoitlarga ega bo`lgan mintaqalarda ko`proq uchraydi. Bunday joylarda birdaniga bir necha ilk davlatchalar vujudga kelganligi tarixdan ma`lum. Shunday dastlabki davlat tashkilotlari ilk shahar-davlatlar nomini olgan. Tez orada ushbu shahar-davlatlar o`rtasida keskin qarama-qarshiliklar va so`ngra harbiy to`qnashuvlar kelib chiqqan. Oxir oqibatda harbiy tashkiloti ancha kuchli va samarali bo`lgan davlat g`alabaga erishgan. Natijada harbiy-iyerarxiya tuzilmalari ko`rinishiga ega bo`lgan davlatlar ancha keng tarqalgan. Aynan shu harbiy demokratiya bo`lgan bo`lsa ehtimoldan holi emas. Ammo mazkur harbiy demokratiyaning ahamiyati va keng tarqalganligi L.Morganning¹⁸ asarlaridan boshlab adabiyotlarda uzoq vaqtgacha bo`rttirib ko`rsatilgan. Bizningcha, o`zga davlatlarni zo`rlik yo`li bilan qo`shib olishga, boshqa xalqlar ustidan hukmronlikka, zo`ravonlikka asoslangan davlatlarni – harbiy demokratiyalarni bo`rttirib ko`rsatish, ularni ilk davlatlarning tashkil topishidagi asosiy omil sifatida qayd etish unchalik to`g`ri emas.

Urushlar va tabiiy o`shish davomida, shuningdek, ikkinchi darajali davlatlar ham vujudga kelgan, ular o`z tarkibiga bir necha ilk shahar-davlatlarni birlashtirgan yoki ba`zan urug`-qabilalari hamda allaqachon tashkil topgan davlat qurilmalari bilan birga katta-katta hududlarni qo`shib olgan. Bunday davlatlar ancha murakkab tashkiliy-boshqaruv qurilmalariga ega bo`lib va juda xilma-xil ma`muriy funksiyalarni bajarib, sinfiy xarakterga ega emas edi, bu vaqtda hali sinflar bo`lmagan.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, shahar-davlatlar (ilk davlatchalar) dastlabki va oddiy davlat tashkilotlari sifatida hali jamiyat sinflarga

¹⁶ **Avtoritar** – hokimiyat, diktatura va shu kabilarga ko`r-ko`rona va so`zsiy bo`ysunishga asoslangan hokimiyat.

¹⁷ **Demografik optimum** – aholining eng qulay sharoitlarda joylashishi.

¹⁸ **L.Morgan** - XIX asrdagi taniqli amerikalik etnograf.

bo'linishni bilmagan davrda tashkil topgan.¹⁹ Ular jamiyat rivojining ancha yuqori bosqichida davlat hokimiyatining faol ta'siri natijasida kelib chiqqan. Shunday qilib, hozirgi zamon tarixiy, etnografik, arxeologik va boshqa ma'lumotlarning yorqin guvohlik berishicha, davlat adabiyotlarda ko'p vaqt markscha-lenincha ta'limot asosida e'tirof etib kelinganidek, sinfiy hukmronlik asosida emas, balki ibtidoiy jamoa tuzumining tabiiy rivojlanishi davomida ichki sabablar natijasida paydo bo'lgan jamoa tepasida turuvchi tuzilmalardan tashkil topgan. Ilk shahar-davlatlarning xarakterli belgilaridan biri - bu murakkab tashkiliy-boshqaruvchilik tizimining tashkil topishi va uni asta-sekin yopiq va o'zini tug'dirgan jamiyatdan ajralib boradigan tizimga aylanishida bo'lgan.

Shahar-davlatlarning tashkil topishi - bu insoniyatning ibtidoiy jamiyatdan sivilizatsiyaga o'ziga xos yorib o'tishi bo'lgan. Bu "o'tish" turli qit'alarda va turli xalqlarda tarixiy jarayonlarning notekis rivojlanishi natijasida turli vaqtlarda sodir bo'lgan hamda asrlar va ba'zan ming yillab davom etgan. Dunyoda birinchi sivilizatsiya va shahar-davlatlar Qadimgi Sharqda²⁰ miloddan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq tashkil topgan edi. O'rta yer dengizi havzasida - antik dunyoda esa sivilizatsiya va davlatchilikka o'tish birmuncha keyinroq sodir bo'lgan. Yevropaning ko'pgina xalqlarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va davlatning tashkil topish jarayoni o'rta asrlarda nihoyasiga yetgan. Afrika, Polineziya va yer yuzining boshqa ba'zi joylarida to XIX-XX asrlargacha davlatdan oldingi oila-urug' munosabatlari yashab kelgan va bu yerlarda davlatning tashkil topishi tabiiy rivojlanish natijasida emas, balki Yevropa mustamlakachiligi oqibatida yuz bergan.

Davlat va huquq tarixidan oldingi davrda ulardagi ba'zi umumiy belgilarga qaramay, davlatning tashkil topishi va rivojlanishi turli xalqlarda o'ziga xos takrorlanmas belgilarga va xususiyatlarga ega bo'lgan. Bular ustida keyingi boblarda alohida mavzularda batafsil to'xtab o'tamiz.

¹⁹ Qarang O.A.Жидков.Пред история государства и права (В кн.История государства и права зарубежных стран. Ч.1.,М.,1998).-9-бет.

²⁰ "Qadimgi Sharq" tushunchasi fanda janubiy - g'arbiy, janubiy va sharqiy Osiyo, shuningdek, shimoliy va shimoliy-sharqiy Afrika mamlakatlari yig'indisini anglatish uchun an'anaviy tarzda shartli ravishda ishlatiladi.

I B O L I M

QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARI DAVLATI VA HUQUQI

I bob

QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARIDA DAVLAT VA HUQUQ RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Qadimgi zamonda yunon-rimliklar dunyosidan Sharqda va Janubi-Sharqda joylashgan mamlakatlarning jamini qadimgi Sharq deb ataymiz. Bu taxminiy va shartli iboradir. Sharq bilan antik dunyo o'rtasidagi chegara doimiy chegara bo'lmagan. Ularga qarashli hududlar turli vaqtlarda qisman galma-gal bir-biriga o'tib turgan, shu sababli ularning geografik chegaralanishini har bir davr uchun turlicha ko'rsatishga to'g'ri keladi.

Sharq to'g'risida gapirar ekanmiz, Yevropa (ayniqsa ancha keyingi davrlarda) bilan bog'liq bo'lgan janubiy Osiyo hamda qisman Shimoliy Afrika mamlakatlari va xalqlarini, shuningdek Hindiston va Xitoyi nazarda tutamiz.

Sharq tushunchasi tarix fanida nafaqat geografik ma'noda, balki tarixiy-madaniy, sivilizatsiya jihatlari bilan ham ishlatiladi. Butun dunyo tarixida Sharqning tutgan o'rniga yetarli baho bermaslik aslo mumkin emas. Xuddi Sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi birinchi marta buzila boshlangan. Kishilik jamiyati rivojlanishidagi eng muhim ijtimoiy va siyosiy institutlar, davlat, huquq, jahon dini ilk bor aynan Sharqda vujudga kelgan. Eng qadimgi yozuv tizimlari ham dastlab Sharqda paydo bo'lgan.

Sharq va g'arb sivilizatsiya yo'lidan rivojlanishda bir-biridan jiddiy farq qiladi. Sharqda, xususiyl mulkchilik hukmronlik qilgan g'arbdan farqli o'laroq, avvalo xususiyl mulkchilik munosabatlari, bozorga asoslangan xususiyl tovar ishlab chiqarish munosabatlari muhim o'rin egallamagan.

Sharqdagi asosiy mamlakatlar (Ikki daryo oralig'i, Misr, Hindiston, Xitoy), keyinchalik esa boshqa mamlakatlar ham o'zlarining geografik qulay joyda joylashganliklaridan juda barvaqt foydalana boshlaganlar. Dastavval Sharqda - hududning asosiy qismi katta-katta daryolar (Dajla, Frot, Nil, Hind, Gang, Xuanxe va boshqalar) vodiylarida va faqat uzoq chekkadagina tog' tizmalari va yassi tog'liklar tashkil qilgan mamlakatlarda davlatchilikka o'tish ro'y bergan. Bu yerda tabiiyl sharoitlar ijtimoiyl-iqtisodiy siljishlarni ham, oqibat natijada siyosiy tashkilotlar va madaniyatni ham belgilab beradigan ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining umumiy borishini tezlashtirishga imkon bergan. Sharqda yerning unum-

dorligi va uni sug`orish imkoniyatlari, ekib o`stirish uchun yaroqli bo`lgan foydali o`simliklarning va qo`lga o`rgatish, keyinroq esa xonakilashtirish mumkin bo`lgan hayvonlarning mavjudligi g`oyat katta ahamiyatga ega bo`lgan. Ana shular natijasida Yevropa Sharqdan ancha orqada qolgan. Ammo keyinchalik Yunoniston-Rim dunyosi rivojlanishning notekisligi sababli va qisman qadimgi Sharq xalqlarining yutuqlaridan foydalanib, juda ilgari ketgan.

Antik dunyo, garchi keyinchalik ba`zi jihatdan Sharqdan o`zib ketgan bo`lsa ham, Sharq antik dunyoga katta ta`sir ko`rsatgan. Shuning uchun ham butun dunyo davlat va huquq tarixini o`rganishda dastlab Sharq mamlakatlari davlati va huquqi tarixini o`rganishdan boshlashimizga ajablanmaslik lozim.

Qadimgi Sharq va antik dunyo davlatlari o`ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Mana shu xususiyatlarni ochish ularning mohiyatini to`g`ri va to`liq tushunib olishga katta yordam beradi. Shu nuqtai nazardan Sharq va antik dunyo davlatlari o`rtasidagi farqlar ham ochiq-ravshan bo`lib qoladi. Sharq davlatlarining kelib chiqishi va rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlar ayniqsa ularning ijtimoiy, siyosiy tuzumi va huquq tizimida yaqqol namoyon bo`ladi. Ana shular haqida to`xtab o`tamiz.

1. Qadimgi Sharq davlatlari insoniyat tarixidagi dastlabki va eng qadimgi davlatlar bo`lgan. Bu yerda eng qadimgi shahar-davlatlar jamoaurug`chilik tashkilotlarining yemirilishi natijasida miloddan avvalgi IV-III yilliklardayoq paydo bo`lgan. Ular mehnat taqsimotining kuchayishi, boshqaruvchilik funksiyalarining murakkablashuvi, shu bilan birga, bu funksiyalarni bajaruvchi shaxslarning ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan va jamoa tepasida turuvchi oqsuyaklar tabaqasiga aylanishi natijasida tashkil topgan. Sharqda davlat ayrim olimlar e`tirof etganidek, qullar va quldorlar sinfining paydo bo`lishi natijasida tashkil topmagan. Zero, bir guruh olimlarning fikriga ko`ra: a) qulchilik Sharqda to`g`ridan-to`g`ri xo`jalik yuritishning asosi bo`lmagan; b) asosiy qishloq xo`jalik ishlab chiqarish hududlarida qulchilik hukmron mavqeni egallamagan; v) Sharq mamlakatlaridagi qulchilik uy qulchiligi bo`lib qolgan. Shuning uchun Sharqda quldorlik formatsiyasi bor deb bo`lmaydi. Bu ishlab chiqarishning Osiyochoa usuli deb atalib, unga alohida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya deb qaralmog`i lozim deyishgan. Shubhasiz, Osiyochoa ishlab chiqarish usuli haqidagi masala murakkab va tortishuvli masaladir, bu mavzudagi munozarani hali tugagan deb hisoblab bo`lmaydi. Lekin maxsus Osiyo formatsiyasi (ba`zan uni hatto mahalliy emas, balki universal formatsiya deb e`tirof qiladilar) bo`lmaganligi borgan sari ko`proq ma`lum bo`lib qolmoqda.

Sharqda qulchilik munosabatlari antik dunyoga nisbatan ancha sust rivojlangan, davlat tashkil topgan vaqtda hali ibtidoiy jamoa tuzumining ko'pgina qoldiqlari chuqur saqlanib qolgan.

2. Bizga ma'lumki, Sharq davlatlari odatda daryolar havzalarida, masalan, Misr Nil daryosi havzasida, Xitoy Xuanxe, Bobil Frot va Dajla, Hindiston Hind va Jamna daryolari havzalarida tashkil topgan. Bu davlatlar hududida dehqonchilik qilish esa botqoqliklarni quritish, irrigatsiya inshootlarini qurish asosida olib borilgan. Bunday ishlarni ayrim qullarning mehnati bilan amalga oshirib bo'lmaz edi, u jamoaviy mehnatni talab qilgan. Shuning uchun ham yerga nisbatan qadimgi antik davlatlarda bo'lgani kabi xususiy mulkchilik emas, balki jamoa mulkchiligi saqlanib qolgan. Sharqda yerlarning haqiqiy egasi davlat hisoblanib, ozod jamoachi dehqonlardan yer uchun maxsus soliq - renta solig'i olingan.

Sharqda jamoa ustida turuvchi boshqaruv qurilmalarining ajralib chiqishi natijasida xususan podsho-cherkov xo'jaligi ham tashkil topa boshlagan. U asosan jamoa yerlarini o'zlashtirib olish hisobiga tashkil etilgan. Podsho-cherkov yerlaridan ajratiladigan uchastkalarga faqat u yoki bu ishlarni bajaruvchi, podshoga yoki cherkovga xizmatda turuvchi kishilargina ega bo'lishi mumkin edi. Bunday yerlarda qullarning, turli darajadagi qaram kishilarning mehnatidan ancha barvaqt foydalanila boshlangan edi.

3. Sharq quldorchiligi asosan patriarxal quldorchilik bo'lib, uncha rivojlanmagan, antik dunyo mamlakatlaridagi singari klassik shaklga ega bo'lmagan. Bu yerda qullar o'z oilalariga, hatto ayrim mulklariga ega bo'lganlar, qullarning mehnatidan ko'proq uy yumushlari va xo'jaligida, saroydagi turli past lavozimlarda foydalanilgan. Qadimgi Hindistonda xo'jayinning qullarga nisbatan o'zboshimchaliklarini cheklashga qaratilgan davlat qonunchiligi bo'lgan. Masalan, qul bolalarni ota-onalarisiz sotish taqiqlangan; xo'jayin qul mehnatidan foydalanayotganida uning varnadagi holatini hisobga olishga majbur bo'lgan va hokazo. Misrda qul jinoyat sodir etsa, qamoqqa olingan va davlat organlari tomonidan jazolangan. Davlat qullarga ibodatxonalardan boshpana topishga ruxsat bergan hamda o'z xo'jayinlari shafqatsiz munosabatda bo'lsa shikoyat qilish huquqini bergan va hokazo.

4. Sharq mamlakatlari ijtimoiy tuzumi o'zining tabaqalashganligi, darajalanganligi, ayirmaliligi, pog'onama-pog'onaliligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, Bobilda hukmron tabaqalarning o'zi ham ikkiga (avilium va mushkenuga) bo'lingan yoki Hindistonda kastali (toifali) tuzum mavjud bo'lib, ozod aholining o'zi braxmanlar, kshatriylar, vayshiyalar va shudralar

deb ataluvchi toifalarga ajratilgan hamda ularning huquqiy holati turlicha belgilangan. Ko'p ukladli ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik hayotining tuzilishi qadimgi Sharq jamiyatlarining ijtimoiy tarkibi juda rang-barang, xilma-xil bo'lishini belgilagan. Ulardagi barcha aholi qatlamlarini jamiyatda tutgan o'rni, shug'ullanadigan mashg'ulotiga, bir-biriga o'zaro bog'liqlik darajasiga va shu kabilarga qarab umuman quyidagicha uch guruhga ajratish mumkin: 1) ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan va qaramlik holatida turgan turli toifadagi shaxslar, jumladan qullar ham; 2) erkin mayda ishlab chiqaruvchilar - o'z mehnatlari evaziga yashovchi jamoachi-dehqonlar va hunarmandlar; 3) hukmron ijtimoiy tabaqa saroy va xizmatchi zodagonlar, armiyaning qo'mondonlik tarkibi, dehqonchilik jamoalarining boy yuqori qismi va boshqalar.

Sharqda aholi turli guruhleri o'rtasida aniq ijtimoiy-sinfy chegaralar bo'lmagan, masalan, erkin kishilar bilan qullar o'rtasida oraliqdagi mavqeda turuvchi turli toifadagi qaram kishilar, yoki allaqanday erkinlikka o'tish bosqichida turuvchi kishilar ham bo'lgan. Masalan, Hindistonda - shudralar, Bobilda - mushkenular va hokazo.

5. Qadimgi Sharq jamiyatlarining muhim xususiyatlaridan biri ularning an'anaviyligidadir. Sharq mamlakatlaridagi barqaror ko'pukladlilik, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy shakllarning va institutlarning, hukmron diniy mafkuraning tarixan meros bo'lib o'tishligi qadimgi Sharq jamiyatlarining an'anaviylik xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Buni uzoq vaqt hukm surgan qadimgi Hindiston va qadimgi Xitoy tarixi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ularning mustahkam va o'zgarmas g'oyaviy-diniy yo'l-yo'riqlar bilan muqaddaslashtirilgan ijtimoiy-siyosiy tuzumi va huquqiy tizimi fikrimizning dalilidir.

6. Sharq mamlakatlari o'zining davlat tuzumi bo'yicha ham antik dunyo mamlakatlaridan farq qilgan. Qadimgi Sharq davlatlari tashkil topgan vaqtdan boshlaboq despotik shakldagi davlatlar bo'lgan. Bunga ko'ra, davlat boshlig'i - despot (podsho, fir'avn) hokimiyati cheklanmagan bo'lib, uning qo'lida ijtimoiy hokimiyatning hamma tarkibiy elementlari - oliy qonun chiqarish, ijro etuvchi, sud va harbiy hokimiyat to'plangan. Despotizmning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, despot bir vaqtning o'zida ham davlat boshlig'i, ham din boshlig'i hisoblangan. Unga alohida unvon berilishi (Misrda, Bobilda) uni xudoning yerdagi noibi ekanligini bildirgan. Masalan, qadimgi Hindistonda davlat boshlig'i - podsho braxmanlar ta'limotiga ko'ra inson qiyofasidagi xudodir, olov va nur, quyosh va oy, jazo va ezgulik manbaidir. Xitoyda esa imperator "osmon o'g'li" (tyanszi) deb atalib, bu nom o'rta asrlarda ham saqlanib qolgan.

Misrda esa VI sulola fir'avnlari ismlarining tartibiga quyosh xudosi – Ra ismi ham qo'yilgan. Ular Ra (quyosh xudosi)ning o'g'li unvonini olganlar. Shumer davlatlarida patesi (podsho)lar o'zlarini xudoning yerdagi noibi emas, xudo deb e'lon qilib, to'rt mamlakat podshosi deb ataganlar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharq mamlakatlarining davlat apparatida saylanib qo'yiladigan organ bo'lmagan. Barcha mansablar yo podsho tomonidan tayinlash, yo meros qilib olish asosida vujudga kelgan. Antik dunyo mamlakatlarida esa davlat hokimiyatining ko'pgina saylanib qo'yiluvchi organlari mavjud bo'lgan.

7. Sharq mamlakatlari o'zining huquq tizimi bo'yicha ham antik dunyo mamlakatlaridan farq qilgan. Avvalo shuni aytish kerakki, Sharq mamlakatlari huquqi insoniyat tarixidagi dastlabki huquq tizimlaridandir. Shu bois unda ibtidoiy jamoa tuzumining ko'pgina qoldiqlari va sarqitlari ancha vaqtgacha chuqur saqlanib qolgan. Unda hali qasos olish odatining izlari saqlangan, jazo tizimida jamoaviy javobgarlik, ya'ni bir kishining jinoyati uchun oila a'zolarining, urug'doshlarning javobgarligi, jazo tayinlashda talioniya, ya'ni "ko'zga-ko'z, tishgatish" tamoyili, sud yuritish ishlarida ordaliya - sinab ko'rish mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, qadimgi Sharq qonunlarida huquq ma'lum tarmoqlar bo'yicha bo'linib ishlanmagan. Unda moddiy va protsessual me'yorlar qo'shilib ketgan. Antik davlatlarda esa buning aksini ko'rish mumkin. Ayniqsa, tovar-pul munosabatlari ancha rivojlangan sharoitda tashkil topgan Rim quldorlik davlatida fuqarolik, nikoh-oila hamda jinoyat huquqlari mukammal ishlab chiqildiki, Rim huquqi Rim davlatidan keyin ham uzoq yashab, boshqa ko'p davlatlar huquqiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi Sharq davlati va huquqi tarixini alohida mamlakatlar bo'yicha o'rganish umumiy taraqqiyot yo'lini ham, mahalliy ayirmalarni ham aniqlashga yordam beradi; bu ayirmalar o'zining xilma-xilligiga qaramay, tarixiy jarayon qonuniyatini o'zgartirmaydi. Asosiy e'tibor yirik daryolar vodiylarida vujudga kelgan, Sharq uchun tipik bo'lgan davlatlar - Misr, Ikki daryo oralig'i, Hindiston va Xitoyga qaratiladi.

Davlat va huquqqa oid voqealar va hodisalar, garchi, afsuski, hamma vaqt kronologik aniqlik bilan ko'rsatish mumkin bo'lavermasa ham, imkon boricha izchil tartibda bayon etiladi.

QADIMGI MISR DAVLATI VA HUQUQI

1. Qadimgi Misrda davlatning tashkil topishi va davrlarga bo'linishi

Dunyoda birinchi sinfiy jamiyat va davlat Misrda tashkil topgan. Misr davlati Afrikaning shimoli-sharqida vujudga kelgan. Nil daryosining boshidagi sharsharalardan to O'rta dengizgacha bo'lgan vodiylar bu davlatning asosiy qismini tashkil qilib, sharq tomondagi (Nil daryosi bilan Qizil dengiz o'rtasidagi) Arab qirlari va g'arb tomondagi Liviya yassi tog'liklarining bir qismi ham shu davlat tarkibiga kirgan. Misrliklar o'zlarining mamlakatini "Qora tuproq"¹ deb ataganlar, bu bilan ular "Qizil tuproq", ya'ni cho'lga nisbatan unumdor yer ekanligini uqtirganlar.

Misrda qadimgi tosh (paleolit) davridayoq odamlar yashagan. Bu davrda aholi sayoq ovchi qabilalaridan iborat bo'lgan. Ular asosan Nil daryosining tor botqoqlik vohasini o'rab turgan tepaliklarda hayot kechirib, azim daryo qirg'oqlariga kamdan-kam tushganlar. U paytda Yevropaning ko'p qismi g'oyat katta muzliklar bilan qoplangan, O'rta dengizning shimoliy sohilida esa tundralar yastanib yotgan, tez-tez yomg'irlar bo'lib turgan. Afrika qit'asining bepoyon kengliklari yam-yashil o'tlar va butalar bilan qoplanib, ovchilik uchun qulay ko'pdan-ko'p hayvonlarga boy bo'lgan.

Keyinroq Yevropa muzliklari erib bo'lgandan keyin (bundan taxminan 12-15 ming yil ilgari) Shimoliy Afrikaning iqlimi o'zgara boshlagan, avvalgi maysazorlar cho'lga aylana boshlagan. Natijada faqat ovchilik bilan tirikchilik o'tkazish ibtidoiy odamlarga kamlik qilib qolgan. Ular tepaliklardan Nil vodiysiga tushib, kichikroq hududlarga joylashib, o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka (dehqonchilik va chorvachilikka) o'ta boshlaganlar.

Qadimgi misrliklar bir tilda (turlicha shevada bo'lsada) gapiradigan samit-hamit guruhiga mansub yagona xalq bo'lgan. Misrliklarga begona xalqlar ham kelib qo'shilgan. Janubdan kushitlar yoki nubiylar (greklar bularni efioplar deb atagan, lekin bu hozirgi Efiopiya aholisi emas) kelib joylashgan. Misrda Markaziy afrikalik pakana (karlik) qabilalarning vakillarini ham onda-sonda uchratish mumkin. g'arbdan Misrga liviyaliklar (samit-hamit guruhiga mansub barbarlar pushtining vakillari) kelib joylashgan. Shimoli-Sharq tomondan Nil vodiysiga bir necha marta Osiyo xalqlari ham (asosan samitlar) bostirib kirgan.

¹ Ba'zan "Har ikki tuproq" yoki "Jonajon tuproq" deb ataganlar.

Ammo ko`chib kelgan bu xalqlar tub aholi misrliklar bilan juda tez aralashib ketgan, ularning tilini, urf-odatlarini qabul qilgan.

Misrliklar botqoq Nil vodiysini yangi tosh (neolit) davridan boshlab, asosan miloddan avvalgi V ming yillikda o`zlashtirganlar va mis-tosh (eneolit) davrida miloddan avvalgi IV ming yillikda ham o`zlashtirish davom etgan. Miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlariga kelib ovchilik ikkinchi o`ringa o`tgan, bora-bora xo`jalik faoliyati shakli bo`lmay qolgan, asosan ko`ngil ochadigan ermak bo`lib qolgan.

Misrliklar botqoqliklarni quritish, to`g`onlar qurish, kanallar qazib, daryo suvlarini tekis taqsimlash, yerni sho`r bosib ketishidan saqlash, katta-katta g`alla maydonlarini hosil qilishi sohalarida juda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Hunarmandchilik mustaqil xo`jalik sohasi sifatida taraqqiy eta boshlagan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar qat`iy rivojlanib borgan. Natijada Misrda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, davlatning tashkil topishi uchun zarur shart-sharoitlar vujudga kelgan. Urug`doshlik aloqalarining susaya borishi bilan qishloq (qo`shnichilik) jamoasi tarkib topgan. Ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlar va ayirboshlashning taraqqiy etishi natijasida mulkiy tabaqalanish vujudga kela boshlagan. Xususiy mulkchilik rivojlanib borgan.

Ijtimoiy munosabatlardagi mana shu siljishlar muqarrar ravishda qabilachilik tuzumidan davlat tuzumiga o`tishga olib kelgan. Tabiiyki, bu o`tish birdaniga sodir bo`lmagan, sekin-asta yuz bergan. Dastlab Misrda bir necha davlatchalar tashkil topgan. Misrliklar bu davlatchalarni "sepat", yunonlar esa "nom" deb ataganlar. Nomlar qishloq jamoalarining ibodatxonalar atrofida sug`orish ishlarini birgalikda yuritish uchun birlashishi natijasida vujudga kelgan. Har bir nomning o`z hokimi bo`lib, u yunon tilida "nomarx" deyilgan. Ma`lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi IV ming yillik boshlarida Misrda 42 ta davlatcha bo`lgan. Har bir nomning nomarxi dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa sug`orish ishlarini, shuningdek, harbiy va diniy ishlarni boshqargan.

Shunday qilib, qadimgi Misrda ilk davlat Nil daryosini jilovlash va yangi yerlarni o`zlashtirish, kanal va suv inshootlarini qurishni boshqarish, dehqonchilik va chorvachilik ishini yo`lga qo`yish, urug` va qabilalararo ishlarni tartibga solish, jamoani, mamlakatni qo`shni qabilalar hujumidan himoya qilish zaruriyati natijasida asta-sekinlik bilan vujudga kelgan. Nil toshqinini jilovlash va uning suvini butun Misr miqyosida taqsimlash zaruriyati bunday mayda davlatlarning birlashishiga yordam bergan. Tabiiyki, bu birlashish o`zaro urushlar jarayonida yuzaga kelgan, negaki, har bir nom bu birlashmaga bosh bo`lishga intilgan.

Kuchayib borayotgan zodagonlar oddiy jamoachilarga va qullarga zaryiq ko'rsatib turish uchun mustahkam davlat apparatini vujudga keltirishga harakat qilganlar. Dastlab ikkita ulkan davlat: janubda Yuqori Misr, shimolda Quyi Misr tashkil topgan. Ularning har birida o'z podshosi bo'lgan. Yuqori Misr podshosi Menes (Mina) miloddan avvalgi taxminan 3000-yilda Quyi Misrni o'ziga bo'sundirib, poytaxti Abidos bo'lgan yagona Misr podshohligiga asos solgan.

Fanda qadimgi Misr davlati tarixini quyidagicha beshta yirik davrga bo'lish qabul qilingan: 1) Ilk podsholik davri (miloddan avvalgi 3100-2800 yillar); 2) Qadimgi podsholik davri (miloddan avvalgi 2800-2250 yillar); 3) O'rta podsholik davri (miloddan avvalgi 2250-1750); 4) Yangi podsholik davri (miloddan avvalgi 1584-1071 yillar); 5) So'nggi podsholik davri (miloddan avvalgi XI-VI asrlar). Adabiyotlarda qadimgi Misr davlati tarixi yuqoridagicha beshta davrga aniq bo'lingan bo'lsa-da, lekin ushbu davrlarning qachon boshlanib, qachongacha davom etganligi haqida yagona fikr yo'q²².

Qadimgi, O'rta va Yangi podshohliklar oralig'idagi davrlar Misrning xo'jalik va siyosiy inqirozi davrlari bo'lgan. Misr Yangi podshohlik davrida turli qabilalarni o'z hukmronligi ostiga birlashtirgan qudratli davlat - tarixda birinchi jahon imperiyasiga aylangan. Uning tarkibiga Nubiya, Liviya, Falastin, Suriya va boshqa tabiiy resurslarga boy viloyatlar qo'shib olingan. Yangi podshohlik davrining oxirida Misr inqirozga yuz tutgan va miloddan avvalgi 525 yilda Ahmoniyalar Eroni tomonidan bosib olingan. Eron shohi Kambiz o'zini Misr fir'avni deb e'lon qilgan. Garchi undan keyingi fir'avnlr misrliklardan bo'lib, ular mamlakatni mustaqillikka olib chiqish va birlashtirish uchun qattiq kurash olib borgan bo'lsalar ham, ammo Misr miloddan avvalgi 332 yilgacha, ya'ni A.Makedonskiy tomonidan bosib olingunga qadar Eron saltanati ta'sirida bo'lgan. Iskandar vafotidan keyin bu yerda Ptolomeyning yunon-makedoniya sulolasi qaror topib, Misr ellinizm davriga qadam qo'ygan. Keyinchalik, miloddan avvalgi I asrda Misr Rim saltanati ta'siriga tushib qolgan.

²² **Qarang:** История государства и права зарубежных стран. Ч.1. Учебник для вузов / Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А. - М., 1998. - 20-бет; Всеобщая история государства и права: Учебник / Под ред. проф. К.И. Батыра. - М., 1998. - 20-23-бетlar; Черниловский З.М. Всеобщая история государства и права. - М., 1996. - 23-24-бетlar; *Muqimov Z.* Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo va O'rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O'quv qo'llanmasi. - Samarqand, 1992. 19-бет. *Bizningcha*, umumiy tarixda belgilangan yuqoridagi ko'rsatilgan yillarni qabul qilish maqsadga muvofiq.

2. Ilk podsholik

(milloddan avvalgi 3100-2800 yillar)

Yagona Misr davlatining asoschisi Menes (Mina) o'z davlatini mustahkamlash choralarini ko'rgan. U Quyi Misr chegarasida Memfis shahrini qurdirgan va uni mamlakat poytaxtiga aylantirgan. Mina va uning avlodlaridan keyin Misrda ikkinchi sulola namoyandalari podsholik qilgan. Shu davrdan boshlab Misr podsholari **fir'avn deyilgan**. Bu ikki sulola va-killari idora qilgan davr **Ilk podsholik davri** deyiladi. Bu davr ikki yuz yildan ziyodroq vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq Ilk podsholik davrining ijtimoiy-siyosiy tuzumini xarakterlab beradigan ma'lumotlar fanda juda kam. Misr davlati bu davrda hali juda qadimiy qabilaviy ittifoq shaklidagi ancha primitiv davlat bo'lgan.

Ijtimoiy tuzumi

Ilk podsholik davrida va, albatta, keyingi davrlarda ham qishloq jamoasi davlatning asosiy xo'jalik va ijtimoiy yacheykasi bo'lgan. Jamoalar yerlarga amalda jamoa yer egaligi asosida egalik qilsa-da, biroq davlat hokimiyati o'zini barcha yerlarning oliy egasi deb hisoblagan va jamoaning erkin a'zolaridan daromad solig'i undirib turgan. Zero, aholining asosiy qismini aynan erkin jamoachi-dehqonlar tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining jadallashuvi, ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi va uni sug'orish inshootlarini qurish, saqlab turish va kengaytirish vazifalariga rahbarlikni o'z qo'llariga olgan jamoaning yuqori qismi (keyinchalik bu vazifa davlatga o'tgan) tomonidan o'zlashtirilib borishi jamoa ichidagi ijtimoiy va mulkiy tabaqalanishning qonuniy jarayoni bo'lgan.

Qadimgi Misr ijtimoiy tuzumi evolutsiyasi juda sekin kechganligi bilan xarakterlanadi. Uning ijtimoiy tuzumida, xususan, iqtisodida barcha podsholiklar davrida davlatning **podsho-cherkov xo'jaligi** hukmron bo'lib turgan. Ammo Ilk podsholik davrida katta podsho xo'jaligi bilan bir qatorda boshqa yirik xo'jaliklar ham mavjud bo'lgan. Podsho, garchi ijtimoiy pog'onaning eng yuqorisida tursa ham, hali qudratli amaldorlar ichida yaqqol ajralib turmagan. Bu davrda olib borilgan ko'pdan-ko'p urushlar qul asirlarning sonini ko'paytirgan. Qullarning mehnatidan yirik xo'jaliklarda foydalanila boshlangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qadimgi Misrda aholining davlat xo'jaligiga yalpi jalb qilinishi sharoitlarida mehnatkashlar ommasining alohida tabaqalari huquqiy holatida boshqa Sharq mamlakatlari singari muhim farqlar bo'lmagan. Bu, hatto, mehnatkashlarga nisbatan ishlatiladigan iboralarda ham o'z aksini topgan. Misrda oddiy kishilarga nisbatan **meret** degan ibora keng ishlatilgan. Bundan tashqari "**podsho xiz-**

matchisi" degan yarim erkin qaram kishilar ham mavjud bo`lib, ular Misr davlatining barcha davrlarida aniq huquqiy mazmunga ega bo`lmagan.

Davlat tuzumi Ilk podsholik davrida Quyi Misrning Yuqori Misr tomonidan bo`ysundirilishi jarayoni davom etgan. Natijada yagona podsholik tashkil topgan. Lekin bu birlik mustahkam bo`lmagan va Ilk podsholik davrining butun tarixi Yuqori Misr bosqinchilari bilan Quyi Misr o`rtasida kurashlarga to`la bo`lgan.

Ilk podsholik davridagi fir`avnlari va ularning a`yonlari yangi yerlar ochish, sug`orish inshootlari qurish ishlariga katta e`tibor berganlar. Mamlakatning yagona markazlashgan davlat ostida birlashuvi uni birmuncha iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy rivojiga olib kelgan.

Davlat tepasida podsho turgan. Uning atrofini bir qancha saroy amaldorlari va turli xizmatchilardan iborat ko`p sonli saroy a`yonlari o`rab turgan. Nil suvining ko`payib yoki kamayib borishini muttasil tekshirib turish, kanallar, ariqlar va to`g`onlarning ahvolini nazorat qilish podshoning maxsus amaldorlariga topshirilgan, jamoat ishlarini ham o`sha amaldorlar nazorat qilib turgan. Misrning yagona davlat qilib birlashtirilishi bu yerda markazlashgan byurokratik apparatning tashkil etilishini tezlashtirgan. Ushbu apparat yordamida markaziy hokimiyat kuchayib borgan, fir`avning qudrati yanada mustahkamlanishda davom etgan. Bu ayniqsa uning ilohiylashtirilib borilishida ko`zga yaqqol tashlangan. Quldor zodagonlar ham podsho xo`jaligining o`zida muhim mansablarni egalaganlar. Bu davr davlat apparatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ilk podsholik davrida davlatning asosiy vazifalaridan biri Nil vodiysida sug`orish ishlarini tashkil etish hisoblangan. Sug`orish ishlariga oliy rahbarlik davlatning qo`lida bo`lgan.

Mahalliy boshqaruv Joylarda hokimiyat va boshqaruv organlari qadimgi nomlarning an`analari bo`yicha tashkil etilgan. Nomlarning hukmdorlari – **nomarxlar** hokimiyat tepasida turib, ularning atrofida cherkov kohinlari, katta amaldorlari va turli darajadagi saroy chinovniklari bo`lgan.

Armiya Ilk podsholik davrining armiyasi to`g`risida shuni aytish mumkinki, doimiy qo`shin, garchi davlat qo`shni qabilalar bilan ko`pdan-ko`p urushlar olib borgan bo`lsada, endigina shakllana boshlagan edi.

3. Qadimgi podsholik

(miloddan avvalgi 2800-2250 yillar)

Qadimgi podsholik (ba`zi manbalarda Ko`hna podsholik deb ham yuritiladi) mamlakatni Ilk podsholikdan ko`ra xiyla mustahkamroq qilib jip-

slashtirgan va ko`proq markazlashtirgan. Shu sababli Misrda bu vaqtda birinchi markazlashgan kuchli davlat tashkil topgan deb hisoblanishi ham bejiz emas.

Ijtimoiy tuzumi

Qadimgi podshohlik xo`jaligi rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turgan. Yaxshi tashkil etilgan ishchilar armiyasi mamlakat aholisini barcha zarur narsalar bilan ta`minlab turgan. Bu vaqtga kelib aholi turli qatlamlarining turmush darajasi endi aniq belgilab qo`yilgan edi. Jamiyat ijtimoiy pog`onasining yuqori qismida katta yerlarga egalik qiluvchi yirik quddor zodagonlar turgan. Yirik yer egalari saroyda va davlat boshqaruvida muhim mansablarni egallaganlar.

Misr jamiyatida **kohinlar** alohida rol o`ynaganlar. Ular butun jamiyat a`zolarining izzat-hurmatiga sazovor bo`lgan, chunki kohinlar narigi dunyo haqidagi barcha narsalardan xabardor kishilar deb hisoblangan. Kohinlar, xususan, misrliklar uchun muqaddas hisoblangan "Murdalar kitobi"da yozilgan oxiratda bo`ladigan sarguzashtlar va oxirat sudi haqidagi zarur bilimlarning egalari sifatida qadrlanganlar. Bundan tashqari, kohlarning davolash, murakkab arxitektura inshootlarini barpo qilish san`atini egallaganliklari, yer uchastkalari maydonlarini hisoblashni bilganliklari ularning ahamiyatini yanada oshirgan. Kohinlar podsho hokimiyatining tayanchi bo`lib xizmat qilgan. Kohinlar g`oyat katta kuchga ega bo`lib, ular bilan podsho hokimiyati o`rtasida ba`zan ixtiloflar bo`lib tursada, fir`avnlarning ilohiyligi to`g`risida ta`limotlar yaratganlar va aholi ommasini "Quyosh farzandi"ga (Misr hukmdorlarini shunday deb ataganlar) itoat qilishga undaganlar. Buning evaziga fir`avnlr o`z navbatida cherkov xo`jaligini soliqlardan va davlatga ishlab berishdan ozod qilganlar.

Davlatdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar **jamoachi-dehqonlar** bo`lgan. Ular "ishchilar otradlari"ga birlashtirilib, nafaqat qishloq xo`jaligida, balki turli inshootlarni qurishda, yo`llar yotqizishda, kanallar qazishda ishlatilganlar. "Ishchilar otradlari"ni fir`avn o`z chinovniklari orqali boshqargan.

Fir`avn o`z ixtiyoridagi yer-mulkning xiyla qismini saroy ahillariga, avvalgi mustaqilliklaridan mahrum bo`lgan nomarxlarga bo`lib bergan. Ishlab chiqarish qurollaridan mahrum bo`lgan ko`p minglab dehqonlar, podachilar, baliqchilar va hunarmandlar ularning amlokklarida xizmat qilgan, ular qilgan ishlari evaziga faqat **ta`minot** ("saboq") olgan.

Qadimgi podshohlik davrida garchi qul bozori mavjud bo`lib, odamlar sotilgan va sotib olingan bo`lsada, **qullar** hali juda kam bo`lgan. Qulga

egalik faqat jamiyatning yuqori qismidagina emas, balki aholining o`rta qatlamlarida ham tarqalgan. Qullar mehnatidan odatda uy xo`jaligidagi ishlarda foydalanilgan. Asir qilib haydab keltirilgan kushitlar, liviyaliklar va osiyoliklardan qullarga aylantirilgan kishilarning kuchidan ham foydalanganlar. Bu davrda qullarning soni qancha bo`lganligi haqida aniq raqam bo`lmasa ham, lekin barcha mavjud ma`lumotlarga ko`ra qullarga qaraganda erkin kishilar ko`p bo`lgan. Zotan, kambag`allar huquq jihatdan qullardan farq qilsalarda, o`zlarining iqtisodiy ahvoriga ko`ra qullarga yaqinlashib kelganlar. Mustaqil ravishda mayda xo`jaligini tebratgan oddiy dehqonlarning soni doim kamayib borgan. O`zlarining chek yerlarini sotish hollari uchraydi. Ba`zi manbalarda davlatmandlar (amaldorlar, koinlar va shu kabilar) marhamatiga qarab qolgan "och va yalang`ochlar" tilga olinadi. Fir`avnga, nomarxlar, koinlar va amaldorlarga moddiy boylikni oddiy dehqonlar va hunarmandlar yaratib bergan. Ularning zimmasiga ko`pgina doimiy soliqlar va majburiyatlar bilan bir qatorda yana boshqa qo`shimcha turli to`lovlar ham joriy qilinar edi. Masalan, nomarxlar o`z yozuvlarida hosil bo`lmay qolgan yili o`z fuqarolarini ochlikdan o`lib ketishidan saqlab qolganliklarini pesh qilib maqtanadilar va buning evaziga "ochlarning chorvasi qo`limizga kirdi", deb qo`shib qo`yadilar.

Davlat tuzumi Qadimgi podsholik davrida Misrning davlat tuzumi boshqaruvning qattiq markazlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Diniy mafkura yordamida podsho va uning faoliyatining ilohiylashtirilishi fir`avning nufuzini juda mustahkamlagan. Podsho hokimiyati kuchaya borib mustabid tus olgan. "Podsho" so`zining o`zi shu qadar muqaddas nomga aylanganki, bu nomni ovoz chiqarib aytishga hech kimga huquq berilmagan, hukmdorni tilga olish juda zarur bo`lib qolgan taqdirdagina majoziy "**Fir`avn**" ("Ulug` uy" degani, shu uyda turadigan shaxsni nazarda tutib aytilgan") iborasini ishlatganlar. Hujjatlarda esa fir`avnni rasmiy ravishda "Rahmdil xudo", Tog`, "Ra farzandi" (ya`ni Quyosh o`g`li) va boshqa shu kabi nomlar bilan ataganlar.

Fuqarolar podsho oldida paydo bo`lganlarida "qorinlari bilan" yiqilishga va o`z hukmdorining oyog`i tagidagi tuproqni o`pishga majbur bo`lganlar, ammo nufuzli ba`zi shaxslargina podshoning oyog`ini o`pishga haqli bo`lgan.

Fir`avning qo`lida butun qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati to`plangan. Fir`avnlarning asosiy diqqat-e`tibori barcha muhim davlat ishlariga qaratilgan. Sug`orish bo`yicha tadbirlar, sud, mansablarga tayinlash va bo`shatish, yorliqlar berish, majburiyatlar yuklash va ulardan ozod qilish, harbiy yurishlar, kemachilik bo`yicha tadbirlar, davlat quril-

ishi va yer osti boyliklarini qazib olish - bularning hammasi podshoning buyrug`i bilan amalga oshirilgan.

Fir`avn hokimiyati Qadimgi podsholik davridayoq u yoki bu sulola podsholigi vaqtida meros tariqasida o`tgan. Lekin sulolalar, ma`lumki, tez-tez o`zgarib turgan, ba`zi fir`avnlr, ayniqsa, notinch yillarda 3-4 yil podsholik qilganlar. Bunday holat misrliklarning hokimiyat haqidagi diniy ta`limoti bo`yicha ham ma`qullangan. Bu tasavvurlarga binoan, yangi fir`avn-xudoni yaratish uchun fir`avnlarning ilohiyligi yetarli hisoblanmagan. Ilohiylik darajasiga boshqa kishilar, masalan, ko`pincha nomarxlar, kohinlar ham erishishi mumkin edi. Bunday diniy tasavvurlar asosida fir`avnlik darajasiga faqat uning avlodlari emas, boshqa kishilar, jumladan, nomarxlar ham sazovor bo`lishlari mumkin bo`lgan.

Fir`avnning vakolatlari nihoyatda katta bo`lishiga qaramay, uning hokimiyati shaxsiy, o`zboshimchalikka asoslangan emas edi. Yagona Misr davlatining siyosiy barqarorligi, taxtning daxlsizligi fir`avnning hukmron tabaqalar, ayniqsa, harbiylar va kohinlar tabaqasi yuqori qismining manfaatlari yo`lida qanchalik muvaffaqiyatli xizmat qilishiga bog`liq edi. Fir`avnning hokimiyati diniy-axloqiy adolat me`yorlari bilan ham ushlab turilgan.

Davlatdagi eng muhim mansabdor shaxslar - oliy amaldorlar, harbiy boshliqlar, xazinani saqlovchilar, ish boshqaruvchilar, oliy kohinlar, odatda, podsho xonadoni a`zolari bo`lgan.

Fir`avn mamlakatni oliy mansabdor (keyinroq borib arab tilida vazir deb atalgan shaxs) boshchilik qiladigan xiyla murakkab byurokratik apparat vositasi bilan idora qilgan.

Vazir - jati davlat boshqaruvida podshodan keyin birinchi o`rinda turuvchi oliy amaldor hisoblangan. Jati dastlab hukmdor qarorgohi joylashgan shaharning kohini bo`lgan va asosan podshoning o`g`illaridan biri yoki fir`avnning boshqa yaqin qarindoshlaridan biri bu lavozimga tayinlangan. U shu bilan birga saroy marosimlarini, fir`avnning devonxonasini yuritadigan podsho saroyi boshlig`i hisoblangan. Jatining vakolatlari asta-sekin podsho saroyini, podsho xo`jaligini boshqarish doirasidan tashqari chiqib, kengayib borgan. U barcha davlat muassasalari va ibodatxonalarni nazorat qilgan, lashkar to`plashni boshqargan, sud organlari faoliyatini yo`naltirib turgan, mahalliy boshqaruvni yuritgan, turli davlat ustaxonalarini boshqargan, podshoning barcha ishlariga rahbarlik qilgan, uning qaramog`ida turli davlat omborxonalari bo`lgan. Ba`zan jati o`z vazifalarining bir qismini boshqa yuqori amaldorlarga o`tkazgan. Davlatdagi katta va kichik amaldorlarning hammasi jatiga bo`ysungan.

Jati quyidagi maxsus ixtisoslashgan boshqarmalarning boshliqlarini: harbiy mahkamaga rahbarlik qiluvchi, armiya qurollantirish va ta'minlashga, qal'alar qurishga va boshqalarga javob beruvchi "**qurollar uyining boshlig'i**" – davlat omborlari va omborxonalarini qo'riqlovchi – "**Osmon beradigan, yer ishlab chiqaradigan va Nil olib keladigan narsalarga boshchilik qiluvchi**", yirik qurilish va boshqalarga javob beradigan "**ishlar boshlig'i**" kabilarni bevosita nazorat qilib turgan.

Armiya Qadimgi podsholik davrida harbiy ishlar ancha rivojlangan. Bu davrda bir qator harbiy boshliqlik unvonlari mavjud bo'lganligi ma'lum. Misr armiyasi 2 qismdan: 1) maxsus o'rgatilgan va yaxshi tayyorlangan soldatlarning kichik otrادلari va, 2) qo'shinga bir necha oyga olingan va vaqtincha dala ishlaridan ozod qilingan dehqonlarning katta lashkaridan tashkil topgan.

Bu davrda davlatning harbiy, ijtimoiy ishlar, moliya-soliq, sud kabi muhim idoralari tashkil etilgan.

Sud Qadimgi jamoa sudlari borgan sari podsho yurisdiksiyasi²³ vakillari tomonidan siqib chiqarilgan. Oliy sud instansiyasi - "**Oltita buyuk uylar**" poytaxtda bo'lgan. **Eng oliy sud hokimiyati fir'avnga** tegishli edi. U kechiktirib bo'lmaydigan hollarda ishonchli kishilaridan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jinoyatlar bilan bog'liq maxfiy ishlarni hal etish uchun maxsus sudyalari tayinlangan.

Mahalliy boshqaruv Davlat hududi ilgorigidek alohida viloyatlar - nomlarga bo'lingan, ularning tepasida hukmdorlar - nomarxlar turgan. Ular viloyatning xo'jalik boshqaruvini amalga oshirganlar va maydonlarni sug'orishga tayyorlash, yangi to'g'onlar barpo etish, kanallar qazish haqida buyruq berganlar, shuningdek hosilni yig'ib olish va uning aholi o'rtasida taqsimlanishi ustidan kuzatib turganlar.

Inqirozi Qadimgi podsholikning oxirgi bosqichiga kelib fir'avning hokimiyati zaiflasha boshlagan. Mamlakatdagi barcha yerlar faqat nomigagina fir'avning mulki hisoblangan. Haqiqatda esa podsho pomestiyalari saroydagi va boshqa xizmatlar uchun mukofot tariqasida bo'lib berilgan in'om-tortiqalar hisobiga kamayib ketgan. Fir'avn atrofidagi sig'indilar (podshoning iltifoti bilan uning saroyida yashab turuvchilar) armiyasi ko'payib borgan, bu esa podshoning xazinasini bo'shatib turgan. Katta amaldorlar soliqlar to'lashdan, ularning yerlaridan o'tadigan fir'avn xizmatchilarini boqishdan, o'z kishilarini ijtimoiy ishlarga jo'natishdan ozod bo'lib olishga erishganlar. Ko'p joylarda nomlarni boshqarish meros bo'yicha otadan o'g'ilga o'tgan.

²³ Sud qilish huquqi.

Siyosiy tarqoqlik

Podsho hokimiyatining inqirozi Misrda "notinch yillar"ning boshlanishiga olib kelgan. Ko`pdan-ko`p saroy to`ntarishlari mamlakatda ro`y berayotgan siyosiy inqirozdan darak berardi. Qadimgi podsholikning oxirlarida markaziy hokimiyat zaiflashib, turli nomlarda ajralish kayfiyati kuchaygan.

VI sulola fir`avnlari ayrim ibodatxonalarni va butun-butun shaharlarni soliqlar va majburiyatlardan ozod qilib, ularga yon bera boshlaganlar. Podsholarning bizgacha yetib kelgan imtiyoz yorliqlari ana shulardan guvohlik beradi.

Detsentralizatsiya (parchalanish) jarayoni tobora kuchayib, miloddan avvalgi XXIII asrda Misr bir-birlari bilan o`zaro urushib turadigan bir nechta mayda mustaqil davlatlarga ajralib ketgan. Siyosiy tarqoqlik taxminan miloddan avvalgi XXIII asr o`rtalaridan XXI asr o`rtalarigacha davom etgan. Siyosiy tarqoqlik jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqargan. Sug`orish tarmoqlari ishdan chiqqan, xo`jalikning vayron bo`lishi va ocharchilik xalq ommasi orasida norozilikni kuchaytirgan, g`arbdagi liviya qabilalari va Sharqdagi ko`chmanchi qabilalar Misrga bostirib kirib, uning boyliklarini talab qaytganlar, poytaxt shahar Memfis ham inqirozga uchragan, mamlakatni birlashtirishni uddasidan chiqmagan. Ammo bu davrda Yuqori Misrdagi Fiva bilan Quyi Misrdagi Gerakleopol asta-sekin kuchaya boshlagan va ular o`rtasida Misrni birlashtirish uchun kurashlar boshlanib, oxir oqibatda Fiva g`olib chiqqan, u birlashgan Misrning poytaxti bo`lib qolgan. Ana shu paytdan e`tiboran miloddan avvalgi 2250 yildan 1750 yilgacha davom etgan Umummisr miqyosidagi O`rta podsholikka asos solingan. Mamlakat tartibsizliklardan chiqib olgan va Misr yana yagona hokimiyat ostida bo`lib qolgan. Fir`avnlarni yana ilgariydek "ilohiy" mavqega erishganlar.

4. O`rta podsholik

(miloddan avvalgi 2250-1750 yillar)

Ijtimoiy tuzumi

Qadimgi podsholik davrining ikkinchi bosqichida joylarda nomlarning vorislik huquqiga ega bo`lgan urug`lari oldinga chiqqan boshlagan. Bu davrning oxiriga kelib mahalliy zodagonlarning ahamiyati kuchaygan. Ularni aholining keng ommasi qo`llab-quvvatlagan. Natijada mamlakat yarim qaram viloyatlarga bo`linib ketgan. Fir`avnlarning umum Misr doirasidagi hokimiyati inqirozga uchragan.

Viloyatlarning markaziy hokimiyatdan ozod bo`lishi joylarda xo`jalik faoliyatining jonlanib ketishiga olib kelgan.

O`rta podsholik davrida ham Misr iqtisodiyotida bir muncha jiddiy

siljishlar yuz bergan. Nizolar va tarqoqlik davrida ishdan chiqqan sug'orish tarmoqlari tiklanibgina qolmasdan, balki yanada kengaytirilgan. Masalan, Fayum vohasida ayniqsa muvaffaqiyatli ishlar qilingan. U yerdagi ko'l yanada chuqurlashtirilgan va sun'iy suv omboriga aylantirilgan. Qilingan ana shu ishlar natijasida ekin maydoni kengaygan. Ichki va tashqi savdo rivoj topgan. Bungacha don asosiy qiymat o'lchovi bo'lib kelgan bo'lsa, endi uning o'rmini oltin egallagan.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ayirboshlashning kengayishi natijasida mulkiy tabaqalanish kuchayib borgan.

O'rta podsholikning gullab-yashnagan davridagi (miloddan avvalgi XVIII asr) ijtimoiy munosabatlar quyidagi ikkita muhim belgilari bilan xarakterlanadi: 1) bir tomondan, xususiy xo'jaliklarda quldorlikning ancha o'sishi sodir bo'lgan va yer egalarining ahvoli o'zgargan, 2) boshqa tomondan, qishloq jamoalarining tabaqalashuvi **mayda mulkdorlar - najislar** (Misr tilida "najis" so'zi "kichkina" degani) tabaqasining tashkil topishiga olib kelgan. Najislar ichidan boyigan xo'jayinlar va mayda dehqonlar ajralib chiqqan. Boyib ketgan aholining o'rta qatlami kohinlar va chinovniklar safiga qo'shilib borgan, xattotlar, savdogarlar va hatto yer egalari bo'lib qolgan. Ularni kuchli najislar deb ataganlar, Bular mustaqil xo'jalik yurituvchi, ba'zan esa qullar ham sotib oladigan boy dehqon va hunarmandlar bo'lgan. Ularga o'z ahvoli bo'yicha qullardan kam farq qiladigan kambag'al najislar qarama-qarshi turgan. Qashshoqlashib qolgan dehqonlarning ham soni ko'payib borgan. **Xemu-nesut** ("podsho qullari") deb ataluvchi qullar o'sha xonavayron bo'lgan dehqonlardan tashkil topib borgan bo'lsa ajab emas, ular boshqa qullardan mehnatlari qat'iy tartibga solinganligi bilan farq qilgan. Ular xazinadan beriladigan ishlab chiqarish vositalari bilan ish qilganlar, mehnatlari evaziga oziq-ovqat bilan ta'min etilganlar va qisman qo'shin safiga ham jalb qilinganlar. Podsho o'z qullaridan ba'zilarini ayrim shaxslarga tortiq-in'om sifatida hadya qilgan. Shu bilan birga urushda asir qilib yoki sotib olingan qullar hisobiga ham haqiqiy qullarning soni oshib borgan. Ba'zi hujjatlarda qo'ldan-qo'lga o'tgan 20-30 tadan iborat qullar guruhlarini tilga olinadi. Eng og'ir va sermashaqqat ishlar qullarga yuklangan. Masalan, un qiluvchi cho'rilar tiz cho'kkan holda qo'l tegirmonda donni maydalab un qilganlar.

Jamiyat hayotida shaharliklarning o'rta tabaqasi ham muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Shahar qullarga va yerlarga egalik qiluvchi yuridik shaxs sifatidagi jamoa ahamiyatiga ega bo'lgan.

Davlat tuzumi

O`rta podsholikning iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashi va siyosiy qudrati avjiga chiqqan davr XII sulola hukmronlik qilgan miloddan avvalgi 2000-1888 yillarga to`g`ri keladi. Lekin XII sulola fir`avnlari Qadimgi podsholikning mustabid hukmdorlari kabi qudratga molik bo`lmaganlar. Ular davlat mablag`larining ko`p qismini o`zlarining shaxsiy ehtiyojlari uchun sarf qilishga botinolmaganlar.

O`rta podsholik fir`avnlari mamlakat yangidan birlashgandan keyin ham o`z boylıklarining ancha qismini va nufuzlarini saqlab qolgan viloyatlardagi zodagonlar bilan inoq bo`lishga uringanlar.

O`rta podsholik davrining boshida nomarxlarning hokimiyati deyarli cheklanmagan xarakterga ega bo`lgan. O`rta podsholikning gullab-yashnagan davrida fir`avnlr davlatni birlashtirishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilib viloyatlarning eski, mustaqil hukmdorlarini yangi, podsho hokimiyatiga bo`ysunadiganlari bilan almashtirib, nomarxlarning hokimiyatini cheklashga harakat qilganlar. Podshoning asosiy tayanchi saroy a`yonlari, xizmatchi zodagonlar, shuningdek, podshoni qo`riqlovchi qo`shinlar bo`lgan.

Nomarxlar o`z yozuvlarida fir`avnga sodiqliklarini ta`kidlasalar-da, o`zlarini xiyla mustaqil his qilganlar, hatto yil hisobini ham fir`avnlr podsholigi hisobi bilan emas, balki o`z hisoblari bilan yurgizganlar. Ularning har qaysisining shaxsiy qo`rasi va harami, shuningdek, o`z qo`shini bo`lgan, u viloyatda fir`avning noibi bo`lishdan ko`ra, fir`avnga tobe kichikroq podsho bo`lgan. Oliy hokimiyatning bunga toqat qilishidan boshqa chorasi bo`lmagan.

XII sulola hukmronligining oxirlarida, Amenemxet III davrida (miloddan avvalgi XIX asrning ikkinchi yarmida)gina hokimiyatning markazlashishi kuchayib, nomarxlarning imtiyozlari xiyla qirqilgan. Amenemxet III nomarxlar hokimiyatini kuchsizlantirishni uddasidan chiqqan, lekin bu O`rta podsholik davrida Misr jamiyatini larzaga solgan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni tugatmagan. Ezuvchi sinflar tomonidan zulmning kuchayishi ozod dehqonlar va qullarning noroziligiga sabab bo`ladi. Buning natijasida miloddan avvalgi XVIII asrda butun Misr jamiyatini va davlatini larzaga solgan juda katta qo`zg`olon bo`lib o`tadi. Bu hodisalar Misrni giksoslar (Osiyoning jangovar ko`chmanchi qabilalari) tomonidan bosib olinishini osonlashtiradi. Ular hukmronligi 100 yildan ortiq davom etadi. Giksoslarga qarshi kurash davlatning harbiy qudratining oshishiga olib keladi. Fiva nomi bilan boshchilik qilgan kurash natijasida faqat Misrning o`zi ozod bo`lib qolmasdan, balki giksoslar bosib olgan boshqa

hududlar ham qo`lga kiritiladi.

Bundan keyingi davr Yangi podsholik davri deb yuritiladi.

5. Yangi podsholik

(miloddan avvalgi 1584-1071 yillar)

Giksoslarning mag`lubiyati va haydab yuborilishi natijasida qayta tiklangan Misr davlati Yangi podsholik²⁴ deb ataladi.

Urushlar natijasida Misr hududi ancha kengaygan va u yirik davlat bo`lib qolgan. Bu Misr tarixida ikkinchi oltin asr deyiladi.

Ijtimoiy tuzumi

Yangi podsholik davrida xo`jalikning hamma sohalarida g`oyat katta o`zgarishlar ro`y bergan. Qishloq xo`jaligi va hunarmandchilikda bir qancha yangi qurollar paydo bo`lgan va eskilari takomillashtirilgan. Ekin maydoni kengaytirilgan va ba`zi yerlar yiliga ikki marta ekiladigan bo`lgan. To`qimachilik rivojlangan, transport vositalari takomillashtirilgan, g`ildirakli aravalar paydo bo`lgan, ichki va tashqi savdoda ayirboshlash ancha kuchaygan, pul xo`jaligining salmog`i natural xo`jalikka nisbatan o`sib borgan. Osiyodan keltiriladigan kumush asosiy qiymat o`lchovini tashkil etgan.

Iqtisodiy yuksalish yirik xususiy mulkchilik va quldorlikning o`sihiga yordam bergan, bu esa keng aholi ommasining albatta qashshoqlanishi bilan bog`likdir. Qullarga bo`lgan talab kuchaygan, bu talab ko`pincha o`n minglab va hatto yuz minglab haydab keltiriladigan asirlar hisobiga ta`min etilgan. Ko`p sonli urushlar qulchilikning rivojlanishiga ko`maklashgan. Quldorlik munosabatlari Yangi podsholik davrida Misr jamiyati ichiga chuqur kirib borgan. Qullarga hatto uncha yuqori mavqega ega bo`lmagan kishilar - cho`ponlar, hunarmandlar, bog`bonlar va boshqalar ham egalik qilgan. Bu davrda qulchilikning rivojlanishini uncha katta bo`lmagan xo`jaliklarda qo`l mehnatiga bo`lgan talabning o`sishi bilan izohlash mumkin. Qullar mehnatidan endilikda faqat uy xo`jaligidagina foydalanilmagan. To`g`ri, harbiy asirlarning bir qismidan xizmatkorlar (xo`jayini kelayotgan arava oldiga tushib yugurib yuruvchi yugurdaklar, shaxsiy soqchi va hatto jangchi va mirshab) sifatida foydalangan bo`lsalarda, anchagina qismi qullar safini to`ldirib turgan, ular dalalarda, ustaxonalarda, tosh konlarida va boshqa konlarda ishlaganlar, xullas, hamma og`ir va mashaqqatli ishlarni qilganlar. Qullarning ichidan tosh yo`nuvchilar, tosh tashuvchilar, temirchilar, to`qimachilar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar chiqqan.

Misr jamiyatida dehqonlar ommasining asosiy qismini, shubhasiz,

²⁴ Ilk podsholik, Qadimgi podsholik va O`rta podsholik shartli ravishda shunday atalganidek, Yangi podsholik ham shartli ravishda shunday nom olgan. Qadim vaqtlarda ular bunday atalmagan, albatta. U 500 yildan ortiq yashagan.

erkin jamoachilar tashkil etgan. Faqat ulardan ba'zilarigina boyib borganlar. Jamoachi-dehqonlarning asosiy qismi kambag'allashib borgan. Ularning ko'plari ishlab chiqarish qurollaridan mahrum bo'lib, ish hayvonlari va urug'likni g'aznadan qarzga olishga majbur bo'lganlar. Nasihatnomalardan birida hosil bo'lmay qolib, xo'jaligi vayron bo'lgan dehqonning mushkul ahvoli bayon qilingan. Amaldor undan don talab qilganu bechoraning esa hech nimasi bo'lmagan. Uni yerga yotqizib, kaltak bilan savalaganlar. Umumiy kafillik bilan bog'langan qo'shnilar qochib ketib, boqimanda uchun butun jamoani javobgarlikdan saqlab qolganlar. Dehqonlarni podsholikka va cherkovga qarashli yerlarda majburiy tartibda ishlatganlar. Shuningdek, xususiy kishilarga tegishli dehqonlar ham bo'lganligi ma'lum. Ba'zi boyroq dehqonlar o'zlarining chorvasiga, ishchi kuchiga ega bo'lishlari mumkin edi. Cherkov dehqonlari hatto qullarga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan. Vaqti-vaqti bilan odamlar, chorvalar, parrandalar ko'rikdan o'tkazib turilgan, bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ularning zimmasiga turli majburiyatlar yuklash, ulardan u yoki bu ishlarda foydalanish edi.

Hukmron tabaqalar oddiy jamoachilarni va qisman qullarni ekspluatatsiya qilish hisobiga kuchaygan va boylik orttirgan.

Yangi podsholik davri ijtimoiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyati kohinlarning yuksalishida bo'lgan. Oliy kohinlarning boyligi oshishi natijasida ularni markaziy hokimiyatga nisbatan bog'liqlikdan ozod bo'lishi sodir bo'lgan. Kohinlik yopiq nasliy tabaqaga aylangan.

Kohinlar bilan mahkam bog'langan va ibodatxonalar daromadining juda katta qismiga sherik bo'lgan eski, nasliy zodagonlar bilan bir qatorda, yangi toifa - harbiy xizmatchi zodagonlar paydo bo'lgan. Jangchi Yaxmos (mashhur fir'avning adashi va safdoshi)ning mansabda ko'tarilib borishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Giksoslar bilan bo'lgan urushlarda nom chiqarib, "eshkakchilar boshlig'i", ya'ni daryo floti qo'mondoni bo'lib ko'tarilgandan keyin podsho unga oltindan tashqari yigirmatacha qul va cho'ri (asirga tushgan giksoslardan) hamda chek yer in'om qilgan.

Davlatmand tabaqalardan chiqqan jang arava egalari ham muhim o'rin egallagan.

Davlat tuzumi

Yangi podsholikning davlat tuzumi markaziy byurokratik boshqarish tizimining mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Mamlakat ikkita ma'muriy okrugga: Yuqori va Quyi Misrga bo'lingan. Ular o'z navbatida viloyatlarga (nomlarga) bo'lingan. Har bir okrug tepasida fir'avning maxsus noibi turgan. Bu esa boshqaruvning yanada markazlashuviga yordam bergan. Nomlarda butun

hokimiyat podsho chinovniklari qo`lida to`plangan. Shahar va qal'alarni fir'avn tomonidan tayinlanadigan boshliqlar idora etgan.

Bu davr davlat tuzumining ilgarigilaridan ajratib turadigan belgisi shunda bo`lgan ediki, Yangi podsholik davrida fir'avn boylik va martabalarini meros qilib olgan amaldorlarga qarama-qarshi o`laroq quyidan chiqqan amaldorlarga homiylik qilgan. Shunday qilib, xizmatchi zodagonlar aristokratik zodagonlarni ikkinchi o`ringa surib qo`ygan.

Davlatdagi birinchi va oliy amaldor jati (vazir) bo`lgan (albatta, podshodan keyin). Vazir saroyda turli saroy marosimlari o`tkazilishini, devonxonani, poytaxtni boshqarishni yuritgan, mamlakatning butun yer fondini va butun suv ta'minoti tizimini boshqargan; uning qo`lida oliy harbiy hokimiyat bo`lgan, oliy sud nazorati to`plangan; butun soliqqa oid va mahalliy boshqaruv ustidan nazorat qilish ham unga tegishli edi.

Davlatda yana boshqa muhim vazifalarni bajaruvchi mansabdor shaxslar bo`lgan. Ularning ichida, ayniqsa, bosh xazinachi va butun podsholik ishlari boshlig`i alohida o`rin tutgan. Bulardan tashqari, ko`p sonli mirzalar mavjud bo`lib, ular buyruqlarni yozganlar, dehqonlar va hunarmandlarning ishlari ustidan nazorat qilganlar, xazinaga tushadigan daromadlarni hisoblaganlar.

Fir'avnlarning bosqinchilik siyosati Misrning butun davlat boshqaruv tizimida o`z izini qoldirgan. Xususan, xo`jalik boshqaruvida harbiy boshliqlarning roli kuchayib, davlat boshqaruvi harbiy xarakter kasb eta boshlagan,

Miloddan avvalgi XII-XI asrlarda Yangi podsholik inqirozga uchragan. Shimolda va janubda to`plangan qarama-qarshi kurashuvchi kuchlar bir-birini mag`lubiyatga uchrata olmay mamlakatni ikki qismga bo`linishiga olib kelganlar. Bunday sharoitlarda yagona davlat hokimiyati faqat nomigagina saqlanib qolgan, xolos.

Yangi podsholikdan keyingi davr Misr tarixida So`nggi podsholik yoki Liviya-Sais davri deb ataladi.

6. So`nggi podsholik

(miloddan avvalgi XI-VI asrlar)

Bu davrning boshida yana tarqoqlikka intilish tendensiyasi kuchaygan, buning alomatlari Yangi podsholikning oxirlaridayoq sezilgan.

Janubda (Fivaidada) kohinlik hukm surgan, u o`zini aholining boshqa qismiga qarama-qarshi qo`yib, ulardan tobora ajralib, alohida toifaga aylanib borgan. Ibadatxonalarning ko`pdan-ko`p ruhoniylari tepasida Bosh kohin Amonning oliy kohinlari turgan. Keyinroq oliy kohinlar vazifasiga

fir'avning qizlari yoki singillari tayinlangan, bu esa ruhoniylar hokimiyati bilan podsho hokimiyatining murosaga kelishga uringanligidan dalolat beradi.

Shimoliy Misrda, aksincha, yollanma askarlar liviyaliklar o'z ta'sirlarini mustahkamlab borganlar. Ular yerli misrliklarni armiya xizmatidan chetlashtirganlar va harbiy xizmat bilan bog'liq imtiyoz va in'omlardan mahrum qilganlar. Shu tariqa kohinlar bilan raqobat qiluvchi harbiylar toifasi tashkil topgan. Garchi liviyaliklar hokimiyatni qo'lga olgan bo'lsalarda, bu vaqtinchalik bo'lgan, mamlakat tez orada mayda bo'laklarga bo'linib ketgan. Deyarli har bir nomda o'z qo'shnisi bilan doim janglashib turgan o'zining mustaqil podshosi o'tirgan. Kohinlar va harbiy zodagonlar (liviyalik harbiylar) jamoachilarni qattiq ekspluatatsiya qilgan. Ko'p chek yerlar sotilib, xususiy mulkka aylangan.

Tashqi vaziyat yomonlashganligi tufayli, harbiy asirlar mamlakatga deyarli butunlay kelmay qo'nganligidan qullar qatorini o'z vatandoshlari hisobidan to'ldirib turishga intilganlar. Xonavayron bo'lgan jamoachilar qarzlarini to'lay olmaganidan keyin qullarga aylantirilgan.

Miloddan avvalgi VIII asrdagi fir'avnlardan biri Bokxoris qarzdorlarni qulga aylantirilishiga qarshi kurashmoqchi bo'lgan. U qarzdorlarni ozodlikdan mahrum qilishni taqiqlab, mol-mulkini musodara qilishgagina yo'l qo'ygan. Ammo bu islohot muvaffaqiyat qozona olmagan. Bokxorisning o'zi ozgina vaqt podsholik qilgan, uni Quyi Misrdagina tan olishgan, shuning uchun ham uning grek an'analarida bayon etilgan qonunlari ijtimoiy tabaqalanish jarayonini uzoq vaqt to'xtatib turolmagan.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Misrda o'rnatilgan dastlab ef-mopiyaliklarning, so'ngra osur podsholarining hukmronligi mamlakat ijtimoiy-siyosiy tuzumida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmagan. Ular mahalliy podsholarni olib tashlamaganlar, faqat bo'ysunish va xiroj to'lashnigina talab qilganlar.

Efiopiya va osur podsholari bir-birlarini zaiflashtirganlar. Shimoliy Misrning eng katta markazi bo'lgan Saisning hukmdorlari bundan ustalik bilan foydalanganlar. Sais hukmdorlari ichida Psammetixning to'le baland bo'lgan. U avvalo Janubiy Misrda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan, so'ngra efioipyaliklarni Fivadan surib chiqargan va mahalliy podsho sulolalarini tugatib, butun mamlakatni o'z qo'l ostiga birlashtirgan. Psammetix XXVI (Sais) sulolasini (miloddan avvalgi taxminan 663-525 yillar) boshlab bergan.

Bu davrda Misr iqtisodiy va siyosiy jihatdan yana ravnaq topgan va yana markazlashgan davlatga aylangan.

Bu vaqtda jamiyatning erkin kishilar va qullarga bo`linishi ilgarigiga qaraganda jadallashgan. O`zini qullikka sotish haqidagi bitimlar keng tarqalgan. Erkin kishilarning keng qatlamlarining kambag`allashuvi o`sgan. Aholining ko`p qismi ilgarigidek xazinaga, cherkovlarga, zodagonlarga qaram bo`lgan. Hunarmandlarning ahvoli yomonlashgan.

Bu vaqtda kohinlar bilan bir qatorda harbiylar ham imtiyozli tabaqa bo`lib qolgan.

Mahalliy zodagonlarning asosiy negizini ilgarigidek nomarxlar va shahar hukmdorlari tashkil etgan. Martabali zodagonlarning boshqa vakillari o`zlarining ilgarigi o`tmishdoshlari: oliy amaldor, xazinani saqlovchilar, ishlar boshliqlari, sudyalalar va boshqalardan kam farq qilganlar. Bu davrda harbiy boshliqlar alohida o`rin egallagan.

7. Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari

Huquq manbalari

Barcha qadimgi davlatlardagi kabi Qadimgi Misrda ham huquqning dastlabki manbai **odat huquqi** bo`lgan. Lekin, albatta, davlatning tashkil topishi bilan asta-sekin yozma qonunchilik paydo bo`lib, rivojlana boshlagan. Qadimgi grek yozuvchisi Diodar Sitsiliyalikning xabar berishicha, Misrda birinchi qonun chiqargan afsonaviy podsho - birinchi sulolaning birinchi podshosi Menes bo`lgan, ikkinchisi podsho Sazixis bo`lgan (bu Qadimgi podsholik davri podsholaridan bo`lsa kerak). Gerodot va Diodar ko`rsatganlaridek, Sazixis qarz olish shartlarini belgilovchi qonun e`lon qilgan. Unga ko`ra, shaxslarning o`z otasining yoki shaxsan o`zining mumiyyosini (mumiyo shaxslar o`lganidan keyin jasadiga surtish uchun ishlatilgan) garovga qo`ymasdan turib va shu tariqa qarzini to`lashni ta`minlamasdan qarz olishi taqiqlangan. Bunday holda qarz olgan qarzdor vafot etsa, uning qarzi to`lanmaguncha dafn etilmagan, chunki uning mumiyyosi garovda bo`lgan.

Misrda miloddan avvalgi XIII asrda **yoza qonunchilik** ancha taraqqiy qilgan. Masalan, ayniqsa, Ramzes II podsholigi davrida ko`p qonunlar chiqarilgan. Bu qonunlar Misr armiyasini, jamiyatning ijtimoiy tuzumini va byurokratik davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan. Nihoyat, miloddan avvalgi VIII asrda podsho Bokxorising sakkizta kitobi (qirqta noma)dan iborat katta kodeksi paydo bo`lgan. Mazkur qonunlar bo`yicha Misr tarixida birinchi marta qarzdorlarni qarzi uchun qulga aylantirish taqiqlab qo`yilgan, dehqonlarga esa o`z chek yerlarini sotishiga va garovga qo`yishiga ruxsat berilgan, birinchi marta huquqni qo`llash tanho kohinlarning mashg`uloti bo`lmay qolgan va shartnomalar qat`iy va muqaddas qoida shaklida yozilmaydigan bo`ldi. Miloddan avvalgi VI asrda

podsho Amasis mahalliy hokimiyat faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar chiqargan. Ipuserning mashhur nutqida "sud zalining qonunlari" eslab o`tiladi. Bular, shubhasiz, sudlar tomonidan foydalaniladigan qonunchilik bo`yicha qo`llanma yoki huquqiy to`plam bo`lgan. Bizgacha yetib kelgan qonunchilikka oid huquqiy hujjatlar ichida "vazirga instruksiya" deb nomlanadigan akt muhim o`rin tutadi.

Misrda vazir (jati)ning va boshqa oliy mansabdor shaxslarning faoliyati xarakteri ko`lamidan ko`rinadiki, ularning ma`muriy farmoyishlari qonun ahamiyatiga ega bo`lgan va, demak, odatlar va qonun singari huquq manbai rolini o`ynagan. Zero, oliy sud hokimiyati podsho va jati qo`lida ekan, sud qarorlari ham huquqning u yoki bu sohasi bo`yicha yangi huquqiy me`yorlar o`rnatishi mumkin.

Mulk huquqi Qadimgi Misrda yerga egalikning bir qancha turlari mavjud bo`lgan. Butun yerlar rasman podshoning mulki hisoblangan. Biroq amalda turli huquqiy rejimdagi bir qancha yerga egalik shakllari mavjud bo`lgan.

Fir`avn yerlarni ibodatxonalarga, xizmatchi zodagonlar vakillariga, kohinlarga va harbiylarga vaqtincha egalikka berib qo`ygan.

Ibodatxonalarga berilgan yerlar ularning mansabdor shaxslarining birgalikda foydalanishiga kelib tushgan. XIX sulola hukmronligi davrida amalda bu yerlar kohinlar o`rtasida qur`a tashlash yo`li bilan taqsimlana boshlagan. Bunday yerlarda uni ishlashga va yetishtirilgan hosilning ma`lum qismini davlatga va ibodatxonalarga berishga majbur hisoblangan dehqonlar bo`lgan. Yerlar podsho chinovniklari tomonidan boshqarilgan. Podshoning soliq yig`uvchilari ibodatxonalarning soliq yig`uvchi shaxslari bilan birgalikda bevosita ishlab chiqaruvchilardan renta-soliq`i undirishni amalga oshirganlar. Hujjatlardan ko`rinishicha, soliq yig`uvchilar o`z mavqelaridan foydalanib, suiste`mliklar qilganlar, tez-tez o`z foydalariga ham yig`imlar olib turganlar. Bunday soliq va yig`imlarni to`lay olmagan yoki to`lashdan bosh tortgan dehqonlar yerlardan haydab yuborilgan. Faqat fir`avn Xoremxeb (miloddan avvalgi XIV asr) soliq to`plamagan dehqonlarni yerdan haydab yuborilishini taqiqlagan edi. Biroq soliq to`lamagan dehqonlarga nisbatan turli tan jazolari (qamchi bilan savalash) berilishi nazarda tutilgan. XIX-XX sulolalardan boshlab kohinlar yerlarni davlat organlarining hech qanday aralashuviziz boshqara boshlaganlar.

Ibodatxonalardan tashqari alohida harbiylar va kohinlar ham o`z xizmatlari evaziga mukofot tariqasida podsholardan yer olib turganlar. Podsho qandaydir amaldorni mansabga tayinlab, unga mukofot tariqasida yana yer, ishlab chiqarish qurollari va qullar ham bergan.

Ibodatxonalar yoki harbiy va chinovniklarga berilmay qolgan boshqa barcha davlat yerlari dehqonlar jamoalarining egaligida boʻlgan va bevosita oqsoqol - kserp tomonidan idora etilgan.

Haydalmaydigan yerlar - bogʻlar va qurilish uchastkalari haydaladigan (ekin ekiladigan) yerlarga qaraganda boshqacharoq huquqiy mavqega ega boʻlgan. Podsho bunday yerlarni hech qanday xizmat oʻtab berish majburiyatlarisiz bergan. Podsho ularni xohlagan kishiga hadya qilishi mumkin boʻlgan. Ehtimol, bunday yerlar xususiy mulk boʻlib qolgan va uni olgan kishilar sotishi va hadya qilishiga ruxsat etilgan.

VIII suloladan boshlab podsho haydaladigan yerlarni ham faxriylarga maʼlum xizmat evaziga emas, balki oddiy hadya sifatida bera boshlagan.

Ibodatxonalar va alohida fuqarolar egaligidagi yerlar baʼzi hollarda oldi-sotdi, hadya, ijara shartnomalarining predmeti boʻlishi mumkin edi. Yerlar faqat nomigagina davlatniki deb tan olingan, amalda esa xususiy mulk boʻlib qolgan. IV va, hatto, III sulolaga oid hujjatlarda yerlarni, shu jumladan, haydaladigan yerlarni, uylarni olish-sotish, hadya qilish, meros qilib qoldirish haqidagi hujjatlar uchraydi.

Yerga nisbatan mulk huquqining oʻtkazilishi maʼlum rasmiyatchiliklarga qatʼiy rioya qilishlikni talab etgan (bu haqda quyiroqda "majburiyat huquqi" bilan tanishganimizda alohida toʻxtalamiz).

Harakatdagi ashyolar xususiy mulk predmeti hisoblangan. Podsho tomonidan yer bilan birga inʼom qilingan ish chorvasi va quroli (inventar) olgan shaxsning xususiy mulki boʻlib qolgan va uni tasarruf qilish mumkin boʻlgan. Misrda koʻpdan-koʻp xarajatlar talab qiluvchi marhumlarga bagʻishlangan marosimlarga katta ahamiyat berilgan. Badavlat kishilarga bu maqsadlarda alohida ajralmas mulk ajratilgan. Undan keladigan daromadlar maʼlum maqsadlarda belgilangan. Bu mulk goʻyo oila mulkini tashkil etgan. Qadimgi Misrda qullar xususiy mulk sifatida koʻrilgan, lekin ularni ekspluatatsiya qilish Gretsiya va Rim singari yuqori darajaga chiqmagan. Qullar oʻz oilasi va mulkiga egalik qilishi mumkin boʻlgan. Ular sodir etgan jinoyatlari uchun xoʻjayinlari tomonidan emas, davlat hokimiyati organlari tomonidan jazolangan. Qullar agar xoʻjayinlari shafqatsiz munosabatda boʻlsa, ibodatxonalardan boshpana izlashga va oʻz xoʻjayinlari ustidan shikoyat qilishlari mumkin edi. Bu ularni ibodatxonalar xizmatchilariga aylanishiga olib kelgan.

Majburiyat huquqi Misrda majburiyatlar asosan **shartnomalardan** kelib chiqqan. Shartnomalar uzoq vaqtgacha kohinlar va mansabdor shaxslar oldida tantanali qasam ichish orqali tuzilgan. Faqat podsho Bokxoris davrida (miloddan avvalgi VIII asrda)

shartnomalar bunday diniy tartibdan xalos etilgan. Biroq yozma shartnomalarning matni keyinchalik ham ularning tantanalari ravishda og`zaki va`da berishdan kelib chiqqanligini aks ettiradi.

Tovar-pul oborotining rivojlanishi bilan **oldi-sotdi shartnomasi** ancha keng tarqala boshlangan. Qadimgi podsholik davridayoq toshxatachalarga tovar ayirboshlash uchun bozorlarning tasviri tushurilganligi ma`lum, shu bilan birga ularda ba`zi hollarda sotib oluvchilarning qo`llarida monetalar ushlab turganligi tasvirlangan. Biroq Qadimgi podsholik davrida savdo asosan davlat tomonidan chet elliklar bilan olib borilgan. Savdo munosabatlari Yangi podsholik davrida, ayniqsa, XVIII sulola hukmronligi vaqtida (miloddan avvalgi XVI-XIV asrlarda) ancha rivojlangan.

Yerlarni faqat oliy tabaqa vakillarigina begonalashtirishi (tasarruf etishi) mumkin edi. Dehqonlar o`zlarining yer uchastkalarini birovga o`tkazish huquqini faqat podsho Bokxoris davrida olgan edilar. Buning ustiga, bu huquq faqat podsho tomonidan ibodatxonalarga, harbiylarga yoki chinovniklarga in`om qilingan yer uchastkalariga vaqtincha egalik qilib turgan dehqonlarga berilgan.

Yerlarni yoki qurilishlarni olish-sotish shartnomasi ma`lum rasmiyatchiliklarga amal qilgan. Bunda ketma-ket uchta dalolatnoma tuzilgan. Birinchi dalolatnoma sotuvchi va xaridor o`rtasidagi oldi-sotdi shartnomasining predmeti haqidagi qiymati to`la to`langanligini ko`rsatib tuziladigan bitim bo`lgan (summasi odatda ko`rsatilmagan). Bunda sotuvchi o`z zimmasiga mulk huquqini xaridorga o`tkazish hamda bu maqsadda keyingi dalolatnomalarni tuzib, yerni sotib oluvchiga bu yerga nisbatan boshqa uchinchi shaxs tomonidan egalik huquqi talab qilinmasligiga kafolat berish majburiyatini olgan. Ikkinchi dalolatnoma diniy xarakterga ega bo`lgan va sotuvchi qasam ichish yo`li bilan shartnomani tasdiqlagan. Va nihoyat, uchinchi dalolatnoma sotib oluvchiga yerga egalik qilishni o`tkazish hisoblangan. Bu sud oldida amalga oshirilgan va bundan keyin yer kitoblariga sotib oluvchining ismi sotuvchining o`rniga qayd etilgan. Keyinchalik ikkinchi dalolatnoma tuzilmaydigan bo`lgan va faqat birinchi va uchinchi dalolatnomalar tuzilgan. Mulk huquqi faqat ashyolarning topirtilishi bilan, ya`ni yerga egalik qilishga kirishish bilan o`tkazilgan.

Shartnomalarning keng tarqalgan turlaridan biri **qarz shartnomasi** bo`lgan. Misrda bu shartnomaning ob`yekti pul va shuningdek qishloq xo`jalik mahsulotlari (don, urug` va boshqalar) bo`lgan.

Qarzni undirish vositalari ham nazarda tutilgan. Buning uchun Bokxoris qonunlari chiqarilgunga qadar qarzdorning va uning qandaydir

qarindosh-urug`larining shaxsi garovga qo`yilgan. Qarz muddatida to`lan-masa garovga qo`yilgan shaxs qulga aylantirilgan. Qarzni ta`minlash vositasi sifatida ba`zan otasining yoki qarz oluvchining boshqa yaqin qarindoshlarining yoxud bevosita shaxsan qarzdorning mumiyosi garovga qo`yilgan.

Bokxoris podsholigidan boshlab qarzi uchun qulga aylantirish bekor qilingan, dehqonlarning birinchi marta yerni garovga qo`yishiga ruxsat etilgan, bu esa dehqonlarning yersizlanish jarayonini kuchaytirgan. Shu bilan birga, kreditorlarning o`zboshimchalik bilan qarzdorning mulkini, ayniqsa, yerni ishlash uchun zarur bo`lgan ishlab chiqarish qurollarini va chorvasini garov sifatida egallab olishlari taqiqlangan. Biroq bu qoida ibodatxonalar uchun va davlat organlari uchun istisno edi.

Misrda **mulkni ijaraga berish**, ya`ni ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga ma`lum mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun o`tkazish shartnomalari ham uchraydi. Agar ijaraga berilgan qul yoki cho`ri kasalligi tufayli ishga yaroqsiz bo`lsa, mulk egasi buning uchun olgan ijara haqining ikki baravari miqdorida qaytarib berishi lozim bo`lgan. Ijaraga olingan ashyoning nobud bo`lishi ijaraga oluvchini ijara haqini to`lashdan ozod qilmagan.

Qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallangan yerlar Misrda, odatda, bir yildan ortiq muddatga berilmagan. Qurilish uchun, shaharlarda uylar uchun va boshqalar uchun mo`ljallangan yer uchastkalarini xohlagan muddatga ijaraga berish mumkin bo`lgan. Maydonlarni ijaraga olganda ijara haqi odatda hosilning bir qismi tarzida to`langan. Ijara shartnomasi shartlari bo`yicha yerni ishlash ijaraga oluvchining faqat huquqi bo`lmay, balki uning majburiyati ham hisoblangan. Zero, yerlarni ijaraga olib, ularni qarovsiz tashlab qo`yishga yo`l qo`yilmagan.

Oddiy shirkat shartnomalari (birgalikdagi faoliyat to`g`risidagi shartnomalar) ham bo`lgan. Bunda sheriklar (ishtirokchilar) deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxslar foyda olish yoki qonunga zid bo`lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o`z hissalarini qo`shish va birgalikda ish qilish majburiyatini oladilar. **Bagaj va yuk tashish shartnomalari** ham uchragan. Bu shartnoma bo`yicha bagaj yoki yukni belgilangan manzilga eltib berish hamda ularni olishga vakolat berilgan shaxsга topshirish majburiyatini oladi. Bunda yo`lovchi belgilangan yo`l haqini, bagaj topshirgan bo`lsa, bagaj tashish haqini ham to`lash majburiyatini oladi. Yuqoridagilardan tashqari birovning ashyolarini **omonat saqlash shartnomalari** ham uchraydi. Saqlab turish tekin bo`lgan; yuk saqlash din homiyligi ostiga qo`yilgan yaxshi qo`shnichilik bitimi bo`lgan.

Oila va meros huquqi

Misrda davlatning juda erta kelib chiqqanligi sababli oilada ko'pgina matriarxat qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Masalan, u yerda aka-singillar va opakalar o'rtasidagi nikoh keng tarqalgan edi. Bolalar dastlab ko'proq ona liniyasi bo'yicha nomlanganlar. Qarindoshlar ichida onaning otasi va akasi katta hurmatdan foydalangan.

Oilada ayollar juda yuqori mavqega ega bo'lgan. Manbalarda u "uy bekasi" deb nomlanadi. Biroq V suloladan boshlab oilada erning huquqlari mustahkamlanishi va kengayishi tomonga o'zgarib borgan. Ayol, ilgari-gidek oilada nisbatan yuqori mavqega ega bo'lsada, endi o'z eri bilan teng huquqli deb tan olinmagan. Ko'p xotinlikka yo'l qo'yilgan. Har bir misrlik, agar u kohinlar tabaqasiga mansub bo'lmasa, ikkinchi xotin olish huquqiga ega bo'lgan. Badavlat misrliklarda haramlar paydo bo'lgan. Biroq haramdagi ayollar uning egasining xotini hisoblanmagan va ularning bolalari ham haram egasining oilasi tarkibiga kirmagan.

Nikoh shartnoma asosida tuzilgan, ayol o'z nomidan shartnoma tuzgan. Nikoh shartnomasi bo'yicha xotin o'z shaxsiy mulkini saqlab qolgan va er unga nikoh xarajatlarini uchun ma'lum summa berishi lozim bo'lgan. Xotin mulkining saqlanishini ta'minlash maqsadida uning batafsil ro'yxati tuzilgan va erining barcha mulki garovga qo'yilgan. Ba'zan er xotiniga oilaning butun boyligini o'tkazgan. Bunday shartnoma, albatta, vazirning tasdig'idan o'tishi lozim bo'lgan.

Qadimgi Misrda ajralish mutlaqo erkin bo'lgan. Xotin o'z xohishi bilan nikohni bekor qilishi mumkin edi. Ajralish hollarida xotin odatda ma'lum summa olgan, bu nikohdan bo'lgan bolalar esa ota mulkiga meros huquqini saqlab qolganlar. Biroq, agar ajralish erning talabi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, uning barcha mol-mulki katta o'g'ilga o'tgan. Katta o'g'il esa bu mol-mulki boshqa barcha bolalar o'rtasida taqsimlashi lozim bo'lgan.

Misrda bolalar ma'lum darajada mustaqillikdan foydalanganlar, ular o'zlarining shaxsiy mulklariga ega bo'lishlari mumkin edi.

Meros barcha bolalar o'rtasida teng taqsimlangan. Qizlar ham o'g'illar bilan teng hissa olganlar. Meros taqsimlanayotganda uni amalga oshiruvchi katta o'g'il ba'zi imtiyozlarga ega bo'lgan. U merosni vaqtincha qo'lda tutib turishi va taqsimlashi evaziga biroz ko'proq hissa olishi mumkin edi. Bolalar otaning, onaning, shuningdek, onasi qarindoshlarining mol-mulkini qonun bo'yicha meros qilib olishlari mumkin bo'lgan. Bolalar bo'lmasa meros qoldiruvchining aka-ukalari va opasingillari qonuniy merosxo'rlar bo'lgan. Dafn qilish marosimlari uchun ajratilgan mulk

bo`linmas hisoblangan va ular egalari o`lganidan keyin o`tkaziladigan marosimlarga sarflangan.

Misr huquqiga **vasiyat** tushunchasi ham ma`lum. Meros qoldiruvchi o`limidan oldin o`z mulkining bir qismini alohida shaxslarga vasiyat qilib qoldirishi mumkin bo`lgan. U shuningdek, vasiyatda o`z mulkining ma`lum qismini xudolar yo`liga qurbonlik qilinishini merosxo`rlar zimmasiga yuklashi mumkin edi.

Jinoyat huquqi

Misr huquqida jinoyat deb tan olinadigan xatti-harakatlarning ancha keng doirasi ma`lum. Ijtimoiy va davlat tuzumi asoslariga o`zgina bo`lsada suiqasd qilishlik uchun og`ir jazolar nazarda tutilgan. Davlatga xiyonat, qo`zg`olon ko`tarish va fitna uyushtirish hollarida faqat aybdorning o`zi emas, uning onasi, opa-singillari, butun oilasi javobgar bo`lgan. Bunda isyonchi o`lim jazosiga mahkum etilib, uning jasad hammasi qatori yerga ko`milmay, suvga tashlab yuborilgan.

Davlat tuzumiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bilan bir qatorda diniy qoidalarni buzgan shaxslarga ham o`lim jazosi berilgan. Xudolarga bag`ishlangan hayvonlarni qasddan o`ldirish, ibislarni (issiq mamlakatlarda yashaydigan laylakka o`xshagan uzun oyoqli qush), mushuklarni, boyo`g`lilarni va boshqalarni o`ldirish, Nil daryosini ifloslantirish, murda ko`milgan go`rni qazish, taqiqlangan joyga murdani ko`mish va boshqalar ham og`ir jinoyat hisoblangan. Afsungarlik uchun o`lim jazosi nazarda tutilgan; insonni sehrli jodular yoki ichimliklar bilan sehrlab qo`yish eng og`ir jinoyatlardan hisoblangan. Shuningdek, xudo Totoning muqaddas kitoblarida o`rnatilgan qoidalardan chetga chiqib davolash san`ati qoidalarini buzishi natijasida kasalning o`limiga sababchi bo`lsa, og`ir jinoyat hisoblangan. Xuddi shu kabi yuqoridagi qoidalarni buzib yangi raqs kashf etsa yoki qo`shiq to`qisa ham og`ir jinoyat hisoblangan.

Davlat sirlarini oshkor qilishlik og`ir jinoyat hisoblanib, buning uchun aybdorlarning tili kesilgan. Soxta narsalar yasash ham jinoyat deb topilib, bu jinoyatda ayblanganlarning qo`li kesilgan. Qalbaki muhrlar, pullar yasaganlarning ikki qo`li kesilgan, shuningdek, soxta tosh-tarozilardan foydalanganlarga tana a`zolaridan birini mayib qilish (kesib tashlash) jazosi qo`llangan.

Yuqoridagilar bilan birga o`lim jazosi qasamxo`rlik jinoyatlari, odam o`ldirish va ba`zi hollarda yolg`on xabar berish uchun ham nazarda tutilgan. Otasini o`ldirgan farzandning tanasidan go`shtlarini sug`urib olib, so`ngra tikanlarga yotqizganlar, undan keyin yoqib yuborganlar.

O`g`irlik uchun og`ir jazo berilgan. Chorvani o`g`irlaganlik uchun va

boshqa ba'zi hollardagi o'g'irlik uchun qo'lni kesish jazosi nazarda tutilgan. Ibodatxonaga tegishli mulkni o'g'irlaganlarga - 100 qamchi urilgan va o'g'irlangan mulk qiymatining 100 baravar hajmida jarima solingan. Ibodatxonaga tegishli chorvani o'g'irlagan kishini tana a'zolaridan birini mayib qilib, so'ngra qulga aylantirilgan. Marosimlarga oid narsalarni o'g'irlaganlar o'limga mahkum etilgan. Qabrni buzib o'g'irlik sodir etgan shaxsning quloqlari, burni kesilgan va qoziqqa o'tqazilgan.

Xotinning eriga xiyonati (bevafoqlik qilishi) og'ir jinoyat hisoblangan. Bunda xiyonatkor xotinning burni kesilgan, uning ishtirokchisiga esa kas-tratsiya jazosi berilgan.

Shu narsa xarakterliki, Misrda **jazolar** juda og'irligi bilan ajralib turgan. Uning asosiy maqsadi qo'rqitish bo'lgan. Ko'rib o'tganimizdek, davlatning tashkil topishi bilan qonli o'ch olish odati bekor qilingan. Xun olish odati allaqachon yo'q bo'lib ketgan. Misrda jazolarning eng ko'p tarqalgan turi o'lim jazosi hisoblangan. U yoqib yuborish yoki qoziqqa o'tqazish, boshini kesish, osish, tiriklayin ko'mib yuborish, qo'l-oyoqlarini butga tortib mixlash kabi usullarda qo'llangan. Yuqori lavozimlardagi kishilarga o'limga mahkum qilinganda o'zini-o'zi o'ldirishga ruxsat etilgan. Bokxoris qonuni bo'yicha o'lim jazosi qulga aylantirish jazosi bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan. O'lim jazosi bilan birga tana a'zolarini mayib qiluvchi jazolar: qo'llarini, quloqlarini, burnini, tilini kesish, kas-tratsiya va boshqalar; qamchi bilan urish ko'rinishidagi tan jazolari, majburiy tartibda og'ir ishlarga jo'natish (katorgaga surgun) jazosi; nihoyat, turmada saqlash kabi jazolar bo'lgan. Ba'zi hollarda pul jarimalari ham amalda bo'lgan. Obro'sizlantirish jazosi ham qo'llangan. Masalan, jinoyatchini sharmanda qiluvchi simyog'och oldiga qo'yib qo'yish jazosi ham nazarda tutilgan edi. Bulardan tashqari, erkin kishini qaram ishchiga aylantirish jazosi ham bo'lgan.

Sud jarayoni Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritish bir xil bo'lgan. Jinoyat ishlari ham fuqarolik ishlari singari jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atilgan. Sud ishlarini yuritishda oshkoralik va og'zakilik bo'lmagan. Sud prokurorlik vazifasi, ya'ni ayblovni qo'llash huquqi jabrlanuvchining o'ziga berilgan. Jabrlanuvchi o'z shikoyatida aybdorga qanday jazo berilishi kerakligini, uningcha qancha miqdorda jarima undirilishi lozimligini ko'rsatishi kerak bo'lgan. Ayblanuvchi sudga o'zini o'zi himoya qilishi lozim bo'lgan.

Sud ishlari yozma tartibda olib borilgan. Ayblanuvchi yoki javobgar yozma javob bergan. Tomonlar o'z arizalarida ish bo'yicha fikr-e'tirozlarini bayon qilganlar. Biroq sud ishlarni maxfiy ravishda, motivlar

keltirmay, dalillarsiz ko`rib hal qilgan va qaror chiqargan. Sudya kimning foydasiga ishni hal qilsa, indamay turib haqiqat timsoli - xudo Maatning tasvirini uning labiga tekkizgan.

Sudda guvohlarning ko`rsatmalari, guvohlarning va shikoyatchilarning qasamlari, ko`zdan kechirish (masalan, qabrlarni tahqirlash ishlari bo`yicha), qiynash (qo`li va oyoqlariga og`riq yetkazish) kabilar dalil hisoblangan. Jinoyat ishlarida ham, mulkiy nizolar bo`yicha fuqarolik ishlarida ham tomonlar va guvohlar qasam ichganlar, shu yo`l bilan ko`rsatmalariga ishonirishgan.

Shunday qilib, yuqorida ko`rib o`tganimizdek, Qadimgi Misrda huquqning alohida sohalari va institutlari bo`yicha u yoki bu manbalarda huquqiy me`yorlar o`rnatilgan bo`lsa-da, lekin ular ma`lum tizimga solinmagan, yagona huquqiy to`plamga keltirilmagan va huquq sohalari bo`yicha ishlab chiqilmagan edi. Bizning yuqoridagicha tarzda huquqni tizimga solishimiz, albatta, shartli bo`lib, uni o`rganishimizga yordamlashishi mumkin, xolos.

QADIMGI MESOPATAMIYADA DAVLAT VA HUQUQ

(Shumer va Babil)

1. Davlatlarning paydo bo`lishi

Mesopatamiyaning janubiy qismi (Ikkidaryo oralig`i)da, ya`ni Fors qo`ltig`ining Dajla va Frot daryolari oralig`ida qadimgi tosh asri (paleolit) zamonlarida hamma yerlar botqoqlikdan iborat bo`lib, bu yerda odamlarning hayot kechirishi mumkin bo`lmagan. Lekin yangi tosh (neolit) davrining oxiriga kelib, tevarak-atrofdagi qirlarning aholisi, ehtimol, zo`r ehtiyoj (oziq-ovqat zahiralarning tugab qolishi va dushmanlarning siquvi) sababli asta-sekin Ikkidaryo oralig`iga ko`chib kelib joylasha boshlagan. Bular Sharqdan ko`chib kelgan shumeriylar hamda g`arbdan va shimoli-g`arbdan kirib kelgan semit (somiylar) qabilalari edi (ko`chib keluvchi semitlarning birinchi to`lqini bundan keyin Akkad shahriga ko`ra akkadliklar nomini olgan).

Eng qadimgi odamlarning asosiy mashg`uloti ovchilik va ayniqsa baliq ovlash edi. Shuningdek, motigadan foydalanib qilinadigan dehqonchilik ham kichik ko`lamlarda rivojlana borgan. Ayni zamonda chorvachilik rivojlangan. Eshaklarni, keyinchalik ho`kizlarni so`qa (plug)ga qo`shishni o`rganishgan, shuningdek, ulardan yanchish uchun foydalanishgan. Motiga bilan dehqonchilik qilishdan so`qa bilan dehqonchilik qilishga o`tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida ancha katta siljishga olib kelgan. Ko`proq ekin maydonlarini o`zlashtirishga imkoniyat tug`ilgan. Ammo buning uchun botqoqliklarni quritish, dalalarni Dajla va Frot toshqinlaridan himoya qilish, sun`iy hovuzlarda suv zahiralarni (qurg`oqchilik vaqti uchun) saqlash kabi ishlarni amalga oshirish talab qilingan. Bunda o`z navbatida kanallar qazish, to`g`onlar qurish, quyosh harorati quritgan baland uchastkalarda esa quduqlar kovlash zarur bo`lgan. Keyinchalik dalalarni sug`orish usullari tobora takomillashgan.

Dajla va Frot daryolari vodiysi ko`pgina avlodlarning mehnati tufayli misli ko`rilmagan ko`p hosil beradigan serhosil mamlakatga aylangan. Bu yerda qishloq xo`jaligi va u bilan bog`liq holda hunarmandchilikning rivojlana borishi aholining tez o`sishiga olib kelgan. Katta qishloqlar paydo bo`lgan, ulardan ba`zilari kattalashib, devorlar bilan o`ralgan shaharlarga aylangan. Shu tariqa, miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri - II ming yillikning boshlarida birinchi shahar-davlatlar vujudga kela boshlagan. Bu yerlar dehqonlarning doimiy yashash joylariga, qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan chorva mahsulotlari ayirboshlanadigan markazlarga aylanib qol-

gan edi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'sishi Ikkidaryo oralig'i shaharlarining tobora mustahkamlanishiga, aholisining ko'payib borishiga yordamlashgan. Miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi choragida Uruq, Kish, Ur, Lagash kabi shahar-davlatlarning aholisi bir necha ming kishiga yetgan edi. Bu yerda ijtimoiy farqlar aniq sezilib qolgan, katta-katta yer uchastkalariga egalik qiluvchi urug' aristokratiyasi ajralib chiqqan, patriarxal oila jamiyatning asosiy yacheykasiga aylangan va bunda ota xotini va bolalari ustidan hokimlikni egallagan hamda oilaviy mulkni boshqaruvchi bo'lib qolgan. Ayrim katta oilalar sug'orish ishlari tobora rivojlanib, dehqonchilik texnikasi murakkablashgan sari yerlarni o'zlashtirish va daryo suvlarini jilovlash uchun zarur bo'lgan murakkab ishlarni endi uddalay olmay qolishgan. Oilalar qarindoshlik aloqalariga qaramay birlashadilar. Yer cheklarga taqsimlanadi va umumiy majburiy ishlar (to'g'onlar qurish, kanallar qazish kabi ishlar) birgalikda olib boriladi.

Ibtidoiy jamoadan qishloq jamoasiga o'tmishning ana shu bosqichida endi odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilishi paydo bo'ladi. Qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar vaqtida qo'lga tushirilgan asirlar qullarga aylantirila boshlangan. Eng og'ir ishlarda qullar mehnatidan foydalanilgan. Qullarni kanallar qazishga, g'ishtdan imoratlar qurishga majbur etilgan, cho'rilar esa qo'l tegirmon toshlari bilan don yanchishlari kerak bo'lgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda ibodatxonalarning yerlarini jamoa yerlaridan ajralib chiqishi hisobiga podsho-cherkov xo'jaligi ham tashkil topgan. Jamoachi-dehqonlar endilikda ilgariidek ibodatxonalarning yerlarini ishlashda ishtirok etmaganlar, balki ibodatxona xazinasiga rentasolig'i to'laganlar. Ibadatxonalarning yerlari turli toifadagi qaram kishilar, qullar tomonidan ishlangan. Biroq, bu jamoachilarni jamoat ishlaridan, yo'llar, sug'orish inshootlari va boshqalar qurishdan ozod qilmagan. Shaharlarda boshqaruvchilik vazifalarining murakkablashuvi bilan bir qatorda yerlarni, ibodatxona xo'jaligini, marosimlarni, jamoat ishlarini hisobga olish bilan shug'ullanuvchi shaxslardan tashkil topgan ma'muriy apparat o'sgan. Jamoa boshqaruvi organlaridan o'sib chiqqan bu apparat endi yangi ijtimoiy vazifalarni bajara boshlagan. U boshqa qishloq-jamoalariga nisbatan xilma-xil boshqaruvchilik vazifalarini amalga oshiruvchi shahar-davlatlar apparati bo'lib qolgan.

Shahar-davlatlar dastlab Ikkidaryo oralig'ining janubiy qismidagi ikkita qabilaviy guruhlar: shumerlar va akkadlarda kelib chiqqan. Miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlarida Ikkidaryo oralig'iga kelib joylashgan

turli qabilalar guruhlari batamom qo`shilib ketgan, lekin ularning asosiy qismlarining nomlari saqlanib qolgan. Bular janubda Shumer, shimolda Akkad edi. Shumer sivilizatsiyasining birinchi markazi Uruq bo`lgan. Akkad-semitlarning shaharlari ichida eng qadimiysi Akkad bo`lgan. Uruq aholisi, masalan, osmon xudosi An (akkadcha Anu)ga itoat etganlar. Ushbu xudoga bag`ishlangan ibodatxona esa faqat ma`muriy markaz bo`lib qolmay, hunarmandchilik, savdo markazi, xavfsizlik uchun zarur bo`lgan qo`rg`on ham edi.

Ikkidaryo oralig`ining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga uning atrofidagi yarim ko`chmanchi va ko`chmanchi kishilarning, boshqa madaniyatli qabilalarning yaqin bo`lishi ham ta`sir etgan. Qo`shni qabilalarning doimiy bostirib kirishi va qochib o`tishi Ikkidaryo oralig`i shahar-davlatlarining siyosiy ahamiyatini oshirgan, shuningdek, ularning ya-shashini ta`minlagan.

Ikkidaryo oralig`ining eng kuchli shahar-davlatlari o`rtasida butun mamlakat (yoki loaqal uning katta qismi) ustidan siyosiy hukmronlik qilish uchun qayta-qayta urushlar boshlanib ketgan.

Miloddan avvalgi XXVIII-XXVII asrlarda Kish shahar-davlati yuk-salib, uning hukmdori birinchi bo`lib lugal ("katta odam", "xo`jayin") degan unvonni olgan. Biroq Uruq hokimi Gilgamish (keyin afsonaviy qahramonga aylangan) miloddan avvalgi XXVII asrda Kish armiyasini yengib, Lagash, Nippur va boshqa shahar-davlatlarni bo`ysundirgan.

Miloddan avvalgi XXV asrda siyosiy hukmronlik Urga, XXV-XIV asrlar oralig`ida esa Lagashga o`tgan. Mamlakatning Lagash qo`li ostida birlashtirilishi, bir tomondan xo`jalikning rivojlanishiga yordam bergan, davlatning markazlashuviga sabab bo`lgan bo`lsa, ikkinchi tomondan tinimsiz urushlar va og`ir soliqlar aholining noroziligini kuchaytirgan. Natijada Lagashda davlat to`ntarishi bo`lib, hokimiyat tepasiga Uruinimgin keladi (2318-2312 yillar). U Lagashda olti yil podsholik qilib, ba`zi islohotlar o`tkazib, kambag`allar ahvolini yaxshilashga, ularga ba`zi yengilliklar berishga, soliq va yig`imlar miqdorini kamaytirishga harakat qilgan.

Miloddan avvalgi XXIV asr oxirida Lagash zaiflashib, Umma shahar-davlati kuchaygan va butun Shumer ustidan hukmronlik qila boshlagan. Uning hokimi Lugal-zaggisi Lagash, Ur, Uruq, Larsa, Adab, Nippur shahar-davlatlarni o`ziga itoat ettirib, Shumer podsholigini tashkil etgan. Ammo Shumer podsholigining mustaqilligi uzoqqa cho`zilmagan va tez orada semitlarning Akkad davlati tomonidan mag`lubiyatga uchragan. Akkad davlatining asoschisi o`z davrining yirik siyosiy arbobi Sargon I (2316-2261 yillar) edi. Sargon (haqiqiy podsho degani) dastlab Akkadda

o`z hokimiyatini mustahkamlab olgach, yanada kuchli qo`shin tuzib, Kishni bosib olgan. O`zini "Kish podshosi" va "Akkad podshosi" deb e`lon qilgan. Sargon I tez orada butun Shumeri o`ziga qaratib, Elamga qo`shin tortib, uning bir qancha shaharlarini bosib olgan. Fors qo`ltig`ida ham o`z hokimiyatini mustahkamlagan. Sargon I Elam, butun Mesopatamiya va Old Osiyoni o`z ichiga olgan g`oyat katta harbiy davlat barpo etib, o`zini "to`rt iqlim podshosi" deb e`lon qilgan. Bu janubi-g`arbiy Osiyodagi eng yirik dastlabki markazlashgan akkad-shumer "quldorlik davlati" edi. Shimoliy va Janubiy Ikkidaryo oralig`ining Sargon hokimiyati ostida birlashtirilishi mamlakatning har ikkala qismidagi quldor a`yonlarga foydali bo`lgan. Katta harbiy kuchga ega bo`lgan markazlashtirilgan istibdodning xalq ommasini tiyib turishni tashkil etishi osonroq bo`lgan. Ikkinchi tomondan, bepoyon davlat doirasida iqtisodiyotda katta siljishlar ro`y bergan, vaholanki, kichik davlatlarda bunday siljishlar bo`lishi qiyin edi. Azim daryolarning toshqinlarini tartibga soluvchi sug`orish ishlari butun mamlakat ko`lamida olib boriladigan bo`lib qolgan, bu tadbir hosilning osha borishiga imkon bergan. Yagona o`lchovlar va tosh-tarozi tizimi yaratilgan, buning natijasida davlat ichida savdo-sotiq aloqalari kuchaygan.

Akkad davlati qariyb 120 yil yashagan va miloddan avvalgi taxminan 2200 yilda Sharq tomondan kelgan urushqoq tog`liq gutiylar hujumi natijasida tor-mor qilingan. Lekin tez orada bosqinchi gutiylarga qarshi kurash boshlanib, bu kurashga Ur va Uruq shaharlari boshchilik qilgan. Miloddan avvalgi 2108 yilda gutiylar haydab chiqarilgan. Ikkidaryo oralig`i yana, bu safar Urning III sulolasi hokimiyati qo`l ostida birlashtirilgan, mazkur sulola miloddan avvalgi III ming yillik oxiriga qadar mamlakatni idora qilgan. Uning vakillari o`zlarini Shumer va Akkad podsholari deb - hatto "dunyoning to`rt iqlim podsholari" deb atashganki, bu narsa butun dunyoda hukmronlik qilishga da`vogar bo`lishidan dalolat beradi. Ba`zida ular hatto xudolar deb ataladilar. Urning III sulolasi hukmdorlari o`z davlatini yaxshi tashkil etilgan muntazam armiya yordamida idora qilganlar, podsholik sudlari tashkil etilgan, dastlabki qonunnomalar (Ur-Nammu Qonunnomasi)ni qabul qilganlar va hokazo. Lekin bu nisbatan markazlashgan davlat ham shahar-davlatlarni asosan harbiy kuch bilan birlashtirib turganligi va uning ichida o`zaro urushlar bo`lib turganligi sababli, xuddi Akkad davlati singari, uzoq yashamagan. Miloddan avvalgi XXI asrning eng oxirida, deyarli ayni bir vaqtda bostirib kirgan dushmanlar - g`arbdan amoriy qabilalari va Sharqdan elam qabilalari hujumi natijasida Shumer-Akkad podsholigi parchalanib ketgan.

Ikkidaryo oralig`ida Urning III sulolasi qulagandan keyin ikki yuz yildan ortiq siyosiy tarqoqlik va o`zaro urushlar bo`lib turgan. Bu vaqtda amoriylar Larsa, Isin, Mari, Ashshur, Eshkunna va Bobil kabi mustaqil davlatlarning hokimlari bo`lib olganlar. Mesopatamiyada hukmron bo`lish uchun ular bir-birlari bilan qonli urushlar olib borganlar. Bu urushlarda Bobil g`olib chiqib, amoriylar sulolasiga asos solingan. Qadimgi Bobil²⁵ podsholigi 300 yil (miloddan avvalgi 1894-1595 yillar) hukm surib, Ikkidaryo oralig`i tarixida chuqur iz qoldirgan. Bobil podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ravnaq topgan vaqti podsho Xammurapi davriga (miloddan avvalgi 1792-1750 yillar) to`g`ri keladi. Xammurapi tomonidan asos solingan va Ikkidaryo oralig`ining katta qismini o`z tarkibiga olgan Bobil davlati juda katta bo`lgan, lekin mustahkam bo`lmagan. Xammurapi o`lganidan so`ng Bobil qo`shnilari qator mag`lubiyatlarga uchragan. Miloddan avvalgi 1595 yilda Qadimgi Bobil podsholigi xetlar va kassitlar tomonidan tugatilgan. Miloddan avvalgi II ming yillik o`rtalarida Bobilda kassitlar sulolasi qaror topgan (miloddan avvalgi 1518-1204 yillar).

Bobilning yangidan yuksalishi miloddan avvalgi VII-VI asrlarga to`g`ri keladi. Miloddan avvalgi 626 yildan 539 yilgacha Yangi Bobil podsholigi hukm surib, bu vaqtda, ayniqsa, Navuxodonosor II (miloddan avvalgi 605-562 yillar) podsholigi davrida juda qudratli davlatga aylangan edi. Bu davrda yirik yer egaligi va quldorlik munosabatlari ravnaq topgan. Hunarmandchilik va savdo tez rivojlangan, ulkan ibodatxonalar, mudofaa va sug`orish inshootlari qurilgan. Podsho hokimiyatining tayanchi kohinlar bo`lgan.

Yangi Bobilning ravnaqi uzoqqa cho`zilmagan. Podsho Navuxodonosor II vafotidan keyin ruhoniylar bilan harbiylar o`rtasida kuchli to`qnashuvlardan so`ng taxtga o`tirgan ruhoniylar vakili Nabonid (miloddan avvalgi 556-539 yillar) podsholigi davrida mamlakatda fitna va qo`zg`olonlar avj olib, Yangi Bobil podsholigi ancha kuchsizlangan. Natijada eroniylar shohi Kayxusrav Bobilni bosib olgan va butun Mesopatamiyani o`ziga qaratgan. Shu bilan Mesopatamiyadagi Yangi Bobil podsholigi tugab, butun janubi-g`arbiy Osiyoda Eron podsholarining hukmronligi boshlangan. Bobil miloddan avvalgi VI-IV asrlarda eroniylarga, IV asrning 30-yillaridan boshlab yunon-makedoniyaliklarga, so`ng salavkiylarga tobe bo`lib qolgan.

²⁵ Akkadcha "babilon" - Bobili - xudo darvozasi podsholigi 300 yil (m.a. 1894-1595 yillar) hukm surib. Ikkidaryo oralig`i tarixida chuqur iz qoldirgan.

2. Qadimgi Shumerning ijtimoiy va davlat tuzumi

Qadimgi Shumerning ijtimoiy va davlat tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumining qoldiqlari saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi. Sun'iy sug'orish inshootlari barpo etish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi yuritishning xususiyatlari bu yerda hududiy **jamoalarning** uzoq yashashiga sharoit yaratgan.

Shumerning ijtimoiy hayotida **kohinlar** juda katta rol o'ynaganlar. Ular jamiyatning oliy tabaqasi hisoblangan. **Ibodatxonalar** qishloq xo'jaligini boshqarish markazlari bo'lgan. Dastlab ibodatxonalarning o'z yeri bo'lmagan, har bir qishloq ularga yer uchastkalari ajratgan. Bunday yerlarda **jamoachi-dehqonlar** ishlab, yig'ilgan hosilni ibodatxonaga berganlar. Asta-sekin ibodatxonalar bu yerlarni o'zlariniki qilib olib, ularda mustaqil xo'jalik yurita boshlaganlar.

Shumerda yerni olish-sotishga juda barvaqt ruxsat etilgan, bu esa ibodatxonalar yerlari ko'payishining asosi bo'lib qolgan. Yerlarning bir qismi arenda (ijara)ga berilgan. **Ibodatxonalarning** yerlarida yersiz dehqonlarning yollanma mehnatidan keng foydalanilgan. **Ibodatxonalar** kanallar qazishni tashkil etganlar, soliqlar yig'ganlar, qo'shni shahar va qishloqlar hayotini idora etganlar.

Shumer aholisining yarmidan ko'pini urug' jamoachilari tashkil etgan. Jamoa yerlari tobora talanib, sotilib va ayrim kishilar qo'lidagi xususiy mulkka aylanib borgan.

Shumerda **qullar** ham bo'lgan. Masalan, eng qadimgi Shumer hujjatlarida (miloddan avvalgi qariyb uch ming yil oldin) qullar tilga olinadi. Ammo ular hali juda oz bo'lgan, erkin odamlar esa ishlab chiqaruvchilarning asosiy ko'pchiligini tashkil etgan. **Qullarning** ko'pincha xudolarga atab qurbon qilinganligi ularning mehnatiga qanday kam ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Albatta, keyinchalik bu odatga amal qilinmagan, chunki endi ish kuchini bunday o'rinsiz yo'qotishga yo'l qo'yilmaydigan bo'lgan.

Qullar asosan yo urushlarda asir olinganlardan, yo chet ellardan sotib olinganlardan iborat edi. **Ibodatxonalarga** (ya'ni jamoalarga) va xususiy shaxslarga qarashli **Qullar** bo'lib, ular bir-biridan farq qilgan. Lekin jamoaga yoki xususiy xo'jayinlarga ishlab beradigan qullar eng boshdayoq huquqsiz bo'lishgan. **Shumeriylar** ularni xo'jayinlar oldida bosh eguvchilar deb atashgan.

Lekin qishloq jamoalarining erkin a'zolari orasida ham (ilgarigi urug' jamoalaridan farq qilib) tenglik bo'lmagan. Jamoa bilan aloqasini yo'qotgan jamoachilar kliyent (mijoz) huquqiy layoqatiga ega bo'lganlar

va shaxsan erkin bo`lib, ibodatxonalarga va xususiy shaxslarga iqtisodiy qaramlikka tushganlar.

Shumer yagona davlat emas edi. Uning hududida bir necha o`nlab mustaqil shaharlar va viloyatlar bo`lgan. Ularning ichida eng taniqlilari Eridu, Ur, Lagash, Umma, Uruq, Kish shaharlari hisoblangan.

Shaharlar va viloyatlar tepasida "ensi"²⁶ ("patesi") degan unvonga ega bo`lgan hukmdorlar turgan. Hukmdorning hokimiyati ayni bir shahar doirasidan tashqari chiqqan hollarda, hukmdorga **lugal**²⁷ (**podsho**) unvoni berilgan. Hukmdorlarning (patesilarning) funksiyalari bir xil bo`lgan. Ular asosan jamoat qurilishi va sug`orish inshootlarini, ibodatxona xo`jaligini boshqarganlar, jamoa marosimlariga boshchilik qilganlar, qo`shinga yo`lboshchilik qilganlar, oqsoqollar kengashi va xalq majlisiga raislik qilganlar.

Oqsoqollar kengashi va xalq majlisi hukmdorni saylaganlar, unga muhim ishlar bo`yicha tavsiyalar berganlar, uning faoliyati ustidan umumiy nazorat qilib turganlar, sud ishlarini amalga oshirganlar va jamoa mulkini boshqarib turganlar. Shunday qilib, bular hukmdor hokimiyatini cheklab turadigan organlar bo`lgan.

3. Bobil davlatining ijtimoiy tuzumi

Mesopatamiya jamiyatida iqtisodning ko`p ukladli xarakteri, sinflarning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetmay qolganligi, asosan podsho-cherkov xo`jaligida rivojlangan va jamoa ishlab chiqarishiga jiddiy ta`sir etmagan tovar-pul munosabatlarining ancha barvaqt va nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi - bularning hammasi ushbu jamiyatning ijtimoiy tuzumini ajratib turadigan belgilari bo`lgan.

Bobilning butun aholisi, avvalo, boshqa Mesopatamiya davlatlariniki singari qonun bilan muhofaza qilinadigan erkin kishilarga hamda moldek va mulk deb hisoblangan, tamomila xo`jayin ihtiyorida bo`lgan qullarga bo`lingan.

Qullar va quldorlar o`rtasidagi farqlar Mesopatamiya davlatlarining qonunlarida ham o`zining aniq ifodasini topgan. Eng birinchi qonunchilik manbalari (masalan, Ur-Nammu qonunlari) egasidan qochib ketgan qulni "xo`jayini"ga qaytarganlik uchun mukofot belgilagan. Ayniqsa, **Bobilda** (XQ)²⁸ qullar to`g`risida juda ko`p gapiriladi. Lekin shuni alohida ta`kidlash joizki, qonunlarda qullar to`g`risida qanchalik ko`p gapirilma-

²⁶ "Ensi" - "urug boshlig'i", "ibodatxona asoschisi" degani. Ensi (patesi) shahar bosh ibodatxonasining oliy kohini bulgan.

²⁷ "Lugal" - "katta odam", "xujayin", "janob" degani.

²⁸ Xammurapi qonunlarini bundan buyon XQ deb ifoda qilamiz. Undan keltiriladigan ilovalar aynan so`zma-so`z olinmay, tushunish onson bo`lishi uchun mazmuni to`liq beriladi.

sin, ular jamiyat moddiy boyliklarining asosiy ishlab chiqaruvchilari bo`lmagan. Qullar bevosita ishlab chiqaruvchilarning faqat bir qismini tashkil etgan, xolos. Qullar bilan bir qatorda aholining ekspluatatsiya qilinadigan boshqa ishlab chiqarish vositalaridan mahrum etilgan va to`la erkin bo`lmagan shaxslar ham bo`lgan.

Qullar ("vardum") ijtimoiy qatlamning eng quyi qismini tashkil etgan. Bobilda asosan harbiy asirlar, shuningdek, qulga aylantirilganlar va erkinligini yo`qotgan huquqsiz ozod kishilar (masalan, jinoyatchilar va qarzini to`lay olmaganlar) qullar bo`lib qolgan. Qullar qonun bo`yicha xo`jayinning barcha mulkining bir qismi-ashyolar sifatida ko`rilgan. Qullarga nisbatan mulk huquqi oilada avloddan-avlodga meros bo`lib o`tgan. Qullarni sotganlar, qarzga berganlar.

Xammurapi qonunlarida qullar quldorlarning xususiy mulki sifatida qattiq himoya qilingan. Unga nisbatan har qanday tajovuz uchun og`ir jazo o`rnatilgan. Shu o`rinda XQdan ba`zi misollarni keltirib o`tamiz. "Agar birov saroyning shahar darvozasidan saroy qulini yoki cho`risini, shuningdek, mushkenuning quli yoki cho`risini olib chiqsa o`linga mahkum etiladi" (15-modda); "Agar birov o`z uyida saroyga yoki mushkenuga tegishli qochoq qul yoki cho`rini yashirsa, uyga qamab qo`ysa, uy egasi o`linga mahkum etiladi" (16-modda); "Agar birov qochoq qulni yoki cho`rini tutib olsa va uni xo`jayiniga qaytarsa, qulning xo`jayini unga 2 siql²⁹ kumush bergan" (17-modda); "Agar tutib olingan qul o`z xo`jayini kimligini aytmasa, u saroyga keltirilib, tanasi tekshirilgan va so`ngra xo`jayiniga qaytarilishi lozim bo`lgan" (18-modda); "Agar qochoq qulni ushlab olgan shaxs uni uyida saqlab tursayu, buni shu paytda qul egasi topib olsa, bunday holda qulni uyida ushlab turgan shaxs o`linga mahkum etilgan" (19-modda); "Agar qul uni ushlab olgan odamning qo`lidan qochib ketsa, bu odam qulning xo`jayini oldida xudoni o`rtaga qo`yib qasam ichishi lozim bo`lgan va javobgarlikdan ozod etilgan" (20-modda); "Agar sartarosh xo`jayinning ruxsatisiz qulning qulchilik belgisini qirib tashlasa, sartaroshning barmoqlari kesilgan" (226-modda); "Agar birov boshqa odamga tegishli qulni sartaroshga olib kelib o`z qulim deb, aldab quldagi belgini qirdirib tashlatsa, bunday odam o`linga mahkum etilgan; sartarosh esa "men buni qasddan qilmadim" deb qasam ichib, javobgarlikdan ozod bo`lishi mumkin bo`lgan" (227-modda).

Xammurapi qonunlari bo`yicha qulning sog`lig`iga zarar yetkazish yoki hayotidan mahrum qilish xo`jayinning mulkiga zarar yetkazish sifatida

²⁹ Siql - 8,4 gramm (1/120kg) kumush pul birligi, 225 litr arpa bahosi, bu yollanib ishlovchilarning o`rtacha oylik maoshiga teng bo`lgan.

ko`rilgan va buning uchun aybdor xo`jayinga yetkazgan zararni to`lashi lozim bo`lgan. "Agar quruvchi ma'lum haq evaziga biror odamga uy qurib bersa-yu, qurilgan uy mustahkam bo`lmay buzilib ketsa, natijada uy egasining quli o`lsa, bunda quruvchi qul uchun qul bergan" (229; 231-moddalar); "Agar vrach birovning qulini bronza pichoq bilan kesib og`ir operatsiya qilayotganda qul o`lib qolsa, qul uchun qul berishi lozim bo`lgan" (219-modda); "Agar bunday holda qulning ko`zini ko`r qilib qo`ysa, qiymatining yarmini to`lagan (220-modda); "Agar birovning ho`kizi suzong`ich bo`lsa, unga bu haqda qo`shnilari ogohlantirgan bo`lsalar ham uning egasi buning chorasini ko`rmagan yoki ho`kizini bog`lab qo`ymagan bo`lsa va ho`kiz birovning qulini suzib o`ldirsa, ho`kiz egasi qul egasiga 1/3 mina³⁰ kumush to`lashi lozim bo`lgan" (251-252-moddalar).

Qul xo`jayinning hatto juda katta ishonchini qozongan bo`lsa ham, ammo uning mulkini o`z xohishicha boshqara olmagan. Qul bilan kimdakin oldi-sotdi shartnomasi tuzib, undan biror narsa xarid qilsa, o`lim jazosiga mahkum qilingan (7-modda). Qulning qochishiga yordam bergan, uni yashirgan yoki egasiga qaytarishdan bosh tortgan shaxslarga ham o`lim jazosi berilgan. Aksincha, qulni tutib olib, egasiga qaytarib berganlar xizmatlari evaziga mukofot olganlar. Qullarning qul ekanligini ajratib turish uchun uning tanasiga o`yib yoki kuydirib tamg`a bosib qo`yilgan. Lekin bunday tamg`a bosilgan qulni xo`jayin sotishi yoki boshqasiga almashtirishi mumkin bo`lmagan. Demak, bu holat xo`jayinning o`z quliga nisbatan huquqini ma'lum darajada cheklagan.

Qullar quyidagi toifalarga bo`lingan: **podsho qullari, ibodatxonalarining qullari va xususiy egalikdagi qullar**. Qullar o`z mulkiga egalik qilishi mumkin bo`lgan. Albatta, bunday mulk xo`jayinning ruxsati bilan o`rttirilgan, oqibatda uning mulkining bir qismi deb hisoblangan va qul o`lsa, mulk xo`jayinga o`tgan. XQ xo`jayinning qul ustidan hukmronligini cheklamagan. Faqat ayrim hollarda ba`zi toifadagi ozchilik qullar qonun himoyasidan foydalangan. Bularga, masalan, o`z xo`jayinlaridan bolasi bo`lgan cho`rilar (qul ayollar) kirgan. Ulardan tug`ilgan bolalar ham erkin hisoblangan. Podsholikka qarashli qul yoki mushkenuning quli erkin ayolni xotinlikka olishi mumkin bo`lgan, ulardan tug`ilgan bolalar ham erkin deb tan olingan (175-modda). Erkin kishi va qul ayoldan tug`ilgan bolalar ham, agar ularning otasi tomonidan tan olinsa, erkin bo`lgan. Erkin kishidan bola tug`gan qul ayol "kumush uchun" sotilishi mumkin emas

³⁰ 1 mina = 60 siql = 504 gramm.

(171-modda). Qulning erkin bolalari uning mulki bo'lsa, uni yarmini meros tariqasida olganlar, qolgan yarmi xo'jayinga o'tgan (176-modda).

Qarzi uchun qulga aylantirilganlar qullik holatida uch yildan ortiq bo'lmasliklari lozim edi. Qarzdorlik asorati jamoachi-dehqonlarni qulga aylantirishning asosiy usuli bo'lgan, shu sababdan XQ xuddi shu qarzdorlik asoratini cheklashga intiladi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Sudxo'r-larning shafqatsiz xatti-harakatlaridan faqat kambag'allargina emas, balki ko'pgina mulkdorlar ham azob chekkan, bu hol yalpi norozilikka sabab bo'lib, podshoga ziyon yetkazgan, chunki podsho fuqarolardan tobora mahrum bo'la borgan (negaki qul butunlay xo'jayinga tegishli bo'lgan). Qonun xususiy mulkni himoya qilib, qarzini va uning foizlarini undirishga yo'l qo'ygan, lekin bu undirishni muayyan doiraga solib, ochko'z qarz beruvchilarning haddan tashqari ishtahasini tiyib qo'ygan. Qarzdorning o'zi emas, balki uning xotini yoki bolalari faqat uch yil davomida qarz badaliga ishlab berishi, buning ustiga, mazkur qaram kishilar qullardan farq qilib, qonun yo'li bilan qo'riqlangan va qarzdor otasining qarzi badaliga ishlab berayotgan o'g'li sudxo'ning kaltagidan o'lib qolguday bo'lsa, u holda qarz berganning o'g'li ham o'ldirilishi lozim edi.

Yangi Bobil podsholigida tovar-pul munosabatlari rivojlanishi munosabati bilan qulchilikning o'ziga xos shakllari namoyon bo'lgan. Qul bu vaqtda ko'proq yerni ijaraga oluvchi va ma'lum darajada mustaqil xo'jalik yurituvchi sifatida maydonga chiqqan. Ba'zi qullar o'z xo'jaligini faqat erkin yurituvchilar sifatida emas, balki o'z oilalariga, yerlariga, uy-joylariga, ayrim harakatdagi mulklariga egalik qiluvchilar sifatida maydonga chiqqanlar. Ular boshqa qullardan va erkin kishilardan qarz olib, qarz berganlar, qullar sotib olganlar va sotganlar, qullarni va erkin kishilarni yollab ishlatganlar va hokazo. Yangi Bobil podsholigi qullari Qo'hna Bobil podsholigi qullaridan farq qilib, sudda da'vogar, javobgar, guvoh sifatida qatnashish huquqini qo'lga kiritganlar. Biroq, shularga qaramay, qul o'z xo'jayiniga qattiq qaramligicha qolgan va unga o'ziga xos oylik obrok to'lab turishi lozim edi.

Mesopatamiya jamiyatida har bir kishining aniq o'rni belgilab qo'yilganligi erkin aholi o'rtasidagi notenglikda ham ko'zga tashlanadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, XQda qullarning mavqei to'g'risida juda ko'p me'yorlar belgilangan, qullar Bobil jamiyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etgan bo'lsa-da, ular bilan bir qatorda erkin kishilarning turli toifalari ekspluatatsiya qilingan. Hosilning 1/3 qismidan 2/3 qismigacha xo'jayinga topshiradigan mazkur ijarachilardan va oila boshlig'ining qarzi badaliga ishlab beruvchi qaram odamlardan tashqari, yana o'z

xususiy xo'jaligi bo'lmagan va o'z mehnati badaliga natura yoki pul bilan ish haqi oluvchi ko'p sonli batraklar tilga olinadi.

Bobilning **erkin axolisi** o'z navbatida **to'la huquqli** va **to'la huquqli bo'lmagan fuqarolarga** ajratiladi. To'la huquqli fuqarolar "**avilum**" (odam, er kishi) aholining asosiy ommasini tashkil etgan. Ularning ko'pchiligi o'z yeriga ega bo'lib, davlat foydasiga turli mulkiy va shaxsiy majburiyatlar o'taganlar, soliqlar to'laganlar. To'la huquqli fuqarolar ham o'z navbatida bir xil tabaqa bo'lmagan. Xammurapi podsholigi vaqtida qishloq jamoasining tabaqalashish jarayoni juda chuqurlashib ketgan edi. Alohida boyib ketgan jamoachilar borgan sari mustaqil bo'lib qolganlar. Ular bilan bir qatorda kambag'allashgan, qarzdorlik asoratiga tushgan jamoachilar paydo bo'lgan. XQda ana shu toifadagi shaxslarning ahvolini birmuncha yaxshilashga harakat qilib, belgilangan qator me'yorlar mavjud. Masalan, unda qarzdor o'zining butun mulkining to'la huquqli egasi deb e'lon qilingan, uning rozilgisiz va sudning ruxsatisiz qarz beruvchi bu mulkni tortib olish huquqiga ega emas. "Agar bir odam birovga non yoki kumush qarzga bergan bo'lsa, u qarz olgan kishining g'alla omboridan yoki xirmonidan so'ramay donini olsa, bu noqonuniy hisoblangan va olgan donni uning egasiga qaytarishi lozim bo'lgan, shuningdek, unga bergan qarzni ham yo'qotgan" (113-modda). "Er" qarzdor - qul bo'lib qolishi mumkin emas. Qonunda belgilanishicha, qarzdorning xotini yoki bolalari qul sifatida emas, balki garovga olinganlar sifatida ishlab bergan. Garovga olinganlar uch yil o'tgandan so'ng qarz summasi qancha bo'lishidan qat'i nazar ozod qilingan va qarz to'landi deb hisoblangan. Podsho hokimiyati erkin aholining qarzdorlik asoratiga tushgan eng kambag'al tabaqalarini kreditorlarning o'zboshimchaliklaridan himoya qilishga intilib, bunda, avvalo, armiyaning qudratini saqlab qolishni ko'zlagan. Chunki qo'shinlarning asosiy qismi erkin kishilardan tashkil topgan edi.

XQning ko'pdan-ko'p moddalari davlat hokimiyatining asosiy tayanchi hisoblangan **harbiylarning** huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan. Harbiylarga (jangchilarga) in'om etilgan chek yerlar va chorvalar ularning qarzi badaliga tortib olinishi mumkin emas edi. Kreditor faqat harbiylar tomonidan sotib olingan maydonni, bog'ni, uy-joyini tortib olishi mumkin bo'lgan. Jangchining voyaga yetgan o'g'li uning chek yeriga qonuniy merosxo'r bo'lib qolgan. Agar jangchining o'limidan so'ng uning kichik yoshdagi o'g'li qolgan bo'lsa, unda beva qolgan xotinga bo'lajak jangchini o'stirishi uchun meros qolgan chek yerdan 1/3 qismi ajratilgan. Agar jangchi asirga tushib qolsa, uni sotib olish mumkin bo'lgan va u chek yerga nisbatan o'z huquqini saqlab qolgan. Chek yerlar bilan ta'minlangan

jangchilar podshoning buyrug`i bo`yicha xohlagan vaqtda yurishlarda qatnashish uchun chaqirib olinishi mumkin edi. Jangchi bunday holda so`zsiz darhol yetib kelishi lozim edi. Agar bundan bosh tortsa o`limga mahkum etilgan. Uning o`rniga jangga kirgan jangchi qatl etilgan jangchining chek yerini olgan. Bobil jamiyatida to`la huquqli fuqarolarga **"mushkenu"** (bo`ysundirilganlar, akkad tilidagi lug`aviy ma`nosi "mayda kishilar" degani) qarama-qarshi turgan. Bobilning ijtimoiy tuzumidagi "mushkenu" masalasi xususida olimlar o`rtasida turli fikrlar mavjud. Masalan, I.M.Volkov mushkenularni erkinlikka qo`yib yuborilganlar deb hisoblaydi. Sharq tarixi bo`yicha ko`zga ko`ringan olimlardan V.V.Struve, S.F.Keчекyanlar esa mushkenu deganda urushlar natijasida Bobilga qo`shib olingan davlatlar va shaharlarning aholisini nazarda tutadilar.

Bizga hech shubhasiz shu narsa ma`lumki, mushkenu o`zining huquqiy holatiga ko`ra avilumga nisbatan Bobil jamiyatida quyi mavqeni egallagan. Bizgacha yetib kelgan qonunlarda ham avilumning mulki, hayoti, sog`lig`i, obro`-e`tibori mushkenunikiga qaraganda kuchliroq himoya qilinganligini ko`ramiz. Mushkenuga qarshi jinoyatlar uchun belgilangan jazolar ham qonunda uning avilum bilan teng huquqlarga ega emasligini tasdiqlaydi. Masalan, XQda avilumga tegishli molni o`g`irlagani uchun beriladigan jazo mushkenuning molini o`g`irlaganga qaraganda uch barobar ortiq bo`lgan. Shuningdek, agar jabrlanuvchi avilum bo`lsa, aybdorga og`irroq jazo tayinlangan va hokazo. "Agar bir kishi boshqa kishini (bu yerda avilum nazarda tutilmokda *H.M.*) ko`zini urib chiqarsa, uning ham ko`zi chiqarilgan" (196-modda); "Agar bir kishi boshqa kishini urib suyagini sindirsa, uningham suyagini sindirish lozim bo`lgan" (197-modda); "Agar u mushkenuning ko`zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, u holda 1 mina kumush to`lashi lozim" bo`lgan (198-modda). "Agar odam boshqa odamning tishini sindirsa, uning ham tishi sindirilishi lozim" bo`lgan (200-modda); "Agar u mushkenuni tishini sindirsa 1/3 mina kumush to`lashi lozim" bo`lgan (201-modda).

Yuqoridagilardan yaqqol ko`rinib turganidek, mushkenu avilumga qaraganda jamiyatda ancha quyi mavqeni egallagan.

Lekin shunga qaramay, ba`zi hollarda mushkenular alohida huquqiy himoyadan foydalanganlar. Masalan, mushkenuning mulkini o`g`irlash XQ bo`yicha saroydan mulk o`g`irlash sifatida qaralgan, ularning qullari esa, yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, xususiy shaxslarning qullari oldida ba`zi imtiyozlarga ega bo`lgan.

XQda yuqoridagi tabaqalar bilan bir qatorda, shuningdek, aholining ixtisoslashgan kasblar bilan shug`ullanuvchi guruhlar ham ko`rsatiladi.

Ularning ichida birinchi o'rinda **saroy xizmatchilari**, ya'ni podshoga bevosita yaqin turuvchi podshoning shaxsiy qo'riqchilari va **kohinlari** turgan. Boshqa davlat xizmatchilaridan qonunlarda "redum", "bairum", "dekum", "lubuttum" deb nomlangan kishilar eslab o'tiladi. Lekin bularning vazifalari aniq belgilab qo'yilmagan edi. Ehtimol, bular turli toifadagi harbiy xizmatchilar bo'lgan bo'lishi mumkin. Bobilda din va ibodatxonalar juda katta davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi sababli boshqa kasb vakillari orasida ibodatxonalarning xizmatchilari faxriy mavqega ega bo'lgan. Lekin kohinlar Bobilda tabaqa sifatida rasmiylashmagan.

Jamiyatda chinovniklar juda yuqori mavqega ega bo'lgan. ularga katta talablar qo'yilgan, shuningdek ular yer bilan ta'minlab, uni meros qilib qoldirishi mumkin bo'lgan.

Ikkidaryo oralig'ida don bilan savdo qilish uchun, bu yerda yetishmaydigan foydali qazilmalarga, masalan, metallga, shuningdek tosh, yog'och va boshqalarga ega bo'lish uchun ham Shumer va Akkad jamoalariyoq o'zlarining savdo agentlarini uzoq safarlarga jo'nata boshlagan edilar.

Ossuriya orqali o'tgan savdo yo'llari Bobilni Siriya, Kichik Osiyo, Armaniston va boshqa mamlakatlar bilan bog'lagan. Shu munosabat bilan Mesopatamiyada **tamkar** - sudxo'r, kreditor, savdogar, saroyning savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishisi degan tushuncha juda barvaqt shakllangan. XQda tamkarlar zimmasiga faqat o'z daromadlaridan podsho xazinasiga o'tkazib turish majburiyati emas, balki boshqa majburiyatlar ham yuklatilgan edi. Masalan, tamkarlar asirga tushgan jangchini sotib olishlari lozim edi. Albatta, bunga ketgan xarajatlar keyinchalik ozod qilingan jangchidan, uning jamoasidan yoki ibodatxonasidan undirib olinishi nazarda tutilgan.

Tamkarlar qaram kishilar bo'lsalarda, juda katta moliyaviy-savdo faoliyati erkinligidan foydalanganlar, yirik savdo bitimlari tuzganlar, kapitallarini birlashtirganlar, savdo tashkilotlari tuzganlar, yirik pul operatsiyalarini amalga oshirganlar, yerlar olganlar va sotganlar va hokazo.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishi asosan podsho xo'jaligida rivojlanib, unga qaram bo'lgan. Podshoning maxsus kuzatuvchilari nafaqat hunarmandchilik ishlab chiqarishini, balki mahsulotlarining sotilishi ustidan ham nazorat qilib turganlar. Yangi Bobil podsholigida qullarni ixtisosli hunarlarga o'rgatish amaliyoti qo'llangan. Biroq, temirchilar, duradgorlar, pivo pishiruvchilar kabi juda muhim **hunarmandlar** u yoki bu darajada mustaqil bo'lganlar, ixtisoslashgan birlashmalar tuzganlar. XQ bo'yicha, masalan, o'z hunarini o'rgatish uchun birovlarining bolasini o'g'il qilib oluvchilar alohida mavqega ega bo'lishgan (188-modda).

Bobilda "olimlar"dan iborat ba'zi mutaxassislar, masalan, "ruxlarni haydash" bo'yicha mutaxassislar, kelajakni oldindan aytib beruvchi folbinlar, shifokorlar, mirzalar ancha-muncha mustaqillikdan foydalanganlar. Lekin shifokorlar, veterinarlar mehnati arxitektorlar va kemasozlar mehnatidan past qadrlangan. Arxitektorlar, kemasozlar o'z mehnati evaziga gonorar (mukofot) olsalar, shifokorlar haq olishgan.

4. Bobilning davlat tuzumi

Qadimgi Bobil podsholigi **markazlashgan davlat** bo'lgan. **Podsho** Xammurapi rasman cheklanmagan vakolatlardan foydalangan. Uning qo'lida qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati to'plangan. Shu bilan birga podsho hokimiyati uncha kuchli bo'lmagan. Podshoga xudoning yerdagi noibi va xizmatchisi sifatida qaralgan. Shu tariqa, davlat boshlig'i mustaqil bo'lmagan, uning faoliyati yuqoridan, xudo tomonidan yo'naltirib turilgan. Quyidan podsho hokimiyati kuchli ruhoniylar va boy shaharlar tomonidan cheklab turilgan. Bobilning uchta muqaddas shaharlari - Nippur, Sippar va Babil - imtiyozli yorliqlarga ega bo'lib, bu ularga alohida imkoniyatlar va imtiyozlar bergan. Podsho bu shaharlarning fuqarolarini turmaga qamay olmagan, ulardan askarlar talab qilish, ularni ibodatxonalar xo'jaliklarida ishlashga majbur etish huquqlariga ega bo'lmagan. Kohinlar shaharlarning daxlsizlik huquqlarini saqlovchilari sifatida chiqqanlar.

Yuqoridagilarga qaramay, Xammurapi zamonida podsho hokimiyati istibdod (despotiya) xususiyatiga ega bo'lgan va fuqarolar o'rtasidagi hamma o'zaro munosabatlarga aralashavergan. Qonunlar to'plamiga doir muqaddimada xudolarning o'zlari podsholarga cheklanmagan vakolatlar berganliklari haqida gapiriladi. XQda podshoning ish-harakatlarida hech qanday cheklashlar ko'zda tutilmagan.

Podsho katta boshqaruv apparatining tepasida turgan. Bu haqda hozirgi kungacha saqlanib qolgan podsho Xammurapi tomonidan shaharlardagi va alohida viloyatlardagi yudsho noiblariga, shuningdek, elchilarga berilgan 60 ga yaqin buyruqlar ham dalolat beradi. Ularda chinovniklarni almashtirish va tayinlash, aholini ro'yxatga olish, kanalar qurish, soliqlar undirish haqida buyruq-farmoyishlar berilgan edi.

Boshqa qadimgi Sharq davlatlari singari Bobilda ham podsho qo'lida keng xo'jalik funksiyalari: sug'orish inshootlariga, ibodatxonalar qurilishiga, tovarlarga narx qo'yishni tartibga solishga, hunarmandlar, shifokorlar, quruvchilarga haq belgilashga rahbarlik qilish kabilar to'plangan. Xammurapi davrida savdogarlar (tamkarlar) podsho agentlariga

(ayg`oqchilariga) aylantirilgan.

Qadimgi Bobil hukmdorlari o`zlari uchun maqbul va qulay boshqaruv mexanizmini tashkil etganlar. Bunga davlatdagi barcha, hatto, eng kichik ishlarga shaxsan e`tibor berish yo`li bilan erishganlar. Shu sababli davlatda oqil va tajribali chinovniklar qadrlangan. Xizmatchi zodagonlar urug` zodagonlarini davlat apparatidan siqib chiqargan. Barcha boshqaruv ishlari podsho saroyida to`plangan. Saroy boshqaruv tizimi shunisi bilan ajralib turganki, davlatda podsho xo`jaligini boshqaruvchilar oliy mansablarni egallaganlar; ularning vazifalari o`rtasida aniq chegara bo`lmagan.

Davlatda podshodan keyin **nubanda (vazir)** turgan. **Nubanda podsho** Xammurapi davriga kelib juda katta vakolatlarga ega bo`lib olgan. U endi aholining majburiyatlari bilan bog`liq deyarli barcha tashkiliy ishlarni yurita boshlagan. Nubanda kanallar, istehkomlar, saroylar, ibodatxonalar qurishga, urushlar olib borishga, dehqonchilik ishlarini tashkil etishga rahbarlik qilgan.

Podsho huzurida yana bir boshqa hukmdor - noib - isakku, ya`ni ko`p shaharlar hokimi paydo bo`lgan. Shu bilan birga oliy mansabdor shaxslardan yana **saroybon, xazinabon, saroy dasturxonchisi, bosh harbiy boshliq**, kabilar ham mavjud edi. **Mirzalar** davlatda juda yuqori baholanagan. Bulardan tashqari manbalarda askarlar va kuryerlar kuzatuvchi ostida mamlakat bo`ylab hukumat topshiriqlarini bajarish yuzasidan aylanib yuradigan boshqa mansabdor shaxslar ham eslab o`tiladi. Shuningdek, ma`lum darajada davlat boshqaruvida ishtirok etadigan **turli darajadagi kohinlar, agentlar, sudyalar, omborxonona qo`riqchilari, kuzatuvchi va boshqalar** ham mavjud edi.

Davlat boshqaruv organlari tizimida markaziy va mahalliy boshqaruv organlari ajratilgan.

Mamlakat hududi viloyatlarga bo`lingan. Ma`lumki, ilgari viloyatlar-shahar-davlatlar tepasida **patesilar** turardi. Podsholar markaziy hokimiyatni kuchaytirib, **patesining** dunyoviy hokimiyatdan mahrum etganlar va ularda faqat kohinlik mavqeini saqlab qolganlar yoki ularni o`z noiblariga, o`zlariga bo`ysunadigan viloyatlarning hokimlariga - **shaqkanaqularga** aylantirganlar. Shaqkanaqular viloyatlarda soliqlar yig`ishga, tartib saqlashga va xalq lashkarlarini chaqirishga mas`ul edilar.

Mazkur viloyatlar hukmdorlari bilan bir qatorda kichikroq hududiy birliklarga boshchilik qiluvchi mansabdor shaxslar ham mavjud bo`lgan. Bular - **rabianumlar** bo`lib, ular alohida shaharlarning hokimlari bo`lishgan. Ba`zi olimlar ularni hududiy jamoalar boshliqlari bo`lgan deb ko`rsatishadi. Joylarda, garchi, ancha cheklangan vazifalar bilan bo`lsada,

jamo'a o'zini-o'zi boshqarish organlari saqlanib qolgan edi. Bunday organlar mahalliy joylarda ba'zi ma'muriy, moliyaviy va sud hokimiyatini amalga oshirganlar.

Sud hokimiyati Qadimgi Babil jamiyatida Xammurappiga qadar sud ishlarini yuritishda ibodatxonalar va jamoalar sudlari asosiy o'rin tutgan. Sud organlari sifatida **ibodatxonalarining kengashlari, jamoa majlislari** yoki ular tomonidan maxsus (ajratilgan **jamo'a sudlari hay'atlari** maydonga chiqqan. Manbalarda **podsholik sudlari** haqida ancha barvaqt eslatib o'tiladi. Masalan, Lagash shahar - davlatida maxsus oliy sudya - hukmdorning yirik amaldorlaridan biri mavjud bo'lganligi ma'lum.

Podsho hokimiyatining kuchayishi jamoalar va ibodatxonalarining sud vakolatlarining cheklanishiga olib kelgan. Jamoalardagi kollegial sudlar ilgorigidek oqsoqollar kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan, lekin ularga endi rabianumlar rahbarlik qila boshlaganlar. Bu sudlarga podsho odamlarning ishi taalluqli bo'lmagan, ular podsho mulkiga tegishli ishlarni ko'rib, hal qila olmaganlar. podsholik sudlari Xammurapi davrida barcha katta shaharlarda joriy etilgan, ular asosan podsho odamlari ishlarini ko'rib hal qilgan. Biroq podsho oliy kassatsion instansiya sifatida ham, appelyatsion instansiya sifatida ham maydonga chiqmagan. Podsho o'lim jazosiga hukm qilinganlarni avf etish huquqiga ega bo'lgan. Unga suddagi sansalorliklar, sudyalarning o'zboshimchaliklari, sudni bekor qilish haqidagi shikoyatlar kelib tushgan. Bunday shikoyatlarni podsho tegishli ma'muriy yoki sud organlari: jamoa sudlariga yoki podsholik sudlariga ko'rib hal qilish uchun bergan. Bu yerda umuman sud instansiyasi bo'lmagan, har qanday sud qarori amalda qat'iy bo'lgan. Podsho noiblari deyarli hamma yerda jinoyatchilarni sudga chaqirish, qamoqqa olish va qidirish kabi ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'lgan.

Sud hokimiyati boshqa qadimgi Sharq davlatlarida bo'lganidek ma'muriy hokimiyatdan ajratilmagan. Podsho va podsho chinovniklari bir vaqtda ham ma'muriy, ham sud ishlarini yuritganlar.

Podsho amalda oliy sudya bo'lgan. U xohlasa har qanday fuqarolik yoki jinoyat ishlarini shaxsan o'zi ko'rish yoki ularni ko'rishni quyi sud organlariga jo'natishi mumkin bo'lgan. Podsho jinoyatchilarni avf etish huquqiga ega bo'lgan.

Sud funksiyalari shuningdek "noiblar" (shaqkanaqular) va "rabianumlar" qulida ham bo'lgan. Ular sud hay'atlariga raislik qilganlar. Viloyatlarga tenglashtirilgan hududlarda **shaqkanaqular 6-12 kishi tarkibidagi sud hay'atlariga raislik qilsalar, shaharlarda rabianumlar**

4-8 shahar oqsoqollari tarkibidagi sud hay'atiga raislik qilganlar. Katta shaharlarda maxsus "podsho sudyalari" sud vazifalarini amalga oshirganlar; bular bevosita podshoga bo'ysunib, uning ko'rsatmalari bo'yicha harakat qilganlar.

Xammurapi ibodatxonalar sudlarini saqlab qolgan bo'lsa ham, ammo ularning vazifalarini cheklab qo'ygan: ular tomonlarni qasam ichishga olib keltirganlar va buni tasdiqlaganlar. Ehtimol ular kohinlar o'rtasidagi ishlarni bevosita ko'rib hal qilgan bo'lishlari ham mumkin.

Ikkidaryo oralig'ida siyosiy tarqoqlik davrida qurolli **Armiya** kuchlarning asosiy turi **erkin jamoachi dehqonlardan iborat lashkarlar** bo'lgan. Ular o'z hukmdorlarining chaqiruvi bo'yicha urushlarga o'zlarining qurol-yarog'lari va asbob-anjomlari bilan kelish lozim bo'lgan. Harbiy yurishlar tugagach, lashkarlar uy-uylariga tarqab ketganlar. Quldorlik munosabatlarining rivojlanishi, soliqlar va majburiyatlarining o'sishi va erkin jamoachi dehqonlarning mulkiy tabaqalashuvi borgan sari kuchayib borishi munosabati bilan xalq lashkarlarini to'plash qiyinlashib borgan. Bundan tashqari, xonavayron bo'lgan jamoachilarning qarshiligini bostirib turish, tashqi dushmanlar tomonidan doimiy bo'lib turadigan urushlarni bartaraf etish va umuman davlatning yagonaligini saqlab qolish zaruriyati mustahkam, doimiy va kuchli armiya tuzishni taqozo etardi. Jahon tarixida birinchi marta **akkad podshosi Sargon** (miloddan avvalgi 2316-2261 yillar) 5400 ta professional jangchidan iborat **doimiy armiya tuzgan**. Undan faqat tashqi dushmanlarga qarshi emas, balki xalq qo'zg'olonlarini bostirish uchun ham foydalanish mumkin edi. Bu armiya Ikkidaryo oralig'ining keyingi hukmdorlari davrida ham saqlanib qolgan.

Xammurapi davrida doimiy armiyaning jamoa yer egaligidan tamomila ajratilishi yuz bergan. **Jangchi (redum, bairum)** xizmat evaziga podsholik yerlaridan chek yer olgan, shuningdek, oilasini boqish uchun uy-joy, bog', chorva olib, podshoning qaramog'ida bo'lgan (XQning 30-36-moddalari). Bu mulklar fuqarolik oborotidan olingan. Hatto jangchi asirga tushib qolsa ham, chek yerga nisbatan egalik huquqini saqlab qolgan; uchastkaning bir qismiga uning voyaga yetmagan o'g'li meros huquqini saqlab qolgan (XQ 27-29-moddalari). "Agar jangchi xizmatdan qutulish maqsadida chek yerni tashlab ketsa, unga nisbatan egalik huquqini bir yilgacha muddatga saqlab qolgan, bunda, albatta, unga xizmatga qaytish sharti qo'yilgan. Jangchi halok bo'lsa yoki asir tushib qolsa, mulki uning voyaga yetgan o'g'luga harbiy xizmat o'tash sharti bilan o'tkazilgan. Agar o'g'li voyaga yetmagan bo'lsa, jangchi xotiniga mulkning 1/3 qismi

o`g`lini yaxshi jangchi qilib tarbiyalash maqsadida berilgan. Jangchi asirdan qaytib kelsa, uning boshqa kishiga o`tkazilgan barcha mulklari qaytarib olib borilgan.

Xammurapi armiyaning jangovarlik qobiliyatini mustahkamlash, qattiq intizom o`rnatish choralarini ko`rgan. Jangchi yurishlarda qatnashishdan bosh tortsa, o`limga mahkum etilgan va unga berilgan barcha mol-mulklar tortib olingan. Agar jangchi o`z o`rniga o`rinbosarini jo`natsa, bunda ham u o`limga mahkum qilinib, uning mulki o`sha jangga borgan o`rinbosariga o`tkazilgan. Agar **harbiy boshliqlar (dekum va lubuttum)** jangchining mulkidan o`z maqsadlari yo`lida foydalansalar yoki ijaraga bersalar o`limga mahkum etilganlar, Jangchining xizmati "abadiy" hisoblangan.

Bobilda professional jangchilar politsiyachilik vazifalarini ham bajarганlar.

Bobilda kuchli va mustahkam doimiy armiya tashkil etilgan bo`lsa ham, ammo yirik harbiy yurishlar vaqtida chaqiriladigan xalq lashkari o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Armiyada kamonchilar va og`ir qurollangan piyodalar bilan bir qatorda aravali jangchilardan iborat otradlar alohida o`rin egallagan. Qadimgi Bobil manbalari shundan darak beradiki, ularning qo`mondonlari jangovorlik jasorati uchun podsho tomonidan yerlar bilan taqdirlanganlar, soliqlardan va boshqa turli majburiyatlar o`tashdan ozod qilinganlar.

5. Qadimgi Mesopatamiyada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari

Ikkidaryo oraliq`i davlatlarida huquqning eng qadimgi manbai, Misrda bo`lgani kabi, **odat huquqi** hisoblangan. Mesopatamiya davlatlarining tashkil topishi natijasida bu yerdagi xalqlar va qabilalar hayotida asrlar davomida ishlab chiqilgan, avloddan-avlodga an`analar sifatida o`tib kelgan va ijtimoiy hayotning turli sohalarini tartibga solib turgan, u yoki bu bir-biriga o`xshash hodisalarni uzoq vaqt bir xil tartibga solib kelgan axloq-odob me`yorlari endi majburiy xarakter kasb eta boshlagan. Bobilda ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo`lgan ko`p urf-odatlar davlat tashkil topgandan keyin ham dastlabki vaqtlarda saqlanib qolgan. Zero, Ikkidaryo oraliq`i davlatlarida paydo bo`lgan yozma qonunlarni o`rganish shuni ko`rsatadiki, ular o`zlarida jamiyat hayotining hamma tomonlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy hujjatlar emas edi. Qolaversa, ushbu yozma qonunlarda ibtidoiy jamoa tuzumining anchagina qoldiqlari

saqlanib qolgan edi. Albatta, bu davra urf-odatlar yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga moslashtirilgan.

Ikkidaryo oralig'ida odat huquqi bilan birga huquqning boshqa yana bir muhim manbai - **qonun** juda erta paydo bo'lgan. Qadimgi Mesopatamiya davlatlarida juda qadimgi paytlardan oq u yoki bu podsholik hukmdorlarining irodasi bilan qabul qilingan yozma **qonunlar** huquqning asosiy manbai bo'lib qolgan. Bu yerda podsholar qonunlarining paydo bo'lishi uzluksiz urushlar, davlat to'ntarishlari, bosqinchiliklar davomida uncha mustahkam bo'lmagan hududiy-siyosiy birlashmalarning qaror topishi yoki u yoki bu hukmdor - gegemon hokimiyatining mustahkamlanishi, u yoki bu irq oliyligining o'rnatilishi natijasida kelib chiqqan ko'p sonli davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishining alohida shart-sharoitlari bilan bog'liq. Podsho qonunchiligining paydo bo'lishini bu yerda yana tovar-pul munosabatlarining, ichki va tashqi savdoning nisbatan erta rivojlana boshlanganligi ham tezlashtirgan. Bobil qadimgi dunyoda xalqaro savdoning asosiy markazlaridan biri bo'lgan.

Dastlabki podsholar yozuvlari tom ma'nodagi qonunlar yoki islohotlar bo'lmagan. Ularda Mesopatamiya podsholarining haqiqiy yoki hayoliy g'alabalari, ularning o'z mamlakatlari, shaharlari, ibodatxonalari aholisiga, xudolarga qilgan muruvvatlari va xayr-saxovatlari haqidagi ma'lumotlar saqlangan. Bu madhiyaviy yozuvlarning o'ziga xos belgisini ulardagi haqiqatni tiklash haqidagi, hamma narsadan mahrum qilinganlarni (kambag'allarni, yetim-yesirlarni, beva-bechoralar va hokazolarni) podsho tomonidan himoya qilinishi haqidagi ko'rsatmalarda ko'rish mumkin. Bunday tarixiy hujjatlar qatoriga miloddan avvalgi XXIV asrga taalluqli Lagash podsholigi hukmdori Uruinimgin (2318-2312 yillar)ning "islohotlari" ham kiradi. Bu hujjatlarda kambag'allarni qarzlardan, kaltaklardan, o'zbo-shimchalik bilan yig'iladigan yig'implardan ozod qilinishi haqida, ilgari hukmdorlar tomonidan tajovuz qilingan ibodatxonalarning mulkining himoya qilinishi haqida gapiriladi.

Dastlabki yozuvlar harakatdagi qonunlarni o'zlarida mujassamlashtirmagan bo'lsalarda, ammo hukmdorlarning qonunchilik faoliyatlarini, qonunlarini an'anaviy yozib qoldirilishiga va e'lon qilinishiga asos solgan. Va, endi podsholarning qonunlari asta-sekin yozib qo'yiladigan bo'lgan.

Bunday harakatdagi qonunlar (to'g'ri, bizgacha to'liq yetib kelmagan) qatoriga quyidagilar kiradi: Ur sulolasining asoschisi (miloddan avvalgi III ming yillikda) podsho Ur-Nammu qonunlari, Isina podsholigi hukmdori Lipid-Ishtar qonunlari, Eshkunna podsholigi (miloddan avvalgi I

ming yilliklar boshida)dagi Bilalam qonunlari, "O`rta osur qonunlari" (miloddan avvalgi II ming yillik o`rtalari) va nihoyat, Mesopatamiyaning eng muhim huquqiy hujjati - Ikkidaryo oralig`idagi eng yirik davlat – qadimgi Bobil podshosi Xammurapi qonunlari. Bularning ichida ayniqsa podsho Xammurapi qonunlari qadimgi davr huquqiy qarashlarining va huquq tizimining juda katta yodgorligidir.

Xammurapi qonunlari 1901-1902 yillarda Jeniulyak boshchiligidagi fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan qadimgi Elam poytaxti Suz shahrini qazish chog`ida topilgan. Bu qonunlar mixxat yozuvida qora bazalt tosh ustuni sathiga o`yib yozilgan³¹. Bu ustun quyosh, haqiqat va adolat xudosi Shamash taxti oldida turgan hamda uning qo`lidan oliy sud hokimligi belgisi cho`qmor va chambar olayotgan podshoning o`zini tasvirlaydigan bo`rtma shakllar bilan bezalgan, 282 ta moddadan iborat bo`lgan ushbu qonunlar Shumer va Akkad huquqining ko`pgina tajribalari mujassamlashtirilgan edi. Uni biz shartli ravishda kodeks-qonunlar to`plami deyishimiz mumkin. Chunki u ko`proq sud qarorlarining to`plamiga o`xshab ketadi. Kodeks uch qismga bo`linadi: 1) Kirish; 2) Qonunnomaning matni (yoki asosiy qism); 3) Xulosa. Kirish qismida qonunlarni chiqarishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o`rnatishdir, deb ko`rsatilgan. Unda podsho ulug`lanib, ko`klarga ko`tarilgan. Undan keyin podsho o`zi qilgan ishlarini sanab ko`rsatadi va unvonlarining to`la nomini keltiradi.³²

Asosiy qismda jinoyat huquqi, protsessual huquq, mulk huquqining buzilishi va unga qo`llaniladigan jazolar, nikoh va oila huquqi, jangchilarning huquqlari va boshqa munosabatlar to`g`risida me`yorlar belgilangan.

Xulosa qismida podsho o`zining xalq oldidagi xizmatlarini keltiradi, bu qonunlarni kelgusida bajaradigan podsholarni hurmatlash, ularni bajarmagan yoki bekor qilmoqchi bo`lgan podsholarni la`natlash lozimligini to`g`risida gapiriladi.

XQning 1-5-moddalari sud va sud jarayonining ayrim masalalariga bag`ishlangan. Bu moddalar sudlarda hukmron bo`lgan o`zboshimchaliklarga, suiste`molliklarga, birovni noto`g`ri ayblashlarga qarshi qaratilgan. Bu shundan darak beradiki, Bobilda sudyalarni va guvohlarni sotib olish, poraxo`rlik kabi hollar ham keng tarqalgan. Xullas, 1-5- moddalar Kodeksning asosiy qismi boshidagi o`ziga xos muqaddima sifatida berilgan. Undan so`ng mulkka bag`ishlangan juda katta bo`lim boshlanadi, bu alohida ajratib ko`rsatilmasada, Kodeksning 6-120-moddalari mulk va u bilan

³¹ Uning asl nusxasi Parij (Luvr)da saqlanadi.

³² **Qarang:** вестник древней истории. - 1958. № 3, 225-258-betlar, bu yerda qonunlarning to`la matni berilgan.

bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Bunga mulkni himoya qilishga taalluqli, jumladan, o'g'irlik, talonchilik uchun jazolar o'rnatuvchi, daraxtlarni kesish, maydonlarni payhon qilish va boshqalar uchun javobgarliklar belgilovchi me'yorlar kiritilgan. Ushbu bo'limga mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish, begona mulkdan foydalanish usullarini, ko'pgina shartnoma majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan moddalar kirgan. Xususan, 26-39-moddalarda jangchilarning chek yerlari haqida gapiriladi. XQning 127-195-moddalari nikoh, oila va meros masalalariga bag'ishlangan. Undan keyingi qismda - 196-214-moddalarda shaxsning hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga qaratilgan me'yorlar belgilanib, bu yerda shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarliklar o'rnatilgan. Kodeks matnining oxirgi bo'limi - 215-282-moddalari mehnat va mehnat qurollari to'g'risida bo'lib, bu yerda shifokorlarlarga, veterinarlarga, quruvcilarga mukofotlar va javobgarliklar o'rnatuvchi moddalar, ho'kizlarni ijaraga berish haqidagi va suzong'ich ho'kiz uchun egasining javobgarligi haqidagi, qishloq xo'jalik ishchilari, hunarmandlar, cho'ponlar haqidagi, qishloq xo'jalik asboblarni o'g'irlaganlik uchun jazolar haqidagi, eshaklarni, aravalarni, kemalarni ijaraga olish haqidagi va, nihoyat, qullar haqidagi moddalar keltirilgan. Shunday qilib, huquq tarmoqlari bo'yicha uning tuzilishi quyidagichadir: 1) Sud; 2) Mulk; 3) Nikoh va oila; 4) Shaxsni himoya qilish; 5) Mehnat va mehnat qurollari. Lekin bizning bunday shartli tizim asosida XQning mazmunini o'rganishimiz ushbu qonunlarning huquq sohalari bo'yicha ma'lum bir tizimga solinganligini va huquq sohalarining alohida institutlarga ajratilganligini anglatmaydi. Chunki bunday bo'linish va tizimga solish Kodeksda yo'q.

Kodeksni tuzishda eski odat huquqi, shumer qonunlari va yangi qonunlar unga asos qilib olingan.

XQ o'zining to'laligi nuqtai nazaridan va qat'iyligi bo'yicha mukammal emas, ular jamiyat hayotining hamma tomonlarini to'liq qamrab olmagan.

Matnlar asosan kazuistik (qonunning umumiy moddalarini turli yuridik holatlarga tadbiiq qilish) shaklda tuzilgan. Qonunlarda umumiy tamoyillar mavjud emas, ularni, garchi, ma'lum mantiq bo'yicha bayon qilishga harakat bo'lsada, ammo tizimga solib bayon qilish yo'q. Lekin ularda ko'rsatilgan barcha holatlar batafsil hal qilingan. XQ boshqa Sharq qonunnomalaridan farq qilib, o'zida diniy va nasihatgo'ylik elementlarni saqlamaydi.

Xammurapi o'z qonunlari bilan mayda va o'rta quldorlar hukmron kuch bo'lgan davlatning ijtimoiy tuzumini mustahkamlashga harakat qil-

gan. XQ quldorchilik tuzumini, xususiy mulkchilikni aks ettiruvchi birinchi yirik va mashhur qonunlar to'plami bo'lgan. Shu sababli qonunlarda urug'doshlik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, jazolarning juda og'ir va shafqatsizligi, talion tamoyili ("ko'zga ko'z" "tishga tish" va hokazo)ning saqlanib qolganligi, ordaliya (sinab ko'rish)ning qo'llanishi va boshqalar aynan urug'doshlik tuzumiga xos bo'lib, ular qonunlarda to'liq saqlanib qolgan.

Quyida XQda belgilangan me'yorlarning mazmuniga qarab, garchi, ular ma'lum tizimga solinmagan bo'lsa ham, huquq sohalari va institutlari bilan tanishib chiqamiz.

Mulk huquqi Xammurapi hukmronligi davrida xususiy mulkchilik eng yuqori darajaga erishgan. Bobilda yerga egalikning xilma-xil shakllari mavjud bo'lgan. Bular: **podsho yerlari, ibodatxonalarining yerlari, jamoa yerlari va xususiy yerlardir**. Podsho yerlari ham, ibodatxonalarining yerlari ham podsho tomonidan idora etilgan va muhim daromad manbai bo'lgan.

Davlat yerlari podsho yerlari sifatida, saroyga tegishli yerlar sifatida ko'rilgan. Podsho bunday yerlarning bir qismini mayda ishlab chiqaruvchilarga (dehqonlarga) berib, evaziga natura tarzida haq olib turgan; ba'zan dehqonlarga yerlar bilan birga zarur ishlab chiqarish qurollari va ashyolar ham berilgan. Podsho o'z yerlarining boshqa qismini mansabdor shaxslarga va jangchilarga ma'lum xizmatlar o'tash sharti bilan berib qo'ygan.

Chinovniklarga va jangchilarga berilgan yer uchastkalari xizmat o'tayotgan vaqtlari davomida ularning qo'lida bo'lgan va o'g'illari o'sha xizmatni davom ettirsa, ularga meros bo'lib o'tgan. Jangchilarga yer uchastkalari bilan birga ba'zan yerga birlashtirib qo'yilgan dehqonlar ham berilgan.

Chinovniklarga va jangchilarga taqdim etilgan bunday yerlar, shuningdek, uylar va ashyolar alohida darajadagi mulkni - **ilku mulkni** tashkil etgan. Yerlar, uylar va boshqa ilku mulklar fuqarolik oborotidan chiqarilgan: ularni sotish, sotib olish, xotini yoki qiziga vasiyat qilib qoldirish, jangchini asirlikdan sotib olish uchun sarflash, qarzni to'lash uchun berish mumkin emas edi. Agar biror kishi jangchiga tegishli yer, bog' va uyni sotib olsa, bunday shartnoma haqiqiy emas deb hisoblangan. Ularni sotib olgan kishi unga to'lagan barcha narsasidan mahrum bo'lgan. Yer, uy, bog' ularning egasiga qaytarilgan. (XQning 35-39-moddalarini).

XQning 40-moddasiga binoan, ilku mulkini sotish mumkin bo'lgan faqat ikkita holat belgilanadi. Bunda, birinchidan, bunday mulkni tamkar

sotishi mumkinligi, ikkinchidan esa, ilku mulkini sotib olayotgan shaxs xazinaga to'lov to'lab turishini ta'minlaydiganlar sotishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Ilku mulkning egasi davlatga shaxsan harbiy xizmat o'tab turishi lozim bo'lgan. Agar u o'z o'rniga o'rinbosar yollab, xizmatga jo'natsa, o'limga mahkum etilgan va uning yeri, uyi va boshqa ilku mulki o'sha yollanib xizmatga borgan kishiga o'tkazilgan (26-modda). Agar jangchi asirga tushib qolsa, uning yeri yoki ilku bog'i voyaga yetmagan o'g'liga xizmat o'tash sharti bilan o'tkazilgan. Agar o'g'li voyaga yetmagan bo'lsa yoki xizmatni o'tay olmasa, u holda ilku mulkning uchdan bir qismi ona-siga o'g'lini jangchi qilib tarbiyalash uchun berilgan.

Jangchi o'ziga berilgan ilku yerni ishlashga majbur bo'lgan. Agar yerni ishlatmay qarovsiz uch yil davomida tashlab qo'ysa va kimdir buni barcha majburiyatlarni zimmasiga olgan holda egallab olsa, bu mulkning dastlabki egasi o'zining yerga nisbatan barcha huquqlarini yo'qotgan (30-modda).

Bobilda yerga nisbatan jamoa mulkchiligi davlat mulkchiligi bilan bir qatorda uzoq saqlanib qolgan. Bunga, avvalo, mazkur yerdagi sun'iy sug'orish ishlarini birgalikda tashkil qilish zaruriyati yordam bergan.

Jamoa mulkini tashkil etgan yerlar qishloqlar o'rtasida taqsimlangan. Jamoa hududi ancha mayda hududiy birliklarga bo'lingan. Jamoa yerlari parsellalarga bo'linib, ular mazkur joylar aholisi - "qo'shnilar" o'rtasida taqsimlangan. Bu qur'a tashlash yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa kerak. Yerlar noma'lum muddatga vaqtincha foydalanish uchun berib qo'yilgan; jamoa uni xohlagan vaqtda qaytarib olishi mumkin edi.

Jamoaning alohida a'zolari yerni begonalashtirish yoki meros tariqasida o'tkazish huquqiga ega bo'lmagan. Ba'zi hollardagina, ko'pincha podsho foydasiga yerni begonalashtirishga yo'l qo'yilgan.

Yer sotish uchun qo'shnilarning roziligi talab qilingan. Yer egaliklari chegaralariga "**kudurru**" (**chegara, oraliq**) deb nomlanadigan tosh-hujjatlar qo'yib qo'yilgan. Mazkur yer egalarning ushbu yerga nisbatan mulk huquqini anglatadi. Bunday toshlar dastlab dalalarga qo'yilgan bo'lsa, keyinchalik ibodatxonalarga joylashtiriladigan bo'lgan, ya'ni kudurru nusxasi ibodatxonalarda saqlangan.

Ba'zan kudurru xususiy mulkni himoya qilish maqsadida qo'yilgan. Podsho ko'pincha jamoalardan tortib olgan yerlarni ayrim kishilarga kudurru asosida bergan. Bunday yerlar xususiy, meros tariqasida o'tadigan mulk bo'lib qolgan. Mulk egalari esa turli majburiyatlarni o'z zimmalarida saqlaganlar. Ular podsho foydasiga - sug'orish inshootlarini tartibga kelti-

rish, yo'llar va ko`priklar qurish va ular bilan bog`liq majburiyatlarni, jamoalar foydasiga - o`t-o`lanlar, poxollar, don yig`ishtirish, cho`pon taqdim etish, chorva uchun bino berish va boshqa majburiyatlarni, qo`shnilari foydasiga - alohida hollarda esa, suvdan foydalanishga ruxsat etish, dalasidan o`tishga imkon yaratish va hokazo majburiyatlardir.

Podsho yerlarni in`om etib, ba`zan ularga turli imtiyozlar ham bergan. Bunday kishilar ba`zan kanallar haqida g`amxo`rlik qilishdan, yangi sug`orish inshootlari qurishda ishtirok etishdan, ibodatxonalar foydasiga soliqlar to`lashdan va boshqa majburiy xizmatlardan ham ozod etilgan.

Bobilda xususiy mulk juda qattiq choralar bilan himoya qilingan. Agar o`g`ri qonunda belgilangan katta miqdordagi jarimani to`lay olmasa, o`limga mahkum etilgan.

Mulk egasi o`z mulkini har qanday kishidan talab qilib olish imkoniyatiga ega bo`lgan. Agar mulk egasi o`z mulkini birovdan topib olsa, bunda uni egallab turgan shaxs mulkni boshqa shaxsdan sotib olganligini ko`rsatsa, mulkning haqiqiy egasi sudga mulk haqiqatda uniki ekanligini tasdiqlaydigan guvohlar keltirishi, uni sotgan kishini va ushbu shartnoma tuzilishida ishtirok etgan guvohlarni sudga olib kelishi lozim bo`lgan.

Guvohlarni so`roq qilish natijasida begona ashyo sotilganligi aniqlansa, mulk egasi o`z ashyosini qaytarib olgan, mulkka egalik qilib turuvchi shaxs (sotib oluvchi) esa uni sotgan kishidan bergan to`lov haqini qaytarib olgan, mulkni sotgan sotuvchi o`g`ri deb topilgan va o`limga mahkum etilgan (9-modda). Agar mulkka egalik qilib turgan shaxs ashyoni sotgan kishini ko`rsata olmasa va guvohlar taqdim eta olmasa, mulkning haqiqiy egasi guvohlar yordamida ashyoga bo`lgan huquqini isbotlasa, mulkka egalik qilib turgan shaxs o`g`ri deb topilgan va o`limga mahkum etilgan (10-modda). Agar, aksincha, da`vogar ushbu mulkka bo`lgan huquqini isbotlay olmasa, tuxmatchi sifatida o`limga mahkum etilgan (11-modda). Agar begona ashyoni sotgan shaxs o`lib ketgan bo`lsa, u holda ushbu ashyoni sotib olgan kishi foydasiga sotuvchining uyidan mulk qiymatining 5 baravar hajmida mulk undirilgan (12-modda).

Qonunlarda shartnomalardan va zarar yet-

Majburiyatlar kazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bir-biridan ajratib ko`rsatilgan. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar keng tarqalgan. Ayniqsa, Xammurapi davrida shartnoma huquqi juda rivojlangan. Bu vaqtda Bobilda tovar-pul munosabatlarining ancha rivojlanganligi, jamiyatda savdo-sudxo`rlik rolining oshganligi, mulk aylanishining nisbatan taraqqiy etganligi, yerlarning sotilishi, sotib olinishi, ijaraga, vaqtincha foydalanish uchun berilishi va hokazolar ham-

masi shartnoma huquqining ancha rivojlanganligini ko`rsatadi. Shartnomalarning oldi-sotdi, ijara, qarz, yuk tashish, topshiriq, shirkat, hadya va boshqa turlari haqida qonunlarda ko`pgina me'yorlar belgilangan.

Ko`chirib bo`ladigan va ko`chmas mulkka xususiy mulkchilik mavjudligi sharoitlarida **oldi-sotdi shartnomasi** keng tarqalgan. Oldi-sotdi shartnomasining predmeti (narsasi) ko`chirib bo`ladigan ashyolar (don, hayvonlar, qullar va boshqalar) hamda ko`chmas mulklar (dalalar, bog`lar, uylar) bo`lishi mumkin bo`lgan. Ancha qimmatbaho mulklar (yerlar, qurilish binolari, qul, hayvon singarilar)ni sotish guvohlar ishtirokida yozma shaklda amalga oshirilgan. Bunday shartnomalar quyoshda quritilgan yoki olovda kuydirilgan loydan yasalgan qattiq loytaxtachaga yozib qo`yilgan. Oldi-sotdi shartnomasida ashyoni sotuvchi faqat mulkning haqiqiy egasi bo`lishi talab qilingan. Zero, mulk uchinchi shaxs tomonidan sotilib, so`ngra mulkning haqiqiy egasi mazkur mulk uning xohish-irodasiga zid ravishda sotilganini da`vo qilsa, ushbu mulk haqiqatan ham unga qarashli ekanligini guvohlar yordamida isbotlansa, tuzilgan shartnoma haqiqiy emas deb topilgan. Bunday holda, yuqorida aytib o`tganimizdek, mulk haqiqiy egasiga qaytarilib, sotuvchi o`g`ri sifatida sotilgan narsa evaziga uning summasini sotib oluvchiga qaytarib bergan va o`zi o`limga mahkum etilgan (XQ 9-modda). Shu sababli oldi-sotdi shartnomasida ba`zi hollarda sotilayotgan ashyoning uchinchi shaxs tomonidan talab qilinmasligi uchun kafolatlar nazarda tutilgan. Shuningdek, bunday shartnomalar tuzish chog`ida shartnoma predmetining yaroqliligi haqida ham kafolat olingan. Masalan, sotilgan qul tutqanoq kasaliga yo`liqqan bo`lib chiqsa va ishga yaroqsiz bo`lsa, bir oy muddat ichida shartnoma bekor qilinishi mumkin, ya`ni qul egasiga qaytarilib, unga to`langan haq, ("kumush") qaytib olingan (278-modda). Fuqarolik oborotidan chiqarilgan mulklarni (masalan, ilku mulkini) sotish ham haqiqiy emas deb hisoblangan (35-39-moddalar). Shu sababli yozma ravishda tuziladigan oldi-sotdi shartnomalarida sotib olinayotgan narsaning nomi, unga nisbatan sotuvchining mulk huquqi aniq ko`rsatilishi, ba`zan bu guvohlar ishtirokida qasam ichish orqali tasdiqlangan bo`lishi lozim edi. Oldi-sotdi shartnomasi tomonlarning ma`lum harakatlarni bajarishi bilan, ya`ni sotuvchi tomonidan shartnomada ko`rsatilgan narsaning sotib oluvchiga berilishi va sotib oluvchining bunga belgilangan to`lovning to`lashi bilan tuzilgan deb hisoblangan. Ba`zi hollarda sotilgan narsa (masalan, yer) uchun haq to`lash muddati kechiktirilishi mumkin edi. Bunday hollar, albatta, qarzdorlik tilxatlari bilan rasmiylashtirilgan.

Xammurapi qonunlarining ko`pgina moddalari (48-51; 113-119 va boshqa moddalar) bevosita **qarz shartnomasiga** bag`ishlangan. U Bobilda

dastlabki sulolalar davridayoq keng tarqalgan. O`sha vaqtlarda sudxo`rlik avjiga chiqib, dehqonlar xonavayron bo`lib, qulga aylana boshlaganlar. Xammurapi qonunlari qabul qilinishiga qadar qarzdor dehqonlar qarzi evaziga umrbod tutqunlikka tushilar edi. Natijada juda ko`p kambag`allar erkinligini yo`qotmoqda, armiya safida xizmat qilishi lozim bo`lgan erkin fuqarolarning soni juda qisqarib bormoqda edi. Bu esa mamlakat mudofaa qobiliyatining kuchsizlanishiga sabab bo`lmokda edi. Shu sababli Xammurapi o`z qonunlarida qarzdorlik asoratini cheklashga, ochko`z sudxo`rlarning (katta foizlar hisobiga qarz beruvchilarning) haddan ziyod ishtahasini tiyib qo`yishga va qarz uchun qulga aylanish jarayonining o`shishini to`xtatishga harakat qilgan, shuningdek, mumkin qadar qarzdorlar ahvolini yaxshilashga intilgan. Xammurapi qonunlari qarz uchun umrbod asoratga solinishini yo`q qilgan va har qanday qarzni to`lash uchun uch yillik muddat o`rnatgan. XQning 117-moddasiga binoan, qarzdorning o`zi emas, balki uning xotini yoki o`g`il-qizlari faqat uch yil qarz badaliga ishlab berishi lozim edi; to`rtinchi yili zsa ular erkinlikka qo`yib yuborilgan. Bu yerda qarzdorning o`zi haqida hech narsa deyilmasa-da, ishlab berishi mumkin bo`lgan oila a`zolari bo`lmasa, uning o`zi uch yil ishlab berishi kerak edi.

Qonun qarzini o`tayotgan qarzdorga va uning oila a`zolariga kreditor tomonidan shafqatsiz munosabatda bo`lishlikni taqiqlaydi. Agar kreditor garovga olingan shaxsni urib yoki boshqa og`ir munosabatda bo`lish natijasida o`ldirib qo`ysa va garovga olingan (o`lgan) kishi erkin odamning o`g`li bo`lsa, u holda kreditorning o`g`li ham o`ldirilgan, agar garovga olingan erkin odamning quli bo`lsa, unda 1/3 mina kumush to`lagan, bundan tashqari, qarzga bergan hamma narsasini yo`qotgan (116-modda).

Xammurapi qonunlarida kreditor tomonidan qarzdorning mulkini o`zboshimchalik bilan egallab olinishi ham taqiqlanadi. Agar kreditor qarzdorning ruxsatisiz uning omboridan yoki xirmonidan "donini" olsa, uni qaytarib berishi lozim bo`lgan va qarzga bergan hamma narsasini yo`qotgan (113-modda).

Qonunlarda bo`ron, suv toshqini yoki qurg`oqchilik natijasida ziyon ko`rgan va hosil ololmagan qarzdorlarga imtiyozlar nazarda tutilgan. Bunday hollarda qarzini to`lash muddati kechiktirilgan va shu yilgi to`lov foizlaridan ozod qilingan (48-modda).

Qarz bo`yicha olinadigan foizlar ancha yuqori belgilangan. Qonunda uning eng ko`p miqdori quyidagicha o`rnatilgan: urug`lik uchun - 33,3 %; pul uchun - 20 %. Qarz garov bilan ta`minlangan. Garovga, asosan, qarz oluvchining mulki (ko`pincha yeri) qo`yilgan.

Xammurapi qonunlarida **yerlarni ijaraga (arendaga) berishni** tartibga soluvchi qator moddalar mavjud. Shuningdek, bog`larni, turar-joylarni, aravalarni, kemalarni, eshaklarni ijaraga berish ham keng tarqalgan. Qullarni ijaraga berish tez-tez uchrab turadigan holat edi. Bular **mulkni ijaraga berish** hisoblangan. Ma`lumki, **mulk ijarasi shartnomasi** bo`yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki faqat foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Agar qonun yoki mulk ijarasi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo`lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida oladigan mahsulot, meva va boshqa daromadlar uning mulki hisoblanadi. Mol-mulkni ijaraga berish huquqi shu mol-mulk egasiga tegishlidir.

Yerlarni va bog`larni ijaraga (arendaga) berish shartnomasi, qisqa muddatga, odatda, bir yilga tuzilgan. Agar bog`larni arendaga oluvchilar o`z zimmlariga hosildorlikni oshirish majburiyatini olsalar, bu muddat besh yilgacha uzaytirilishi mumkin bo`lgan. Yerlarni va bog`larni ijaraga olishda dala yoki bog` maydoniga qarab arenda haqi aniq o`rnatib qo`yilgan. Bu, shuningdek, qo`shni maydonlar va bog`lardan keladigan daromadlarga qarab ham belgilanishi mumkin bo`lgan. Albatta, hosilning ma`lum qismini berish shaklidagi hisob-kitob ham uchrab turadi. Bunda ko`pincha yerlardan olinadigan hosilning yarmi yoki 1/3 qismi, bog`lardan olinadigan hosilning 2/3 qismi miqdorida ijara haqi belgilangan.

Yerni yoki bog`ni ijaraga olib, undan foydalanmay tashlab qo`yishlik, ya`ni ma`lum hosil olmaslik ijarachilarni arenda haqi to`lashdan ozod qilmagan. Bunday holda arendator mulk egasiga uning qo`shnisi qancha to`lasa, u ham shuncha to`lagan (42-modda). Agar arendator yerni olib, unga umuman ishlov bermagan bo`lsa, ijara haqi to`lash bilan bir qatorda yerga ishlov bergan holda egasiga qaytarishi lozim bo`lgan (43-modsa). Qonunning ushbu moddalarida o`z yerlarini va bog`larini arendaga bergan mulk egalari haqida g`amxo`rlik choralari ko`rilgan.

Shuni ta`kidlash joizki, Babil jamiyatida unumdor va serhosil yerlar va bog`larni oldindan aniq belgilab qo`yilgan ijara haqlari evaziga arendaga olish ko`p hollarda ijaraga oluvchilarning juda boyib ketishiga sabab bo`lgan. Ko`p hollarda arendatorlar sifatida ancha-muncha mol-mulka ega bo`lgan kishilar maydonga chiqib, o`z daromadlarini yanada oshirib borganlar. Bu o`z navbatida ayrim kambag`al dehqonlarning yanada qashshoqlashuvi hisobiga amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlarida **turar-joy ijarasi** haqida faqat bitta 78-moddada me`yorlar belgilangan. Unda ko`rsatilishicha, turar-joyni ijaraga

bergan mulk egasi ijara haqini oldindan olib, belgilangan muddat (odatda bir yil) o'tmay ijarachini uyni bo'shatib qo'yishini talab qilsa, u holda ijara haqi sifatida olgan "kumush"ni ijarachiga qaytarib berishi lozim bo'lgan.

Ko'chirib bo'ladigan (harakatdagi) ashyolarni ijaraga berishni tartibga soladigan qonunlarning moddalari, birinchidan, ijara haqining qat'iy narxlarini, ikkinchidan esa, ba'zi hollarda ijaraga olingan ashyolarning nobud bo'lishi yoki yaroqsizlanishi uchun javobgarliklar ko'lamini o'rnatadi. Ho'kizlar, kemalar ijarasida ham javobgarlik o'rnatilgan. Shubhasiz, boshqa harakatdagi ashyolarning ijarasiga nisbatan ham shunday javobgarlik belgilangan.

Ho'kizni ijaraga oluvchi uni ehtiyotsizlik yoki urib-kaltaklab ishlatish natijasida nobud qilsa (o'ldirsa), ijarachi buning uchun javobgar bo'lgan. Agar ho'kizni dalada yirtqich hayvon nobud qilsa, ijarachi javobgarlikdan ozod qilingan (244-modda). Ho'kiz o'lat tegishi natijasida nobud bo'lsa ham ijarachi xudo nomi bilan qasam ichgan va javobgar bo'lmagan (249-modda).

Xammurapi qonunlarida qullarni ijaraga berish to'g'risida alohida to'xtab o'tilmaydi. Biroq bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarda bunday turdagi bitimlarning keng tarqalganligi ko'rsatiladi.

Bobilda, shuningdek, **erkin fuqarolarni ishchi kuchi sifatida ijaraga berish** ham bo'lgan. Erkin kishilarni ijaraga berish shartnomasi qullarni ijaraga berish shartnomasiga o'xshab tuzilgan.

Hunarmandlarning bir qancha toifalari uchun ularning mehnat haqlarining aniq narxleri o'rnatilgan. Biroq, bunga ko'pincha amal qilinmagai, masalan, qonunlarda ko'rsatilgan yiliga 9-10 siql o'rniga, ishchilar 6-7 siqlga yollanib ishlaganlar. "Agar odam ishchi yollasa, unga yil boshidan beshinchi oygacha kuniga 6 she³³ kumush berishi, oltinchi oydan yilning oxirigacha kuniga 5 shedan kumush berishi lozim" (273-modda). Shunisi xarakterliki, qishloq xo'jalik ishchilari qonun bo'yicha hunarmandlardan ancha yuqori ish haqi olganlar. Bu qishloq xo'jaligining hunarmandchilikka nisbatan katta ahamiyatga molik ekanligidan guvohlik beradi. Qonunlar shuningdek, tabiblarning, veterinarlarning, quruvchilarning, kemasozlarning mehnat haqlarini o'rnatadi. Tabiblarga haq to'lashda ular kimga (avilumgami, mushkenugami yoki qulgami) xizmat ko'rsatganliklari inobatga olingan.

Mehnatga haq to'lash, qoida bo'yicha, ijara muddati tugagandan so'ng amalga oshirilgan. Agar yollanib ishlovchi muddatidan ilgari ishni

³³ She - 0,046 grammiga teng og'irlik o'lchovi.

to`xtatsa, haq olish huquqini yo`qotgan.

Ko`pincha shaxsiy ijara qarz shartnomasi bilan qo`shilib ketgan. Shaxsni yollovchi ishchiga ish haqining bir qismini qarz tariqasida oldindan bergan. Bu ijara oluvchilarga (yollovchilarga) ko`p hollarda ishga o`z vaqtida kelmagan, ishni o`z muddatida bajarmagan ishchilarni qarzdorlik asoratiga solishlarida qo`l kelgan.

Alohida hollarda yollanib ishlovchilarga moddiy qimmatdor narsalar ishonib topshirilgan. Qonun bunday hollarda ularning ushbu qimmatdorliklarning saqlanishi uchun javobgarligini ham belgilaydi. Masalan, cho`pon unga ishonib topshirilgan ho`kizlarni va eshaklarni yo`qotib qo`ysa, ho`kiz uchun ho`kiz, eshaq uchun eshaq qaytarishi lozim bo`lgan. Bundan tashqari, cho`pon podaning kamayishi va uning yetarli darajada o`smasligi uchun ham javob bergan. Cho`pon shuningdek, o`g`irlangan va o`zi tomonidan sotib yuborilgan chorva moli uchun 10 baravar miqdorda zararni to`lashi lozim edi (265-modda). Agar cho`pon ehtiyotsizligi natijasida chorvaning kasallanib o`lishiga sababchi bo`lsa, buning uchun ham javob bergan.

Yuqoridagilardan tashqari, dalani kuzatib turish uchun yollangan shaxslarning, kemalarda yukni manzilga eltish uchun yollangan kemachilarning, jarrohlik yo`li bilan davolovchi tabiblarning kasalning ko`zini ko`r qilib qo`yganligi yoki o`limi uchun, veterinarlarning hayvonni muvaffaqiyatsiz operatsiya qilgani natijasida o`ldirib qo`yganligi uchun, quruvchilarning mustahkam uy qurmaganligi oqibatida yetkazgan moddiy va jismoniy zararlari uchun javobgarliklar o`rnatilgan,

Xammurapi qonunlarida **ashyolarni saqlash yoki tashish shartnomasi** ham nazarda tutilgan. Saqlash uchun pullar, urug`liklar, donlar, xurmolar, qullar, metaplar, hujjatlar berilgan. Ashyolarni saqlash shartnomasi guvohlar ishtirokida tuzilishi lozim bo`lgan, aks holda uni saqlashga bergan shaxs sudga da`vo qila olmagan (122-modda). Don saqlashga berilganda u kam chiqsa, saqlovchi ikki baravar miqdorda qaytarishi lozim bo`lgan (120-modda). Agar kimdir qandaydir ashyoni saqlashga olib, so`ngra ularni olganligini inkor qilsa, bunday holda ham undan o`sha ashyolarning ikki baravar miqdori undirib olingan (124-modda). Xammurapi qonunlari bo`yicha mulkni saqlash uchun olgan shaxs mulkni o`g`irlatib qo`ysa, u mulkning qiymatini to`lagan va bu mulkni qidirish hamda o`g`ridan talab qilib olish huquqini olgan (125-modda).

Saqlash uchun berilmagan ashyoni asossiz talab qilganlik uchun aybdorga qancha talab qilgan bo`lsa, o`sha mulkning ikki baravar narxini berish majburiyati yuklangan (126-modda). Xammurapi qonunlari bo`yicha,

agar sayohatga chiqqan kishi yo`lda kimgadir pul, oltin, qimmatbaho toshlar va boshqa ashyolarni belgilangan joyga olib borish uchun saqlashga bergan bo`lsayu, saqlashga olgan shaxs ularni o`zining qilib olsa, u holda ishonib topshirilgan narsalarning besh baravari miqdorida undirib olinishi mumkin bo`lgan (112-modda). Bu shartnoma topshiriq shartnomasiga ham o`xshab ketadi (bu haqda quyiroqda to`xtalamiz).

Qonunlarda saqlash uchun berilgan ba`zi ashyolarning aynan o`zini emas, balki ularni o`rning to`liq bosadigan boshqa ashyolarni qaytarish mumkinligi ham o`rnatilgan. Bunday ashyolar, masalan, kumush, oltin, don, xurmo va hokazolar bo`lishi mumkin edi.

Yuqorida ko`rib o`tganimizdek, XQning 112-moddasida **topshiriq shartnomasiga** xos barcha belgilar o`z aksini topgan. Zero, topshiriq shartnomasi bo`yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Topshiriq shartnomasi ma`lum shaxs yoki shaxslar nomidan ma`lum shaxsning yoki shaxslarning vakillik qilishi to`g`risidagi shartnomadir. Topshiriq taraflarning o`zaro ishonchlariga asoslanib tuziladigan shartnoma bo`lganligi uchun u shaxsiy xarakterga ega bo`lgan shartnoma hisoblanadi.

Topshiriq shartnomasi haqida Xammurapi qonunlarida alohida to`xtab o`tilmagan bo`lsada, Bobilda u qadimdan keng qo`llanib kelgan. Masalan, hosil daladan yig`ishtirilayotgan chog`da kimlarga uni xirmonga, omborxonalariga eltish uchun ishonib topshirilgan, kimlardir ishongan odamlaridan ibodatxonalarga soliqlar berib yuborganlar va hokazo.

Topshiriq olgan shaxs uning bajarilganligi haqida hisobot berishi lozim bo`lgan. Topshiriq shartnomasi ma`lum haq evaziga yoki bepul tuzilishi mumkin bo`lgan.

Shirkat shartnomasi bizga yetib kelgan hujjatlardan ma`lum bo`lishicha, turli maqsadlarda, masalan, qarzni birgalikda uzish, ish hayvonlarini birgalikda sotib olish singari hollarda tuzilgan. Shirkat shartnomasi birgalikdagi faoliyati to`g`risidagi shartnomadir. Bilamizki, bu shartnomada sheriklar deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxs foyda olish yoki qonunga zid bo`lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o`z his-salarini qo`shish va yuridik shaxs tuzmasdan birgalikda ish qilish majburiyatini oladilar.

Har bir sherik boshqa sheriklari oldida o`z zimmasidagi majburiyatni bajarmasligi uchun javob beradi. Foyda va zararlar sheriklar o`rtasida teng taqsimlangan (99-modda). Taqsimlash "xudoning oldida", ya`ni ibodatxonada amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlari **ayirboshlash, hadya** kabi shartnomalarni ham nazarda tutadi.

Xammurapi qonunlari bo'yicha majburiyatlar faqat shartnomalardan emas, balki zarar yetkazishdan ham kelib chiqadi.

Qonunlarda **zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar** to'g'risida apohida me'yorlar belgilangan. Qonun bo'yicha, bir shaxsning mulkiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun aybdor zimmasiga ba'zi hollarda ushbu zararni to'lash majburiyati yuklatiladi. Bunga quyidagi hollar kiradi: a) sug'orish inshootiga ehtiyotsizlik orqasida yetkazgan zararni to'lash majburiyati; b) cho'ponning egasi ruxsatisiz chorvani birovning dalasida boqishi natijasida kelib chiqadigan javobgarligi; v) birovning bog'idan daraxt kesganlik uchun javobgarlik; g) daryo oqimi bo'yicha yuqoriga suzib borayotgan kema haydovchisining quyiga suzib kelayotgan kemaga to'qnashib ketishi oqibatida cho'ktirib yuborishidan kelib chiqadigan majburiyati; d) urushish natijasida ehtiyotsizlikdan jarohat yetkazgan shaxsning davolanish xarajatini to'lash (206-modda), shuningdek, qul yoki cho'rini tasodifan o'ldirib qo'yganda qiymatini to'lash majburiyati. Oxirgi holda xo'jayinga qul uchun qul berish majburiyati kelib chiqqan. O'ziga ishonib topshirilgan mulkni manzilga eltayotganda kemani cho'ktirib yuborgan kemachi barcha o'lganlar uchun zararni to'lashi lozim bo'lgan.

Nikoh-oila munosabatlari

Nikoh Bobilda yozma tuziladigan shartnoma asosida rasmiylashtirilgan.

"Agar kishi xotin olsa va yozma shartnoma tuzmasa, bu ayol unga xotin emas" (128-modda). Demak, shartnomasiz nikoh haqiqiy emas deb topilgan. Nikoh shartnomasi kuyov va kelin o'rtasida yoki kuyov va kelinning oilasi o'rtasida tuzilgan. Biroq, shuni aytish kerakki, shartnoma mazmuniga bo'lajak xotin ham o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Masalan, ayol kishi nikoh shartnomasida bo'lajak eri zimmasiga qarzlari evaziga xotinini garovga qo'ymaslik majburiyatini yuklashi mumkin bo'lgan (XQ, 151-modda). Erkin kishining qul ayol (cho'ri) bilan nikohga kirishiga yo'l qo'yilgan (100-modda), shuningdek, erkin ayolning saroy quli bilan yoki mushkenu quli bilan nikohga kirishi mumkin bo'lgan. Bunday nikohdan tug'ilgan bolalar erkin hisoblangan.. Biroq qul er o'lganidan so'ng er-xotin birgalikda orttirgan mulkning yarmi qulning xo'jayiniga o'tgan, qolgan yarmini xotin "bolalari uchun" olgan. Bundan tashqari, xotinda nikoh shartnomasi tuzilayotganda o'zi bilan olib kelgan sep-sidirg'asi ham to'liq qolgan (175-176-moddalar).

Nikoh shartnomasi tuzilishidan avval kuyov bo'lajak qaynonasiga qalin puli - "**tirxatum**", kelinning oila a'zolariga to'y sovg'alari -

"biblum" berishi lozim bo`lgan edi. Kelinning otasi qiziga sep-sidirg`a - **"sheriktum"** topshirgan, bu albatta, keyin kuyovga foydalanish uchun o`tkazilgan. Sep-sidirg`a, odatda, qalin pulidan ancha katta qiymatga ega bo`lgan.

Qonunda belgilanishicha, qalin puli nazarda tutilgan bo`lsa ham, ammo bu nikoh shartnomasi tuzishning majburiy sharti bo`lmagan (139-modda). Nikoh qalin puli to`lash natijasida emas, balki shartnoma tuzish oqibatida kelib chiqqan. Nikoh shartnomasi bo`yicha ayol zimmasiga turli majburiyatlar yuklangan va u ma`lum darajada mustaqil shaxs sifatida ko`rilgan. Qalin puli va kelinning oilasiga to`y sovg`alari berish odati urug`doshlik tuzumidan saqlanib qolgan qoldiq sifatida qonunlarda o`z aksini topgan.

Kuyov nikoh shartnomasini tuzishdan bosh tortsa, bergan qalin puli va to`y sovg`alarini qaytarib ololmagan. Bular kelinning otasida qolgan. Agar kelinning otasi qizini erga berishdan voz kechsa, u holda olgan nar-salarini ikki baravar qilib qaytarishi lozim bo`lgan (159-160-moddalar).

Nikoh munosabati bilan ota tomonidan qiziga berilgan sep-sidirg`a kelinning mulki hisoblangan va erning foydalanishiga o`tkazilgan. Xotin vafot etsa, bolalariga qoldirilgan, bolalari bo`lmasa, o`lgan ayolning ota-siga qaytarilgan, bunda qaynota qalin pulini kuyoviga qaytarib berishi lozim bo`lgan. Sep-sidirg`a er o`lsa, xotinda qolgan (171-172-moddalar). Shuningdek, erning tashabbusi bilan yoki aybi bilan nikoh asossiz ravishda bekor qilinsa yoki xotini tug`maganligi yoki kasalligi tufayli nikoh bekor qilinsa, bunday hollarda ham sep-sidirg`a xotinga qaytarib berilgan. "Agar xotin erini yomon ko`rsa va unga "menga qo`l tekkizma" deb aytsa, bu qo`shnilar o`rtasida tekshirib ko`rilishi lozim. Agar xotin axloqiy sof va halol bo`lsa, er uni uyda yurib sharmanda qilsa, bunda ayol aybsiz; u o`z sep-sidirg`asini olib otasining uyiga ketishi mumkin" (142-modda).

"Agar ayol axloqiy halol bo`lmasa va uyida yurib o`z uyini xonavayron qilsa, o`z erini sharmanda qilsa, bu ayolni suvga cho`ktirish lozim" bo`lgan (143-modda). Albatta, bunday hollarda sep-sidirg`a erda qolgan.

Nikohning asosiy shakli monogamiya (bir nikohli) bo`lgan. Lekin ba`zi hollarda erning ikkinchi nikohga ham kirishiga yo`l qo`yilgan. "Agar xotin o`zini telbalaricha tutsa, o`z uyini xonavayron qilsa yoki erini mensimay qo`ysa", er ikkinchi nikohga kirishi mumkin. Bunda u ilgarigi xotini uyda cho`ri sifatida qoldirishi yoki u bilan ajrashishi mumkin edi (141-modda). Agar xotin bola tug`masa, uning boshqa hech qanday kamchiliklari bo`lmasa ham, er o`ziga jazman (nikohsiz xotin) olishi mumkin edi. Lekin ana shu jazman (o`ynash) ayol oilada xotin bilan teng mavqega ega

bo`lishni da`vo qila olmagan (145-modda). Va nihoyat, er agar xotini kasal bo`lganda ham ikkinchi xotin olishi mumkin edi. Bunday holda birinchi xotin eri bilan qolishni xohlamasa, er unga sep-sidirg`ani qaytarib bergan va u otasining uyiga qaytib ketgan. Agar tug`maydigan xotin o`z eriga tug`ib berish uchun cho`ri tavsiya qilsa, er o`ziga boshqa xotin olishi mumkin emas edi. Bunday holda cho`ri bola tug`ib bersa, xotin endi uni sotishi mumkin bo`lmagan (146-modda).

Xotin oilada ma`lum mustaqil huquqlarga ega bo`lgan. U bitimlar tuza olgan, mulk sotib olgan va ijaraga bergan, hunarmandchilik, savdo, sudxo`rlik bilan shug`ullangan. Biroq, shularga qaramay, xotin eriga to`lik, bo`ysungan. Bobil ayollari Misr ayollariga qaraganda ancha past mavqega ega bo`lganlar. Ko`rib o`tganimizdek, erkak kishiga ko`p xotinlikka ruxsat etilgan. Shu bilan birga xotin eriga bevafoqlik qilsa, o`limga mahkum etilgan, ya`ni daryoga tashlangan. Erkak kishi xohlagan vaqtda nikohni bekor qila olgan. Xotin esa faqat quyidagi hollarda: a) agar u bevafoqlikda asossiz ayblangan bo`lsa; b) eri sadoqatni buzsa va xotinini avaylab-asramasa (142-modda); v) er uy-joyini va yashash joyini tashlab ketsa; g) agar xotin kasal bo`lib, er uyga jazman olib kelgan bo`lsa nikohni bekor qilishi mumkin bo`lgan. Xotin boshqa hollarda o`z xohishi bilan nikohni bekor qilishga haqqi yo`q edi.

Bundan tashqari, er xotini ustidan ma`lum shaxsiy hokimlikka ega. Agar nikoh shartnomasida xotin erining nikohgacha qarzi uchun qaramlikka berilishi mumkin emas, deb ko`rsatilmagan bo`lsa, er xotinini bolalari singari qarz badaliga uch yilgacha ishlab berishga berishi mumkin bo`lgan (117; 151-moddalar). Nikoh tuzilgandan so`ng kelib chiqqan qarzlar uchun er-xotinning ikkalasi javobgar edi. Bunda ham qarz to`lash uchun mablag` bo`lmasa, er xotinini, bolalarini ishlab berishga uch yil muddatga kreditorga bera olardi.

Agar er asir tushib qolsa, xotin yashashi uchun mablag` bo`lmagan holda, ikkinchi erga tegishi mumkin edi. Biroq, er asirlikdan qaytib kelsa, xotin ikkinchi erini tashlab birinchisiga qaytishi lozim edi. Beva xotin, agar yosh bolalari bo`lsa, sudning ruxsatisiz ikkinchi erga tegishi mumkin emasdi. Sudyalar birinchi erdan qolgan mulklarning ro`yxatini tuzib, homiy tayinlaganlar. Mazkur mulklar faqat bolalarga tegishli bo`lib, ona ham, ikkinchi er ham ularni sotish huquqiga ega bo`lmagan.

Ota bolalari ustidan to`liq hukmronlikka ega bo`lgan. U qizini koinlikka berishi, bolalarini qul sifatida sotishi, qarz badaliga ishlab berishga topshirishi, yollab ishlatishi va bundan keladigan daromadlarga to`la egalik qilishi mumkin edi. Ota-onasiga bo`ysunmagan, ularga qarshi ish

tutgan farzandlar qattiq jazolangan. Masalan, o'z otasini urgan o'g'ilning barmoqlari kesilgan (195-modda). Xuddi shuningdek, "agar haram og'asining (bichilgan qulning) boqib olgan bolasi yoki ibodatxona kohini ayolining boqib olgan bolasi o'zini tarbiyalab o'stirgan kishilarga "sen mening otam emassan" yoki "sen mening onam emassan" deb aytsa, uning tilini kesilgan (192-modda).

Bobilda bolalikka olish keng tarqalgan. (185-192-moddalar). Bu albatta, ko'pincha tekin ishchi kuchiga ega bo'lish maqsadini ko'zlagan. Bolalikka olish, shuningdek, nikohsiz tug'ilgan bolalarga, jumladan, cho'rilardan tug'ilgan bolalarga qonuniy bolalar mavqeini berish maqsadlarida ham amalga oshirilgan.

Xammurapi qonunlarida o'g'il qilib oluvchilarning bunday o'g'illardan tonish huquqiga yo'l qo'yilmaydigan sharoitlar ko'rsatilgan. Shuningdek, o'g'il qilib olinganlardan tonish mumkin va asosli bo'lgan holatlar ham qayd etilgan. Masalan, o'g'il qilib oluvchida o'zining qonuniy o'g'li tug'ilsa, o'g'il qilib olgan bolasidan tonishi mumkin (191-modda). Biroq bunday holda ota unga o'g'illariga meros qilib qoldiradigan ba'zi mulklarning 1/3 qismini berishi lozim edi. "Daladan, bog'dan va uydan unga hech nima berishga majbur emas".

O'g'il qilib olingan farzand, agar hunarmand tomonidan o'z hunarini o'rgatish uchun olingan bo'lsa, lekin unga hunar o'rgatmasa hamda o'zining boshqa farzandlari bilan teng ko'rmasa, uni tark etishi va o'z otanasiga qaytarishi mumkin edi (189-190-moddalar).

Meros huquqi

Merosga dastlabki vaqtlarda eng avval o'g'illar o'g'illar bo'lmasa qizlar, keyinchalik qizlar ham o'g'illar bilan teng meros huquqiga ega bo'lganlar. Agar meros qoldiruvchining farzandlari va nevaralari bo'lmasa, u holda aka-ukalar, ular bo'lmasa, amakilari merosxo'r sifatida maydonga chiqqanlar. Agar meros qoldiruvchining o'g'illaridan biri o'lgan bo'lsa va undan farzandlar qolgan bo'lsa, u holda ular otasining o'rniga merosxo'r bo'lib, tegishli ulushni olganlar.

Meros bolalar o'rtasida teng taqsimlangan. O'g'il qilib olinganlar ham haqiqiy bolalar bilan teng ulush olganlar. Cho'rilardan tug'ilgan bolalar, agar ular otalari tomonidan tan olingan bo'lsa, faqat harakatdagi (ko'chirib bo'ladigan) ashyolardan teng meros olganlar, lekin ko'chmas mulkni taqsimlashda ishtirok etmaganlar (170-modda). Biroq harakatdagi ashyolarni meros qilib olishda erkin ayoldan tug'ilgan bolalar o'zlariga tegishli ulushni tanlab olish huquqiga ega bo'lganlar. Agar ota cho'ridan bo'lgan bolalarini tan olmasa, ular merosda ishtirok etmaganlar, lekin otasi

o`lganidan so`ng onasi bilan birgalikda erkinlik olganlar.

Meros taqsimlanayotgan vaqtda otalari hayotlik chog`ida undan to`y uchun tirxatum olgan o`g`illar hali uylanmagan aka-ukalariga tirxatum to`lovi uchun alohida hissa ajratishlari lozim bo`lgan (166-modda). Cho`ri xotinning qizi erga tegayotgan vaqtida sep-sidirg`a olgan bo`lsa, otasidan qolgan meros taqsimlanishida qatnashmagan (183-modda). Agar u bunday sep-sidirg`a olmagan bo`lsa, unda aka-ukalar buning uchun ulush ajratganlar (184-modda). Boshqa qizlar, yuqorida aytganimizdek, merosdan teng hissa olganlar.

O`lgan onaning sep-sidirg`asi bolalar o`rtasida teng taqsimlangan, bu otaga o`tmagan (167-modda). Agar xotin bolasiz o`lib ketsa, u holda er qaynonasidan qalin puli – tirxatumni qaytarib olib, xotining sep-sidirg`asini qaytarib bergan (163-modda).

Eri o`lgan xotin sep-sidirg`ani – sheriktumni va erining qilgan sovg`alarini – nudunnumni olgan va o`zining o`lgan eri uyida yashab qolavergan. Biroq u ushbu mulklarni sotishi mumkin emas edi, bu mulklar uning o`limidan so`ng bolalariga o`tkazilgan (171-modda). Agar xotin eridan sovg`alar olmagan bo`lsa, sep-sidirg`ani, sovg`alar o`rniga bolalar bilan merosdan teng hissa olgan (172-modda).

Beva xotin ikkinchi marta erga tegsa, qonun birinchi nikohdan bo`lgan bolalarning manfaatlarini himoya qilgan. Bunda xotin birinchi nikohdan olgan sovg`alar (nudunnum)ni bolalariga qoldirishi lozim bo`lgan, bundan tashqari, u o`lganidan so`ng birinchi nikohdagi bolalar uning sep-sidirg`asini ikkinchi nikohdagi bolalar bilan teng taqsimlab olganlar (173-modda).

Qulning mulki u o`lganidan so`ng xo`jayiniga o`tgan. Agar saroy quli yoki mushkenu quli erkin ayol bilan nikohda bo`lgan bo`lsa, mulkning faqat bir qismi xo`jayinga o`tgan, qolgan qismi beva xotiniga kelib tushgan.

Xammurapi qonunlarida vasiyatlar haqida huquqlar to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatilmaydi. Biroq meros qoldiruvchi merosxo`rlardan birining foydasiga boshqalarining zarariga ko`proq hissa ajratish huquqiga ega bo`lgan. Bu albatta, maxsus vasiyat orqali qilinmagan. Masalan, XQning 160-moddasida ko`rsatilishicha, beva xotin nudunnumni o`z bolalaridan xohlaganiga o`tkazishi mumkin, 165-moddada esa otaning hayotlik chog`ida o`g`illaridan biriga ko`proq mulk hadya etishi huquqi e`tirof etilgan. Albatta, o`g`il qilib olish tartibi ham xuddi vasiyat rolini o`ynagan, chunki o`g`il qilib olinganlar ham merosxo`r hisoblangan. Qonunlardan ko`rinadiki, ota o`g`lini rad etishi mumkin (168-169-moddalar), demak, bu bi-

lan o'g'il meros huquqidan to'la mahrum etilgan. Otaning o'z o'g'lidan voz kechishi uchun, birinchidan o'g'il bir necha marta nojo'ya ishlar qilgan bo'lishi va, ikkinchidan, sudning ruxsati bo'lishi lozim, ya'ni o'z o'g'lini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lgan ota bu haqda sudga murojaat qilishi talab etilgan.

Jinoyat huquqi

Xammurapi qonunlarida ibtidoiy jamoa tuzumiga xos bo'lgan qonli qasos olish odati haqida hech narsa eslanmaydi. Qonli qasos olish odati o'z o'rnini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga to'laydigan haqlariga bo'shatib bergan.

Biroq, Xammurapi qonunlarida jinoyat huquqi sohasida ibtidoiy jamoa tuzumining ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolgan. Bularga: a) jinoyat uchun jinoyatchining shaxsi noma'lum bo'lgan hollarda butun hududiy jamoaning javobgarligi (23-24-moddalar); b) ota-onalari qilgan jinoyatlar uchun bolalarning javobgarligi (116,210,230-moddalar); v) jinoyatchini mazkur hududdan yoki "uyidan" haydab yuborish (154,158-moddalar) kabilar kiradi.

Xammurapi qonunlarida **talion** ("ko'z uchun ko'z", "tish uchun tish" va h.k.) tamoyilining saqlanib qolganligi ham ibtidoiy jamoa tuzumining qoldiqlaridandir. Biroq talion tamoyili faqat jinoyatchi va jabrlanuvchi Bobilning to'la huquqli fuqarolari (avilum) bo'lsa, shunda qo'llanilgan. Agar avilum avilumning ko'zini chiqarsa, uning ham ko'zini chiqarish lozim bo'lgan (196-modda). Agar avilum avilumning suyagini sindirsa, uning ham suyagi sindirilgan (197-modda). Agar avilum mushkenuning ko'zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, jarima to'lagan, agar u qulga jarohat yetkazsa, uning xo'jayiniga qul bahosining yarmini to'lagan (199-modda).

Shunday qilib, qonunlarda o'rnatilgan jazolar ochiqdan-ochiq yuqori tabaqalar manfaatlarini himoya qilgan. Bu bir xildagi jinoyatlar uchun ayblanuvchi va jabrlanuvchining qanday mavqeda turganligiga qarab turlicha jazolar tayinlanganligida yaqqol ko'rinadi. Masalan, avilum ijtimoiy mavqei bo'yicha o'ziga teng boshqa avilumning yuziga ursa, jarima to'lagan (203-modda). Agar kimda-kim o'zidan yuqori ijtimoiy mavqedagi kishini yuziga ursa, u omma oldida mol terisidan tayyorlangan qamchi bilan oltmish darra savalangan (202-modda). Agar qul erkin kishining yuziga ursa, uning qulog'i kesilgan (205-modda). Mushkenu boshqa mushkenuning yuziga ursa, avilum avilumni urganga qaraganda olti baravar kam (ya'ni 10 siql kumush) jarima to'lagan (204-modda). Zero, avilum

buning uchun avilumga bir mina kumush jarima to'lashi lozim edi (203-modda).

Xammurapi qonunlarining mulkdor tabaqalar manfaatlariga xizmat qilganligini o'g'irlik uchun jazo berilgan joylarda ham ochiq ko'rish mumkin. Bunda o'g'irlik uchun asosan o'lim jazosi nazarda tutilgan bo'lsa-da, lekin bundan mulk qiymatining o'n yoki hatto o'ttiz baravar miqdorida jarima to'lash bilan qutilib ketish mumkin bo'lgan.

XQda nazarda tutilgan jazolar birinchi navbatda Bobildagi quldorlik tuzumini ushlab turishga qaratilgan. Qulni o'g'irlash, shuningdek, qochoq qulni yashirish yoki ushlab turish uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Qul o'z xo'jayiniga so'zsiz quloq solishi va bo'ysunishi lozim bo'lgan. Qul ozgina bo'lsada xo'jayinga itoat etmasa, xo'jayini uni qattiq jazolashi mumkin edi. Qonunga binoan "agar qul o'z xo'jayiniga "sen mening xo'jayinim emassan" desa, xo'jayin uning qulog'ini kesishi mumkin" bo'lgan (282-modda).

Qadim davrlardagi boshqa kodekslar singari Xammurapi qonunlari ham jinoyatning umumiy tushunchasi va jinoyat deb hisoblanadigan barcha xatti-harakatlarning ro'yxatini bermaydi. Unda doimo o'lim jazosi bilan jazolanadigan davlatga va dinga qarshi jinoyatlar haqida hech narsa deyilmagan. XQning umumiy mazmuniga qarab, undagi to'rtta turdagi: shaxsga qarshi, mulkka qarshi, oilaga qarshi va sudga qarshi jinoyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shaxsga qarshi jinoyatlarda avvalo shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlarga e'tibor berilgan. Bunda qasddan odam o'ldirish haqida qonunlarda umuman hech narsa deyilmagan, lekin ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish jinoyati to'g'risida anchagina me'yorlar belgilangan. Biroq bundan qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilmagan ekanda, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bunday hollarda aybdor albatta o'limga mahkum etilgan. Ushbu fikrimiz XQning 1-moddasida belgilangan birovni odam o'ldirishda yolg'ondan ayblovchilarga nisbatan o'lim jazosi nazarda tutilganligi, 3-moddasida belgilangan yolg'on ko'rsatma berish oqibatida birov uchun o'limga mahkum etilish xavfini tug'dirgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosining nazarda tutilganligi, shuningdek, erini o'ldirgan xotinga nisbatan qoziqqa o'tqazish jazosining (153-modda) tayinlanganligi kabi holatlar bilan ham tasdiqlanadi. Demak, bular qonunlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati sifatida alohida qayd etilmagan bo'lsada, aslida, sub'yektiv tomondan ana shunday bo'lganligiga shubha yo'q.

XQda ehtiyotsizlik natijasida odam o'ldirish to'g'risida aniq me'yorlar o'rnatilgan. Masalan, omonat imorat qurgan quruvchi bunday imorat-

ning buzilishi yoki bosib qolishi natijasida uy xo`jayini o`lsa, quruvchi ham o`limga mahkum etilgan (229-modda); agar buning natijasida uy egasining o`g`li o`lsa, quruvchining o`g`li ham o`ldirilgan (230-modda); agar uy bosib tushishi natijasida uy egasining quli o`lsa, quruvchi qul uchun boshqa qul bergan (231-modda). Shuningdek, tabiblarning muvaffaqiyatsiz operatsiya qilishlari natijasida kasallarning o`limiga sababchi bo`lganliklari uchun ham javobgarlik belgilangan. Agar tabib-jarroh ehtiyotsizlik qilib kasalni o`ldirib qo`ysa yoki ko`zini ko`r qilib qo`ysa, uning qo`li kesilgan (218-modda). Agar bunday holda kasal kul bo`lsa, qul uchun qul bergan (219-modda).

Shaxsning sog`lig`iga qarshi jinoyatlarning bir qancha turlari uchun qonunlarda javobgarliklar nazarda tutilgan va bunday hollarda ijtimoiy ahvoli jabrlanuvchilar bilan bir xil bo`lgan ayblanuvchilar talion tamoyili bo`yicha jazolangan. Agar jabrlanuvchi ayblanuvchiga nisbatan quyi mavqeda tursa, jarimalar nazarda tutilgan. "Agar avilum mushkenuning ko`zini chiqarsa yoki suyagini sindirsa, 1 mina kumush jarima to`lagan" (198-modda). "Agar avilum avilumning tishini sindirsa, uning ham tishi sindirilgan" (200-modda).

Shaxsga qarshi jinoyatlar qatorida yosh bolalarni o`g`irlash jinoyati ham eslab o`tiladi. Albatta, bunda ularni qul qilib sotish maqsadida o`g`irlanar edi. XQning 14-moddasida shunday deyiladi: "Agar kimda-kim avilumning yosh o`g`lini o`g`irlasa, o`limga beriladi".

Mulkka qarshi jinoyatlarga nisbatan qonunlarda ayniqsa juda og`ir jazolar nazarda tutilgan. Saroy yoki ibodatxona mulkini o`g`irlashga nisbatan qonunda ayrim hollarda o`lim jazosi (6-modda), boshqa hollarda (ho`kiz, qo`y, eshaq o`g`irlasa) o`g`irlangan mulkning o`ttiz baravari miqdorida jarima nazarda tutilgan. Agar o`g`ri bunday jarimani to`lay olmasa o`limga mahkum etilgan (8-modda). Jinoyatchi devorni buzib o`g`irlik qilsa, uni jinoyat joyida qatl etib ko`mib tashlash jazosi (21-modda) nazarda tutilgan. Yong`in paytida o`g`irlik qilgan jinoyatchi o`tga tashlangan (25-modda).

Ayniqsa, qulga nisbatan mulk huquqi qattiq himoya qilingan. Saroy yoki ibodatxona qulini, shuningdek, mushkenuning qulini o`g`irlaganlik uchun o`lim jazosi belgilangan (15-modda). Yuqorida aytib o`tganimizdek, qochoq qulni yashirganlik yoki topib olingan qulni uyida ushlab turganlik uchun ham o`lim jazosi nazarda tutilgan (18-modda). Quldan qullik belgisini olib tashlagan tamg`alovchining qo`li kesilgan, bu ishga uni da`vat etgan shaxs esa o`limga mahkum etilgan (226-227-moddalar).

O`g`irlik bilan bir qatorda bosqinchilik jinoyati ajratib ko`rsatilgan

va buning uchun o`lim jazosi belgilangan (22-modda). Agar bosqinchi (talonchi) jinoyat joyida qo`lga tushmasa, jabrlanuvchi jinoyat sodir bo`lgan joyni ko`rsatishi kerak va bunda o`sha joydagi jamoa javobgarlikka tortilgan hamda yetkazilgan zararni to`lagan. Agar talangan shaxs o`lgan bo`lsa, uning oilasiga (qarindoshlariga) bir mina kumush to`lashi lozim bo`lgan (23-24-moddalar).

Xammurapi qonunlarida **oilaga qarshi jinoyatlar** to`g`risida alohida me`yorlar nazarda tutilgan. Bunday jinoyatlarga er-xotinlik sadoqatini buzishlik, yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqada bo`lishlik, shuningdek, beva xotinning sud ruxsatisiz ikkinchi nikohga kirishi kabilar kirgan. "Agar xotin boshqa erkak bilan birga yotganida ushlansa, ikkalasining qo`l-oyog`ini bog`lab suvga tashlash lozim. Agar xotinning xo`jayini (eri) uning hayotini saqlab qolsa, u holda podsho ham o`z qulining hayotini saqlab qoladi" (129-modda). Agar kimdir xotin kishini eriga xiyonat qilganlikda ayblasa, u ayol o`zini oqlashi, ya`ni o`zini suvga tashlab aybdor emasligini isbotlashi lozim (132-modda). Agar bunday holda xotin kishi sinovdan muvaffaqiyatli o`tsa, uni nohaq ayblagan kishining sochini sharmandalik belgisi sifatida olib tashlangan. Faqat xotin kishining eriga nisbatan xiyonati jazolangan. Er hech qanday jazosiz xotiniga xiyonat qilishi va hatto, yuqorida ko`rib o`tganimizdek, ba`zi hollarda uyiga jazman olib kelishi mumkin bo`lgan. Bu yerda qonun oilada erning xotin ustidan hukmronligidan kelib chiqqan.

Qonunlarda yaqin qarindoshlar va tug`ishganlar o`rtasidagi jinsiy aloqalar og`ir jinoyat sifatida qaralib, qattiq jazolar o`rnatilgan. Masalan, otasi o`lgan o`g`ilning o`z onasi bilan jinsiy aloqada bo`lishi o`ta axloqsizlik va og`ir jinoyat hisoblanib, bunda ikkala tomonning ham yoqib yuborilishi lozimligi belgilangan. Ota o`z qizi bilan jinsiy aloqa qilsa, yashab turgan joyidan xaydab yuborilgan va hokazo.

Jinoyat qonuni ota-ona va bolalar o`rtasidagi munosabatlarga ham taalluqli bo`lgan. Qonun otaning oiladagi hukmronligini qattiq himoya qilib, o`z otasini urgan o`g`ilning qo`li kesilishi lozimligini belgilaydi (195-modda). Qonun o`z navbatida bolalarni ham ota-ona tomonidan yo`l qo`yiladigan o`zboshimchaliklardan himoya qiladi. Qonunda belgilanishicha, ota o`z o`g`li faqat ikkinchi marta og`ir nojo`ya ish qilgandagina undan yuz o`girishi va uni merosdan mahrum qilishi mumkin (168-169-moddalar).

Jinoiy qonunlar, shuningdek, ota-onalar bilan farzand qilib olinganlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarga ham tegib o`tgan. Bu yerda farzand qilib oluvchilarning hukmronligi qattiq choralar bilan himoya qilinadi. Ay-

rim hollarda o`ziga farzand qilib olgan ota-onani inkor qilganligi uchun tilini kesish (192-modda), shuningdek, o`zining haqiqiy ota-onasini ko`rib unga qaytmoqchi bo`lgan farzand qilib olinganlarning ko`zini o`yish (193-modda) jazolari nazarda tutilgan.

Xammurapi qonunlarida **sudga qarshi jinoyatlar** ham uchrab turadi. Garchi, qonunlarda bular haqida alohida to`xtab o`tilmagan bo`lsada, biz ayrim turdagi jinoyatlarning mazmuniga qarab, ularni shu turkumga kiritishimiz mumkin. Masalan, qonunlarda o`z hukmini o`zgartirgan sudyaning jazolanishini belgilovchi me`yorlar mavjud. Agar sudya hukm chiqarib va uni yozib qo`ygan bo`lsa, keyin esa o`zgartirsa, unda da`voning o`n ikki baravar miqdorida jarima to`lagan va o`z mansabidan mahrum bo`lgan (5-modda). Shuningdek, birovni yolg`ondan ayblash uchun, sudda yolg`on guvohlik berganlik uchun ham javobgarliklar mavjud. Tayyorlanayotgan jinoyat haqida xabar bermagan shaxslar ham jinoiy javobgarlikka tortilgan (109-modda).

Shunday qilib, Xammurapi qonunlarida **jazolarning** xilma-xil turlari nazarda tutilgan bo`lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: o`lim jazosi, tana a`zolariga jarohat yetkazish (mayib qilish) jazolari, tan jazolari (darra bilan urish), sharmandalik belgisini qo`yish, yashab turgan joyidan yoki uyidan haydab yuborish, pul jarimalari, va nihoyat, kelajakda muayyan mashg`ulot bilan shug`ullanish huquqidan mahrum etib, mansabidan bo`shatish. O`lim jazo juda keng qo`llangan. Qonunlarda o`ttizdan ortiq holatlarda o`lim jazosi nazarda tutiladi. Buning ustiga o`lim jazosi turli ko`rinishlarda: suvga cho`ktirish, yoqib yuborish, qoziqqa o`tqazish, osish kabi ko`rinishlarda amalga oshirilgan. Tana a`zolariga jarohat yetkazish jazolari avvalo talion yo`li bilan berilgan. Bundan tashqari, jinoyat tananing qaysi a`zosi bilan qilinsa, o`sha qismini kesib tashlash-ramziy talion ham qo`llangan. Masalan, farzandlikka olingan shaxs otasiga "sen mening otam emassan" desa tili kesilgan, otasini urgan o`g`ilning qo`li kesilgan va hokazo.

Sud ishlarini yuritish Sud jarayoni jinoyat ishlari bo`yicha ham, fuqarolik ishlari bo`yicha ham bir xil bo`lgan. Ish jabrlanuvchi tomonlarning arizasi bilan boshlangan. Ayblov xususiy shaxslar tomonidan quvvatlangan. Jamoat ayblovi qandaydir prokuror ayblovi yoki bo`lmagan. Pul jarimalari ko`p hollarda ayblanuvchidan jabrlanuvchiga kelib tushgan va jabrlanuvchi tashabbusi bilan undirilgan.

Sudda guvohlarning ko`rsatmalari, qasam, yozma dalolatnomalar, shuningdek, ordaliya isbotlash (gumon qilinuvchini suv bilan sinash)

vositasi sifatida xizmat qilgan. Xammurapi qonunlaridan ko`rinadiki, ordaliyadan, birinchidan, xotin bevafoqlik qilishda ayblanayotganda, ikkinchidan, kimdir sehrgarlik (afsungarlik) qilishda ayblanayotganda foydalanilgan. Protsessual huquq me'yorlari sudyalardan "ishni ko`rib hal qilishni" shaxsan o`zlari amalga oshirishlarini talab qilgan. Sudya o`z qarorini o`zgartirishi mumkin emas. Agar sudya birinchi chiqargan o`z qarorini o`zgartirsa, yuqorida aytib o`tganimizdek, da'voning o`n ikki baravar miqdorida jarima to`lagan va mansabidan abadul-abad mahrum bo`lgan.

Sud qaydnomalari loytaxtachalarga yozilgan. Ularda tomonlarning ko`rsatmalari, qasamlari, guvohlarning ismlari va sud hukmining mazmuni yozib qo`yilgan. Tomonlar qoida bo`yicha aynan bir ishni ikkinchi marta qo`zg`atishlari mumkin emas edi.

QADIMGI HINDISTON DAVLATI VA HUQUQI

1. Qadimgi Hindiston davlatining tashkil topishi va rivojlanishiga umumiy tavsif

Hindiston - insoniyat sivilizatsiya beshiklaridan biri bo`lib, bu yerda qadimgi tosh davridayoq odamlar yashagan, neolit bosqichida katta daryolarning vodiylari o`zlashtirila boshlangan, eneolit va ayniqsa bronza davriga kelib esa o`ziga xos ilk hind madaniyati tarkib topgan edi. Bundan to`rt ming yil ilgari Hind havzasida vujudga kelgan Xarappa va Mohenjo - Daro³⁴ qadimgi sivilizatsiyaning katta shaharlari hisoblangan. Arxeologik qazilmalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi III minginchi yilliklarda bu yerda shaharlar hunarmandchilik ishlab chiqarishi markazlari sifatida maydonga chiqqan, dehqonchilik, savdo, aholining mulkiy tabaqalashuvi rivojlangan. Ilk hind madaniyatini yaratgan xalq ehtimol dravidlardan yoki dravidlardan oldin o`tgan qabilalar bo`lishi mumkin. Af-suski, fanda ushbu davrga oid ma'lumotlar juda kam saqlangan. Man-balarda bu davrning sinfiy tuzilishini va siyosiy tuzumini ko`rsatib beru-vchi aniq ma'lumotlar yo`q. Lekin shunday bo`lsada, mavjud manbalar jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi va ibtidoiy-jamoa tuzumining yemiril-ishi haqida yetarlicha ma'lumotlar beradi.

Miloddan avvalgi II ming yillik o`rtalarida ilk hind shahar-davlatlari va madaniyati tushkunlik davrini boshdan kechirgan. Uning markazlari in-qirozga uchragan. Bu jarayon shimoliy-g`arbdan hindariy qabilalarining bostirib kirishi bilan nihoyasiga yetgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o`rtalaridan -I ming yillikning birinchi yarmigacha bo`lgan davr tarixda veda³⁵ davri degan nom bilan yu-ritiladi va Hindiston tarixining aynan shu bosqichida sinfiy jamiyat va dav-latning tashkil topishi yuz bergan. Ishlab chiqarish sohasidagi ulkan yutuqlar jamiyatning tabaqalashuviga olib kelgan.

Ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi bilan ilgari majlis tomonidan say-lanadigan va almashtirilishi mumkin bo`lgan qabilaning harbiy boshlig`i-roja endi borgan sari qabila boshqaruv organlarini o`ziga bo`ysundira borib, qabiladan ustun bo`la boshlagan. Rojalik mansabi uchun qabilada taniqli va qudratli urug`larning vakillari o`rtasida doimo o`zaro kurash

³⁴ Bu iboralar ushbu markazlarning hozirgi nomlari bo`lib, ularning qadimgi nomlari hozircha bizga ma'lum emas.

³⁵ **Vedalar** - gimmlar. qo`shiq, afsunkor va diniy duolardan iborat katta to`plam. Bunday toplamlardan 4 tasi: Rig-veda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda saqlanib qolgan. Eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi II ming yillikka mansub.

davom etgan. Vaqt o'tishi bilan bu mansab meros tariqasida o'tadigan bo'lgan.

Rojalarni tayinlashga ta'sir o'tkazuvchi xalq majlislari dastlab o'zlarining ilgarigi ahamiyatlarini saqlab qolganlar. Lekin ular asta-sekin qabiladoshlar majlisidan ko'ra ko'proq roja yaqinlaridan iborat zodagonlar majlisi bo'lib qolgan. Xalq majlislari rolining kamayib borishi rojalar hukmronligining kuchayishi bilan birga kechgan.

Qabilaviy boshqaruv organlari asta-sekin davlat organlariga aylantirilgan. Davlat boshqaruvida yuqori mansablarni egallash hukmdor zodagonlarning imtiyozi hisoblangan. Zodagonlar orasida podsholik kohini - puroxita katta ahamiyat kasb eta boshlagan. U shuningdek, astrolog va roja maslahatchisi ham edi.

Qabila drujinasi (ko'ngilli qo'shini) asta-sekin harbiy boshliq (senani, senapati) boshchiligidagi doimiy qo'shinga o'sib chiqqan.

Xalqning zimmasiga turli soliqlar yuklatilgan. Masalan, ilgari qabila yo'lboshchisiga yoki xudo yo'liga ixtiyoriy tortiq qilinadigan bali endi podshoga maxsus chinovniklar orqali to'lanadigan majburiy va qattiq o'rnatilgan soliqqa aylantirilgan.

Shu tariqa urug'-qabila tuzumi o'z o'rmini tobora ko'proq davlat tashkilotiga bo'shatib bergan. Miloddan avvalgi VI asrgacha shimoliy Hindiston juda ko'p podsholiklarga bo'lingan edi. Masalan, Gang havzasining o'zida o'n oltita mayda davlat bo'lgan. Ularning eng yiriklari Magadxa, Anga, Shaxya, Kashala, Gandxar, Malla, Kashilar edi. Ulardan biri Magadxa o'sha davrning eng yirik va kuchli davlati bo'lgan. Ayniqsa, miloddan avvalgi IV-III asrlarda Mauriylar sulolasi davrida bu davlat deyarli butun Hindiston hududini o'z hukmi ostiga birlashtirib, juda qudratli davlatga aylangan. Bu davlatning asoschisi grek-makedon istilochilariga qarshi kurashda xalq ommasini harakatiga boshchilik qilgan mashhur hind arbobi Chandraguptadir. U miloddan avvalgi 321 yildan 298 yilgacha podsholik qilib, qudratli Mauriya davlatini barpo qilgan. Chandragupta butun shimoliy Hindistonni birlashtirishga, grek-makedon garnizonlarini Hind vodiysidan haydab chiqarishga va kuchli markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan.

Magadxa - Mauriylar davriga qadimgi Hindiston davlatchiligi rivojlanishidagi alohida bosqich sifatida qaraladi. Bu davrda Hindistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va xo'jaligi ancha rivojlangan, yirik siyosiy voqealar bo'lib o'tgan. Birlashgan hind davlatining tuzilishi turli xalqlarning yaqinlashuviga, ularning o'zaro madaniy aloqalariga, tor qabilachilik doiralariidan chetga chiqishlariga ko'maklashgan. Aynan Mauriylar davrida

ko`pgina davlat institutlariga asos solingan.

Shunday bo`lsa-da, Mauriylar imperiyasi taraqqiyotning turli bosqichlarida turgan qabilalar va xalqlar yig`indisidan iborat edi. Kuchli armiya, mustahkam boshqaruv apparati bo`lishiga qaramay, Mauriylar davlatning birligini saqlab qola olmagan. Miloddan avvalgi II asrda Hindiston bir qancha mayda davlatlarga bo`linib ketgan. Natijada uni miloddan avvalgi 190 yillarda Yunon-Baqtriya podsholaridan Demetriy qo`shinlari, 100 yillarda saklar (skiflar) bosib oladi. Shimoliy Hindistonda Hind-Skif davlati vujudga keladi. Yangi era arafasida Shimoliy-g`arbiy Hindistonga Parfiya qo`shinlari bostirib kirgan, keyinchalik bu yerni Kushonlar bosib olgan. Kushonlar davrida Hindiston kuchli davlatga aylangan. Kushonlar bu yerda milodning III asrigacha hukmronlik qilganlar. III asrdan boshlab Gang vohasidagi Magadxa davlati yana kuchayadi. Uning asoschisi Gupta bo`lib, sulola ham shu nom bilan atalgan. Magadxa davlati Guptaning nabirasi Chandragupta I davrida (320-335 yillar) Hindiston Osiyodagi eng kuchli davlat edi. Lekin Chandragupta I ning vafotidan keyin davlat parchalanib ketgan. V asr oxirida Hindistonga shimoli-g`arbdan avval kidariylar, so`ng eftalitlar bostirib kirgan. VI asrga kelib Hindistondagi guptalar tuzgan davlat yana mayda davlatlarga bo`linib ketadi. Shu tariqa Hindistonning qadimgi tarixi ham o`z nihoyasiga yetadi.

2. Ijtimoiy tuzumi

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi hamda ijtimoiy va mulkiy tengsizlikning rivojlanishi natijasida o`sib borayotgan ijtimoiy tabaqalanish toifalarning keskin suratda bo`linishiga va biqiq varnalarning³⁶ paydo bo`lishiga olib kelgan. Varnalarning mavjudligi hind jamiyatining o`ziga xos xislati deb hisoblanadi.

Qadimgi hind jamiyatining ijtimoiy tabaqalanish jarayoni uyushmagan qabilalar jamoalari ichida boshlangan. Urug`-qabila munosabatlarining yemirilishi natijasida o`z qo`lida boshqaruvning ijtimoiy funksiyalarini, harbiy mudofaani, kohinlik majburiyatini to`plagan ancha kuchli va nufuzli urug`lar oldinga chiqqan. Bu ijtimoiy va mulkiy tengsizlikning, quldorchilikning rivojlanishiga, qabila yuqori doiralarning urug` aristokratiyasiga aylanishiga olib kelgan. Urushlar ham ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan. Urushlar davomida alohida qabilalar va jamoalar o`rtasida qaramlik, bo`ysunish munosabatlari kelib chiqqan.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, qadimgi hind jamiyatining ijtimoiy

³⁶ Ularni ko`pincha portugalliklar iborasi bilan "kasta" deb ataydilar. Lekin bu nom k o`proq hindlarning "jati" sig'a muvofiq keladi. "Jati" yanada kuprok parchalangan biqiq guruhlarini, o`zlariga biron kasbni tanlab olgan qabilalarning shunday guruhlari ni bildiradi.

tabaqalanishi sinflar (quldorlar va qullar)ning shakllanishiga emas, balki alohida toifalar-varnalar: **braxmanlar, kshatriylar, vayshiyalar va shudralarning**³⁷ vujudga kelishiga olib kelgan. Bu toifalar haqida ilk marta Rigvedada eslatib o'tilgan. Vedalarda varnalar faqat keyingi qo'shimchalardagina tilga olinadi. Keyingi manbalarda o'sha biqiq guruhlarga bo'linishni eng yuqoridan, ya'ni tangri belgilagan bo'linishi deb hisoblangan. Ana o'sha ikki varna: braxmanlar bilan kshatriylar hukmron mavqeni egallaganlar. Rivoyatga ko'ra, braxmanlar oliy xudo Braxmanning og'zidan chiqqan, kshatriylar esa uning yelkasidan chiqqan emish. Aholining eng ko'p qismi vayshilar deb atalgan uchinchi varnaga kirgan. Ular Braxmanning qovurg'asidan chiqqan deb hisoblangan. To'rtinchi varna - shudralar bo'ysundirilgan ajnabiylar va shuningdek, o'z urug' va qabilalaridan ajralib ko'chib kelganlar hisobiga to'ldirib turilgan. Ular Braxmanning "tovonidan paydo bo'lgan zoti past" kishilar bo'lganlari uchun chang - tuproqqa belanib yashashga mahkum etilgan xalq hisoblangan. Ular jamoalarga yaqinlashtirilmagan va biron-bir xizmat, vazifalarga qo'yilmagan. Hatto ba'zi diniy marosimlar, chunonchi, faxrli marosim - "ikkinchi bor tug'ilish" marosimi ular uchun o'tkazilmagan.

Yuqoridagi rivoyatlarga qaramay, varnalarning kelib chiqishi o'ziga xos tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq.

Braxmanlar tomonidan vedalarga oid gimnlar, afsunkor va diniy duolarning tanho o'zlashtirib olinishi tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida ularning shunday varna bo'lib ajralishlariga olib kelgan. Harbiy aristokratiya - kshatriylar esa ariylar tomonidan Shimoliy Hindistonning daryo havzalari istilo qilinishi jarayonida paydo bo'la boshlagan. Bu toifaga dastlab faqat ariylar kirgan. Biroq, keyinchalik assimiliyatsiya natijasida kshatriylar safi mahalliy qabila yo'l boshchilari va kuchli urug' boshliqlari hisobiga ham to'ldirilgan. "Vayshiyalar" varnasi esa "vish" - xalq, qabila, manzilgoh (poseleniye) so'zidan kelib chiqqan. Bu mehnatkash kishilarning, dehqonlarning va hunarmandlarning asosiy ommasini anglatgan. Shudralar varnasining kelib chiqishi urushlarda asir qilib olish va mulkiy hamda ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan. Buning natijasida jamoa a'zolari bo'lmagan kishilarning katta guruhi - shudralar paydo bo'lgan. Jamoaga qabul qilingan begonalar erkin jamoachilar bilan teng huquqlar olmaganlar. Ular ijtimoiy ishlarni hal qilishdan chetlashtirilganlar, qabila majlislarida qatnashmaganlar va hokazo. Shudralar varnasi faqat mahalliy, tutqinlikka tushirilgan aholi hisobigagina

³⁷ Braxmanlar - din homiylari, kohinlar; kshatriylar - harbiylar, hukmdorlar; vayshiyalar - dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar; shudralar - xizmatchilar, kambag'allashgan dehqonlar yoki ozodlikka chiqarilgan qullar.

emas, balki ariylar jamiyatining eng kambag'al qismi, qarzini to'lash evaziga xizmatni o'tayotganlar hisobiga ham to'ldirilgan. Shudralarni yarim qul, yarim ozod kishilar deyish mumkin, lekin ular qullar emas.³⁸

Shuni ham aytish kerakki, hatto o'sha eng pastki varnaga kiritilmaydigan, varnalardan tashqari kishilar ham bo'lgan. Ular "**chandallar**" deb atalib, bunday kishilarni toza suvni harom qiladi deb quduqlarga ham yaqinlashtirmaganlar. "Chandal"lar jamiyatda eng xo'rlanganlar bo'lib, ularning bolasi tug'ilgan kundan boshlab nopok hisoblangan. Ular eng og'ir va iflos ishlarni - axlat tozalash, ko'chalarni supurish va o'lgan hayvonlarning terisini shilish bilan shug'ullangan.

Qadimgi Hindiston huquqiy yodgorliklarida, jumladan, Manu qonunlarida qadimgi hind jamiyatining tabaqa-kastalarga bo'linishi haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Manu qonunlarida (VIII bob, 415-modda) qullarning yettita razradi (shunga qarab qullikning yettita manbai): urushlarda asirga olish; boqqanlik uchun qul qilib olish; sotib olingan uyda tug'ilgan qulni olish; hadya sifatida olish; meros yo'li bilan olish va jazo tariqasida qul qilib olish ko'rsatiladi. Adabiy asarlarda ham qullar tez-tez tilga olingan. Harbiy asirlardan iborat qullar "dasa" deb atalgan, bu so'z "dushman" va "ajnabiy" ma'nosida ishlatilgan. O'zini yoki qarindoshlarini sotish hollari ham ko'p bo'lgan. Qo'llar va shudralar o'rtasidagi farq juda kam bo'lganligi huquqiy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Manu qonunlarida "dasa" so'zi (X bob, 32-modda) bir vaqtda ham qul, ham xizmatda turuvchi kishi sifatida ishlatilgan. Bu holat qadimgi Hindistonda qulchilik qaramlikning yagona shakli bo'lmay, boshqacha shakllari ham mavjud bo'lganligidan kelib chiqqan. Har bir varna uchun yashash tarzini belgilovchi o'z qonuni - dxarmasi o'rnatilgan edi. Dxarmashastralar (odat huquqlari to'plamlari)da varnalar o'rtasidagi diniy-huquqiy farqlar, ularga nisbatan cheklashlar, taqiqlar va talablar aniq belgilab qo'yilgan; har bir varna shug'ullanishi lozim bo'lgan mashg'ulotlar doirasi qat'iy chegaralab qo'yilgan. Muqaddas kitoblarni o'qish braxmanlar, kshatriylar va vayshiylarning imtiyozlari bo'lgan. Ular "ikki marta tug'ilganlar" degan nom olganlar. Shudralar esa "bir marta tug'ilganlar" hisoblangan. Davlat boshqaruvini yuritish faqat braxmanlar va kshatriylar qo'lida edi, shu bilan birga kohinlik majburiyatlarini bajarish braxmanlarning, harbiy ishlarni yuritish esa kshatriylarning imtiyozi hisoblangan. Vayshiylar dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanishlari lozim edi. Shudralar esa yuqoridagi

³⁸ Z. Muqimov. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo hamda o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O'quv qo'llanmasi. - Samarqand: SamDU nashri, 1992, 29-bet.

uhta varna xizmatida turishlari kerak bo`lgan.

Braxmanlar jamiyatda eng yuqori mavqega ega bo`lgan, oliy martabali kishilar bo`lib, ularning mashg`uloti muqaddas kitoblarni o`rganish, sudda va boshqaruvda qatnashish, qonunlar va farmoyishlar ishlab chiqishda ishtirok etish kabilarni tashkil etgan. Braxman nimani ko`rib turgan bo`lsa, hammasi unga tegishli bo`lgan; u nimani xohlasa (har qalay qonun doirasida), hammasini talab qilishi mumkin bo`lgan. Braxmanga nisbatan faqat ba`zi yangi jazolargina qo`llanishi mumkin bo`lgan. Manu qonunlarida braxmanlar birinchi o`ringa qo`yilgan, kshatriylar (harbiy zodagonlar) braxmanlarni hurmat qilishi lozim deyilgan. Lekin amalda bu varnalarning ikkisi ham hukmronlik va imtiyozlarga teng sherik bo`lgan.

Kshatriylar - dunyoviy aristokratiya bo`lib, ular orasidan podshohlar, harbiy boshliqlar, chinovniklar chiqqan. Jamiyatda va davlatda hukmronlik amalda kshatriylar qo`lida bo`lgan.

Vayshiyalar va shudralar imtiyozsiz varnalar hisoblangan.

Bir varnadan boshqasiga o`tish taqiqlangan. Varnalarning bir-birlari bilan aralashishiga yo`l qo`ymaydigan qilib bo`linishi abadiy o`zgarmas deb hisoblangan; din esa uni muqaddas deb e`lon qilgan. Bir varnadagilarni boshqa varnadagilar bilan nikohga kirishi, ya`ni aralash nikoh cheklab qo`yilgan. Bir.xildagi jinoyatlar uchun yuqori varnadagilarga quyi varnadagilarga qaraganda yengilroq jazolar belgilangan. Shudrani o`ldirgan braxman tavba-tazaru qilish va jarima to`lash bilan qutulib ketgan, u hayvonni o`ldirgani uchun ham xuddiy shunday jazoga tortilgan.

Milodning I asrlarida Hindistonda feodal munosabatlar tashkil topa boshlaydi. Bu davrda varnalarning kasta (tabaqa)larga aylanish jarayoni vujudga kelgan. Kastalar ijtimoiy guruhlariga - tabaqalarga aylangan.

Qadimgi hind jamiyatining muhim xususiyatlaridan biri unda katta patriarxal oilalar birlashmasidan iborat qishloq jamoasining roli ancha katta bo`lganligida edi. **Jamoalarga** aholining katta qismi - erkin dehqonlar birlashgan edilar. Jamoaning eng keng tarqalgan shakli qishloq bo`lgan. Shu bilan birga qoloq chekka o`lkalarda hali eski, primitiv urug`chilik jamoalari saqlanib qolgan edi. Mulkiy tabaqalanish jarayoni jamoaga ham allaqachon chuqur kirib kelgan edi. O`z uchastkalarida o`zlari ishlaydigan oddiy jamoachilar bilan bir qatorda qullarni, yollangan kishilarni ekspluatatsiya qiluvchi boy jamoachilar ham bo`lgan. Bular asosan jamoaning yuqori doiralari edi. Ba`zi jamoachilar xonavayron, yerlari va mehnat qurollaridan mahrum etilganlar va arendatorlar sifatida ishlashga majbur bo`lganlar. Qishloq hunarmandlarining ham ahvoli turlicha bo`lgan: ularning bir qismi o`z ustaxonalariga ega bo`lib, mustaqil ish-

lagan, boshqalari ma'lum haq evaziga yollanib ishlagan.

Jamoa hali yagona jamoa belgilarini va eski umumjamoa an'analarini saqlab qolgan edi. Ma'lum darajada o'z ichki ishlarida mustaqil bo'lgan. Erkin kishilar majlislarda qatnashib, boshqaruvning turli masalalarini hal qilishgan. Lekin bunda qishloq boshliqlari tobora katta ahamiyat kasb eta borganlar. Dastlab jamoa boshlig'i jamoachilarning majlisida saylangan, so'ngra davlat hokimiyati tomonidan tasdiqlanib, shu tariqa davlat vakiliga aylanib borgan. Jamoalar uzoq, vaqt bir-biridan ajratib qo'yilgan edi. Lekin asta-sekin bu chegaralar va mahdudlik buzilib borgan.

Jamoalarning mavjudligi qadimgi Hindistonda quldorlik munosabatlarning tanho hukmronligini inkor qiladigan muhim omil edi. Qadimgi **hind qulchiligining** muhim xususiyati shunda ediki, u yerda xo'jayinning qullarga nisbatan o'zboshimchaliklarini cheklashga qaratilgan davlat qonunchiligi bo'lgan. Masalan, qul bolalarni ota-onalarisiz sotish taqiqlangan; xo'jayin qul mehnatidan foydalanganida uning kastadagi holatini hisobga olishga majbur bo'lgan va hokazo.

Hind qul antik davlatlardagi qullardan farq qilib, o'z oilasiga ega bo'lishi, mulkka egalik qilishi, meros qoldirishi yoki olishi mumkin bo'lgan. Erkin kishi qulga aylansa o'zining oilaviy, urug'chilik va kastaga oid aloqalarini yo'qotmagan. Shunday qilib, qadimgi hind qulchiligining o'ziga xos xususiyati uning rivojlanmaganligida edi. Qadimgi hind jamiyatida quldorlik munosabatlari bilan bir qatorda ibtidoiy-jamoa tuzumining muhim qoldiqlari uzoq saqlanib qolgan.

Qadimgi Hindistonda qulning boshqa qaram kishilardan, jumladan, shudralardan farq qiladigan asosiy belgisi unda o'z shaxsiga huquqining yo'qligida edi. U boshqalarning hukmronligi ostidagi inson qiyofasidagi ashyo bo'lgan. Qadimgi Hindistonda ham antik dunyoda bo'lgani singari qulning hayoti to'liq xo'jayinga tegishli bo'lgan: uni sotish, ayirboshlash, hadya qilish, meros qilib qoldirish, jazolash va, hatto, o'ldirish mumkin edi.

3. Davlat tuzumi

Qadimgi Hindistonda ilk davlat birlashmalari miloddan avvalgi I ming yillikda alohida qabilalar va qabilalar ittifoqi asosida sodda qabilaviy davlatchalar shaklida tashkil topgan. Uncha katta bo'lmagan ushbu davlatchalarda qabilaviy organlar davlat boshqaruv organlariga o'sib chiqqan. Ularning ba'zilar monarxiya shaklida idora etiladigan davlatlar bo'lib, bularda braxmanlar hukmronlik rolini o'ynaganlar, boshqalari esa oligarxiyaga asoslangan kshatriylar respublikasi bo'lib, ularda siyosiy hukmronlik bevosita kshatriylarning harbiy kuchi bilan amalga oshirilgan.

Ilk shahar-davlatlarning hukmdorlari - rojalar boshqaruvning eng oddiy vazifalarini bajarganlar, tashqi xavfsizlikni ta'minlaganlar, sud ishlarini hal qilganlar, harbiy boshliqlar sifatida yer jamg'armalarini tasarruf qilganlar: ibodatxonalarga, braxmanlarga, zodagonlarga ajratib berganlar, renta solig'i yig'ganlar.

Ba'zi davlatlarda rojalar saylanib qo'yilar edi. Lekin keyinchalik vaqt o'tishi bilan ularda ham roja hokimiyatining meros bo'lib o'tishi tamoyili o'rnatilgan. Monarxlarni saylash vaqtida butun hokimiyat oqsoqollar kengashi qo'lida to'plangan. Hukmdorning hokimiyati mustahkamlanib, ma'muriy organlar shakllanib borgan sari oqsoqollar kengashi o'zining ilgari ahamiyatini yo'qotib borgan va monarx huzuridagi maslahatchi organ - parishadga aylanib borgan.

Taxminan miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda qadimgi Hindistonda qabilaviy davlatlar asosida dastlabki birmuncha yirik davlatlar tashkil topgan. Lekin ular o'zlaridan keyin muhim iz qoldirmaganlar.

Qadimgi Hindiston davlatchiligi tarixida Magadxo-Mauriylar davri muhim bosqich bo'lib, u monarx hokimiyatining kuchayishi va qabilaviy boshqaruv institutlari rolining pasayishi bilan xarakterlanadi.

Mauriylar saltanatining gullab-yashnagan davri miloddan avvalgi III asrga - Ashoka hukmronligi (293-268) yillariga to'g'ri kelib, bu davrda davlatni boshqarish, din va madaniy sohalarida ko'pgina islohotlar o'tkazilgan, Hindiston nisbatan markazlashgan Sharq monarxiyasi shaklida idora etiluvchi juda qudratli davlatga aylangan. Uning chegaralari shimolda Kashmir va Ximolaydan janubda Maysurgacha, g'arbda hozirgi Afg'oniston viloyatlaridan Sharqda Bengaliya ko'rfaziga qadar cho'zilib ketgan edi.

Qadimgi Hindistonda imperiyaning tashkil topishiga urushlar natijasida qator qabila va xalqlarning bo'ysundirilishi, Magadxo va boshqa knazliklar o'rtasida vassal munosabatlarning o'rnatilishi, shu tariqa, Hindistonning ancha rivojlangan shimoliy-Sharqiy viloyatlarini mamlakatning boshqa qismlariga diniy-madaniy ta'sirining yoyilishi oqibati sifatida qarash kerak.

Davlatning tayanchi **podsho** (knazliklar doirasida roja) hisoblangan. Davlat boshlig'i - podsho braxmanlar ta'limotiga ko'ra, inson qiyofasidagi xudodir, olov va nur, quyosh va oy, jazo va ezgulik manbaidir. U ijtimoiy hokimiyatga to'la egalik qilgan, ammo diniy hokimiyat braxmanlarga tegishli bo'lgan. Bu qadimgi Hindistonning boshqa Sharq davlatlaridan farqlaydigan belgilaridan biridir.

Text otadan o'g'ilga meros tariqasida o'tgan. Bu tamoyilga qadimgi

Hindistonda juda qattiq amal qilingan. Podsho xali hayotligidayoq o`z o`g`illaridan birini taxtga merosxo`r qilib tayinlagan.

Mauriylar davrida podshoga "chaqravartina" - yagona hukmdor deb qarash rasmiylashgan. Bu ayni paytda hukmdor hokimiyatining juda katta hududlarga yoyilganligini anglatgan.

Mauriylar saltanatining podshosi davlat apparatining tepasida turgan va qonun chiqarish hokimiyatiga ega bo`lgan. Ediktlar podsho nomidan va uning amri bo`yicha chiqarilgan. Podshoning o`zi yirik davlat chinovniklarini tayinlagan va almashtirgan, moliya va sud ma`muriyatiga boshchilik qilgan, eng oliy sudya bo`lgan. Podsho harbiy hokimiyatniig ham tepasida turib, armiyaning bosh qo`mondoni hisoblangan.

Qadimgi Hindiston davlatida jamoa o`zini-o`zi boshqarish organlarining muhim roli saqlanib qolganligi sababli markaziy ma`muriy-harbiy apparat boshqa Sharq davlatlariga qaraganda ancha kuchsiz bo`lgan. Shu bois qadimgi hind podsholarining hokimiyatini sof despotik xarakterda deb bo`lmaydi. Podsho jamoalarning alohidaligini, davlatdagi hukmron nasliy zodagonlarning nufuzli mavqeini hisobga olishga majbur edi. Din ham podshoning qonun chiqarish funksiyasini inkor qilgan, unga ko`ra, go`yoki vedalarda mustahkamlangan huquq me`yorlarining mustahkamligi va o`zgarmasligi o`rnatilgan. Vedalar esa faqat donishmand braxmanlar tomonidan sharhlanishi lozim bo`lgan. Bu an`anaga faqat Ashoka davrida hukumat farmoni huquq manbai qatoriga kiritila boshlangach, putur yetkazilgan edi.

"Xudoga yoqqan podsho" (devaroja) deb nomlanuvchi hind diniy-siyosiy ta`limotiga binoan podshoga maxsus dxarma (majburiyat)larni bajarishi lozimligi buyuriladi. Manu qonunlarida ko`rsatilganidek, uning asosiy majburiyatlaridan biri - fuqarolarni qo`riqlashdir (VII bob, 2-3-moddalar). Podsho xalqni "himoya qilib" uni soliq - bali to`lashga majburlashi mumkin (VII bob, 80-modda). Umuman podshoning soliqlar o`rnatish va yig`ish bo`yicha vakolatlari juda katta bo`lgan.

Podshoga shuningdek tajribali braxmanlar yordami bilan odilsudlovni amalga oshirish ishonib topshirilgan edi (VIII bob, 1,10-moddalar). U barcha yosh bolalarning, kasallarning, bevalarning homiysi hisoblangan (VIII bob, 27-28-moddalar), tabiiy ofatlarga, ocharchilikka qarshi kurashga boshchilik qilishi lozim bo`lgan. Podshoning eng muhim vazifasi ijtimoiy ishlarni tashkil qilish, saltanat yerlarini o`zlashtirish va obodonlashtirish (Artxa-shastraning II bobi 1-2-moddalari), sug`orish inshootlarini qurish bo`lgan.

Diniy tasavvurlarga binoan, qadimgi Sharqning barcha mamlakat-

laridagi singari Hindistonda ham podsho hokimiyati ilohiylashtirilgan. Biroq, qadimgi hind davlatlariga, jumladan, Mauriylar davlatiga teokratiya sifatida qarab bo'lmaydi. Ashoka o'zini xudo deb emas, balki "iltifotli xudo" deb atagan. Manu qonunlarida (VII bob, 8-modda) podsho shaxsi emas, balki uning hokimiyati ilohiylashtirilgan. Zero, Manu qonunlarida "kaltafahm, ochko'z, savodsiz" (VII bob, 30-modda), "buzuqliklarga berilgan" (VII bob, 46-modda) podsholar haqida ham eslab o'tilgan. Podsho vedalarni biladigan braxmanlarni qadrlashi (VII bob, 37-modda), ularning maslahati bo'yicha ish tutishi lozim edi.

Podsho maslahatchilari - **oliy chinovniklar (mantrinalar, maxamatralar)** davlatda alohida mavqega ega bo'lganlar. Podsho maslahatchilaridan iborat tarkibda maslahatchi kollegial organ - **parishad** tuzilgan. Bu qabilaviy demokratiya organlarining o'ziga xos qoldig'i sifatida mavjud bo'lgan davlat tashkiloti edi. Parishadga a'zolik aniq o'rnatilmagan, unga chinovniklar bilan birga ba'zan shaharlarning vakillari ham taklif qilinardi. Bu organ ma'lum darajada mustaqil edi, lekin faqat ba'zi 2-darajali masalalar yuzasidagina mustaqil qarorlar qabul qila olgan, xolos.

Podsho chinovniklari kengashi - parishad ilgari ham mavjud bo'lgan, lekin u aynan Mauriylar davrida siyosiy kengash funksiyasini egallab olgan. U butun boshqaruv tizimini tekshirish va podsho buyruqlarini bajarish bilan shug'ullangan. Parishaddan tashqari **maxfiy kengash** ham mavjud bo'lib, u bir necha alohida ishonchli kishilardan iborat tarkibda tashkil etilgan. Alohida favqulodda hollarda, kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni hal etish uchun ikkala kengash a'zolari birgalikda yig'ilishi mumkin edi.

Parishad siyosiy organ sifatida zodagonlardan - harbiylardan va ko-hinlardan iborat bo'lib, ular doimo o'z imtiyozlarini saqlab qolishga va hukmdorning mutlaq hokimiyatini cheklashga harakat qilganlar. Ilk davrlarda parishad hokimiyatning tarkibiy jihatdan ancha keng va xarakteri bo'yicha ancha demokratik organi bo'lgan hamda rojaga va uning siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazib turgan. Asta-sekin parishadning tarkibi qisqarib, aristokratlashib borgan va podsho huzuridagi maslahatchi organga aylanib qolgan. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, hatto podsho hokimiyati ayniqsa kuchaygan Mauriylar davrida ham parishad o'zining muhim nufuzini saqlab qolgan va Mauriylarning hukmdorlari u bilan hisoblashib turganlar.

Davlat birligining saqlanishi mustahkam davlat boshqaruvi tashkil etilishini talab qilgan. Mauriylar davlatni markazlashtirish davrida turli toifadagi **chinovniklarga** tayanib, boshqaruvning hamma sohalarini o'z qo'llarida tutib turishga harakat qilganlar.

Podsho chinovniklarining maxsus guruhi podsho xo`jaligini boshqarishni tashkil etish, podsho xazinasini to`ldirish choralarini ko`rish singari ishlar bilan shug`ullangan. Artxashastrada podsholikka qarashli yaylovlarni, gavanlarni (kemalar turadigan joylar), kemachilikni kuzatuvchilar hamda dengiz savdosi, kemachiligini singari ishlarni yurituvchi chinovniklar eslab o`tiladi. Mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishga **adx'yaksha** deb nomlanuvchi maxsus chinovniklar jalb qilingan. Ularning orasida soliqlar yig`ishni amalga oshiruvchi, davlat xazinasini yurituvchi moliya idoralarining chinovniklari muhim o`rin tutgan. Ular Manu qonunlariga asosan "halollikni, oqillikni va qat'iyatlilikni" egallagan bo`lishlari lozim edi (VII bob, 60-modda). Shuningdek armiya ta'minotini kuzatib turuvchi chinovniklarning maxsus guruhi ham ajralib chiqqan. Yuqoridagi barcha chinovniklar shug`ullanadigan faoliyatlarining turiga qarab yo **Bosh soliq yig`uvchiga**, yo **Bosh xazinachiga**, yoki armiyaning **Bosh qo`mondoni (senapati)**ga bo`ysunganlar. Boshqa oliy chinovniklar orasida **bosh sudya**, **podshoning huquqiy maslahatchisi** va **diniy ishlar bo`yicha maslahatchisi**, o`g`illarining tarbiyachisi, oliy saroy kohini (**puroxita**) alohida o`rin tutgan.

Chinovniklar asosan tayinlanish tamoyili asosida va meros bo`yicha mansablarni egallaganlar. Mauriylar chinovniklar faoliyatini tekshirish, kuzatib turish va nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqqan edilar. Podshoning **maxsus ayg`oqchilari**, **maxfiy agentlari** mavjud bo`lib, podsho ularni "kunduzi ham, kechasi ham" qabul qilavergan (Artxashastra, I bob, 19-modda).

Mamlakatda podshoga nisbatan fitna-suiqasdlar tez-tez uyushtirib turganligi uchun uning shaxsini qo`riqlashga alohida e`tibor berilgan. Garchi, roja o`ziga ishonchli yordamchilarni, qo`riqchilarni tayinlab qo`ygan bo`lsada, ularning ustidan ham maxfiy kuzatuv o`rnatilgan edi. Umuman nazorat xizmatiga katta e`tibor berilgan. Nazorat ostiga nafaqat mansabdor shaxslar, balki shaharlar va qishloqlarning aholisi ham olingan edi.

Mahalliy boshqaruv

Mauriylar imperiyasining ma'muriy bo`linishi va u bilan bog`liq mahalliy boshqaruv tizimi juda murakkab tashkil etilganligi bilan ajralib turgan.

Imperiyaning faqat bir qismigina bevosita podsho va uning saroyi boshqaruvi ostida bo`lgan. Davlat hududi Mauriylar davrida provinsiyalarga bo`lingan. To`rtta asosiy **provinsiyalarning** tepasida **shahzodalar** turgan. Provinsiyalar alohida (maxsus) maqomga, jumladan, ma'lum avtonomiyaga ega bo`lgan. Asosiy provinsiyalarning shaxzodalari mahalliy chinovniklarning xatti-harakatlarini tekshirish uchun o`zlariga tegishli

hududlarga **maxsus inspektorlar** jo`natib turganlar. Provinsiyalar hukmdorlarining vazifasiga uning hududini himoya qilish, tartibni saqlash, soliqlar yig`ish, qurilish ishlarini ta`minlash singarilar kirgan.

Mamlakat hududi asosiy provinsiyalarga bo`linishi bilan bir qatorda oddiy provinsiyalar (janapadlar)ga, viloyatlar (pradeshlar)ga, okrug (axalalar)ga ham bo`lingan.

Janapadlar tepasida yirik davlat chinovniklari **rajuklar** turgan.

Provinsiyalarga nisbatan kichikroq ma`muriy birlik **okrug** bo`lib, unga "barcha ishlar haqida o`ylovchi" **okrug boshlig`i** rahbarlik qilgan. Okrug boshlig`ining zimmasiga qishloq ma`muriyati ustidan nazorat qilish majburiyati yuklangan. U "shahardan" daromad olgan (Manu qonunlari, VII bob, 119-modda).

Okrugning asosiy shaharlarida **devonxonalar** bo`lib, u yerdan butun okrugga farmoyishlar jo`natilgan.

Artxashastra (II bob, 1-modda) qishloq viloyatlarining to`rtta: 800, 400, 200 va 10 ta qishloqlardan iborat tuzilgan turini ajratib ko`rsatadi.

Chegaralarni qo`riqlash bo`yicha mahalliy chinovniklar yuqori mavqeni egallaganlar.

Mauriyalar qattiq markazlashtirish siyosatini olib borganlar, lekin shu bilan birga ko`pgina eski institutlar va an`analardan voz kechmaganlar, balki ular bilan hisoblashishga majbur bo`lganlar. Davlatda eskicha siyosiy tashkilotga ega bo`lgan avtonom, mustaqil polislar saqlanib qolgan.

Mauriyalar davrida markaziy hokimiyat garchi shahar kengashlarining mustaqilligini tugatishga harakat qilgan bo`lsada, shaharlarda o`zini-o`zi boshqarishning ba`zi belgilari saqlanib qolgan edi.

Davlatda eng quyi pog`onada turuvchi ma`muriy birlik -qishloqlar - **jamoalar (ganalar)** ularning oqsoqollari tomonidan boshqarilgan. **Oqsoqollarning** majburiyatlariga soliqlar yig`ish, jamoada tartibni saqlab turish va boshqalar kirgan. Jamoaning ichki hayotiga tegishli ancha muhim masalalar - sug`orish, jamoa marosimlarini o`tkazish, jamoani qaroqchilardan qo`riqlash va hokazolar **jamoalarning** hal etilgan. Yerni sotish, yer uchastkalari chegaralarini belgilash bilan bog`liq masalalarni hal etish oqsoqollarning jamoa kengashi vazifasiga kirgan.

Sud Qadimgi Hindistonda ikki tizimli: **podsholik va ichki jamoa sudlari** mavjud bo`lgan.

"Braxmanlar va tajribali maslahatchilar bilan birgalikda" podshoning shaxsan o`zi qatnashgan sud yoki uning tomonidan vakolat berilgan **maxsus sud hay`ati (sabxa) oliy sud instansiyasi** hisoblangan. Sud hay`ati podsho tomonidan tayinlangan braxman va uning "atrofini o`rab turgan

uchta sudyadan" iborat tarkibda tuzilgan. (Manu qonunlari VIII bob, 10-modda). Sudda huquq me'yorlarini, Draxmalarni braxman yoki hech iloji topilmay qolganda kshatriy yoki vayshiy sharhlashi mumkin bo'lgan (Manu qonunlari VIII bob, 21-modda). Podsho oliy sudya sifatida har yili amnistiya e'lon qilish huquqiga ega bo'lgan.

Artxashastrada (III bob, 1-modda) nazarda tutilganidek, barcha ma'muriy birliklarda uchta sudyadan iborat **sud hay'atlari** tuzilishi lozim edi. Bundan tashqari **maxsus sudyalar** jinoyat ishlarini hal qilganlar, "o'g'rilar ustidan nazorat"ni amalga oshirganlar. Jinoyatchilikka qarshi kurashda ayniqsa shahar hokimiyat organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan. Ular o'z agentlari yordamida tintuvlar o'tkazganlar, noma'lum kishilarni ushlaganlar, ustaxonalarda, qovoqxonalarda, qimorxonalarda qurshov-tekshiruvlar tashkil etganlar.

Ko'pgina ishlar **kastali sudlarda** ko'rib hal qilingan. Norasmiy kastali sudlar Hindistonda hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan.

Armiya Qadimgi Hindiston davlatlarida armiya juda katta rol o'ynagan. Davlatning gullab-yashnashining muhim manbai urushlar va boshqa xalqlarni talash hisoblangan. Podsho - "nimaga ega bo'lmasa o'shanga" erisha oladigan jasur jangchi sifatida ko'rilgan. (Manu qonunlari, VII bob, 101-modda). Urushlardan kelgan o'ljaning katta va asosiy qismi, xususan, yer, qurol-yarog', oltin, kumush podshoga o'tgan, qolgan narsalar jangchilar o'rtasida taqsimlangan (VII bob, 97-modda).

Armiya kasbiy jangchilardan, yollanganlardan, shuningdek, alohida birlashmalar, jumladan, savdo gildiyalari, qaram ittifoqchilar, vassallar tomonidan taqdim etiladigan jangchilardan iborat tarkibda to'ldirilgan. Tinchlik vaqtlarida asosan kshatriylar qurol ko'tarib yurganlar, boshqa "ikki marta tug'ilganlar" faqat "falokat vaqti yaqinlashgan"dagina qurolanishlari mumkin bo'lgan (VIII bob, 348-modda).

Armiya jamoat tartibini qo'riqlash funksiyasini ham bajargan. U davlatning butunligini himoya qilishga doimo xushyor turishi lozim bo'lgan. Shuning uchun harbiy otradlar "ikki, uch, besh, shuningdek, o'nlab qishloqlarga" joylashtirilgan edi (VII bob, 114-modda).

4. Huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari Qadimgi Hindiston davlati va huquqi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari avvalo huquq manbalarida o'z aksini topgan. Bizgacha qadimgi Hindiston huquqiga oid ko'pgina manbalar yetib kelgan. Ular din va diniy axloq, bilan juda chambarchas bog'liq edi. Shunisi xarakterliki, bu vaqtda

xali hozir biz tushunadigan ma'nodagi huquqni ifoda etuvchi maxsus so`z bo`lmagan. Qadimgi hind huquqi haqidagi ilk ma'lumotlar avvalo Vedalar (diniy kitoblar)da va dxarmashastralarda, ya'ni diniy-huquqiy, axloqiy yo`l-yo`riqlar, qoidalar (dxarmalar) to`plamlarida keltirilgan. Bulardan tashqari huquq manbalari ichida artxashastralar -siyosat va huquq haqidagi traktlar ham alohida o`rin tutadi.

Artxashastra o`ziga xos yozma yodgorlik bo`lib, uni A.Makedonskiy zamondoshi mashhur mansabdor Kautilye to`plagan dey-dilar. Davlatni idora qilish to`g`risidagi bu ajoyib asarda mamlakatning markazlashtirilgan va byurokratlashtirilgan davrining sharoitini aks ettiradigan bir qancha muhim maslahatlar va yo`l-yo`riqlar, farmoyishlar mavjud.

Dxarmashastralar dastlab braxmanlar tomonidan shogirdlar uchun qo`llanma sifatida tuzilgan. Keyinchalik muhim huquq manbaiga aylangan va hatto artxashastralardan ham muhim ahamiyatga ega bo`lib qolgan.

Eng qadimgi dxarmashastralar - **Gautama, Baudxayana, Apastamba, Vasishtxa** kabilar **dxarmasutralar (sutratizma)** degan nom bilan yuritilib, taxminan miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yar-mida va yangi era oralig`ida paydo bo`lgan. Ana shu dxarmashastralar asosida miloddan avvalgi II asr va milodning II asrida vujudga kelgan **Manu qonunlari**³⁹ qadimgi hind qonunchiligi tarixida alohida o`rin tutadi. Bu qonunlar braxmanizm maktablaridan biri tomonidan tuzilgan bo`lib, unga diniy kuch berish maqsadida afsonaviy, podsho Manu nomi bilan atalgan. Bu kodeks o`z tuzilishiga ko`ra 12 ta bob, 2685 ta moddadan ibo-rat. Undagi me'yorlar, qoidalar ikki misrali she'riy yo`l bilan bayon qilin-gan. U o`z mazmuniga ko`ra diniy, axloqiy va huquqiy me'yorlar yig`indisidan iborat. Uning IV, VII, VIII va X boblarida ko`proq huquqiy me'yorlar belgilangan. Biroq bu yerda ham huquqiy me'yorlar diniy va ax-loqiy me'yorlar bilan qo`shilib ketgan. Manu qonunlarida eng avvalo Hindistondagi mavjud varna tuzumi mustahkamlangan. Unda varnalarning diniy ta'limot asosida kelib chiqqanligi batafsil bayon qilingan, varnalarn-ing meros tariqasida avlod-dan-avlodga o`tib borishi ko`rsatilgan, har bir varnaning vazifasi belgilangan, yuqori varnalarning imtiyozlari mustahkamlangan.

Huquq manbalari ichida yozma yodgorliklar juda katta ahamiyatga ega bo`lsada, qadimgi Hindistonda **odat huquqi** ham muhim o`rin tut-

³⁹ Bu qonunlarning paydo bo`lish vaqti hali to`liq aniqlanmagan. Ko`pgina olimlar ularni miloddan avvalgi II asr va milodning II asri oraligida paydo bo`lganligini kursatadilar. Qarang: *Istoriya gosudarstva i prava zarubejnix stran.* 4.1. (pod red. Qoashennikovoy N.A. i prof. Jidkova O.A.) M., 1998, 72-bet; *Vseobshaya istoriya gosudarstva i prava: Uchebnik* (pod red. prof. K.I.Batira) M., 1998, 42-bet. Bizningcha shu fikr haqiqatga yaqin.

ganligini aytib o'tish kerak. Hatto dxarmashastralarda urf-odatlarga ko'plab havolalar uchrab turadi.

Bundan tashqari qadimgi hind huquqi rivojlanishining turli bosqichlarida **podsholarning ediktlari** - amr-buyruqlari huquqning muhim manbaini tashkil etgan. Garchi dxarmashastralarda podsholarning ediktlariga unchalik qonun kuchi berilmagan bo'lsada, artxashastralarda ediktlarga barcha sudlar uchun majburiy bo'lgan qonun kuchi berilgan.

Mulk huquqi

Manu qonunlarida mulk va unga egalik qilish o'rtasidagi farq ajratib ko'rsatilgan, xususiyl mulkni qo'riqlashga katta e'tibor berilgan. Qonunlarda mulk huquqi quyidagi hollarda: meros olish, hadya yoki topib olish, sotib olish, egallab olish, sudxo'rlik, biror ishni bajarish yo'li bilan, shuningdek hayrhson tariqasida olish bilan kelib chiqishi mumkinligi ko'rsatilgan. (X bob, 115-modda). Qadimgi Hindistonda o'n yil muddat begona mulkka egalik qilib turishlik ham mulk huquqini keltirib chiqargan. Ashyoni faqat uning egasidan sotib olish mumkin bo'lgan, ya'ni birovning ashysini uchinchi shaxsdan sotib olish qonuniyl hisoblanmagan. Boshqa hollarda go'yoki halol yo'l bilan mulk huquqini olganlikni isbotlash taqiqlangan. Agar mulkni halol yo'l bilan egallab turgan shaxsda o'g'irlangan ashyo topib olinsa, u ilgariyl egasiga qaytarilgan.

Qonunlarda mulkchilikning asosiy turi - yerga alohida e'tibor berilgan. Yerlar egalik shakllariga qarab quyidagi turlarga bo'lingan: podshoga qarashli, jamoalarga qarashli va xususiyl egalikdagi yerlar. Shuni alohida qayd etish joizki, podsho davlatdagi barcha yerlarning yagona egasi hisoblanmagan. U yer egalariidan soliqlarni yer egasi sifatida emas, balki mamlakat aholisini qo'riqlovchi sifatida olgan. Manu qonunlarida aytilganidek, agar podsho fuqarolarni himoya qilmay soliqlar undirsa, so'zsiz do'zaxga ketadi; bunday podsho "hosilning olti qismini o'g'irlovchi" hisoblangan.

Begona mulkni qonunsiz egallab olganlarga nisbatan katta jarima solingan, birovning yerini egallab olgan esa o'g'ri deb e'lon qilingan.

Mulk egasining ishlariga aralashish taqiqlangan. Manu qonunlarida aytilganidek, agar biror shaxs boshqa bir kishiga tegishli yer maydoniga urug` eksa, hosilini olish huquqiga ega emas. Faqat yer egasining yakka o'zi o'z yerining taqdirini mustaqil hal qilgan: uni sotishi, hadya qilishi, qarzga berishi, ijaraga berishi mumkin bo'lgan. Manu qonunlari harakatdagi mulklar (chorva, mehnat qurollari va boshqalar)ni ham himoya qiladi.

Manu qonunlarida jamoalar o'rtasidagi chegaralar, jamoa quduqlari, kanallari haqidagi sud nizolarini ko'rish to'g'risida eslatib o'tilgan. Bun-

day nizolarni ko`rishda avvalo qarindoshlarning va qo`shnilarning fikrlari inobatga olingan. Aynan ular yerga imtiyozli egalik qilish huquqiga ega bo`lganlar. Shunday qilib, jamoa ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o`ynab, xususiyl yer egaligini cheklashga harakat qilgan.

Majburiyatlar Mulikka egalik qilishda ayollar, bolalar hamda qullarning egalik qilish huquqi cheklab qo`yilgan (VIII bob, 416-modda).

Fuqarolik huquqining majburiyatlarga oid munosabatlari Manu qonunlarida ancha batafsil ishlab chiqilgan. Qonunlarda asosan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar haqida gapiriladi. Shartnomalarning qarz, oldi-sotdi, saqlab turish, ijara va boshqa turlari mavjud bo`lgan. Manu qonunlari, ayniqsa, **qarz shartnomasiga** katta e`tibor bergan. Qonun qarz majburiyatlarining buzilmasligini va meros bo`lib o`tishligini mustahkam o`rnatadi. Agar qarzdor qarzini muddatida to`lay olmasa, ishlab berishi lozim bo`lgan. Bunda quyi kastaga mansub qarz beruvchi yuqori kastaga mansub qarzdorni ishlab berishga majbur qilishi mumkin emas. Qarz beruvchiga nisbatan yuqori kastada turganlar qarzini asta-sekin to`lagan. Qarzni kuch ishlatib, ayyorlik va majburlash yo`li bilan undirishga ruxsat etilgan. Qarz foizlar bilan to`langandan so`ng qarzdor ozod bo`lib qolgan. Qarz uchun ssuda foizi braxmandan 2 %, kshatriydan 3 %, vayshiydan 4 %, shudradan 5 % miqdorida undirib olish belgilangan. Agar qarzdor o`lib qolsa, qarz uning o`g`illariga yoki boshqa qarindoshlariga o`tishi mumkin bo`lgan. Qonunlarda qarzni undirishning vositalari: boshqa shaxslarning kafillikka o`tishi, shuningdek garov ham ko`rsatilgan. Agar qarzdor qarzini to`lashga qodir bo`lmasa, qarz kafil turgan kishiga o`tgan. Agar qarz to`lansa, garovga qo`yilgan narsa egasiga qaytarilgan. Qarzni to`lay olmaslik qarzdorni qulga aylantirilishiga olib kelgan. Qarz beruvchi qarzni undirib olish uchun qarzdorning xotinini, o`g`lini, hayvonlarini ushlab turishi, shuningdek, eshigi tagida doimo kutib o`tirishi mumkin bo`lgan. Bundan tashqari, Manu qonunlariga binoan qarz beruvchi qarzdorni tutib olib, o`z uyiga olib kelib qarzni to`laguncha ochlikka tashlab qo`yishi va hatto urishi - do`pposlashi ham mumkin bo`lgan.

Qadimgi Hindistonda tovar-pul munosabatlarining nisbatan kuchsiz rivojlanishi **oldi-sotdi shartnomalarining** ba`zi o`zgaruvchanligida o`z aksini topgan. Qadimgi dxarmashastralarga binoan oldi-sotdi shartnomalarini xohlagan vaqtda bekor qilish mumkin bo`lgan. Manu qonunlari bo`yicha esa oldi-sotdi shartnomasini bekor qilish uchun o`n kun muddat belgilab qo`yilgan edi. Artxashastrada esa hayvonlarni sotish haqidagi bitimlarni bir yarim oy ichida, odamlarni sotish haqidagi bitimlarni bir yil

ichida bekor qilish mumkinligi belgilangan (Art., III, 15 (17,18)).

Oldi-sotdi shartnomasining haqiqiy hisoblanishi uchun guvohlarning ishtiroki va sotuvchi ashyoning haqiqiy egasi bo'lishligi talab qilingan. Qonun bo'yicha shartnoma predmeti ma'lum talablarga javob berishi, xususan, yaxshi sifatli bo'lishi, og'irligi bo'yicha kam bo'lmasligi lozim edi.

Hindistonda oldi-sotdi shartnomasining eng muhim xususiyati shunda ediki, bu yerda odamlarni olish-sotish cheklab qo'yilgandi. Agar bunday ishlar bilan yuqori kastaga mansub kishilar shug'ullansa, ular kastadan chiqarilgan.

Mauriyalar davrida erkin **yollanma ishchilar (karmakarlar) mehnatidan** keng foydalanilgan. Shu bois Manu qonunlarida bunday turdagi shartnomalarga alohida e'tibor berilgan. Yollanma ishchilar ko'proq shudralardan iborat bo'lgan. Lekin ularning orasida xonavayron bo'lgan jamoachilar va vayshiylar varnasiga mansub hunarmandlar ham bor edi. Dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan karmakarlar hosilning 1/10 qismini, chorvachilik bilan shug'ullanadigan karmakarlar esa o'zlari boqayotgan sigirlar sutidan olinadigan yog'ning 1/10 qismini olganlar. Shartnoma tuzish shartlari ish beruvchi tomonidan o'rnatilgan. Shartnoma shartlarini bajarmaslik jarima solinishiga olib kelgan. Aybdorlarga maosh to'lanmagan. Agar kasal bo'lganligi oqibatida shartnoma shartlari bajarilmay qolsa va tuzalgandan so'ng ko'rsatilgan ishlarni bajarsa, u holda ancha vaqt o'tib ketgan bo'lsa ham ish haqi to'lanavergan.

Manu qonunlarida **hadya shartnomasi** haqida ham ma'lumotlar mavjud. Qonunlarda shartnomalarning alohida turlari tartibga solinishi bilan bir qatorda ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan tamoyillar ham o'rnatilgan. Shartnomalarning haqiqiy bo'lishligi uchun qator talablarga javob berishi kerak edi. Shartnoma yozma shaklda tuzilgan. Unda shartnomaning tuzilgan vaqti va joyi, tomonlarning turar-joyi, qaysi urug'ga, kastaga mansubligi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim edi.

Bitimlar agar yashirincha, guvohlarsiz, aldash yoki kuch ishlatish yo'li bilan, mast yoki aqli noraso kishi bilan, jaholat, kulfat holatidagi kishi bilan, shuningdek, keksa, juda yosh, badbashara odam bilan tuzilgan bo'lsa, haqiqiy emas deb hisoblangan (Manu qonunlari, VIII bob, 163-165-moddalar; Artxashastra, III bob, 1-modda). Ayollarning, oilaning moddiy qaram a'zolarining huquqiy layoqati cheklab qo'yilgan.

Manu qonunlari **zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga** ham alohida o'rin ajratgan. "Kim qandaydir mulkka ataylab yoki bilmasdan turib zarar yetkazsa, undan keltirilgan zarar undiriladi va podsho foydasiga yetkazilgan zararga teng miqdorda jarima to'lattiriladi"

(Manu qonunlari, VIII bob, 288-modda). Birovning mulkiga zarar yetkazish deganda chorva bilan birovning ekinini payhon qilish, cho`pon tomonidan xo`jayinning chorvasini yo`qotib qo`yish va hokazolar nazarda tutilgan.

Nikoh-oila munosabatlari

Qadimgi Hindiston uchun katta patriarxal oila xarakterlidir. Oilada er to`la hukmron bo`lgan. Xotin o`z eri va bolalarining qaramog`ida bo`lgan.

Nikoh mulkiy bitim hisoblanib, uning natijasida er o`ziga xotin sotib olgan va xotin erning mulkiga aylangan. Nikoh yoshida ham juda katta farq o`rnatilgan. Erkaklar 24 yoshdan, ayollar 8 yoshdan boshlab nikohga kirishi mumkinligi belgilangan.

Manu qonunlariga binoan ayollar bolaligida otasining, yoshligida - erining, eri o`lganda so`ng - o`g`illarining hukmida bo`lgan, shunga ko`ra "ayollar hech qachon mustaqil bo`lishga layoqatli emaslar", ayollar - bola tug`ish va oila haqida g`amxo`rlik qilish uchun yaralgan, deb hisoblangan (Manu qonunlari, IX bob, 27-modda). Manu qonunlari ayollardan o`z erini hatto ular yaxshi fazilatlardan mahrum bo`lsalar ham, xudo deb hisoblashlarini qattiq talab qilgan.

Garchi Manu qonunlari er va xotinni o`lgunlaricha o`zaro sadoqatli bo`lishlarini e`lon qilsada, er bir nechta xotinga ega bo`lishi, xotini bilan xohlagan vaqtda ajralishi mumkin edi. Xotin esa hatto eri uni sotsa yoki tashlab ketsa ham oilani tark eta olmagan. U baribir erining xotini bo`lib qolavergan. Xotin xiyonat qilsa, og`ir jazoga - o`limga mahkum etilgan. An`analarga binoan, xotin eri qaysi varnaga mansub bo`lsa, o`sha varnaga tegishli hisoblangan. Erkaklarga ba`zi hollardagina quyi varnaga mansub ayollar bilan nikohga kirishlariga ruxsat etilgan. Lekin yuqori varnadagi ayollarning quyi varnadagi erkaklar bilan nikohga kirishi taqiqlangan. Ayniqsa shudralarning braxman ayolga uylanishi katta gunoh hisoblangan. Ulardan tug`ilgan bola chandalga aylangan. Ayol kishi doimo erkak kishining homiyligida bo`lishi nazarda tutilgan. Nikohni bekor qilish xotin kishining tashabbusi bilan mumkin emas edi. Er quyidagi hollarda: agar xotini uni yomon ko`rsa, bola tug`maydigan xotini sakkiz yildan keyin, o`lik bola tug`adigan xotinni o`n yildan so`ng, faqat qiz bola tug`adigan xotinni o`n bir yildan so`ng nikohini bekor qilishi mumkin.

Oilada ota bolalar ustidan ham kuchli hukmronlikka ega bo`lgan.

Meros

Oilada barcha mol-mulklar uning umumiy boyligi hisoblangan, lekin oila boshlig`i tomonidan idora etilgan.

Meros barcha o`g`illar o`rtasida teng taqsimlangan yoki katta o`g`il qo`lida qolib, u oila boshlig`iga aylangan va boshqa oila a`zolariga homiylik qil-

gan. Qizlar merosdan chetlashtirilganlar, lekin aka-ukalar o`z ulushlaridan 1/4 qismini ularga sepsidirg`a sifatida ajratishlari lozim edi. Vasiyat bo`yicha meros haqida qadimgi hind huquq yodgorliklari hech qanday me`yorlar belgilamagan.

Jinoyat va jazo

Jinoyat huquqida qasddan va ehtiyotsizlikdan qilingan, birinchi marta sodir etilgan va retsdiv, og`ir va yengil jinoyatlar bir-biridan ajratilgan. Shuningdek, jazo turlari tayinlashda aybdorlik darajasi, ishtirokchilik, jabrlanuvchi va ayblanuvchining qaysi varnaga mansubligi kabilar hisobga olingan. Zaruriy mudofaa uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Lekin shular bilan bir qatorda jinoyat huquqida hali ibtidoiy jamoa tuzumi qoldiqlari, jumladan, ordaliya, jamoaviy javobgarlik tamoyillari saqlanib qolgan. Huquqning din va axloq bilan chambarchas bog`liqligi natijasida jinoyatlar bilan gunohlar o`rtasida aniq farq bo`lmagan.

Huquqiy yodgorliklarda jinoyatlarning davlatga qarshi qaratilgan, shaxsga qarshi qaratilgan, mulkka hamda oilaga qarshi qaratilgan turlariga bag`ishlangan ko`pgina me`yorlar mavjud.

Manu qonunlarida birinchi navbatda **davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlarga** alohida e`tibor berilgan. Davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqasd uchun o`lim jazosi belgilangan. Podsho dushmanlariga xizmat qilish, shahar devorlarini, darvozalarini sindirish kabilarga davlatga qarshi jinoyatlar sifatida qaralgan. Lekin bunday turdagi jinoyatlarning to`liq ro`yxati berilmagan (bu qadimgi Sharq huquqiga xos xarakterli belgilardan biridir). Shunday bo`lsada qadimgi hind huquqiy yodgorliklari bunday jinoyatlarning ba`zilarini ajratib ko`rsatadi. Masalan, Naradada "dushmanlik" maqsadlarida qonunga xilof ravishda qurol taqib yurishlik uchun og`ir jazo belgilangan. Artxashastrada (III bob, 18-modda) o`z mamlakatini yoki qishlog`ini qattiq ovoz chiqarib so`kkanlik uchun eng yuqori jarima belgilangan. Qishloq boshlig`ining buyrug`iga bo`ysunmaslik uchun ham jarima nazarda tutilgan (Artxashastra, III bob, 16-modda). Bundan ko`rinadiki, podshoning buyrug`ini bajarmaganlarni qanchalik og`ir jazo kutishini tasavvur etish qiyin emas, albatta.

Shaxsga va oilaga qarshi qaratilgan jinoyatlar qonunlarda ancha batafsil bayon qilingan.

Manu qonunlari shaxsga nisbatan har qanday zo`rlikni qattiq qoralaydi. Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarga avvalo odam o`ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlari kirgan. Qasddan odam o`ldirish uchun o`lim jazosi nazarda tutilgan. O`zini himoya qilish, qurbonlikka atalgan tuxfalarni qo`riqlash, ayollarni va braxmanlarni himoya qilish chog`ida odam

o'ldirish uchun jazo belgilanmagan (Manu qonunlari, VIII bob, 349-modda). Bular zaruriy mudofaa sifatida ko'rilgan. "Qotillarni o'ldirish - ochiq yoki yashirincha bo'lsin - hech qachon gunoh hisoblanmaydi" - deb e'lon qilingan (Manu qonunlari, VIII bob, 351-modda). Braxmanni o'ldirish eng og'ir jinoyat hisoblangan. Biroq braxman odam o'ldirsa, o'lim jazosiga mahkum etilmagan, bunday holda u mamlakatdan haydab yuborilgan. (Manu qonunlari, VIII bob, 230-modda).

Qadimgi hind huquqiy yodgorliklarida tan jarohati yetkazish harakat bilan haqorat qilish sifatida ko'rilgan. Masalan, Artxashastrada qo'l tezigish, musht ko'tarish, urish kabilarga harakat bilan haqorat qilish deb ko'rsatilgan (III bob, 19-modda). Harakat bilan haqorat qilish jinoyati uchun jarima belgilashda urish natijasida qon to'kilganligi yoki qon to'kilmaganligi yoki "deyarli o'lguncha" urganmi, qo'l yoki oyoq sindirilganmi, tish sindirilganmi, quloqlar, burun uzib olinganmi, gapirish, harakat qilish, ovqat yoyish qobiliyati yo'qolganmi yoki yo'qmi shularga qaralgan. Oxirgi holatda jarima solish bilan birga da'volanish uchun ketadigan xarajatlar ham undirilgan (Artxashastra, III bob, 19-modda). Bir guruh shaxslar tomonidan biror shaxs do'pposlaganda har bir jinoyatchidan ikki baravar miqdorda jarima undirilgan.

Artxashastra "so'kish, sharmanda qilish va tajovuz qilish" kabilarni so'z bilan haqorat qilish deb hisoblagan (III bob, 18-modda). Bunda haqoratomuz so'zning to'g'ridan-to'g'ri va yashirincha aytilganligi, shuningdek haqiqatga to'g'ri kelish-kelmasligi, jumladan, aqli norasolar, moxovlar tomonidan aytilganligi kabilar hisobga olingan. Bu maqsadda ularning davolovchilari, yaqin kishilari ko'rsatmalar berishga jalb qilingan.

Qonunlarda kishilarning nafaqat hayoti, sog'lig'i, balki qadr-qimmatini ham tabaqa - varnaga mansubligiga qarab himoya qilingan. Agar so'z yoki harakat bilan haqorat qilish mavqe bo'yicha teng yoki past varnadagilarga nisbatan sodir etilsa, odatda, jarima jazosi belgilangan (Manu qonunlari, VIII bob, 276, 268 va boshqa moddalar). Agar shunday jinoyat shudralar tomonidan yuqori varnadagilarga nisbatan qilinsa, unga tan jazolari: tilini, labini, qo'lini, oyog'ini kesish, kastratsiya qo'llangan (Manu qonunlari, VIII bob, 270-280-moddalar). Arxashastrada "Braxmanni urgan shudraning tanasidan o'sha urgan qismi kesib tashlanadi" - deb e'lon qilingan (III bob, 19-modda).

Manu qonunlarida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan anchagina moddalar mavjud. Qonunlar er-xotinning xiyonati uchun, ayollarning nomusiga tajovuz uchun qattiq jazolar o'rnatgan. Er-xotinning har qanday ko'rinishdagi xiyonati: bironing xotini bilan yashirincha su-

hbatlashish, xizmatini qilish, u bilan o`ynashish, uning kiyimiga tegish va boshqalar uchun Artxashastralarda ko`rsatilganidek o`lim jazosi nazarda tutilgan. Shunisi xarakterliki, erining roziligi bilan xotinning fohishabozlik qilishi jazolanmagan (Manu qonunlari, VIII bob, 362-modda Narada, I bob, 183-modda). Qonunlarda x o`g`rilarni jilovlashga chaqirib, o`g`rilikka ayniqsa alohida e`tibor beriladi. Shuni ta`kidlash joizki, Qonunlarda o`g`rilikni mulkni yashirinchalik o`g`irlash sifatida ko`rilib, jabrlanuvchi ish-tirokidagi va zo`rlik yo`li bilan sodir etiladigan taponchilik (bosqinchilik)dan aniq ajratib ko`rsatilgan. O`g`riga nisbatan qo`llaniladigan jazolar, u jinoyat joyida qo`lga tushganmi yoki yo`qmi, o`g`rilik kunduzi sodir etilganmi yoki kechasimi, ana shularga bog`liq bo`lgan. O`g`rilik joyida va o`g`rilik qurollari bilan tutib olinganlar qonunga ko`ra, darhol o`limga mahkum etilgan. Kechasi o`g`rilik qilgan o`g`rilarning ikkala qo`li kesilib, qoziqqa o`tqazilgan. Birinchi marta o`g`rilik uchun o`g`rining - ikkita barmog`i, ikkinchi martasida - qo`li va oyog`i kesilgan, uchinchi martasida o`limga mahkum etilgan. O`g`rilikni ko`rib turib, bu haqda xabar bergan shaxs ham javobgarlikka tortilgan. O`g`rini yashirgan shaxs o`g`ri bilan teng jazolanagan.

Ancha qimmatbaho mulklar: yirik chorva, odamlar, uylar, oltin kabilar talon-taroj qilganlik uchun Artxashastrada (III bob, 17-modda) katta jarima belgilangan. Manu qonunlari bo`yicha, "aslzoda kishilarni, ayniqsa ayollarni o`g`irlaganlar, xuddi eng qimmatbaho toshlarni o`g`irlaganlar sifatida" o`limga mahkum etilganlar, birovning sigirini zo`rlik yo`li bilan tortib olganlarning oyog`ining yarmi kesib tashlangan (Manu qonunlari, VIII bob, 323-324-moddalar).

Qonunlarga binoan jazolarning xilma-xil turlari qo`llanilgan. Ularning ichida **o`lim jazosi** - eng og`ir jazo hisoblangan. Manu qonunlarida o`lim jazosining oddiy va murakkab turlari ajratib ko`rsatilgan. Oddiy turdagi o`lim jazosiga boshini kesish jazosi kirsam, murakkab turdasisiga - qoziqqa o`tqazish, suvga cho`ktirish, karovatga bog`lab yoki gulxanda kuydirish, yoqib yuborish, filning oyoqlari ostiga tashlash kabilar kirgan. **Tan** jazolarining barmoqlarni, qo`llarni, oyoqlarni, jinsiy va tanadagi boshqa a`zolari kesish turlari qo`llanilgan. Yuqoridagilardan tashqari, qonunlarda **jarima, haydab yuborish, qamoq** kabi jazolar belgilangan. Manu qonunlarida garchi sharmanda qiluvchi jazolar: **tamg`a bosish, sochini olib tashlash** va boshqalar hamda **mamlakatdan, kastadan, oiladan haydab yuborish** kabilar eslab o`tilmagan bo`lsada bunday jazolar amalda boshqa huquq manbalariga asosan qo`llanilgan. Talion prinsipi hind jinoyat huquqiga xos hodisa emas. Qonli o`ch olish to`g`risida

Qonunlarda eslab o'tilmagan, bu vaqtda endi u qo'llanilmay qo'ygan edi.

Sud jarayoni

Artxashastra va dxarmashastralarda sud ishlarini

yuritish haqida batafsil bayon qilingan. Sud jarayoni

jinoyat ishlari bo'yicha ham, fuqarolik ishlari bo'yicha ham ayblov xarakteriga ega bo'lgan. Fuqarolik va jinoyat jarayonlari o'rtasida farq bo'lmagan. Sud ma'muriyatdan ajratilmagan. Podshoning o'zi braxmanlar va tajribali maslahatchilari bilan birga Oliy sudni amalga oshirgan yoki buning uchun braxmanlardan birini sudya etib tayinlagan (Manu qonunlari, VIII bob, 1-2-moddalar).

Sud ishlari davlat organlarining tashabbusi bilan emas, manfaatdor shaxslarning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan. Sudlarda ishlarni ko'rish tortishuvchilik xarakteriga ega bo'lgan. Nizolashayotgan tomonlar sudda o'zlarining haq ekanliklarini o'zlari isbotlashlari va buning uchun sudga tegishli dalillarni taqdim etishlari lozim bo'lgan. Qonunlarda da'volarning sudda ko'rib chiqishga asos bo'lgan sabablar aniq sanab ko'rsatilgan. Bular: qarzni to'lamaslik, garov, begona mulkni sotib yuborish, uyushmalarda ishtirok etish, soliq-o'lponlar bermaslik, maosh to'lamaslik, bitimni buzish, oldi-sotdi shartnomasining bekor qilinishi, xo'jayinning cho'pon bilan nizosi, chegara haqidagi nizo, tuhmat va haqorat, o'g'rilik, zo'rlik, bevafoqlik, meros taqsimlash, oshiq (qimor) va garov o'ynash bo'lib, ja'mi 18 ta bo'lgan (Manu qonunlari VIII bob, 4-7-moddalar).

Manu qonunlari bo'yicha sudda haqiqatni aniqlashning asosiy vositalari guvohlarning ko'rsatmalari va turli xildagi sinovlar bo'lgan. Qandaydir dastlabki harakatlar bo'lgan (ayniqsa davlatga qarshi jinoyatlar bo'yicha), lekin ular maxsus dastlabki surishtiruv yoki tergov harakatlari emas edi. Qoida bo'yicha, tergov sud majlisining o'zida boshlangan va tugagan.

Sudda ko'rsatma berishdan bosh tortish yoki yolg'on ko'rsatma berish guvoh hisoblangan (Manu qonunlari VIII bob, 13-modda).

Guvohlarning ko'rsatmalariga baho berishda guvohlarning sifati, ya'ni qaysi varnaga mansubligi hisobga olingan. Shudra yuqori varnadagi ishi bo'yicha guvoh bo'la olmagan. Umuman quyi varnadagi kishilar yuqori varnadagi kishilarga qarshi guvohlikka o'ta olmaganlar. Manu qonunlarida "guvohlik ko'rsatmalarini ayollarga nisbatan - ayollar, ikki marta tug'ilganlarga nisbatan - shunday ikki marta tug'ilganlar, shudralarga nisbatan - to'g'ri so'z, sofdil shudralar, bir marta tug'ilganlarga nisbatan - bir marta tug'ilganlar bersin" - deb ko'rsatiladi (Manu qonunlari VIII bob, 68-modda). "Qullarning, qarindoshlarning va bolalarning" ko'rsatmalari ishonchli bo'lmagan, shu bois ularga murojaat etmagan

ma'qul deb hisoblangan. Bundan tashqari manfaatdor shaxslar va o'jizaligi tufayli ayollar sudda guvohlik qila olmaganlar. Faqat tegishli guvohlar bo'lmagandagina bolalarning, keksalarning, shogirdlarning (ustozlarga nisbatan), qarindosh-urug'larning, qullarning va ayollarning guvohlikka o'tishiga ruxsat etilgan (Manu qonunlari, VIII bob, 70, 71 va boshqa moddalar). Artxashastrada bu ro'yxatga yana kasallar, kastadan chiqarilganlar, "tegilmaydiganlar", xissiy a'zoldardan mahrum bo'lganlar ham qo'shiladi (Arxashastra, III bob, 11-modda).

Guvohlar bo'lmasa protsessual huquqda ordaliya (sinash) usulidan foydalanilgan. Hind protsessual huquqi besh xil sinash usulini biladi: tarozi bilan, olov bilan, suv bilan, zahar bilan hamda qasam bilan sinash. Tarozi bilan sinashda ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi ikki marta tortib ko'rilgan, ikkinchisida yengil chiqsa, u aybdor hisoblangan. Olov bilan sinash turli shakllarda amalga oshirilgan. Ulardan eng ko'p tarqalgani yonib turgan gulxandan o'tkazish bo'lgan. Bunda agar sudlanuvchi tanasining hech bir joyi kuymasa, u aybsiz deb topilgan. Suv bilan sinashda u suvga tashlangan, agar suv uni o'z qa'riga tortib ketsa, U aybsiz hisoblangan (Manu qonunlari, VIII bob, 115-modda). Manu qonunlariga ko'ra, "braxmanni - to'g'riso'zligi bilan, kshatriyni - jangovar aravasi va quroli bilan, vayshiyini - sigiri, g'allasi va oltini bilan, shudrani - barcha og'ir jinoyatlar bilan qasam ichishga majbur etish lozim" bo'lgan (Manu qonunlari, VIII bob, 113-modda).

Shuni ta'kidlash kerakki, ordaliya faqat alohida hollarda, birinchidan, tomonlarning roziligi bilan, ikkinchidan, ish bo'yicha muhim dalillar bo'lmaganda va nihoyat, uchinchidan, oshkora ravishda qo'llanilgan.

Sudda ashyoviy dalillarga ham e'tibor berilgan. Adolatli podsho - deyiladi Manu qonunlarida, o'g'irlangan narsani topmay turib o'g'rini qatl etmaydi (Manu qonunlari, IX bob, 270-modda.).

QADIMGI XITOIY DAVLATI VA HUQUQI

1. Eng qadimgi Xitoy to'g'risida umumiy ma'lumot

Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi mamlakatlardan biridir. Arxeologik ma'lumotlarning xabar berishicha, Xitoyda odamlar qadimgi tosh davridayoq yashaganlar. Hozirgi Pekin yaqinidan sinantrop suyaklari topilgan. Antropologik jihatdan bu suyaklar eng qadimgi maymun kishi (pitekantrop) suyaklaridan juda farq qiladi va maymunning odamga aylanishi jarayonidagi yangi davrni bildiradi. Paleolit davriga oid ko'pgina qurol-asboblari topilgan. Xitoyning ko'p yerida (ayniqsa Xenanda) ancha keyingi neolit davriga mansub manzilgohlar bo'lgani aniqlangan. Eng qadimgi Xitoyda matriarxat hukmron bo'lgan. Urug' hisobi ona yo'li bilan olib borilgan. Qabila oqsoqolining hokimiyati otadan o'g'ilga emas, balki otadan ukaga o'tgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik ona huquqining asta-sekin otaga o'tish zamonini bo'lgan, lekin bu o'tish turli qabilalarning hammasida bir vaqtda bo'lmagan, turli qabilalar oldin-ketin o'tgan va matriarxat qoldiqlari xiyla Uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Eng qadimgi Xitoy qabilalaridan miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Xuanxe qirg'oqlariga shimoldan ko'chib kelgan Shan qabilasi ayniqsa kuchayib ketgan. Bu qabila boshqa qabilalarni (shu jumladan, Sya qabilasini ham) o'ziga bo'yundirib, Xuanxe daryosi havzasining ko'p qismini egallab olgan.

Shunday qilib, Xitoyga janubi-Sharqdan, ayniqsa shimoldan xilma-xil urug'lar va qabilalar kirib joylashgan.

Miloddan avvalgi V-III ming yilliklarga kelib Xuanxe daryosining o'rta oqimida dastlabki dehqonchilik vujudga kelib, aholi daryo bo'yidagi kichik-kichik qishloqlarda yashagan. Sekin-asta dehqonchilikdan chorvachilik, hunarmandchilik ajralib chiqqan. Chorvachilik Xitoyning g'arbiy viloyatlarida, xususan, Tibet yassi tog'ligida ayniqsa ko'p tarqalgan.

Shunday qilib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi aholi orasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanishga olib kelgan. Bu hol Sharqiy Xitoyda dastlabki davlatlarning vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratgan.

Qadimgi Xitoy davlati tarixini quyidagicha to'rt: 1) Qadimgi Xitoy davlatining tashkil topishi - Shan (In) davlati (miloddan avvalgi XVIII-XII asrlar); 2) Chjou davlati (miloddan avvalgi XI-III asrlar); 3) Sin podsholigi (miloddan avvalgi 221-207 yillar); 4) Xan podsholigi (miloddan avvalgi

206 yildan milodning 220 yiligacha) davrlariga bo`lib o`rganiladi. So`nggi davr quldorlik davlatining feodal davlatga o`sib o`tishi bilan xarakterlanadi.

2. Qadimgi Xitoydagi ilk Shan (In) davlati

(miloddan avvalgi XVIII-XII asrlar)

Davlatning tashkil topishi

Qadimgi Xitoyda shahar tipidagi sivilizatsiyaning dastlabki o`choqlari miloddan avvalgi II ming yillikda Xuanxe daryosi havzasida tashkil topa boshlagan. Bu vaqtga kelib in qabilalarining urug`chilik guruhlariga ko`chmanchilik hayot tarzidan o`troq dehqonchilikka o`ta boshlagan edi. In qabilalari ichida mehnat taqsimotining paydo bo`lishi va rivojlanishi hamda urug`chilik aloqalarining yemirilishi oqibatida jamiyatda urug` aristokratiyasining boshqaruvchi tabaqasi: hukmdor - va uning yaqinlari, qarindoshlari, chinovniklari, qabila boshliqlari hamda oddiy qabiladoshlar, shuningdek, odatda qullarga aylanadigan begonalar - boshqa qabilaga mansub kishilar ajralib chiqqan.

Xitoy an`analarida aytilishicha, qadimgi Xitoyda davlat miloddan avvalgi XVIII asrda sya qabilasining shan qabilasi tomonidan bosib olinishi natijasida tashkil topgan. O`sha vaqtda shan qabilasi boshlig`i Chen Tan degan kishi davlatga asos solib, unga hukmdor qabilaning nomi bilan Shan davlati deb atagan. Keyinchalik, Shan sulolasi qulagandan so`ng bu davlat In degan nom bilan yuritila boshlangan. Shu sababli qadimgi Xitoy tarixining birinchi davri ikkita: Shan va In degan nomga ega. Chen Tan birinchi xitoy podshosi (vani) bo`lgan.

Xitoyda dastlabki primitiv davlat - Shan (In) davlatining tashkil topishi, avvalo, ishlab chiqarishni tashkil etish, yerlarni sug`orish, daryo toshqinlarining halokatli oqibatlarini tugatish, hududlarni himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Qolaversa, endilikda ibtidoiy jamoa tuzumi organlari bosib olingan xalqni boshqarish uchun yaramay qolgan edi. Shu maqsadda maxsus davlat apparati tashkil etilgan. Bu, birinchidan, qabila boshlig`ining In podsholigining ilohiylashtirilgan hukmdori - talaygina hokimiyatga ega bo`lgan vanga aylanishida, ikkinchidan, ko`p sonli boshqaruvchilardan, harbiy boshliqlardan, kohinlardan va butun jamoa ommasiga qarama-qarshi turuvchi boshqa kishilardan iborat ma`muriy apparatining tashkil etilishida namoyon bo`lgan. In davrida podsho - vanga butun yerlarning oliy egasi deb qarash amalda rasmiylashtirilgan. Bu esa asosan vanning yerdagi xudo sifatida tasavvur etilishidan kelib chiqqan.

Shunday qilib, Xitoyda davlatning tashkil topish xususiyati shunda

ediki, bu yerda ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni bir xalqning boshqasi tomonidan bo'sundirilishi natijasida tezlashgan. Lekin bu davlatning tashkil topishida asosiy sabab bo'lmagan. Xitoyda davlat boshqa xalqlarda bo'lgani singari jamiyatning ichki taraqqiyot mahsuli sifatida xo'jalikning va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi oqibatida mulkiy tengsizlik va tabaqalanishning paydo bo'lishi va urug'doshlik tuzumining yemirilishi natijasida tashkil topgan.

Ijtimoiy tuzumi

Shan (In) podsholigi jamoa-urug'doshlik tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish bosqichida turgan. Uni sof ma'nodagi quldorlik davlati va jamiyati deb hisoblash unchalik to'g'ri emas. Unda quldorlik munosabatlari bilan bir qatorda jamoa ishlab chiqarishiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlangan. Bu yerda hukmron sinf in **dunyoviy aristokratiyasidan, kohinlardan va bo'sundirilgan qabilalarning aristokratlaridan** tashkil topgan.

Dunyoviy aslzodalarga podshoga yaqinligiga va egallab turgan lavozimiga qarab ma'lum imtiyozlar va unvonlar berilgan. Shuningdek, yer egaligi miqdoriga va qullarning soniga qarab ham ijtimoiy mavqe belgilangan. **Qullarga** xususiy shaxslar ham, davlat ham egalik qilishi mumkin bo'lgan. Urushlarda asir olish; qarz uchun qul qilib sotish; ba'zi jinoyatlar uchun qulga aylantirish; bo'sundirilgan xalqdan o'lpon sifatida qul olish kabilar qulchilik manbai hisoblangan. Qullar hayvonlarga tenglashtirilgan. Ular oilasiga, mol-mulkiga ega bo'lmaganlar.

Aholining asosiy qismini **erkin jamaochilar** tashkil etgan. In davlatida jamoa juda katta rol o'ynagan. Jamoa yerlaridan foydalanish "quduqli maydonlar" tizimi bo'yicha tashkil etilgan. Barcha yerlar ikkita toifaga: jamoat maydonlari va xususiy maydonlarga bo'lingan. Jamoat yerlariga butun jamoa tomonidan birgalikda ishlov berilgan. Undan keladigan butun hosil jamoa oqsoqoliga kelib tushgan va oxir oqibatda podshoga jo'natilgan. Xususiy maydonlar alohida oilalarning yakka tartibda foydalanishida bo'lgan. Bunday maydonlardan keladigan hosil erkin jamaochilarni boqishga ketgan. Lekin xususiy maydonlar, ularni ushlab turuvchilarining mulki hisoblanmagan. Yerlar davlat mulki sifatida ko'rilgan va podshoning ixtiyorida bo'lgan. Bu davrda qullar, uylar, mehnat qurollari xususiy mulk hisoblangan.

Davlat tuzumi

In podsholigining dastlabki bosqichlarida davlat tuzumida urug'-qabila harbiy demokratiyasi qoldiqlari saqlanib qolgan. Lekin vaqt o'tgan sari **podsho** asta-sekin butun hokimiyatni o'z qo'lga olib borgan. Shan (In) oqsoqollari qabila boshliqlaridan yakka hukmdorlarga aylanganlar. Fuqarolar orasida ular

to'g'risida go'yo ular hokimiyatni ilohiy kuch irodasi bilan olgan. "Osmon o'g'li" bo'lganligi haqidagi tasavvurlar mustahkamlangan.

Podsho birinchi va eng yirik quldor, oliy harbiy boshliq, eng oliy sudya va eng katta ruhoniy hisoblangan. Din uni xalq ommasi ko'zi o'ngida ilohiy kelib chiqqanligini tasavvur etgan. Podsho davlat apparatiga boshchilik qilgan, o'ziga yaqin kishilardan va qarindosh urug'laridan oliy mansabdor shaxslarni tayinlagan. Ancha mayda mansablarni o'zlariga kasb qilib olgan qator chinovniklar: **kitablar, mirzalar, soliq yig'uvchilar, sudyalar** va boshqalar egallab turgan. Mansabdor shaxslar uchta asosiy toifaga: **oliy fuqarolik chinovniklari; harbiy chinovniklar; turli xil maslahatchilar, avliyolarga** bo'lingan. Shuningdek davlatning muhim ajralmas qismi hisoblangan **armiya va turmalar** ham mavjud bo'lgan.

Miloddan avvalgi XII asrda Shan (In) davlati ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida tushkunlikka uchragan. In davlati kuchsizlangach, u tomondan bo'sundirilgan qabilalar, jumladan, chjou qabilasi ham unga itoat etmay qo'ygan. Chjou qabilasi rahbarligida qator qabilalar birlashib, In davlatiga qarshi kurash boshlab yuborganlar. Miloddan avvalgi 1076 yilda Chjou qabilasi in armiyasini tor-mor etgan, Shan davlati qulagan, uning o'rniga Chjou podsholigi tashkil topgan.

3. Chjou davlati

(miloddan avvalgi XI-III asrlar)

Chjou podsholigi Xitoy tarixida quyidagicha uchta davr: g'arbiy Chjou (miloddan avvalgi 1122-742 yillar); Sharqiy Chjou (miloddan avvalgi 770-403 yillar); "urushqoq podsholiklar" davri (miloddan avvalgi 403-221 yillar)ga bo'linadi.

G'arbiy Chjou davlatining chegarasi Vey daryosi boshidan Sharqda Sariq dengizgacha davom etib, uning poytaxti Xao shahri bo'lgan.

G'arbiy Chjou podsholigi hukmdorlari davrida ular atrofdagi qabilalar, xususan junlar bilan urush olib borganlar. In podsholigini bosib olgan chjou qabilalari inlar qo'lga kiritgan xo'jalik, harbiy va moddiy madaniyat sohasidagi yutuqlarni o'zlashtirganlar. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining ancha yuqori darajasiga erishilgan, yirik yer egaligi rivojlangan, qulchilik ham o'sgan, davlat ancha mustahkamlanib, uning tarkibiy tuzilishi murakkablashgan.

Ijtimoiy tuzum Jamiyatda quldorlar aristokratiyasi hukmron mavqega ega bo'lgan. **Quldorlar** aristokratiyasiga nasliy va harbiy chjou oqsuyaklari, in quldorlik aristokratiyasining bir qismi (bosqinchilik urushlari natijasida ko'chib kelib

o`mashganlar) kirgan.

Barcha yerlarning egasi ilgari gidek podsho (van) hisoblangan. Podsho yerlarni tasarruf qilgan: xohlasa in'om qilgan, xohlasa qaytarib olgan. Yirik yer egaligi rivojlanib borgan. Quldorlar aristokratiyasi o`zlariga tegishli yerlarni erkin tasarruf qilganlar. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, yerni sotish, ijaraga berish, garovga qo'yish mumkin bo'lgan. Bu davrda garchi yerga egalik qilishda podsho irodasiga bog'liqlik rasman saqlanib qolgan bo'lsada, egalikdagi yerlarni xususiy mulkka aylantirishga moyillik paydo bo'lgan. Keyinchalik, chjou podsholarining hokimiyati zaiflashishi bilan yirik quldorlarning yerga egalik huquqining yerga xususiy mulkchilik huquqiga aylanishi sodir bo'lgan.

G'arbiy Chjou podsholigi davrida jamoalarning yerdan foydalanish tartibi ilgari gidek katta o`rin tutgan. Yuqorida eslab o`tilgan "quduqli maydonlar" tizimi saqlanib qolgan. Umuman **dehqonlar (nunfu)** arang kun kechirgan. Ularning ko`pchiligi yersiz ijarachilarga aylangan.

Jamiyatning eng quyi qismini **qullar** tashkil etgan. Ularning soni harbiy asirlar, tinch aholini bosib olish, davlat jinoyatchilari hisobiga ko`paygan. Ayniqsa xususiy qullarning soni ortgan. Qul mehnatidan xo`jalikning turli sohalarida va og`ir, iflos ishlarda keng foydalanilgan.

Davlat tuzumi

Oliy hokimiyat nasldan naslga meros bo`lib o`tadigan **podsho (van)** qo`lida bo`lgan.

Chjou podsholigida **saroy boshqaruv tizimi** mavjud bo`lgan. Saroy xizmatchilari bir vaqtda mansabdor shaxslar ham hisoblanganlar. Bu vaqtda turli vazifalarni amalga oshiradigan ko`p sonli chinovniklar mavjud edi.

Bularning ichida **vanning ot-ulovini yurituvchi chinovnik, mirza (kotib), podsholik arxivi boshlig`i, xazinabon, marosimlarning o`tkazilishini kuzatib turuvchi chinovnik va boshqalar** muhim o`rin tutgan.

Davlat apparati vanga yaqin shaxsiy xizmatchilardan, ba`zan esa ishonchli qullardan tashkil etilgan. Davlat apparatiga **oliy martabali amaldor (syau)** boshchilik qilgan. Syau ma`muriy apparat boshlig`i va mamlakatni boshqarishda podsho (van)ning yaqin yordamchisi bo`lgan. **Oliy chinovniklar (dafu) uchta: katta, o`rta va kichik darajalarga bo`lingan.**

Rivoyatlarga qaraganda, podsho Chen van (1115-1079 yillar) davlat apparatini tashkil etish va mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirgan. Podshoning asosiy maslahatchilari "**uchta gun**": "**buyuk murabbiy**", "**buyuk ustoz**" va "**buyuk homiy**" hisoblangan (syau aynan shularning ichidan tayinlangan). Bundan tashqari, davlatda muhim rol o`ynagan **uchta boshqaruvchi** bo`lib, ulardan biri diniy marosimlarni yuritgan,

boshqasi jamoat ishlari mahkamasiga boshchilik qilgan (uning ixtiyorida yer fondi va sug`orish tizimi bo`lgan), uchinchi harbiy mahkamani boshqargan. G`arbiy Chjou podshohligida **kohinlar va folbinlar** ham muhim o`rin tutgan. **Oliy kohin va buyuk folbin** degan mansablar mavjud edi.

Armiya asosan urushlar vaqtida yig`iladigan **xalq qo`shinlaridan** va uncha katta bo`lmagan **doimiy xizmatdagi otradlardan** iborat edi. Xitoy qo`shinlarining asosini **jangovar arava, otliq qo`shin va piyodalar** tashkil etgan. Jang aravasi o`sha davrda qo`shinda eng asosiy hujum qiluvchi kuch edi. Jang aravasida **haydovchi, kamonboz va nayzabardordan** iborat uch kishi bo`lgan.

Chjou podshohligi davrida markazlashgan davlat tashkil etilmagan edi. Van faqat poytaxt viloyatini bevosita boshqarib turgan. Mamlakatning boshqa hududlari vorislik huquqiga ega bo`lgan knazlar - **chjuxoular** tomonidan idora etilgan. Bu davrda beshta toifa: **gun, xou, bo, szi, inan** deb nomlanadigan knazlik unvonlarining bosqichma-bosqich bo`ysunishiga asoslanadigan tizimi batamom rasmiylashgan. Quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo`ysunishi tartibi (iyerarxiya) qat`iy o`rnatilgan. Hukmdorlar o`z hududlarini Chjou podshosining qo`lidan olganlar va ma`lum muddatda saroyda xizmatda bo`lishlari lozim edi. Demak, ular podshoga qaram bo`lganlar.

Knazlik hududi urug`-qabila bo`linishi asosida tashkil topgan ancha kichikroq ma`muriy birliklarga bo`lingan. Eng quyi zvenodagi ma`muriy-hududiy birlik **qishloq jamoasi** hisoblangan. Ma`lumotlarga qaraganda, turli knazliklarda qishloq, jamoalarining tuzilishi har xil bo`lgan. Bularning ichida eng ko`p tarqalgani quyidagicha bo`lgan: beshta oila qo`shni jamoa - **linni** tashkil etgan, beshta shunday jamoalar qishloq - li, to`rtta li **szu "klani" (urug` jamoasi)ni**, beshta szu guruhni - **danni**, beshta dan **okrug - chjouni** tashkil etgan, beshta chjou **syanni** tashkil etgan. Syan tepasida uning boshqaruvchisi - sin turgan. Eng quyi ma`muriy mansab **qishloq jamoasi oqsoqoli** bo`lgan.

Miloddan avvalgi IX asrda markaziy hokimiyatning tobe knazliklar hukmdorlari bilan aloqalari zaiflashgan. Knazliklarning hukmdorlari saroyga kelmay qo`yganlar, o`lponlar jo`natmaydigan bo`lib qolganlar. Katta yer-mulkka ega bo`lgan nufuzli kishilar, viloyat hokimlari podsholarga itoat etmay qo`yganlar. Ekspluatatsiyaning kuchayishi xalq ommasining noroziligini keltirib chiqargan. Ko`chmanchi junlar bilan olib borilgan muvaffaqiyatsiz urushlar ham g`arbiy Chjou davlatining yemirilishiga o`z hissasini qo`shgan. Mamlakat bir qancha mustaqil davlatlarga bo`linib ketgan. Miloddan avvalgi 770 yilda podsholik poytaxti Xaodan

Loyanga ko`chirilgan. Shundan keyin Sharqiy Chjou podsholigi davri boshlangan.

Sharqiy Chjou podsholigi davri mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yirik o`zgarishlar bilan xarakterlanadi. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi ijtimoiy hayotda savdogarlar rolining o`shishiga sabab bo`lgan. Quldor zodagonlar o`zlarining merosiy urug`chilik yer egaliklaridan mahrum bo`lganlar, bunday yerlar harbiy boshliqlar, xizmatchi kishilar, savdogarlar qo`liga o`tgan. Bu urug` aristokratiyasining merosiy yer eagaligining zaiflashishiga va quldorlarning yerga nisbatan xususiy mulkchilikning mustahkamlanishiga olib kelgan. Xizmatchi zodagonlar qo`lida anchagina yer egaliklari to`plangan. Yirik yer egaligi faqat doimiy xizmat va alohida xizmatlar uchun beriladigan in`omlar, tortiqlar hisobiga emas, balki kuchlilar tomonidan kuchsizlarni zo`rlilik bilan bosib olish hisobiga ham tashkil etilgan.

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sharqiy Chjou podsholigida hukmronlikni qo`lga kiritish uchun Si, Szin, U, Chu, Yuz kabi mayda podsholiklar o`rtasida o`zaro urushlar davom etgan. Bu davr Xitoyda **besh hokim davri** yoki **Chjango** ("urushqoq podsholiklar") davri deb yuritiladi.

Bu davrda uzoqqa cho`zilib ketgan tinimsiz o`zaro urushlar iqtisodiyotning pasayishiga, sug`orish inshootlarining izdan chiqishiga sabab bo`lgan. Va nihoyat, odamlar tinchlik o`rnatish va Xitoy xalqlarining birlashishi zarurligini tushuna boshlaganlar. Odamlardagi bunday kayfiyatlar konfutsiy dini targ`ibotchilari tomonidan ifoda etilgan. Ular "g`araz niyat-larsiz va odamlarni yo`qotmasdan" mamlakatni birlashtirishga chaqirganlar. Tinimsiz davom etgan urushlarga qaramay Chjango davrida turli mintaqalar va xalqlarning iqtisodiy va moddiy aloqalari kuchaygan. Bu esa o`z navbatida ularning yaqinlashuviga va turli mayda podsholiklarning yettita yirik Xitoy podsholiklari atrofida "yig`ilishi"ga olib kelgan.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi Xitoy tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda keskin o`zgarishlar yuz bergan. Bu vaqtda podsholikning yagona imperiyaga birlashishiga olib keladigan shart-sharoitlar tug`ilgan. Bunda yuqorida aytganimizdek, konfutsiylik siyosiy hukmron mafkura bo`lib qolgan. Ishlab chiqarishda temirdan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanilishi iqtisodiyotning birdaniga ko`tarilishiga sabab bo`lgan. Yangi yerlarning o`zlashtirilishi, sug`orish inshootlarining yaxshilanishi, qishloq xo`jalik va hunarmandchilik ishlab chiqarishining o`shishi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, bozorning paydo bo`lishiga, savdogarlar tabaqasining ajralib chiqishiga ko`maklashgan. Bunday shar-

oitlarda yerga nisbatan jamoa mulkchiligining yemirilishi va xususiy mulkchilikning o`rnatilishi, yirik yer egaligining tashkil etilishi jarayoni yanada jadallashgan. Bu vaqtda eski tipdagi jamoa yer egaligi ("quduqli maydonlar" tizimi) buzila borgan. Jamoa yer egaligiga qarshi qaratilgan zarbalardan biri - yer solig`ining joriy qilinishi bo`lgan. Dehqonlar jamoa maydonlarida ishlash o`rniga o`z yerlaridan soliq to`lamlari lozim bo`lgan.

Bularning hammasi Xitoyda miloddan avvalgi so`nggi asrlarda jamiyat rivojidadagi ikkita qarama-qarshi oqimning kurashida namoyon bo`lgan. Bu vaqtda bir tomondan, ijarachi dehqonlarni, yollanma ishchilarni, qullarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan yirik yer egaligi rivojlangan bo`lsa, ikkinchi tomondan, bevosita davlatga bo`ysunadigan qaram dehqonlarning keng ommasi shakllanib borgan. Oldinda olg`a borish mumkin bo`lgan ikkita yo`l turar edi. Bulardan birinchisi - yerga nisbatan yirik xususiy mulkchilikning g`alabasi orqali tarqoqlikka, o`zaro urushlarga olib boradigan yo`l bo`lsa, ikkinchisi - yerga nisbatan davlat mulkchiligini mustahkamlash orqali yagona markazlashgan davlatni tashkil etishga olib boradigan yo`l edi. Xitoy rivojlanishning keyingi yo`lidan yurgan. Bunda miloddan avvalgi IV asrda kuchayib ketgan Sin podsholigi muhim o`rin tutgan. U miloddan avvalgi 221 yilda boshqa podsholiklar bilan kurashda g`olib chiqadi va mamlakatni birlashtirish uchun uzoq davom etgan kurashni nihoyasiga yetkazib, yagona Sin podsholigiga asos soladi.

4. Sin davlati

(miloddan avvalgi 221-207 yillar)

Sin podsholigi Sharqiy Chjouning g`arbiy qismida - Xuanxe irmoqlaridan biri Vey daryosi havzasida joylashgan edi. Miloddan avvalgi IV asr o`rtalarida Sin podsholigi birmuncha kuchayadi. Podsho Sao-gun (361-338 yillar) davrida davlatning nufuzli amaldori **Shan** Yan tomonidan bir qancha **islohotlar** o`tkazilgan. Bu islohotlar kuchli markazlashgan davlatning tashkil topishiga ko`maklashgan. Bu islohotlar quyidagilarni o`z ichiga olgan. Islohotga ko`ra, yerni istagancha xususiy mulk qilib olish, uni erkin sotish va sotib olishga ruxsat berilgan. Bu esa jamoa yer egaligiga berilgan qattiq zarba edi. Jamoalarning yemirilishini, shuningdek, katta oilalarning majburiy bo`linishi haqidagi qonun ham tezlashtirgan. Davlatni markazlashtirish maqsadlarida hududiy tamoyil bo`yicha yangi ma`muriy bo`linish amalga oshirilgan. Soliqlar undirish tizimi o`zgartirgan. Hosildan olinadigan soliq yer solig`iga almashtirilgan. Yangi soliq ishlov beriladigan yerning miqdoriga qarab belgilangan. Qo`shin qayta tuzilib, qurollantirilgan, harbiy xizmatlar uchun 18 darajali zodagonlik tashkil

etilgan. Bu islohotlar markaziy, ya'ni podsho hokimiyatini ancha mustahkamlagan. Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy hayot umumiy qoidalarga bo'sungan. Imperator yagona yozuv belgilarini jriy qilgan, og'irlik va uzunlik o'lchovlarini tartibga keltirgan, hamma uchun majburiy qonunlar tasdiqlagan, hatto marosimlarga oid asbob-anjomlar va qurol-yarog'lar yagona namuna bo'yicha tayyorlangan. Qonunlarga qat'iy rioya qilish mamlakatda tartib saqlanishining eng muhim sharti hisoblangan.

Biroq Shan Yan islohoti eski zodagon, mehnatkash xalq va qullarning, shuningdek konfutsiychi oqim namoyandalarining qarshiligiga uchragan. Podsho Syao-gun vafotidan keyin Shan Yan ham zodagonlar tomonidan qatl etilgan. Shunday bo'lsada, Shan Yan tomonidan o'tkazilgan islohotlar davlatni ancha mustahkamlagan.

Podsho In Chjen davrida (241-210 yillar) Sharqiy Xitoy yerlari birlashtirilgan. In Chjen - Sinning birinchi podshosi (Sin Shi Xuandi) degan nom olgan. U Sharqiy Xitoydagi oltita podsholikni o'ziga qaratib olgach, shimoldagi syunni (xunn) qabilalariga qarshi zafarli urushlar olib borgan. Janubda esa u Yuz podsholigini ham o'ziga itoat ettirgan. Shu tariqa yirik imperiyaga asos solingan. Davlat boshlig'i **imperator (xuandi)** bo'lgan; u juda katta vakolatlarni qo'lga kiritib olgan. Qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati unga tegishli edi. Imperiya juda keng tarmoqli davlat apparati tomonidan idora etilgan. Davlat apparatida o'n minglab chinovniklar xizmat qilgan. Boshqaruv apparati tepasida o'ng va so'l **chensyanlar (ministrlar)** turgan. Chensyanlarning o'rinbosarlari **kotiblar** bo'lgan. **Saroy qo'riqlash xizmatining boshlig'i, imperator avlodlarining marosimlarini o'tkazishni yurituvchi chinovnik, tashqi munosabatlarni yurituvchi chinovniklar** davlatda oliy chinovniklar hisoblangan. Davlat apparati faoliyatida **imperator maslahatchilari** katta rol o'ynagan.

Qadimgi Xitoy podsholiklari bosib olingandan so'ng imperiyada Shan Yan islohotlari namunasida bir qator ma'muriy, agrar, moliya va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Ilgarigi podsholiklarning chegaralari yo'q qilingan. Butun imperiya hududi o'ttiz oltita viloyatga bo'lingan. **Viloyatlar** o'z navbatida **ueydzlarga**, ueydzlar - **volostlarga**, volostlar esa - **tin (eng quyidagi ma'muriy birlik)larga** bo'lingan. Har bir viloyat tepasida ikkitadan **boshqaruvchi** - harbiy va fuqarolik hokimiyati vakillari turgan. Ular poytaxtlardan tayinlangan va imperator tomonidan xohlagan vaqtda almashtirilishi mumkin bo'lgan. Eski aristokratiya imperiya chinovniklarining qattiq nazorati ostiga olinib, eski zodagonlik unvonlari bekor qilingan.

Boyluk va davlat xizmatlari aslzodalik mezonini bo'lib qolgan. Zar-

racha ayb yoki nojo`ya ish uchun jazolovchi juda qattiq qonunlar joriy etilgan. Chinovniklar o`z faoliyatlarida qattiq o`rnatilgan yagona qonunlarga amal qilganlar. Bu davrning davlat apparati kattaligi, murakabligi bilan ajralib turgan, unda juda ko`p miqdordagi chinovniklar xizmat qilgan.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratgan. Ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi aholining tabaqalashuvini kuchaytirgan. Shu bilan birga yirik yer egaligi rivojlanib, jamoalar xonavayron bo`lishda, qullarning soni ko`payib borishda davom etgan. Ayniqsa, Sin podsholigi davridagi to`xtovsiz urushlar, Buyuk Xitoy devoriga (uni qurish ishlari miloddan avvalgi IV asrda boshlangan edi) sarflangan sarf-harajatlar va soliqlar mehnatkashlarni og`ir ahvolga solib qo`ygan. Ular o`rtasida qattiq noroziliklar kelib chiqqan. Oqibatda kuchli xalq qo`zg`olonlari - dehqonlarning ulkan miqyosdagi urushlari boshlanib ketgan. Ana shunday urushlardan biri miloddan avvalgi 209 yilda butun mamlakat bo`ylab boshlanib, Sin davlatini halokatga olib kelgan. Unga Lyu Ban degan qishloq oqsoqoli rahbarlik qilgan edi. Miloddan avvalgi 202 yilga kelib Lyu Ban tarafdorlari g`olib chiqib, u o`zini yangi Xan sulolasining podshosi deb e`lon qilgan. Shu tariqa Sin podsholygi tugatilib, o`rnida Xan podsholigi paydo bo`lgan.

5. Xan davlati

(miloddan avvalgi 206-yildan-miloddagi 220 yiligacha)

Xan podsholigining asoschisi Lyu Ban mamlakatni markazlashgan davlatga aylantirish uchun ko`pgina chora-tadbirlar o`tkazgan. U o`z hukmronligining boshida qullar va dehqonlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirgan. Sin Shi Xuandi davrida zarar ko`rgan jabrdiydalar manfaatini ko`zlab, ularga ancha yengilliklar berilgan, qarzlari va arzimagan jinoyatlari uchun qullarga aylantirilgan kishilar ozod qilingan. Ayni paytda og`ir soliqlar bekor qilingan, yer solig`i kamaytirilgan. Mahalliy ishlar saylab qo`yiladigan oqsoqollar tomonidan boshqariladigan bo`lgan. Biroq bu islohotlar quldorlikning va yirik xususiy yer egaligining - ijtimoiy ziddiyatlarni tug`diradigan asosiy sabablarning o`shishini to`xtata olmagan. Xalq ommasining ahvoli oradan biroz vaqt o`tgach yana yomonlashgan.

Miloddan avvalgi I asrning oxirida imperator U Di maxsus farmon chiqarib, yirik mulkdorlar ixtiyoridagi yerlarning miqdorini va qullarning sonini ancha qisqartirgan: hech kim 138 gektardan ortiq yerga va ikki yuz-

dan ko`p qulga ega bo`lishi mumkin emas edi. Ba`zilarga o`ttiz nafardan ko`p qulga ega bo`lmashligi lozimligi o`rnatilgan edi. Bu miqdor quldorning ijtimoiy holatiga qarab belgilangan.

Markaziy va mahalliy davlat apparati tizimi ilgari gidek saqlanib qolgan. Podsho hokimiyatining maqsadi, asosiy ishtiyoqi mamlakatni markazlashtirishga qaratilgan edi. Bunga Xitoyning yangi ma`muriy bo`linishi ko`maklashgan. **Mamlakat xududi o`n uchta yirik okrugga bo`lingan.** Okruglarga mahalliy ma`muriyat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi **okrug taftishchi - podshoning noiblari** boshchilik qilgan. Viloyatlar, okruglar, uyezdlar soni ko`paytirilgan.

Viloyatlar va uyezdlar tepasida markazdan tayinlangan **uchta chinovnik** - hukmdor va uning fuqarolik va harbiy ishlar bo`yicha yordamchilari turgan. Mahalliy ma`muriyat faoliyati markazdagi **nazoratchilar** tomonidan nazorat qilingan.

U Di vafotidan so`ng Xitoyda ahvol yanada og`irlashgan. Qullar va mehnatkash xalqning sabr kosasi to`lib, mamlakatda dahshatli qo`zg`olonning boshlanishi xavfi tug`ilgan. Miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmida ahvol shunday dahshatli tus olganki, bundan podsho va hukmdor tabaqa vakillari cho`chigan. Ular mehnatkashlarga yon berib, ba`zi ijtimoiy va iqtisodiy **islohotlar** o`tkazishga majbur bo`lganlar. Bu jihatdan Dun Chjun-shu, Van Chun va Van Man islohotlari diqqatga sazovordir. Dun Chjun-shu katta yerlarning bir kishi qo`lida bo`lishini taqiqlashni, tuz va temirga nisbatan yakka hokimlikni bekor qilishni taklif etgan. U quldorlarning o`z qullarini o`ldirishlarini bekor qilib, qullikni bitirishni, soliqlarni kamaytirishni, harbiy va ortiqcha mehnat majburiyatlarini yengillashtirishni talab qilgan.

Sinfiy ziddiyatlarni tepadan turib islohotlar yo`li bilan yumshatishga qaratilgan ancha dadil urinish miloddan 8 yilda saroy to`ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Van Man tomonidan qilingan edi. Van Man milodning 9 yilida o`zini "Yangi" sulolaning imperatori deb tantanali suratda hammaga ayon qilgan va qat`iy islohotlar siyosatini o`tkazish niyatini e`lon qilgan. Konfutsiyilar islohotlarning g`oyaviy ilhomlantiruvchilari bo`lishgan.

Islohotlarning mohiyati quyidagilarni o`z ichiga olgan. Ularga ko`ra yirik yer egalari qarashli yerlar musodara etilgan. Mamlakatdagi barcha yer "podsho yeri" deb e`lon qilingan. Yerlarni qayta taqsim qilishga, yer egaligini cheklashga harakat qilingan. Shular bilan bir vaqtda jamoa yer egaligining qadimiy tizimi qayta tiklangan. Yer va qullarni olish-sotish man etilgan. Shu bilan birga qullarni "shaxsiy qaram kishilar" deb atash

buyurilgan. Bu Xitoyda qulchilikni bekor qilish haqidagi birinchi qadam edi. Biroq Van Man xususiy qulchilikka qarshi kurash olib borib, davlatning qul egaligini cheklashga mutlaqo harakat qilmay, balki, hatto davlatning qulga egaligini uning qonuniy huquqi sifatida asoslashga urindi. Davlat qullarining soni ko'paydi. Ulardan armiya tuzila boshlandi.

Bir necha marta pul islohotlari o'tkazildi, yangi soliqlar joriy qilindi, ba'zi soliqlar kamaytirildi, bozor narxlarini tartibga solishi va ssuda foizlarini qat'iy belgilashi lozim bo'lgan maxsus boshqarmalar ta'sis etildi. Bularning hammasi barcha daromad manbalarining, xususan, ssuda operatsiyalarining katta qismini davlat qo'lida to'planishiga imkon tug'dirdi.

Van Man kuchli byurokratik imperiya tuzishga intilgan. Davlat apparati o'sgan, mansablarni sota boshlagan. Davlat xizmatchilari mansablarni egallash uchun imtihon topshirganlar. Bunda ular Konfutsiy ta'limotini mukammal bilishlari lozim edi. Bu tadbirlar eski urug'chilik va chinovniklik aslzodalarning qudratini sindirgan va boyigan savdogarlarning, hunarmandlarning, aslzoda bo'lmagan dehqonlarning davlat boshqaruviga kirib kelishini ta'minlagan. "Yangi qonunlar"ni buzganlik uchun qattiq jazolar joriy qilingan va o'n minglab kishilar qatl etilgan yoki davlat qullariga aylantirilgan.

Lekin Van Man islohotlari oxirigacha yetkazilmagan, o'ylangan natijalarni bermagan va zodagonlar, nufuzli kishilar hamda harbiylarning qarshiligiga uchragan. 12 yilda yer islohoti bekor qilinib, qul savdosiga yana ruxsat berilgan. Islohotlar sinfiy qarama-qarshiliklarni bo'shashtirmadi, aksincha, ularni chuqurlashtirdi va keskinlashtirdi, mamlakat iqtisodiyotining buzilishiga olib keldi. Islohotlarning amalga oshmaganligi, qurg'oqchilik, chigirtka bosish natijasida ro'y bergan hosilsizlik ochlik va nihoyasiz jabr-zulmlar mehnatkash ommaning sabr-kosasini to'ldirgan. Bu hol Xitoyda podsho hokimiyatiga, zamindor zulmkorlarga qarshi xalq harakatining boshlanishiga olib kelgan. 18 yilda boshlangan va "qizil qoshlar" nomi bilan mashhur bo'lgan qo'zg'olon ana shunday harakatlardan biri edi. Qadimgi Xitoy yilnomalarida yozilishicha, qo'zg'olonda Van Man tomonidan ag'darib tashlangan Xan sulolasi vakillari ham qatnashgan. Ularning asosiy maqsadi o'z hokimiyatlari qayta tiklanishiga erishish edi. 23 yilda Xan sulolasi taxtni qaytadan egallab, Van Manning farmonlari va buyruqlarini bekor qilgan. Mamlakat iqtisodi barqarorlasha boshlagan. Davlat apparatida muhim o'zgarishlar yuz bergan. Mamlakatni idora etish bo'yicha funksiyalar beshta mahkama o'rtasida taqsimlab olingan, imperator huzurida **oliy maslahatchi organ - imperatorlik kengashi** tuzilgan.

II asrning ikkinchi yarmida Xitoyda yana og'ir vaziyat vujudga ke-

ladi, siyosiy guruhlar o`rtasidagi kurash chuqur siyosiy inqirozga olib keladi. Mamlakatning xo`jalik tizimi tushkunlikka uchraydi. 184 yilgi kuchli "sariq ro`molliklar" qo`zg`oloni butun mamlakatni qamrab olgan. Qo`zg`olon hukumat qo`shinlari tomonidan katta talofotlar evaziga zo`rg`a bostirilgan. Jang natijasida 80 mingdan ortiq kishi halok bo`lgan, yerlar bo`shab qolgan, ba`zi yirik shaharlar vayron etilgan. 188 - 207 yillarda ham Hitoyning ko`p joylarida kuchli qo`zg`olonlar bo`lib o`tgan. Ammo ularning hammasi hukumat qo`shinlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan. Lekin shunga qaramay, qo`zg`olonlar Xan saltanatini zaiflashtirib yuborgan va oxir oqibatda uning qulashiga olib kelgan. 220 yilda Xan podsholigi Vey, Shu va U kabi davlatlarga bo`linib ketgan. Bu Xitoy tarixida **Uch podshohlik davri** deb ataladi. Shu bilan qadimgi Xitoy tarixi o`z nihoyasiga yetgan.

5. Qadimgi Xitoyda huquqning asosiy belgilari

Qadimgi Xitoy huquqiy tizimining muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, bu yerda huquqning shakllanishida ikkita bir-biriga qarama-qarshi falsafiy diniy-huquqiy ta`limot - **konfutsiylik va legizm** o`rtasidagi g`oyaviy kurash juda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Qadimgi Xitoyda umuman huquqning rivojlanishida, xususan, uning g`oyaviy asoslari, tamoyillari va institutlarini, shuningdek huquqni qo`llash mexanizmini, xitoyliklar tomonidan an`anaviy huquqni tushunishlarining rivojlanishida konfutsiylikning axloqiy-siyosiy, diniy aqidalari va legizmning siyosiy-huquqiy konsepsiyasi hal qiluvchi omil bo`lgan.

Qadimgi Xitoy falsafiy-siyosiy maktabining ushbu ikki umumiy belgisi ularning siyosiy maqsadga qaratilganligida, xitoy jamiyati hayotining "oqillik", "adolatlilik" asoslarida tashkil etishga qaratilganligida bo`lgan. Lekin ularning har ikkisi "oqil", "adolatli" jamiyat tushunchalarini har xil tushunganlar. Bu esa ular o`rtasidagi oxir oqibatda kelishuvchilik bilan tugagan keskin kurashni keltirib chiqargan.

Qadimgi Xitoy huquqi rivojlanishida uchta bosqichni ajratib ko`rsatish mumkin. Birinchi bosqich Shan (In) va qadimgi Chjou davriga to`g`ri kelib, bu davrda Xitoyda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda **odob-axloq me`yorlari (li)** asosiy rol o`ynagan. Ular (li)da Xitoy jamiyati a`zolari bilan hukmdor - van o`rtasidagi munosabatlar va ichki oilaviy munosabatlar belgilangan. Bunday me`yorlar ota-onalarni, kattalarni hurmat qilish, aslzodalar oldida ta`zim qilish, vanga sadoqatli bo`lish ruhi bilan sug`orilgan.

Huquqiy me`yorlar bu vaqtda diniy-axloqiy me`yorlardan ajratilma-

gan, ular bilan birga harakat qilgan. Shu bilan birga van hokimiyatining mustahkamlanib borishi bilan hukmdorning, yaqinlarining, oliy chinovniklarning farmoyishlari va buyruqlari katta ahamiyat kasb etib borgan, ularni bajarish majburlash kuchi bilan ta'minlangan.

Miloddan avvalgi VI asrda xitoyliklar orasida asrlar davomida shubhasiz katta obro'-e'tiborga sazovar bo'lgan Konfutsiy o'z ta'limotini yaratgan. **Konfutsiylikning asosiy falsafiy g'oyasi** - uyg'unlik g'oyasi bo'lib, unga ko'ra, uyg'unlik umumiy kosmogonik⁴⁰ tartibning, dunyodagi muvozanatning va, demak, odamlar baxtining asosiy shartidir. Bu g'oya o'z ichiga odamlar va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik singari, odamlarning "tabiiy tartibga", ya'ni yaxshi fazilatlar va axloq-odobga mos kelishi lozim bo'lgan yurish-turishlarida ifodalanadigan o'zlari orasidagi uyg'unlikni ham qamrab oladi.

Konfutsiylikda adolatli tartibni ushlab turish vositasi qonunga emas, balki an'analarga, axloq-odob me'yorlariga rioya etish hisoblangan. Axloq-odob me'yorlari, an'analar barcha "o'Ichov"larga rioya etishga asoslanadigan, o'z navbatida insonni yon berishga, kelishishga undaydigan yuksak axloq-odob timsolini mustahkamlaydi.

Konfutsiy ta'limotiga asosan, "Allohning amri" bilan tuzilgan uyg'un jamiyat - guruhlar yig'indisi (odamlar birlashmasi) bo'lib, bunda ulardan har biri o'zlariga ajratilgan funksiyalarni maksimal darajada amalga oshirishlari uchun ijtimoiy va huquqiy sharoitlarda yashashlari lozim. Bunday birlashmaning asosiy g'oyasi - **"syao" g'oyasi** - o'g'illarcha muhabbat, kattalarni, shuningdek mansabi bo'yicha yuqori turuvchilarni hurmat qilish kabilar hisoblangan. Puxta ishlangan diniy marosimlarda o'z ifodasini topgan "li"ga qattiq rioya etishni talab qilish konfutsiylikning alohida, legistlardan asosiy farq qiladigan, har qanday hollarda rioya etish, majburiy sud himoyasi qattiq talab qilinmaydigan yaxshi xulq-atvor namunalari singari qonunchilik shakliga qandaydir mezonlar sifatida qarashini belgilaydi.

Qadimgi Xitoy huquqi rivojlanishining 2-bosqichida, ya'ni Chjango davridan (miloddan avvalgi V-III asr) boshlab muntazam jazo kompleksiga ega bo'lgan huquqning roli kuchaygan. Bu davrda legizmning eng yorqin vakili Shan Yan tomonidan xalq va davlatni boshqarish haqidagi legistlarning mukammal ta'limoti yaratilgan. Shan Yan hukmdorning mutlaq hokimiyatini yoqlab chiqqan. Uningcha, hukmdor qattiq o'rnatilgan, muhokama qilinmaydigan qonunlar yordamida barcha fuqarolarning hayotini belgilashi lozim.

⁴⁰ **Kosmogoniya** - astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo bo'lishi va O'zgarishlari haqidagi bo'limi.

Legistlar odamlarni qattiq jazolar doirasidan tashqarida yashashlari befoydaligi va mumkin emasligi g'oyalarini targ'ib qilganlar, "yaxshi boshqaruv"ni ta'minlaydigan ehtiyot choralarining va jamoaviy javobgarlikning zarurligidan kelib chiqqanlar, jazo chorasi va sodir etilgan jinoyatning og'irligi o'rtasida qandaydir bog'liqlik bo'lishini tan olishdan voz kechganlar. Ularning fikricha, hatto podshoning buyruqlarini ozgina bo'lsada buzishlik uchun og'ir jazo berilishi lozim. Legistlar qonun oldida o'ziga xos "tenglik"ni, sodir etilgan jinoyatlar uchun jazolarning muqarrarligini targ'ib qilib, kuchli markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash shiori ostida zodagonlarni, turli knazliklarning chinovniklarini eski, urug'chilik imtiyozlaridan mahrum etishga harakat qilganlar. Jazolarning juda qattiq qilinishi, ularning muqarrarligini talab qilinishi davlatga qarshi jinoyatlar tushunchasining rivojlantirilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lganligi ham tasodifiy hol emas, albatta.

Miloddan avvalgi III asrning 2-yarmida qadimgi Xitoy huquqining an'anaviy belgilari va institutlarining qaror topishiga yangi turki bergan ikkita mafkuraning qarama-qarshi kurashi juda keskinlashgan. Legizm birinchi Xitoy imperiyasi - Sin davlatining (miloddan avvalgi 221-207 yillar) rasmiy mafkurasi bo'lib qolgan. Legistlar hokimiyat tepasiga kelgach, o'zlarining huquqiy qarashlarini hayotga tadbqiq etganlar va konfutsiylikka qarshi qattiq kurash olib borganlar, konfutsiylikka oid kitoblarni yo'q qilganlar. Rivoyatlarga qaraganda, Sin imperatori Shixuandi- miloddan avvalgi 213 yilda konfutsiylikning kitoblarini yoqib yuborishga buyruq bergan, konfutsiylik oqimiga mansub 400 ta olimni qatl ettirgan.

Xan sulolasining o'rnatilishi bilan qadimgi Xitoy huquqining tashkil topishidagi oxirgi 3-bosqich (miloddan avvalgi III asr - milodning III asri) - konfutsiylikning rasman g'alabasi bosqichi boshlangan. Bu vaqtda legizm va konfutsiylikning qo'shilib ketishi natijasida yangi ta'limot - ortodoksial Xan konfutsiychiligi maydonga kelgan. Uning asosiy maqsadi o'sha vaqtda to'plangan bilimlar asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumni qadimgi Xitoy jamiyatining yashashi va saqlanib qolishi maqsadlariga to'liq javob beradigan ma'qul va oqilona tuzum sifatida oqlash va abadiylashtirishdan iborat edi. Bu mafkuraning hukmron g'oyasi odamlarning tengsizligini, ularning ijtimoiy, tabaqaviy, xizmat martabasidagi farqlarini, shuningdek, oilada tutgan o'rnidagi, jinsiy, yoshidagi va boshqa farqlarini oqlaydigan konfutsiylik g'oyasi bo'lgan. Bu farqlarning o'zgarimasligi "li"ning qattiq axloq-odob me'yorlari, rasman tan olingan marosimlar yordamida jamiyatda, oilada odamlarning yurish-turishlarini puxta tartibga solishga xizmat qilishi lozim bo'lgan.

Ortodoksial konfutsiylik qonunni, qattiq jazolarni rad etmagan, u qattiqqo'llik va shafqatsizlik birga qo'shib olib borilishini nazarda tutgan. Demak, axloq va huquq mos tushgan. Axloq yurish-turish, hulq-atvor andozasini belgilagan, huquq esa jazolar yordamida undan bo'yin tovlashni taqiqlagan.

Konfutsiylik axloqida hukmron bo'lgan me'yorlar bundan buyon kuch bilan, **qattiq qonun** ("fa") jazosi bilan o'rnatilishi lozim bo'lgan. Bu ortodoksial konfutsiylikning quyidagicha qisqa va aniq qoidasida ham o'z aksini topgan: "qayerda "li" kamlik qilsa, o'sha yerda "fa"ni qo'llash lozim, yoki nima "fa" bo'yicha jazolansa, u "li" bo'yicha ruxsat etilmaydi, nimaga "li" bo'yicha ruxsat etilgan bo'lsa, uni "fa" bo'yicha jazolash mumkin emas".

Konfutsiylik va legizmning qo'shilishi shunga olib keldiki, "li" me'yorlari endi majburiylik va rasmiylik xarakterini olgan, huquqqa esa o'sha vaqtda muqaddaslashtirilgan ko'pgina konfutsiylik asarlari - "**Chjou li**", "**I li**", "**Li szi**" kabilar ko'chirilgan. Bu asarlarda miloddan avvalgi 1 ming yillik 2-yarmi boshlaridayoq konfutsiylikning axloq me'yorlari sistemalashtirilgan va mustahkamlangan edi.

Huquq manbalari

Ma'lumotlarga qaraganda, birinchi yozma qonunlar Xitoyda Shan davlatida paydo bo'lgan. Qadimgi davrlardayoq Xitoy podsholari tomonidan chiqarilgan qonunlar va farmoyishlarning tobora ko'payib borishi huquqqa qarama-qarshi me'yorlarni keltirib chiqargan va ulardan foydalanishni qiyinlashtirgan. Oqibatda huquqni kodifikatsiya qilish zaruriyati tug'ilgan. Miloddan avvalgi X asrda Chjou davlatida van - **Mu** tomonidan 3000 ta moddaga ega bo'lgan **Jinoyat kodeksi** - jazolar haqidagi qonunnoma ishlab chiqilgan. Qonunnomada aybni yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar haqida gapirilgan, ehtiyotsizlikdan va qasddan qilingan xatti-harakatlar bir-biridan ajratilgan. Qonunnoma alohida sud qarorlari yozuvi bo'lganligi ehtimoldan holi emas, unda avvalo odat huquqi me'yorlari mustahkamlangan.

Xitoyda yozma qonunlarning bir muncha keng tarqalishi miloddan avvalgi VI-V asrlarga to'g'ri keladi. Bu qadimgi xitoy jamiyatining tabaqalashuvi kuchayishi bilan bog'liq. Miloddan avvalgi VI asrda Lu podsholigida qabul qilingan yer solig'i haqidagi jamoa yer egaligining tugatilganligi va xususiy yer egaligining o'rnatilganligi ham bejiz emas.

Qadimgi Xitoyda ayniqsa Chjango davrida qonunchilik faoliyatining juda tez. rivojlanishi eslatib o'tiladi. Bu miloddan avvalgi V-III asrlarda alohida xitoy podsholiklari o'rtasidagi og'ir va tinimsiz kurashlar sharo-

itida siyosiy ahvolni barqarorlashtirish maqsadlarida qonunlardan foydalanish zaruriyati bilan bog`liq.

Qadimgi Xitoyda miloddan avvalgi 536 yilga taalluqli "**Qonunlar obzori**" ilk yozma qonunlarga yorqin misol bo`la oladi. Unda jinoyatlar uchun jazolarning quyidagi beshta turi: tamg`a bosish, burnini kesish, bitta yoki ikkala oyog`ini kesish, kastratsiya (axtalash, bichish) va o`lim jazosi berish nazarda tutilgan edi. Bu jazolar keyinchalik eng ko`p tarqalgan jazo turlari bo`lib qolgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda legistlarning ilg`or vakillaridan biri Li Kuy tomonidan tuzilgan "**Vey podsholigi qonunlari kitobi**" qadimgi Xitoydagi ilk qonunlar to`plamlaridan muhimi hisoblanadi. U quyidagicha oltita bob: o`g`rilar haqidagi, bosqinchilar haqidagi, zindonda saqlash haqidagi, jinoyatchilarni tutish haqidagi, qatl etish va qiynash qurollari haqidagi qonunlardan iborat.

Bu to`plam kelajakda shunday qonunlar to`plamlari ishlab chiqish tajribasini boshlab bergan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Xan davrida Xitoyda qadimgi qonunlarni bayon qilish, yozish, sharhlash va qayta tiklash bo`yicha juda katta ishlar amalga oshirilgan. Bu vaqtga kelib "Vey podsholigi qonunlari kitobi" qator boblar bilan, jumladan, harbiy ishlar haqidagi, davlat ot-ulovi haqidagi va moliya haqidagi huquq me`yorlari bilan to`ldirilgan.

Shuni aytib o`tish kerakki, yozma qonunlarning paydo bo`lishi **odat huquqi** me`yorlarining tugatilishiga olib kelmagan. Qadimgi Xitoy davlati rivojlanishining barcha bosqichlarida odat huquqi muhim o`rin tutib, ijtimoiy munosabatlarning ko`p tomonlarini, jumladan yer munosabatlarini tartibga solib turgan.

Mulk huquqi Xitoy an`anaviy huquqida xususiy huquq me`yorlari mustaqil rivojlanmagan. Lekin shunga qaramay Chjou davrining oxirlaridan boshlab (miloddan avvalgi IV-III asrlarda) "yu" fe`li "mulkka ega bo`lish" degan ma`noni bildirgan.

Shan (In) va g`arbiy Chjou davrida yerlar podsho (van)ning mulki hisoblangan. Podshodan mukofot, in`om tariqasida yer olganlar undan faqat foydalanish huquqiga ega bo`lganlar. g`arbiy Chjou davrida egalikdagi yerlarning xususiy mulkka aylanishi tendensiyasi sezila boshlangan. Miloddan avvalgi I asr o`rtalaridan qator podsholiklar yer olish-sotish haqida bitimlar tuza boshlaganlar. Yerlar sotiladigan va sotib olinadigan, mayda uchastkalarga bo`linadigan yoki ayrim shaxslar qo`lida to`planadigan bo`lgan. Lekin yerdan foydalanish xususiy bo`ladimi yoki jamoa asosida bo`ladimi, unga egalik qay tarzda bo`lishidan qat`i nazar, yer

baribir davlatniki bo`lgan. Yer undan foydalanuvchilarga - vaqtincha egalik qilib turuvchilarga to`liq xususiy mulk bo`lib o`tmagan. Sin davriga kelib yerlarni qayta taqsimlash va uning yangi zodagonlar qo`liga o`tishi hisobiga xususiy mulkka asoslangan yer egaliklari jadal rivojlangan.

Qadimgi Xitoyda yerlar bilan birga mulk huquqining muhim ob`yekti qullar bo`lgan. Shan (In) davrida qullar chorvaga tenglashtirilgan. Ular davlat mulki hisoblangan, qullar garchi xususiy shaxslar egaligida bo`lsada, hali ularni olish-sotish bo`lmagan. Chjou davrida esa qul ayirboshlash, olish-sotish mumkin edi. Miloddan avvalgi V-III asrlarda ikki toifadagi qullar: davlat qullari va xususiy qullar mavjud edi. Bu vaqtda xususiy qul egaligi tobora katta ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa Sin davrida qul savdosi juda keng tarqalgan. Milodning I asrida imperator Udi barcha davlat qullarini ozod qilish haqida yorliq chiqargan. Xitoyning qator viloyatlarida ochlik tufayli o`zini qullikka sotganlar va majburan qulga aylantirilganlar, shuningdek, zo`rlab sotilgan ayollar ozod qilingan.

Qadimgi Xitoyda qishloq jamoasi tez yemirila boshlagan bo`lsada, miloddan avvalgi I asrda jamoa hali o`z yer egaligini saqlab qolgan, yer bilan bog`liq shartnoma munosabatlarida ishtirok etgan.

Xitoyda eng qadimgi vaqtlardan boshlab dehqonchilikning rivojlanishini rag`batlantirish maqsadlarida har kimda egasiz va tashlandiq yerlarni egallash huquqi mavjud bo`lgan. Ma`lum muddat o`tganidan so`ng bunday yerlar ularni ishlovchilarining xususiy mulki sifatida kadastrga yozib qo`yilgan.

Shunday qilib, qadimgi Xitoyda yerga nisbatan davlat, jamoa va xususiy mulkchilik shakllari mavjud bo`lib, vaqt o`tishi bilan mulkka egalikning oxirgi shakli tobora rivojlanib borgan.

Majburiyatlar Qadimgi Xitoyda majburiyatlarning shartnomalardan kelib chiqadigan turi keng tarqalgan. Huquqiy manbalarda shartnomalarning xilma-xil turlari eslab o`tilgan. Dastlabki shartnomalardan biri **ayirboshlash** bo`lib, u asta-sekin o`z o`rmini **oldi-sotdi shartnomasiga** bo`shatib borgan. Yerni olish-sotish bilan bog`liq shartnomalar keng tarqalgan. Manbalarning xabar berishicha, milodning I asrida ayollar va davlat qullari ham yerlarni olish-sotish shartnomasini tuzishlari mumkin bo`lgan. **Hadya shartnomasi** ham juda ko`p uchraydigan shartnomalardan edi. Yerlarni, qullarni, aravalarni, qurol-yarog` va boshqa mulklarni hadya qilish tez-tez bo`lib turadigan hodisa edi. Chjango davrida **qarz shartnomasi** bo`lganligi ma`lum, sudxo`rlik rivojlangan. Qarz shartnomasi qarzdorlik tilxati bilan rasmiylashtirilgan. To`lov muddatini kechiktirish, garovga qo`yish, yozma majburiyatlar berish hollari

ham ma'lum. Qarz shartnomasining rivojlanishi qarzдорlik qulchiligining paydo bo'lishiga olib kelgan. Miloddan avvalgi V-III asrlarda **yerni ijaraga berish shartnomasi** ayniqsa tez-tez tug'ilib turgan. Bundan keyingi vaqtlarda shuningdek **shaxsiy ijara shartnomasi** keng tarqalgan edi. Ularning shartlari asosan odat huquqi bilan tartibga solingan.

Nikoh-oila va meros Qadimgi Xitoyda oila patriarxal xarakterga ega bo'lgan. Katta oilaviy aloqalar mustahkamligi bilan ajralib turgan. Katta oila tepasida oiladagi eng katta erkak turgan. Unga oilaning barcha a'zolari: xotinlar va jazmanlar, o'g'illar va nabiralar, ularning xotinlari va bolalari, qullar va xizmatchilar bo'ysunganlar.

Oila boshlig'i uning mutlaq hukmdori, mulkining xo'jayini sifatida maydonga chiqqan. U itoatsiz oila a'zolarini jazolash huquqiga ega edi.

Yerga nisbatan xususiy mulkchilikning rivojlanishi bilan katta oilaviy aloqalar zaiflasha boshlagan. Bu jarayon legistlar siyosati bilan tezlashtirilgan. Miloddan avvalgi 356-350 yillarda Shan Yan kuchli markazlashgan hokimiyat tashkil etish yo'lida to'siq hisoblangan nufuzli katta oilalarning, oilaviy urug'-aymoqlarning ajralib chiqishlariga qarshi kurashib, ularni majburiy suratda bo'lib yuborishga karatilgan siyosat yurgizgan. Biroq katta oila ijtimoiy-xo'jalik yacheykasi sifatida keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan. Nikoh-oila huquqi asoslari konfutsiylik ta'limoti asosiga qurilgan edi.

Nikoh tuzish uchun qator shartlarga rioya etish talab qilingan. Nikoh tomonlarning ota-onasi yoki kuyovning o'zi tomonidan tuzilgan va xususiy bitim sifatida rasmiylashtirilgan. U buzilgan taqdirda nafaqat moddiy javobgarlik kelib chiqqan, balki oilada kattalarga nisbatan jinoyat tartibida jazo berilishiga ham sabab bo'lgan.

Dastlabki paytlarda Xitoyda (Shan (In) davrida) qarindoshlar o'rtasidagi nikohga yo'l qo'yilgan edi. Lekin keyinchalik bu taqiqlangan va hatto bilmay qarindosh oilalar aralashib ketmasligi uchun kelin va kuyov bitta familiyada bo'lmasliklari lozim bo'lgan. Xitoy jamiyatida oilaviy familiyalarning kamligi bu keskin qoidaga ma'lum istisno qilinishini belgilagan. Masalan, "ikkinchi darajali xotin" sotib olishda bir xil familiyada bo'lishlik to'sqinlik qilmagan (Li szi, I kitob).

Li szining V kitobida nikoh yoshining o'ziga xos quyi va yuqori chegarasi: erkaklar uchun 16 yoshdan 30 yoshgacha, ayollar uchun 14 yoshdan 20 yoshgacha qilib belgilangan. Bunga amal qilinishini davlat ham nazorat qilib turgan. Shu maqsadda Chjou li (XI kitob)ning xabar berishicha, maxsus chinovnik nikoh yoshining eng oxirgi chegarasiga yetib

kelgan erkaklar va ayollarning ro'yxatini tuzgan. Qoidaga ko'ra, 30 yoshga to'lgan bo'ydoq erkaklar 20 yoshga to'lgan qizlarni xotinlikka olishlari lozim bo'lgan.

Oilaviy munosabatlarda xotining erga nisbatan sadoqatli, vafodor bo'lishligi qattiq talab qilingan. "Bir xotinga bir er" degan tamoyil o'rnatilgan edi. Lekin er "ikkinchi darajali" xotinlarga va jazmanlarga (ayniqsa xotini tug'maydigan bo'lsa) ega bo'lishi mumkin edi. Ularning nechtagacha bo'lishi mumkinligi erkak kishining ijtimoiy holatiga qarab belgilangan (Li szi, XIV kitob; Chjou li, VII kitob). Nikoh tuzishga to'sqinlik qiladigan qator sabablar sanab ko'rsatilgan. Xotin eri o'lganda yangi nikohga kirishi uchun ma'lum motam muddati o'tishini kutishi lozim. Xuddi shuningdek beva hotin sobiq erining ota-onalari vafot etganda ham yuqoridagi tartibga amal qilishga majbur bo'lgan. Jinoyat sodir qilgan shaxslar bilan nikohga kirish taqiqlangan. Yuqori tabaqadagilarning past tabaqadagilar bilan nikohga kirishi man etilib, buning uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilgan. Ayniqsa, erkin kishilarning qullar bilan nikohga kirishi qat'iy taqiqlangan. Erkin kishi qul ayolni xotinlikka olsa, o'g'ri sifatida jazolangan.

Qadimgi Xitoy an'anaviy huquqida nikohni bekor qilish uchun qattiq cheklashlar o'rnatilmagan. Unda "er-xotinlik burchini buzganlik uchun" hatto jinoiy javobgarlik nazarda tutilib, arzimagan holatlarda nikohni bekor qilish mumkin bo'lgan. Haqorat qilish, urish, tan jarohati yetkazish va boshqa yo'llar bilan er-xotinning bir-biriga va qarindoshlariga zarar yetkazishi "er-xotinlik burchini buzganlik" sifatida qaralgan. Nikohni bekor qilishni faqat er-xotin emas, balki ularning oila a'zolari ham talab qilishi mumkin edi. "Li"da erning tashabbusi bilan nikohni bekor qilishga asos bo'lgan qator holatlar sanab o'tilgan. Bunga ko'ra, agar xotin "avlodlarning umidini oqlamasa", qaynona va qaynotaga quloq solmasa, naslsiz, suyuqoyoq, hasadgo'y, vaysaqi, og'ir kasal bo'lsa, shuningdek, oila mulkidan o'g'rilikcha foydalansa, er jazo berish bilan qo'rqitib nikohni bekor qilishi mumkin edi.

Xotinning nikohni bekor qilish huquqi juda cheklangan. Qoida bo'yicha, xotin eri bilan "yerdagi hayotda ham va narigi dunyoda ham" birga qolishi lozim (Li szi, XI kitob). Xotinning ikki marta turmush qurishi amalda mumkin emas edi. Biroq er ham asossiz nikohni bekor qilishni talab qilsa, katorga ishlariga mahkum etilgan. Agar xotinning boradigan joyi bo'lmasa yoki erining ota-onasining motam marosimlari o'tayotgan bo'lsa, er nikohni bekor qila olmagan. Bundan tashqari, xotin tomonidan og'ir jinoyatlar va xiyonatdan boshqa har qanday huquqbuzarliklar sodir etil-

ganda, er uni kafillikka olishi lozim bo'lgan.

Oilada ota nafaqat xotin ustidan, balki uning boshqa a'zolari, jumladan, bolalar ustidan ham hukmronlik qilgan. Ota katta o'g'lidan tashqari boshqa farzandlarini sotishi mumkin edi. Katta o'g'il oilada boshqa bolalarga nisbatan qator imtiyozlardan foydalangan. Xitoyda ota, ona, otasi bo'yicha buva va buvi tomonidan o'g'lni, nabirani, kelinni urish-kaltaklash oqibatida ularning o'limiga sabab bo'lsa, hech qanday jazo chorasi nazarda tutilmagan. Bu tartib Xitoyda to XIX asrgacha saqlanib qolgan.

Oila a'zolari, ayniqsa, ayollar zimmasiga vafot etgan qarindoshlari uchun ma'lum muddat motam liboslarini kiyib yurish majburiyati yuklangan. Bunga amal qilmaslik "oilaviy" jinoyat hisoblangan. Katta oiladan ruxsatsiz alohida ajralib chiqishga harakat qilgan yoki oila mulkini ruxsatsiz o'ziniki qilib olgan o'g'illar, nabiralar ham jazolanganlar. Oilada qarindoshchilik aloqalari, katta yoki kichik yoshda bo'lishlik "oilaviy" va boshqa jinoyatlar uchun beriladigan jazoning og'ir-yengilligiga ta'sir qilgan. Masalan, otaning o'g'il mulkini o'g'irlashi jinoyat hisoblanmagan, ammo oilaning kattasi hatto jinoyat qilganda ham buni oila a'zolaridan biri birovga xabar bersa, qattiq jazoga tortilgan.

Meros huquqida avvalo bolalar, nabiralar va ular bo'lmasa boshqa qarindoshlar qonuniy merosxo'rlar sifatida chiqqanlar. Oilada katta o'g'il meros olishda katta imtiyozga ega bo'lgan. Ota o'lganidan so'ng oila mulki unga o'tgan va u oila boshlig'iga aylanib, boshqa oila a'zolari ustidan hukmronlik qila boshlagan.

Jinoyat va jazo

Qadimgi Xitoyda huquqning rivojlanishi ko'proq jinoyat huquqi rivojlanishi bilan bog'liq edi. Qadimgi Xitoyda jinoyat tushunchasi inson jinoyi irodasining namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi. Huquqbuzar shaxsga "pastkash inson" sifatida qaralgan. Uning "pastkashligi" shu bilan belgilanganki, u o'zining halokatli, jinoyi irodasi bilan o'zi yashab turgan, o'zi taalluqli bo'lgan ijtimoiy guruhdagi, jamiyatdagi, tabiatdagi uyg'unlikni, tartibni va hatto sodir etgan jinoyati xarakteriga qarab butun dunyoni buzib yuborish mumkin, deb hisoblangan.

Axloq-odob me'yorlarining ustunligini tan olishdan shu narsa kelib chiqadiki, aybdorlik darajasi va jazoning og'irligi xatti-harakatning xarakteriga emas, jinoyatchining ma'naviy holatiga, jinoyi harakatning og'irligiga emas, jinoyi irodaning qanchalik shiddatli ekanligiga mos bo'lishi lozim edi.

Xan davrida "agar iroda erkin bo'lsa, inson qonunni buzmaydi" de-

gan konfutsiylik tamoyiliga asosan Xitoyda ayb shakli haqidagi maxsus ta'limot yuzaga kela boshlagan, jazo choralarini belgilashda jinoyiy iroda hisobga olinib boshlangan. Jinoyatchining irodasini hisobga olishni talab qilish miloddan avvalgi 120 yilgi qonunda ham mustahkamlangan. Bu talab asosida Xitoy hududida qasddan va ataylab, g'araz maqsadlarda sodir qilingan jinoyatlar va bularsiz, shuningdek xato natijasida sodir etilgan jinoyatlar bir-biridan ajratila boshlangan. Tan jarohati yetkazganlik uchun jazoning og'irligi jarohat "yovuz maqsadda" yetkazilganmi yoki urishish-yoqalashish natijasida yetkazilganmi shunga bog'liq bo'lgan. Qasddan qilingan tuhmat uchun nisbatan og'irroq jazo belgilangan bo'lsa, tasdiqlanmagan chaqimchilik uchun esa ancha yengil jazo nazarda tutilgan.

Qadimgi Xitoy jinoyat huquqida tugallangan jinoyat va suiqasd o'rtasidagi farq ham ajratilgan. Jinoyatga suiqasd qilish jinoyiy irodaning namoyon bo'lishi sifatida ko'rib, ancha yengilroq jazo bilan ta'qib qilingan. Biroq jinoyat huquqining ko'pgina umumiy tamoyillari aniq harakat qilmagan. Natijada konfutsiylikning qistovi bilan suiqasd ko'pincha tugallangan jinoyat deb atalgan. Masalan, yaqin qarindoshini o'ldirishga suiqasd qilish tugallangan jinoyat deb hisoblangan.

"Jinoyiy iroda" konsepsiyasi jinoyatda ishtirokchilik va guruh jinoyatchiligi kabi institutlarning mazmunini ham belgilagan. Yangi era arafasida jinoyat huquqida maxsus me'yor paydo bo'lib, unga ko'ra, jinoyat qilishga bevosita qasd qilgan, uni rejalashtirgan shaxs jinoyiy guruh boshlig'i hisoblangan. Agar jinoyat oldindan til birlashtirib sodir etilgan bo'lsa, guruh shaxslar tomonidan qilingan jinoyat deb tan olingan, aks holda jinoyiy guruh ishtirokchilarining har biri alohida jinoyat uchun javobgarlikka tortilgan. Jinoyiy guruh ishtirokchilari orasidan aybi boshqalarga nisbatan ayniqsa og'ir bo'lgan guruh boshlig'ining - jinoyat tashkilotchisining ajratilishi konfutsiylikning legistlar ustidan g'alabasi edi. Zero, yuqorida eslab o'tilgan miloddan avvalgi 120 yilda paydo bo'lgan qonun legistlarining jazolar universalligi haqidagi g'oyalariga asoslangan edi.

Jinoyat huquqida aybni yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar haqidagi huquqiy qoidalar konfutsiylikning quyidagi pand-nasihatlari ham belgilangan: "Ota-onalarni va qarindosh-urug'larni boshqalar oldida ko'proq sevish, keksalarga har jihatdan hurmat ko'rsatish, nogironlarga hamdard va bolalarga rahmdil bo'lish lozim". Shu muqaddas burchlar nuqtai nazaridan 8 yoshdan kichik bolalar va 70 yoshdan katta keksalar tan jazolaridan ozod etilganlar. Biroq Xitoy an'anaviy huquqi o'z harakatini idrok eta olmaganligi yoki o'z harakatlarini idora qila olmaganligi tufayli javobgarlikdan ozod etish hollarini bilmaydi.

U yoki bu huquqqa xilof xatti-harakatni jinoyatlar ro'yxatiga qo'shish, ular uchun jazolarning og'ir-yengilligini belgilash imperatorning sub'yektiv xohish-irodasiga, konfutsiylar va legistlarning ustunlik mavqeiga va shu kabi kator holatlarga bog'liq bo'lgan. Jinoyatlar ro'yxati juda mayda bo'laklarga bo'lingan va noaniq edi. Masalan, qarzini to'lamagan qarzdorlar, ichkilikbozlik bilan shug'ullanuvchilar ham jinoiy javobgarlikka tortilganlar.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga karaganda, Chjou davrida Mu kodeksida ko'rsatilganidek, 3000 turdagi jinoyat mavjud bo'lgan. Bularning orasida davlatga qarshi (isyon, fitna), dinga qarshi (sehrgarlik bilan shug'ullanish, kulni ko'chaga tashlash), shaxsga qarshi (odam o'ldirish, tan jarohati yetkazish), mulkka qarshi (og'rilik, talonchilik, bironing chorvasini so'yish), harbiy (qo'shin yig'iladigan joyga belgilangan muddatda yetib kelmaslik, jangda qo'rqqoqlik qilish) jinoyatlar muhim o'rin tutgan. Davlatga qarshi jinoyatlarga og'ir jinoyat sifatida qaralgan. Sin podsholigida konfutsiylarning taqiqlangan adabiyotlarini saqlash davlatga qarshi og'ir jinoyatlardan biri hisoblangan.

Miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid chinovniklar uchun mo'ljallangan qo'llanmalarda ibodatxonalaridagi og'rilik, diniy marosimlarga tegishli narsalarni og'irlash, jarohat yetkazish, tuhmat, armiyadan qochish kabi jinoyat ishlarini ko'rish haqida ko'pgina misollar keltirilgan. Konfutsiylarning axloq qoidalari asosida otaga, oila kattasiga bo'ysunmaslik kabi jinoyatlar ham juda erta ajralib chiqqan edi. Qadimgi vaqtlardayoq yuqori va quyi chinovniklarning xizmat bo'yicha qilgan xatolari yoki nojo'ya qilmishlari uchun an'anaviy javobgarlik o'rnatilgan edi. Miloddan avvalgi III asrda o'z xizmatdoshining aybini bilgan va bu haqda xabar bermagan chinovnikning jinoiy javobgarligi joriy qilingan. Qadimgi Xitoy jinoyat huquqi bo'yicha soliq to'lashdan bosh tortish jinoyat sifatida ko'rilgan, ichkilikbozlik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan o'lim jazosi nazarda tutilgan.

Qadimgi Xitoyda "bao" degan iboradan sodir etilgan jinoyat uchun o'ch (qasos) olish degan ma'noda foydalanilgan. Jinoyat huquqida ibtidoiy jamoa tuzumining qoldig'i sifatida talion tamoyili bo'yicha o'ch olishdan iborat bo'lgan qonli qasos olish odati uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Xitoy jamiyatida sinfiy kurashning keskinlashib borishi natijasida bu odat asta-sekin jazolarning boshqa turlari tomonidan siqib chiqarilgan, bevosita davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llaniladigan tan jazolari va o'lim jazosi keng tarqala boshlagan.

Jazo turlari turli davrlarda bir-biridan juda kam farq qilgan. In dav-

latida tayoq bilan urish, burnini kesish, olovda kuydirish, mayda bo'laklarga bo'lish, boshini kesish, tiriklayin yerga ko'mish, oyoqlarini, qo'llarini uzish, ko'zini o'yish jazolari qo'llanilgan. Podsho Mu Qonun-nomasida jazolarning quyidagi besh turi ajratib ko'rsatilgan: 1) "mosin" (tatuirovka yo'li bilan yuzga tamg'a bosish) - bu 1000 xil turli ayblar uchun qo'llangan; 2) "isin" (burunni kesish) - bu ham 1000 xil turli ayblarga nisbatan berilgan; 3) "feysin" (oyog'ini kesish) - 500 xil turli ayblar uchun; 4) "chujin" (erkaklar uchun kastratsiya va ayollar uchun qulga aylantirish) - 300 turli ayblar uchun; 5) "danisin" (boshini kesish) - 200 turli ayblar uchun. Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari Qonunnomada tayoq bilan kaltaklash, qamchi bilan savalash, quloqlarini kesish va boshqa jazolar ham ko'rsatilgan.

Jinoyat qonunlari jazolarning juda og'irligi bilan xarakterlanadi. Sin davrida qo'rqitish tamomila jazoning asosiy maqsadi bo'lib qolgan. O'lim jazosi xilma-xil ko'rinishlarda juda keng qo'llangan. Qatl etilgan shaxsning jasadi ko'pincha hammaga ko'rinadigan joylarga - bozorda yoki katta yo'lda daraxtga osib qo'yilgan. Mahkumni belidan ikkiga bo'lib tashlash tez-tez qo'llanib turgan.

Ayniqsa siyosiy, davlatga qarshi jinoyatlar uchun juda og'ir jazolar nazarda tutilgan. Bunday hollarda nafaqat aybdorning o'zi, balki uning otasi, onasi va xotini tarmog'i bo'yicha uch avlod qarindosh-urug'lari ham javobgar hisoblangan. Xan imperiyasining dastlabki davrida maxsus farmon chiqarilib, bunga ko'ra, davlatga qarshi jinoyat sodir etgan shaxsning uch avlodi qirg'in qilinishi nazarda tutilib, "so'nggi avlodga dastlab tatuirovka yo'li bilan tamga bosilgan, so'ngra ularning burunlari va oyoqlari kesilgan, undan keyin ularni tayoq bilan o'lguncha urish lozim bo'lgan. Ularning boshlarini uzib, suyaklari va go'shtlarini tanalaridan ajratib olib, bozor maydonlariga osib qo'yanlar. Agar kimda-kim bundan norozilik bildirib, hukumatni tanqid qilsa, uning tili kesilgan, so'ngra uning xotini ham shunday jazolangan". Jazo aybdorning otasiga, onasiga, bolalariga, aka-ukalariga, opa-singillariga ham, yoshlaridan qat'i nazar, qo'llanavergan. Juda yosh bolalarni va o'ta keksa kishilarni qiynoqlar bilan qatl etish hollari ko'p bo'lgan. Mavjud tuzumga qarshi fitna va isyonlarda ishtirok etgan shaxslar qaynab turgan suvda yoki yonib turgan gulxanda kuydirilgan. Bundan tashqari o'lim jazosining tiriklayin ko'mib yuborish, bo'laklarga bo'lib tashlash va hokazo usullari keng qo'llanilgan.

Shuningdek tan jazolari ham ko'p hollarda berilgan. Davlat quliga aylantirish odatda aybdor shaxslarning uch avlodiga nisbatan qo'llangan.

Yuqoridagilardan tashqari ma'lum muddatga katorga ishlariga

jo`natish jazosi bo`lib, uning berilishi uchun maxsus tartib o`rnatilgan edi. Bunda mahkumning ko`zi atrofi doira shaklida yashil rangga bo`yalib, sochi tagidan olib tashlangan va bo`yniga temir halqa taqib qo`yilgan. Ba`zan bunga tayoq bilan kaltaklash jazosi ham qo`shib berilgan. Bambuk tayog`i bilan urish mustaqil jazo turi sifatida ham qo`llanilgan. Uni barmoqlarni kesish jazosi bilan almashtirish mumkin edi. Qamchi bilan urishning soni 500 ta, 300 ta, 200 ta va alohida davrlarda undan kamroq bo`lishi mumkin edi.

Jazolarning surgun, mansabidan bo`shatish va jarima kabi turlari ham mavjud edi. Tan jazolari jarima to`lashga almashtirilishi mumkin bo`lgan. Bunda albatta mulkdorlarning manfaatlari nazarda tutilgan edi.

O`lim jazosi hukmi darhol yoki ma`lum muddat o`tgach ijro etilgan. Gap shundaki, bahorda va yozda, ya`ni tabiat uyg`onayotgan davrda tirik mavjudotni o`ldirish tabiat va jamiyatdagi uyg`unlikning buzulishiga olib kelishi va buning oqibatida suv toshqinlari, qurg`oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar kelib chiqishi mumkin deb hisoblangan (Konfutsiy ta`limoti asosida). Shu sababli o`lim jazosi ijrosi kuzda yoki qishda amalga oshirilgan. Lekin sinfiy kurashning keskinlashgan davrlarida bu qoida tez-tez buzilib turgan, albatta.

Sud va sud jarayoni

Qadimgi Xitoyda sud hokimiyati ma`muriy hokimiyatdan ajratilmagan. Asosiy sud ishlari viloyatlarning ma`muriy boshliqlari - "prefektlar" tomonidan ko`rib hal etilgan. Prefekt to`la sud hokimiyatiga ega bo`lgan; u barcha turdagi jazolarni, jumladan, o`lim jazosini ham bera olgan. Faqat "shubha tug`diradigan hollarda" prefektlar ishni ko`rishni yuqori turuvchi sud hokimiyatiga taqdim etishlari lozim edi. Prefektlarning sud hokimiyati politsiyachilik funksiyalari bilan qo`shilib ketgandi. Ularning majburiyatiga "jinoyatning oldini olish" va "gazandalarni tiyib turish" ham kirgan. Buning uchun mahalliy joylarda ularning politsiya yordamchilari bo`lgan. Ularning qo`lida esa noroziliklarni bostirib turish va "qaroqchilarni" tutish uchun maxsus harbiy kuchlar mavjud edi. Politsiyada ko`plab ayg`oqchilar xizmatda turgan,

Prefektlarning sud faoliyatini hukumatning tanikli chinovniklaridan biri - "Buyuk ma`mur" kuzatib turgan. Unga har yilning oxirida viloyatlarning hukmdorlari hisobot berganlar. Bundan tashqari "Buyuk ma`mur" kuzda va qishda imperiyaning barcha qismlariga joylarda jazolarning yagona uslublaridan qanday foydalanilayotganligini kuzatib turish uchun "adolatli chinovniklar"ni jo`natib turgan. Ular bu maqsadda mahkum etilganlarni so`roq qilishlari mumkin edi. Bu nazoratchilar ma`lum hollarda

ba'zi sud ishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lganlar.

Sud faoliyatini amalga oshirishda imperiyaning oliy chinovniklaridan biri - "adliya boshlig'i" alohida rol o'ynagan. Unga "jazolarning berilishi", "sud qarorlarining adolatliliigi", "jazolarning sodir etilgan jinoyatlarga mos kelishi" ustidan nazorat qilib turish vazifasi yuklatilgan.

Markaziy boshqaruvning ko'pgina boshqa chinovniklari ham sud funksiyalariga ega bo'lgan. Turli darajadagi harbiy boshliqlar keng sud huquqlaridan foydalanganlar.

Eng oliy sud hokimiyati imperatorga tegishli bo'lgan. Imperator oliy sud instansiyasi hisoblangan.

Davlat sudi bilan bir qatorda oila boshlig'ining oila a'zolari ustidan sud hokimiyati ham mavjud bo'lgan. Uy egasi-oila boshlig'i-oila otasi xotini, bolalari va o'z hokimiyati ostidagi boshqa qarindoshlariga jazo berish sohasida uzoq vaqtgacha cheklanmagan huquqlarga ega bo'lib kelgan. Manbalarning xabar berishicha, ota o'z o'g'lini sodir etgan jinoyati uchun o'ldirishi yoki o'zini-o'zi o'ldirishga buyruq berishi mumkin edi. Otaning o'z o'g'lini o'ldirish huquqi miloddan avvalgi I asr o'rtalarida bekor qilingan, lekin uning o'z bolalarini sotish va ularga boshqa jazolar berish, jumladan, oiladan haydash huquqi saqlanib qolgan. Dastlabki tergov va sud odatda ayni bir shaxs tomonidan amalga oshirilgan. Bu - jinoyat jarayonida o'zboshimchaliklarga, suiste'molliklarga olib kelgan va ayblanuvchini juda og'ir ahvolga solib qo'ygan. Jinoyatlarni tergov qilish qadimgi vaqtlardayoq maxsus chinovnik (linshi)ga topshirib qo'yilgan edi. Tergov asosan shikoyat qilish yoki uyezd yoxud okrug boshqarmasiga xabar berish bilan boshlangan. Xabar berish, ayniqsa o'g'rilik va odam o'ldirishga taalluqli xabar berish aniq bo'lishi talab qilingan, aks holda noto'g'ri xabar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Xabar berish "huquqi" shaxsning ijtimoiy holatiga va uning qarindoshlik aloqalari tizimida tutgan o'rniga bog'liq edi. Davlatga va podshoga qarshi jinoyatlar haqida barcha kishilar xabar berish huquqiga ega bo'lganlar. Yolg'on xabar berishlik qattiq jazolangan. Bunday hollarda xabar beruvchiga qanday jinoyat haqida yolg'on xabar bergan bo'lsa, o'sha jinoyat uchun nazarda tutilgan jazo berilgan. O'ldirish bilan qo'rqitib ota-onasi, buva-buvisi va boshqa yaqin qarindoshlarining jinoyati haqida xabar berishni talab qilish taqiqlangan. Lekin erini o'ldirgan xotinning bolasi bu haqda xabar berish huquqiga ega bo'lgan. O'z xo'jayinining qilgan jinoyati haqida xabar bergan qul, agar bu xabar fitna va davlatga xiyonat haqida bo'lmasa, osib o'ldirilgan. Nomini yashirib (anonim tarzda) xabar berish taqiqlangan, shunday xabarlar nati-

jasida begunoh mahkum etilganlar jazodan ozod qilingan. Oila boshlig'i jinoyat sodir etgan qaramog'idagi shaxslarni sudga o'zi taqdim etishi lozim bo'lgan, aks holda, uning o'zi jazolangan. Oila boshlig'iga aybi uchun o'z qullarini jazolash, ba'zan esa hokimiyatning maxsus ruxsati bilan o'ldirish huquqi taqdim etilgan. Tergov ishlari uyezd chinovniklari tomonidan olib borilgan, ular hukmni ham ijro etganlar. Masalan, tayoq bilan urish o'sha sudning o'zidayoq amalga oshirilgan. Og'ir jinoyatlar (isyon, davlatga xiyonat va boshqalar)ni tergov qilish okrug boshliqlariga o'tkazilgan. Tergov ishlari qiynoqlar yordamida va ayblanuvchini, ba'zan esa hatto talab qilingan ko'rsatmalarni berishdan bosh tortgan guvohlarni ham qamoqqa olish yo'li bilan olib borilgan. Qiynoq guvohlarga nisbatan ham qo'llanilgan.

Tergov natijalari haqida xulosa, ayblov dalolatnomasi tuzilgan. Qadimdan "dalillarni taqdim etish", "ayblash" va boshqa yuridik iboralar ko'p ishlatilgan.

Qadimgi Xitoyda appelyatsiya tartibida ish ko'rish bo'lmagan. Lekin mahkum etilgan shaxs hukmdan noroziligini uch oy ichida bildirishi va ishni qaytadan ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin edi. Biroq bunday ish o'sha birinchi qaror chiqargan sudning o'zi tomonidan qayta ko'rilgan. Shu sababli hukmning bekor qilinishiga erishish uchun mahkumning qarindoshlari boshqacha yo'l tutishgan. Ular yo imperatorga, yoki ko'proq markazdan mahapliy ishlarni tekshirish va sudlarni nazorat qilish uchun jo'natilgan chinovnik-nazoratchilarga iltimosnoma bilan murojaat qilganlar.

Sudda guvohlarning ko'rsatmalari, daliliy ashyolar va qasam dalil hisoblangan. Sin davrida "agar jinoyatchi fosh etilsa-yu, aybiga iqror bo'lmasa yoki surishtiruv paytidagi ko'rsatmalarini o'zgartirsa", qiynoq usulidan foydalanilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Ayblanuvchining aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili harakatda bo'lgan. Yomon, buzuq niyatlarda qiynash, tayoq bilan kaltaklash taqiqlangan. Bunday holatlar ayblanuvchining o'limiga sabab bo'lsa, sudya yoki tergovchi katorga ishlariga mahkum etilgan.

Sudda ish yuzasidan analogiya (qiyoslash) bo'yicha qarorlar chiqarish keng qo'llanilgan.

II B O`L I M

ANTIK DUNYO DAVLATI VA HUQUQI

Vl bob

QADIMGI YUNONISTON VA QADIMGI RIM DAVLATI VA HUQUQIGA UMUMIY TAVSIF

1. Antik dunyoda davlatning vujudga kelishi va polis tizimi

Yuqorida ko`rib o`tganimizdek, insoniyatning sivilizatsiya tarixi va unga xos bo`lgan davlat va huquq tarixi Qadimgi Sharqdan boshlanadi. Biroq, albatta, sivilizatsiyaning yangi va o`ziga xos yuqori darajasi O`rta yer dengizida Ovro`paning janubida tashkil topgan antik jamiyatning rivojlanishi bilan bog`liq.

Tarix fanida "Antik dunyo"⁴¹ iborasi, odatda, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim, shuningdek, ellinistik davlatlar tarixiga nisbatan ishlatiladi.

Antik dunyo mamlakatlari, albatta, Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilk bir qaror topgan sivilizatsiyalar bilan bog`liq holda rivojlanib, jahon madaniyatiga so`zsiz ulkan hissa qo`shganlar. Antik sivilizatsiya o`zining eng yuksak cho`qqisiga miloddan avvalgi I ming yillikda - yangi era I ming yilligining boshlarida erishgan edi. Aynan shu vaqtda yunonlar va rimliklar insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, siyosiy-huquqiy sohada ham zo`r taassurot qoldiradigan yutuqlarga erishganlar. Antik dunyoning, ayniqsa, falsafa, san`at va huquq sohasidagi merosi Ovro`pa sivilizatsiyasining dastlabki asosini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan antik davlatchilik muammosi alohida o`rin tutadi.

Yunon-rim dunyosi bo`sh joyda, butun dunyodan ajralgan holda, "yopiq jamiyat" tipida tashkil topmadi. Sivilizatsiyaning ilk o`choqlari va dastlabki shahar-davlatlar O`rta yer dengizi bo`g`ozida miloddan avvalgi III-II ming yilliklardayoq Sharq dunyosining muhim ta`siri ostida tashkil topgan. Keyinchalik, ayniqsa, "buyuk mustamlakachilik" davrida (miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda) Osiyo qirg`oqlarida yunon poseleniyalariga (shaharlariga) asos solinishi natijasida ikki sivilizatsiyaning o`zaro aloqasi yanada mustahkamlangan va chuqurlashgan. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari - Milet, Efes va boshqalar Sharq va g`arb o`rtasida savdo, madaniy va boshqa aloqalar olib boriladigan ochiq darvozalar bo`lib qolgan edi. Yunonlarning va keyinchalik rimliklarning Sharq mamlakatlari bilan tobora o`sib borayotgan aloqalari ularning Sharqda o`zlaridan ancha ilgari paydo bo`lgan davlatchilik - huquqiy faoliyatning boy tarixiy tajribasini

⁴¹ Antik so`zi lotincha "antiquitas" - qadimgi, eski so`zidan olingan.

o`rganishlariga va bundan o`z davlat-huquqiy qurilishlarida foydalanishlarida ancha samarali va oqilona yondashuvlariga olib kelgan.

Bolqon yarim orolining janubida va Egey dengizi qirg`oqlarida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda ilk shahar-davlatlarning, so`ngra esa ancha yirik davlatlarning tashkil topishi yunon-axayyaliklar tomonidan bu mintaqaning⁴² mahalliy tub aholisini (pelasglarni, minoylarni) bosib olinishi natijasi bo`lgan. Bosqinchilik turli madaniyatlar, tillar va xalqlarning aralashib va chatishib ketishiga va oqibatda ancha yuqori Kritmiken madaniyatining tug`ilishiga olib kelgan. Bu jarayonlar bir qator o`sib borayotgan yoki inqirozga uchrab borayotgan davlatlarni (Knoss, Miken podsholiklarini va boshqalarni) keltirib chiqargan.

Bu davlatlarning monarxiya xarakteriga ega bo`lganligi, ularda yirik davlat - ibodatxona xo`jaligi va jamoa yerlarining mavjudligi ushbu davlatlarni Sharq despotiyasiga o`xshash bo`lganligidan darak beradi. Kritmiken an`analari keyinchalik podsho saroyi bilan bog`liq jamoa ukkladining mavjudligi xarakterli bo`lgan yunon-axayyaliklarning davlatchiligida ham uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi Yunonistonda davlatning tashkil topishidagi muhim xususiyatlardan biri shunda bo`lgan ediki, bu jarayonning o`zi qabilalarning ko`chib o`tishi va aralashuvi munosabati bilan to`lqinsimon, uzilib-uzilib sodir bo`lgan. Masalan, Yunonistonga miloddan avvalgi XII asrda shimoldan doriy qabilalarining bostirib kirishi davlatning tashkil topishidagi butun bir tabiiy jarayonni orqaga uloqtirib tashlagan. Doriylar istilosidan keyin kelgan "qorong`i asrlar" (miloddan avvalgi XII asr - VIII asrning birinchi yarmi), keyin esa arxaik davr ellinlarni yana qabilaviy davlatchilikka va shahar-davlatchiligiga qaytargan.

Yunonistonda davlatning kelib chiqishi jarayonida ichki va tashqi omillarning o`ziga xos o`zaro qo`shilib ketganligini ko`rish mumkin. Lekin markscha-lenincha nazariya tarafdorlari ko`pincha bu holatlarga yetarlicha baho bermay, tashqi omillarning ahamiyatini hisobga olishmaydi. Masalan, ular Afinada davlat "sof holda", ya`ni bevosita urug`doshlik tuzumining yemirilishi natijasida, ichki va tashqi omillarning tezlashtiradigan ta`sirisiz tashkil topgan deb ko`rsatishga urinishadi. Shuni aytib o`tish kerakki, tashqi omilning (masalan, etrusklarning) muhim ta`siri Rim davlatining kelib chiqishida ham ko`zga tashlanadi. Lekin bu yerda ham ko`pchilik faqat davlatning tashkil topishini tezlashtiruvchi ichki omillarni, ya`ni plebeylar va patritsiylar o`rtasidagi kurashni asosiy va yagona omil

⁴² Mintaqa deganda o`zaro chegaradosh, bir guruh mamlakatlar yoki viloyatlardan iborat katta hudud tushuniladi.

sifatida ko`rsatishga harakat qiladilar, ya'ni yuqoridagi tashqi omillarni e'tibordan chetda qoldiradilar. Bizningcha, har handay davlatning paydo bo`lishida unga ta'sir ko`rsatuvchi ichki va tashqi omillar to`liq hisobga olingandagina masalaning mohiyati mazmunan to`g`ri ochilishi mumkin.

Antik dunyoda davlatchilik tashkil topishi jarayonining xususiyatlarini ko`p jihatdan tabiiy-geografik omillar belgilab bergan. Masalan, Yunoniston tog`li mamlakat hisoblangan, u yerda xuddi Sharqdagi singari birlashib sug`orish ishlari o`tkazishni talab qiladigan unumdor va dehqonchilik uchun qulay yerlar kam bo`lgan. Antik dunyoda Sharq tipidagi jamoa yer egaligining tarqalishi va saqlanishi uchun sharoitlar yo`q edi, ammo Yunonistonda hunarmandchilik, jumladan, metall ishlatish rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yuzaga kelgan. Miloddan avvalgi III ming yilliklarga kelib yunonlar bronzadan, miloddan avvalgi I ming yilliklarda esa temir qurollardan keng foydalanganlar, bu o`z navbatida mehnat samaradorligining oshishiga va yakka tartibdagi mehnatning rivojlanishiga ko`maklashgan. Ayirboshlash va so`ngra savdo munosabatlarining, ayniqsa, dengiz savdosining keng tarqalishi bozor xo`jaligining juda tez tashkil topishiga va xususiy mulkchilikning o`shishiga yordamlashgan. Ijtimoiy farqlar kuchayib borishi keskin sinfiy kurashning asosi bo`lib qolgan. Buning natijasida oddiy davlatlarning ancha rivojlangan davlatlarga aylanishi tez suratlar bilan sodir bo`lgan va boshqa antik dunyo mamlakatlariga qaraganda muhim ijtimoiy oqibatlar keltirib chiqargan.

Tabiiy sharoitlar boshqa jihatdan ham Yunonistonda davlat hokimiyatini tashkil etishga ta'sir o`tkazgan. Yunonlarning ko`pchilik qismi yashagan dengiz qirg`oqlarini kesib o`tgan tog` tizmalari va ko`rfazlari mamlakatning siyosiy birlashtirilishiga to`squinlik qilgan va buning ustiga markaziy boshqaruvni tashkil etib bo`lmaydigan va keraksiz qilib qo`ygan. Shunday qilib, tabiiy to`siqlarning o`zi bu yerda ko`p sonli, uncha katta bo`lmagan va bir-biridan ancha ajralib qolgan shahar-davlatlar - polislarining tashkil topishiga sharoit yaratgan. Polis tizimi nafaqat Yunonistonga, balki butun antik dunyoga xos bo`lgan davlatchilikning muhim va xarakterli belgisi hisoblanadi.

Polisning mehnat taqsimoti ancha rivojlangan bir sharoitda geografik va siyosiy yopiqligi uni hunarmandchilik buyumlarini chetga chiqarishga, don va qullarni chetdan keltirishga, ya'ni umumyunon va xalqaro dengiz savdosiga bog`liq qilib qo`ygan. Dengiz antik polisning (hammadan avval yunonlardagi) hayotida juda katta rol o`ynagan. U polisning tashqi dunyo bilan, boshqa polislar bilan, mustamlakalar bilan, Sharq mamlakatlari va boshqalar bilan aloqasini ta'minlagan. Dengiz va dengiz savdosi barcha

shahar-davlatlarni yagona polis tizimiga bog`laganlar, ochiq umumiyunon va O`rta yer dengizi siyosiy madaniyatini, sivilizatsiyasini tashkil etganlar.

Antik polis o`zining ichki tuzilishi nuqtai nazaridan yopiq davlat bo`lgan. Faqat qullar emas, begona chet elliklar, hatto, boshqa yunon shaharlaridan chiqqan kishilar ham davlatdan tashqarida qolgan. Polis o`z fuqarolari uchun o`ziga xos siyosiy mikrokosmos bo`lib hisoblangan. Uning o`zi uchun muqaddas bo`lgan siyosiy tuzilish shakllari, an`analari, urf-odatları, huquqi va boshqalari bo`lgan. Polis Qadimgi yunonlarda xususiy mulkchilikning ta`sirida yemirilgan yer jamoalari majmuini fuqarolarga va siyosiy jamoaga almashtirgan. Iqtisodiy hayotdagi, siyosiy kurashlar keskinligidagi, tarixiy merosning o`zidagi katta farqlar shahar-davlatlarning ichki tuzilishlari juda xilma-xil bo`lishiga olib kelgan. Lekin, albatta, polis dunyosida turli respublika shakllari - aristokratik, demokratik, oligarxiya, plutokratiya va boshqalar shubhasiz ustunlik qilgan.

Yunon jamiyatning o`zida klassik qullik va antik demokratiyaning gullab-yashnagan davriga qadar siyosiy hayotning rivojlanishida va shahar-davlatlar tuzilishi shakllarining o`zgarishida ba`zi qonuniyatlar mavjudligi ko`zga tashlanadi. Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida, Gomer eposining darak berishicha, yunon dunyosida podshoning harbiy boshliq, sudya, saroy xo`jaligining oliy rahbari va hokazolar sifatidagi hokimiyati kuchayishining umumiy tendensiyasi kuzatiladi. Uning boshqarish shakllarida qadimgi monarxlarga, ayniqsa, Sharqqa xos despotik belgilar namoyon bo`lgan. Xuddi shunga o`xshash holatni bir qancha asrlardan so`ng Rimda podsholar davrida ham ko`rish mumkin.

Yagona podsho (basiley, reks) hokimiyati tayanadigan patriarxal - jamoa aloqalarining buzilishi, katta boyliklarga va ijtimoiy nufuzga ega bo`lgan aristokratik oilalarning o`sishi deyarli barcha antik dunyoda podsho hokimiyatining yo`q qilinishiga olib kelgan. Podsholar qator hollarda qatl etilgan.

Antik dunyoda monarxiyalarning tugatilishi respublika tuzumining g`alabasiga, shuningdek, davlatni tashkil etishning polis tizimini batamom o`rnatilishiga olib kelgan. Biroq ilk respublika davrida bevosita demokratiya elementlarini (xalq majlisi va boshqalarni) nazarda tutuvchi polis tizimiga xos bo`lgan demokratik imkoniyatlar to`la rivojlanmagan. Barcha antik polislarda oddiy xalq siyosiy tajribaga ega bo`lmay va hokimiyat haqidagi o`z tasavvurlarini o`tmishdagi patriarxal diniy qarashlardan olib, hokimiyatning jilovini urug`doshlik, koinlar va mulkdorlar aristokratiyasiga berib qo`ygan edi. Xuddi shunday davlat hokimiyati Afinada Salon islohotlari arafasida, Rimda ilk patriatsiyalar respublikasi davrida va bosh-

qalarda bo`lgan edi. Antik shahar-davlatlarda siyosiy hayotning demokratlashtirilishi o`z qo`lida hokimiyatni ushlab turgan va eski polis tartiblarni saqlab qolishga harakat qilgan aristokratiya bilan o`zini tobora anglab bo`rayotgan xalq (demos) o`rtasidagi kurashning keskinlashuvi birga borgan. Bu kurash (Afinadagi yevpatridlar va demos o`rtasidagi, Rimda patriitsiyalar va plebeylar o`rtasidagi va boshqa kurashlar)ning natijasi aristokratiyaning qudratini sindiruvchi va demokratik institutlar rivojlanishi uchun asos yaratuvchi ko`pgina qonuniy islohotlarning amalga oshirilishi bo`lgan.

Ko`p yunon shahar-davlatlarida demokratik tuzumning batamom o`rnatilishi yagona hukmdor - tiran tomonidan hokimiyatning tortib olinishidan ilgari sodir bo`lgan. Tiranlar, odatda, aristokratlar orasidan chiqqanlar, lekin o`z hokimiyatlaridan eski aristokratlarni va patriarxal tartiblarni sindirish uchun, polis aholisi keng qatlamlarining manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanganlar. Tiraniya deb nom olgan va shaxsiy hokimiyatga asoslangan bunday tartiblar Miletida, Efesda, Korinfda, Afinada, Megarda o`rnatilgan va xususiy mulkchilikning mustahkamlanishiga hamda aristokratlar imtiyozlarining tugatilishiga, ma`lum darajada fuqarolik va siyosiy jamoaning umumiy manfaatlarini aks ettiruvchi demokratiya davlatlarning shakli sifatida o`rnatilishiga ko`maklashgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda bir necha yuz qadimgi yunon polislarida ichida harbiy jihatdan ancha yirik va kuchli ikkita shahar-davlat: Afina va Sparta birinchi o`ringa chiqqan. Afinada xususiy mulkchilik, quldorlik, bozor munosabatlari ancha rivojlanib, antik demokratiya o`zining eng yuqori cho`qqisiga chiqqan bo`lsa, Sparta esa, unga qarama-qarshi o`laroq, tarixga aristokratik harbiy-lager davlati sifatida kirgan. Bu ikki davlat o`rtasida Yunonistonda hukmronlikni qo`lga olish uchun o`ziga xos musobaqa va kurash ketgan. Ushbu ikki polis tipidagi davlatlar o`rtasidagi kurash butun yunon dunyosining uzoqqa cho`zilgan va qonli Peloponnes urushiga olib kelgan. Urush esa o`z navbatida butun polis tizimini zaiflashtirgan va demokratik institutlarning qulashiga sabab bo`lgan. Oqibatda Afina va Sparta Makedoniya monarxiyasining o`ljasi bo`lib qolgan.

Qadimgi yunon davlatchiligining, jumladan, antik demokratiyaning yorqin timsoli bo`lmish Afinaning halokatga uchrashining sababi faqat qulchilik tuzumi bo`lmay, balki davlatning ichki polis tizimi zaifligida edi.

Miloddan avvalgi I asrga kelib Rimda ham polis tizimi tugagan. Chunki bu vaqtda endi polis tizimi - shahar-respublikasi qullar qo`zg`olonini bartaraf eta olmay qolgan va ichki birlikni ta`minlay olmay qolgan edi. Bunday sharoitlarda shahar-davlatni boshqarishga mo`ljallangan respublika tuzumining saqlanib qolishi o`z zamonasiga to`g`ri kelmas edi.

Respublika o`rniga miloddan avvalgi I asrda yirik davlatchilikka asoslangan imperiya kelgan. Lekin polis tizimining Rim respublikasining uzoq davom etgan tarixiga ta`siri keyingi vaqtlarda ham sezilib turdi. Dastlabki asrlarda (prinsipat davrida) markazlashgan byurokratik monarxiya tashkil etishga harakat qilgan imperatorlar uzoq vaqtgacha respublika polis institutlaridan qutula olmaganlar.

Kechki Rim imperatorlari hokimiyatining mustahkamlanishi va xristianlikning qabul qilinishi natijasida polis tartiblari batamom tugatilgan.

2. Antik dunyo davlatlarida huquqning umumiy va o`ziga xos xususiyatlari

Huquq antik davrda fuqarolik jamiyatini va uning madaniyati elementlarini mustahkamlovchi omillardan biri sifatida birdaniga kamolotga va takomilga erishmadi. Huquq o`z rivojlanishining ilk bosqichlarida yuridik texnikasi va asosiy institutlarining ishlab chiqilishi darajasi bo`yicha Sharq mamlakatlari huquqiy tizimiga o`xshash bo`lgan. Antik Yunonistonda va Rimda huquqning rivojlanishi alohida polislar doirasida amalga oshirilgan va alohida shahar-davlatlarda demokratik institutlarning rivojlanish darajasi huquqda o`z aksini topgan Polis tizimining o`rnatilishi huquq ijodkorlik faoliyatining va uning asta-sekin diniy-mifologik niqoblardan xalos bo`lishi natijasi bo`lgan. Yozilmagan odatlar o`rniga yozma qonunchilik kelgan. Huquq, shunday qilib, antik dunyoda polis hayotini tartibga soladigan nufuzli va majburiy me`yorlar majmuiga aylangan.

Urf-odatlarini emas, balki qonunlarni huquq ijodkorligining asosiy shakli sifatida e`tirof etilishi (Yunonistonda) yoki ularni huquqning muhim manbalaridan biri sifatida o`rnatilishi (Rimda) odat huquqini kodifikatsiya qilish yo`li bilan amalga oshirilgan. Yunon an`analariga asosan huquqning bunday qadimiy kodifikatsiyalari Zalevka tomonidan Loqada (Italiya), shuningdek, Xaronda tomonidan Katon (Sitsiliya)da o`tkazilgan edi. Shunga o`xshash huquq to`plamlari boshqa yunon shahar-davlatlarida ham, jumladan, Afinada miloddan avvalgi VII asrning oxirida (Drakont qonunlari) tuzilgan.

Afinada xalq majlislari tomonidan yangi demokratik qonunlarning qabul qilinishi tartibi miloddan avvalgi VI asrda Salon va Klisfen islohotlari bilan joriy qilingan. Rimda esa an`anaviy huquqiy odatlar qayta ishlanib, XII jadval qonunlarida yozib qo`yilgan. Bu qonunlarda, shuningdek, xalq majlislarining qarorlari qonun hisoblanadi, degan qoida nazarda tutilgan.

Salon aytganidek, jamiyat hayoti umum roziligi asosida qabul qilin-

gan huquq va qonunlar bilan tartibga solinishi lozim. Yunon shahar-davlatlarida fuqarolar bolalik chog`idan boshlab qonunlarga va polisda o`rnatilgan tartiblarga bo`ysunish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalanganlar. Suqrot ta`qidlaganidek, polis qonunlari aql-idrokka borib taqaladi. Suqrot qonunlar hamma afinaliklar tomonidan so`zsiz bajarilishi lozimligini targ`ib qilgan.

Afinada, garchi qonun chiqarishning demokratik tizimi o`rnatilgan, huquq fuqarolar ko`z o`ngida akl-idrok va haqiqat bilan birga qo`shilgan, o`ziga xos huquqiy davlat tashkil etilgan bo`lsada, bu qullar va chet elliklar uchun emas edi. Huquqqa sig`inish va qonunlarni hurmat qilish yanada ko`proq darajada rim jamiyatida vujudga kelgan. Respublika qonunlariga so`zsiz amal qilish rimliklar uchun faqat yuridik majburiyat emas, balki sharaflı ish hisoblangan. Rim respublikasining o`z huquqi va qonunlari bilan bog`liqligi mashhur rim yuristi Sitseron tomonidan Ham ta`qidlangan edi. Sitseronning ko`rsatishicha, davlat uning barcha a`zolarining umumiy manfaatlarini ifoda etuvchisigina emas, balki huquq masalalarida o`zaro kelishuv bilan bog`langan ko`p kishilarning birlashmasi hamdir. Shunday qilib, huquqiy davlat g`oyasi Rim respublikasidan ham boshlangan.

Shu narsa tasodif emaski, Rim jamiyatida qadimdan qonunlar muqaddas sanalgan, qadimgi dunyo uchun ancha takomillashgan huquqiy tizim ishlab chiqilgan. Bu huquqiy tizim yaxlit va keng qamrovli xarakter kasb etgan. Rim huquqi tarixda birinchi marta huquqiy bilimlarni aniq tizimga solingan, juda puxta ishlab chiqilgan namunasi sifatida maydonga chiqqan. Klassik rim huquqi - antik va butun qadimgi dunyo huquqi tarixidagi eng yuksak cho`qqidir. Antik dunyoning eng buyuk yutuqlaridan biri - rim xususiy huquqidir.

Rimda mansabdor shaxslarning va avvalo pretorlarning, shuningdek taniqli "klassik yuristlarning" kuchi bilan xususiy mulkchilikka asoslangan oddiy tovar-pul munosabatlarini yuridik tartibga solishning eng maqbul tartibni o`rnatuvchi huquqiy tizim yaratilgan. Uzoq davom etgan rivojlanish davomida erishilgan huquqning takomillashgan shakllari va mazmuni, mantiqiy asoslanganligi, qat`iy va aniq bayon qilinganligi uni keyingi davrlarda retsepsiya qilinishiga (andoza qilib olinishiga) sabab bo`lgan.

Rim huquqini ba`zi istisnolar bilangina quldorlik huquqi deyish mumkin, chunki u butun antik dunyoda klassik qullik juda rivojlangan bir sharoitda paydo bo`lgan. Shu bois mazkur tarixiy sharoitlar huquqda o`z ifodasini topmasdan iloji yo`q edi. Lekin, shubhasiz, rim huquqining asosiy mazmunini quldorlik emas, balki uning nozik yuridik texnikasi oldindan belgilab bergan.

Rim davlati tarixining ilk bosqichlarida ham jamiyatda patriarxal turmushning ko'pgina elementlari saqlanib qolgan bir sharoitda, tovar-pul munosabatlari uncha rivojlanmagan bir paytda, rim huquqi an'anaviyligi, ras-iyatchiligi va iqtisod oborotini to'xtatib turgan murakkab odatlari bilan ajralib turgan. Rimning shahar-respublikasidan asta-sekin yirik sivilizatsiyaga aylanishi faqat qulchilikning o'sishi natijasi emas, balki tovar ishlab chiqarishning, oqibatda, butun qadimgi dunyo tarixida eng murakkab bo'lgan bozor xo'jaligining tashkil topishi natijasi bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ana shunday murakkab va muhim tomonlarini endi qadimgi eski huquqiy tizim bilan tartibga solib bo'lmaz edi.

Xususiy mulkchilikning kuchi va unga asoslangan tovar oboroti eskirgan va qiyinchilik tug'dirayotgan huquqiy shakllarni sindirib tashladi. Ularning o'rniga yangi va texnik-yuridik jihatdan takomillashgan, nozik bozor munosabatlarini tartibga solishga, rivojlangan fuqarolar jamiyatining boshqa ehtiyojlarini qondirishga qodir huquq yaratilgan. Aynan shunday ko'rinishda rim huquqi turli tarixiy sharoitlarda qo'llanadigan universal huquqiy tizim bo'lib qolgan. Rim huquqi bilan birga sivilizatsiya tarixiga ulkan madaniy qimmatga ega bo'lgan rim yurisprudensiyasi ham kirgan. Rim yurisprudensiyasi asosida yuridik kasb tug'ilgan, unga mos ravishda esa maxsus huquqiy ta'limga asos solingan.

QADIMGI YUNONISTONDA DAVLAT VA HUQUQ

1. Qadimgi Yunoniston tarixiga umumiy tavsif

Qadimgi Yunoniston tarixi qadimgi Sharq mamlakatlari tarixi bilan bir vaqtda va u bilan o`zaro aloqador holda rivojlandi. Eng so`nggi arxeologik ma`lumotlarga qaraganda miloddan avvalgi III ming yillik-dayoq Bolqon yarim orolining janubida va uning yaqin tevarak- atrofidagi orollarda ibtidoiy-jamoa munosabatlari buzila boshlaganligi ko`rinadi. Ayrim joylarda dastlabki sinfiy jamiyat o`choqlari vujudga kelib, rivojlana boshlagan. Sinflarning tuzilish jarayonlari Krit, Lemnos orollarida boshqa hududdan ilgariroq yuz bergan, qitada esa bu jarayonlar birmuncha keyinroq sodir bo`lgan. Bu jarayonlar qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga ko`chishlari va o`zaro urushlar bilan birga borganki, bu haqda keyinroq yuzaga kelgan qadimgi yunon afsonalarida xotiralar saqlanib qolgan.

Yunonistonning jo`g`rofiy mavqei qulay bo`lgani holda yerining nisbatan kam unumligi, bir tomondan, mahalliy aholini qishloq xo`jaligida nihoyatda zo`r berib ishlashga, ikkinchi tomondan esa qo`shnilar bilan xalqaro aloqalarni, mol ayirboshlashni rivojlantirishga majbur etgan. Bu hol hunarmandchilikning rivojini tezlashtirgan.

Eng qadimgi Yunonistonda antik mulk shaklining paydo bo`lishi uchun dastlabki zarur shartlar ana shulardan iborat bo`lib, bu mulkiy shakl "tarixiy jarayonida dastlabki qabilalarning ko`proq serharakat hayoti, taqdiri va o`zgarishlarining" natijasi edi.

Shunday jamoalarning sinfiy tabaqalanishi jarayonida shahar-davlatlar (polislar) paydo bo`lgan va bunday shahar-davlatlarning mavjud bo`lishi qadimgi yunon quldorlik jamiyati uchun xarakterlidir. Urushlar, qulfurushlardan qullar sotib olish va kambag`allashib qolgan o`z qabiladoshlarini qarzlar evaziga qul qilib ishlatish -polislardagi qullik manbai edi. Antik qullik dastavval Yunonistonda keng tarqalgan, so`ngra qo`shni hududlarga yoyilgan.

Qadimgi Yunoniston tarixi quyidagicha besh davrga bo`lib o`rganiladi:

1) egey yoki Krit-miken davri (miloddan avvalgi III-II minginchi yillar), bu davr - urug`doshlik tuzumining yemirilishi, ayrim rayonlarda ilk sinfiy quldorlik davlatlarining paydo bo`lishi va rivojlanishi davri bo`lib, u doriylarning ko`chib kelishi natijasida tamom bo`ladi;

2) miloddan avvalgi XI-IX asrlardagi Yunoniston (Gomer davri) - bu davr doriylarning istilolaridan keyin ibtidoiy jamoa munosabatlarining

vaqtinchalik qaytadan bunyodga kelishi hamda undan keyin antik mulkchilik shakli asosida sinfiy munosabatlarning umumiyunon rivojlanishi davridir;

3) arxaik davr (miloddan avvalgi VIII-VII asrlar) - bu davrda polislar shaklidagi sinfiy jamiyat va davlatning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetgan;

4) klassik davr (miloddan avvalgi V-IV asrlar) - antik polislarda quldorlik munosabatlarining eng yuqori darajada rivoj topishi;

5) ellinizm davri (miloddan avvalgi IV asrning II yarmi - I asrning o'rtalari), bu davr - Eron davlatining yunon-makedon istilosiga uchraganidan keyin Yaqin Sharqning keng. yerlarida quldorlik jamiyatining yanada rivojlanishidan iboratdir. Bu davr ellinizm dunyosining g'arbiy qismi Rim tomonidan, Sharqiy qismi esa (Frotga qadar) Parfiya tomonidan zabt etilishi bilan tamomlanadi.

Qadimgi Yunonistonda davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari kabi muammolarni o'rganishda yuqoridagi har bir davrga to'xtab o'tish muhim ahamiyatga ega.

2. Yunonistondagi qadimgi davlatlar

Qadimgi Yunoniston - Bolqon yarim oroli, Egey va O'rta yer dengizlaridagi bir qancha orollarni o'z ichiga olgan mamlakat. U tabiiy jihatdan uch qismga: Shimoliy Yunoniston, O'rta Yunoniston va Janubiy Yunonistonga bo'linadi. Janubiy Yunoniston Peloponnes ham deyilgan. Yunoniston maydonining uchdan ikki qismi tog'lardan iborat. Tog'lardan katta-kichik daryolar oqib chiqadi. Eng yirik daryolari Vardar va Marit-sadir. Bolqon yarim orolining Sharqida Egey, Mirtoy, janubida Krit, g'arbida Ioniya dengizlari joylashgan. Yunonistonda oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, temir kabi qazilma boyliklar ham ko'p. Bu holat metallurgiya va binokorlikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Tog'lar orasidagi kichik-kichik tekisliklar tuprog'i unumdor bo'lib, dehqonchilik va bog'dorchilik uchun juda qulaydir.

Ma'lumotlarga qaraganda Bolqon yarim oroli va Yunonistonda juda qadim zamonlardan, xususan qadimgi tosh asridan boshlab odamlar yashab keladilar. Pelasg, Krit, ioniy, eoliya va axayya qabilalari uning eng qadimgi aholisi bo'lgan. Miloddan avvalgi XII asrda yunon doriy qabilalarning shimoldan Bolqon yarim orolining janubiga ko'chishi boshlangan.

Krit - O'rta yer dengizidagi katta orollardan biri. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Kritda xo'jalik rivojlanib, mulkiy tengsizlik, tabaqalanish sodir bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida dastlabki qabila

ittifoqlari paydo bo`lgan. Ularga qabila sardorlari va oqsoqollaridan saylangan kishilar rahbarlik qilishgan. Knoss, Maliya va Fest aholi markazlari mazkur ittifoqlarning eng yirigi bo`lgan. Keyinchalik bu aholi markazlari birlashib, dastlabki davlatlarga asos solingan. Knoss shohi Minos butun Kritda hukmronlikni o`z qo`liga olib, kuchli dengiz davlati tuzgan. Krit miloddan avvalgi XVIII-XV asrlarda O`rta yer dengizi havzasidagi eng kuchli davlat bo`lib oladi.

Kritda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan, saroy xo`jaligi taraqqiy qilgan. Yerlar qisman jamoaga tegishli bo`lib, qisman yakka tartibda ijaraga berilgan va xususiy mulk bo`lgan. "Odyssey"da saqlanib qolgan xotiralarga ko`ra, Krit hukmdori Minos faqat podsho bo`lib qolmay, shu bilan birga kohin va umuman xudo nazar qilgan shaxs hisoblangan. Har o`n yilda u bosh ma`bud bilan diniy muloqotda bo`lgan va undan yana o`n yil podsholik qilishga fотиha olgan. Demak, podsho diniy martabaga ega bo`lgan. Boshqa afsonalarda aytilishicha, Minos sudya bo`lgan. Bu, aftidan, ilk sinfiy davlat tashkil topayotgan davrda Krit hukmdorlarning qonun chiqaruvchilik faoliyatini ko`rsatsa kerak.

Krit hokimiyati ostida bo`lgan dengizning narigi tomonidagi yerlarni mahalliy hokimlar idora etib, Kritga xiroj to`lab turganlar.

Bolqon yarim orolining janubida, Egey dengizi orollarida va Kichik Osiyoning g`arbiy sohilida yashagan axayyaliklar miloddan avvalgi XV asrda Kritdagi ilk quldorlik davlatini zabt etganlar.

Kritda bo`lgani singari Bolqon yarim orolining janubida ham sinfiy tuzilishlar jarayonlari yuz bera boshlagan. Sohilga yaqin joylarda bu sinfiy tuzilish jarayonlari juda jadallik bilan borgan. Ichkariroqdagi joylarda ibtidoiy-jamoa munosabatlari uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Peloponnesda Miken, Tirinf, Pilos, O`rta Yunonistonda Orxomen, Fiva va Afina, Fesaliyada Iolk va boshqalar ilk sinfiy jamiyatning kattaroq markazlari bo`lgan. Bu joylarning hammasida qalin devorlar bilan o`ralgan saroylar saqlanib qolgan. Saroylar yonida mol-mulki turli darajadagi mahalliy aholining turar joylari, bulardan tashqari, yana bir qancha qishloqlar ham bo`lgan. Kritdagi singari, materik (quruqlik) Yunonistonda yashovchi aholi ham dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullangan. Ko`pdan-ko`p kasb-korlar ham yuqori darajada takomillashgan. Bu jarayonlarning hammasi miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmidayoq qayd etilgan.

O`sha mahalda paydo bo`lgan **Miken** tez orada o`z davrining kattagina ilk quldorlik davlati bo`lib qolgan edi. Arxeologik tekshiruvlar

natijasida Miken istehkomidan va undan tashqarida bir necha o`n podsholik maqbaralari topilganligi fikrimizga guvohlik beradi.

Janubiy Yunonistondagi ilk quldorlik davlatlaridan bo`lgan Miken podsholigi Peloponnesning shimoli-Sharqiy chekkasida joylashgan edi. Unga miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida asos solingan. Miken podsholigi Miloddan avvalgi XV-XVIII asrlarda gullab-yashnagan. Bu davrda uning xo`jaligi ancha ravnaq topib, qishloq xo`jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo taraqqiy etgan. Mikenda dengiz kemasozligi ham rivojlangan.

Davlat tepasida podsho turgan. Podsho saroyi juda xashamatli bo`lganligi uning hokimiyati ancha kuchli bo`lganligini tasdiqlaydi.

Peloponnesdagi yana bir ilk qadimiy davlat Janubiy Yunonistonning katta qismini egallagan **Pilos podsholigi** bo`lgan. Pilos podsholigi quldorlik davlati bo`lib, yer podsho, ayrim kishilar va "xalqqa" qarashli edi. Yersiz oddiy kishilar ekin yerlarni ijaraga olib ishlaganlar. "Xalq" turlicha yer uchastkalarini xizmat uchun mukofot qilib bergan. Yer uchastkasining hajmi yer oladigan shaxsning mansab-martabasiga qarab belgilangan. "Xalq" yeri, ehtimolki, jamoa yeri bo`lib, asta-sekin davlat qaramog`iga o`tib borgan bo`lsa kerak. Aftidan, bu yerlarni bo`lib berish xalq yig`inining, "xalq"ning qarori bilan amalga oshirilgan. Lekin "xalq"dan olinadigan yer maydonining aniq hajmlari belgilab qo`yilgan edi. Pilos davlatining hukmdori - vanaka - 1800 don o`lchovi miqdorida, uning yordamchisi, qo`shinlar qo`mondoni - ravaketa - 600 don o`lchovi miqdorida, boshqa mansabdor shaxslar o`z mavqelariga qarab, kamroq yer uchastkalari olgan. Ular orasida kohinlar va kohinalar ko`zga ko`rinarli mavqeni egallaganlar. Oddiy erkin kishilar "xalq"dan ham, xususiy mulkdorlardan ham ozgina yer uchastkalarini ijaraga olganlar. Shunday qilib, Pilos davlatida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning murakkab, hali yetarlicha tadqiq qilinmagan tizimi bo`lganki, unda endigina yuzaga kelayotgan xususiy mulk so`nib borayotgan jamoa an'anasi sharoitida paydo bo`lgan, birga yashagan va rivojlangan. Pilos saroyida yashagan va g`oyat katta yer uchastkasiga ega bo`lgan vanaka ham bu yerni rasman "xalq"dan olgan. Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning birinchi yarmida Pilos davlati ravnaq topadi. U yerda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandlik va savdo taraqqiy etgan. Davlat va xo`jalikning barcha sohalarida qullar va cho`rilar xizmatidan foydalanilgan.

Pilosning quruqlikdagi qo`shini va floti bo`lgan. Davlat viloyatlarga bo`lingan, viloyatlarni, Kritdagi singari, vanakaga (hukmdorga) qaram bo`lgan pasirevelar (noiblar) idora qilganlar. Aftidan Axayyaning boshqa

davlatlarida ham shunga o`xshash shart-sharoitlar bo`lgan bo`lsa kerak.

Miloddan avvalgi XIII-XII asrlarda doriy qabilalari Bolqon yarim orolining shimolidagi yerlardan janub tomon siljib, O`rta va Janubiy Yunonistonga bostirib kirganlar. Doriy qo`shinlari Miken, Tirinf, Pilos, Krit davlatlarini tor-mor etganlar. Doriylar istilosi natijasida bu yerdagi aholi yana qaytadan ibtidoiy munosabatlar girdobiga tashlangan. Axayya davlatlarining hukmdorlariga qaram bo`lgan viloyatlarning hokimlari (pasirevelar) endi mustaqil patriarxal qabilalarning boshliqlari- basileylar bo`lib qolgan. Axayya davlatlarida mavjud bo`lgan xalq yig`inlari endi katta ahamiyat kasb eta boshlagan. Yunoniston tarixida yangi davr - Gomer davri boshlangan.

3. Gomer va arxaik davrlarda Yunoniston

Qadimgi Yunoniston tarixining mazkur davri an`anaga ko`ra Gomer davri deb yuritiladi. Chunki bu davrni o`rganishda afsonaviy ko`r baxshi Gomerning "Iliada" va "Odyssey" dostonlari muhim manba hisoblanadi. Gomer dostonlarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II va I ming yilliklar sarhadida **yer jamoasi** mavjud bo`lib, undan tenglik asosida foydalanilgan va yer doimo qayta-qayta bo`linib turgan. Jamoa a`zolari yer uchastkalarini chek tashlab olganlar. Yer uchastkasining "kler" deb atalishining o`zi ham shuni ko`rsatib turibdi: "kler" so`zining aynan tarjimasi "chek" demakdir. Biroq jamoa a`zolari orasida mulkiy tabaqalanish boshlangan bo`lib, urug` aristokratiyasi ajralib chiqmoqda edi, bu aristokratiyaning kattaroqlari, ya`ni qabila boshliqlari "**basileylar**" deb atalar edi. Basileylar o`z qarindoshlariga jamoa yerlaridan katta-katta kesik uchastkalar - "**temenlar**" ajratib bera boshlaganlar.

Bu vaqtda boy xo`jayinlarga batrak bo`lib ishlaydigan kambag`allar - **fetlar** va hatto o`z urug`doshlik jamoasi bilan aloqasini yo`qotgan kishilar - zo`r-bazo`r kun ko`rishga va tilamchilik qilishga majbur bo`lgan **motanastlar** paydo bo`lgan. Hali o`tmishdagi ko`chishlar va istilolardanoq qaqshab qolgan jamoa asta-sekin parchalanib ketgan. Dostonlarning mazmuniga qaraganda, bu davrda o`z jamoalari bilan aloqasini yo`qotgan ko`pgina darbadar **hunarmandlar** bo`lgan. Ular natural haq evaziga yo`llab ishlatilgan. Shuni aytish kerakki, Gomer davrida xo`jalik asosan natural xarakterda edi.

Gomer jamiyatida **patriarxal qullik** mavjud bo`lib, u basileylarning xo`jaliklarida joriy etilgan. Qullar asosan harbiy asirlardan to`plangan, bundan tashqari qul sotish va sotib olish hollari ham bo`lgan. Erkak qullarni cho`pon va bog`bon qul cho`rilarni esa uy-ro`zg`or ishlarida oqsoch,

yarg'ichoqda un tortuvchi, mato to'quvchi sifatida ishlatganlar. Har qanday itoatsizlik uchun qul yoki cho'rini xo'jayin qattiq qiynab o'ldirishi mumkin edi.

Gomer davri - **harbiy demokratiya** davridir. Bu vaqtda hali davlat bo'lmagan, jamiyatni boshqarish quyidagi organlar yordamida amalga oshirilgan.

Hokimiyatning doimiy harakatdagi organi **oqsoqollar kengashi - bule** bo'lgan. Ammo bu organ qariyalar kengashi emas, balki urug' zodagonlarining ancha taniqli vakillari kengashi edi. Bu vaqtda hali ibtidoiy demokratiya saqlanib qolgan va ijtimoiy hayotda **xalq yig'inlari** muhim rol o'ynagan. Lekin vaqt o'tishi bilan, mulkiy tabaqalanish, asosiy aholi ommasining birlashuvi, urug' aristokratiyasining boyishi, kambag'allarning boy qo'shnilariga iqtisodiy qaramligi tobora oshib, patriarxat davridayoq paydo bo'lgan qullik rivojlana borgan sari, xalq yig'inlarining roli kamayib boradi.

Qabilalararo urushlarning tez-tez bo'lib turishi natijasida turli qabilalar aholisi aralash-quralash bo'lib ketar edi. Shu sababli qabila boshliqlari - **filobasileyar** ("fila" - "qabila" demakdir) qabilani idora qilishdan ko'ra ko'proq ayni qabila hududida yashovchi aholini idora qiladigan bo'lganlar. Bu hududni basiley qo'mondonligidagi erkak jangchilar qo'riqlar edi. Basiley garchi qabila boshlig'i degan unvonini saqlab qolgan bo'lsada, haqiqatda harbiy lashkarboshi edi. Urug' va qabila xalq yig'inlari asta-sekin mazkur jangchilar hal qiluvchi rol o'ynaydigan yig'inlarga aylangan.

Basileylik mansabi saylangan, lekin asta-sekin muayyan bir aristokratlik urug'ida nasldan-naslga meros bo'lib o'tadigan mansabga aylana borgan. Basiley bir vaqtning o'zida qabilaning harbiy boshlig'i, oliy sudyasi va oliy kohini bo'lgan. Amalda u urug' zodagonlari vakillari bilan birga hokimiyatni amalga oshirgan. Oqsoqollar kengashi bu vaqtlarda basiley huzuridagi maslahat organi hisoblangan. Basiley va oqsoqollar kengashi o'z qarorlarini aksariyati jangchilardan iborat xalq yig'inining muhokamasiga va tasdig'iga havola qilardilar.

Shunday qilib, Gomer Yunonistoni juda ko'p mayda o'zini-o'zi boshqaradigan viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Keyinchalik, aynan ushbu hududiy mayda viloyatlardan birinchi shahar-davlatlar - pe lar tashkil topgan. Zero, miloddan avvalgi XI-XVIII asrlarda yunonlar du yosida Afina, Sparta, Korinf, Megara, Agros, Fiva, Siklon va boshqa juda ko'p kichik-kichik shahar-davlatlar bor edi. Bu davr Qadimgi Yunonistonning tarixiy rivojlanishida chuqur o'zgarishlar bilan tavsiflanadi.

Miloddan avvalgi VIII-II asrlarda Yunonistonning ijtimoiy taraqqi-

yoti Gomer davri oxirlaridan boshlab hamma joyda yuz bergan ilk sinfii jamiyatning qaror topishi jarayonning davomidir. Bu davr an'anaga ko'ra ko'pincha ar-xaik, ya'ni dastlabki davr deb ataladi, chunki xuddi shu vaqtda quldorlik jamiyatining shakllanishi birinchi marta eng sof va eng aniq ifodalangan variantida yuz bermoqda ediki, bu davr fanda antik davr degan nom olgan.

Doriylar istilosi natijasida yuz bergan uzilishdan so'ng Yunonistonda yangidan kichik-kichik quldorlik davlatlari paydo bo'la boshlagan. Bu davlat tuzilishlari istehkom bilan o'rab olingan manzillardan iborat bo'lib, ularda dehqonlarning va ayni vaqtda quldorlarning jamoalari yashab, ular birgalikda o'zlarining umumiy manfaatlarini: istehkom bilan o'rab olingan manzil yonidagi yer uchastkalarini va boshqa mol-mulklarini himoya qilganlar. Bu davlat tuzilishlari yunonlarda polislar, ya'ni shahar-davlatlar deb. nom olgan. Natural xo'jalik katta davlat birlashmalari tuzish uchun shart-sharoit tug'dirmagan.

Bu vaqtda ko'p oddiy dehqonlar o'zlarining chek yerlaridan mahrum bo'lgan, bunday yerlar urug' zodagonlari qo'lida to'plangan. Yirik yer egaligi tashkil topgan. Qarz badaliga qullikka tushish paydo bo'lgan va keng tarqalgan. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi va savdning o'sishi jamiyatning ijtimoiy va mulkiy tabaqalashuvini tezlashtirgan.

O'z a'zolari o'rtasida qon-qarindoshlik aloqalarini saqlab qolgan qadimgi jamoa yangi sharoit talabiga javob bera olmay qolgan. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Yunonistonning hamma yerida ilgarigi alohida mayda, bir-biriga yaqin joylashgan jamoalarning qo'shilib ketishi (sinoykizm) sodir bo'lgan. Urug'lar birlashmalarining qadimgi shakllari - filalar va fratriyalar ham bu birlashmalarda o'z ahamiyatlarini birmuncha saqlab qolganlar. Biroq ular tez orada o'z o'rnini yangi, mulkiy va hududiy belgilarga asoslangan bo'linishlarga bo'shatib bergan. Shu tariqa urug'doshlik va qishloq jamoalari asosida yangi ijtimoiy-siyosiy birliklar - polislar vujudga kelgan. Polis shaklidagi ilk quldorlik jamiyati va davlatning tashkil topishi Qadimgi Yunonistonning arxaik davrdagi tarixiy rivojlanishining mazmunini tashkil etadi.

Qadimgi Yunoniston tarixida quyidagi ikkita polis: Afina va Sparta muhim rol o'ynagan. Afina - quldorlik demokratiyasining, Sparta esa - quldorlik aristokratiyasining namunasi edi. Afina Yunonistonning eng rivojlangan davlati bo'lsa, Sparta o'zida ibtidoiy jamoa tuzumi qoldiqlarini saqlab qolgan qoloq davlatlardan hisoblangan.

4. Qadimgi Afina davlatining tashkil topishi

O`rta Yunonistonning Egey dengizi sohilidagi toshloq yarim orol - Attikadagi polislar ichida Afina yetakchi o`rin tutgan. Afina davlati tarixi asosan quyidagi davrlarni o`z ichiga oladi: 1) Afina davlatining tashkil topishi (Miloddan avvalgi VII-VI asrlar); 2) Afina davlatining rivojlangan davri (miloddan avvalgi V-IV asrlar); 3) Afina davlatining inqirozi va yemirilishi (miloddan avvalgi IV asrning oxiri - III asrlar).

Afinada davlat birdaniga tashkil topmadi, bu yerda davlat jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi natijasida paydo bo`ladi.

Miloddan avvalgi VIII asrlarda Afinada hali urug`doshlik tuzumi hukmronlik qilar edi. Bu yerda miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida to`rtta qabila o`rnashgan bo`lib, ularning har birida xalq yig`ini, oqsoqollar kengashi va saylab qo`yiladigan sardori - basileyi bo`lgan. Ishlab chiqaruvchi xo`jalikka va yakka tartibdagi mehnatga o`tish jamoa yerlarining mayda uchastkalarga bo`linishiga, mulkiy tafovutning rivojlanishiga va asta-sekin urug`ning yuqori qismining ajralib chiqishiga va ko`p erkin jamoachilarning qashshoqlashuviga, ularning ko`pchiligini fetlarga - batraklarga aylanishiga yoki qarz badaliga qullikka tushishiga olib kelgan. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi yuqoridagi jarayonlarni yanada tezlashtirgan. Boy oilalar qo`lida dastlabki qullar paydo bo`lgan. Bu vaqtda asosan harbiy asirlar qullarga aylantirilgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning oxiriga kelib qulchilik keng tarqalgan hodisa bo`lib qolgan edi. Lekin qul mehnatini ekspluatatsiya qilish hali ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini tashkil etmagandi. Qullar asosan uy xo`jaligida, hunarmandchilikda, kamdan-kam hollarda dala ishlarida band bo`lganlar, og`ir ishlarni bajarsalarda, ular bilan birga xo`jayinlari ham ishlar edilar. Vaqt o`tishi bilan qul egalari ishlab chiqarishda qatnashmaydigan bo`lganlar. Hokimiyatning urug`-qabila tashkilotlari endi faqat barcha qabila a`zolarining emas, balki boyib borayotgan yuqori qismining manfaatlarini ta`minlashga, qullarni ekspluatatsiya qilishga moslashib borganlar. Xalq majlislarida taniqli urug`larning ta`siri o`sgan, ularning vakillaridan oqsoqollar kengashi tuzilgan va basileylar saylangan. Ibtidoiy jamiyat ko`pincha harbiy demokratiya deb ataluvchi siyosiy jamiyatga aylangan. Lekin u ham jamiyatda shakllanayotgan qullar va erkin kishilar o`rtasidagi, oddiy jamoachilar va urug`-qabila yuqori doiralari o`rtasidagi rivojlanayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf eta olmagan. Harbiy demokratiyaning saqlanib qolishida tashqi omillar ham muhim rol o`ynagan.

Atrof muhitni o`rab turgan tabiiy sharoitlarga xo`jalik yuritishning

moslashtirilishini talab qiladigan jug`rofiy sharoitlar, ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tish munosabati bilan yanada kuchayib borayotgan mahalliy tabiiy resurslarning tugab borishi, ayirboshlash va u bilan bog`liq qabilalararo aloqalarning rivojlanishi, qon-qarindoshlik aloqalarining kuchsizlanishi va urug`lar hamda qabilalarning assimillatsiyasi oqibatida vujudga kelgan va qabilalar doirasidan chetga chiqqan nizolarni bartaraf etish va tartibga solish zaruriyati - bularning hammasi Attika qabilalarining yagona hokimiyat ostida birlashtirilishi uchun shart-sharoitlar bo`lib qolgan edi.

Krit-miken va Gomer davrlariga borib taqaladigan rivoyatlar ham bizga ko`pdan-ko`p urushlar bo`lganligini va bu urushlar davomida Afina atrofida Attikada yashovchi ion qabilalarining asta-sekin birlashuvi (yunoncha-"sinoyikizm") yuzaga kelganligini xabar qiladilar. Afsonalarga ko`ra, miloddan avvalgi II ming yillikdayoq **sinoyikizmni** (birlashuvni) **Tesey** amalga oshirgan. Tesey ana shu qabilalarni yagona afina xalqi qilib birlashtirgan. Buning oqibatida markaziy boshqaruv ishlarini tashkil etish zaruriyati kelib chiqqan. Sinoyikizm natijasida Afinada barcha to`rtta qabila ishlarini boshqaradigan Kengash tuzilgan, bu bilan eski urug`-qabila tashkilotiga birinchi zarba berilgan.

Afina polisi jamiyat siyosiy tashkilotining hududiy shakli bo`lib qolgan.

Jamiyatning hududiy tashkil etilishi ijtimoiy ishlarni bir xil (qabilaviy farqlardan qat`i nazar) va demak, markazlashtirilgan boshqaruvni tashkil etishni va tobora rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlarni ancha faol tartibga solishni qattiq talab qilgan. Ilgarigi ancha yaxlit urug`-qabila jamiyati qiyin ahvolga tushib qolgan. Hali urug`lararo va qabilalararo jazolar saqlanib qolgan. Biroq Attikada mulkiy darajalanish kuchayishi munosabati bilan endi yangi keskin nizolar kelib chiqqan. Bu nizolar erkin afinaliklar va turli guruhdagi to`la huquqqa ega bo`lmagan va qaram kishilar (fetlar, chet elliklar, qullar va boshqalar) o`rtasidagi tobora chuqurlashib borayotgan qarama-qarshiliklarda o`z ifodasini topgan va hokimiyatning yangi mexanizmlarini shakllantirish uchun zamin hozirlagan. Shu tariqa bir tomondan, murosaga keltirish va yarashtirish vositasi bo`lgan, ikkinchi tomondan, bo`ysundirish va asoratga solish kuchi bo`lgan va jamiyat ustida turadigan siyosiy (davlat) hokimiyatga zaruriyat tug`ilgan. Bunday hokimiyatning kelib chiqishi erkin kishilarni nafaqat ijtimoiy tengsizligini, balki siyosiy tengsizligini mustahkamlashga qaratilgan va ularni qaysi qabila yoki fratriyaga tegishliligidan qat`i nazar, quyidagi uch toifaga.: 1) **yevpatridlar** - nasl-nasabi olijanob bo`lgan aristokratlar, aslzodalar; 2) **geomorlar** - dehqonlar; 3) **demiurglar** - hunarmandlarga bo`linishini bel-

gilab bergan Tesey islohotlari bilan boshlanadi. Bu toifaviy bo`linishda mehnat taqsimoti va qadimgi jamoaning parchalanishi jarayonlari aks etirilgan edi.

Jamoda mansablarni egallash huquqi faqat urug`-qabilaning yuqori qismi bo`lgan yevpatridlarga o`tkazilgai. Bu esa ommaviy hokimiyatni aholidan yanada ajralib borishiga olib kelgan. Erkin kishilarning ko`p qismini tashkil etgan geomorlar va demiurglar savdogarlar va kambag`allar bilan birga asta-sekin jamoa ishlarini boshqarishdan chetlatib borilgan. Ularda faqat bu vaqtda ahamiyati juda pasayib ketgan xalq yig`inida ishtirok etish huquqi saqlanib qolgan edi. Ular xonavayron bo`lib, qarzga botib, yerlarni qarz badaliga garovga qo`yishga majbur bo`lganlar. Yerlarni garovga qo`yish bilan birga qarzdorlik asorati ham kelib chiqqan. Bunga ko`ra, qarzini to`lay olmagan qarzdorlar chet elga qul qilib sotilishi mumkin edi.

Rivoyatlarga ko`ra, qadimdan Afinada basileylar - urug` sarkardalari hokimlik qilishgan. Yevpatridlar o`z boyligiga va ijtimoiy mansablarni egallashga bo`lgan tanho huquqiga tayanib, asta-sekin urug`doshlik demokratiyasi an`analari bilan bog`liq basiley hokimiyatini, sinfiy jamiyatga o`tish jarayonida kuchayib borayotgan va yevpatridlarning manfaatlarini himoya qilgan zodagdnlar kengashi basileylar hokimiyatini cheklab borganlar.

Biroq basiley mansabi Afinada hech qachon bekor qilinmagan bo`lsa-da, u o`z siyosiy ahamiyatini asta-sekin yo`qotib borgan. Ijtimoiy taraqqiyot ilgarilab borgan sari tobora murakkablashgan boshqarish funksiyalari yangi vazifalarning paydo bo`lishiga olib kelgan. Zodagonlar kengashi bu vazifalarni endi basileylar zimmasiga yuklamagan, balki ularni bajarish uchun yangi lavozimlar ta`sis etgan. Harbiy ishning murakkablashuvi munosabati bilan maxsus **askarboshilik-polimarxlik** lavozimi ana shu tariqa paydo bo`lgan. Basileyning vazifalari doirasidan harbiy qo`mondonlik lavozimining olib tashlanishi uning obro`sini juda to`kib qo`ygan. Ayniqsa, miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda ta`sis etilgan **arxontlik** mansabi Afinada davlatning tashkil topishidagi muhim ikkinchi qadam edi (birinchi qadam sinoykizm bo`lgan). Shundan so`ng ikkinchi o`ringa tushib qolgan basiley mansabi keyinchalik faqat diniy ishlarni bajaradigan bo`lib qolgan. Basileyning asosiy funksiyalari yevpatridlardan saylab qo`yiladigan mansabdor shaxslarga - arxontlarga o`tgan. **Arxontlar (ya`ni boshliq yoki el og`asi)** dastlab umrbod muddatga, miloddan avvalgi VIII asrdan 10 yilga, miloddan avvalgi 583 yildan esa 1 yilga (har yili 9 ta arxont) saylanadigan bo`lgan. Arxontlar hay`ati basileyning faqat harbiy,

kohinlik va sud funksiyalarinigina emas, balki vaqt o'tishi bilan butun mamlakatni boshqarishni o'z qo'liga olgan. Ayniqsa birinchi arxontning vakolatlari juda katta bo'lgan: u hay'atga rahbarlik qilgan, ichki boshqaruvni amalga oshirgan hamda oilaviy ishlarga oid sud ishlarini nazorat qilib turgan.

Davlatning tashkil topishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim hodisa - bu miloddan avvalgi VIII asrda yangi boshqaruv organi - **areopagning** tashkil topishi bo'lgan (bu organ areopag deb nomalangan tepalikda majlis o'tkazib turgani uchun shunday deb atalgan). Mazkur organ oqsoqollar kengashi o'rinda paydo bo'lgan edi. Areopag asosan yevpatridlardan iborat bo'lib, arxontlarni saylagan va nazorat qilgan, shuningdek, xalq majlisini ham nazorat qilib turgan, oliy sud hokimiyatini amalga oshirgan. Areopag tarkibiga barcha sobiq va xizmatdagi arxontlar, ya'ni har holda yana o'sha yevpatridlar vakillari kirgan.

Shu tariqa Attika jamiyati siyosiy jamiyatga - jamiyatning o'zidan ajralib chiqqan va uning ustida turgan hokimiyat ostidagi jamiyatga aylangan, Jamiyat va hokimiyatning sobiq, sinkretizmi (ajralmaganligi) nihoyasiga yetgan.

Yuqoridagilar bilan birga davlatning tashkil topishi uchun xarakterli bo'lgan yana boshqa muhim jarayon - **aholining hududiy bo'linishi jarayoni** ham rivojlanishda davom etgan. Miloddan avvalgi VII asrda mamlakat hududi okruglarga - **navkrariylarga** bo'lingan. Ularning aholisi qaysi qabilaga mansubligidan qat'i nazar o'z mablag'lariga harbiy kemalar qurish, ularni qurol-yarog'lar va ekipajlar bilan ta'minlashlari lozim edi.

Miloddan avvalgi VI asrga kelib Afinada juda murakkab vaziyat vujudga kelgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi erkin aholini yanada ijtimoiy tabaqalashuviga olib kelgan. Yevpatridlar va geomorlar orasidan boy yer egalari ajralib chiqqan, yevpatridlarning bir qismi kambag'allashgan, geomorlar esa batrakilarga aylanib, bir qism hosil (odatda hosilning 1/6 qismi evazi) uchun birovlarining yerlarida ishlaganlar yoki qarzdorlik asoratiga tushib, erkinliklarini yo'qotganlar va chet elga qul qilib sotilganlar. Shaharliklarning boy savdo-hunarmandlari yuqori qismining iqtisodiy roli o'sgan, lekin ular haliyam hokimiyatdan chetlatilgan edi. Kambag'allar - fetlar soni ham o'sgan. O'rta va mavda dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli doimo o'zgarib turgan. Natijada turli darajadagi erkin kishilar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqqan. Boy yevpatridlar bilan hali ham hokimiyatni ushlab turgan kambag'al yevpatridlar o'rtasida, shuningdek, hokimiyatga intilayotgan boy dehqonlar, boy savdogarlar, boy hunarmandlar bilan o'rta va mayda mulkdorlar o'rtasida ziddiyatlar paydo

bo'lgan. Bu ziddiyatlar boy urug` aristokratiyasi va yangi boylar boshchiligidagi xalq (demos) o`rtasidagi ziddiyatlar sifatida maydonga chiqqan. Shu tariqa demosning aristokratiyaga qarshi kurashi boshlangan. "Kilon g'alayoni" shunday kurashlardan biri bo'lgan edi. Bu g'alayon mag'lubiyatga uchrashiga qaramay, oradan bir necha yil o'tgach, demosning davlatmand tabaqalari hamda ularga qo'shilgan bir qism yevpatridlar tazyiqi ostida hukmron aristokratiya jiddiy yon berishga majbur bo'lib, allaqachonlar va'da qilingan, lekin hamisha orqaga surib kelingan qonunlarni yozishga rozilik bergan. Miloddan avvalgi 621 yilda "Drakont qonunlari" e'lon qilingan. Albatta, Drakont tomonidan odatdagi og`zaki huquqning yozib qo'yilishi, xun olishning cheklanishi, xususiy mulkning himoya qilinishi, sud ishlarining aniqlanishi o`z zamonasi uchun progressiv hodisa edi. Lekin qonunlarning yozib qo'yilishi demos bilan yevpatridlar o`rtasidagi ziddiyatlarga xotima berolmadi, chunki bu tadbir demosning iqtisodiy ahvoriga bir qadar bo'lsa ham muhim o`zgarish kiritmadi va uning siyosiy, ilgarigidek huquqsiz holatiga mutlaqo daxl qilmadi.

Ana shu ziddiyatlar natijasida, Aristotelning xabar qilishicha, miloddan avvalgi VII asrda xalq urug` zodagonlariga qarshi katta qo'zg`olon ko'targan va kurash uzoq davom etgan. Ushbu kurash davomida miloddan avvalgi 594 yilda siyosiy kurash maydoniga **Salon** degan tarixiy shaxs chiqqan edi. Yevpatridlardan kelib chiqqan Salon 1-arxont qilib saylangach, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazan.

Salonning asosiy iqtisodiy islohati "sisaxfiya" - "yukni qoqib tashlash", ya'ni kambag'allarning garovga qo'yilgan yer uchastkalaridan qarzdorlik toshlarini olib tashlash deb ataladi. Salon dehqonlarning barcha qarzlarini bekor qilgan, garovga qo'yilgan yer uchastkalarini egaloriga qaytarib bergan va qarz badaliga qul qilishni abadul-abad bekor qilgan. Shular bilan birga, qarzi uchun chetga qul qilib sotib yuborilganlarni qayta sotib olib, vataniga qaytargan.

Salon vasiyat qiluvchining qonuniy farzandlari bo'lmagan taqdirdagina vasiyat qilish erkinligi haqida qonun chiqargan. Natijada vasiyat bahonasi bilan yerlarni sota boshlaganlar. Salon yer maksimumini ham joriy qilib, bunga ko'ra, istagan miqdorda yer sotib olish mumkin emas edi. Shu bois Salon islohotlaridan keyin Attika uzoq vaqtgacha o`rta va mayda yer egaligi mamlakati bo'lib qolgan.

Salon Attikadan don chiqarishni taqiqlagan-u, ammo zaytun moyi chiqarishga ruxsat etgan. U tokzorlar, bog`lar va polizlar barpo etib parvarish qilishni rag`batlantiradigan, quduqlardan va umuman sug`orish tizimlaridan foydalanishni tartibga soladigan qonunlar chiqargan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Salon shunday bir qonun chiqarganki, bunga binoan, agar ota o`z vaqtida o`g`liga biron hunar o`rgatmagan bo`lsa, o`g`il qartayib qolgan otasiga yordam berishdan bosh tortishga haqli bo`lgan. Salon yana bekorchilikka qarshi ham qonun chiqargan. U yagona o`lchovlar joriy qilgan va pul islohoti o`tkazgan.

Salon iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda **siyosiy islohotlar** ham o`tkazgan. U o`sha vaqtgacha mavjud bo`lib kelgan genoqatiyani ("genos" - "urug`" demakdir) - nasl-nasabi aristokratiya hokimiyatini bekor qilgan va o`rniga demokratiyani ("time" - "baho", "qiymat" demakdir), ya'ni mulkiy senzga asoslangan hokimiyatni joriy etgan va shunday qilib, aristokratiyani urug`doshlik tuzumi sarqitlari bilan bog`liq bo`lgan imtiyozlardan mahrum qilgan. Salon Attikaning barcha fuqarolarini mulkiy holatiga qarab to`rt darajaga bo`lgan. Senzga asos qilib dehqonchilikdan kelgan daromad olingan. O`z yeridan kamida 500 medimn sochiluvchan yoki suyuq mahsulot olgan fuqarolarning hammasi birinchi darajaga kiritilgan (medimn - o`lchov hajmi; turli vaqtda u 41 litrdan tortib to 52,5 litrgacha bo`lgan miqdorni tashkil etgan). Ular **pentakosio-medimnlar**, ya'ni besh yuz g`alvirchilar deb atalgan. O`z yeridan kamida 300 medimn miqdorida daromad olgan fuqarolar ikkinchi darajaga kiritilgan. Ular **su-variylar** deb atalgan, chunki ular o`z jangovar otlari bilan otliq askarlar sifatida xizmat qilishlari lozim bo`lgan. O`z yeridan 200 medimn daromad olgan fuqarolar uchinchi darajaga mansub bo`lgan. Ular **zevgitlar** ("zevgos" - "qo`sh" demakdir), ya'ni qo`sh ho`kizlar deb atalgan. Ular piyoda lashkarda xizmat qilishga va o`z og`ir quroliga ega bo`lishga majbur edilar. 200 medimndan kam daromad oladigan fuqarolar to`rtinchi darajaga kiritilgan. Ular **fetlar (batraklar)** deb atalgan. Fetlar harbiy xizmatda yordamchi vazifalar va yengil qurollangan piyoda askarlarni tashkil etganlar. Eng boy darajadagi Afina fuqarolarning - pentakosio-medimnlarning vazifasi harbiy kemalarni jihozlantirish va ularni yaxshi saqlashdan iborat edi.

So`ngra Salon xalq yig`inida muhokama qilinadigan ishlarni tayyorlashni Areopagning huquq doirasidan chiqarib tashlab, uni zaiflashtirib qo`ygan. Bu ishlarni tayyorlash uchun Salon yangi davlat organi - **bule (400 lar kengashi)**ni tuzgan. Ular Attika qadimdan bo`linib kelgan to`rt eski urug`dosh fila (qabila) yig`inlarida har bir filadan 100 bulechi hisobidan saylangan.

Salon islohotlari natijasida xalq yig`ini Attika hayotida faolroq, rol o`ynay boshlagan. Unda kundalik siyosiy ishlar muhokama qilingan, arxontlar va boshqa oliy mansabdor shaxslar saylangan, so`ngra ularning

hammasi o'z faoliyatlari haqida xalq yig'ini oldida hisob berishlari lozim edi. Xalq yig'ini **ekkleksiya**, ya'ni chorlanganlar yig'ini deb atalgan, chunki yig'in chaqiriladigan kunni jarchilar barmahal hamma yoqqa jar solib eshittirganlar, shu maqsadda butun mamlakatni kezib yurganlar.

Salon yuqoridagilardan tashqari, har qanday afina fuqarosi qatnashi-shi mumkin bo'lgan yangi oliy haqamlar sudini - **gelieyani** ta'sis etgan.

Salonning islohotlari urug'doshlik tuzumiga va urug' zodagonlari - ning imtiyozlariga zarba bergan. Islohotlar urug' arsitokratiyasi - yevpatridlarning hokimiyatini cheklashga va urug'-qabila sarqitlarini tugatishga qaratilgan edi. Yuqorida aytib o'tilganidek, endi fuqaroga uning kelib chiqishiga qarab emas, balki mulkiy senzga qarab baho beriladigan bo'ldi. Arxontlarni faqat birinchi mulkiy darajaga mansub kishilardan, ya'ni pentakasio-medimnlardan saylash mumkin edi. Faqat dastlabki uch darajaga kiruvchi fuqarolargina bule a'zolari bo'lishi mumkin edi. Faqat ekklesiya-da va gelieyada hamma darajaga mansub fuqarolar ishtirok etishlari mumkin bo'lgan.

Salon islohotlari chet ellardan qullar sotib olib keltirish hisobiga quldorlik xo'jaligining taraqqiy qilishiga olib kelgan, demak, antik qullikning rivojlanishiga asos solgan edi. Erkin vasiyatlarni joriy qilganligi ham yerning xususiy mulk bo'lishini rivojlantirib yuborgan edi va yerning urug' mulki bo'lishi sarqitlarini zaiflashtirgan va bekor qilgan edi. Chetga don chiqarishning taqiqlanishi ham asosan bu mahsulotlarni yetishtiradigan yevpatridlarning manfaatlariga zid edi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirishga qiziqtiruvchi qonunlar shahar demosi o'rta tabaqalarining ahvolini mustahkamlardi. Siyosiy timokratik senz islohoti yevpatridlarning urug' aristokratiyasini turli mulkiy darajalarga va bundan kelib chiqadigan turli huquq va majburiyatlarga bo'lib yuborgan edi. Lekin umuman olganda Salon islohotlari ma'lum darajada kompromiss (kelishuvchilik) xarakteriga ega bo'lgan. U Areopagning qonun chiqarish va nazorat qilish vazifalarini o'zida qoldirgan edi, Attikaning to'rt urug' qabilasiga - filasiga bo'linishi kabi eski urug'-qabila bo'linishini daxlsiz qoldirgan edi, holbuki Salon islohotlaridan ilgariyoq Attika hududining urug'-qabila tamoyili asosida bo'linishi buzilgan edi. Harbiy kemalar qurishga butun aholidan pul yig'ish uchun Attika 48 ta hududiy okrugga-navkrariyga bo'lingan edi.

Salon islohotlari Attikaning undan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan. Albatta, bu islohotlar yevpatridlarning - urug' zodagonlarining noroziligini tug'dirgan. Lekin islohotlardan demosning kambag'al qatlamlari ham norozi edi. Yer ulushining yetarli bo'lmaganligi ularning qashshoqlik manbai edi. Kam-

bag`allar yevpatridlarga qarashli yerlarning bir qismini tortib olishni, ularni bo`lib, o`z mayda uchastkalariga qo`shib berishni va shu yo`l bilan mazkur uchastkalardan olinadigan hosilni o`lmas ovqat darajasiga yetkazishni talab qildilar. Lekin Salon bunga ko`nmadi. Bundan tashqari Salonning senz islohoti fuqarolarning kamroq mol-mulki bo`lgan tabaqalarining siyosiy huquqlarini qirqib qo`ygan edi. Shu sababli Salon arxont-aysiment sifatida hokimiyat tepasida bir yil turgandan keyin islohotlardan mulkiy va siyosiy zarar ko`rgan, uning islohotlarini haddan oshish deb hisoblagan eski zodagonlar, islohotlarni yetarli emas deb topgan demosning quyi tabaqalari ham unga qarshi chiqdi. Salon birmuncha vaqt Afinadan chiqib ketishga majbur bo`lgan.

Bu vaqtda Attikada sinfiy va siyosiy kurash g`oyat keskinlashib ketgan. O`zaro kurashlar vaqtda uchta ijtimoiy-siyosiy va hududiy guruh tashkil topgan: ular yer egalarning (ko`pchiligi Salon qonunlarini bekor qilishni istovchi yevpatridlarning) manfaatlarini himoya qiluvchi **pedieylar** (serhosil vodiylar aholisi); **paraliylar** (sohil aholisi) - Salon qonunlaridan qanoatlangan va uning islohotlarini mustahkamlashga harakat qilgan shahar va qishloqning o`rta mulkdorlari, savdogarlari va hunarmandlari; **diakriylar** - Salon qonunlarini yetarli emas deb topgan kambag`al dehqonlar (tog`li rayonlar aholisi)dan iborat edi. Diaqoiylar o`z yer uchastkalarining miqdorini ko`paytirishni va siyosiy huquqlarini kengaytirilishini talab qiladilar. Fetlar darajasiga mansub shahar kambag`allari ham ularga qo`shildilar. Bu guruhlarning rahbarlari an`anaga ko`ra manfaatdor aristokrat urug`larning vakillari edi. Eng radikal guruh bo`lgan diakriylar tepasida Pisistrat turardi.

Miloddan avvalgi 560 yilda Pisistrat diakriylarga tayanib, davlat to`ntarishi o`tkazgan va tiran bo`lib qolgan. Pisistrat Salon islohotlarini bekor qilmagan, balki davom ettirgan. U qishloq kambag`allari - diakriylar manfaatlarini qondirib, o`ziga dushman yevpatridlarning yerlarini musodara qilgan. Dehqonlarga kryedit berib, ularning ahvolini ancha yaxshilagan. Ilgari sudga ishi tushgan kishi albatta Afinaga borishi kerak edi. Pisistrat dehqonlarga sud ishlarini yuritishni yengillashtirish uchun dema (qishloq)lar bo`ylab yuradigan maxsus sayyor sudlar lavozimi va o`ndan bir miqdorda daromad solig`i joriy qilib, davlat xazinasini tartibga solgan.

Ammo tiran - yakka hokim Afinada noqonuniy hukmdor hisoblangan. Shuning uchun tez orada ayniqsa boy afinaliklar noroziligiga uchragan. Miloddan avvalgi 527 yilda Pisistrat vafotidan keyin hokimiyatni uning o`g`illari Gippiy va Gipparx biroz vaqt ushlab turganlaridan so`ng, dastlab Gipparx o`ldirilgan va keyin miloddan avvalgi 510 yilda Gippiy

Afinani tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan.

Tiraniya asosan Spartaning qo'llab-quvvatlashi bilan ag'darilgan edi. Chunki Sparta Afinaning kuchayishidan cho'chir edi. Shundan so'ng hokimiyatni aristokratiya qo'lga olmoqchi bo'lgan. Lekin kambag'allarga tayanib, Afinaning boy savdo-hunarmanlari vakili Klisfen boshchiligidagi afina quldorlari spartaliklarni haydab yuborganlar.

Klisfen Afina hokimiyati tepasiga chiqqach, miloddan avvalgi 509 yilda bir qancha **islohotlar** o'tkazgan. Uning islohotlari urug'-qabila munosabatlarining qoldiqlari va sarqitlarini uzil-kesil tugatgan va Afina quldorlik demokratiyasi tizimini shakllantirgan.

Klisfenning eng asosiy tadbiri **ma'muriy-hududiy islohot** edi. U aholini eskicha to'rtta qabilaga bo'linishini bekor qildi, ya'ni eski to'rtta urug'-qabila filalarni tugatdi, ularning o'rniga hududiy belgiga qarab **o'nta hududiy fila tashkil etdi**. Endi urug'doshlik tashkilotlariga taalluqlilik o'z ahamiyatini yo'qotib, hal qiluvchi rolni fuqarolarning yashab turgan joyidagi tashkilotlar o'ynay boshlagan. **Har bir fila uchta trititiyga bo'linib**, filaning ichki bo'linishi hisoblangan. Shunisi xarakterliki, bu trititiylarning bittasi shahardan, ikkinchisi dengiz sohilidan, uchinchisi mamlakatning o'rtasidan joy olgan edi. Shunisi ham borki, har bir fila qaysi trititiylardan tashkil topishi chek tashlash yo'li bilan hal etilgan.

Shu sababli ayrim filalarning trititiylari, hatto umumiy chegaralarga ega bo'lmasliklari ham mumkin edi. Lekin butun Attikaning hududi kichik-kichik doiralardan iborat bo'lishi kabi bunday holat bu xildagi aralash-quralash filalarni idora qilishni qiyinlashtirmasdi. Bundan ko'zda tutilgan maqoad - aholini butunlay aralashtirib yuborish va urug'-qabila aloqalarining qoldiqlarini batamom tugatish edi.

Klisfen butun Attika hududini **eng quyi bo'g'inda turuvchi yuzta ma'muriy birliklarga - demlarga bo'lib chiqqan**. Har bir filaga o'ntadan demlar kiritilgan. Afinaning har bir fuqarosi o'zi kelib chiqqan demga yozilgan. O'zini urug'-aymoq bilan atash taqiqlangan. Urug'doshlik aloqalari shu tariqa bekor qilingan.

Shunday qilib, islohot natijasida ilgari urug'doshlik tuzumida bo'lmagan va faqat davlatga xos bo'lgan ma'muriy-hududiy bo'linish joriy etilgan.

Filalar sonining o'zgarishi munosabati bilan Salonning to'rt yuzlar kengashi o'rniga besh yuzlar (har bir filadan 50 vakil hisobidan) kengashi tashkil etilgan. Kengashning xalq yig'ini muhokamasiga qo'yiladigan ishlarni tayyorlash organi sifatidagi vazifasi kuchaygan. Besh yuzlar kengashi oliy ma'muriy organ bo'lib qolgan. Uning o'ninchi (navbatchi) qismi yil -

ning o`ndan bir qismi davomida (35-36 kun) navbatma-navbat davlat vazifalarini bajarishi lozim edi, bu vaqt pritaniya deb atalardi. Besh yuzlar kengashining a`zolari (pritanlar) filalarda saylangan nomzodlardan chek tashlash yo`li bilan bir yilga saylab qo`yilardi. Besh yuzlar kengashi xalq yig`inlari orasidagi davrda Afina siyosiy hayotiga rahbarlik qilgan, xalq yig`inlarining qarorlarini bajarishni amalga oshirgan.

Bu vaqtda arxontlarning eski hay`ati o`z ahamiyatini yo`qotgan edi. Klisfen hududiy islohot o`tkazar ekan, Attikada ko`pdan beri yashab kelgan va lekin mamlakatning tub aholisi bo`lmagan ancha shaxslarni fuqarolar qatoriga kiritdi.

Klisfen davrida Afina fuqarolarining eng ommaviy organi bo`lgan haqamlar sudi - gelieyaning roli kuchaydi. Gelieyaga fuqarolar senzidan qat`i nazar bir yilga saylab qo`yilar edi. Ular o`z navbati bilan turli sud komissiyalarida sud ishlarini bajarardilar. Klisfen tiraniya qayta tiklanishining oldini olish uchun "sopollashtirish", yunoncha "ostrakism"ni ("ostrakon" - "sopol" demakdir) joriy etgan. Har yilda bir marta xalq yig`ini ostrakismni tashkil etish kerakligi yoki kerakmasligini hal qilgan. Agar ijobiy qaror qabul qilinsa, oradan birmuncha vaqt o`tgach, kamida olti ming fuqarodan iborat xalq yig`ini chaqirilgan va bu fuqarolardan har biri, uning fikricha, Afina demokratik tuzumi uchun xavfli bo`lgan siyosiy arbobning nomini sopolga yozib qo`ygan. Bu yashirin ovoz berish natijasida kimga qarshi ko`proq ovoz berilgan bo`lsa, o`sha shaxs o`n yil muddat bilan Afinadan quvilgan, lekin u fuqarolik huquqidan mahrum etilmagan va mol-mulki musodora qilinmagan. Ostrakism dastlab urug` aristokratiyasiga qarshi qaratilgan bo`lsa, oqibatda undan Afina jamiyatidagi turli guruhlar o`rtasidagi siyosiy kurashda foydalanilgan.

Klisfenning so`nggi tadbirlaridan biri - miloddan avvalgi 502 yilda o`nta strateg hay`atini ta`sis etishdan iborat edi. Bu ham aholining hududiy bo`linishini hisobga olgan holda tashkil etilgan, ya`ni unga har bir filadan bittadan vakil kiritilgan. Bu strateglar xalq yig`inida qo`l ko`tarib (xeyrotoniya) ochiq ovoz berish yo`li bilan bir yil muddatga saylanganlar va Afina xalq lashkariga galma-gal qo`mondonlik qilganlar. Rasman bu hay`atning raisi hisoblangan eski arxont-polimarxlik lavozimi o`z ahamiyatini yo`qotgan.

Shunday qilib, Klisfen islohotlari Afinada urug`doshlik tuzumiga eng so`nggi zarba berib, uzoq davom etgan davlatning tashkil topish jarayonini nihoyasiga yetkazgan.

Teseydan so`ng tug`ila boshlangan hokimiyatchilik funksiyalari ularni amalga oshirish organlarining tashkil etilishiga olib kelgan. Natijada

asta-sekin siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi maxsus va doimiy harakatdagi apparat vujudga kelgan. Shu bilan bir vaqtda bu apparat tomonidan jamiyat ustida hokimiyatni tanho egallab olish jarayoni borgan. Hokimiyatchilik funksiyalarini amalga oshirishni tanho huquqqa aylanishi natijasida zo`rlikdan foydalanish qonuniy huquq bo`lib qolgan. Siyosiy hokimiyat davlat hokimiyati shaklida amalga oshirila boshlangan, uni amalga oshiruvchi apparat esa davlat apparatiga aylangan.

Shu tariqa uzoq asrlarga cho`zilib ketgan iqtisodiy munosabatlardagi inqilobdan so`ng ijtimoiy inqilob, keyin esa davlatning tashkil topishi bilan yakunlangan siyosiy inqilob sodir bo`lgan. Bularning hammasi bir vaqtdagi hodisa bo`lgan. Afinada davlatning kelib chiqishi urug` aristokratiyasi va demos o`rtasidagi keskin va murosasiz kurash bilan birga borgan va bu kurash oqibatda demos g`alabasi bilan tugagan. Natijada Afinada demokratik respublika shaklidagi quldorchilik davlati vujudga kelgan.

5. Afina davlatining rivojlangan davri

(miloddan avvalgi V-IV asrlar)

Miloddan avvalgi V asrning birinchi yarmida Afina yunon dunyosida eng ilg`or davlatlardan biriga aylangan. Bunga yunon davlatlarining Yunoniston - Eron urushidagi g`alabasi, Afina ekonomikasining jadal rivojlanishi va unda demokratik tuzumning mustahkamlanishi ko`maklashgan. Yunoniston - Eron urushi davrida tashkil topgan yunon davlatlari ittifoqiga dastlab Sparta boshchilik qilgan bo`lsa, 70-yillarda harbiy xarakterli dengizga ko`chgandan so`ng, ittifoqqa rahbarlik Afinaga o`tgan. Miloddan avvalgi 478 yilda Afina boshchiligidagi Delos yoki birinchi Afina dengiz ittifoqi (simmaxiya - harbiy ittifoq.) tuzilgan. Ittifoqqa 140-160 yunon davlatlari kirib, ular harbiy kemalarni va askarlarni ta`minlab turishlari va ittifoq hazinasiga (kassasiga) pullar (badallar) - "foros" (aynan tarjimai "og`irlik") to`lab turishlari kerak edi. Flotga qo`mondonlik Afinaga topshirilgan edi.

Vaqt o`tishi bilan flotni qurish ham Afinaga o`tgan, ittifoq xazinasini ham Delosdan Afinaga o`tkazilgan, foros ittifoqchilaridan yig`iladigan xirojga, soliqqa aylangan va bunga Afina hech qanday nazoratsiz egalik qila boshlagan.

Shu tariqa 1-Afina dengiz ittifoqi asta-sekin Afina arxesiga ("arxe" - "hokimiyat", "hukmronlik" degani), ya`ni **Afina dengiz davlatiga** aylana borgan. Ittifoqchilarning noroziliklari kuch bilan bostirilgan, ittifoqchilar hududlarida afina manzilgohlarini (kleruxiyalarni) tashkil eta boshlaganlar, ya`ni u yerga afinalik kambag`al fuqarolarni ko`chirib keltirib, o`sha yerda

ularga ulush yerlar (klerlar) taqsimlab bera boshlaganlar. Kleruxiyalar harbiy-dehqonchilik manzilgohlari bo`lib, ular amalda harbiy otradlarga aylantirilgan edi. Ko`p ittifoqchi davlatlarga afina mansabdor shaxslari jo`natilgan, Afina sudiga ittifoqchi davlatlar fuqarolarining ba`zi ishlarini ko`rish ham o`tgan edi, 500lar kengashi ittifoq ishlarini hal qila boshlagan.

Demak, shu tariqa, ittifoqda Afina gegemonligi (yo`lboshchiligi) qudratli Afina arxesiga aylangan.

Afinaning tashqi siyosiy ahvolidagi o`zgarishlar, uning boyib ketishi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ham o`zgarishlarga olib kelgan. Urushdan keyingi davrlarda Afinaning davlat tuzumi demokratlasha boshlaydi. Arxontlarni qur'a tashlab saylash joriy qilinib, bu mansabga ikkinchi darajali kishilar ham saylanadigan bo`lgan. Afina fuqarolarining siyosiy huquqlari kengaygan. Bular Efiat va Perikl islohotlarida o`z ifodasini topgan.

Efiat areopagni siyosiy hokimiyatdan deyarli to`la mahrum etgan, uning asosiy funksiyalarini xalq majlisi, 500lar kengashi va gelieyaga o`tkazgan. Jumladan, areopag xalq majlisining qarorlariga "veto qo`yish" huquqidan mahrum bo`ldi. Mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilish vazifasi xalq majlisi hamda 500lar kengashiga olib berildi. Areopag endi qasddan odam o`ldirishda va kufroniylikda ayblashlardan bo`lak hech qanday sud ishlarini hal qila olmagan. Qolgan ishlarning hammasi haqamlar sudiga - gelieyaga topshirilgan.

Afinada demokratiyaning ravnaq topishi **Perikl** nomi bilan bog`liq. Uning davrida Salonning senzga oid islohotlari o`z ahamiyatini yo`qotgan. Chunki endi davlat mansablariga barcha to`la huquqli fuqarolar ega bo`lishlari mumkin edi. Perikl Afina fuqarolarining kambag`al tabaqalarini ish bilan band etish to`g`risida harakat qilgan. Davlat mansablarini bajar-ganlik uchun xalq tayinlagan.

Ijtimoiy tuzum

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda antik qullik shakli ancha rivojlangan. Bu davrda quldorlik son jihatdan ham, sifat jihatdan ham o`sgan.

Qullarning mehnatidan qishloq xo`jaligida, hunarmandchilikda va konlarda foydalanilar edi. Boylarning uylarida ular xizmatkor qilib ishlatilardi. Yuridik jihatdan qul xo`jayinning mulki hisoblangan. Afinada qulni o`ldirishni taqiqlovchi qonun bo`lsada, lekin amalda bu qonunga rioya qilinmagan. Qulni qilich bilan yoki osib o`ldirish mumkin emas, ammo o`lguncha kaltaklash yoki ochlikdan o`ldirish mumkin edi, chunki agar qul biron jazo natijasida o`lsa, quldor aybdor hisoblanmagan. Qul sudda guvohlikka o`tolmasdi. Lekin, agar qulning aytganlari "badan tovushi" bo`lsa, ya`ni qiynoq natijasida aytilgan bo`lsa, u vaqtda uning aytganlari

haqiqiy hisoblangan. Qullar qonuniy nikohga kirolmaganlar. Ularning amaldagi er-xotinlik munosabatlari faqat birga turishdan iborat bo`lgan, bu birga turish xo`jayinning xohishi bilan har qachon buzilishi mumkin edi.

Qullar orasida pedagoglar, vrachlar, aktyorlar, muzikachilar va raqqoslar, hatto faylasuf qullar ham mavjud edi. Lekin bunday kasb-korlar hech bir holda qulni xo`jayinning jabr-zulmidan qutqarolmasdi. Quldor qulni istagan kuyiga sola olardi.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarga kelib patriarxal qullik o`rniga klassik, antik qullik kelgan. Qullarga oddiy mehnat qurollari sifatida qaralardi. Qullar asta-sekin asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylangan. Davlat qullari asosan konlarda va tosh yo`nishda, shuningdek, idoralarda past lavozimlarda, masalan, mirzalik, kotiblik vazifalarida ishlardilar. Bunday qullarning ahvoli xususiy qul egalari qo`lidagi qullarning ahvolidan yengilroq edi. Lekin bu qullar ham doim sotilishi yoki boshqa ishga ko`chirilishi mumkin edi. Xususiy egalikdagi qullar dalalarda va hunarmandchilik ustaxonalarida ishlatilganlar yoki ijaraga berilganlar. Bu shaxsiy ijara emas, mulk ijarasi hisoblangan. Qullarning umumiy soni juda o`sb ketgan va taxminan erkin afinaliklar sonidan to`rt baravar ko`p bo`lgan. Ba`zi ma`lumotlarga qaraganda esa, hatto Afinaning 21 ming fuqarosiga 400 ming qul to`g`ri kelganligi ko`rsatiladi. Qullar eng huquqsiz bo`lib, huquq sub`yekti emas, ashyo hisoblanganlar. Huquqsiz qullar va to`la huquqli quldorlar o`rtasidagi ziddiyatlar afina jamiyatining asosiy antagonistik (murosaga keltirib bo`lmaydigan) ziddiyatlariga aylangan. Afina fuqarolari va **meteklar** (Afinaga ko`chib kelib joylashgan chet elliklar) o`rtasidagi ziddiyatlar ham keskinlashgan. Meteklar soni afinaliklar soni - ning taxminan yarmini tashkil etardi. Ular asosan savdo va hunarmandchilik bilan shug`ullanganlar va mulkiy huquqlarda cheklab qo`yilganlar, mam-lakat siyosiy hayotida shtirok etishdan to`la mahrum bo`lganlar.

Afinada Efialt va Perikl islohotlaridan keyin ham afinaliklarning turli erkin guruhlari o`rtasidagi ziddiyatlar tugamadi. Mulkiy darajalanishning tobora chuqurlashib borishi natijasida erkin fuqarolar ikkita noteng va amalda teng huquqlarga ega bo`lmagan guruhlarga - badavlat quldorlar - ning kichik guruhi (yer egalari, savdogarlar, kemalarning egalari, sudxo`rlar, hunarmandchilik ustaxonalarining egalari)ga va erkin kambag`allarning asosiy qismi (dehqonlar, hunarmandlar, dengizchilar)ga, shuningdek ishlab chiqarish qurol-vositalaridan mahrum bo`lgan, davlatdan va boylardan olinadigan xayr-sadaqa hisobiga kun ko`radigan lyumpenlarga bo`lingan.

Afina demokratiyasi o`zining gullab-yashnagan davrida erkin ki-

shilarning (quldorlar, kambag`allar, lyumpenlarning) qullar ustidan birgalikdagi hukmronligining siyosiy shakliga aylangan. Shu bilan birga u quldorlarning mulksiz fuqarolar ustidan hukmronligi shakli ham bo`lgan. U shuningdek, bir tomonda erkin kishilar - quldorlar, boshqa tomonda mayda ishlab chiqaruvchilar va lyumpenlar o`rtasidagi ziddiyatlar rivojlanadigan hukmronlik shakli ham bo`lib qolgan. Afina demokratiyasining bu xarakterli belgilari ayniqsa uning davlat tuzumida yaqqol namoyon bo`ladi.

Davlat tuzumi Afina davlati o`z mohiyatiga ko`ra erkin fuqarolarning manfaatlarining himoya qilinishini va ko`psonli qullarning tutqunlikda ushlab turishni ta`minlaydigan siyosiy tashkilot hisoblangan. Boshqarish shakli bo`yicha u demokratik respublika bo`lib, unda afina fuqarolari teng huquqlardan foydalanganlar va siyosiy hayotda (davlatni idora etishda) faol qatnashishlari mumkin bo`lgan. Afina quldorlarning demokratik respublikasi miloddan avvalgi V asrda tashkil topib va ba`zi tanaffuslar bilan miloddan avvalgi IV asrning 30-yillarigacha yashagan.

Afina davlatining asosiy organlari: xalq yig`ini, Besh yuzlar kengashi va gelieya hisoblangan. Ular mansabdor shaxslarning faoliyatini yo`naltirib turganlar va nazorat qilganlar.

Afinada davlat hokimiyatining oliy organi **xalq yig`ini-ekkleziya** bo`lgan. U dastlab yiliga o`n marta, keyinchalik qirq marta chaqiriladigan bo`lgan. Alohida hollarda (dushmanning to`satdan hujum qilishi, tabiiy ofat va boshqa hollarda) favqulodda "sarosima va fojia yig`ini" chaqirilishi mumkin bo`lgan. Xalq yig`ini Akropol yaqinida joylashgan yassi tepalik Pniks ustida to`plangan, keyinchalik majlislar Afina teatriga ko`chirilgan. Xalq yig`inining vakolat doirasi juda keng bo`lgan: Afina siyosatining hamma asosiy masalalarini qarab chiqqan, qonunlar qabul qilgan, xususiy masalalar bo`yicha qarorlar chiqargan, mansabdor shaxslarni saylagan va ularning faoliyatini tekshirgan, urush va tinchlik, mamlakatning oziq-ovqat masalalarini hal qilgan va hokazo. Maxsus yig`inlarda fuqarolarning iltimos-shikoyatlari ko`rib chiqilgan va ba`zi shaxslarni ostrakizm tartibida davlatdan haydab yuborish haqidagi masalalar hal etilgan.

Xalq yig`inida faqat 20 yoshga yetgan to`la huquqli afinalik fuqarolar ishtirok etishlari mumkin edi. Ayollar va meteklar xalq yig`iniga qo`yilmagan. (Qullar to`g`risidaku gap bo`lishi mumkin emasdi). Odatda dehqonlar uning ishida kam ishtirok etishgan, lekin miloddan avvalgi IV asrdan boshlab ularning xalq yig`inida ishtirok etishlari uchun mukofot tayinlangan. Xalq yig`inida hatto eng muhim masalalarni hal etish uchun

bor yo`g`i 6000 kishi. ya`ni butun to`la huquqli afinaliklarning 1/5 qismi ishtirok etishi talab qilinardi.

Har bir xalq yig`inining kun tartibi oldindan belgilangan. Har oydagi yig`inlardan bittasi asosiy yig`in hisoblangan. Unda mansabdor shaxslar faoliyati tekshirilgan, oziq-ovqat masalalari muhokama qilingan va hokazo. Oltinchi oyning asosiy yig`ini, bundan tashqari, mansabdor shaxslarni ayblash, ostrakizm haqidagi masala hal qilingan. Oyning qolgan boshqa yig`inlarida fuqarolarning shikoyatlari, diniy, ma`muriy va boshqa masalalar ko`rilgan. Afinalik har bir fuqaro istagan masalasini xalq yig`iniga qo`yishga, unda so`zga chiqishga, yangi qonun loyihalarini kun tartibiga kiritishga haqli edi. Amalda xalq yig`inida nutqlar bilan asosan gapga usta professional notiqlar - safsatabozlar (demagoglar) so`zga chiqib erkin kishilarning alohida guruhlari manfaatlarini yoqlaganlar. Qonun loyihalari dastlab hamma ko`radigan joyga osib qo`yilgan va dastavval besh yuzlar kengashida ko`rib chiqilgandan keyin xalq yig`ini muhokamasiga kelib tushgan. Qaror ochiq ovoz berish, ya`ni qo`l ko`tarish yo`li bilan qabul qilingan. Yopiq, ovoz berganda qutiga yo loviya, yo qora va oq toshchalar, yoki xat yozilgan sinq sopol parchalari tashlagan.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, xalq yig`inining har bir ishtirokchisi taklif etilgan qonun loyahasini noqonuniy deb hisoblab, muhokamadan yoki ovozga qo`yishdan olinishini talab qilish, bunday loyiha muallifini sudga berish huquqiga ega bo`lgan. Bundan tashqari xalq yig`inining raisi o`z fikricha kiritilgan takliflarni noqonuniy deb hisoblasa, uni ovozga qo`ymasligi mumkin edi.

Xalq yig`inida qabul qilingan qonun loyihasi, agar gelieya tomonidan rad etilmasa, qonun bo`lib qolgan.

Afinada demokratik muassasalardan yana biri **besh yuzlar kengashi Bule** bo`lgan. Bu kengash Klisfen zamonidayoq ta`sis etilgan bo`lib , uning a`zolari 30 yoshga to`lgan Afina fuqarolaridan qur`a tashlash yo`li bilan saylangan. Uning hamma o`nta hududiy filalarining har biridan elliktdan vakil kiritilgan. Besh yuzlar kengashi Afinaning oliy hokimiyat va ma`muriy organi bo`lib, xalq yig`inida ko`riladigan masalalarni oldindan tayyorlagan. Uning qarorlarini ijro etgan, moliya boshqaruvini olib borib, davlatning daromad manbalari ustidan nazorat qilgan. Shuningdek, Bule tashqi davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o`rnatgan. Bundan tashqari, mansabdor shaxslarning ishlarini ko`rib chiqqan. Kengashning eng muhim funksiyasi, yuqorida aytib o`tilganidek, xalq yig`iniga qo`yiladigan masalalarni oldindan muhokama qilish bo`lib, bu bilan u xalq yig`ini faoliyatini yo`naltirib turgan.

Kengash kundalik ishlarni yuritish uchun o`nta komissiya (pri-taniy)ga ajralgan. Komissiyalar tarkibiga har bir filadan elliktadan vakil kiritilgan edi. Komissiyalar navbatma-navbat Kengash majburiyatlarini ba-jarganlar. Bunda har kuni qur'a tashlash yo`li bilan yangi Kengash raisi saylangan. U xalq yig`ini vaqtida unga ham raislik qilgan. Miloddan av-valgi IV asrda bu tartib o`zgartirilgan: rais Kengashning har bir majlisidan oldin saylanadigan bo`lgan. Kengashning har bir a`zosi xizmat o`tash muddati tugagandan so`ng hisobot bergan va javobgarlikka tortilishi mumkin edi.

Afina davlatining oliy sud organi - **gelieya** - haqamlar sudi yirik de-mokratik muassasa bo`lgan. Uning a`zolari 30 yoshga to`lgan fuqarolardan qur'a tashlash yo`li bilan bir yil muddatga saylanadigan 6000 haqamdan iborat bo`lgan. Haqamlardan bir mingtasi zahiradagi haqam hisoblangan. Gelieya tarkibida o`nta hay'at - palata (dikasteriya) bo`lib, ularning har birida besh yuztadan haqam va yuztadan zahiradagi haqam bo`lgan.

Afina sudida sud qilinadigan hech bir fuqaro uning ishi qaysi di-kasteriyada ko`rilishini oldindan bilmagan. Buni u sud bo`ladigan kuni yoki undan bir kun oldin bilgan, xolos. Tomonlar pora bera olmasliklari uchun shunday qilingan. Qadim zamonlarda advokatlar bo`lmagan. Javob-gar yoki ayblanuvchining o`zi o`zini himoya qilib so`zlagan, uning qarindoshlari ham sud majlisida so`zga chiqishlari mumkin edi.

Gelieya davlatga qarshi jinoyatlar va mansabdor shaxslarning su-iste`molliklari haqidagi ishlar bo`yicha I instansiya sudi, boshqa sudlar tomonidan ko`rilgan ishlar bo`yicha esa apellyatsion instansiya hisoblan-gan. U, shuningdek, ba`zi nazorat funksiyalarini ham amalga oshirgan hamda xalq yig`inida qabul qilingan qonun loyihalarini rad etish huquqiga ega bo`lgan.

Shu tariqa, qadimgi Afinada qonun chiqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat edi:

a) xalq yig`iniga qonun loyahasining kiritilishi (bunday qonunchilik tashabbusi huquqiga har bir afinalik fuqaro ega bo`lgan);

b) besh yuzlar kengashi tomonidan qonun loyahasining dastlab ko`rib chiqilishi va bu haqda xalq yig`ini uchun xulosalar berilishi;

v) xalq yig`ini tomonidan qonun loyahasining qabul qilinishi;

g) qabul qilingan qonun loyahasining kuchga kiritilishi yoki gelieya tomonidan rad qilinishi mumkinligi.

Afina davlat boshqaruvida mansabdor shaxslar muhim o`rin tutadi. Bunda mansablarni egallashda quyidagi asosiy tamoyilar: saylab qo`yilishi, muddatligi, hisob berishligi va kollegialligi o`rnatilgan.

Mansabdor shaxslarning saylovi har yili yo xalq yig`inida ochiq ovoz berish yo`li bilan, yoki qur`a tashlash yo`li bilan amalga oshirilgan. Mansabga o`tirishdan oldin barcha mansabdor shaxslar maxsus tekshiruvdan - dokimasiyadan o`tkazilganlar. Bunda ularning siyosiy jihatdan ishonchliligi va boshqa shaxsiy sifatleri aniqlanib, ularning mansabni egalashga haqli ekanliklari tekshirilgan. Mansabni qatorasiga ikki marta egalash (harbiy mansabdan tashqari) yoki bir vaqtda ikkita mansabni egallash mumkin emas edi. Mansablarni bajarganlik uchun haq to`langan. Bundan faqat strateglar istisno qilingan. Mansabdor shaxslar xizmatlari muddati o`nganidan so`ng o`z faoliyatlari yuzasidan besh yuzlar kengashi va gelieyaga hisobotlar taqdim qilganlar. Afina davlatining gullab-yashnagan davrida ko`p mansablar kollegial bo`lgan.

Afinada asosiy mansabdor shaxslar **strateglar** va **arxontlar** bo`lgan.

Strateglar hay`atining a`zolari uylangan va ko`chmas mulkka ega bo`lgan fuqarolardan o`n kishi tarkibida xalq majlisi tomonidan saylangan. Miloddan avvalgi V asrda strateglar muhim vakolatlarni qo`lga kiritganlar. Ular armiya va flotni ushlab turish uchun kelib tushgan mablag`larni boshqara boshlaganlar, favqulodda harbiy yig`imlar tashkil qila boshlaganlar. Afinaga oziq-ovqatlar keltirishga rahbarlik qila boshlaganlar (tinchlik vaqtlarida afina fuqarolari doimiy soliqlar to`lamaganlar, bunday soliqlar meteklardan yig`ilgan). Strateglarga diplomatik munosabatlar sohasida ham ba`zi vakolatlar o`tgan: ular dushmandan kapitulatsiya (taslim bo`lish haqidagi va g`olib tomonga imtiyoz beruvchi shartnoma) qabul qilganlar, sulh tuzganlar. Bundan tashqari, harbiy jinoyatlar haqidagi ishlar bo`yicha sudlarda tergov olib borganlar va bunday sudlarga raislik qilganlar. Nihoyat, strateglar besh yuzlar kengashi va xalq yig`inining navbatdan tashqari majlisini chiqarishni talab qilish va favqulodda choralar ko`rish huquqiga ega edilar. Ba`zan strateglardan armiyaga qo`mondonlik qiluvchi, favqulodda hollarda esa davlatda butun hokimiyatni qo`lga oluvchi **avtokratlar** ajratilgan.

Strateglar vakolatlarining o`sishi bilan arxontlarning siyosiy ahamiyati pasaygan. Yuqorida aytib o`tganimizdek, Salon islohotlaridan keyin hududiy filalar tomonidan taklif qilingan nomzodlardan qur`a tashlash yo`li bilan to`qqizta arxontlar saylanadigan bo`lgan. Ular juda kam hollarda: xalq yig`inida ostrakism haqidagi masala hal qilinayotganda va mansabdor shaxslar dokimasiyadan o`tkazilayotganda yagona kollegial organ sifatida harakat qilganlar. Birinchi arxont **arxont-eponim** hisoblangan. Arxont-eponimda Afina demokratiyasining rivojlanishi bilan faqat oilaviy ishlar bo`yicha va meros haqidagi ishlar bo`yicha sud funksiya-

larigina saqlanib kdlgan edi. Ikkinchi arxont - **arxont-basiley** bo`lib, u diniy ishlarni yuritgan va sudda jinoiy ishlarni ko`rgan. Uchinchi arxont **arxont-polimarx** bo`lib, u endilikda ilgarigi harbiy qo`mondonlik funksiya-

larini yo`qotib, faqat meteklar va boshqa chet elliklar (ksenlar) bilan bog`liq bo`lgan asosiy ishlar bilan shug`ullangan. Boshqa oltitasi **arxont-fesmofetlar** deb atalib, gelieyaga taalluqli ishlarni tayyorlaganlar, afina sudlarida "adolatli sud qilishga" rahbarlik qilganlar.

Afinada hammasi bo`lib yetti yuzga yaqin maxsus mansabdor shaxs- lar bo`lib, ular tegishlicha turli vazifalarni bajarganlar. Xususan, Afinada davlat mulkini boshqarish, davlat xazinasini yuritish, ko`chalardagi tartibni va fuqarolarning axloqini, bozorlardagi savdoni kuzatib turish, harbiy tay- yorgarlikdan o`tayotgan yoshlarni tarbiyalash va ularga ta`lim berish sin- gari vazifalarni ana shu maxsus mansabdor shaxslar ado etganlar. Filalarda va demlarda ham o`z mansabdor shaxslari mavjud edi.

Miloddan avvalgi V asrgacha bo`lgan davrda **Areopag** davlat hoki- miyat organlari ichida muhim o`rin tutar edi. Uning a`zolari arxontlar va ilgari arxont bo`lib ishlagan kishilar edi. Miloddan avvalgi V asrdan bosh- lab, Areopag o`z ahamiyatini yo`qotib, asosan qasddan odam o`ldirish ish- lari bo`yicha sud instansiyasiga aylangan. Xalq yig`inining topshirig`i bi- lan u davlatga qarshi jinoyatlar haqidagi ishlar bo`yicha tergov olib borishi mumkin edi.

Sud organlari Aytib o`tilganidek, Afinada oliy sud organi **Gelieya** bo`lgan. **Areopag** ham ba`zi sud funktsiya- larini saqlab qolgan. U arxont-basiley raisligida qasddan odam o`ldirish ji- noyatlari bo`yicha ishlarni ko`rib hal qilgan. Xalq yig`inining topshirig`i bo`yicha Areopag davlatga qarshi jinoyatlar haqidagi ishlarni tergov qilishi mumkin edi. Qasddan bo`lmagan odam o`ldirish jinoyati haqidagi ishlar **efetlar** sudi tomonidan ko`rilgan. Talonchilik, o`g`rilik va boshqa mulkiy jinoyatlar **o`n birlar hay`ati** tomonidan ko`rilgan. Mulq bo`yicha fu- qarolik-huquqiy nizolar **dietetlarning hakamlik** sudlarida ko`rib hal etil- gan. Mayda mulkiy nizolar **qirqlar hay`ati** tomonidan kurib chiqilgan. Perikl zamonidan boshlab demlar bo`yicha **sayyor sudlar** tashkil etilgan. Eng og`ir jinoyatlar bo`yicha **xalq yig`ini** ham I instansiya sudi sifatida maydonga chiqishi mumkin edi.

Armiya Afina armiyasi 18 yoshdan 50 yoshgacha bo`lgan erkin fuqarolardan xalq lashkarlari asosida tashkil etilgan. Armiya- ga safarbarlik yoshi xalq yig`ini tomonidan belgilangan. Urushlar vaqtida har bir fila bittadan og`ir qurollangan jangchilar (goplitlar) otradi, yengil qurollangan jangchilar otradi va ma`lum sondagi suvoriylar (bular

jangga odatda piyodalar safida turib kirganlar) otradi berishi lozim edi. Tinchlik vaqtlarida afina fuqarolari 18 yoshdan 20 yoshgacha harbiy ta'lim o'taganlar. Ular tez-tez chegaralarni qo'riqlash xizmatiga jalb qilib turilgan. Miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat chegaralarini qo'riqlash uchun maxsus doimiy yollanma qo'shin jalb etilgan. Peloponnes urushi vaqtidan boshlab ulardan harbiy harakatlarda ham foydalanila boshlangan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib armiya va flotda yollangan harbiy xizmatchilar paydo bo'lgan.

Politsiya Afina davlatida politsiyachilik funksiyalarini bajaradigan maxsus xizmatchilar - **toksotlar** bo'lgan. Ular asosan qullardan iborat bo'lib, jami ikki yuzga yaqin edi. Politsiyachilik funksiyalarining qullar zimmasiga yuklanishi shuni anglatar ediki, bu vaqtda Afinada bir biriga ishonmaydigan hukmron sinflarning turli dushmanlik munosabatlaridagi guruhleri o'rtasida ziddiyatlar juda keskin edi.

5. Afina davlatining (demokratiyasining) inqirozi va yemirilishi

Afina fuqarolari rasman teng huquqli hisoblangan bo'lsalar-da, lekin mulkiy jihatdan noteng edilar. Ayniqsa, mulkiy tengsizlik miloddan avvalgi V asrning oxirida juda kuchaygan edi. Bir guruh kam sonli yirik yer egalari va savdogar - hunarmandlar boyib ketsalar, fuqarolarning asosiy qismi - mayda yer egalari, hunarmandlar va lyumpenlar ahvoli juda yomonlashgan. Afinaliklar bilan huquqlari cheklangan meteklar o'rtasidagi ziddiyatlar ham o'sgan. Bularning hammasi afina demokratiyasini keskin inqirozga olib kelgan.

Miloddan avvalgi 431 yilda boshlanib ketgan Peloponnes urushi natijasida Afinaning inqirozi juda kuchaygan. Bu urush bir tomonda Afina dengiz ittifoqiga kirgan davlatlar, boshqa tomonda, Peloponnes ittifoqi tepasida turgan Sparta o'rtasida boshlangan edi. U Afinaning mag'lubiyati bilan tugagan. Urush natijasida katta moddiy talofat ko'rilgan, juda ko'p odam yo'qotilgan, dengiz ittifoqi bo'linib ketgan va, demak, Afina ittifoq tarkibiga kirgan davlatlarning mablag'laridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Miloddan avvalgi 411 yilda Afinada oligarxlar to'ntarishi yuz bergan va hokimiyat oligarxlar qo'lga o'tgan. Besh yuzlar kengashi bekor qilingan. Uning o'rniga rasman eski To'rt yuzlar kengashi qayta tiklangan va unga eng boy fuqarolar kirgan. Teng huquqli fuqarolar soni goplit bo'lib xizmat qilishga yetarli mablag'i bo'lgan besh ming fuqarodan iborat qilib qo'yilgan. Albatta, keyin demokratiya yana tiklangan. Lekin miloddan avvalgi 404 yilda Afina urushda taslim bo'lgandan so'ng

yangi oligarxiya to'ntarishi yuz bergan. Afinada xalq yig'ini Sparta tazyiqi ostida o'ttiz oligarxdan iborat komissiya saylagan. Bu komissiya oqibatda Afina hukumati bo'lib olgan. Terror kuchaygan. Aholi, boy afinaliklar va meteklar hukumat tomonidan talangan. Aholi oligarxlarga qarshi bosh ko'tarib, miloddan avvalgi 403 yilda ularni yenggan va Afinada demokratiya qayta tiklangan, lekin endi ilgari Afina qudratidan hech vaqo qolmagan edi. Mamlakat xonavayron bo'lgan, davlat xazinasi bo'shab qolgan, savdo inqirozga uchragan, dengizdagi ustunlik allaqachon yo'qotilgan edi. Dehqonlar xonavayron bo'lib, o'z yerlarini sotishga majbur bo'lgan edilar va davlat xazinasidan endi yetarli yordam ololmagan shahar kambag'allari safiga kelib qo'shilganlar. Boy quldorlar orasida ham norozilik kelib chiqqan. Chunki ular endi faqat o'z mablag'lari hisobiga erkin kambag'allarni boqib turishga majbur bo'lmoqda edilar.

Umumiy noroziliklardan kuchsizlanib qolgan afina demokratiyasi miloddan avvalgi IV asrda juda yuksalgan Makedoniyaga hech qanday jiddiy qarshilik ko'rsata olmagan. Miloddan avvalgi 338 yilda Yunon qo'shinlari Makedoniya armiyasidan mag'lubiyatga uchragan. Miloddan avvalgi 336 yilda Afina va butun Yunoniston Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tarkibiga qo'shib olingan va keyinchalik ham butun Yunoniston uning avlodlari davlati tarkibida bo'lgan. Miloddan avvalgi II asrda Rim legionlari Afinaga bostirib kirgan va natijada Afina butun Yunoniston singari Rim davlatining provinsiyalaridan (viloyatlaridan) biriga aylangan.

6. Sparta quldorlik davlati

Davlatning paydo bo'lishi

Qadimgi Yunoniston tarixiga katta ta'sir o'tkazgan polislardan yana biri Spartadir.

Sparta davlati Peloponnesning janubida joylashgan. Bu davlatning poytaxti Sparta deb atalgan.

Sparta davlatining tashkil topishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Spartada miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda davlatning vujudga kelishi asosida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishining umumiy qonuniyatlari yotadi. Biroq, agar Afinada bu qonuniyatlar amalda urug'doshlik munosabatlarining deyarli to'la barham topishiga olib kelgan bo'lsa, **Spartada davlatning vujudga kelish jarayoni muhim xususiyatlari bilan ajralib turgan va urug'doshlik tashkilotining ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolishda davom etgan.**

Spartaning tarixiy rivojlanishidagi asosiy xususiyat sinfiy jamiyatning tashkil topishiga tashqi zo'ravonlik omilining aralashuvi bo'lgan. Qabilalarning miloddan avvalgi XII asrda boshlangan Bolqon

yarim oroliga ko`chishi ular o`rtasidagi harbiy to`qnashuvlar bilan birga sodir bo`lgan. Miloddan avvalgi XII asrda **axayya** qabilalari tomonidan ilgari bosib olingan Peloponnes yarim orolidagi kichkinagina Lakonika viloyatiga **doriy** qabilalari bostirib kirgan. Qattiq urushlardan so`ng axayyaliklar va doriylar o`zaro ittifoq tuzib, Sparta jamoasini tashkil etganlar va o`zlarini **spartaliklar** deb yuritganlar. Sparta jamoasiga biri doriylardan va ikkinchisi axayyaliklardan bo`lgan ikkita podsho boshchilik qilgan.

Kichkina Lakonika (300 kvadrat kilometr) yangi jamoa uchun torlik qilib qolgan. Shu sababli qo`shni Messiniyani egallash uchun urush boshlangan. Yuz yilga cho`zilgan bu urush natijasida Sparta g`alabaga erishgan.

Messiniya yerlari g`alaba qozongan qabilalarning umumiy mulki bo`lib qolgan, uning aholisi esa qullarga -ilotlarga aylantirilgan. Istilochilar yerlarni va qullarni bo`lib olib, quldorlar - hukmdorlar tabaqasini tashkil etganlar. Demak, shu tariqa jamiyatning aniq ijtimoiy darajalanishi yuz bergan: spartaliklar quldorlarning hukmron tabaqasiga, bo`ysundirilgan aholi esa qullarga va to`la huquqli bo`lmagan fuqarolarga aylanganlar.

Istilolar sparta jamoasi oldiga yangi vazifalarni keltirib chiqardi. Bosib olingan yerlar bosqinchilarning ilgari yerlaridan ancha katta edi. Bundan tashqari bo`ysundirilgan aholi bosqinchilardan 20 baravar ko`p edi. Shunday sharoitda hali doriylarga ham, axayyaliklarga ham ma`lum bo`lmagan hokimiyat organlarini tashkil etish zaruriyati kelib chiqqan. Biroq bu vaqtda hali sparta jamoasida ibtidoiy jamoa tuzumi buzilmagan edi. Spartaliklarda siyosiy hokimiyatning tashkil etilishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davri uchun tipik edi. Ularda ikkita urug`-qabila sardori (podshosi), oqsoqollar kengashi, xalq yig`ini mavjud bo`lgan. Lekin bu hokimiyat organlari bo`ysundirilgan aholi ustidan hukmronlik qilib turish uchun yetarlicha vositalarga ega bo`lmagan. Albatta bunday sharoitda bo`ysundirilgan aholi ustidan spartaliklarning to`la hukmronligini ta`minlaydigan siyosiy hokimiyat tashkil etish zaruriyati tug`ilgan.

Bo`ysundirilgan omma ustidan hukmronlik qilish, ularni ekspluatatsiya qilish zaruriyati o`z navbatida spartaliklarning birlashishlarini, urug`-qabila jamoasining ba`zi elementlari saqlanib qolishini talab qilgan. Bunga yana Sparta xo`jaligining agrar xarakteri, mamlakat hududining boshqa hududlardan ajralib qolganligi, tashqi savdo va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi tog` tizmalari bilan o`ralganligi ham imkoniyat yaratgan. Bu holatlarning hammasi Spartada sinfiy jamiyat va davlat batamom rasmiylashtirilgan sharoitlarda ham harbiy demokratiyaning ba`zi elementlari saqlanib qolishiga sabab bo`lgan.

Sparta davlatining tashkil topishidagi muhim xususiyatlardan biri shunday ediki, bu jarayon spartaliklar tomonidan o`zga xalqlarning yerlarini bosib olish natijasida ancha tezlashdi. Urug`chilik tuzumiga ma`lum bo`lgan "alohida zo`rlik" talab qilindi. "Buning natijasida tub xalqni cheklanmagan tarzda ezish va bostirib turishni amalga oshiruvchi kuchli davlat hokimiyati bilan mulk egaligi shakllariga, oilaga, davlatga hamda jamiyatning tashkiliy shakliga kuchli ta`sir etgan ibtidoiy jamoa tuzumi elementlarining o`ziga xos qo`shilishi vujudga keladi"⁴³ - deb yozgan edi taniqli rus olimi Z.M.Chernilovskiy ushbu jarayonga to`g`ri baho berib. Bu esa Sparta ijtimoiy va davlat tuzumining o`ziga xos xususiyatini tashkil qiladi.

Spartaning bu davrdagi ijtimoiy va siyosiy tuzumi afsonaviy qonunshunos Likurg tomonidan yozilgan "retra"larda mustahkamlangan. Likurg tarixiy shaxs sifatida mavjud bo`lmagan, uning islohot o`tkazgan vaqti ham aniq o`rnatilmagan. "Retra"larni ko`pchilik miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo`lgan deb hisoblaydi, "likurg tuzumi"ni esa miloddan avvalgi VII asrning oxiri - VI asrning boshida batamom tashkil topgan, deydi. Retralar ikkita asosiy vazifa: birinchidan, spartaliklar o`rtasidagi mulkiy farqlarni ushlab turish bilan ularning birligini ta`minlash, ikkinchidan, ularning (spartaliklarning) bo`ysundirilgan aholi ustidan birgalikdagi hukmronlik tashkilotini yaratish vazifalarini hal etishga harakat qilgan.

Ijtimoiy tuzum Spartada ibtidoiy jamoa munosabatlarining muhim qoldiqlari saqlanib qolgan o`ziga xos sinfiy quldorlik jamiyati tashkil topgan. Bu yerda istilochilar mahalliy aholiga nisbatan ancha kam bo`lganligi va ular hali urug`doshlik tuzumining buzi - lish bosqichida turganliklari sababli hukmronligi o`ziga xos bir tarzda bo`lgan. Mahalliy aholi o`z manzilida qolganu, ammo kelgindilar uchun ishlashi lozim bo`lgan. Ammo tub aholining hayoti qullarning hayoticha ham qadrlanmagan, chunki qullarni o`zlarining xususiy mulki deb hisoblovchi quldorlar ularning hayotidan ma`lum darajada manfaatdor bo`lganlar, biroq mahalliy aholiga kelganda, aksincha, ular sonining ko`paymasligi kelgindilar uchun foydali edi.

Spartaliklar davlatda hukmron sinfni tashkil qilganlar. Ular to`la huquqli fuqarolar hisoblangan. Spartaning imtiyozli sinfi (tabaqasi) bo`lgan spartaliklar "tenglar jamoasi" deb ataladigan jamoani tashkil etardi. Bu-urug`doshlik jamiyatidan sinfiy jamiyatga o`tish davri uchun xarakterli bo`lgan harbiy demokratiya qoldig`i edi. Lekin "tenglar jamoasi" Sparta quldorlik davlati sharoitida bo`ysundirilgan xalqlarni tutqunlikda

⁴³ Qarang: История рабовладельческого государства и права. - М.: Госюриздат, 1959.- 131-bet.

ushlab turish uchun hukmron sinfning (spartaliklar tabaqasining) harbiy-lashtirilgan birlashmasi edi.

Qadimgi Spartada yer xususiy mulk emas edi. Butun yer "tenglar jamoasi"ga qarashli bo`lib, jamoa o`z a`zolariga vaqtincha foydalanish uchun alohida chek yerlar (klerlar) ajratib bergan. Bunday yer uchastkalariga ilotlar (qullarga aylantirilgan huquqsiz mahalliy aholi) birlashtirib qo`yilgandi. Spartalikning o`zi va uning oilasi o`z uchastkasida ishlamas edi. Uning uchastkasida unga birlashtirib qo`yilgan ilotlar ishlab ekin ekardi. Butun yerlar taxminan to`qqiz mingta teng bo`linmas va ajralmas klerlarga ajratilgan edi. Ularni sotish, hadya qilish yoki vasiyat qilish mumkin emasdi.

Spartaliklar 5ta qishloq birlashmasidan iborat bo`lib, o`ziga xos harbiy lagerni eslatadigan shaharlarda yashaganlar. Spartaliklar ilotlardan qo`rqardilar, shuning uchun kechasi bitta ham ilot Sparta shahri hududida bo`lmasligi lozim edi. Spartaliklarning turmush tarzi juda qattiq tartibga solingandi. Harbiy majburiyat spartaliklarning asosiy majburiyati hisoblangan. Faqat harbiy ishgina spartalikka munosib mashg`ulot hisoblangan. Spartada kuchli va mustahkam jangchilar tarbiyalab yetishtirish uchun maxsus tarbiya tizimi mavjud edi.

Yangi tug`ilgan har bir chaqaloq, Sparta oliy mahkamasi-gerusiyaga, ya`ni oqsoqollar kengashiga olib borilgan, shundan so`ng maxsus komissiyada chaqaloqni tirik qolirish yoki o`ldirish kerakligi hal qilingan. Agar chaqaloq zaif va dardchil tug`ilgan bo`lsa, uni qoya ustidan pastga uloqtirib yuborganlar. Sog`lom va kuchli chaqaloqni tirik qoldirganlar, lekin u yetti yoshgacha ona qo`lida tarbiyalangan. So`ngra jamoat maktabiga borib, to balog`at yoshiga yetguncha, ya`ni 18 yoshgacha shu maktabda yashagan va ta`lim-tarbiya olgan. Maktabda tartib-qoida juda qattiq bo`lgan. O`g`il bolalar yostiqsiz qattiq bo`yra ustida yotib, ustlariga yengilgina ko`rpa yopib uxlaganlar. Ularning bittagina kiyadigan kiyimi plashch (gimatiy) bo`lgan. Issiqqa ham, sovuqqa ham bab-baravar chidamli bo`lishlari uchun qishin-yozin oyoq yalang va bosh kiyimsiz yurishgan.

Sparta o`g`il bolalarini chidamli qilib tarbiyalash uchun ularni ochlikka va tashnalikka o`rgatganlar. Ba`zi kunlarda sira suv ichirtirmaganlar. Ularni badanning og`rishiga chidashga ham o`rgatganlar. Shu maqsadda kichik yoshdagi guruhdan katta yoshli guruhga o`tganda yosh spartaliklarni tantanali vaziyatda kaltaklaganlar. Kaltaklash marosimiga kohina rahbarlik qilgan. Kaltaklash chog`ida o`g`il bolaning dodlashi va ingrashi uyat hisoblangan.

Maktabda o`g`il bolalar jismoniy mashq va harbiy ish bilan

shug`ullanganlar. Tarbiyadan maqsad - kuchli, chiniqqan jangchi yetishtirish edi.

Yunonistonning birdan-bir mamlakati Spartada xotin-qizlarni tarbiyalashga g`oyatda e`tibor berilgan. Unda ayollar katta hurmatga sazovar bo`lganlar. Spartaliklar, faqat sog`lom onadan sog`lom bola tug`iladi, deb hisoblaganlar. Shu sababli qizlar uy-ro`zg`or ishi bilan shug`ullanmagan. Bu ishlarni ilot ayollari bajargan. Sparta ayollari esa bolalik chog`idan gimnastika va sport bilan shug`ullanganlar, ular o`g`il bolalar kabi o`qish, yozish va hisoblashni bilganlar.

Spartaliklar balog`at yoshiga yetgach, uylanib oila qurganlar, lekin uylangandan keyin ham butun hayoti sof harbiycha tarzda o`tgan. Ular ertadan kechgacha kun bo`yi maktabda birga o`qigan o`rtoqlari bilan harbiy otradda bo`lishgan, birga harbiy mashqlar qilishgan va birga ovqatlanishgan. Ular askariy bo`linmalar bo`yicha tushki ovqat qilganlar. Bu Spartada **fiditiya** deb atalgan, boshqa shaharlardagi yunonlar uni "**sissitiya**" deb atashgan.

Fiditiya a`zolari "tenglar jamoasi"ni tashkil etganlar va hamma siyosiy huquqlarga ega bo`lgan. Fiditiyaga a`zo bo`lish uchun umumiy tushki ovqatga muayyan miqdorda natura bilan haq to`lash kerak edi. Fiditiya ishtirokchilarining porsiyalari teng bo`lgan. Mansabdor shaxslar faxriy ulush olganlar. Jangchilarning kiyim-kechaqlari, qurol-yarog`lari ham bir xil bo`lgan. Agar spartalik kambag`allashib qolsa va tushki ovqat haqini to`lay olmasa, fiditiyadan chiqqan hisoblangan va shu bilan "tenglar jamoasi"dan ham chiqib qolgan, shu tariqa siyosiy huquqlarini ham yo`qotgan.

Spartacha tarbiyaning ham, spartaliklarning keyingi hayotining butun yo`nalishi ham mamlakatning harbiy quvvatini mustahkamlashga qaratilgandi. Spartalik eng avval jangchi bo`lishi lozim edi. Spartaliklar 18-20 yoshdan 60 yoshgacha harbiy xizmatni o`tganlar. Kamchilik saylangan fuqarolar uchuyuzta suvoriyning imtiyozli korpusini tashkil etgan.

Spartaliklarning birligini ta`minlashga Likurg tomonidan o`rnatilgan zeb-ziyatga qarshi qoida ham ko`maklashgan. Spartaliklarning savdo bilan shug`ullanishi taqiqlab qo`yilgan edi. Savdo-sotiqni qiyinlashtirish uchun atayin temir pul joriy qilingan, kumush pulga ruxsat etilmasdi. Sparta davlati shunday choralar bilan chet ellar ta`siridan saqlanishga va spartaliklarni qanoatlantirib kelayotgan ibtidoiy munosabatlarni saqlab qolishga intiladi, chunki bu munosabatlar ilotlarni ekspluatatsiya qilish asosida moddiy farovonlikning kerakli darajasini ularga ta`minlab berardi.

Biroq bunday cheklashlar spartaliklarning birligini va "tengligini"

buzuvchi mulkiy darajalanishning rivojlanishini to'xtatib qololmagan. Chunki chek yerlar faqat katta o'g'illarga meros bo'lib o'tgan, boshqalar faqat egasiz qolgan yer uchastkalaridan chek yer olganlar. Agar bunday yerlar bo'lmasa, ular **gipomeyonlar** (kambag'allar, qashshoqlar) darajasiga o'tib, siyosiy huquqlarini yo'qotganlar, ya'ni xalq yig'inida va fidiyalarda ishtirok etish huquqidan mahrum bo'lganlar. Gipomeyonlar soni tobora o'sib, spartaliklar soni qisqarib borgan va miloddan avvalgi IV asrning oxiriga kelib ularning soni to'qqiz mingdan to'rt mingga tushib qolgan.

Ilotlar - Messiniyaning qullarga aylantirilgan aholisi - davlat mulki bo'lgan. Ular spartaliklar ixtiyoriga berilib, yerlarida ishlab, hosilning yarmini ularga berganlar (spartaliklar uy xo'jaliklarida harbiy asirlardan iborat qullardan foydalanganlar). Garchi, Sparta da Afinadagi singari qul mehnatini ekspluatatsiya qilish ijtimoiy ishlab chiqarishning asosi bo'lib qolgan bo'lsada, spartaliklarning jamoa qul egaligi klassik qulchshlikdan farq qilgan. Ilotlik qullikning o'ziga xos bir shakli bo'lgan. Ilotlar amalda o'zlarining mustaqil xo'jaliklarini yuritib, qullarga o'xshab tovar bo'lmay, o'zlarida qolgan hosilning bir qismini erkin tasarruf etganlar. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy holati kryepostnoy dehqonlar holatiga yaqin edi. Shuning uchun ba'zi olimlar ilotlarni qullar emas, balki kryepostnoylar deb hisoblaydilar. Lekin Sparta quldorlik jamiyatining iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilmaganligini, uning xo'jaligi arxaik ekanligini, jamoa yer egaligi mavjudligini unutmazlik kerak. Ilotlar, shubhasiz, qullar edi, chunki ahvollari boshqa yunon davlatlaridagi qullarning ahvolidan battar edi. Antik mualliflar bu haqda juda ko'p gapiradilar. Psevdo-Ksenofontning "Politiya"si buni yaqqol tasvirlab beradi.

Ilotlar butunlay huquqsiz bo'lib, Spartalik uni o'ldirishga haqli edi. Bugina emas, har yilda bir marta "kriptiya" degan xunrezlik qilinardi ("kriptiya" -yunoncha "o'ldirish" demakdir). Spartalik yigitlar kechalari birga yig'ilib, o'zlarini tanitmaslik uchun niqob va uzun plashch kiyib olishar, so'ngra ilotlar manziliga ravona bo'lishardi. Agar yo'lda ilotlarni uchratib qolishsa, hujum qilib ularni o'ldirishardi. Spartaliklar eng yosh va kuchli ilotlarni o'ldirishga harakat qilardilar. Spartaning boshqa aholisidan ajralib turish uchun ilotlar maxsus kiyim, boshlariga esa it terisidan telpak kiyishardi. Armiyada ilotlar yordamchi vazifalarni bajarardilar.

Boshqa yunon davlatlaridagi qullar bilan ilotlar o'rtasidagi farq shundan iborat ediki, ilotlar xususiy xo'jayinlarga emas, balki butun Sparta jamoasiga qarashli edi, chunki Lakonika ilotlarini qullikka solish davrida spartaliklarda ijtimoiy jamoa munosabatlari hali yo'qolmagandi. Bundan

tashqari, ilotlar o'z oilalariga ega bo'lib, tomorqa va yer uchastkalari ajratib qo'yilgan. Lekin aslida qaysi spartalik bersa, o'shaning mulki hisoblangan. Ilotlar bunday yerlarda o'z oilalari bilan yashab va ishlab hosilning yarmini yer egalari berganlar.

Ilotizm doriy qabilalarning Peloponnesni zabt etishi natijasida yuzaga kelgandi. Doriylar tomonidan zabt etilgan Fessaliya va Kritda ham mahalliy aholi qullikka solingan va bu qullik ilotlarning qulligiga o'xshardi.

Ilotlar - qullar mamlakat aholisining asosiy (ko'pchilik) qismini tashkil etgan. Z.M. Chernilovskiyning ma'lumotlariga qaraganda Spartada 200 mingdan ortiq ilotlar mavjud bo'lgan.⁴⁴

Shunday qilib, **Sparta qulchiligining o'ziga xos xususiyatlari** mavjud bo'lib, bunga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) qullar davlat mulki bo'lgan; 2) ular mamlakatning tub fuqarolari bo'lgan va ilgari o'zlariga tegishli, keyin esa spartaliklar o'rtasida taqsimlangan yerlarni ishlaganlar; 3) ular o'z uylarida, posyolkalarida yashab, o'zlarini o'zlari idora qilganlar; 4) ilotlar spartaliklarga qayta taqsimlangan yerlarda ishlab, hosilning ellik foizini ularga berganlar; 5) ilotlar urushlarda yengil qurollangan jangchilar sifatida ishtirok etganlar va erkinliklarini sotib olishlari mumkin bo'lgan.

Peloponnes hududidagi tog'li joylarda yashovchi qabilalar - **periyeklar** (qo'shnilar) deb atalgan. Ular huquqiy jihatdan spartaliklar va ilotlar oralig'idagi mavqega ega, ular shaxsan erkin bo'lib, mulkiy huquqiy layoqat sohibi, lekin siyosiy huquqlardan foydalanmaganlar va maxsus mansabdor shaxslar - garmostlar nazorati ostida edilar. Ular harbiy majburiyatlarga ega bo'lib, urushlarda og'ir qurollangan jangchilar sifatida ishtirok etishlari lozim edi. Periyeklarning asosiy mashg'uloti - savdo va hunarmandchilik bo'lgan. O'zlarining mavqeiga ko'ra afina meteklariga yaqin turganlar, lekin meteklardan farq qilib, davlatning oliy mansabdor shaxslari tomonidan sudsiz qatl etilishi mumkin edi.

Demak, Sparta aholisining asosiy sinflari - tabaqalari: spartaliklar, ilotlar, periyeklar jamiyatning ijtimoiy bo'linishini tashkil etib, Sparta davlatida tutgan o'rni yuqoridagicha aniq belgilab qo'yilgan edi.

Davlat tuzumi Sparta boshqarish shakliga ko'ra aristokratik (zodagonlik) davlat edi. Uning tepasida **ikkita podsho** turgan. Adabiyotlarda ular podsho deb yuritilsa ham, biroq hatto afina basileyga o'xshab keng vakolatlarga ega emas edi. "Podsho"

⁴⁴ **Qarang:** Черниловский З.Н. Всеобщая государства и права.-М.: Юрист, 1996.- 73-bet.

iborasi shartli ravishda ishlatilib, aslida **arxagetlar** deb atalgan. Arxagetlar hokimiyati urug`-qabila sardorlari hokimiyatidan farq qilib, merosiy bo`lgan, lekin bu uni mustahkam bo`lishiga olib kelmagan. Ular asosan kohinlik martabasiga ega bo`lib, avliyolar hisoblanganlar. Urush vaqtida arxagetlar qo`shinga qo`mondonlik qilganlar. Ular Sparta davlatining oliy aristokratik organi bo`lmish gerusiya hokimiyatiga ega bo`lganlar. Bugina emas, hatto eforlar, ya`ni Spartadagi barcha muassasalar ustidan nazorat qiluvchi oliy mansabdor shaxslar biron masala xususida so`zlashish uchun podshoni o`z huzurlariga chaqirish huquqiga ega edilar. Agar podsho efor huzuriga kelmasa, uni zo`rlab olib kelishgan.

Lekin arxagetlar mavqei faxriy bo`lib, harbiy o`ljalardan katta ulush olganlar, qurbonliklar qilganlar, oq-soqollar kengashi tarkibiga kirganlar, butun jamoa uchun ahamiyatga ega bo`lgan ba`zi ishlar bo`yicha sud ishlarini amalga oshirganlar. Dastlab arxagetlarning harbiy hokimiyati ancha to`liq edi. Ularga qo`shinlar bo`ysungan, harbiy yurishlar vaqtida hayot va o`lim huquqidan foydalanganlar, ya`ni jangchilar takdirini hal qila olganlar. Biroq kelajakda ularning harbiy vakolatlari ham ancha cheklangan.

Spartaning davlat tuzumida ibtidoiy jamoa tuzumining ko`pgina qoldiqlari saqlanib qolgan. **Spartada xalq yig`ini - apella** mavjud bo`lib, unda faqat 30 yoshga to`lgan spartalik erkaklar ishtirok etgan. Unda urush va sulh masalalari hal qilingan, qonunlar qabul qilingan, mansabdor shaxslar saylangan, boshqa davlatlar bilan ittifoqlar tuzilgan, arxaget mansabining meros bo`lib o`tishi haqidagi masala hal etilgan, urushlar vaqtida arxagetlardan qaysi birining qo`shinga qo`mondonlik qilishi hal qilingan va hokazo.

Dastlab xalq yig`inlari arxagetlar tomonidan chaqirilgan va ularga arxagetlarning o`zlari raislik qilishgan. Xalq yig`inida faqat mansabdor shaxslar yoki chet ellik elchilar so`zga chiqishi mumkin edi. Boshqa ishtirokchilar faqat nutqlarni tinglab, ovoz berishda ishtirok etishgan. Ovoz berish qichqirishlar yo`li bilan amalga oshirilgan. Agar yig`in ishtirokchilari kelisha olmasalar, turli tomonlarga tarqab ketishgan. Shunisi ham borki, agar yig`inga oqsoqollardan birortasi kelsagina xalq yig`ini ochiq deb hisoblangan. Agar oqsoqollar yig`inni chaqirishga rozi bo`lmay, unga kelmasalar, yig`in ochilmagan. Sparta xalq yig`ini real kuchga ega bo`lmay, asosiy davlat masalalarini hal qila olmasdi. Yig`in odatda har oyda chaqirilib turardi. Sparta xalq yig`ini Afina xalq yig`inidan farq qilib davlat hayotida juda katta o`rin tutmagan. Ayniqsa, miloddan avvalgi IV asrga kelganda uning ahamiyati juda pasayib ketgandi.

Sparta davlatida kuchli boshqaruv organi - **gerusiya - oqsoqollar**

kengashi bo'lgan. U ham arxagetlar va xalq yig'ini singari urug'doshlik tashkilotidan meros bo'lib qolgan edi. **Gerusiya** - "geront" - **keksa so'zidan** olingan. Unga 60 yoshga yetgan yigirma sakkiz kishi va 30 yoshga yetgan ikkita podsho kirgan. Agar podsholar yosh bo'lsa, ularning o'rniga qarindoshlaridan bo'lgan vasiylar gerusiyada ishtirok etib, podshoning vakolatlarini amalga oshirganlar. Gerontlar gerusiyada umrbod majlis qilganlar. Gerontlardan bironyasi o'lsa, bo'shab qolgan o'rniga yangi geront saylangan. Spartaliklar bu mansabga o'z nomzodlarini xalq yig'inida taklif etganlar.

Gerusiya xalq yig'inida ko'rilishi lozim bo'lgan masalalarni oldindan ko'rib chiqqan, tashqi munosabatlarni olib borgan. Vaqt o'tishi bilan uning vakolatlari kengayib borgan. Agar xalq yig'ini qarorlaridan norozi bo'lsalar, uni tark etganlar va bunday hollarda xalq yig'ini ham tarqalib ketgan. Gerusiya davlatga qarshi jinoyatlarni ham ko'rib chiqqan, arxagetlarga qarshi sud jarayonlarini olib borgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Spartada barcha muassasalar ustidan nazoratni **oliy mansabdor shaxslar - eforlar** olib borgan. Eforlar Spartada miloddan avvalgi VIII asrda urug'-qabila boshliqlari va urug' aristokratiyasi o'rtasidagi keskin ziddiyatlar natijasida paydo bo'lgan. Urug' aristokratiyasi harbiy o'ljalardan katta hissalar olish va erkin jamoachilarni ezish imkoniyatiga ega bo'lib, urug'-qabila boshliqlarining umrbod hokimiyatini ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan aristokratlar vakillarining hokimiyati bilan cheklashga harakat qilganlar. Har yili beshta efor saylanib qo'yiladigan bo'lgan. Dastlab eforlar go'yo arxagetlarning yordamchilari hisoblanganlar va mulkiy nizolar bo'yicha sud ishlarini amalga oshirganlar. Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalaridan boshlab eforlar hokimiyati juda oshgan. Ular arxagetlarni ham o'z nazoratlari ostiga olganlar, yurishlarda arxagetlarni ikkita efor kuzatib borgan. Eforlar gerusiya va xalq yig'inini chaqirish huquqini qo'lga kiritganlar va ularning faoliyatiga rahbarlik qilib turganlar. Gerusiya bilan birga xalq yig'inida qabul qilinadigan o'zlari uchun nomaqbul qarorlarni bekor qila olganlar. Spartaning tashqi munosabatlariga rahbarlik qilish, ichki boshqaruvini amalga oshirish funksiyalari ham eforlar qo'lga o'tgan. Eforlar spartaliklarning mavjud tartiblarga rioya etishlarini kuzatib turganlar, ularni sud qilganlar, jazolar tayinlaganlar. Urush va tinchlik e'lon qilish, mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilish kabilar ham eforlarga tegishli edi. Lekin bular, albatta, Afinadagidek keng emasdi.

Eforlarning faoliyati amalda nazorat qilinmagan. Ular faqat o'z vorislariga hisob berganlar.

Armiya

Spartada armiya juda yaxshi tashkil etilgan edi. Spartalik erkaklarning hammasi harbiy xizmatga majbur edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, spartaliklar 7 yoshdan 18-20 yoshgacha harbiy ta'limni o'rganib, 20 yoshdan 60 yoshgacha armiya xizmatida turishgan. Ilotlar yengil, periyeklar esa og'ir qurollanishgan. Frontning oldingi qismida ilotlar, periyeklar borgan, ulardan keyin yosh spartaliklar, oxirida 60 yoshgacha bo'lgan kekxa kishilar jangga kirishgan. Bu armiya miloddan avvalgi VI-V asrlarda Yunonistonda eng yaxshi tashkil etilgan, intizomli va kuchli armiya bo'lgandi.

Qo'shinlar o'n ikkita harbiy qism (lox)ga bo'lingan. Lox tepasida loxag turgan. Butun armiyaga qo'mondonlikni podsholar amalga oshirganlar. Ularga harbiy ishlarda pol-marxlar yordam bergan.

Armiya tarkibida "Uch yuzta suvoriylar"dan iborat otliq askarlar ham bo'lib, urush vaqtida podsholarni qo'riqlaydigan, tinchlik vaqtlarida esa mamlakat havfsizligini ta'minlaydigan o'ziga xos otliq gvardiyani tashkil etganlar.

Sparta siyosiy tizimining inqirozi

Spartada hukmron sinfnining qudratli harbiy tashkilotiga aylangan yaxlit ijtimoiy tuzilishi uning yunon davlatlari ichida tez yuksalishiga ko'maklashgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib Sparta Peloponnes simmaxiyasiga boshchilik qilib deyarli butun Peloponnes ustidan o'z gegemonligini o'rnatgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi turg'unlik, ma'naviy tushkunlik - ilotlar ustidan hukmronlikning katta ahamiyati - Yunonistonda Spartani reaksiya markazi qilib qo'ygan. Shu bilan birga Peloponnes urushidagi (miloddan avvalgi 431-404 yillardagi) g'alaba, Afinadan olingan katta miqdordagi kontributsiya spartaliklarning mulkiy darajalanishini birdaniga kuchaytirib yuborgan va tovar-pul munosabatlari rivojlangan. Bu jarayonlar miloddan avvalgi IV asr boshida yer uchastkalarini hadya qilishga va vasiyat qilib qoldirishga ruxsat etilishi bilan yanada kuchaygan (yerlarni sotishga xali ham ruxsat etilmagan edi, lekin bunday hollar uchrab turgan). Davlatning chekka o'lkalaridagi yerlarni egallab olish hisobiga zodagonlarning yerlari ko'paygan. Savdoning taqiqlanishiga amal qilinmay qo'ya boshlangan. Sobiq asketik (tarkidunyochilik, zohidlik) spartacha turmush tarzi o'tmishda qolib ketgan. Oddiy spartaliklarning ommaviy tarzda xonavayron bo'lishi yerlaridan mahrum bo'lishiga va demak, to'la huquqli bo'lmay qolishiga olib kelgan, Sparta jamoasining birligiga putur yetgan, uning harbiy qudrati pasaygan - to'la huquqli spartaliklar soni qisqargan, yollanganlar paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi IV asrda Yunonistonning Makedoniya tomonidan istilo qilinishi

natijasida Messeniyaning qo`ldan ketishi va u bilan birga yerlar va qullar ham yo`qotilishi Sparta davlatining iqtisodiy asosini yemirgan.

Miloddan avvalgi III asrda xonavayron bo`lgan spartaliklarning talabi bilan yerlarni qaytadan taqsimlash, qarzlarni yo`qotish, harbiy qudratni tiklash, Spartaning to`la huquqli bo`lmagan fuqarolariga huquqlar berish yo`li bilan eski tartiblarni qaytadan o`rnatishga bo`lgan urinish barbod bo`ldi. Quldorlik jamiyati rivojlanishining ob`yektiv qonuniyatlari jamoa tuzumining jamoachilik qoldiqlari saqlanib qolgan ijtimoiy va siyosiy tartiblarini qat`iy halokatiga olib kelgan.

Ichki kurashlar azobidan batamom kuchsizlanib qolgan Sparta, boshqa yunon davlatlari kabi, miloddan avvalgi II asr o`rtasida Rim davlati hokimiyati ostiga tushib qolgan.

7. Afina va Spartada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari Afina va Spartada huquqning qadimgi manbai odat huquqi bo`lgan. Ayniqsa Spartada yozilmagan, odat huquqi muhim o`rin tutgan. Bu yerda yozma qonunchilik uzoq vaqtgacha taraqqiy qilmagan. Huquq ilotlarning ezilgan, huquqsiz holatini va spartaliklarning imtiyozlarini mustahkamlagan. Spartada yozma qonunchilikning vujudga kelishi afsonaviy qonun ijodkori Likurgning nomi bilan bog`lanadi. Uning qonunchiligi "Retra" deb nomlangan hujjatlarda bayon qilingan. O`sha davrning tarixchisi Ksenofontning ma`lumotlariga qaraganda, Likurg spartaliklarning savdo ishlari bilan shug`ullanishlarini taqiqlash to`g`risida qonunlar chiqargan.

Afinada esa miloddan avvalgi 611 yilda arxont Drakont davrida birinchi marta yozma qonunchilik tarkib topgan. Bu qonunlar bizgacha yetib kelmagan, u o`zining qattiq jazo tizimi bilan mashhur bo`lgan. Miloddan avvalgi VI asrda Salon davrida ham ko`p qonunlar qabul qilingan. Salon o`z qonunlarini o`n olti yog`och taxtaga yozdirib qo`ygan. Ammo bu ham bizgacha yetib kelmagan. Miloddan avvalgi V-VI asrlarga kelib qonunchilik faoliyati kengayib, xalq majlisining umumiy ahamiyatga ega qarorlari qonun kuchiga ega bo`gan.

Mulk huquqi Spartada uzoq vaqtgacha yerga nisbatan jamoa mulkchiligi saqlanib qolgan. Jamoa yeri chek yerlarga ajratilib, ularni begonalashtirish mumkin emasdi. Bu bilan bir qatorda, Aristotelning xabar berishicha, boshqa begonalashtirilishi mumkin hisoblangan yerlar ham bo`lgan, lekin bu sharmandalik hisoblanardi. Bunday yerlar periyeklar joylashgan okruglardan egallab olingan yerlar, davlat tomonidan spartalik zodagonlar vakillariga in`om

qilingan yerlar edi. Shu tariqa yerga egalikda tengsizlik kelib chiqqan va bu vaqt o'tishi bilan aniq shakllarga ega bo'la borgan.

Spartada miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida uylar va yer uchastkalarini hadya etishga vasiyat qilishga yo'l qo'yuvchi qonun chiqarilgan, zero bu shu vaqtgacha taqiqlab qo'yilgandi. Yerlarni sotish ilgariyidek mumkin bo'lmagan, lekin hadyaga ruxsat etilishi mulklarni qo'ldan qo'lga o'tishi uchun imkoniyat yaratgan. Spartada savdo taqiqlab qo'yilgan bo'lsada, bunga deyarli amal qilmay qo'ya boshlangan.

Afinada Spartadan farqli o'laroq xususiy mulkchilik ancha rivojlangan. Lekin hatto Afina eng rivojlangan miloddan avvalgi V-IV asrlarda ham xuddi rim huquqida belgilanganidek xususiy mulk egalarning keng huquqlari haqidagi tasavvurlar hali vujudga kelmagandi. Hatto Afinada xususiy mulk huquqini anglatadigan ibora ham bo'lmagan, Qonunlarda o'z aksini topgan "ousia" tushunchasi mulkdor egalik qilib turgan mulkni, ashyolar, boyliklar yig'indisini anglatgan, xolos, u mulk huquqini bildirmasdi, yerlarni egallab olish Yunonistonda hech qachon xususiy mulkchilik manbai sifatida katta rol o'ynamagan.

Mulk huquqi bir necha da'volar bilan himoya qilingan. Dastlab yer uchastkasi yoki uydan keladigan daromadlar haqidagi da'vo taqdim etilgan; bu mazkur mulklarga vaqtincha egalik qilib turgan shaxslarga nisbatan qilingan. So'ngra mulk haqidagi da'vo – dike ousias taqdim etilgan. Bu yerda da'vogar o'z huquqini isbotlanishiga murojaat qilgan, ya'ni o'zining mulk huquqi tan olinishi haqidagi talabi bilan chiqqan.

Qadimgi Afina fuqarolik huquqi yerga, qulga, ish hayvonlariga nisbatan xususiy mulkchilikning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek Afinada davlat mulkchiligi ham mavjud bo'lib, uning ob'yekti turli ashyolar bo'lgan.

Majburiyat huquqi

Spartada majburiyat huquqi uncha rivojlanmagan bo'lsada, Yunonistonning boshqa polisi - Afinada majburiyatlar keng tarqalgan. Quyida asosan Afinaning majburiyat huquqi bilan tanishib chiqamiz.

Majburiyatlarning shartnomalardan va deliktlardan kelib chiqadigan turlari bir-biridan ajratib ko'rsatilgan.

Har qanday mazmundagi turli bitim (kelishuv) shartnoma majburiyatiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin edi. Shartnormalarning haqiqiy-ligi uchun hech qanday majburiy shakllar mavjud bo'lmagan. Biroq isbotlashni yengillashtirish maqsadlarida bitimlar ko'pincha yozma shaklda tuzilgan. Afina huquqiga xos bo'lgan rasmiyatchilik juda barvaqt yo'q bo'lib ketgan.

Salon islohotlariga qadar shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik uchun qarzdorning shaxsiy javobgarligi oʻrnatilib, buning uchun u qarzdorlik asoratiga tushishi mumkin edi. Salon agar biror fuqaro chet eldan qullikdan sotib olinib, buning uchun qarzini toʻlamaganda ularni qulga aylantirilishi tartibini saqlab qolgan.

Zakat, garov va kafillik Salon islohotlaridan keyin shartnoma majburiyatlarini taʼminlash vositalari sifatida saqlanib qolgan. Baʼzan shartnomaga shartnomani bajarmaganlik uchun pul jarimasi haqidagi shart qoʻshib qoʻyilgan.

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini taʼminlash yuzasidan beradigan pul summasi **zakalat** hisoblanadi. Agar zakalat bergan shaxs shartnoma tuzishdan bosh tortsa, bergan zakalatidan mahrum etilgan. Agar zakalat olgan shaxs shartnoma tuzish istagidan qaytsa, u holda zakalat sifatida olgan pul summasini ikki baravar qilib qaytarishi lozim boʻlgan.

Shartnoma majburiyatlarini taʼminlash uchun, shuningdek **kafillikdan** ham foydalanilgan. Bunda kafil boshqa shaxs oldida oʻz majburiyatini toʻla yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni oʻz zimmasiga oladi. Qarzdor kafillik bilan taʼminlangan majburiyatni bajarmagan takdirda kafil kreditor oldida javob berishi lozim boʻlgan. Afinada kafillikka juda qadimdan - huquqiy munosabatlarning kurtaklari paydo boʻla boshlagan vaqtdan murojaat qilgan edilar. Har qalay "Odessiya"da ham kafillik haqida eslab oʻtiladi ("Odessiya", VIII bob, 344-modda va XI bob).

Qadimgi Yunonistonda sudxoʻrlik bilan bir qatorda **garov** huquqi ham keng rivojlangan. Harakatdagi ashyolar garovga qoʻyilganda ular kreditorning egaligiga oʻtkazilgan. Agar qarzdor qarzini toʻlamasa, garovga qoʻyilgan ashyo qarzni undirish sifatida kreditor foydasiga sotilgan. Yer garovga qoʻyilganda, u vaqtincha egasining ixtiyorida qolavergan. Biroq qarz muddatida toʻlanmasa, kreditor garovga qoʻyilgan yerni tortib olgan.

Afinada shartnomalarning oldi-sotdi, ijara, qarz, ashyolarni omonat saqlash, shirkat, topshiriq; vositachilik kabi turlari keng tarqalgan edi.

Oldi-sotdi shartnomasi tomonlarning oddiy norasmiy kelishuvi asosida tuzilgan. Faqat harakatdagi ashyolar emas, balki turli xil koʻchmas mulklar: dala, uy, bog` ham shartnoma predmeti boʻlishi mumkin edi. Oldi-sotdi shartnomasining predmeti koʻpincha qullar boʻlgan. Lekin Salon islohotlaridan keyin erkin kishilarni qul qilib sotish mumkin boʻlmay qolgan.

Begona ashyolarni sotish haqiqiy emas deb hisoblangan.

Oldi-sotdi shartnomasi Afinada bevosita hech qanday maxsus rasmiyatchiliklarsiz sotilgan ashyoga nisbatan mulk huquqining boshqa shaxsga (sotib oluvchiga) o`tkazilishiga olib kelgan. Biroq sotib olingan summani to`lash mulk huquqi o`tkazilishining dastlabki sharti bo`lgan. Agar ashyo uning qiymati to`la to`lanmasdan avval oluvchiga berilgan bo`lib, oluvchi o`z majburiyatlarini bajarmasa, sotuvchi sotilgan ashyoni qayta talab qilib olishi mumkin edi.

Shunday qilib, sotib oluvchining majburiyati kelishilgan narxni to`lashdan iborat bo`lgan. Sotuvchi esa ashyoni qanday shartlashilgan bo`lsa, shundayligicha to`liq sotib oluvchiga o`tkazish va uni uchinchi shaxs tomonidan talab qilinmasligiga kafolat berish majburiyatini olgan. Afinada kasal qulni sotgan sotuvchining javobgarligini va bunday holda sotib oluvchiga bitimni qisqa muddat ichida bekor qilish huquqini belgilovchi qonun mavjud edi. Agar qul tutqanoq kasaliga chalingan bo`lsa - bir yil, boshqa kasal bo`lsa, olti oy ichida sotuvchiga qaytarilishi va uning uchun to`langan haq qaytib olinishi mumkin bo`lgan.

Ijara shartnomasining predmeti harakatdagi va harakatsiz mulklar bo`lishi mumkin edi. Ijaraga chorva, qullar, kema, yer, uy berilardi. Afinada ayniqsa uylarni ijaraga berish keng tarqalgan, inchunun, meteklar, qoida bo`yicha, uyga mulk sifatida egalik qilish huquqiga ega emasdilar va shuning uchun ham uylarni ijaraga olib yashashga majbur edilar.

Ijara shartnomasi oldi-sotdi shartnomasi singari qandaydir maxsus shakllarni talab qilmagan. Ko`chmas mulklar ijarasida yozma shartnomalar tuzish qabul qilingan. Turli xildagi jamoalar bilan tuziladigan ijara shartnomalari uchun rasmiyatchiliklar o`rnatilgandi.

Ijara shartnomasi bo`yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Ijaraga oluvchining asosiy majburiyati ijara haqini o`z vaqtida to`lashdan iborat edi. Qishloq xo`jaligida ijara haqini natura tarzida to`lashni nazarda tutuvchi ijara shartnomalari uchrab turardi. Uyni ijaraga olib yashovchilar, agar ijara haqini o`z vaqtida va to`liq to`lamasalar, qonun bo`yicha mulk egasi ijarachilarni uyan chiqarib yuborishlari, eshiklarni chiqarib olishlari, tomni buzib olishlari, quduqni yopib qo`yishlari mumkin bo`lgan.

Ijarachi ijaraga olgan ashyoni yaxshi saqlash, zarur bo`lsa ta`mirlab turish majburiyatiga ega bo`lgan. Ijaraga olingan ashyo muddat o`tgandan so`ng tuzatilgan holda qaytarilishi lozim edi.

Afinada ijara shartnomasidan **ssuda shartnomasi**, ya`ni ashyolardan

bepul foydalanish shartnomasi ajratilgandi. Bu shartnoma "chresis" degan nom bilan atalgan.

Afinada **shaxsiy ijara** uncha keng tarqalmagan, chunki yollanma mehnat xo`jalikda muhim rol o`ynamagan, asosan qullar mehnatidan foydalanilgan. Lekin shunga qaramay Afinada qishloq xo`jaligida, uy ishlarida, shahardagi boshqa turli xizmatlarda, shuningdek ijtimoiy ishlarda shaxsiy ijara shartnomalari tuzilgan. Arzon qul mehnatini ekspluatatsiya qiluvchi quldorlar bilan raqobat qilolmagan Attika dehqonlari va afina hunarmandlari xonavayron bo`lib, ba`zilar batraklar sifatida, boshqalari yollanma ishchilar sifatida xizmatga borishga majbur bo`lardilar.

Shaxsiy ijara shartnomasidan **pudrat - xeraolabeia shartnomasi (ishni baholab olish)** farq qilgan. Ayniqsa ijtimoiy ishlarni pudrat tartibida bajarish muhim ahamiyatga ega edi. Manbalardan ma'lumki, kanallar qurish, botqoqliklarni quritish, ibodatxonalarni ta'mirlash va boshqa ishlarni amalga oshirish bo`yicha tuzilgan pudrat shartnomalari bo`lgan. Qullarni ishga o`rgatish va boshqa shartnomalar ham pudrat shartnomasi hisoblangan.

Qarz shartnomasi Afinada keng tarqalgan shartnomalardan edi. Qoida bo`yicha, qarz ma'lum foizlar to`lash sharti bilan berilgan. Biroq, foizlarsiz qarz berish ham mavjud edi. Qadimgi Yunonistonda, ayniqsa, Afinada sudxo`rlik juda rivojlangandi. Bunga qarshi buyuk yunon mutafakkirlaridan Platon ("Qonunlar", V bob, 742-modda) va Aristotel ("Siyosat", I bob, 3-modda) asarlari ham natija bermagan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Salon islohotlariga qadar qishloqda qoyedit operatsiyalari keng tarqalgandi. Bunga ko`ra, erkin dehqonlar ko`p hollarda qarzini to`lay olmay kreditorlarga qarzdorlik asoratiga tushib qolardi. Salon islohotlari, garchi qarzdorlik asoratini tugatgan bo`lsada, qishloqdagi sudxo`rlik operatsiyalarini tugatmadi, shuningdek dehqonlarning xonavayron, yer uchastkalaridan mahrum bo`lishlariga barham bermadi. Shaharlarda ham sudxo`rlik gullab-yashnagan. Ibodatxonalar ham sudxo`rlik bilan shug`ullangan.

Qarz shartnomasi hech qanday rasmiyatchiliklarni talab qilmagan. U og`zaki va hatto guvohlarsiz tuzilishi mumkin edi. Biroq, albatta, qarz shartnomasi ko`pincha guvohlar ishtirokida va yozma tarzda tuzilgan. Qarz o`z muddatida qaytarilishi lozim edi. Aks holda kreditor qarzni turli vositalar yordamida undirilishini da`vo qilishi mumkin bo`lgan.

Ashyolarni **omonat shartnomasi** buyicha bir taraf (omonat saqlovchi) unga ikkinchi taraf (yuk topshiruvchi) bergan ashyoni saqlash va uni to`la holda qaytarish majburiyatini oladi. Bunda ashyo foydalanish

uchun emas, saqlash uchun topshiriladi. Ashyoni omonat saqlash uchun olgan shaxs xo`jayinning birinchi talabidayoq uni qaytarishi lozim bo`lgan.

Agar o`z vaqtida qaytarilmasa, ashyo egasi tegishli da`vo qo`zg`atishi mumkin edi. O`z navbatida omonat saqlovchi ashyoni saqlash bilan bog`liq xarajatlarni ashyo egasidan talab qilish huquqiga ega edi.

Afinada fuqarolarning o`zaro **shirikchilik shartnomasi** bilan bog`liq turli xil birlashmalari keng tarqalgan. Bu shartnoma, qoida bo`yicha, yozma ravishda rasmiylashtirilgan. Shartnoma ishtirokchilari umumiy shirikchilik mulkini tashkil etish uchun mablag`lar qo`yganlar. Sheriklar ishlarni ehtiyotsizlik bilan yuritish natijasida yoki qasddan yetkazilgan zararlar uchun bir-birlarining oldida javobgar bo`lardilar.

Sheriklar Afinada o`z vakillari orqali ko`chmas va boshqa mulklarga egalik huquqidan foydalanganlar. Daromad va zarar sheriklar o`rtasida shartnoma shartlari bo`yicha taqsimlangan, agar bunday shartlar bo`lmasa, har kimning qo`shgan hissasiga qarab belgilangan.

Afinada majburiyat huquqi **topshiriq shartnomasidan** ham kelib chiqqan. Unga ko`ra bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo`yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi.

Vositachilik shartnomasi bo`yicha bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig`i bo`yicha o`z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. Vositachi tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo`yicha vositachi huquqlarga ega bo`ladi va zimmasiga majburiyat oladi.

Delikatlardan kelib chiqadigan majburiyatlar Ruxsat etilmagan harakat natijasida fuqaroning shaxsiga yoki mulkiga zarar yetkazilsa, qator hollarda jazo berilmagan, balki jabrlanuvchi foydasiga jarimalar undirilgan. Bu jarimalar ko`pincha yetkazilgan zararining miqdoridan oshib ketgan.

Mulka yetkazilgan har qanday zarar **dike blabes** da`vosini taqdim etish uchun asos bo`lgan. Bu da`vo qo`shnisi aybi bilan dalaga suv bosib ketgan bo`lsa, o`sha qo`shniga nisbatan bayon qilingan. Shuningdek, birovning ko`ylagini yirtgan yoki boshqa mulkka zarar yetkazgan shaxslarga nisbatan ham da`vo qilingan.

Ota bolalari tomonidan yetkazilgan, xo`jayin o`z quli tomonidan yetkazilgan mulkiy zarar uchun javob berganlar.

Nikoh-oila huquqi

Afinada **nikohga** kirish hamma uchun majburiy edi. Biroq nikohsizlik uchun hech qanday jazolar nazarda tutilmagan. Bu baxtsizlik holati sifatida ko`rilgan, chunki nikohsizlik

avlodlar marosimlarining tugashiga olib kelgan. Gomer davrida nikoh ke-linlarni olish-sotish shartnomasi asosida tuzilgan. Bunda bir tomonda qizning otasi, ikkinchi tomonda kuyov turgan. Qizning otasi kuyovdan chorva va boshqa qimmatbaho predmetlar (hedna) olgan va albatta, o`z navbatida kuyovga ham sovg`a berilgan.

Ota qiziga sep-sidirg`a berishga majbur emas edi, Lekin qiz uning akasi tomonidan erga berilayotgan bo`lsa, aka sep-sidirg`a berishi lozim bo`lgan. Sep-sidirg`a sifatida olingan mulkni er boshqargan va ularni nikohdan tug`ilgan bolalari uchun butun saqlashi lozim bo`lgan.

Nikoh tuzishning ikkita shakli ajratilgan: a) **engiesis** -kuyovning ke-lingning otasi yoki homiysi bilan tuzadigan oddiy shartnomasi va b) **epidi-kasia** - mansabdor shaxslar oldida yoki sud oldida nikoh tuzish.

Mansabdor shaxslar yoki sud oldida nikoh tuzish faqat ba`zi hollarda qo`llangan. Masalan, agar merosxo`r qizlar erga berilayotgan bo`lsa yoki boshqa shaxslar tomonidan qiz qilib olingan qizlar erga berilayotganda yohud o`g`il qilib olinganlar uylantirilayotganda mansabdor shaxslar yoki sud oldida nikoh shartnomasi tuzilgan.

Afina **oilasi** - bir nikohli bo`lgan. Ayollar unda tobe, past mavqega ega edi. Oilaning bir nikohliligi haqiqatda ayollar uchun edi. Biroq erning hotindan tashqari boshqa ayollar bilan aloqasi hech qanday yuridik oqibat-larni keltirib chiqarmagan.

Ajralish erkaklar uchun erkin bo`lgan, er hohlagan vaqtida xotinini o`z uyidan haydab yuborishi mumkin edi. Bunday holda, agar xotin xiyo-natda ayblanmagan bo`lsa sep-sidirg`a unga qaytarib berilish lozim edi. Bunda hech qanday rasmiyatchiliklar, xususan, hech qanday mansabdor shaxsga murojaat qilish talat` qilinmagan. Lekin, agar xotinning ixtiyori bo`yicha nikoh bekor qiliyacigan bo`lsa, xotin ajralish uchun asoslarni ko`rsatgan holda arxontga yozma ariza bilan murojaat qilishi lozim edi. Bu ayollarning qaramlik holati tufayli ko`pincha amalga oshirib bo`lmaydigan tartib bo`lgan.

Ota oilada juda katta **hokimiyatga** ega bo`lgan: u o`g`illariga nis-batan hayot va o`lim huquqiga ega edi. Salongacha otalarning o`z o`g`illarini qullikka sotish huquqi saqlanib qolgandi. Salon otaga buysun-magan va uni hurmat qilmagan o`g`ilni haydab yuborish huquqini saqlab qoldi. Biroq vaqt o`tishi bilan ota hokimiyati ancha kamaygan. Miloddan avvalgi V asrga kelib otaning ilgari cheklanmagan hokimligidan faqat

ba'zilari saqlanib qolgan edi. Ota bola tug'ilgandan keyin dastlabki kunlarda uni, agar o'zini emas deb hisoblasa, undan voz kechishi mumkin bo'lgan. Ota, agar o'g'li u bilan yomon munosabatda bo'lsa, undan yuz o'girishi va merosdan mahrum qilishi mumkin edi. Ota qizini xohlagan kishiga erga bera olgan va hatto buni vasiyatda ko'rsatishi ham mumkin bo'lgan.

Bolalar o'z ota-onasini hurmat qilishlari va ularga so'zsiz bo'ysunishlari, shuningdek, kambag'allikka tushib qolgan ota-onasini boqishlari lozim edi. Bunday majburiyatlarni bajarmagan o'g'il sud oldida ota-onasiga yomon munosabatda bo'lganlikda javob berishi kerak edi.

Sparta nikoh-oila huquqida shu narsa xarakterli ediki, ayollar Afina'dagi ayollardan farqli o'laroq, jamiyatda katta mavqega ega edilar. Nikoh asosan juft (monogamiya) shaklida bo'lgan. Lekin Spartada guruhiy nikoh qoldiqlari ham saqlanib qolgandi. Masalan, u yerda bir necha aka-ukalar bitta, umumiy xotinga ega bo'lgan holatlar ham saqlanib qolgandi. Sparta jamiyatida ayollarning ancha yuqori mavqega ega bo'lishini asosan bu yerda matriarxat qoldiqlarining kuchlilik bilan izohlash mumkin.

Meros huquqi Afinada **meros qonuniy va vasiyat** bo'yicha qoldirilishi mumkin edi. Agar o'lgan shaxs vasiyat qoldirmagan bo'lsa, meros qonun bo'yicha quyidagi tartibda taqsimlangan. Merosga birinchi navbatda o'lgan shaxsning o'g'illari chaqirilgan. O'g'illar bo'lsa, qizlar merosxo'r bo'la olmaganlar. Qizlar faqat turmushga chiqayotganlarida akasidan sep-sidirg'a olishlari mumkin edi. Meros o'g'illar o'rtasida teng taqsimlangan. Nikohsiz tug'ilgan bolalar ota mulkiga merosxo'r bo'la olmaganlar. Qonun bo'yicha ularga ozgina miqdordagi mulk vasiyat qilib qoldirilishi mumkin edi. Agar to'g'ridan-to'g'ri merosxo'rlar bo'lmasa, unda birinchi navbatda aka-ukalar va jiyalar, ular bo'lmasa, opa-singillar va ayol jiyalar merosga chaqirilganlar, ikkinchi navbatda esa tog'alar, amakivachchalar, ularning bolalari va boshqalar merosga taklif qilingan.

Afinada Salon davridan boshlab **vasiyat** bo'yicha meros paydo bo'lgan. Vasiyatning haqiqiy hisoblanishi uchun vasiyat qoldiruvchi sog'lom akiga ega bo'lishi va vasiyat hech qanday jismoniy yoki ma'naviy zo'rliksiz qilingan bo'lishi talab etilgan. Salon qonuni bo'yicha faqat, agar kimda o'g'il jinsidagi qonuniy bolalari bo'lmasa, o'sha kishi vasiyat qilishi mumkin edi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar va ayollar vasiyat qila olmaganlar. O'g'il qilib olinganlar ham o'z mulkini vasiyat qila olmagan, agar uning avlodi bo'lmasa, uning mulki uni o'g'il qilib olgan oilaga o'tgan. Agar vasiyat qiluvchida bitta qiz bo'lsa, o'z mulkini shu qiziga va-

siyat qilishi mumkin edi. Agar meros qildiruvchida bir necha qiz bo`lsa, u holda vasiyat qiluvchi o`ziga bit-ta merosxo`r tayinlab, unga qizlaridan birini erga berib, uning zimmasiga boshqa qizlarini ham sep-sidirg`alar bilan erga berish majburiyatini yuklashi mumkin edi.

Jinoyat huquqi

Afina huquqi jinoyat va jazo masalalarida ibtidoiy jamoa tuzumining anchagina qoldiqlarini o`zida saqlab qolgandi. Bu shunda ham ko`ringan ediki, odam o`ldirish jinoyati davlat organlarining emas, balki o`lgan kishining qarindoshlarini qiziqtiradigan ish bo`lgan. Odam o`ldirganlik uchun o`lgan kishining qarindoshlariga jarima to`lash bilan javobgarlikdan qutilish mumkin bo`lgan. Agar o`lgan kishining yaqin qarindoshlari bo`lmasa, qotil o`lgan kishi taalluqli bo`lgan fratriyaning o`nta a`zosisiga jarima (vergeld) to`lagan. Agar o`lgan kishining qarindoshlari qotilga qarshi ta`qib ishini qo`zg`atsalar, ularning da`vosi xususiy ayblov (dike) xarakteriga ega bo`lgan. Bu davlat manfaatlariga taalluqli ayblov (graphe) bo`lmagan. Qotil o`z xohishicha mamlakatni tark etib, jazodan qutilib qolishi mumkin edi. U keyinchalik yana qaytib kelsa, qonun muhofazasida emas deb hisoblangan va sud-so`roqsiz o`ldirilishi mumkin bo`lgan.

Nihoyat, jinoiy ayblovning ikki shaklga - **dike** va **graphega** ajralganligi shu bilan izohlanadiki, Afina davlati bevosita ibtidoiy jamoa tuzumidan kelib chiqqan edi. Ikkala holatda ham ayblov jarblanuvchi tomonidan qo`zg`atilgan va qo`llangan. Biroq dikeda ayblovchi zararni qoplashni yoki jarima to`lashni talab qilgan, faqat grapheda ish, xususan, aybdorni jazolash haqida borgan.

Afina davlatida juda jiddiy huquqbuzarliklar, xususan, odam o`ldirish, qizlarni o`g`irlash, zaharlash, o`t qo`yish kabi ishlar xususiy xarakterga ega bo`lgan da`volar tartibida ko`rilgan. Qator hollarda jabrlanuvchi dike va graphe o`rtasida ulardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo`lgan. Bunday hollarda ayblovning xohlagan shaklini tanlashi va ayblanuvchidan yo jarima undirilishini, yoki uni jazolanishini talab qilib chiqishi mumkin edi.

Afina jinoyat huquqida davlatga qarshi, dinga qarshi, oilaga qarshi, shaxsga qarshi, mulkka qarshi jinoyatlarning turlari uchun jinoiy javobgarliklar o`rnatilgan.

Afinaning jazo siyosatida **davlatga qarshi jinoyatlar** katta o`rin tutgan. Bunday jinoyatlar qatoriga davlatga xiyonat, xalqni aldash, xudolarni haqoratlash, xalq yig`iniga qonunga xilof takliflar kiritish va boshqalar kirgan. Agar biror shaxs o`z xatti-harakati bilan mavjud tuzumga suiqasd qilib, davlat va davlat tuzumi uchun jiddiy xavf tug`dirsa, u davlatga xiyono-

nat qilinganlikda, ya'ni **eysangeliya** (yeisangelia)da ayblangan. Buning uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Agar bir kishi xalq yig'inida so'zga chiqib, o'zining yolg'on-yashiq so'zlardan iborat nutqi bilan "xalqni al-dasa", eysangeliyada aylanishi mumkin bo'lgan. Bunday holatda ba'zan aybdor zimmasiga katta miqdorda jarima solinishi mumkin edi. Masalan, Miltiad Paros oroliga muvaffaqiyatsiz yurish qilgandan keyin xalqni aldashda ayblangan va uning katta miqdorda jarima to'lashi belgilangan. Siyosiy jinoyatlar haqidagi ishlar bo'yicha yolg'on xabar bergan aybdorlar **sikofantiyada** ayblanib, sud qilinganlar.

Xudolarni taxqirlash, xudosizlik, diyonatsizlik ham og'ir davlat jinoyatlari hisoblangan, chunki qadimgi Yūnonistonda diniy mafkura va marosimlar davlat bilan juda chambarchas bog'liq edi. Din davlat xarakteriga ega bo'lgan.

Oilaga qarshi jinoyatlar ba'zi hollarda xususiy ayblov tartibida, boshqa hollarda esa - davlat manfaatlari hisoblangan ayblov tartibida ta'qib qilingan. Bunday turdagi jinoyatlarga ota-onalarning bolalariga nisbatan, xomiylarning yetimlarga nisbatan, ota-onalarning merosxo'r qizlarga nisbatan yomon va ahmoqona munosabatlari kirgan. Shuningdek xotinning eriga xiyonati og'ir jinoyat hisoblangan, Bunda er uni jinoyat sodir bo'lgan joyning o'zidayoq o'ldirishi mumkin edi. Agar bunday xiyonat sodir bo'lganda, er xotinini jazolamasa, u holda ayblanuvchiga qarshi graphe tartibida ayblov qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan. Biroq er xotinini xiyonat qilganlikda asossiz ayblagan bo'lsa, unda qarshi da'vo qo'zg'atilishi mumkin edi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda qizlarni o'g'irlash uchun ham jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Bunda shikoyatchiga dike va graphedan hohlagan birini tanlab olish va da'vo qo'zg'atish imkoniyati berilgan. Qo'shmachilikda ayblash uchun ham ommaviy da'vo (graphe) nazarda tutilgan.

Shaxsga qarshi jinoyatlarga avvalo odam o'ldirish jinoyatlari kirgan. Bundan tashqari urish, so'kish, tuhmat qilish, haqorat va boshqalar ham shaxsga qarshi jinoyatlar hisoblangan. Birovga qasddan tan jarohati yetkazgan shaxslarning mol-mulki musodara qilinib, mamlakatdan haydab yuborish jazosi nazarda tutilgan.

Mulkka qarshi jinoyat turiga asosan o'g'rilik jinoyati kiritilgan. O'g'rilik uchun beriladigan jazolar o'g'ringin jinoyat joyida qo'lga olingan yoki olinmaganligiga qarab turlicha belgilangan. Agar o'g'ri jinoyat qilgan joyida qo'lga olingan bo'lsa, uni qamoqqa tashlash, kechasi o'g'rilik sodir etgan shaxsni esa tutib olib o'ldirish mumkin edi. Bunday holat Rimda XII jadval qonunlariga binoan ham o'rnatilgan edi. Agar o'g'ri qochib yashiri -

nishga ulgurgan bo`lsa, u holda birmuncha vaqt o`tgandan so`ng ayblov taqdim qilinishi mumkin bo`lgan. Agar o`g`rilik bozorda, hammomda va boshqa qandaydir jamoat joyida sodir etilgan bo`lsa, graphe tartibidagi ayblov qo`zg`atilishi mumkin edi. Boshqa hollarda esa da`vo dike klopez tartibida qo`zg`atilib, aybdordan o`g`irlangan mulkning ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda jarima undirilgan.

Afinada **jazolarning** bir qancha turlari qo`llangan. Ancha og`ir jinoyatlar, jumladan, qasddan odam o`ldirish, davlatga xiyonat, xudosizlik kabi jinoyatlar uchun **o`lim jazosi** tayinlangan. Bunda ko`pincha o`lim jazosiga mahkum qilinganlarga zahar ichib o`zini o`ldirishiga imkoniyat yaratilgan. Ba`zan mahkumlarga qilich va arqon berilib, xohlaganini tanlashi taklif qilingan. Ba`zi hollarda qotillar qullikka sotilgan. Talonchilik va bosqinchilikni kasb qilib olgan jinoyatlarga nisbatan xuddi shunday jazo qo`llangan. Qullar va erkin kishilar uchun jazolar bir xil bo`lmagan. Ayni bir xildagi jinoyatlar uchun ko`p hollarda erkin kishilar uncha katta bo`lmagan **jarima** to`lasalar, qullarga nisbatan turli **tan jazolari** qo`llangan. Erkin kishilar uchun nazarda tutilgan odatdagi jazolar jarima va **mol-mulkn** **musodara qilish** kabi jazo berilgan. Jinoyatchilarning qochib ketishining oldini olish maqsadida va faqat ehtiyot chorasi sifatida **ozodlikdan mahrum qilish jazosi** qo`llanilgan. Sharmanda qilish jazosi sifatida **atimiya** jazosi keng qo`llangan. Bunda mahkumlar odatda siyosiy huquqlardan mahrum etilib, mol-mulkleri musodara qilingan. Ba`zan atimiya fuqaroning huquqlardan to`la mahrum etilganligini anglatib, bunday holda u sudga shikoyat bilan murojaat qilish imkoniyatini ham yo`qotgan va sudsiz, tergovsiz qatl etilgan.

Sparta davlatida ham jazolarning yuqoridagi turlari qo`llanilgan.

Sud ishlarini yuritish Afinada faqat to`la huquqli fuqarolar tashabbusi bilan sud ishlari boshlanishi mumkin edi. Ayollar va voyaga yetmaganlar uchun - oila boshlig`i, meteklar uchun - uning homiysi, qullar uchun - uning xo`jayini sud ishlarini yuritish chog`ida harakat qilgan.

Yuqorida ta`kidlanganidek, Afinada sud ishlarining ikki turi: 1) dike va 2) graphe bir- biridan farqlangan. Dike jarayoni jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili -kyrios shikoyati bo`yicha boshlangan. Graphe jarayoni esa har qanday to`la huquqli afinalik fuqaroning shikoyati bilan boshlanishi mumkin edi. Bunda ish shikoyat qiluvchining shaxsiy manfaatlariga taalluqliligi yoki taalluqli emasligi ahamiyatsiz hisoblangan, graphe tartibi bo`yicha shikoyat qo`zg`atilsa bas, shuning o`zi sud jarayonining boshlani - shiga asos bo`lgan. Dike tartibida sud jarayonini boshlagan da`vogar sud

qaror chiqargunicha ishni bekor qilish huquqiga ega bo'lgan, graphe tartibida boshlangan jarayon esa oxirigacha yetkazilishi lozim edi. Agar bu jarayonni (grapheni) boshlagan shaxs uning to'xtatilishini talab qilsa va shikoyatini qaytarib olsa, unga 1000 draxma jarima solingan. Graphe jarayonini boshlagan shaxs ko'p hollarda hech qanday moddiy manfaat ko'rmagan. Lekin davlatning moliyaviy huquqlarining buzilishi haqidagi, davlat mulkidan noqonuniy foydalanganlik haqidagi, insofsiz homiylik haqidagi ishlar bo'yicha shikoyat qilganlar aybdor shaxslarning musodara qilingan mulkidan yoki ularga solingan jarimalardan bir qismini olishi mumkin edi. Agar shikoyat qilgan shaxs ishda yutqazsa, 1000 draxma jarima to'lagan.

Afinada ba'zi kishilar maxsus kasbkor xabar beruvchilar - **sikofontlar** vazifasini o'taganlar va graphe tartibidagi ayblovni qo'llaganlar.

Ayblanuvchi yoki javobgar sudga davlat organlari tomonidan emas, balki ayblovchi (da'vogar)ning o'zi tomonidan guvohlar oldida chaqirilgan. Bunda ayblovchi (da'vogar) unga qaysi mansabdor oldiga, qachon va qaysi vaqtda borishi lozimligi ko'rsatilgan. Agar kelmasa, ish uning ishtirokisiz sirdan ko'rilgan.

Shikoyat qabul qilib olgan mansabdor shaxs avvalo o'zi ishni tekshirib chiqqan – anakrisis qilgan. Bunda ayblanuvchiga (yoki javobgarga) ish bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma ravishda taqdim etish huquqi berilgan. Bu e'tirozlarni ko'rish bilan ishni tekshirish boshlangan.

Tomonlar ish bo'yicha zarur bo'lgan barcha dalillarni sudga o'zlari taqdim etganlar. **Guvohlarning ko'rsatmalari, daliliy ashyolar** (masalan, hujjatlar) va **qasam** sudda **dalil** hisoblangan. Sudda faqat erkin kishilargina emas, qullar ham guvoh sifatida ko'rsatmalar bera olgan. Biroq qullar odatda qiynoqlar yo'li (qamchi bilan savalash, narvonga osib qo'yish, burniga uksus quyish shu singlarlar) bilan so'roq qilinganlar. Ayollar va voyaga yetmaganlar sudda guvohlikka o'ta olmaganlar.

Dastlabki tergov (anakrisis) tugagandan so'ng barcha dalillar, jumladan, guvohlarning yozma ko'rsatmalari maxsus mis yoki loy idishlar (yexinlar)ga solinib qulflab qo'yilgan, endi boshqa dalillar taqdim etish mumkin bo'lmagan. Faqat yexinlarda saqlanayotgan dalillarga havola qilish mumkin bo'lgan.

Anakrisis tugagandan so'ng sud majlisining kuni tayinlangan. Sud majlisida kotib ayblovchi (da'vogar)ning shikoyati va boshqa tomonning e'tirozini ma'lum qilgan.

So'ngra tomonlar nutq so'zlagan. Nutqlar uchun ko'p hollarda ma'lum vaqt ajratilgan, bunday vaqt ikkala tomonga teng berilgan.

Sud majlisi sudyalarning yashirin ovoz berish yo`li orqali chiqargan qarorlari bilan tugagan. Agar ovoz berish vaqtida biron sudya betaraf, ovozlar teng bo`lib qolsa, sudlanuvchi oqlangan.

Sud qarorlari va hukmlari ustidan gelieyaga apellatsiya tartibida shikoyat qilish mumkin edi. Gelieyaga, hatto xalq yig`inida ko`rilgan sud ishlari yuzasidan chiqarilgan qarorlar ustidan ham apellyatsion shikoyat qilinishi mumkin bo`lgan. Gelieyaning qarori qat`iy bo`lib, shikoyatga o`rin bo`lmagan.

Sud qarorini bajarish uchun javobgarga ma`lum muddat berilgan. Agar jarobgar ko`rsatilgan muddatda jarimani to`lamasa, da`vogar javobgarning mol-mulkini tortib olishi mumkin edi, agar bunda qarshilik ko`rsatilsa, **qarorni ijro etish haqidagi jarayon (dike exoules)** boshlangan, bunda yutqazgan javobgar xazina foydasiga da`vo summasiga teng jarima ham to`lashi lozim edi.

QADIMGI RIM DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI

Antik dunyodagi eng qudratli, yirik davlat - Italiyada tarkib topgan Rim respublikasi edi. Rim respublikasi Apennin yarim orolida yashovchi xalqlar va qabilalarni o'z hukmdorligi ostiga birlashtirib, raqobatdosh muxoliflarga qarshi qattiq urushlardan so'ng ularni yengib, O'rta dengiz davlatlari ichida eng kuchlisi bo'lib qolgan. Keyinchalik miloddan avvalgi I asr va milodning II asrida Rim quldorlari butun Shimoliy Afrikani, Yevropaning ancha qismini va Old Osiyo mamlakatlarini o'z hukmronligi ostiga olgan va qariyb 500 yil hukm surgan g'oyat katta davlatga aylangan.

Qadimgi Rim davlati tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganamiz:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va quldorlik davlatining tashkil topishi davri. Bu davr miloddan avvalgi 753 yilda Rim shahriga asos solinishidan to miloddan avvalgi 509 yilda oxirgi Rim podshosi Tarkviniy Superbning Rim aholisi tomonidan haydab yuborilishigacha bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi.

2. Respublika davri. Miloddan avvalgi 509-27 yillar. Bu davrning o'zi ham 2 bosqichga bo'linadi: ilk respublika (miloddan avvalgi V-III asrlar) va kechki respublika (Miloddan avvalgi III - I asrlar).

3. Monarxiya davri. Miloddan avvalgi 27 yildan Milodning 476 yiliga qacha. Bu davr ham 2 bosqichga: prinsipat (miloddan avvalgi 27 yildan to milodning 284 yillarigacha) hamda dominat, ya'ni mutlaq yakka hokimlik (milodning 284-476 yillari)ga bo'linadi.

Bundan keyingi davr Rim quldorlik davlatining inqirozi davri bo'lib, milodning 476 yilida g'arbiy Rimni frank qabilalari bosib olganlar. Sharqiy Rim esa Vizantiya nomi bilan usmonli turklar 1453 yilda Konstantino-polni bosib olgunlariga qadar yashaydi.

1. Qadimgi Rimda davlatning tashkil topishi

Miloddan avvalgi 753 yilda Rim shahriga asos solingan vaqtda (Romul va Rem tomonidan) Tibr daryosi bo'ylaridagi qabilalarda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayoni ro'y berayotgan edi. Bu yerda uchta qabila: qadimgi lotin, sabin va etrusklarning xuddi Afinadagi sinoykizmga o'xshab urushlar yo'li bilan birlashtirilishi natijasida Rim jamoasi tashkil topgan. Qadimgi rim urug'larining a'zolari patritsiylar deb atalgan.

Chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi mulkiy tabaqalanishga olib kelgan va xususiy mulkning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Patriarxal qulchilik kelib chiqqan. Bunda, albatta, urushlar, so'ngra esa jami-

yatning sinfiy bo`linishi qulchilik manbai bo`lib qolgan.

Mulkiy darajalanish natijasida jamoaning ijtimoiy tuzilishi murakablashgan. Urug`lardan alohida boy aristokratik oilalar ajralib chiqqan. Ularga hali jamoaning umumiy mulki hisoblangan yaxshi yer uchastkalari o`ta boshlagan. Ular xarbiy o`ljalardan ham ko`p hissa ola boshlaganlar. Shu bilan birga jamochilarning kambag`allashgan qismidan **kliyentlar** guruhi paydo bo`lgan. Kliyentlar, shuningdek, urug`ga qabul qilingan kelgindilardan va ba`zan erkinlikka chiqarilgan qullardan tashkil topgan. Kliyentlar shaxsan ozod bo`lib, lekin huquqlarda cheklab qo`yilgan edi. Ular patritsiylardan iborat patronlarning homiyligida bo`lganlar va buning uchun o`z patronlariga mulkiy va shaxsiy xizmat o`tashlari lozim bo`lgan.

Chorvachilik va dehqonchilik uchun qulay iqlim sharoitlari, savdo bilan shug`ulanish uchun foydali jug`rofiy joylashuv va urushlar Rimga ko`p qo`shni qabilalar aholisining ko`chib kelishini kuchaytirgan. Ular rim jamoasi tarkibiga kirmagan. Rimga ko`chib kelgan kelgindilar plebeylar deb atalib, ular Rimda yerga egalik qilish huquqidan mahrum bo`lgan, yosh patritsiylarga o`xshab ular jamoat dalalari zaxiradagi yerlaridan ham chek yer ololmagan. Plebeylarning ko`pchiligi hunarmandchilik va savdo bilan shug`ullangan. Olimlarning fikricha, plebeylar qisman Rimga ko`chib kelgan erkin kishilardan, qisman ozod qilingan qullardan va qisman rimliklar Rimga ko`chib kelishiga majbur etgan qo`shni shaharliklardan tashkil topgan.

Plebeylar erkin, shaxsan ozod bo`lib qolaverganlar, Lekin ularning mulkiy va shaxsiy huquqlari cheklangandi. Plebeylar faqat erkin jamoa yerlaridan ba`zi patritsiylarning yoki butun urug`ning homiyligiga o`tib, o`z homiylari ("patron"lari)dan chek yer olishi mumkin edi.

Plebeylar fuqarolik huquqidan foydalanmagan, jamoa a`zolari bilan nikohga kira olmagan, jamoa ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo`lgan.

Rim jamoasi tepasida senat tomondan saylanib qo`yiladigan boshliq-**reks (rex - podsho)** turgan. Garchi an`anaga ko`ra uni podsho deb atagan bo`lsalarda, vakolatlari cheklangan edi. Afina basileyiga o`xshab, u ham asosan harbiy, diniy va sud vakolatlariga ega edi. Reks senatga raislik qilgan, butun jamoa nomidan xudolarga qurbonliklar bergan va fuqarolar lashkari - "legion"ga boshchilik qilgan.

Rim jamoasining muhim boshqaruv organi urug`larning **oqsoqollar kengashi - senat** bo`lgan. Har bir urug`ning boshlig`i senatga a`zo bo`lib kirgan. Senat sud vazifasini ham bajargan. Rim jamoasi dastlab uch yuz urug`dan tashkil topganligidan eng qadimgi zamonlarda senat ham uch yuz

senatordan tashkil topgan.

Rim jamoasining umumiy masalalari **xalq yig`inida** ko`rilgan. Biroq uning qarorlari senat va reks tomonidan bekor qilinishi mumkin edi. Reks umumiy majburiy qarorlar chiqarishi mumkin bo`lgan.

Rim jamoasining tashkil etilishi o`zining izchilligi va mukammalligi bilan ajralib turgan. Rimda **qabilalar "tribalar"** deb atalib, **urug`lar birlashmasidan**, ya'ni "kuriyalar"dan tashkil topgan. Har bir kuriyada o`ntadan urug`, tribada esa o`ntadan kuriya bo`lgan. Shunday qilib uchta tribadan har birida yuztadan urug`, butun jamoaning aholisi esa uch yuz urug`dan iborat edi. Agar tribalar uchta qabilalarning birlashishidan tashkil topgan bo`lsa, jamoaning bunday mukammal tashkil etilishi uni boshqalar uchun berk holga keltirish zaruriyatidan kelib chiqqandi. Chunki u yerdagi yer fondi ancha chegaralangan bo`lib, doimo g`arbiy urushlar natijasida ularni kengaytirib turush taqozo etilardi. Xalq yig`inlarining ham kuriyalar bo`yicha ("kuriyalar komitsiyasi") chaqirilishi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Demak, muhim hukumat organlaridan biri **xalq yig`ini -kuriyalar komitsiyasi** bo`lib, u o`nta urug` birlashmasi - kuriyalar bo`yicha to`plangan. Har bir kuriya bir ovozga ega bo`lib, bunda fuqarolarning ovozlari emas, balki kuriyalarning ovozi bilan qarorlar qabul qilingan. Kuriyalar komitsiyasi urush e`lon qilish yoki sud tuzish, senatning qarorlarini tasdiqlash, mansabdor shaxslarni tayinlash kabi muhim masalalarni hal qilgan.

Rim urug`doshlik tashkilotining harbiylashtirilgan xarakteri uni ancha vaqtgacha berk holda bo`lishiga imkon tug`dirgan. Lekin Rimda uning buzilishini tezlashtiruvchi jarayon rivojlanib borgan. Plebeylar soni -ning o`sishi, ularning qo`lida hunarmandchilik va savdning to`planib borishi jamoada mavqei va qudratining oshishiga olib kelgan. Plebeylarning o`zi ham mulkiy tabaqalasha borgan. Boy hunarmand va savdogarlardan iborat plebeylar paydo bo`lib, Rimning iqtisodida muhim rol o`ynab, ular asta-sekin o`zlarining jamiyatdagi huquqsiz mavqeidan norozi bo`la boshlaganlar. Shu bilan birga, qarzini to`lay olmay, tutqinlikka tushib boruvchi kambag`al plebeylarning soni ham o`sib borgan. Plebeylarning kambag`allashib borayotgan qismi qullar sonini to`ldirib, rim jamoasi uchun xavfli kuchga aylanmoqda edi.

Ayniqsa, rimliklarning harbiy yurishlarga plebeylarni jalb qilishga majbur bo`lganliklari ahvolni yanada murakkablashtirgan. Endi plebeylar o`zlarining huquqlarini patritsiylar huquqlari bilan tenglashtirilishini yanada ko`proq talab qila boshlaganlar. Plebeylar avvalo jamoa yer fondini

taqsimlashda, jamoaning umumiy ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi uchun kurash olib borganlar. Bu kurash o'zgaralar uchun yopiq bo'lgan rim urug' doshlik tashkilotining buzib tashlanishiga olib kelgan va oqibatda davlatning tashkil topishi yo'lini ochib bergan plebeylarning g'alabasi bilan tugagan.

Shunday qilib, qadimgi Rimda davlatning tashkil topishi xususiy mulkchilikning rivojlanishi, mulkiy va sinfiy tafovutlarning kelib chiqishi oqibatida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib borishi umumiy jarayonining natijasi edi. Bu jarayonlar plebeylarning rim jamoasi a'zolari bilan teng huquqlarga ega bo'lish uchun olib borgan kurashi natijasida tezlashgan.

Plebeylarning g'alabasi va qadimgi Rimda davlatning tashkil topishi reks Serviy Tulliy tomonidan miloddan avvalgi VI asrda o'tkazilgan islohotlar bilan mustahkamlangan.

Serviy Tulliy islohotlari Rimning ijtimoiy tuzumi asosiga mulkiy va hududiy tamoyillarni qo'yan.

Rimning barcha erkin aholisi - rim urug'i a'zolari ham, plebeylar ham mulkiy razradlarga bo'lingan. Bo'linish asosiga inson egallab turgan chek yerning miqdori qo'yilgan. Keyinroq, miloddan avvalgi IV asrda pulning paydo bo'lishi bilan mulkka pul bilan baho berish joriy qilingan. Islohotga ko'ra, harbiy xizmat qilishga majbur bo'lgan hamma erkaklar mol-mulkiga qarab besh sinfga bo'lingan. Mulki 100 ming mis ass. turadigan eng badavlat kishilar 1-sinfga kiritilgan. Ular to'la qurollangan 18 ta o'tliq va 80 ta piyoda yuzlik berishi lozim edi. Mulki 75 ming ass bo'lgan fuqarolar 2-sinfga mansub bo'lib, ular sal yengilroq qurollar bilan qurollanib, 3-,4-,5-sinflarga kiradigan (50 ming, 25 ming va 12,5 ming ass) fuqarolar esa yengil qurollar bilan qurollanib, qo'shinda o'zlari xizmat qiladigan bo'lgan. 6-sinfga eng kambag'al fuqarolar kirib, ular proleslar, ya'ni "bola-chaqasidan boshqa hech nimasi yo'q" kishilar ("proletarlar") deb atalgan. Ular xarbiy xizmatga yaqinlashtirilmagan va soliq to'lamagan.

Serviy Tulliyning ana shu islohoti natijasida **senturiyalar majlisi** ("**senturiya**"- **yuzlik**) deb ataladigan xalq majlisi vujudga kelgan. Bunga ko'ra, xalq majlisida barcha fuqarolar yuqoridagi sinflarga taalluqligiga qarab har bir senturiyada o'ntadan bo'lib, huddi qo'shinlar singari saf tortib turgan. Lekin 1 -sinf 80 senturiya, 2-sinf 22, 3-sinf - 20, 4 -sinf -22, 5-sinf -30, 6-sinf esa 1 senturiya hamda fuqarolar orasidan olinadigan o'tliq askarlar - 18 senturiya berar edilar. Bir senturiya -yuzlik bir ovozga ega bo'lgan. Dastlab 1-sinf fuqarolardan fikr so'ralgan, ular (yuzliklar soni hisobidan) 98 ovozga molik bo'lgan, ammo qolgan sinflarning hammasi 95 ovozga ega bo'lgan. Shu tariqa jami 193 senturiyadan qaror qabul qilish

uchun 97 senturiya ovoz berishi shart edi.

Aholining eng badavlat qismidan iborat 1-sinf yuzliklarida odam ko'p bo'lmagan, ko'pincha har bir yuzlik 10-20 kishidan iborat bo'lgan. Aksincha keyingi sinflarning har bir yuzligidagi fuqarolar soni yuzdan ancha ortiq bo'lgan, 6-sinfning 1 tagina senturiyasida proletarlar 4 ming-gacha yetgan.

Senturiyalar bo'yicha xalq yig'inining qarori qonuniy kuchga ega bo'lib borgan va bu yig'in kuriyalar bo'yicha xalq yig'inini 2-o'ringa tushirib qo'ygan.

Islahotlarning 2-qismi - erkin aholini hududiy belgilariga qarab bo'lish ibtidoiy jamoa tuzumi asosida yotuvchi qon-qardoshlik aloqalarini zaiflashtirish jarayonini kuchaytirgan. Serviy Tulliy eski tribalarga bo'linishni tashqi ko'rinishdan saqlab qolgan bo'lsa-da, ularni qabilalar ittifoqidan hududiy bo'laklarga aylantirgan. Rimda to'rtta shahar va o'n yettita qishloq hududiy okruglar tashkil etilgan. Ularda qabilalarning eski nomi - tribalar saqlanib qolgan edi. Tribaga unda yashovchi va uning oqsoqoliga bo'ysunuvchi patryutsiyalar ham, plebeylar ham kirgan. Triba oqsoqoli ulardan soliqlar yig'ib turgan. Keyinchalik hududiy tribalar bo'yicha o'zlarining yig'inlarini - **triba komitsiyalarini** chaqira boshlaganlar. Bunda har bir triba bir ovozga ega bo'lgan. Biroq triba komitsiyalari ancha vaqtgacha ahamiyatsiz bo'lib qolganlar, lekin shunga qaramay, aholining tribalar bo'yicha bo'linishi, unda patriitsiyalarning va plebeylarning bir xildagi majburiyatlarga ega bo'lishi Rimda ijtimoiy hokimiyat hududiy tuzimlar asosida tashkil etila boshlanganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Serviy Tulliy islohotlari urug'dorchilik tuzumi asoslarining yemirilishi jarayonini nihoyasiga yetkazib, uni hududiy bo'linishga va mulkiy tafovutlarga asoslangan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan almashtirdi. Islahotlar plebeylarni "rim xalqi" tarkibiga kiritib, ularni senturiya va triba xalq yig'inlarida ishtirok etishlariga yo'l qo'yib, erkin kishilarning jiplashuviga yordam berdi, ularning qullar ustidan hukmronligini ta'minladi. Tashkil topgan davlat ana shunday jiplashuv va hukmronlik shakli bo'lib qolgan. Biroq bir vaqtning o'zida davlat hokimiyati erkin proletarlarga ham qarshi qaratilgan edi.

Serviy Tulliy islohotlari davlatning tashkil topishidan muhim jarayonlarga yakun yasadi, lekin uni oxiriga yetkazmadi. Bu jarayon urug'dorchilik tuzumidan meros bo'lib qolgan hokimiyat organlarining bir shakldan boshqasiga aylana borishi, shuningdek, yangi organlarning tashkil etilishi yo'li bilan, rivojlangan. Erkin kishilarning hukmron sinflarda birlashuvi yanada davom etdi. Bu patriitsiyalar va plebeylar o'rtasidagi

mavjud farqlarning batamom tugatilishini talab qilardi. Serviy Tulliy islohotlari plebeylarning xalq majlislarida ishtirok etishlariga yo'l qo'ydi, lekin ularga nisbatan siyosiy va ijtimoiy taqiqlarni to'la tugatmadi. Rim tarixidagi keyingi asrlar plebeylarning o'z huquqlarini patritsiylarniki bilan tenglashtirish uchun olib borgan kurashining davom etganligi bilan xarakterlanadi.

Plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda plebeylar Rim jamoasiga qarashli jamoat dalasidan yerlar berilishini talab qilib chiqqanlar. Chunki bunday yerlarni faqat patritsiylargina band qilishlari mumkin edi. Ammo plebeylar bunday huquqqa ega bo'lish uchun avvalo siyosiy huquqda patritsiylar bilan teng bo'lib olishlari lozim edi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi V-IV asrlarda plebeylar ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan patritsiylar bilan teng huquqqa ega bo'lish uchun uzoqqa cho'zilgan kurash olib bordilar. Patritsiylar qanday fuqarolik huquqlariga ega bo'lsalar, plebeylar ham ana shunday huquqlar berilishini talab qilardi. Bu huquqlar: magistratura (mansablar)ga ega bo'lish, senatda o'rin egallashdan iborat bo'lgan. Bunday kurash natijasida plebeylar anchagina yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Plebeylarning o'z mustaqil tashkilotlarini tuzish huquqi tan olingan. Miloddan avvalgi 493 yildan boshlab ular har yili o'z o'rtalaridan ikkita xalq tribuni saylaydigan, senat va magistratning plebs manfaatiga zarar keltiradigan qarorlarini tribunlar to'xtatib qo'yish, ya'ni veto qo'yish huquqiga ega bo'lganlar. Shu tariqa tribunlar plebeylarni patritsiylar magistrati va senatining o'zboshimchiliklaridan himoya qiladigan bo'lgan. Dastlab ikkita tribun saylangan, so'ngra shahar tribunalarning soniga qarab to'rtta tribun, keyinchalik o'nta tribun saylanadigan bo'lgan. Xalq tribunlari plebeylarning muhim talab-istaklarini yoqlab chiqqanlar. Miloddan avvalgi 456 yilda xalq tribuni taklifi bilan yerlarni kambag'allarga bo'lib berish to'g'risidagi qonun chiqqan edi. Ayniqsa, miloddan avvalgi V asr o'rtalarida plebeylar katta g'alabaga erishganlar. Ular o'z huquqlarining qonunlarda yozib qo'yilishiga muvaffaq bo'lishgan. Xususan, patritsiylar bilan plebeylar uchun umumiy bo'lgan, miloddan avvalgi 451-450 yillarda qabul qilingan XII jadval qonunlari plebeylarning juda katta yutug'i bo'lgan. Bu qonunlarda patritsiylar magistratining odat huquqi me'yorlarini o'zboshimchalik bilan sharhlash imkoniyatlari cheklab qo'yilgandi. Bu qonunlar plebeylar bilan patritsiylarning fuqarolik huquqlarida deyarli to'la tenglashtirilganligidan darak berardi. Qonunlarda "plebey" degan so'z faqat bir yerda - patritsiylar bilan plebeylar o'rtasidagi nikoh taqiqlangan joydagina qo'llanilgan. Ammo bu taqiq

ham tez orada, aqiqrog'i, miloddan avvalgi 445 yilda xalq tribuni Kanuley tomonidan taklif etilgan qonun bilan bekor qilingan.

XII jadval qonunlari qabul qilingandan keyingi vaqtlarda ham plebeylar muhim yangi siyosiy huquqlarni qo'lga kiritganlar. Miloddan avvalgi 449 yili Valeriy bilan Goratsiy konsulligi davrida qabul qilingan qonunlarga muvofiq o'lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi xalq majlisiga shikoyat qilishga haqli edi. Xalq tribunlarining shaxsiy daxlsizligi e'tirof etilgan.

Miloddan avvalgi IV asrda plebeylar bilan patritsiylar o'rtasidagi kurash yana keskinlashib, natijada plebeylar davlat mansablarini egallash huquqini qo'lga kiritganlar. Miloddan avvalgi 367 yilda xalq tribunlari Sekstiy va Litsiniy tomonidan taqdim etilgan va xalq majlisida qabul qilingan qonunlarga binoan, ikki konsul (oliy mansabdor shaxs)dan biri albatta plebeylardan saylanishi lozimligi tartibi o'rnatilgan. Miloddan avvalgi 364-337 yillarda qabul qilingan qator qonunlarda esa plebeylarga boshqa davlat mansablarini egallash huquqlari ham berilgan edi. Jumladan, ular kohinlik lavozimini ham egallardi. Shu vaqtlarda plebeylar bilan patritsiylarning birlashishiga ko'maklashuvchi qonunlar ham qabul qilingan. Yuqorida tilga olingan Sekstiy va Litsiniy qonunlari patritsiylar egalik qilishi mumkin bo'lgan jamoat dalalaridagi yerga egalik qilish miqdorini cheklagan. Bu plebeylarni bunday yerlarga egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirardi. Miloddan avvalgi 326 yildagi Peteliy qonuniga ko'ra "qarz uchun qarz-dorning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo'lishi kerak" edi. Shu tariqa XII jadval qonunlarida saqlanib qolgan va asosan plebeylar azob chekib kelayotgan qarz uchun qul qilib sotish tartibi ushbu qonunga binoan bekor qilingan.

Miloddan avvalgi 312 yilda senzor⁴⁵ Appiy Klavdiy yersiz fuqarolarni shahar va qishloq tribalari qatoriga kirishiga ijozat bergan. Bu esa pul senzini yer senzi bilan teng qilishdan iborat edi. Shahar plebsi bilan erkinlikka chiqarilgan qullar, garchi yerlari bo'lmasa-da, davlatning siyosiy hayotida ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlar. Ammo plebeylarning siyosiy-iqtisodiy huquqlar uchun kurashi faqat miloddan avvalgi 287 yildagina tugagan. Shu yili qabul qilingan Gortenziy qonuniga binoan tribalar bo'yicha plebeylar majlislarining qarorlarini faqat plebeylargagina qo'llanmay, balki senturiya majlislarining qarorlari singari hamma uchun majburiy xarakterdagi umumdavlat qonunlari kuchiga ega ekanligi mustahkamlandi.

⁴⁵ Senzorlar fuqarolarni senturiya va tribalarga bo'lgan, senatorlarning ro'yxatini tuzgan, keyinroq axloq tozaligini nazorat qilgan mansabdor shaxslardir.

2. Respublika davrida Rimning ijtimoiy-siyosiy tuzumi

Ijtimoiy tuzum

Miloddan avvalgi 509 yilda oxirgi (yettinchi) reks Tarkviniy Superb haydab yuborilgandan so'ng Rimda respublika tuzumi o'rnatilgan. Respublika davrida ishlab

chiqarish jadal suratlar bilan rivojlangan, muhim ijtimoiy o'zgarishlar yuz bergan. Bu ayniqsa aholining alohida guruhlarini huquqiy holatlardagi o'zgarishlarda o'z ifodasini topgan edi. Bu jarayonda Rim davlati tomonidan olib borilgan muvaffaqiyatli bosqinchilik urushlari muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada Rim davlatining chegaralari kengayib, uning o'zi dunyoda eng qudratli davlatga aylangan.

Rimdagi asosiy ijtimoiy bo'linish bu **erkin kishilar** va **qullar** bo'lib qolgan edi. Rimning erkin kishilari (kviritlar) birligini birmuncha vaqt-gacha ularning davlatga tegishli bo'lgan yerlarga va qullarga jamoa mulkchiligi ushlab turgan. Biroq vaqt o'tishi bilan yerga nisbatan jamoa mulkchiligi soxta bo'lib qolgan, jamoat yerlari alohida mulkdorlarga o'tgan. (Bunday jamoat yerlari miloddan avvalgi 3 yildagi agrar qonun bilan xususiy mulkchilik batamom o'rnatilgunga qadar saqlanib qolgan edi).

Rimda erkin kishilar ikkita guruhga: 1) quldorlarning mulkdor yuqori tabaqasi (yer egalari, savdogarlar) va 2) jamiyatda ko'pchilikni tashkil etgan mayda ishlab chiqaruvchilar (dehqonlar va hunarmandlar) hamda shahar kambag'allari (lyumpen-proletarlar)ga ajratilgan. Qullik dastlab patriarxal xarakterda bo'lgani uchun yirik quldorlar bilan mayda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash uzoq vaqtgacha Rim respublikasi tarixining mazmunini tashkil etgan. Vaqt o'tishi bilan asta-sekin qullar bilan quldorlar o'rtasidagi kurash birinchi o'ringa chiqib borgan. Shu tariqa Rimning barcha aholisi ularning erkinlik xolatiga qarab ozod kishilar va qullarga ajratilgan. Faqat ozod kishilar to'la huquqli bo'lishi mumkin edi.

Respublika davrida qullar asosiy eziluvchi va ekspluatatsiya qilinuvchi sinfga aylantirilgan. Qullikning asosiy manbai harbiy asirga olish edi. Masalan, Karfagen tor-mor etilganidan so'ng 55.000 kishi qulga aylantirildi. Quldorlikning yana bir manbai qul savdosi hisoblanib, chet ellardan qullar sotib olish keng rivojlangandi. Qullarning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgani uchun ularning tabiiy qayta ishlab chiqarishi kam ahamiyatli bo'lgan. Shuni aytish kerakki, Peteliy qonuni bilan qarz uchun qulga aylantirish bekor qilingan bo'lsa ham, amalda u cheklangan miqdorlarda bo'lsada, saqlanib qolavergan. Respublika davrining oxiriga kelib o'zini qullikka sotish ham tarqala boshlagan.

Qullar davlat qullari va xususiy egalikdagi qullarga bo'lingan. Harbiy

asirlarning asosiy qismi davlat qullariga aylantirilib, konlarda va davlat ustaxonalarida ekspluatatsiya qilinganlar. Xususiyl egalikdagi qullarning ahvoli tinimsiz yomonlashib borgan. Agar qullar respublika tarixining boshida, ya'ni patriarxal qullik davrida rim fuqarolari oilasi tarkibiga kirgan va to'liq uy egasiga bo'ysungan, ba'zi diniyl himoyadan foydalangan bo'lsalar, respublikaning gullab-yashnagan davrida qullar mehnatini ekspluatatsiya qilish birdaniga jadallashib ketgan. Antik quldorlik xuddi mayda erkin ishlab chiqaruvchilarning mehnati singari rim iqtisodining asosi bo'lib qolgan. Ayniqsa yirik quldorlik latifundiyalari (zamindorlarga qarashli katta yer-mulklari)dagi qullarning ahvoli juda og'ir bo'lgan. Shahar hunarmandchilik ustaxonalarida va uy xo'jaligida mashg'ul bo'lgan qullarning ahvoli birmuncha yaxshi bo'lgan. Qullardan chiqqan qobiliyatli hodimlarning, o'qituvchilarning, aktyorlarning, haykaltaroshlarning ahvoli ancha muncha yaxshi bo'lib, ularning ko'plari ozodlik olishga muyassar bo'lganlar va erkinlikka qo'yib yuborilganlar bo'lib qolganlar.

Qul ishlab chiqarishda qanday o'rin tutmasin, o'z xo'jayinining mulki hisoblangan va mulkining bir qismi sifatida qaralgan. Xo'jayinning qul ustidan hokimligi amalda cheklanmagan edi. Qul tomondan ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar xo'jayinga kelib tushgan. Xo'jayin qulga uning yashashi va mehnat qobiliyatini yo'qotmasligi uchun zarur deb hisoblangan narsalarnigina ajratgan.

Quldorlik munosabatlari qullarning o'z mehnatlari natijalaridan umumiy noroziligini keltirib chiqargan. Bu esa o'z navbatida quldorlarni ekspluatatsiyaning ancha samarali shakllarini izlashga majbur etgan. **Pekuliy** shunday shakllardan biri bo'lib qolgan. Pekuliy deb xo'jayinning o'z qullariga mustaqil xo'jalik yuritish uchun berib qo'ygan mulkining bir qismi (yer uchastkasi, hunarmandchilik ustaxonasi va boshqalar)ga aytilgan. Buning evaziga xo'jayin undan keladigan daromadning bir qismini olar edi. Pekuliy xo'jayinga o'z mulkidan daromad olishda ancha samarali foydalanishga imkon bergan va qulni o'z mehnati natijalariga manfaatdor qilgan. Respublika davrida paydo bo'lgan ekspluatatsiyaning yana bir shakli **kolonat** bo'lgan. Kolonlar qullar bo'lmay, balki yerni ijaraga (arendaga) oluvchilar bo'lgan va yer egalariqa iqtisodiy qaramlikka tushib, oqibatda yerga biriktirib qo'yilgan. Kambag'allashgan ozod kishilar, erkinlikka qo'yib yuborilib, qullar kolonlar bo'lib qolgan. Kolonlarning shaxsiyl mulki bo'lgan, ular shartnomalar tuza olganlar va nikohqa kira olganlar. Vaqt o'tishi bilan kolonlarning mavqei meros tariqasida o'tadigan bo'lgan. Biroq bu davrda kolonat pekuliy singari hali ko'p tarqalmagandi.

Qul mehnatining samarasizligi respublika davrining oxirida qullarni

ommaviy erkinlikka chiqarilishiga olib kelgan, Erkinlikka chiqarilganlar o'zlarining sobiq xo'jayinlariga ma'lum darajada qaram bo'lib qolganlar. Sobiq xo'jayinlar patronlarga aylanib, erkinlikka chiqarilganlar ularning foydasiga ma'lum moddiy va mehnat majburiyatlarini o'tashlari lozim bo'lgan. Agar patronlarning bolalari bo'lmasa bular ularning mulkini meros qilib olganlar. Biroq hali quldorlik tuzumi taraqqiy etayotgan davrda bunday jarayonning rivojlanishi hukmron sinflarning umumiy manfaatlariga zid edi. Shu sababli Miloddan avvalgi II asrda bunday holatni cheklovchi qonun qabul qilingan.

Rimning ozod aholisi fuqarolik holatiga qarab **fuqarolarga** va **chet elliklarga (peregrinlarga)** bo'lingan. Faqat erkin tug'ilgan rim fuqarolariga to'la huquqiy layoqatga ega bo'lishi mumkin edi. Ular bilan birga erkinlikka qo'yib yuborilganlar ham fuqarolarga kiritilgan, lekin ular sobiq xo'jayinlarning kliyentlari bo'lib qolib, huquqlari cheklangandi.

Mulkiy tafovutlarning rivojlanishi darajasiga qarab rim fuqarolarining holatini belgilashda boyliklarning roli o'sib borgan. Miloddan avvalgi III asrning oxiri - II asrda Rimning ozod aholisi yanada ijtimoiy tabaqalanib, patritsiylarning kambag'allashgan va plebeylarning boyib ketgan qismidan yangi imtiyozli tabaqa - **nobillar** hamda **suvorilar** tabaqasi vujudga kelgan.

Oliy tabaqa (nobillar)ga eng taniqli patritsiylar va boy plebeylarning urug'lari kirgan. Nobillarning iqtisodiy bazasi (asosi) yirik yer egalari va ulkan pul mablag'i bo'lgan. Yuridik jihatdan nobillar boshqa erkin fuqarolardan farq qilmagan, ammo ular boyonlar bo'lganliklaridan oliy mansablarni ishg'ol qilganlar va senat tarkibiga kirganlar. Nobillik o'zgaralar uchun berk tabaqaga aylangan, unga yangi kishilarning kirib kelishi amalda mumkin bo'lmagan, u o'z imtiyozlarini juda avaylab-asrab himoya qilgan. Nobilitetga taalluqli bo'lmagan kishilar faqat kamdan-kam hollardagina oliy mansabdor shaxs bo'lib qolishlari mumkin edi.

Ikkinchi tabaqa suvoriylar, ya'ni chavandozlar plebeylar orasidan miloddan avvalgi III asrda tashkil topa boshlagan. Savdo va ijaradorlik bilan mashg'ul bo'lgan Rimdagi aristokratlarning namoyondalari ana shu toifaga mansub bo'lgan. Suvoriylarga yuksak mulk senzi (1 million ass yoki 400 ming sestersiy) belgilangan. Miloddan avvalgi I asrda nobilalarning, suvoriylarning yuqori qismi bilan qo'shilib ketishi jarayoni rivojlangan. Suvoriylar senatga kiritilganlar va muhim sud mansablarini egalaganlar. Nobillar va suvorilarning alohida vakillari o'rtasida qarindoshlik munosabatlari kelib chiqqan.

Rim davlati doirasining kengayishi bilan erkin kishilarning soni Ap-

ennin yarim oroli va boshqa mamlakatlarning aholisi hisobiga ko`paygan. Ular rim fuqarolaridan o`zlarining huquqiy holati bo`yicha farq qilganlar. Italiya aholisi rim jamoasi (lotinlar)ga kirmay, dastlab rim fuqarolarining hamma huquqlaridan foydalanmaganlar. Ular ikki guruh: **qadimgi latinlar** va **koloniyalarning latinlariga** bo`linganlar. Qadimgi latinlarning mulkiy huquqlari, sudda so`zlash va rim fuqarolari bilan nikohga kirish huquqlari tan olingan. Lekin ular xalq yig`inlarida ishtirok etish huquqidan mahrum etilgan edilar. Italiyada Rim tomondan asos solingan koloniyalarning, shuningdek Rim bilan ittifoq haqida shartnomalar tuzgan ba`zi shahar va viloyatlarning aholisi bo`lmish **latinlar** rim fuqarolari bilan nikohga kirish huquqiga ega bo`lmaganlar. Boshqa hollarda ular qadimgi latinlar ega bo`lgan barcha huquqlardan foydalanganlar. Kelgusida ittifoqchilik urushlari natijasida miloddan avvalgi I asrda barcha latinlarga rim fuqarolari huquqlari berilgan.

Rim fuqarolari huquqiga ega bo`lmagan erkin kishilarning ikkinchi toifasini **peregrinlar** tashkil etgan. Bunga Rim tomonidan bosib olingan va Italiyadan tashqaridagi mamlakatlarning erkin aholisi, peregrinlarga, shuningdek, chet davlatlarning erkin aholisi ham kirgan. Peregrinlar latinlar huquqlariga ega bo`lmagan, lekin mulkiy huquqiy layoqatga ega edilar. Ular o`z huquqlarini himoya qilishlari uchun o`zlariga homiylar - patronlar saylashlari lozim edi. Ularning patronlarga qaramlik holati kliyentlarning holatidan kam farq qilgan.

Oilada faqat rim oilalarining boshliqlari - **uy hokimlari** to`la siyosiy va fuqarolik huquqiy layoqatidan foydalanganlar. Boshqa oila a`zolari uy hokimlarining hokimiyati ostidagilar hisoblanganlar. Uy hokimi "**xususiy huquqli**" shaxs bo`lgan, ularning oila a`zolari esa "**begona huquqli**" - uy hokimi huquqi ostidagi shaxslar deb atalganlar. Ular mulkiy huquqiy munosabatlarga kirishib, o`zlari uchun mulkka ega bo`lmay, balki uy hokimi uchun mulk sotib olganlar. Biroq xususiy huquqidagi cheklashlar ularning xalq huquqidagi holatiga (mavqeiga) ta`sir etmagan. Shu bilan birga bu cheklashlar kuchsizlana borgan, oila a`zolarining o`z mulkiga ega bo`lish huquqi tan olina boshlangan.

Shaxsning huquqiy mavqei u yoki bu huquqiy holatni yo`qotish bilan o`zgargan. Eng ko`p o`zgarishlar erkinlik holatini yo`qotish (asirlikka tushish, qulga aylantirish) natijasida sodir bo`lgan. bu ham fuqarolik, ham oila huquqiy holatlarini, ya`ni huquqiy layoqatni to`la yo`qotishni anglatgan. Fuqarolik huquqiy holatini yo`qotish (haydab yuborilishi) bilan fuqaroning huquqiy layoqati ham yo`qolgan, lekin erkinligi saqlanib qolgan. Va nihoyat, oila maqomini yo`qotish (mas, oila boshlig`ining boshqa shaxs

tomonidan o`g`il qilib olinishi natijasida) faqat "xususiy huquq"ning yo`qolishiga olib kelgan.

Davlat tuzumi Respublika davrida hokimiyatni tashkil etish ancha sodda bo`lgan va ba`zi vaqtlarda Rimda davlatning tashkil topishi vaqtidagi sharoitlarga to`la javob bergan. Respublika mavjudligining keyingi besh asri mobaynida davlatning miqyosi ancha kengaygan. Lekin bu ilgari gidek Rimda joylashgan, lekin ulkan hududda markaziy boshqaruvni amalga oshiruvchi davlatning oliy organlari tizimida o`z ifodasini topmagan. Tabiiyki, bu holat boshqaruv samarasini kamaytirgan va vaqt o`tishi bilan respublika tuzumining qulashi sabablardan biri bo`lib qolgan.

Afinadagi quldorlik demokratiyasidan farq qilib, Rim respublikasida aristokratik va demokratik belgilar qo`shilib ketgan. Lekin, albatta, Rimda ham quldorlarning taniqli boy yuqori qismining imtiyozli holatini ta`minlovchi aristokratik belgilar ancha kuchli bo`lgan. Bu oliy organlarning vakolatlarida va o`zaro munosabatlarida o`z aksini topgan. Bunday oliy organlar xapq **majlislari, senat** va **magistraturalar** hisoblangan. Garchi xalq majlislari rim xalqining hokimiyat organi hisoblanib, polisga xos demokratiyaning yaqqol namunasi bo`lsada, asosan davlatni ular idora etishmagan. Buni nobilitetning haqiqiy hokimiyat organlari - senat va magistraturalar amalga oshirgan.

Rim respublikasida **xalq majlislarining quyidagicha uch turi: senturiyalar, tribalar va kuriyalar komitsiyalari (kengashlari) mavjud edi.**

Xalq majlisining asosiy turi hisoblangan senturiyalar komitsiyasi katta o`rin tutgan. Dastlab u shahar lashkarlarining yig`inidan iborat bo`lgan, keyinchalik patriitsylarning va plebeylarning senturiyalariga va mulkiy darajalariga qarab chaqiriladigan majlislariga aylangan. Senturiyalar majlislarini oliy mansab egalari chaqirgan. Majlis qaroriga tegishli masala magistrat tomonidan qo`yilgan va uning o`zi ovoz berishni idora qilgan. Ovoz berish dastlab senturiya ichida o`tkazilgan, so`ngra maxsus hisobchi "tarafdor" yoki "qarshi" ovoz bergan senturiyalar sonini hisoblab chiqqan. Butun ko`pchilik ma`lum bo`lishi bilan ovoz berish to`xtatilgan.

Miloddan avvalgi III asr o`rtalaridan boshlab davlat chegaralari kengayishi va erkin kishilar sonining oshishi bilan senturiya majlislari tizimida ham o`zgarishlar bo`lgan. Har bir beshta darajadagi mulkdor fuqarolar teng senturiyalar, aniqrog`i yetmishtadan senturiyalar qo`yadigan bo`lganlar va demak, yetmishtadan ovozga ega bo`lganlar. Senturiyalarning umumiy soni 373 gacha yetkazilgan.

O'n sakkizta suvorilar senturiyasi bilan birgalikda ikkita harbiy hunarmandlar, ikkita harbiy muzikantchilar senturiyalari vujudga keltirilib, ovozlar soni tenglashtirilgan. Mulksiz proletarlar soni qancha oshgan bo'lishiga qaramay, ilgariydek bitta senturiyani tashkil etardi. Albatta, yuqoridagi islohotlar aristokratlar va boy quldor doiralarning foydasiga hal qilinmagan bo'lsada, ularning ustunligi baribir saqlanib qolgan edi. Yuqori darajadagilarning senturiyasida quyi darajadagilarning senturiyasiga nisbatan ancha kam fuqarolar kirgan bo'lsa ham: ovozlar soni teng bo'lgan.

Senturiyalar komitsiyasi (majlisi)ning vakolatiga qonunlar qabul qilish, respublikaning oliy mansabdor shaxslari (konsullar, pretorlar, senzorlar)ni saylash, urush e'lon qilish, sulh tuzish va o'lim jazosiga hukm qilinganlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish masalalarini hal etish kabilar kirgan.

Xalq majlislarining ikkinchi ko'rinishi tribalar komitsiyasi (tribalar bo'yicha chaqiriladigan majlisi) bo'lgan. Tribalar komitsiyasi ularda ishtirok etuvchi triba aholisi tarkibiga qarab plebeylar va patritsiy-plebeylarnikiga bo'lingan. Dastlab tribalar komitsiyalarining vakolati cheklab qo'yilgan edi. Ular quyi mansabdor shaxslarni (kvestorlar, edillar va boshqalarni) saylaganlar hamda jarimalar undirish haqidagi hukmlar ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rganlar. Plebeylar majlisida bundan tashqari, plebeylik tribuni saylangan. Miloddan avvalgi III asrda Gortenziy maxsus qonun chiqarib, tribalar komitsiyalarining qonun chiqarish huquqini tasdiqlagandan keyin ularning Rim siyosiy hayotidagi ahamiyati o'sgan. Bu vaqtda qishloq tribalarining soni o'ttiz bittagacha ko'paytirilib, triba komitsiyalarining soni mavjud to'rtta shahar tribalari bilan birga o'ttiz beshtaga yetgan. Lekin uzoq tribalar aholisining majlislarga kelishi ancha qiyin bo'lib, bu holat boy rimliklarning bunday majlislarda o'z mavqelarini mustahkamlab olishlariga ko'maklashardi.

Eng qadimgi komitsiya - kuriyalar kengashi urug'lik tuzumi qoldiqlaridan bo'lib, bunda xalq kengashiga kuriyalar bo'yicha qatnashgan. Kuriyalar kengashi Serviy Tulliy islohotlaridan so'ng o'z ahamiyatini yo'qotgan va keyinchalik bu kengash o'ttiz lektor yig'ilishi bilan almashtirilib, asosan vasiyat qilish, o'g'il qilib olish kabi masalalarni hal qilgan.

Rimda xalq majlislari oliy mansabdor shaxslarning ixtiyori bilan chaqyirilgan, tarqatib yuborilgan va boshqa kunga ko'chirilishi mumkin bo'lgan. Xalq majlislariga aynan shu oliy mansabdor shaxslar raislik qilganlar va unda hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni e'lon qilganlar. Ovoz berish ochiq tartibda bo'lib, faqat respublika davrining oxiriga kelgach,

yashirin ovoz berish tartibi kiritilgan. Bunda majlis ishtirokchilariga ovoz berish uchun maxsus javdallar tarqatilgan. Shu narsa muhim ediki, senturiyalar komissiyasining qonunlar qabul qilish va mansabdor shaxslarni saylash haqidagi qarorlari respublikaning I asrida senat tasdig`idan o`tishi kerak edi. Bi-roq, keyinchalik, miloddan avvalgi III asrda bu qoida bekor qilingan, senat majlisga kiritiladigan masalalarni dastlab ko`rib chiqish huquqini olgan va bu bilan amalda majlis faoliyatini yo`naltirib turgan.

Demak, Rim respublikasining davlat mexanizmida **senat** muhim o`rin tutgan. U Rim respublikasining oliy davlat organi hisoblangan. Senatorlar (dastlab ular patritsiy urug`lari soniga qarab uch yuzga bo`lingan, miloddan avvalgi I asrda senatorlar soni olti yuzga, keyinchalik esa to`qqiz yuztaga ko`paytirilgan) saylanmagan. Sensorlar (fuqarolarni senturiyalar va tribalar bo`yicha taqsimlovchi maxsus mansabdor shaxslar) besh yilda bir marta taniqli va boy oilalarning vakillaridan senatorlarning ro`yxatlarini tuzganlar. Bu haqiqatda senatni amalda ko`pchilik erkin fuqarolar irodasidan mustaqil quldorlarning yuqori qatlami organiga aylantirgan edi. Senatni faqat oliy magistrlargina chaqirishga haqli bo`lgan. O`sha magistrlar senat majlislarida raislik qilganlar.

Rasman senat maslahatchi organ bo`lib, uning qarorlari **senatus-konsultlar** deb atalgan. Lekin senatning vakolati juda keng bo`lgan. Senat, yuqorida aytilganidek, senturiya majlislarining (keyinchalik plebeylar majlislarining ham) qarorlarini tasdiqlab, oqibatda qonun loyihalarini dastlab ko`rib chiqib, rad etib, ularning qonunchilik faoliyatini, xalq majlislarining mansabdor shaxslarni saylashini nazorat qilgan. Senat dastlab saylanganlarni tasdiqlagan bo`lsa, keyinchalik nomzodlarni tasdiqlashni o`z zimmasiga olgan. Senatning ixtiyorida davlat xazinasini bo`lganligi katta ahamiyatga ega edi. U davlat mulkini idora qilgan, soliqlar joriy etgan va zarur moliyaviy xarajatlarni belgilagan. Senat vakolatiga ijtimoiy xavfsizlik, obodonchilik va diniy marosimlar bo`yicha qarorlar qabul qilish ham kirgan. Senatning tashqi-siyosiy vakolatlari muhim ahamiyatga ega edi. Agar urushni senturiya majlislari e`lon qilsa, tinchlik shartnomasini, shuningdek ittifoq haqidagi shartnomani senat tasdiqlagan. Senat respublikaning harbiy hayotiga bosh bo`lgan: askar to`plash muddatini, qo`shinning tarkibini, lashkarboshilarning vakolatini belgilagan, urush olib borayotgan magistratning ishlarini nazorat qilish uchun o`zining elchilarini yuborgan. Nihoyat, senat favqulodda (xavfli urush, qullarning kuchli qo`zg`oloni va hokazo) hollarda diktatura o`rnatish haqida qaror qabul qilishi mumkin edi.

Magistraturalar deb Rimda davlat mansablariga aytilgan. Qadimgi

Afinadagi kabi Rimda ham magistraturalar almashtirilishining ma'lum tamoyillari paydo bo'lgan. Bular: saylab qo'yishlik, muddatlilik (muddati belgilanganlik), kollegiallik (kengashib ishlash), haq to'lamaslik va javobgarlik tamoyillari bo'lgan.

Hamma magistratlar (diktatorlardan tashqari) senturiyalar yoki tribalar majlislari tomonidan bir yilga saylangan. Bu qoida diktatorlarga tadbiq qilinmagan. Ularning vakolat muddati olti oydan oshishi mumkin emasdi. Bundan tashqari, armiyaga qo'mondonlik qiluvchi konsulning vakolatlari urush harakatlari tugamagan sharoitda senat tomonidan uzaytirilishi mumkin edi. Afinadagi singari barcha magistraturalar kollegial bo'lgan - bir mansabga bir necha kishilar saylangan. (Faqat diktator bitta saylangan). Lekin Rimdagi kollegiallikning o'ziga xos jihati shunda ediki, har bir magistrat mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega edi. Bu qaror uning hamkasbi (kollegasi) tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan. Bunga **intersessiya huquqi** deyilgan. Magistratlar xizmatlari evaziga haq olmaganlar. Demak, tabiiyki, kambag'allar va mulksizlar hech qachon magistraturalarga intilmaganlar. O'z navbatida magistraturalar, ayniqsa respublika davrining oxirida muhim daromad manbai bo'lib qolgan edi. Magistratlar (diktator, senzor va plebeylar tribunidan tashqari) vakolat muddati o'tgandan so'ng o'zlarini saylagan xalq majlislari tomonidan javobgarlikka tortilishlari mumkin bo'lgan.

Rim magistraturalarining yana bir muhim belgisi -mansablar iyerarxiyasining mavjudligida edi. Bunga ko'ra, quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi, yuqori magistratlarning quyi magistratlar qarorlarini bekor qilish huquqi bo'lgan.

Magistratlar hokimiyati oliy (imreriium) va umumiy (potyestas) ga bo'lingan. **Imreriiumga** oliy harbiy hokimiyat va sulh tuzish huquqi, senat va xalq majlisi chaqirish va ularda raislik qilish huquqi, buyruqlar chiqarish va ularni bajarishga majbur etish huquqi, sud qilish va jazo tayinlash huquqi kirgan. Bu hokimiyat diktatorga, konsullarga va pretorlarga tegishli bo'lgan. **Diktator "eng oliy imperium" (summum imperium)ga**, ya'ni ustidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lmagan o'lim jazosiga hukm qilish huquqiga ega edi. **Konsulga katta imperium (maius imperium)** - o'lim jazosi haqida hukm chiqarish huquqi tegishli bo'lgan. Agar bunday hukm Rim shahrida chiqarilgan bo'lsa, uning ustidan senturiya majlisiga shikoyat qilish mumkin edi, agar shahardan tashqarida chiqarilgan bo'lsa, hukm qat'iy bo'lib, shikoyatga o'rin bo'lmagan. **Pretorda cheklangan imperium (imreriium minus)** bo'lgan - o'lim jazosiga hukm qilish huquqi bo'lmagan.

Rotestas (umumiy) hokimiyat barcha magistr'larga tegishli bo'lgan va u farmoyishlar berish va ular bajarilmaganligi uchun jarimalar solish huquqini o'z ichiga olgan.

Magistratlik odatiy (oddiy va doimiy) va odatdan tashqari (favqulodda) magistratlikka bo'lingan. Doimiy (odatdagi) magastratura-larga konsullar, pretorlar, senzorlar, kvestorlar, edillar va boshqa man-sablar kirgan.

Konsullar (Rimda ikkita konsul saylab qo'yilgan) oliy magistratlar bo'lgan va butun magistratura tizimiga boshchilik qilgan. Ular har yili senturiya komissiyalarida saylangan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati konsullar qo'lida edi. Ayniqsa konsullarning harbiy vakolatlari katta bo'lgan. Qo'shin to'plash va unga qo'mondonlik qilish, sulh tuzish va harbiy o'ljalarni tasarruf qilish huquqi konsullarga tegishli edi. Fuqarolik hokimiya-

tiga ega bo'lgan konsullar senatni, xalq majlislarini chaqirgan, ularning qarorlarini bajargan, mansabdorlarni saylash ishiga rahbarlik qilgan. Konsullar hokimiyati kollegial hokimiyat bo'lgan. Konsullardan biriga yakka hokimlik berish (qo'shinlarga qo'mondonlik qilish) masalasi qur'a tash-lash yo'li bilan yoki konsullarning o'zaro kelishishi, yo bo'lmasa senat qarori bilan hal qilingan. **Pretorlar** miloddan avvalgi IV asrning o'rtasida konsullarning yordamchilari sifatida paydo bo'lganlar. Konsullar armiyaga qo'mondonlik qilayotgan vaqtlarida Rimda bo'limganliklari uchun sha-harni boshqarish pretorlarga o'tgan. Pretorlar sud yuritish ishlariga rahbar-lik qilib, viloyatlarni boshqarganlar, senat topshirig'i bilan legionlarga qo'mondonlik qilganlar va umummajburiy qarorlar qabul qilib, huquqning yangi me'yorlarini chiqara olganlar. Dastlab bitta pretor, keyin ikkita say-lanadigan bo'lgan. Ulardan biri (shahar pretori) rim fuqarolarining ishini, boshqasi (peregrinlar pretori) esa chet elliklar ishtirokidagi ishlarni ko'rgan. Asta-sekin pretorlar soni sakkiztagacha ko'paygan.

Rim fuqarolarining ro'yxatini tuzish, ularni mulkiy ahvoliga qarab tribalar va razradlar (darajalar)ga ajratish hamda senatorlarning ro'yxatini tuzish uchun senturiya komitsiyalari tomonidan besh yilda bir marta **ikkita senzor** saylangan. Bundan tashqari, senzorlarning vakolatiga axloqni ku-zatib turish va tegishlicha ediktlar chiqarish ham kirgan. **Kvestorlar** kichik magistratlarga mansub bo'lib, ular triba komitsiyalarida saylangan. Dast-lab maxsus vakolatlarga kvestorlar emas, konsullarning yordamchilari ega bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan ular senat nazorati ostida moliyaviy xarajat-larni yurita boshlaganlar, xazinachilik vazifasini bajarishgan, davlat ar-xivini qo'riqlashgan, viloyat hokimlariga yordamchi bo'lganlar va harbiy xazinaga mudirlik qilganlar, shuningdek, ba'zi jinoiy ishlar bo'yicha ter-

gov olib borganlar. Respublikaning oxiriga kelib ularning soni yigirmataga yetgan edi. Edillar ham (ular ikkita bo'lgan) kichik magistratlardan bo'lib, shaharda jamoat tartibini, bozorda savdoni, obodonchilikni kuzatganlar, shaxsning oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'minlashga javob berganlar, bayramlar va xalq tomoshalarini tashkil etganlar.

"Yigirma olti erkaklar" kollegiyalari yigirma oltita kishidan tashkil topib, beshta kollegiyadan iborat bo'lgan. Ular turmalarni, monetalar ishlab chiqarishni, yo'llarni tozalashni va ba'zi sud ishlarini yuritganlar.

Magistrlar orasida har yili triba yig'inlarida saylab qo'yiladigan plebeylar tribunlari alohida o'rin tutgan. Ularning veto huquqi plebeylarning teng huquqlar uchun kurashining oxirgi davrida katta rol o'ynagan. Har bir tribun senat yoki mansabdorning qaroriga norozilik bildira olgan va, demak, o'ziga yoqmagani ishga yo'l qo'ymagan. Tribunlar tribalarda xalq yig'inlarini chaqirishga haqli bo'lib, ularda raislik qilganlar. Tribunning vakolati Rim va uning atrofi bilangina chegaralangan. Keyinchalik senatning roli o'sishi natijasida tribunlarning faolligi pasayib ketgan. Miloddan avvalgi II asrda Gay Grakx tomonidan ularning rolini kuchaytirishga urinish amalga oshmay barbod bo'lgan.

Odatdan tashqari magistratlar (diktator, triumvirlar va detsemvirlar) faqat Rim davlatiga alohida xavf tug'diruvchi favqulodda hollarda - og'ir urush, qullarning Katta qo'zg'oloni, ichki tartib-qoidalarning jiddiy buzilishi hollarida tashkil etilgan. **Diktator** senatning taklifi bilan konsullarning biridan tayinlangan. Ba'zi hollarda senturiyalar komitsiyasi bevosita diktator tayinlashga haqli edi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan, barcha magistratlar unga bo'ysungan. Diktator birdan-bir nokollegial magistratlik bo'lgan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati olti oy mobaynida diktator qo'lida bo'lib, uni sudga tortish mumkin edi. Plebeylik tribunining veto huquqi unga ta'sir etmagan. Diktator farmoyishlari ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi, chunki u o'z harakatlari uchun javob bermagan. Diktatorning o'z oliy nishoni bo'lgan: uni doim yigirma to'rtta faxriy soqchi (liktor) kuzatib yurgan. To'g'ri, respublikaning dastlabki davrida diktatura nafaqat favqulodda hollarda, balki ma'lum vazifalarni hal etish uchun joriy qilingan va diktatorning vakolatlari ushbu vazifalar doirasi bilan cheklangan. Uning vakolatlari doirasidan tashqarida doimiy (odatiy) magistraturalar harakat qilganlar. Ilk respublika davrida diktaturaga deyarli murojaat qilinmagan.

Diktaturaning muddati olti oydan oshmasligi lozim bo'lsa-da, respublika inqirozi davrida bu qoida buzilgan va hatto. umrbod diktatura ("qonunlar chiqarish va davlat tuzish uchun Sulla diktaturasi") paydo

bo`lgan.

Odatdan tashqari (favqulodda) magistratlar qatoriga **detsemvirlar komissiyasini** ham kiritish mumkin. Bu komissiya plebeylarning teng huquqlar uchun navbatdagi kurashlaridan biri ko`tarilgan davrda miloddan avvalgi 450-451 yillardagi XII jadval qonunlarini tayyorlash uchun tashkil etilgan edi.

Har bir magistrat ixtiyorida ko`pdan ko`p **xattotlar, liktorlar, jar-chilar** hamda ozod qilingan qullar va davlat qullaridan iborat **boshqa xiz-matchilar** bo`lgan.

Rim respublikasi o`ziga xos aristokratlar respublikasi bo`lgan. **Xalq majlislarining jo`nligi va bo`shangligi, magistratlarning bepul ish qilishi, senatning nihoyatda katta ta`siri Rim respublikasining muhim xislatlaridir.** Buning sababi shuki, avvalo rim fuqarolarining ko`pchiligi doim tarqoq va durustroq uyushmagan ziroatchilardan iborat bo`lganligi, ikkinchidan, miloddan avvalgi V-IV asrlardagi tarixiy sharoitlarning o`ziga xosligi, shuningdek, Rim respublikasining yerlari faqat urushlar tufayligina kengayib borganligidir. Uzluksiz davom etgan urushlar, muttasil talonchilik davlat tashkilotiga qattiq ta`sir ko`rsatgan, davlat harbiy xarakter olgan. Eng e`tiborli xalq majlislari senturiyalar komitsiyalari bo`lib, dastlab ular odatdagi askarlar yig`inidan iborat edi. Fuqarolar bunday yig`inlarga butun qurol-yarog`larini osib, o`n yetti kunlik zapas oziq-ovqat bilan kelishardi. Tribunlardan boshqa magistratlarning hammasi harbiy boshliqlar lavozimida bo`lgan va legionlarga qo`mondonlik qilgan yoki hech bo`lmasa, urush olib borishga bevosita aloqasi bo`lgan boshqa biron vazifani bajargan. Senat ham harbiy ishlarga rahbarlik qilgan.

Armiya Rimning harbiy tashkiloti uning tarixida juda katta rol o`ynagan. Senturiyalar majlislarining qurollangan jangchilardan tashkil topganligining o`ziyoq endigina vujudga kelgan davlatda harbiy kuchlarning rolini qanchalik tan olinganligini ko`rsatib turibdi. Ayni armiya yordamida Rim o`z hududini nihoyatda kengaytirib, siyosiy mavqeini mustahkamlab olishga erishgandi. Respublikaning taqdiri ham ko`p jihatdan armiyaning qo`lida edi.

Dastlab Rimning harbiy tashkiloti juda sodda bo`lgan. Mulk senziga ega 18 yoshdan 60 yoshgacha barcha fuqarolar harbiy harakatlarda ishtirok etishga majbur bo`lganlar. (Shu bilan birga kliyentlar patronlarning o`rniga harbiy majburiyatlarni bajarishlari mumkin edi). Jangchilar urushlarga o`z qurol-yarog`lari va oziq-ovqatlari bilan kelishlari lozim edi. Yuqorida aytilganidek, mulkdor fuqarolarning har bir darajasi ma`lum miqdordagi senturiyalarni qo`ygan. Ular legionlarga birlashgan. Legion deb Rimda dast-

lab butun lashkarga aytilgan. Armiyaga qo`mondonlikni senat konsullardan biriga topshirgan. Keyinroq ikki konsulning har biri o`ziga legion tuzib, unga qo`mondonlik qilgan. Konsul qo`mondonlikni pretorga o`tkazishi mumkin edi. Miloddan avvalgi IV asrda konsullar qo`shinlari ikkitadan legionga ajratilib, butun armiyada to`rtta legion bo`lgan.

Askar to`plashning o`ziga xos tartibi mavjud edi. Askar to`plash kunini xalq majlisi belgilagan, qo`shinlar tarkibini esa, sensor tuzib bergan ro`yxat asosida konsullar belgilagan. Har bir legion og`ir qurol-yarog`lar bilan qurollangan 3000 askar va yengil qurolli 1200 askardan tashkil topgan. Legion tarkibiga otliq askarlar ham kiritilgan. Ular ko`proq oti bor boy kishilardan tashkil etilgan. Legion xiyla mayda qo`shilmalardan iborat o`tgizta manipulaga ajratilgan, har bir manipula esa oltmish va o`ttiz kishidan iborat. Ikki senturiyaga ajratilgan. Legionning manipulalarga bo`linishi natijasida bu ixcham qo`shilmalar chaqqon harakat qilish imkoniyatiga ega bo`lgan. Legionlar tepasida harbiy tribunlar turgan, senturiyalarga senturionlar qo`mondonlik qilgan, otliqlar otradlariga (dekuriyalarga) dekurionlar boshchilik qilgan. Agar harbiy harakatlar bir yildan ortiq davom etsa, konsul yoki pretor armiyaga qo`mondonlik huquqini saqlab qolgan.

O`ta harbiy faollik harbiy tuzumning o`zgarishiga ta`sir etgan. Miloddan avvalgi 405 yildan armiyada ko`ngillilar paydo bo`lgan, ularga maosh to`lay boshlaganlar. Miloddan avvalgi III asrda sento`riya majlislarining qayta tuzulishi munosabati bilan senturiyalar soni o`sgan. Ular ning bazasida yigirmatagacha legionlar tuzilgan. Bundan tashqari, ittifoqchilardan tuzilgan legionlar ham paydo bo`lgan. Miloddan avvalgi II asrda ular rim armiyasining 2/3 qismini tashkil etgan edi. Shu bilan birga harbiy majburiyat bilan bog`liq bo`lgan mulk senzi pasaytirilgan.

Armiya o`ta intizomli va yaxshi qurollangan edi.

Rimliklar puxta o`ylab ishlanilgan rag`batlantirish tadbirlari va jazo choralari vositasi bilan legionerlar orasida qattiq, intizom o`rnatganlar. Konsul jangda jasurlik qolgan, xizmat ko`rsatgan jangchini askarlar majlisida maqtab, qimmatli buyumlar bilan mukofotlagan. Ayniqsa, yer uchastkasi eng zo`r mukofot edi. Bundan tashqari aybdor jangchilar qo`mondonlar tomondan jazolanishi mumkin edi. Masalan, jangda qurolini yo`qotib qo`ygan jangchini tribunlar kengashi hatto o`lim jazosiga hukm qilgan. Jang vaqtida chekingan yoki qo`zg`olon qilgani uchun qo`mondonlar eski "detsimatsiya" odatini qo`llaganlar, ya`ni chek tashlab har o`n jangchidan birini qatl etganlar.

Jangchilarning o`z mavqelaridan va mavjud tartiblardan noroziliklari

tobora oshib borgan. Armiyada xizmat qilish kasbga aylantirilgan. Armiyaning o'zi doimiy va mustaqil, sinfsizlashgan siyosiy kuch, uning qo'mondoni esa yirik siyosiy shaxs bo'lib qolgan edi.

Urushlarning uzoqqa cho'zilishi va tez-tez bo'lib turishi armiyani doimiy tashkilotga aylantirdi. Aynan shunday urushlar jangchilarning asosiy qismi - dehqonlar noroziligining o'sishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, dehqonlar o'z xo'jaliklarini tashlab ketishga majbur bo'lganliklari vaziyatni yanada keskinlashtirardi. Armiyani qayta qurish zaruriyati pishib yetilgan edi. Bu miloddan avvalgi 107 yilda Mariy tomonidan amalga oshirilgan.

Mariyning harbiy islohoti rim fuqarolarining harbiy majburiyatlarini saqlab qolib, davlatdan qurol-yarog' va maosh oluvchi ko'ngillilar to'plashga ijozat bergan. Lyumpen-proletarlar ham legionlarga ko'ngilli kirishi mumkin edi. Bundan tashqari, legionlarga harbiy o'ljalarning bir qismi beriladigan bo'lgan, miloddan avvalgi I asrdan boshlab veteranlar Afrika, Galliya va Italiyadan (musodara qilingan va erkin yerlar hisobidan) yerlar olishlari mumkin edi. Islohot armiyaning ijtimoiy tarkibini ancha o'zgartirdi, uning katta qismi endi aholining kambag'al va mulksiz qatlamlaridan tashkil etiladigan bo'ldi.

Armiyaning kuchayishi va siyosiy hayotda muhim o'rin tutishining dastlabki natijalari tezda ko'rina boshladi. Miloddan avvalgi 88 yilda Sulla davrida armiya rim tarixida bir marta mavjud hokimiyatga qarshi bosh ko'tarib chiqqan va uni ag'darib tashlagan: Garchi, qadimiy an'analarga binoan, qo'shinlarning qurol ko'tarib yurishi va shaharda paydo bo'lishi taqiqlangan bo'lsada, Rim armiyasi bir marta Rimga kirgan edi.

3. Respublikaning qulashi va imperiyaga o'tishi

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimda quldorlik munosabatlarining rivojlanishi natijada sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar yanada keskinlashdi. Iqtisoddagi siljishlar, qul mehnatini ekspluatatsiya qilish shakllarining kengayishi va o'zgarishi, jadallashishi quldorlarning hukmron tabaqalari, shuningdek, ular bilan ko'pchilik erkin, kambag'al va mulksiz kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi bilan bir vaqtda sodir bo'ldi. Muvaffaqiyatli bosqinchilik siyosati natijasida Rim davlatining Reyn daryosiga qadar deyarli butun g'arbiy Yevropani o'ziga bo'ysundirib olganligi uning oldiga yangi murakkab harbiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqardi. Endi Rim davlati ishg'ol etgan yerlar xalqlarini bostirib turish, ular ustidan boshqaruvni tashkil etish kabi vazifalarni ham hal etishi lozim edi.

Bunday sharoitlarda eski siyosiy tuzum vujudga kelgan va ke-

skinlashib borayotgan qarama-qarshiliklarni hal etishga qodir emasligi to-bora oshkor bo`lib qolgandi. Rim inqiroz davriga qadam qo`ydi. Sirdan ko`rinishda rim xalqi hokimiyati sifatida tashkil topgan, respublika bosh-qaruv shakli bilan niqoblangan, nobillarning aristokratik siyosiy rejimi hisoblangan, davlat tuzilishining eskirgan polis shakli bo`lgan mavjud si-yosiy muassasalar inqirozga uchragandek ko`rinardi. Ularni yangi tarixiy sharoitlarga moslashtirib, qayta qurishdan iborat bo`lgan ob`yektiv zaruri-yat kelib chiqqandi.

Rim miloddan avvalgi V-IV asrlarda Italiyani bosib olar ekan, avvalo yerlarni musodara qilishga harakat qilgandi. Chunki aholining o`sb borishi yer egaliklarini yanada kengaytirishni talab qilardi. Bu tenden - siyani miloddan avvalgi II asrda shaharlar rolining oshib borishi ham to`xtata olmagan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda urushlar ahvolni ancha o`zgartirib yubordi. Ular bosib olingan aholini ommaviy ravishda qulga aylantirilishiga va Rimda qullar sonining birdaniga oshib ketishiga olib keldi. Qullik "klassik", antik xarakter kasb etgandi. Qullarning katta qismi davlat va yirik xususiy yer egaliklarida o`ta og`ir mehnat sharoitlarida va qattiq terroristik tartib ostida ekspluatatsiya qilinganlar. Albatta, bu qul-larning tabiiy noroziliklariga va, hatto, qator qo`zg`olonlariga sabab bo`l-gan. Ayniqsa, miloddan avvalgi II asrda Sitsiliyadagi qullar qo`zg`oloni hamda miloddan avvalgi 74-70 yillardagi Spartak boshchiligidagi qo`zg`olon keng quloch yoyib, Rim davlatini taxlikaga solgandi.

Qullar qo`zg`oloni bilan bir vaqtda va undan keyin Rimda fuqarolar hamda ittifoqchilar urushlari apanga olgan. Bu urushlar hukmron sinflar turli guruhlari o`rtasidagi hokimiyat uchun kurashning va ular bilan mayda ishlab chiqaruvchilar hamda lyumpen-proletarlar o`rtasidagi qarama-qarshiliklarning oqibati edi.

Nobillarning iqtisodiy va siyosiy zo`ravonliklari miloddan avvalgi II asrda aka-uka Tiberiy va Gay Grakslar boshchiligidagi mulksizlar omma-sining keng norozilik harakatlarini keltirib chiqargan. Grakslar yirik yer egaligi ayrim kishilar qo`lida to`planishini cheklashga va bu bilan mayda yer egalriga yer ajratib berish uchun yer fondi tashkil etishga, shuningdek zodagonlarning tayanchi bo`lgan senatni kuchsizlantirishga va xalq, ma-jlisi hamda harbiy tribunning ilgari ahamiyatini qayta tiklashga harakat qilganlar.

Tiberiy Grakx miloddan avvalgi 133 yilda xalq tribuni lavozimiga saylanib, xalq harakatiga tayangan holda, senat qarshiligiga qaramay, o`sha yiliyoq xalq majlisida o`zining **Agrar qonuni** loyihagini tas-diqlatishga erishgandi. Qonun davlatdan olinadigan yerlarning maksimal

miqdorini cheklagan. Katta yer egalaridan ortiqcha yerlar tortib olinib, davlat yer fondi tashkil etilgan va bundan kambag'al va yersiz dehqonlarga yer uchastkalari bo'lib berilgandi. Bunday yerlar ko'chmas mulk hisoblanib, ularni sotish, ijaraga berish va tasarruf etish mumkin bo'lmagan, ulardan faqat vorislik tartibida foydalanishga ruxsat etilgan. Bunda, albat, dehqonlar yerga egasizligining oldini olish maqsadi ko'zda tutilgan edi. Tiberiy Grakx muxoliflari tomonidan o'sha yilning o'zidayoq o'ldirilgan, lekin shunga qaramay, uning yer islohotlari amalga osha boshlagan va o'n minglab fuqaro yerlarni bo'lib olgandi.

Tiberiyning islohotchilik faoliyati uning tribun bo'lib saylangan ukasi Gay Grakx tomonidan davom ettirilgan. **Gay Grakx zodagonlar - ning siyosiy nufuzini zaiflashtiruvchi qonunlar** chiqartirgan. Xususan, xalq majlisida magistratlarni yashirin ovoz bilan saylash to'g'risida qonun joriy qilingandi. Bundan tashqari, xalq majlisi biron kishini xalq tribuni vazifasiga qatorasiga ikki yil va undan ko'proqqa qayta saylanishi mumkinligi haqida qaror chiqargan. Gay o'z akasining agrar islohotlarini amalga oshirish bilan birga yersiz fuqarolarni yer bilan ta'minlash maqsadida miloddan avvalgi 123-122 yillarda provinsiyalarda rim fuqarolarining koloniyalarini tuzish va kambag'allarga davlat omborlaridan juda arzon baho bilan don sotish to'g'risida qonunlar chiqartirgan. Keyingi qonun senatning muhim huquqi - davlat xarajatlariga xo'jayinlik qilish huquqini cheklagan. Masalan, don sotish uchun mablag' ajratish huquqi ham xalq majlisiga o'tib, uning roli ancha oshgan.

Gay harbiy islohot ham o'tkazgan. Rim fuqarolari uchun majburiy bo'lgan harbiy yurishlar soni cheklangan, 46 yoshga to'lgan fuqarolar uchun harbiy majburiyat bekor qilingan, askarlar davlatdan maosh va qurol-yarog' oladigan bo'lganlar, xalq majlisida o'limga mahkum etish haqidagi hukmdan shikoyat qilishlari mumkin bo'lgan.

Gay Grakx suvoriylarning madadiga ega bo'lmoq uchun xalq majlisi (triba komitsiyalari) orqali viloyatlardagi noiblarning suiste'molliklarni tekshiradigan sud a'zolarini tayinlash huquqini senatdan olib, suvoriylarga berish to'g'risida qonun chiqartirgan. Shu bilan birga provinsiyalarda soliq to'plash tartibi suvoriylar foydasiga o'zgartirilgan. Masalan, sobiq Pergam podshohligida soliq to'plash huquqi publikanlarga berilgan.

Nihoyat, Gay Grakx tribun bo'lgani sababli bu magistraturaning roli o'sgan va hatto konsullarni ikkinchi o'ringa tushirib qo'yg'an.

Biroq, Gay Grakxga ko'pchilik rim fuqarolari manfaatlarini qondirganligi uchun shuhrat keltirgan bo'lsa, Italiyaning erkin aholisiga Rim fuqarolik huquqi berish to'g'risidagi qonun loyihasi unga juda katta zarar

keltirgandi. Gayning dushmanlari bu qonun rim fuqarolarining sonini oshiradi, natijada Rim kambag'allarining tekinga don olishi mumkin bo'lmay qoladi, deb targ'ib qilishgan. Oqibatda Gay o'z qonuni loyahasini qaytarib olishga majbur bo'lgan va obro'si tushib ketgan. Bu hol miloddan avvalgi 121 yilda xalq tribunlarini saylash arafasida uning ta'siriga putur yetkazdi. Bunda Gay ko'p ovoz olgan bo'lsa ham xalq tribuni lavozimiga ega bo'lolmagan, o'sha yili o'z buyrug'i bilan o'z quli tomonidan o'ldirilgan.

Italiyaning erkin aholisiga Rim fuqarolari huquqi berilishi haqidagi qonun loyahasining barbod bo'lishi ittifoqchilarning nihoyatda qattiq noroziligini keltirib chiqargan. Bu miloddan avvalgi I asrning 90-yillaridagi ittifoqchilar urushlariga sabab bo'lgan. Urushlar Rimdagi qullarning omaviy qo'zg'olonlari va provinsiyalardagi o'n yillarga cho'zilib ketgan bosqinchilik urushlari sharoitlarida Rimning ahvolini yanada murakkablashtirgan.

Miloddan avvalgi 91-88 yillardagi ittifoqchilar urushi natijasida ittifoqchilarning mag'lubiyatga uchrashiga qaramay, ularning ko'pchiligi Rim fuqarosi huquqini olganlar. Lekin bu Rimdagi siyosiy tanglikni (keskinlikni) yumshatmadi - erkin fuqarolar ichida vujudga kelgan va senatga tayanuvchi optimatlar bilan senat oligarxiyasiga qarshi kurashuvchi populyarlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashgan. Optimatlar ham, populyarlar ham sotib olingan lyumpenlardan foydalanganlar. Ular o'rtasidagi kurash miloddan avvalgi I asrdagi fuqarolar urushiga olib kelgan.

Rimdagi qullar qo'zg'olonlari, mayda yer egalariining noroziliklari, ittifoqchilar va fuqarolar urushlari siyosiy vaziyatni juda ham keskinlashtirib, bularning hammasi markaziy davlat hokimiyatini kuchaytirishni talab qilgan. Murakkablashib ketgan vaziyatni bartaraf etishga eski siyosiy muassasalarning qodir emasligi borgan sari oshkor bo'lib qolgan. Bu muassasalarni yangi tarixiy sharoitlarga moslashtirishga harakat qilingan. Bunday harakatlardan eng muhimi Sulla diktaturasi davrida (miloddan avvalgi 82-79 yillarda) qilingan edi. Sulla o'ziga sodiq legionlarga tayanib, senat tomonidan o'zini noma'lum muddatga diktator etib tayinlanishiga erishgan. Sulla hokimiyat tepasiga kelgach, o'z dushmanlarining ro'yxatlarini - "proskripsiylar"ni tuzdirgan. Proskripsiyalarda nomlari yozilgan fuqarolar o'lim jazosiga hukm qilinib, mol-mulkulari musodora qilingan va qullari ozod etilgan. O'sha ro'yxatda ko'rsatilgan fuqarolarni o'ldirgan kishiga uning mulkidan bir qismi mukofot qilib berilgan.

Sulla optipatlarining to'la hukmronligini ta'minlash maqsadida Rim davlat tuzumini butunlay qaytadan tashkil etgan. Senatorlar sonini o'z armiyasining lashkarboshilari hisobiga ko'paytirib, olti yuztaga yetkazgan,

senatning vakolatlarini kengaytirgan. Tribun hokimiyati cheklangan, uning takliflari dastlab senat tomonidan muhokama qilinishi lozim bo'lgan. Xalq majlisining huquqlari qattiq chegaralab ko'yilgan. Senat qabulidan o'tgan qonunlarinigina xalq majlisi qabul qila olgan. Xalq majlisining so'z vakolatlari va moliyani nazorat qilish vazifalari senatga qaytadan olib berilgan.

Umrbod diktaturaning o'rnatilishi nobillar va suvoriylar yuqori ta'baqasining kuchli yakka hokimlikni o'rnatish yo'li bilan inqirozdan chiqishga urinishlarini namoyish qilgan. Bu shu bilan birga eski davlat shaklini yangi tarixiy sharoitlarga moslashtirishga urinish muvaffaqiyatsizlikka uchraganligini ham ko'rsatdi.

Sulla va muxlislarining hukmronligi respublika tuzumiga qaqshatkich zarba berdi. Rasman respublika saqlanib qolgan bo'lsa-da, Sullaning diktatorlik vakolati uni Rim davlatining yakka hokimi qilib qo'ydi. U barpo etgan davlat tuzumi Rimdagi barcha nobillarning hukmronligini emas, balki uning ozgina qismining hukmronligini ta'minlagan, ya'ni siyosiy oligarxiyani vujudga keltirgan. Sulla va muxlislarining hukmronligi qonuniy tarraqiyot yoki qonun chiqaruvchi organlar qabul qilgan qaror natijasi emas, balki professional harbiylar yordamida qo'pol ravishda zo'ravonlik bilan bosib olish natijasi bo'lgan edi. Sulla islohotlari Pompey va Krass tomonidan bekor qilingan.

Miloddan avvalgi 91-88 yillardagi ittifoqchilar urushidan so'ng Italiya aholisi rim fuqarolari huquqini olgan. Agar urushga qadar bu huquqlardan 400.000 ga yaqin kishi foydalangan bo'lsa, endi ularning soni 2 milliongacha yetgan. Ittifoqchilarni Rim tribunlariga kiritilishi shunga olib kelganki, komitsiyalar rim xalqi organlari bo'lmay qolgan. Komitsiyalar - ning qonun chiqarish faoliyati to'xtatib qo'yilgan, mansabdor shaxslarni saylash huquqi yo'qolgan. Muvaffaqiyatli bosqinchilik urushlari Rimni kichik shahar-davlatdan eski polis davlat shakli bilan boshqarishga mutlaqo moslashmagan yirik davlatning poytaxtiga aylantirgan.

Umrbod diktaturaning o'rnatilishi va fuqarolik urushlari shuni ko'rsatdiki, professional yollanma armiya muhim siyosiy kurash quroliga aylangan. Qo'mondonning yutuqlaridan manfaatdor bo'lgan armiya unga shuhratparastlikdan iborat siyosiy maqsadlarga erishishda uning qo'lidagi qurolga aylangan va diktatura o'rnatishiga yordam bergan.

O'tkir siyosiy inqirozdan chiqish zaruriyati, eski davlat shaklining yangi tarixiy sharoitlarga moslashmaganligi va yollanma armiyaga o'tish Rimda polis-respublika tuzumi qulashining va harbiy diktatura tartibi o'rnatilishining asosiy sabablari bo'lgan edi.

Sulla diktaturasidan keyin oradan qisqa vaqt o'tgach, hokimiyatni 1-

triumvirat (Pompey, Krass, Sezar) egallab olgan. Undan so'ng YU.Sezar diktaturasi o'rnatilib, u miloddan avvalgi 45 yilda imperator unvonini olgan. Keyinchalik, "davlatni tartibga solmoq uchun" cheklanmagan vakolatlariga ega bo'lgan 2-triumvirat (Antoniy, Lepid, Oktavian) tashkil etilgan. Triumvirat qulaganidan va Antoniy ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Oktavian imperator degan unvoni va umrbod xalq tribuni huquqini qo'lga kiritgan. **Miloddan avvalgi 27 yil 13-yanvardagi senat kengashida Oktavian senatning prinsepsi, yagona prokonsul, legionlarning qo'mondoni deb e'lon qilingan.** Unga avvallari xudoga qilingan murojaatlarda tilga olingan Avgust laqabi berilgan. **Shu tariqa miloddan avvalgi 27 yilda** Rim davlati tarixida yangi bosqich - **imperiya davrining boshla - ishi vujudga kelgan.**

4. Rim imperiyasi

Ijtimoiy tuzum Harbiy diktatorlik tartibining o'rnatilishi Rimdagi vaziyatni ancha barqarorlashtirdi, o'tkir siyosiy inqirozni bartaraf etishga imkon yaratdi. Quldorlik tuzumi o'zining rivojlanishidagi eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Respublikaning so'nggi asrlarda yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar mustahkamlandi, yangi sinfiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar vujudga keldi.

Rim davlati chegaralarining kengayishi bilan erkin aholining soni, jumladan, rim fuqarolarining soni ham o'sdi (yuqorida aytilganidek, respublika davrida Italiya aholisiga fuqarolik huquqlari berilgan edi). Bu jarayon imperiyaga o'tish bilan ham davom etgan: fuqarolik huquqlari avvalo Rim tomonidan bosib olingan mamlakatlar -provinsiyalarning italiy bo'lmagan aholisiga ham berilgan. Nihoyat, milodning 212 yilida Rim imperiyasidagi barcha erkin aholiga Rim fuqarolik huquqlarini in'om etish to'g'risidagi imperator Karakellaning edikti chiqarilgan.

Shular bilan birga erkin kishilarning ijtimoiy va tabaqaviy darajala - nishi (farqlanishi) rivojlangan. Quldorlik tuzumining rivojlanishi va davlat chegaralarining kengayishi bilan quldorlar sinfi ancha o'sdi va mustahkamlandi. Undagi tabaqaviy bo'linish batamom rasmiylashtirildi. Fuqarolar urushi davrida siyraklashib qolgan nobillarning va suvoriylar - ning saflari Italiyaning va provinsiyalarning yirik quldorlari, provinsial zodagonlar, shuningdek davlat chinovniklari bilan to'ldirilgan. Nobilitet 1 million sestersiy mulk senzli senatorlik tabaqasiga aylantirilgan. Senatorlar davlat apparatida va armiyada yuqori lavozimlarni egallab, imperator hokimiyatining mustahkam tayanchi bo'lib qolganlar. Suvoriylar tabaqasi 400 mingdan 1 milliongacha sestersiy mulk senziga ega bo'lgan xizmatchi

tabaqaga aylangan va Rimdagi, provinsiyalardagi imperator ma'muriyatiga kadrlar, armiyaga esa qo'mondonlar yetkazib turgan. Tabaqa sifatida rasmiylashmagan, lekin mahalliy boshqaruvda nufuzli rol o'ynovchi provincial zodagonlar son jihatdan ancha ko'p bo'lgan. Unga rimlik va rimlik bo'lmagan hunarmandchilik ustaxonalarining egalari, kema egalari va savdogarlar kelib qo'shilgan. Qullarning ahvolidagi ham o'zgarishlar yuz bergan. Qul mehnati ishlab chiqarish asosi sifatida yangi qullar kuchlarining doimo oqib kelishini talab qilgan. Biroq muvaffaqiyatli bosqinchilik urushlari davri o'tib ketgan va ilgari qulchilikning asosiy manbai bo'lmish harbiy asirlik tugab borgan. Qullarning ahvoli birmuncha (albatta, vaqtincha) yaxshilangan. Qullar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ularni sababsiz o'ldirish taqiqlangan, oilaviy munosabatlari qo'llab-quvvatlangan. Bu tadbirlar sinfiy ziddiyatlarni yumshatish maqsadlarini ko'zlagan. Imperiyaning dastlabki davrida yirik qullar qo'zg'olonlari bo'lmaganligi ham tasodifiy emas edi. Lekin shu bilan birga qullar qarshiligini bostirish davlatning muhim vazifasi bo'lib qolavergan. Shuning uchun ham milodning 10 yilida senatning qarori bilan xo'jayinni o'ldirganlik uchun shu vaqtda uning uyida bo'lgan barcha qullar o'limga mahkum qilinadigan bo'lgan.

Respublika davridayoq vujudga kelgan ekspluatatsiyaning shakllari ham rivojlangan - pekuli va kolonat keng tarqalgan.

Imperiya davrida shahar va qishloqlardagi erkin mayda ishlab chiqaruvchilarning keng qatlami ham saqlanib qolgan, yer uchastkalari olgan veteran jangchilardan iborat dehqonlar soni o'sgan. Biroq aholining bu tabaqalari ahvoli doimo o'zgarib turgan, natijada II-III asrlarda o'zini qullikka sotish va ayniqsa kolonat keng tarqalgan. Kolon ham vaqt o'tishi bilan xuddi erkin dehqon va qul singari ko'zga tashlanadigan qiyofa bo'lib qolgan. Kolonlar safini vaqt o'tishi bilan nafaqat erkin kishilar va erkinlikka chiqarilganlar, balki rim davlatining chegara viloyatlarida joylashgan "varvarlar" ham to'ldirib turgan. Ma'lum muddatga (5 yilga) tuziladigan ijara shartnomasidan kelib chiqadigan kolonat qarzdand qochib qutila olmagan kolonlar uchun umrbod bo'lib qolgan, keyin esa meros bo'lib o'tgan. Kolonlar yer egalari qaram kishilarga aylanib, abadiy-abad yerga birlashtirib qo'yilganlar va ozod bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lganlar.

Shaharlarda ham xuddi shunday jarayon kuzatilgan, hunarmandlar o'z kasblariga bog'lanib, hunarmandchilik jamoalariga kiritilgan.

Davlat tuzumi Imperiya davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar asosan respublika davrida paydo bo'lgan jarayonlarning oqibati bo'lib, Rimning siyosiy tuzulishi xarakterini belgilagan. Imperiyaning I asrlarida eskirgan respublika muassasalari saqlanib qolgan.

Bunda deyarli yarim ming yil davomida o`rnatilgan an'anaviy respublika tushunchalari (tasavvurlari) katta o`rin tutgan. Ularni birdaniga yo`qotishning iloji bo`lmagan. Imperiya dastlab davlat boshlig`ining haqiqiy hokimiyatini niqoblagan, ya`ni, go`yoki respublika libosi bilan niqoblangan. Davlatning imperiya deb nomlanishi ham shartli bo`lgan. "Imperator" unvoni uzoq vaqtgacha fahriy harbiy unvon bo`lib qolgan va faqat vaqt o`tishi bilan davlat boshlig`i imperator deb atala boshlangan. Har qalay III asr o`rtalarigacha imperatorlar o`z unvonlarini xuddi faxriy harbiy unvon sifatida bir necha marta olganlar. (Masalan, Oktavian - 21 marta, Gordian III esa o`zining olti yil hukmronligi davrida olti marta olgan edi). Lekin bundan keyin ham ular bir necha marta tribun va konsul hokimiyatini olgan edilar.

Imperator hokimiyati asta-sekin kuchayib borgan. Uni respublika muassasalari bilan niqoblash zaruriyati va vaqti-vaqti bilan imperator va senat o`rtasida vujudga keladigan ziddiyatlarda nomoyon bo`luvchi respublika an`analarining ta`siri o`tmishda qolib ketgan. II asr oxirida senat boshqaruvdan batamom chetlatilgan. Boshqaruv imperator boshchiligidagi chinovniklik-byurokratik va harbiy apparatlarga o`tgan. III asr oxirida monarxiya sof holda joriy qilingan.

Imperiya davrini 2 bosqichga bo`lish qabul qilingan:

1) **Prinsipat davri.** Miloddan avvalgi I asr - milodning III asri. Bu **prinseps-senatus** - birinchi senator degan so`zdan olingan. Bu unvonni senatdan 1 bo`lib senatorlar ro`yxatida 1-o`ringa qo`yilgan imperiya asoschisi Oktavian Avgust olgan edi va u senatning qarorlarini oldindan belgilash imkoniga ega bo`lib, 1-sudga chiqish huquqiga ega edi.

2) **Dominat (III-V asrlar) "dominus" -"xo`jayin"**, hukmdor so`zidan olinib, bu imperatorning mutlaq hokimiyati batamom tan olinganligini anglatardi.

Prinsipat Davlatni boshqarishni prinsepsga o`tishi unga imperium oliy hokimiyatining in`om qilinishi tufayli yuz bergan. imperium oliy hokimiyati eng asosiy mansabdor shaxslarni tayinlash, magistraturalardan alohida chinovniklik apparatini tashkil etish va butun armiyaga qo`mondonlik qilishni prinsepsga o`tganligini anglatar edi.

Oktavian imperium hokimiyatiga ega bo`lib, butun armiyaga qo`mondonlikni, urush e`lon qilish, sulh tuzish va xalqaro shartnomalar imzolash, shaxsiy gvardiya (pretoriylardan tuzilgan kogortalar) saqlash huquqini, oliy jinoiy va fuqarolik sud qilish huquqini, qonunlarni sharxlash huquqini olgan. Prinsepsning qarorlari qonun kuchiga ega bo`lgan hujjat sifatida ko`rila boshlangan. Prinsipatning oxiriga kelib "prinseps nima

qaror qilsa, o`sha qonun kuchiga ega" degan qoida hamma tomondan tan olingan.

Prinsepslar respublika an`analariga zid ravishda bir vaqtda konsullar, senzorlar va xalq tribunlari etib saylanganlar. Masalan, Oktavian o`n uch marta konsul, uch marta sensor va o`ttiz yetti marta xalq tribuni etib saylagan. Prinseps konsul sifatida intersessiya huquqidan foydalanib, har qanday magistrat qarorini bekor qila olgan, sensor sifatida senatni o`z tafdorlaridan tuza olgan, tribun sifatida senat yoki magistrat qaroriga veto qo`ya olgan. Bundan tashqari, Oktavian diniy ibodatlarni bajarilishini yurituvchi oliy kohin-pontifik unvonini olgan.

Dastlabki vaqtlarda prinseps hokimiyati meros tariqasida o`tadigan bo`lmagan. Yuridik jihatdan u hokimiyatni senat va rim xalqi qarori bilan olgan, lekin senat saylaydigan o`z vorisini (odatda o`g`lini yoki o`g`il qilib olinganini) ko`rsata olgan. Shu bilan birga armiya yordamida amalga oshirilgan saroy to`ntarishlari natijasida prinsepslarni ag`darib tashlash va yangilarini tayinlash hollari ham tez-tez bo`lib turgan. Oktavian vorislari ham dastlab, garchi ba`zan senatning oppozitsiyasini bartaraf etishlariga to`g`ri kelsada, xuddi o`shanday vakolatlardan foydalana boshlaganlar hamda asta-sekin prinseps hokimiyatini kuchaytirib borganlar.

Senat vakolatlari juda o`zgargan. Madomiki xalq majlislaridan faqat triba komitsiyalari saqlanib qolgan, buning ustiga ular kamdan-kam chaqirilib turgan ekan, I asrdan boshlab senat qarorlari - senatus - konsullar qonuniy kuchga ega bo`lgan. Lekin prinsepsning senatorlarni saylash huquqi va prinsepslar tomonidan senatda vaqti-vaqti bilan "tozalash" o`tkazib turilishi shunga olib keldiki, II asrdan boshlab senat amalda faqat prinsepsning qarorini tasdiqlagan xolos. Ilgari xalq majlisidan senatga o`tgan magistrnlarni saylash va nazorat qilish huquqi ham prinsepsga o`tib borgan. Magistratlarning bir qismi faqat prinseps taklif qilgan nomzodlardan saylanadigan bo`lgan. Senatning davlat mablag`larini tasarruf etish va provinsiyalarni idora qilish bo`yicha huquqlari cheklangan. Ularning harbiy va tashqi siyosat sohasidagi vakolatlari to`la yo`qotilgan.

Respublika magistraturalari bilan bir vaqtda imperatorning chinovniklik apparati tashkil etilgan. Uning tepasida **prinseps kengashi** va devonxonasi turgan. Devonxonaga doimiy chinovniklarga ega bir qancha idoralar kirgan. Kengashga prefektlar, imperatorning "do`stlari", devonxona idoralarining boshliqlari, moliya, arz-shikoyatnoma, rasmiy yozishmalar, imperatorning shaxsiy mulki, imperator sudi va boshqa idoralar kirgan. Maslahat berish vazifalarini bajaruvchi kengash a`zolari va devonxona idoralarining boshliqlari prinsepsning o`zi tomondan uning

yaqinlari ichidan tayinlangan. Chinovniklik lavozimini imperatorning erkinlikka qo'yib yuborgan odamlar va hatto qullari ham ola boshlagan. Senator va suvoriylardan (chavandozlardan) tayinlanadigan oliy chinovniklarga: imperatorlik gvardiyasiga qo'mondonlik qiluvchi pretoriya prefekti; politsiya kogortalarini idora qiluvchi Rim shahar prefekti; Misr prefekti; oziq-ovqat bilan ta'minlashga javob beruvchi prefekt va boshqalar kirgan.

Mahalliy boshqaruv Rim davlatining tarkibiy qismi bo'lib qolgan provinsiyalarni boshqarish qayta tashkil etilgan. Ular imperator va senatga tegishli provinsiyalarga ajratilgan. Imperatorga tegishli provinsiyalar prinseps tayinlagan **legatlar** tomonidan idora etilgan. Legatlar o'z kengashi va devonxonasiga ega bo'lib, tegishli provinsiyalarda harbiy va fuqarolik hokimiyatini amalga oshirganlar. Senatga tegishli provinsiyalarni senat tomonidan tayinlanadigan prokonsullar va senatorlardan qur'a tashlash yo'li bilan saylanuvchi va senat hamda prinsepsga - (ikki tomonlama) bo'ysunuvchi **propretorlar** idora qilgan.

Tashkil etilgan chinovniklik apparati izchil (mukammal) tizimga ega bo'lmagan va ayniqsa imperiyaning I asrlarida nisbatan kam sonli bo'lgan. Lekin respublika davlat apparatiga nisbatan o'sib boruvchi davlatni ancha samarali idora etishni ta'minlagan.

Provinsiyalarni imperatorlik va senatlik provinsiyalariga bo'lish yana bir muhim natija bergan. Senatlik provinsiyalaridan keladigan daromadlar senat tomonidan boshqariladigan davlat xazinasiga kelib tushgan. Imperatorlik provinsiyalaridan keladigan daromadlar esa prinseps xazinasiga **fiskka** kelib tushgan. Senatga ancha kam provinsiyalar tegishli bo'lib, bular allaqachon bosib olingan, talab bo'lingan Rim provinsiyalari edi. Senat xazinasini doimo tanqis va gohida bo'm-bo'sh bo'lar edi. Imperatorlik provinsiyalari nisbatan yaqinda bosib olingan va ularni talash endgina boshlangan bo'lib, bular prinsepsga juda katta daromad keltirardi. Senat ba'zan prinsepsdan qarzga pul olishga majbur bo'lardi.

Asta-sekin prinseps hokimiyati senatlik provinsiyalariga ham yoyilgan va III asrga kelib, bu provinsiyalarning barchasi imperatorniki bo'lib qolgan.

Armiya Armiyaga qo'mondonlik huquqi va uni nafaqat davlat hisobidan, balki o'z xazinasidan ushlab turish (boqish) imkoniyati armiyani prinsepslarga shaxsiy va davlat hokimiyatining qudratli tayanchiga aylantirishlariga imkon tug'dirgan. Bundan tashqari armiya ta'sirli siyosiy kuchga aylanib, unga ba'zan prinsepsning taqdiri ham bog'liq bo'lib qolgan. Agar respublika davrida siyosiy hokimiyat va

harbiy kuchlar birligi harbiy xizmatga majbur fuqarolarning senturiyalar majlisi va armiyani boshqaradigan senat tomonidan mujassamlantirilgan bo'lsa, endilikda bu birlik prinseps tomonidan mujassamlantirildi. Rimda boshqaruvning yagona harbiy-byurokratik tashkiloti vujudga keldi.

Professional armiyaga o'tgandan so'ng armiya korporativ (o'z manfaatlari bilan cheklangan) tashkilotga aylangan. Oktavian uni uch qismga bo'lib, qaytadan tashkil etgan. U Italiyada o'z hukmronligini saqlash va shaxsiy muhofaza uchun pretoriylar gvardiyalarini tuzgan. Pretoriylardan tuzilgan ushbu gvardiya to'qqizta kogortadan iborat bo'lib, ularning har birida uch yuztadan otlilik va yetti yuztadan piyoda jangchilar bo'lgan. Kogortalardan uchtasi Rimda, boshqalari shimoliy Italiyaning shaharlariga joylashtirilgan. Pretoriylar kogortasi imtiyozli mavqega ega bo'lib, jangchilarining maoshlari legionerlarnikiga nisbatan 3,5 baravar ortiq edi. Pretoriylar 16 yil xizmat qilgan. Pretoriylar kogortasiga faqat Italiyada tug'ilib o'sgan kishilargina olingan. Ashida imperator gvardiyasini tashkil etgan pretoriylar korpusiga ikkita prefekt-pretoriy boshchilik qilgan, keyinchalik ular imperatorlarning eng yaqin ishonchli kishilariga aylangan. Pretoriylar iste'foga chiqqandan keyin katta mol-mulklarga ega bo'lganlar va hukmron sinfningsaflarini to'ldirganlar. Armiyaning asosiy qismini rim provinsiyasi fuqarolaridan to'planadigan legionlar tashkil etgan. Yaxshi uyushtirilgan, texnika jihatidan o'z zamonasining harbiy san'at talablariga to'la muvofiq qurollantirilgan legionlar guruh-guruh qilib harbiy va iqtisodiy jihatdan eng muhim viloyatlarga joylashtirilgan edi. Legionlarning qo'mondonlari - legatlar va katta qo'mondonlar - harbiy tribunlar imperator tomonidan tayinlangan. Legionlarning xizmat muddati 20 yil edi. Oktavian (Avgust) davrida ularning soni 300 ming kishiga yetgan. Jangchilar xizmat davomida yillik maosh olganlar, bo'shagandan keyin ularga maxsus tortiq (donativa) va chek yer bo'lib berilgan. Harbiy xizmatdan bo'shagan katta yoshdagi jangchilar veteran degan nom olgan. Veteran-jangchilar Rim imperiyasining turli qismlarida o'zlarining alohida mavzularini tashkil etib, Rim hukmronligining tayanchi bo'lganlar. Mahalliy magistratlar ko'pincha ana shunday veteranlardan saylangan. Shunday qilib, legionerlar iste'foga chiqqanlaridan so'ng uncha katta bo'lmagan quldorlik xo'jaligini yuritish va provinsial zodagonlar safiga qo'shilib ketish imkoniga ega bo'lganlar. Armiyaning 3-qismini rim fuqarolari huquqiga ega bo'lmagan provinsiyalar aholisidan olinadigan yordamchi otradlar tashkil etgan. Ulardagi jangchilarning soni 200 ming kishiga yetgan. Bu jangchilar **-allarining** xizmat muddati 25 yil qilib belgilanib, maoshlari legionerlarnikidan uch baravar kam edi; yordamchi qo'shinlarda intizom

juda qattiq va shafqatsiz bo'lgan bo'lsa-da, unda jangchilar rim fuqaroligi huquqini olish, kambag'allar esa ma'lum mol-mulklar jamg'arish imkoniyatlariga ega edilar. Yuqorida aytilganidek, Karakalla edikti bilan imperiyaning barcha ozod aholisiga rim fuqaroligi berilgandan so'ng legionerlar bilan allar o'rtasidagi ijtimoiy farq yo'qolgan, armiyaning korporativ (o'z manfaatlari bilangina cheklanish) kayfiyati oshgan, uning siyosiy roli yanada kuchaygan. Oktavian tashkil qilgan doimiy Rim armiyasi qariyb to'rt yuz yilgacha yashagan. Bu tarixda eng 1-muntazam armiya bo'lib, Rim imperiyasining hokimlari ichki va tashqi siyosatlarida ayni shu ar - mi yaga tayanib ish ko'rganlar.

Dominat Perinsipat davridayoq Rimda quldorlik tuzumi tushkunlikka uchray boshlagan, II-III asrlarda esa uning inqirozi pishib yetilgan. Erkin kishilarni ijtimoiy va tabaqaviy qatlamlarga ajralishi chuqurlashgan, yirik yer egalari nufuzi kuchaygan, kolonlar mehnatining ahamiyati o'sgan va qul mehnatining roli pasaygan, munitsipal tuzum tanazzulga yuz tutgan, polis ideologiyasi yo'qolgan, an'anaviy rim xudolariga ibodat qilish o'rniga xrestianlik kelgan. Ekspluatatsiya va qaramlikning (kolonat) quldorlik va yarim quldorlik shakllariga asoslangan iqtisodiy tizim nafaqat rivojlanishdan to'xtagan, balki tobora orqaga qarab keta boshlagan. III asrga kelib prinsipatning boshlang'ich davriga deyarli ma'lum bo'lmagan qullar qo'zg'olonlari tez-tez va keng miqyosda bo'lib turgan. Qo'zg'olon ko'targan qullarga kolonlar va erkin kambag'allar kelib qo'shilgan. Rim tomonidan bo'sundirilgan xalqlarning ozodlik harakatlari bilan ahvol yanada murakkablashgan. Rim bosqinchilik urushlaridan mudofaa urushlariga o'tgan. Hukmron sinflarning o'zaro dushman guruhlari o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash birdaniga keskinlashib ketgan. Severlar sulolasi hukmronligidan 193-235 yillar) keyin "soldat imperatorlari"ning yarim asrlik davri kelib, hokimiyat tepasiga armiya olib chiqilgan. Senat, viloyatlar va legionlar birining qo'lidan biri hokimiyatni tortib olib, imperatorlarni almashtiraverishgan. 235 yildan 284 yilgacha o'n to'qqizta "qonuniy" imperator va o'ttizdan ortiq uzurpator kelib ketgan. Bulardan ko'plari fitnachilar tomonidan o'ldirilgan edi.

Prinsipat rimliklardagi fuqarolik tuyg'usini yanchib tashlagan, respublika an'analari endi uzoq o'tmishda qolib ketgan, respublika muassalarining oxirgi tayanchi - senat prinsepsga batamom bo'sundirilgan. III asr oxiridan boshlab imperiya tarixida yangi bosqich - dominat boshlangan. Bu davrda rim imperatorining mutlaq yakka hokimligiga asoslangan monarxiya davlatiga aylangan.

Dominatning rasmiy boshlanishi 284 yilda o`zini Lottiz (dominus) - uy egasi, xo`jayin deb atashga buyruq bergan Diokletianing hokimiyat tepasiga kelishi bilan belgilanadi.

Imperatorning unvonlari – Avgust va Dominus uning hokimiyatini cheklanmagan xarakterini ko`rsatadi. Qoida bo`yicha, imperatorlar ilohiy-lashtirilgan, ularning ba`zilari esa o`lganlaridan so`ng o`z dinlarining xudolari deb e`lon qilinganlar. Imperiya aholisi fuqarolardan imperatorning fuqarolariga aylantirilgan. Ularga **imperatorning qullari - servlar** sifatida qaralardi.

Prinsipat davrida mavjud bo`lgan prinseps kengashi **davlat kengashi - konsistoriumga** aylangan. Iyerarxiyaga va mansablarning bosqichma-bosqich ko`tarilishi qoidalariga asoslangan, ranglar (dara-jalar)ga bo`lingan va ancha rivojlangan chinovniklik apparati tashkil top-gan. Fuqarolik hokimiyatining harbiy hokimiyatdan ajratilishi bilan fuqarolik va harbiy chinovniklar paydo bo`lgan. Chinovniklarning uchinchi guruhi - saroy a`yonlari alohida turgan. Ularga imperator saroyini boshqaruvchi mansabdor shaxs boshchilik qilgan.

Prinsipatdan farqli o`laroq eski respublika muassasalari har qanday umumdavlat ahamiyatini yo`qotgan. Rimni imperator tayinlagan va unga bo`ysunadigan **prefekt** boshqara boshlagan. Senat Rim shahrining kengashi-ga, magistratlar esa - munitsipal mansabdor shaxslarga aylangan.

Harbiy tizim ham o`zgargan. Qullar va bo`ysundirilgan xalqlarning ommaviy qo`zg`olonlari, shuningdek davlat chegaralarini germanlar, slavyanlar va kichik osiyo qabilalarining hujumidan himoya qilish zaruriyatining oshishi munosabati bilan armiya harakatdagi (qo`zg`olonlarni bostirish uchun) va chegaradagi qo`shinlarga bo`lingan. "Varvarlar"ning armiyaga kirishiga keng yo`l qo`yilgan, ba`zan ularning qabilalari qurolli kuchlaridan ham foydalanilgan.

"Soldat imperatorlari" davrida muhim rol o`ynagan pretoriylar gvardiyasi saroy soqchisi qilib qayta tashkil etilgan. Biroq shunday bo`lsa-da, ba`zan u ham imperatorlarning taqdirini belgilagan. Umumimperiya politsiyasiga imperator devonxonasining boshlig`i rahbarlik qilgan. Rimda esa politsiyaga shahar prefekti boshchilik qilgan. Umumimperiya politsi-yasidan yashirin politsiya o`rib chiqib, unga pretoriy prefekti bosh edi.

Imperiyaning keyingi taqdirida Diokletianing islohotlari va so`ngra ushbu islohotlarni mustahkamlagan hamda rivojlantirgan Konstantin qonunchiligi katta ahamiyatga ega bo`lgan.

Diokletian iqtisodiy, harbiy va ma`muriy islohotlar o`tkazgan. Iqtisodiy sohada Diokletian tarkibida ancha kam qimmatli metall bo`lgan

mavjud pulning qadrsizlanishini, narx-navoning oshishini to'xtatishga harakat qilgan va to'la qimmatga ega bo'lgan oltin va kumush monetalar chiqargan. Lekin ular tez orada muomaladan chiqib ketgan va natijada kam probali monetalar chiqarishga qaytishga to'g'ri kelgan.

Soliq sohasidagi islohot ancha samarali edi. Soliqlarning katta qismi natura tarzida emas, pul bilan olinadigan bo'lgan. Soliqlarning kelib tushishini ta'minlash maqsadida vaqti-vaqti bilan aholini ro'yxatdan o'tkazib turish joriy etilgan. Soliqning xajmini belgilashda qishloq joylarda yer egaligi hajmi va unda ishlovchilarning soni hisobga olingan. Shaharlarda jon solig'i joriy etilgan. Soliq to'lashga yer egalari va shahar chinovniklari javob berganlar. Shu bois islohot qishloq va shahar aholisining asosiy ommasini yashash joylariga va biron kasbga birliktirib qo'yilishiga yordam bergan.

Chegara va harakatlanuvchi qo'shinlarni tashkil etishni mustahkamllovchi harbiy islohot armiyaga ko'ngillilardan olish bilan birga rekrut yig'imini joriy etdi. Yer egalari yerga egalik miqdoriga qarab, kolonlar va ishchilaridan ma'lum miqdorda askarlar taqdim qilishlari lozim edi.

Diokletianning ma'muriy islohoti ancha chuqur iz qoldirgan va uzoq saqlanib qolgan oqibatlariga ega bo'lgan. Murakkab ichki siyosiy ahvol, imperiyaning og'ir tashqi siyosiy holati, provinsiyalarning uzoq vaqtdan beri iqtisodiy ajralib qolganligi, "soldat imperatorlari" davridagi tinimsiz davlat to'ntarishlari Diokletianni 285 yilda o'ziga **hokimdosh-sezar** tayinlashga majbur etgan.

Bir yildan so'ng sezar xuddi Diokletian singari Avgust deb e'lon qilingan va imperiyaning bir qismini idora qilish hokimiyatiga ega bo'lgan. Imperiya g'arbiy va Sharqiy qismlardan iborat ikki qismga bo'lingan. To'g'ri, qonunchilik hali yagona bo'lib qolavergan, xolbuki qonunlar ikkala imperator nomidan chiqarilgan. Ularning har biri o'ziga hokimdosh-sezar tayinlagan. Natijada yuzta provinsiyani o'z ichiga olgan to'rt qismdan iborat **tetrarxiya** kelib chiqqan. Rim alohida yuzinchi provinsiyaga ajratilgan, lekin Rim shahri imperiya poytaxti bo'lmay qolgan. g'arbiy imperiya poytaxti Mediolan (Milan)ga, so'ngra Ravenga ko'chirilgan. Sharqiy imperiya poytaxti Marmar dengizining Sharqiy sohilida joylashgan Nikomediya bo'lib qolgan.

Yigirma yillik hukmronlikdan so'ng Diokletian 305 yilda hokimiyatdan voz kechishga majbur bo'lgan. Shundan so'ng uning vorislari o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanib, bunda sezarlardan birining o'g'li Konstantin (306-337 yillar) g'olib chiqadi va uning hokimiyat birligini qaytadan tiklagan o'ttiz yillik hukmronligi boshlanadi.

Konstantin Diokletianning iqtisodiy islohotlarini davom ettirgan.

Uning pul islohoti ancha muvaffaqiyatli chiqqan va pul muomalasining barqarorlashuviga olib kelgan. Soliq solishning tartibga keltirilishi kolonlar va hunarmandlarni yerga va kasbga birlashtirilishini yanada kuchaytirgan. Konstantin ediktleri bilan hunarmandchilik kollegiyalari avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan kollegiyalarga aylantirilgan. 332 yilgi "Qochoq kolonlar haqida"gi qarorga binoan qochoq kolonlar o'z uchtastkalariga qaytarilganlar va zanjirlarga kishanlangan qullar singari ishlashlari lozim bo'lgan. Qochoq kolonlarni yashirgan kishilar jazo tariqasida ularning o'rniga soliqlar to'lashi lozim bo'lgan.

Harbiy sohada jangchining kasbi meros tariqasida o'tadigan bo'lib qolgan. Armiyaga varvarlar ham keng jalb qilina borib, ular rim fuqaroligini olganlar hamda oliy mansablargacha bo'lgan xizmat zinapoyalaridan ko'tarilib borish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Diokletianning ma'muriy islohoti ham nihoyasiga yetkazilgan. Tetrarxiya tugatilgan bo'lsa ham imperiyaning har ikkala qismida ikkitadan prefektura tashkil etilgan va ularni fuqarolik hokimiyatiga ega bo'lgan prefektlar idora etganlar. Prefekturalarda harbiy hokimiyat harbiy magistrarga - ikkita piyoda askarlar boshlig'i va ikkita otliq askarlar boshlig'iga tegishli bo'lgan.

Prefekturalar diotsezlarga (imperiyaning g'arbiy qismida oltita, Sharqiy qismida yettita) bo'lingan, ularga vikariyalar boshchilik qilgan. Diotsezlar provinsiyalarga bo'linib, ularni rektorlar boshqargan. Provinsiyalar okruglarga bo'lingan. Okrugni idora etadigan okrug ma'muriyati mavjud edi.

Agar Konstantinning yuqoridagi tadbirlari Diokletian tomonidan boshlangan ishlarning davomi bo'lgan bo'lsa, diniy siyosat masalalarida Konstantin Diokletian mavqeiga qarama-qarshi ish tutgan. Diokletian xristian cherkovini davlatdan alohida avtonom tashkilotdir, demak, bu yakka hokimlik o'rnatishga to'sqinlik qiladi, deb hisobladi. Shuning uchun u xristianlikni taqiqlagan (303 yilda), cherkovlarning mulkini musodara qilgan, xristianlarni surgun qilgan va qatl etgan. Ammo xristian jamoalari yashirin holatga o'tib, o'zlarini saqlabgina qolmay, balki a'zolarining sonini oshirib borgan. Shunday qilib, Diokletianning diniy siyosati tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Konstantin xristianlik kambag'allar va ezilganlar dini ekanligini va bu dinni qabul qilish mustabid hokimlik o'rnatishda, davlat tuzumini mustahkamlashda eng yaxshi mafkuraviy vosita bo'la olishini tushunib yetgan. U xristian cherkovida imperator mutlaq hokimiyatining mustahkam tayanchini ko'rgan va 313 yildagi edikt bi-

lan xristianlik imperiyadagi mavjud boshqa dinlar bilan teng huquqli deb tan olingan, 337 yilda Konstantin xristian diniga kirgandan (cho`qintirilganidan) keyin esa xristian dini davlat diniga aylantirilgan.

Armiya, chinovniklar va xristian cherkovi dominatning uchta - harbiy, siyosiy va mafkuraviy tayanchi bo`lib qolgan.

Nihoyat, Konstantin imperiyaning Sharqiy qismi g`arbiy qismiga qaraganda varvar qabilalarning hujumiga nisbatan kamroq duch kelishini va iqtisodiy jihatdan ancha rivojlanganligini hisobga olib, o`z poytaxti - qadimgi yunon shahri Vizantiyani Konstantinopol degan yangi nom bilan o`sha yerga ko`chirgan. 330 yilda Konstantinopol imperiyaning poytaxti deb rasman e`lon qilingan. Poytaxtning Konstantinopolga o`tkazilishi imperiyani ikki qismga bo`linish jarayonini mustahkamlagan va oqibatda 395 yilda Rim imperiyasi batamom g`arbiy va Sharqiy qismlarga (Vizantiyaga) bo`linib ketgan.

Imperiyaning iqtisodiy ajratib qo`yilishi va siyosiy bo`linishi quldorlik tuzumi umumiy inqirozining yanada chuqurlashuvi davriga to`g`ri kelgan va uning ifodasi va natijasi bo`lgan. Yagona davlatni bo`lib tashlash shiddatli siyosiy va mafkuraviy kurashlardan, bo`ysundirilgan xalqlarning qo`zg`olonlaridan, varvar qabilalarning bostirib kirishlaridan yemirilayotgan ushbu tuzumni halokatdan qutqarib qolishga ob`yektiv urinish bo`lgan edi.

476 yilda german qabilalari g`arbiy Rim imperiyasini bosib olganlar va o`zlarining qo`mondonlari **Odoakrni** qirol deb e`lon qilganlar. Shu tariqa Rimning so`nggi imperatori 15 yoshli bola Romul Avgustul taxtdan ag`darib tashlangan va imperator unvoni nishonlari Konstantinopolga yuborilgan. G`arbiy Rim imperiyasi tugatilgan.

Rim huquqi

1. Rim huquqining dunyo tarixida tutgan o`rni va uning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar

Rim huquqi insoniyat huquqi tarixida noyob o`rin egallaydi. U antik jamiyatda va umuman butun qadimgi dunyoda huquq rivojlanishining eng yuqori darajasini aks ettiradi.

Rim huquqi avvalo juda xilma-xil hayotiy munosabatlarni va vaziyatlarni g`oyat darajada keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Unda ayniqsa xususiy mulk egalarning, shuningdek, mulk aylanishi turli-tuman ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishning xilma-xil uslublari puxtalik bilan ishlab chiqilgan. Aynan rimliklar, ilgari o`tgan jahon, jumladan, Sharq maktablari tajribasiga tayanib, birinchi marta xususiy mulkni, shuningdek boshqa mulkiy huquqlar va manfaatlarni alohida mohirona va bag`oyat mukammal sur`atda yuridik tartibga solish predmeti qilganlar. O`zining shaklan mukammal ishlab chiqilganligi bilan ajralib turuvchi rim huquqi zamirida juda boy huquqiy madaniyat paydo bo`lib, u sivilizatsiya rivojlanishining keyingi bosqichlarida insoniyatning umumiy boyligi bo`lib qolgan. Ushbu huquqiy madaniyatning elementlaridan biri rim yurisprudensiyasi bo`lgan. Rim yurisprudensiyasi, aytish mumkinki, ham huquq haqidagi mustaqil fanga, ham professional yuridik ta`limga asos solgan.

Rim davlati tarixining ming yildan ortiq davriga qaraganda ko`proq uning huquqida chuqur o`zgarishlar yuz bergan. Rim huquqi tarixi, tabiiyki, Rim davlati tuzumidagi o`zgarishlarni aks ettirgan. Biroq, u Rim jamiyatining ancha chuqur qatlamlari bilan ham bog`liq bo`lgani holda, o`z rivojlanish jarayonida barcha murakkablashib kelgan iqtisodiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning, jumladan, quldorlik bilan bog`liq bo`lgan munosabatlarning ham ta`sirini o`zida sinab ko`rgan. Budan tashqari, g`arbiy Rim imperiyasida tarixan vujudga kelgan va rivojlanishning eng yuqori cho`qqisiga chiqqan quldorlik davlatchiligini boshidan kechirgan. Shu sababli rim huquqi tarixining davrlarga bo`linishi, Rim davlati tarixi davrlariga to`g`ri kelmaydi. Rim huquqi bo`yicha ko`p adabiyotlarda uni davrlarga bo`lish borasida turlicha qarashlar mavjud. Rim huquqi tarixining quyidagicha davrlarga bo`linishi, bizningcha, eng qulay va maqsadga muvofiqdir:

1. Eng qadimgi davri (miloddan avvalgi VI asr - III asrning o`rtasi). Rim huquqi bu davrda asosiy institutlarining polischa mahdudligi (o`zgalari

uchun yopiqligi), qadimiyligi va eskirib qolganligi, rivojlanmaganligi va diniy xarakterda bo`lganligi bilan tavsiflanadi. Bu davrda Rimda kviritlar, ya'ni Rimning tub fuqarolari huquqi paydo bo`lgan. Unda hali urug`doshlik tuzumining qoldiqlari kuchli saqlanib qolgan bo`lib, uning manbai odat huquqi hisoblanadi. Keyinchalik, miloddan avvalgi 451-450 yillarda huquq manbai sifatida XII jadval qonunlari vujudga keladi.

2. Klassik davri (miloddan avvalgi III asr o`rtasi - milodning III asri oxiri). Aynan mazkur davr mobaynida rim huquqi patriarxallik va diniy qoldiqlardan xalos bo`ladi va dunyoviy yuridik tizimga aylanadi. Bu tizim nafaqat quldorlik, balki boshqa universal kishilik munosabatlarining oliy darajada ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi. Bu huquqiy tizimning mukammalligi dunyoga chuqur huquqiy tahlil etish va nafis (nozik) yuridik texnika namunalarini beruvchi yurisprudensiyada ham o`z ifodasini topgan. Klassik davrda Rim huquqi juda taraqqiy etib, kviritlar bilan birga **pretor huquqi - xalqlar huquqi** ham vujudga kelgan. Rim fuqarolari bilan kelgindilar (ajnabiylar) o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan. Miloddan avvalgi 212 yilda huquqning bunday ikkiga bo`linishi imperator Karakalla edikti (farmoni) bilan bekor qilingan.

3. Postklassik - yangi klassik davri (IV-VI asrlar). Bu vaqtda quldorlik jamiyati va davlatining yemirilishi munosabati bilan rim huquqi amalda rivojlanishdan to`xtaydi, o`zida umumiy iqtisodiy va siyosiy inqiroz izlarini ko`tarib yuradi. Ushbu davrda rim huquqidagi o`zgarishlar asosan uning tizimlashtirilishi va vujudga kelayotgan yangi feodal munosabatlariga asta-sekin moslashtirilishi bilan bog`liq bo`lgan. Bu davrda qonun chiqarish hokimiyati to`la imperatorlar qo`liga o`tib, Rim huquqining to`plamlari tuziladi va kodifikatsiya qilinadi.

2. Rim huquqi manbalarining rivojlanishi

Eng qadimgi davr huquqining manhalari

Arxaik davrda rim huquqiy an`analarining vujudga kelishida kohinlar juda katta mavqega ega edilar. Xususan ularning ichidan **pontifiklar** kollegiyasi ajralib chiqib, huquq me`yorlarini tuzish va sharhlash imtiyozlarini o`zlashtirib olganlar. Pontifiklar aslini olganda 1-rim yuristlari bo`lishgan. Rimda Sharq mamlakatlaridan farq qilib, rimliklarning diniy e`tiqodlari va ularning xudo oldidagi burchlari bilan bog`liq diniy me`yorlar (fas)dan xususan rim davlatining faoliyati yoki sanksiyasi bilan bog`liq bo`lgan huquqiy me`yorlar (jus)ni ajratish nisbatan ancha erta sodir bo`lgan. Shunga qaramay, pontifiklar ilgariidek Rimning butun yuridik faoliyatini nazorat qilib turganlar. Shu bois arxaik davr huquqi ko`p

jihattan diniy marosimlarga xos xarakterini saqlab qolgan. Bu davrda yuridik hujjatlarni amalga oshirish uchun ma'lum diniy urf-odatlarini, masalan, qurbonlik qilish, qasam ichish va boshqalarni bajarish talab qilingan.

Rimda huquqning eng qadimgi manbai **huquqiy odatlar (mores majorum)** bo'lgan. Rim tarixiy an'anasiga ko'ra huquqning boshqa manbai **rim podsholarining qonunlari (leges regiae)** hisoblangan. Biroq bu qonunlarning mavjudligi vaqti-vaqti bilan shubha ostiga olingan. Keyingi o'n yilliklarda olimlar rim podsholarining, hech bo'lmaganda Numa Pompiliy va Serviy Tulliy qonunlari haqidagi ma'lumotlarni ishonarli deb hisoblaydiganlarning bu an'anasini rad etmayptilar.

Madomiki, Rim xalqining (kviritlarning) an'analari va dini bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqning ushbu manbalari dastlab patriitsiyalarniki sifatida chiqqan ekan, adabiyotlarda plebeylar uchun huquqiy odatlarning alohida, maxsus tizimi mavjudligi haqidagi taxminlar ham yo'q emas. Plebeylarning teng huquqlar uchun harakati huquq doirasida ham o'z ifodasini topgan, chunki patriitsiyalarning magistrleri va kohinlar (pontifiklar) plebeylarning manfaatlarini e'tiborga olmasdan (nazar-pisand qilmay) yozilmagan odatlarni o'zboshimchalik bilan sharhlaganlar. Miloddan avvalgi 450 yillar atrofida qabul qilingan **1-rim yozma qonunlari - XII jadval qonunlarining** qabul qilinishi plebeylar va patriitsiyalar kurashi bilan bog'liq. An'naviy taxminlarga qaraganda ularni tuzish uchun o'nta patriitsiydan (detsimvirdan) iborat dastlabki komissiya tuzilgan. Bu komissiya o'nta jadvalda qonunlar tayyorlagan, lekin uning, matni Rimning plebeylar aholisini qanoatlantirmagan. O'tkir siyosiy mojaro natijasida patriitsiyalardan ham, plebeylardan ham beshtadan a'zo tarkibida yangi komissiya tuzilgan va dastlabki matn yana ikkita jadval bilan to'ldirilgan. Albatta, XII jadval qonunlari patriitsiyalar va plebeylar uchun umumiy bo'lgan. faqat rim fuqarolari uchun mo'ljallangan yagona kvirit⁴⁶ yoki sivil huquqi (jus civile) bo'lib qolganligi shubhasiz. XII jadval qonunlarining qabul qilinishi plebeylarning patriitsiy - kohinlarning yuqori tabaqasiga qarshi kurashi bilan, shuningdek, dunyoviy va diniy aristokratiya o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. XII jadval qonunlarining qabul qilinishi o'zlarida yozilmagan odatlarni va qonunlarni saqlash va sharhlash, sud da'volarining shakllarini ishlab chiqish huquqini saqlab qolgan va bu huquqni suiste'mol qilib turgan pontifiklarning ilgarigi mavqelarining zaiflashganligini anglatadi. Garchi, XII jadval qonunlarida qasamlardan foydalanish va boshqa diniy marosimga oid harakatlarni qil-

⁴⁶ Kvirit - qadimgi Rimda to'la huquqli fuqarolarning rasmiy nomi (tarj.)

ish ko`zda tutilgan bo`lsa-da, huquq endi diniy me'yorlardan ajratilgan va dunyoviy xarakter kasb etgan edi.

XII jadval qonunlari o`n ikkita mis lavhaga o`yib yozilib, Rim siyosiy hayotining markazi - forumga hamma ko`rishi uchun osib qo`yilgan. Bu qonunlarni bilish hamma uchun majburiy bo`lgan, demak, uning qabul qilinishi bilan rim fuqarolarini dunyoviy huquqiy tarbiyalash zaruriyati tug`ilgan.

XII jadval qonunlarining asl nusxasi saqlanib qolmagan. uning mazmuni XVI-XVII asrlarda ancha keyingi rim mualliflarining asarlaridagi parchalar asosida qayta tiklangan. Biroq hozirgacha ham XII jadval qonunlarining matni to`liq bo`lmay, ba`zi hollarda aniq bo`lmasdan qolib ketgan. Ba`zi olimlar (YE Pais, E.Lamber, R.Shuls va boshqalar)ning ishlarida bu qonunlarni qabul qilinish vaqti aniq dalillar asosida ko`rsatilmaydi, ularning xarakteri va mavjudligi dalili ham shubha ostiga olinadi.

XII jadval qonunlaridagi qator qarama-qarshiliklar (masalan, jarimalarni pul bilan undirish, garchi, ma'lumki, miloddan avvalgi V asrda hali monetalar mavjud bo`lmasada) shundan darak beradiki, ularning matni vaqti-vaqti bilan qisman o`zgartirib turilgan bo`lishi mumkin.

Mazmunan XII jadval qonunlari Rim odat huquqini to`plash va unga ishlov berish ifodasidir. Ularga janubiy Italiya polislarining yunon huquqi ma'lum darajada ta'sir etgan. Biroq, unga odat huquqi me'yorlaridan chekinuvchi alohida yangi qoidalar ham kiritilgan edi. Masalan, jarimalar tizimi qadimgi tallion tamoyilidan voz kechish bo`lgan.

XII jadval qonunlari hali rim jamiyati va huquqiy texnikasining nisbatan past darajada rivojlanganligini aks ettirgan. Ular qisqacha buyruq tarzidagi fikrlar va taqiqlar ko`rinishida bayon qilingan. Ulardan ba`zilari o`zlarida diniy marosimlarga oid izlarni saqlab qolgan.

XII jadval qonunlari qator kamchiliklarga ega bo`lishiga qaramay, rim arxaik davrining tub ehtiyojlarini aniq aks ettirgan. Shuning uchun ular Rimda ko`p asrlar mobaynida katta obro`dan foydalanganlar, antik davr tarixchisi Tit Liviy so`zi bilan aytganda, "butun xalqlar huquqi hamda xususiy huquqning manbai" sifatida ko`rilgan.

Kvirit (fuqarolik) huquqining yana bir muhim manbai **qonunlar** bo`lgan. XII jadval qonunlarining nihoyasida bundan buyon xalq majlisining har qanday qarorlarini **qonun (lex)** kuchiga ega bo`lishi lozimligi ko`rsatilgan edi. Majlisda yangi qonunni qabul qilish haqidagi taklif bilan odatda mansabdor shaxslar (magistratlar) chiqishgan, so`ngra qonun loyihasi senatda muhokama qilingan va ovozga qo`yishdan uch hafta oldin

oshkor qilingan. Qabul qilingan qonunda, qoida bo'yicha, uch qism ajratib ko'rsatilgan. Birinchi qismda qonun qabul qilish tashabbuskori ko'rsatilgan, ikkinchi qismda huquqiy me'orning mazmuni belgilangan, uchinchi qismda esa sanksiya o'rnatilgan. Xalq majlisida qabul qilingan qonun, agar unda kechiktirilishi to'g'risida maxsus ko'rsatilmagan bo'lsa, darhol kuchga kirgan. Muhim qonunlar matni forumga qo'yilgan.

Eng qadimgi davrda shuningdek **senat qarorlari (senatus - konsultlar)**, ayrim hollarda **magistratlarning qarorlari** ham huquqiy kuchga ega bo'lgan. Masalan, detsimvirlar favqulodda komissiyasining qarori bilan XII jadval qonunlari chiqarilgan edi.

Qonunlarni sharhlash, shuningdek, sud kalendarlarini va da'vo talablarini tuzish IV asrga qadar pontifiklarning imtiyozlari bo'lib qolgan. Pontifiklar esa sud sirlariga nisbatan o'z monopoliyalarini shu davrgacha har tomonlama himoya qilib kelganlar. Huquqning diniy niqoblardan batamom holos bo'lishiga, kohinlar mavqeiga putur yetishiga va dunyoviy yurisprudensiyaning boshlanishiga xususan miloddan avvalgi 302 yilda kotib (mirza) Klavdiy Flaviy tomonidan pontifiklar arxivlarida ilgari o'ta maxfiy ravishda saqlanib kelingan sud taqvimi, da'volar va yozuvlar nusxalari, huquqiy me'yorlar va odatlarning sharhlari o'g'irlanib, oshkor qilinishi yordam bergan.

Klassik davrda huquq manbalari

Miloddan avvalgi III asr - milodning III asrida XII jadval qonunlari rasman harakat qilishda davom etgan, ular rasmiy ravishda keyinchalik, VI asrda Vizantiya imperatorining qonunchilik islohotlari davomida bekor qilingan edi). Rimliklarning o'z huquqiy an'analariга chuqur hurmat bilan qarashi va ayniqsa XII jadval qonunlariga bo'lgan izzat-ikromi ularni bu tarixiy yodgorlikdan ochiqdan-ochiq voz kechishlariga yo'l qo'ymagan. Biroq Rimning iqtisodiy va siyosiy hayotidagi muhim o'zgarishlar kundalik huquqiy tajribada XII jadval qonunlarining va umuman kvirit huquqining eskirib qolgan normalaridan amalda voz kechishni shart qilib qo'ygan. Almashib borayotgan ijtimoiy sharoitlarni hisobga olishga imkon beradigan va bunday sharoitlarga moslashuvchan huquq ijodkorlik shakllarini tashkil etish zaruriyati vujudga kelgan.

Rim huquqi tarixining yangi bosqichida uning ancha muhim manbai **pretorlarning ediktleri** bo'lib qolgan. Shunday ediktlarning asosida sivil huquqi (hanuzgacha hurmatli, lekin tobora kam qo'llanilayotgan) bilan bir qatorda ikkita yangi va mutlaqo mustaqil huquqiy tizim: **"pretor huquqi"** (**jus praetorium**) va **"xalqlar huquqi"** (**jus gentium**) o'sib chiqqan. Mazkur ikkala tizim pretorlarning huquq ijodkorlik faoliyatlari natijasi bo'lgan.

Shunday qilib, Rimda huquq manbalarining murakkab (aslida - uch qismdan iborat bo'lgan) tizimi vujudga kelgan.

Pretor lavozimga o'tirib, o'zining ediktini e'lon qilgan. Bunda u o'z oidiga mazkur huquqiy hujjatda belgilangan yuridik qoidalar yordamida tartibni ushlab turish va sud qilishni maqsad qilib qo'ygan. Mazkur formulalar (qoidalarning aniq ifodalari) sivil huquqi me'yorlaridan, garchi, pretor ularning doirasida harakat qilishi lozim bo'lsada, jiddiy ravishda chetga chiqqan. Ediktlarda mustahkamlangan qoidalar o'z xolicha qonun kuchiga ega bo'lmagan, lekin majburiy bo'lgan, chunki ular pretor hokimiyati tomonidan ushlab turilgan. Pretorning o'zi o'z ediktiga rioya qilishga majbur edi. Pretorning o'rniga yangisi kelganda, qoida bo'yicha, u o'z o'tmishdoshining ediktini faqat biroz o'zgartirgan, unga yangi qoidalar (edictum novum) kiritib, eskirganlarini chiqarib tashlagan. Lekin, madomiki, ediktning asosiy qismi saqlanib qolgan (edictum tralaticium) ekan, pretor huquqi o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lishi bilan birga meros bo'lib o'tishligi va barqarorligi bilan ajralib turgan.

Klassik davrda huquqning rivojlanishida peregrinlar pretorining (bu mansab miloddan avvalgi 242 yilda ta'sis etilgan) ediktlari alohida rol o'ynagan. Peregrinlar pretori rim fuqarolari va ajnabiylar (peregrinlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan, shuning uchun sivil huquqi me'yorlariga umuman bog'liq, bo'lmagan. U o'z huquq ijodkorlik faoliyatida (ediktlar chiqarishida) katta ixtiyor erkinligiga ega bo'lgan, o'zining huquq qoidalarida "adolat" (ayegitas) yoki "tabiiy aql-idrok" (naturalis ratio)ni dalil qilib ko'rsatishi mumkin edi. Peregrinlar pretorlari tomonidan yaratilgan "**xalqlar huquqi**" xalqaro rim huquqi emas, balki ichki davlat huquqi, shu bilan birga u rim huquqining ancha rivojlangan va takomillashgan qismi bo'lgan.

Imperiya o'rnatilishi bilan Rimning siyosiy tizimida pretorlarning mavqei ham asta-sekin o'zgargan. Pretorlar ediktlar chiqarish huquqini rasman saqlab qolganlar. Lekin ularning faol huquq ijodkorligi o'sib borayotgan imperator yakka hokimligining qarama-qarshiligiga duch kelgan. Shu sababli milodning I asrlaridayoq pretorlar o'z o'tmishdoshlarining ediktlarini to'liq nusxa qilib olishni qoida qilib olganlar. Shu tariqa, edikt mazmuni o'zgarishsiz bo'lib qolgan va u yangi huquq me'yorini keltirib chiqarmagan. Shu munosabat bilan imperator Adrian pretor huquqini kodifikatsiya qilishga ahd qilgan va bu ishni taniqli yurist Yulianga (eramizning 125 va 138 yillari) topshirgan. Oxirgi tuzilgan edikt (Yulian edikti sifatida mashhur) rasman **senatus-konsult** deb tasdiqlangan va "**abadiy edikt**" (**yedistum perpetuum**) degan nom olgan. U keyingi magistratlarni-

ing hammasi uchun majburiy bo`lib qolgan. Shu vaqtdan boshlab pretor edikti aslida qotib qolgan va yangi huquqiy me`yorlar manbai bo`lmay qolgan.

Imperiyaning birinchi yillaridayoq xalq majlislarining ahamiyati pasayib ketgan, eramizning I asri oxiriga kelib ular yangi qonunlarni juda kam qabul qilganlar, keyinchalik bu huquqdan tamomila mahrum bo`lganlar. Senatus-konsultlar avvalgi davrda (kechki respublika davrida) huquqiy kuchga ega emas edilar. Imperatorlar davrida ularning ahamiyati yana o`sgan. Eramizning I asri birinchi yarmida senatus-konsultlar odatda sanksiyaga ega emas edilar, lekin pretor edikti sharofati bilan ular majburiy kuchga ega bo`lganlar. Ammo Adrian senatga qonun chiqarish hokimiyatini yana qaytarib bergan va senatus-konsultlar qonun sifatida chiqa boshlagan. Ularning huquq manbai sifatidagi roli o`sgan, chunki ular prinseps nomidan tuzib, ko`pincha ularning nomi bilan atalgan.

Imperatorlarning mustaqil qonun chiqarish hokimiyati asta-sekin mustahkamlangan va kengaygan. Dastlab **imperatorlarning qonunlari (konstitutsiyalari)** xalq majlislari tomonidan hokimiyat vakilligi natijasi sifatida ko`rilgan va bunga ko`ra rim xalqi o`z qonun chiqarish hokimiyatini imperatorlarga o`tkazgan. Shu vaqtga kelib imperatorlarning qonunlari huquqning eng muhim manbaiga aylangan. Imperatorlarning qonunlari magistratlarning ko`pgina hujjatlaridan farq qilib, rim davlatining butun hududida harakatda bo`lgan, shahar yoki alohida provinsiyalar doirasida cheklanib qolmagan.

Imperatorlik hokimiyati hujjatlari (konstitutsiyalari) quyidagicha asosiy ko`rinishlarga bo`lingan:

1) Ediktlar - "imperium" hokimiyatiga asoslangan, shuning uchun faqat mazkur imperator hayotligi chog`ida yuridik jihatdan majburiy bo`lgan umumiy qoidalar. Biroq eramizning II asridan boshlab ediktlarga imperatorning vorislari tomonidan ham amal qilina boshlangan.

2) Reskriptlar - imperatorning huquqiy masalalar bo`yicha konsultatsiyalar so`ragan alohida shaxslarga yoki magistratlarga bergan javoblari yoki maslahatlari`.

3) Dekretlar - imperator tomonidan sud ishlarida chiqarilgan qarorlar. Ularning asosida mustaqil imperatorlik yurisprudensiyasi tashkil topgan.

4) Mandatlar - provinsiyalarning hokimlariga yo`llangan instruksiyalar (yo`l-yo`riqlar, qo`llanmalar). Ularning ichida qator hollarda peregrinlarga nisbatan qo`llaniladigan fuqarolik va jinoyat huquqi me`yorlari ham mavjud bo`lgan.

Imperatorlarning konstitutsiyalari dastlab faqat ommaviy tartibdagi (ma'muriyatni tashkil etish, jinoyatlar va h.k.) masalalarga taalluqli bo'lgan, lekin ular huquqiy tartibga solishning hamma sohalarini tobora ko'proq qamrab olgan. Imperatorlik davrida ishlab chiqilgan ko'pgina huquqiy hujjatlarning turlicha shakllari oqibatda o'rta asrlar monarxiyasining qonunchilik texnikasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Huquqning rivojlanishida Rim yuristlarining tutgan o'rnini

Klassik davrda rim huquqi rivojlanishining juda muhim va o'ziga xos manbai **yuristlarning faoliyati** bo'lib qolgan. Rim yuristlari Qadimgi Rimning butun huquqiy tizimini izehil va yaxlit rivojlanishiga imkon

tug'dirganlar.

Rim yurisprudensiyasi plebeylar pontifiki Tiberiy Korukaniyadan (miloddan avvalgi 254 yildan) boshlab sof dunyoviy xarakter kasb etgan. Uning huquqiy maslahatlari birinchi marta ommaviy va ochiq xarakterga ega bo'lgan. Respublika davrining yuristlari sud amaliyotida muhim o'rin tutgan. Ular ayniqsa, sud jarayoni masalalari bo'yicha, u bilan bog'liq bo'lgan huquqiy javoblarni aniq ifodalab, yuridik hujjatlarni sharhlaganlar va tuzganlar, qator hollarda sud jarayonining o'zida tomonlardan biriga yordam ko'rsatib ishtirok etganlar. Respublika davrining yuristlari, odatda, aristokratlar doirasidan - senator zodagonlardan, miloddan avvalgi I asrda esa, shuningdek, suvorilardan ham chiqqan. Ularning ichida eng mashhurlari Katon Katta, Mark Maniliy, Alfen Var, Kvint Mutsiy Sevola, Publiy Mutsiy Sevola, Serviy Sulpitsiy, Ruf bo'lgan. Buning ustiga, Serviy Sulpitsiy va Ruf ko'pincha rim yuridik fanining asoschilari deb hisoblanadilar. Respublika davrining yuristlari sivil huquqini muntazam bayon qilib (Publiy Sevola) va pretor huquqining birinchi sharhini tuzib (Sulpitsiy), birinchi marta sud amaliyotining umumiy xulosasini berishga harakat qilganlar.

Prinsipat davrida yuristlar doirasi yanada kengaygan. Ulardan ko'plari, masalan, Ulpian, Gay va boshqalar endi rimliklardan emas, balki Sharqiy provinsiyalardan chiqqan edi. Bu davrning yuristlari yuridik nazariya (doktrina) va amaliyotning rivojlanishida ancha faollik ko'rsatib, klassik rim huquqining haqiqiy ijodkorlari bo'lishgan. Yuristlarning o'qituvchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lgan. I asrda va II asrning boshida ikkita asosiy: sabinyanlar (asoschisi Kapiton) va prokulyanlar (asoschisi Labeon) huquq maktablari vujudga kelgan. Ular huquqdan ta'lim berganlar va ba'zi (to'g'ri, albatta, ikkinchi darajali) huquqiy institutlarga turlicha izohlar (sharhlar) berganlar. Sabinyanlarning ancha mash-

hur vakillari Sabin va Yulian, prokulyanlarniki - Prokul va Selz edi.

Rim yuristlari juda ko'p asarlar yozishgan. Ularning ba'zilari o'quv maqsadlari uchun, boshqalari amaliyotda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Sivil huquqi va pretor huquqi sharhlari, shuningdek, sivil va pretor huquqini sintez qilishga urinib, turli huquqiy masalalar bo'yicha yozilgan asarlar - **digestalar** katta shuhrat qozongan. Digestalarda, odatda, aynan o'sha yoki boshqa mualliflarning ancha qadimiy asarlaridagi ("Savollar", "Javoblar" va boshqalar) parchalardan (ko'chirmalardan) foydalanilgan, shu bilan birga, huquqiy material qat'iyani aniq tartibda joylashtirilgan. (**digesta** iborasi "**sistemaga solingan**" degan mazmunni anglatishi bejiz emas). Rimda Alfen Var, Selz, Marsella, Serviliy Sevola va, ayniqsa, Salvij Yulian digestalari ancha mashhur bo'lgan.

Rim yuristlarining asarlari ichida rim huquqini o'quv maqsadlarida tizimli bayon qiluvchi **institutsiyalar** muhim o'rin egallagan. 143 yilgi **Gay institutsiyalari** juda mashhur bo'lgan. Ularda keng huquqiy materiallarning qisqacha, lo'nda va mantiqan izchil joylashtirilgan bayoni berilgan.

Gay institutsiyalari asosan fuqarolik (sivil) huquqini hal qilishga bag'ishlangan, lekin pretor edikti bo'yicha qator qo'shimchalarni o'z ichiga olgan. Ular boshqa rim yuristlarining institutsiyalaridan ancha to'la va aniq bayon qilinganligi bilan farq qilgan. Ularda fuqarolik huquqining izchil va mantiqiy bo'linishi berilgan: "Biz foydalanadigan barcha huquq yo shaxslarga, yoki ashyolarga yohud da'volarga taalluqli" (1.8). Garchi, ko'p olimlar Gay tomonidan foydalanilgan tizimni original (mustaqil ravishda ishlangan, yuzaga kelgan) deb hisoblashmasada, u huquqni tushinishda olg'a tashlangan muhim qadam bo'lgan. Bu yerda ilk bor moddiy huquq jarayonidan, individual (alohida) huquqlar - ularni himoya qilish vositalaridan ajratilgan.

Huquqiy hujjatning uch qismli guruhlashtirilishiga qaramay, Gay institutsiyalari shaxslar, ashyolar, majburiyatlar, da'volar haqidagi 4 kitobga bo'lingan. Oqibatda institut nomini olgan bu tizim huquqning keyingi tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Biroq, klassik davrning, hatto, eng porloq va keng, chuqur ma'lumotli yuristlari mavhum fikr yuritishga va oddiy nazariyabozlikka moyil bo'lmaganlar. Ular xususiy xulosalar chiqarish va boshqa mantiqiy metodlar yordami bilan alohida, garchi qiyin bo'lsa ham, huquqiy kazuslarni hal etishga harakat qilganlar. Aynan shu bois ular, hatto, o'z asarlarida mavhum tuzilishlardan, umumlashmalardan va ta'riflardan o'zlarini chetga olganlar. Yavolen Prisk so'zi bilan aytganda, "fuqarolik huquqidagi har qanday ta'rif xavflidir: uni rad etib bo'lmaslik kamdan-kam bo'lgan".

Shu munosabat bilan rim klassik yurisprudensiyasida sivil va pretor huquqi uchun muhim bo'lgan da'vo (actio), mulk (dominium), shartnoma (contractus), servitutlar (servitutes) va boshqa shu kabi tushunchalarning ta'rifi uchramaydi. Lekin unda huquqiy muammolarning konkret, hayotiy va sud hal qilishiga loyiq ko'pdan-ko'p yorqin namunalari mavjud.

Rimda imperatorlik boshqaruvining o'rnatilishi bilan yuristlarning **amaliy faoliyati - huquqiy maslahatlar berishi** faollashgan. "**Javoblar**" deb nom olgan bu **konsultatsiyalar** (maslahatlar) sudyalarga katta ta'sir o'tkazgan. Sudyalar ko'pincha obro'li yuristlarning fikrlariga rioya qilar edilar.

Imperator Avgust **rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan (jus resron-dendi) javoblar** berishni faqat ma'lum doiradagi yuristlarga ruxsat etib, ularning faoliyatini birmuncha yagona shaklga keltirishga harakat qilgan. Bu yuristlar o'z javoblarini (konsultatsiyalarini) yozib qo'yishlari, ularga o'z muhrlarini qo'yishlari, bu bilan huquqiy manbaning oshkoraligini tasdiqlashlari lozim bo'lgan. Bunday tartib imperator Adrian davrida o'rnatilgan bo'lib, bunga ko'ra, faqat belgilangan ayrim yuristlarning fikri huquqiy, ya'ni majburiy kuchga ega bo'lgan. Agar bunday yuristlar biror masala yuzasidan umumiy rozilikka kelsalar, sudya qarorlar chiqarishda u bilan hisoblashishi lozim bo'lgan.

II-III asrlarda rim yurisprudensiyasining huquq manbai sifatidagi obro'sining mustahkamlanishida imperatorlar tomonidan taniqli yuristlarni o'zlariga tez-tez yaqinlashtirib turishlari, ularni davlatning muhim mansablariga (pretoriy prefektlari va h.k.) tayinlab qo'yishlari fakti yordam bergan. Masalan, Septimiy Sever imperatorligida Papinian davlat lavozimi martabasiga qo'yilgan (keyin Karaxalla buyrug'i bilan o'ldirilgan edi). Aleksandr Sever davrida - Pavel va Ulpian davlat lavozimiga erishgan va hokazo.

Postklassik davri huquqining manbalari

Dominat davrida quldorlik tizimining chuqur inqirozi munosabati bilan rim huquqida ba'zi uncha katta bo'lmagan o'zgarishlar yuz bergan, lekin uning asosiy institutlari amalda ilgari ko'rinishida saqlanib qolgan. Bu vaqtda aynan huquq manbalarida bir muncha o'zgarishlar bo'lgan. Ularning ichida imperatorlar qonunlarining ahamiyati tobora ortib borgan. Imperatorlar to'la hokimiyatchiligining o'rnatilishi munosabati bilan yuristlar yangi avlodlarining majburiy xarakterdagi konsultatsiyalar berish huquqi yo'qotilgan, yangi huquqiy me'yorlarni ta'riflab berish imkoniyatlari tugatilgan (xuddi, ilgari pretorlar bilan qilinganidek).

Asarlari va fikrlari ilgariidek huquq manbai sifatida ko'riladigan

klassik yuristlarning soni qisqargan. **426 yilgi qonunlarga binoan, faqat beshta yurist: Papinian, Pavel, Ulpian, Gay va Modestinning asarlari yuridik kuchga ega ekanligi tan olingan.** Sudyalar bu yuristlarning umumiy fikrini aniqlashlari lozim bo'lgan. Agar bu yuristlar o'rtasida turlicha fikr mavjud bo'lsa, ko'pchilikning fikriga qaralgan. Agar ovozlari teng bo'lsa, **Papinianning fikri hal qiluvchi deb tan olingan.** Agar bunday holda Papinian fikr bildirmasa, sudya mustaqil harakat qilishi mumkin bo'lgan.

426 yildagi qonunlarga muvofiq boshqa Rim huquqshunoslari - **Sevola, Sabin, Yulianing** qarashlari va ko'rsatmalari ham e'tiborga olingan, faqat bular yuqoridagi besh dahoning fikriga zid kelmasligi lozim edi.

Rim huquqi sobiq harakatchanligining yo'qotilishi, sivil va pretor huquqi o'rtasidagi chegaralarning olib tashlanishi (chunki bunday bo'linish yagona imperatorlik qonunchiligida o'z mazmunini yo'qotgan edi) kodifikatsiya ishlarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratgan. Ayniqsa Rim imperiyasining Sharqiy qismida (Vizantiyada) huquqni tizimlashtirish bo'yicha qizg'in ishlar qilingan. Bu yerda III asr oxirida rim huquqining xususiy to'plamlari - **Gregorian kodeksi** va **Germogenian kodeksi** tuzilgan. Ular o'z ichiga 196 yildan 365 yilgacha chiqarilgan imperatorlar qonunlarining asl matnlarini kiritgan. **438 yilda esa imperatorlar konstitutsiyalarining birinchi rasmiy kodifikatsiyasi amalga oshirilgan (Feodosiya kodeksi).** Feodosiya to'plamining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, u faqat harakatdagi imperatorlik qonunchiligini o'z ichiga olgan va kodifikatsiya ishlarining ancha yuqori darajasi natijasi bo'lgan.

Rim huquqining keng qamrovli kodifikatsiyasi g'arbiy Rim imperiyasi qulagandan so'ng Vizantiya imperatori Yustinianning buyrug'i bilan 528-534 yillarda o'tkazilgan. Kodifikatsiya ishlariga rahbarlikni taniqli yurist **Tribonian** amalga oshirgan. Rim huquqining qator yirik to'plamlarini tuzish komissiya ishlarining natijasi bo'lgan.

Biroq, bu to'plamlar **interpolyatsiyaga** - ancha kechki namunalarning, jumladan, yunon va Sharq huquqi me'yorlarining kiritilishiga uchragan. Huquq tarixining ancha kechki bosqichida (endilikda o'rta asrlarda) bu to'plamlar **Yustinianning yagona qonunlar to'plami** (Sogrus juris sivilis) sifatida maydonga chiqqan.

Imperatorning bevosita rahbarligidagi keng kodifikatsiya ishlari Yustinian kodeksini tuzishdan boshlangan. 528 yil fevralida 10 ta oliy mansabdor shaxslar va huquqshunolar tarkibida komissiya tuzilib, unga Kodeksni tayyorlash vazifasi yuklangan. Komissiya a'zolari ichida Tri-

bonian va Feofiya ayniqsa ajralib turgan. Komissiyaga ilgari chiqarilgan xususiy va rasmiy to'plamlardan, xususan: Grigorian va Germogenian kodekslaridan, Feodosiya kodeksidan foydalanib, imperatorlik konstitutsiyalarini bir butun qilib to'plash, ulardagi mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, eskirib qolgan qonunlarni chiqarib tashlash vakolatlari berilgan. Yustinian kodeksining birinchi tahriri hayratlanarli darajada nihoyatda tezlik bilan tuzilgan va 529 yil 7 aprelda nashr etilgan (lekin bu nashr bizgacha yetib kelmagan). Unga kiritilmagan qonun hujjatlari bundan buyon kuchdan qolgan (bekor qilingan).

Kodeks tuzishdagi shoshma-shosharliklar undagi bir qancha kamchiliklarga - unda bir-biriga qarama-qarshi me'yorlarning, eskirgan qoidalarining saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bular, ayniqsa, Yustinian kodifikatsiyasining boshqa qismlari tuzilayotganda ma'lum bo'lib qolgan. Yustinian qonunchiligidagi, ayniqsa "Ellikta qaror" to'plamidagi qator yangi kiritilgan tartib-qoidalar (fuqarolik huquqi va "xalqlar huquqi" o'rtasidagi, kvirit mulki va bonitar mulki o'rtasidagi farqlarning bekor qilinishi va boshqalar) Yustinian kodeksining yangi tahririni ishlab chiqishni taqozo qilgan. Bu ish 534 yilning boshida Tribonian boshchiligidagi beshta yuristdan iborat komissiyaga topshirilgan. Kodeksning qayta ishlangan varianti (u aynan shunday holda saqlanib qolgan) 534 yil 16 noyabrda e'lon qilingan, o'sha yili 29 dekabrda esa unga qonun kuchi berilgan.

Yustinian Kodeksi XII jadval qonunlari namunasida o'n ikkita kitobga bo'lingan. 1-kitobda cherkov huquqi va xristian ilohiyoti masalalari ko'rilgan. 2 - 8-kitoblar xususiy (shaxsiy) huquqning turli masalalariga bag'ishlangan. 9 - 12-kitoblarda ommaviy huquqning turli tomonlari (ma'muriy boshqaruv, jinoyat va jazo va h.k.) ustida to'xtab o'tilgan. Har bir kitob titullariga, titullar esa parchalarga bo'lingan.

Imperatorlar konstitutsiyalari kodeksda alohida titullar doirasida xronologik tartibda joylashtirilgan. Kodeksda foydalanilgan eng qadimiy imperator konstitutsiyasi - 117 yilgi Adrian Konstitutsiyasi bo'lsa, eng oxirgisi 534 yil 4 noyabrdagi Yustinian Konstitutsiyasi bo'lgan. Parchalar alohida konstitutsiyalarning matnini o'z ichiga olib, bu konstitutsiyalar ularni chiqargan imperatorlar haqidagi, ular kimga bag'ishlangan bo'lsa, o'sha shaxslar haqidagi, ularning chiqqan vaqti va joyi haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan. Kodeks tuzuvchilarga parcha sifatida keltirilayotgan qonun-qoidalarga muhim o'zgarishlar kiritishlariga (tahrir qilish, qisqartirish va h.k.) ruxsat etilgan. Buni kodifikatsiyaning tegishli matnlarini Feodosiya kodeksi bilan solishtirganimizda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Imperator Yustinian kodeksida foydalanilgan materiallarning boyligi

(ko`pligi) bo`yicha ajralib turadigan eng muhim qismni digestalar yoki pandektlar tashkil etgan. **Pandekt** iborasi yunon tilidan olingan bo`lib, "o`z ichiga hammasini olish" degan ma`noni bildiradi.

Yustinianning 530 yil 12 dekabrda maxsus konstitutsiyasida bayon qilingan mo`ljali (niyati) bo`yicha uning digestalari klassik davrning huquqiy merosini o`z ichiga olgan keng qamrovli to`plam bo`lib qolishi lozim edi. Digestani tayyorlash ishi Tribonian rahbarligidagi maxsus komissiyaga topshirilgan. Bu komissiyaga atoqli chinovniklar va amaliyotchilar bilan birga Konstantinopol va Bayrut huquq maktablarining mashhur professorlari Feofiya, Gratsian, Dorofey va Anatoliy ham kiritilgan. Digestalarni tuzuvchilarga (keyinroq ular kompilyatorlar deb atala boshlanganlar) klassik huquqshunolar ("qadimgi yuristlar") matnlarini tanlab olish va qisqartirish bo`yicha, ularda uchraydigan qarama-qarshiliklarni, takrorlashlarni va eskirgan qoidalarni bartaraf etish bo`yicha, ularga imperatorlar konstitutsiyalarini hisobga olgan holda boshqa o`zgarishlar kiritish bo`yicha keng vakolatlar berilgan.

Komissiya digestalar ustida ishlash jarayonida ikki mingta asarni ko`rib chiqqan va ulardan foydalangan, 3 million misraga ishlov bergan. U nizoli masalalar kelib chiqqan holda tushuntirib berish uchun Yustinianga murojaat qilgan. Yustinian "Ellikta qaror"ni tashkil etgan tegishli konstitutsiyalar chiqargan. Digestalar ularda foydalanilgan materiallarning hajmini hisobga olganda juda qisqa muddat ichida tayyorlangan va 533 yil 16 dekabrda maxsus Konstitutsiya bilan e`lon qilingan.

Digestalar miloddan avvalgi I asrdan eramizning IV asrigacha yashab o`tgan ko`pdan-ko`p rim huquqshunoslarining kitoblaridan olingan 9 mingdan ortiq matnlarni o`z ichiga qamrab olgan, 150 mingga yaqin misrali noyob huquqiy yodgorlik hisoblanadi. Digestalarda Ulpian, Pavel, Papinian, Yulian, Pomponiy, Modestin asarlaridan boshqalarga qaraganda ko`proq parchalar keltirilgan. Masalan, ularda Ulpian matnlari 1/3, Pavelniki - 1/6, Papinianniki esa 1/18 qismni tashkil etadi. Digestalar tuzilishi jihatdan 7 qismga (matning o`zida bunaqa bo`lim yo`q) va ellikta kitobga bo`lingan, kitoblar (legatlar va fideikomisslar haqidagi 30-32-kitoblardan tashqari) titullarga bo`lingan. Titullar o`z nomlariga ega bo`lgan va parchalar (fragmentlar)dan iborat bo`lgan. Parchalarning katta-kichikligi va soni bir xil bo`lmagan. Har bir parcha o`z ichiga biror huquqshunosning asaridan olingan matnni qamrab olgan. Parcha sitata qayerdan olingan bo`lsa, o`sha ishning muallifi va nomi ko`rsatilgan.

Digestaparning mazmuni juda keng va rang-barang bo`lgan. Ularda

odil sudlov va huquqning ba'zi umumiy masalalari ko`rilgan, huquqni ommaviy (publichnoye) va xususiy huquqga bo`linishiga asoslangan, rim huquqining kelib chi-qishi va rivojlanishi ocherki, qonun tushunchasi va boshqalar bayon qilingan. Ommaviy (publichnoye) huquqqa nisbatan kam o`rin ajratilgan, ya'ni u asosan 47-50-kitoblarda nazarda tutilgan jinoyat va jazo haqidagi, jarayon, fisk huquqlari, shahar boshqaruvi, harbiy pekuliy va boshqalar haqidagi me'yorlarni o`z ichiga olgan. Bu yerda xalqaro huquq doirasiga taalluqli masalalar: urush olib borish, elchilar qabul qilish va jo`natish, chet elliklarning huquqiy holati va boshqalar ham berilgan.

Digestalarda xususiy huquq ancha to`liq berilgan. Ayniqsa, ularda merosga (qonun va vasiyat bo`yicha), nikoh munosabatlariga, ashyo huquqiga, shartnomaning bir qancha turlariga ko`p e'tibor berilgan. Bu yerda postklassik rim huquqi uchun xarakterli bo`lgan ko`pgina yangi tendensiyalar: pretor va fuqarolik (sivilnoye) huquqining qo`shilib ketishi va fuqarolik huquqidagi ko`pgina rasmiyatchiliklar (masalan, ashyolarni mansipatsiyali va mansipatsiyasiz ashyolarga bo`linishi)ning bartaraf etilishi, ota hokimiyatining yumshatilishi, legatlar va fideikomisslar o`rtasidagi farqlarni yo`qotish kabilar o`z aksini topgan. VI asrda sharhlovchilar rim klassik yurisprudensiyasini Vizantiya sharoitlariga moslashtirishga harakat qilib, unga yangi qoidalar kiritganlar, ko`pincha dastlabki matnni buzib ko`rsatganlar. Ular buni haqiqiy muallifning nomidan (interpolyatsiya) qilganlar. Klassik matnlarga kiritilgan ko`p o`zgarishlar bevosita kompilyatorlar tomonidan emas, balki ishlarning nusxasini tuzuvchilar tomonidan amalga oshirilgan.

Digestalar lotin tilida yozilgan, lekin ko`p iboralar, ba'zan esa butun-butun parchalar (Marsiandan, Papiniandan va Modestindan olingan) yunoncha berilgan. Yunustinian Digestalarga qonun kuchini berib, ularni sharhlashni, shuningdek eski qonunlarga va huquqshunoslarning asarlariga havola qilishni taqiqlagan.

Yustinian Digestalarining dastlabki matni saqlanib qolmagan. Uning ancha qadimiy va to`liq nusxasi (florentin qo`lyozmasi) VI yoki VII asrlarga taalluqli. XI-XII asrlarda tuzilgan Yustinian Digestalarining bir qancha nusxalari ham saqlanib qolgan, lekin ularda ko`p qisqartirishlarga, shuningdek, buzib ko`rsatishlarga yo`l qo`yilgan.

Yustinian kodifikatsiyasining o`ziga xos qismi **Institutsiyalar** - "yoshligida qonunlarni sevadigan" imperatorga qaratilgan huquqning soddadarsligi bo`lgan. Institutsiyalar tuzish uchun Yustinian ko`rsatmasi bilan 530 yilda Tribonian (rais) va huquq professorlari Feofil va Dorofeydan iborat bo`lgan maxsus komissiya tuzilgan. Yustinian Institutsiyalarin-

ing haqiqiy mualliflari Feofil va Dorofey boʻlgan edi, chunki Tribonion bu vaqtda Digestalar tayyorlash bilan band edi. Institutsiyalar 533 yil 21 noyabrda chiqarilgan va oʻsha yilning oʻzidayoq (Digestalarni eʼlon qilish bilan bir vaqtda) imperator qonuni kuchini olgan, rasmiy huquq manbai sifatida qoʻllanila boshlangan.

Yustinian Institutsiyalarining asosiga **Gay asarlari** (Institutsiyalar va "Kundalik ishlar"), shuningdek **Florentin, Marsian, Ulpian** va **Pavel** Institutsiyalari qoʻyilgan edi. Ularga digestalar, shuningdek, qator imperatorlik konstitutsiyalari ham maʼlum darajada taʼsir etgan. Yustinian Institutsiyalari Digestalarga qaraganda kamroq boʻlsa-da, postklassik (kechki rim, Vizantiya) huquq belgilarini aks ettirgan. Ulardan koʻpgina eskirgan huquqiy institutlar (masalan, qoʻllanilmay qoʻygan nikoh shakllari, legisakshion va formuljar jarayon va boshqalar) chiqarib tashlangan edi. Boshqa tomondan, unga koʻpgina yangi qoidalar, xususan, yuridik shaxsga, kolonatga, konkubinatga, koditsillaga va boshqalarga taalluqli qoidalar kiritilgan. Yustinian Institutsiyalarida baʼzi masalalar Gay Institutsiyalariga qaraganda batafsilroq ishlab chiqilgan. Masalan, unda ashyo huquqini klassifikatsiya qilish yanada rivojlantirilgan, majburiyatlarining kelib chiqish asoslari doirasi kengaytirilgan, xususan, kvazideliktlar qoʻshilgan.

Yustinian Institutsiyalari ham Gay Institutsiyalari singari toʻrtta kitobdan iborat boʻlgan. Ular Digestalar taʼsiri ostida titullarga, titullar alohida parchalarga boʻlingan edi. Garchi Yustinian Institutsiyalarining tizimga solinishi Gay Institutsiyalaridan oʻzlashtirib olingan boʻlsada, ulardagi hujjatlarning joylashtirilishida baʼzi farqlar mavjud.

I kitobda odil sudlov va huquq, shaxslarning huquqiy holati, erkinlikka qoʻyib yuborilganlar, nikoh, otalik hokimiyati, vasiylik va homiylik haqida umumiy maʼlumotlar berilgan. II kitob ashyo huquqiga bagʻishlanib, unda ashyolar boʻlinishining va xususiyatlarining yangi uslublari batafsil koʻrib chiqilgan, ularni oʻzlashtirishning yangi usullari koʻzda tutilgan. Bu yerda vasiyatlar va legatlar haqida ham gapirilgan.

III kitobga vasiyatsiz merosga, kognatlik qarindoshchiligi darajasiga va boshqalarga taalluqli titullar kiritilgan. Bu kitobda majburiyatlar haqidagi umumiy qoidalar bayon qilingan va shartnomalarning alohida turlari mufassal yoritilgan. Gay Institutsiyalaridan farq qilib, deliktlardan kelib chiqadigan majburiyatlar IV kitobga kiritilgan. Unda keltirilgan zararni undirish haqidagi Akviliy qonuni batafsil koʻrib chiqilgan. Soʻngra huquqlarni himoya qilish (turli daʼvolar va interdiktlar) masalalari koʻrib chiqilgan. Yustinian Institutsiyasining yakuniy qismiga ikkita titul qoʻshimcha qilingan. Ularda kishilarning majburiyatlari va imperatorlik

qonunchiligida maxsus ishlab chiqilgan turli ko`rinishdagi jinoyatlar (a'lo hazratlarini tahqirlash, bevafoqlik qilish (er-xotinning xiyonat qilishi), otasini o`ldirish, soxta narsalar yasash va h.k.) sanab o`tilgan.

Yustinian Institutsiyalari tarixiy manba sifatida Yustinian kodeksi va Digestalariga qaraganda kamroq qimmatga ega, lekin ular keng masalalar bo`yicha huquqiy materialning sistemali qisqa va aniq bayon qilishi bilan shubhasiz yuqori qimmatga egadir. Yustinian Institutsiyalarining asl matni saqlanib qolmagan, uning eng qadimgi nusxasi IX asrga taalluqli.

Yustinian kodifikatsiyasi Rim huquqining butun o`tgan tarixini bir joyga to`plovchi yakuni bo`lib, uning ko`p asrlardan buyon rivojlanishiga o`ziga xos tarzda chegara qo`ygan. Shuning uchun Yustinian qonunlari to`plami, garchi ba'zi postklassik va sof Vizantiya belgilarini o`zida aks ettirgan bo`lsa ham, o`z asosi bilan rim huquqining manbai hisoblanadi.

535-555 yillarda yuqorida ko`rsatilgan rim huquqining uchta to`plami Yustinianning o`z konstitutsiyalari (novellalari) to`plamlari bilan to`ldirilgan. Bularda endi rim huquqi xususiyatlari emas, balki ko`proq darajada Vizantiya jamiyati va davlati o`z ifodasini topgan edi. Biroq bu xujjatlar xususiy shaxslar tomonidan tuzilgan edi va rasmiy xarakterga ega bo`lmagan edi. Ular orasida eng kattasi 168 novellani o`z ichiga olib, uning 153 tasi Yustinianga tegishli bo`lgan. Ancha keyin (o`rta asrlarda) Yustinianning novellalar to`plamlari **Corpus juris civilis (Yustinianning qonunlar to`plami)**ga 4-kitob sifatida kiritila boshlangan.

3. Eng qadimgi davrda Rim huquqi

Miloddan avvalgi III asrning o`rtalariga qadar kvirit huquqi tanho hukmron huquqiy tizim bo`lib kelgan. U **Umumiy tavsif** o`zining muqaddas xarakteri, ko`p darajada an'anaviyligi, qadimgi rim huquqi (kvirit odatlar va marosimlar) bilan bog`liqligi bilan ajralib turgan. Bu xususiyatlar, ayniqsa, XII jadval qonunlarida ham o`z ifodasini topgan edi. Kvirit yoki sivil (aynan - fuqarolik, ya'ni rim fuqarosi bilan bog`liq) huquqi o`zida kichik dehqonchilik davlati - jamoa sharoitlarida kelib chiqqanligi belgilarini ko`tarib yurgan. U barcha bosqichlarda faqat rim fuqaroligiga ega bo`lgan shaxslarga nisbatan qo`llanilgan (peregrinlarga, ya'ni ajnabiylarga emas) va rim fuqarosining imtiyozi sifatida ko`rilgan. . Kvirit (fuqarolik) huquqi rim fuqarosiga ko`p vakolatlar, xususan, respublika siyosiy hayotida ishtirok etish, davlat fondidan yer uchastkasi olish kabi imkoniyatlarni bergan. Bunday huquqlarga ega bo`lmagan plebeylar butun ilk respublika davrida patrisiylar bilan huquqlarining tenglashtirilishi uchun kurash olib bor-

ganlar. Natijada fuqarolik huquqida ko`zda tutilgan barcha imtiyozlardan plebeylar ham foydalanadigan bo`lgan.

Kvirit huquqi ilk sinfiy jamiyatning nisbatan qoloq munosabatlarini aks ettirgan. U uzoq vaqt kohinlar - pontifiklar faoliyati bilan bog`liq bo`lgan. Va, hatto, unda asta-sekin dunyoviy asoslar kuchayib borsa-da, o`zida ko`pgina dabdabalikni va marosimiylikni saqlab qolgan. Shu bilan birga u talabchanligi, shafqatsizligi, aniq ta`kidlanganligi bilan ajralib turadi. Arxaik rim huquqida, ayniqsa, endi mulkiy munosabatlar va birinchi navbatda xususiy mulk huquqi (dominium ex jure guirtium) aniq tartibga solingan. Xususiy mulk huquqi mulk egasining o`z ashyosi ustidan to`la hukmronligi (plena in re potestas) sifatida ko`rilgan. Lekin fuqarolik jamoasi yerlarni va boshqa xo`jalik huquqi uchun muhim va oilaviy xarakterga ega bo`lgan mulklarni tasarruf etishni oliy nazorat qilish huquqini uzoq vaqtgacha saqlab qolgan.

Kvirit huquqida tantanali sud odatlariga qat`iy amal qilish katta ahamiyatga ega bo`lgan. Shu bois bu davrda shakl mazmundan, sud jarayoni esa - moddiy huquqdan ustun turgan. Rasmiyatchilik ilk sinfiy jamiyatda hayotning patriarxal ukladini saqlanib qolishi va qaytadan tiklanishi uchun yordam beradigan mustahkam huquqiy tartibotni ushlab turish shartlaridan biri bo`lgan. Lekin u ob`yektiv jihatdan faqat xususiy mulkchilik munosabatlarining rivojlanishinigina to`xtatib qolmasdan, balki ijtimoiy va siyosiy hayotning demokratik shakllarini ham to`xtatib qo`ygan. Miloddan avvalgi III asrga kelib o`zining ijtimoiy mohiyatiga ko`ra konservativ (mutaassib, eskilikni yoqlovchi) bo`lgan fuqarolik huquqi savdo aylanishining o`sishi yo`lidagi ma`lum to`siqqa aylana boshlagan va gurkirab rivojlanayotgan quldorlik tizimining ehtiyojlari bilan qarama-qarshilikka uchragan.

Mansipatsiya Rimda eng qadimgi davridayoq ashyoviy huquqlarga ega bo`lish usullariga va ashyolarni klassifikatsiya qilishga katta e`tibor berilgan. Umumiy foydalanishda bo`lgan ashyolar (havo, dengiz va boshqalar), shuningdek, xo`jalik uchun muhim bo`lgan boshqa ashyolar (jamoat yeri - ager publicus) mulkiy, savdo oborotida bo`lmaydigan (res exrra commercium) deb ko`rilgan. Biroq davlat yerlari patritsiy zodagonlar tomonidan talon-taroj qilini borgan, natijada bular yirik yer egaligi paydo bo`lishiga olib kelgan. Shu bois jamoat fondidan yer uchastkalari ajratib berilishi haqidagi masala bo`yicha plebeylar bilan patritsiylar o`rtasida shiddatli kurash kelib chiqib, u res-publika davrining ancha vaqtlarigacha davom etgan. Bu kurash miloddan avvalgi 367 yildagi Litsiniy qonunining qabul qilinishi bilan biroz yum-

shagan. Bu qonunga binoan yerlardan foydalanishda plebeylar va patritsiyalar teng huquqlarga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, qonunda jamoat fondidan ajratiladigan yer uchastkasining eng yuqori miqdori 500 yuger (125 gektar atrofida) qilib belgilangan va undan oshmasligi lozimligi o'zlashtirilgan.

Fuqarolik huquqida xo'jalik oborotida bo'lgan ashyolarning eng ko'p bo'linishi mulk huquqining ob'yektlari ham bo'linishi mumkin. Ular **mansi-patsiyali (res mancipi) va mansipatsiyasiz (res nes mancipi) ashyolarga bo'lingan.** 1-guruhga Italiyadagi yerlar, qullar, yirik uy chorvasi, yer servitutlari, ya'ni arxaik davrda kollektiv oila mulki sifatida maydonga chiqqan ashyo huquqining iqtisodiy jihatdan muhim ob'yektlari kirgan. 2-guruhga - qolgan barcha ashyolar kirib, ularga egalik qilish yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan.

Rim yuristi Gayga borib taqaladigan an'anaviy nuqtai nazarga binoan 1-guruhni tashkil etgan ashyolarning begonalashtirilishi faqat mansipatsiyalar orqali, ya'ni alohida, maxsus murakkab va tantanali rasm-rusmlar (marosimlar) talab qiluvchi tartiblar yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Mansipatsiya "mislar va tarozilar vositasida" tuziladigan o'ta rasmiy bitimlar qatoriga kirgan. U beshta guvoh va bitta taroz ushlab turuvchining taklif etilishini taqozo qilgan. Xaridor qo'lida mis bo'lagini ushlab turgan holda quyidagi tantanali formulani⁴⁷ aytgan: "Tasdiqlaymanki, ushbu qul kvirit huquqi bo'yicha menga tegishli va u men tomondan shu metallga va shu mis tarozilar orqali sotib olingan deb hisoblanishi lozim". So'ngra u ushbu metall bilan taroziga urgan (bu odat hali zarb qilingan monetalar bo'lmagan vaqtda vujudga kelgan) va uni mansipatsiya yo'li bilan kimdan ashyo sotib olgan bo'lsa, o'sha shaxsga sotib olingan summa sifatida o'tkazgan. Mansipatsiyasiz ashyolar hech qanday rasmiyatchiliksiz mis uchun yoki pul uchun ularni oddiy (an'anaviy) o'tkazish yo'li bilan sotilgan.

Eng qadimgi huquqqa mansipatsiyali ashyolarga ham, mansipatsiyasiz ashyolarga ham qo'llanishi mumkin bo'lgan murakkab odat yo'li bilan mulk huquqi o'tkazilishining yana bir rasmiy usuli ma'lum. Mazkur tartibot pretor ishtirokida o'ynaladigan soxta sud tortishuvidan iborat bo'lgan. Bunda xaridor begonalashtirilayotgan ashyo unga tegishli ekanligini ko'rsatgan va o'zining mulk huquqini tantanali ravishda izhor qilgan ("mazkur ashyo kvirit huquqi bo'yicha menga tegishli"), ashyoni begonalashtiruvchi bunday tasdiqqa qar shilik bildirmagan va pretor mazkur ashyoni oluvchiga go'yoki uning mulki sifatida taqdim qilgan.

⁴⁷ Qoidaning qisqa va aniq ta'rifini ifodasi.

Eng qadimgi davridayoq Rimda mulkka uzoq vaqt egalik qilib turish natijasida ham mulkka ega bo'lib olish (sotib olish) mumkin bo'lgan XII jadval qonunlari faqat o'g'irlangan ashyolarga nisbatan muddat bo'yicha mulk huquqi olishni taqiqlaydi. Harakatdagi ashyolar uchun egallab olish muddati bir yil, ko'chmas ashyolar uchun - 2 yil o'rnatilgan. Bu usuldan ashyoni egallab oluvchi ba'zi holdagina foydalangan. Masalan, agar mansipatsiya vaqtida rasmiyatchiliklarga to'liq rioya qilinmasa (kvirit huquqining qattiq qo'lligi ostida) xaridor ashyoga nisbatan mulk huquqini olmagan va kvirit mulk egasi mulkning qaytarilishini hatto sud orqali talab qilishi mumkin bo'lgan.

Servitutlar Ashyo huhuqining qadimgi davridayoq paydo bo'lgan alohida turi **servitutlar - odatlarda yoki qonunda mustaqamlangan va qattiq cheklab qo'yilgan begona ashyolardan foydalanish huquqi bo'lgan.** Servitutlar xususiy mulk bilan birga va qo'shni uchastkalaridagi mulk egalari o'zaro munosabatlarini aniq yuridik tartibga solish zaruriyati bilan o'sgan. Ularning xo'jalik uchun muhimligi sababli servitutlar mansipatsiyali ashyolar kategoriyasiga (turkumiga) mansub bo'lgan. Ularning ichida: qo'shni uchastka orqali o'tish, chorva haydab o'tish, transportda yuk olib o'tish, qo'shni uchastkadan suv olib chiqish huquqlari qadimiy va muhim bo'lgan. XII jadval qonunlarida ham servitutlar alohida ko'rib chiqilgan. Masalan, qonunlarga binoan 15 futdan baland bo'lgan daraxtlar soyasi qo'shni uchastkaga zarar keltirmasin uchun butunlay kesib tashlangan (VII, 9a), qo'shni uchastkadan to'kilgan cho'chqayong'oqlar (dub daraxtining mevasi)ni terishga ruxsat etilgan (VII, 10).

Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar Eng qadimgi davrda tovar-pul munosabatlari rivojlanmagan sharoitda shartnomalar (kontraktlar) hali kam sonli bo'lgan va ochiq ko'rinishdagi rasmiyatchiligi bilan ajralib turgan. U yoki bu kontraktning tabiatini aynan ularning mazmuni emas, tashqi ko'rinishi belgilagan. Eng qadimgi shartnomalarning boshqa belgisi - ularning bir tomonlama xarakterga egaligidir. Shartnomada faqat bir tomonga (kreditorga) talab qilish huquqi berilgan, boshqa tomon (qarzdorga)ga faqat majburiyat yuklangan.

Ilk quldorlik huquqi belgilarini ancha yaqqol ifoda etadigan kontraktlar qatoriga **neksum** kiradi. Uning shaklida juda xilma-xil majburiyat munosabatlari, jumladan, arenda, mulkni begonalashtirish, qarz ifodalangan. Bu shartnoma (mansipatsiyaga o'xshab) beshta guvoh va tarozibon ishtirokida "mis va tarozi" yordami bilan tuzilgan. Bu shartnoma misni tor-

tishdan va kreditorning qarzdor majburiyatlari mazmunini (qarz miqdori va boshqalarni) belgilovchi maxsus formuladagi nutqidan iborat soxta marosim yo`li bilan tuzilgan.

Agar qarzdor bunday tartibda o`rnatilgan summani o`z muddatida qaytarmasa, kreditor "uning qo`lini bog`lab qo`ygan" va 60 kun davomida o`z uyiga qamab qo`ygan. Bu vaqq ichida qarzdor uch marta bozor kunlari Forumga pretor huzuriga olib kelinib, uning qarzi summasi e`lon qilingan. Agar shu davr mobaynida qarzdorning (qarindosh-urug`lari yoki boshqalar tomonidan) qarzi to`lanmasa, u chet elga qul qilib sotilgan. XII jadval qonunlarida ko`rsatilishicha, qarzdor bir necha kreditorlarga qarzini darhol to`lamasa, kreditorlar uni hatto bo`laklarga bo`lib chopib tashlashi mumkin bo`lgan. (111,6). Shubhasiz, bunday hollarda qarzni uzish haqida maxsus bitimlardan ham foydalanilgan. Biroq, qarz shartnomasining eng xarakterli belgisi shundan iborat ediki, qarzni undirish qarzdorning mulkiga emas, shaxsiga qaratilgan edi. Qarz munosabatlari zaminida kuchli ziddiyatlarning rivojlanishi miloddan avvalgi 326 yilda Peteliy qonunining qabul qilinishiga olib kelgan. Bu qonunga binoan kreditor qarzdorni qulga aylantirish yoki uni o`ldirish huquqidan mahrum bo`lgan.

Qadimiy davrlarda paydo bo`lgan kontraktlardan yana biri - **stipulyatsiya (stipulatio)** hisoblanadi. Bu shartnomaning rasmiy xarakteri uni tuzishda qattiq belgilangan nutq formulasining aytilishida namoyon bo`ladi. Kreditor qarzdorga qandaydir harakat sodir etish majburiyatini zimmasiga oladimi, degan savolni beradi. Qarzdor shunday so`zlar bilan o`shanday harakatni sodir etishligi haqidagi majburiyatni zimmasiga olganini tasdiqlaydi. Dastlab savol va javobda **spondeo** ("**tantanali qasamyod qilaman**") degan faqat bitta fe`l (ibora) ishlatilgan, **stipulyatsiyaning o`zi esa "sponsii" (sronsio) degan nom bilan yuritilgan**. Neksumga o`xshab stipulyatsiya ham mavhumiy kontrakt hisoblangan, ya`ni o`zida munosabatning turli majburiyatlari: qarz, ashyolarni ssudaga (qarzga) berish, saqlab berishga berish va hokazolarni o`z ichiga olishi mumkin. Biroq stipulyatsiya faqat mansipatsiyasiz ashyolarga nisbatan qilinishi mumkin bo`lgan. Stipulyatsion shartnoma bo`yicha majburiyatni bajarish faqat savol va javobda ko`rsatilgan hollar bilan qattiq chegaralangan, xolos. Stipulyatsiyaning bajarilishi unda ko`rsatilgan harakatni qilish bilan birga unga teskari tartibda (**akseptatsiya**) tantanali protsedura o`tkazishni ham talab qilgan.

Deliktlar

XII jadval qonunlarida ko`rsatganimizdek, Qadimgi davridayoq majburiyatlar faqat shartnomalardan emas, balki **deliktlardan (huquqbuzarliklardan)** ham kelib chiqqan. Kvirit huquqida ko`zda tutilgan ko`p deliktlar hali ijtimoiy manfaatlarni buzish hisoblanmagan, balki xususiy shaxs huquqiga tajovuz sifatida, **xususiy delikt (delectum privatum)** sifatida ko`rilgan, uni sodir etishlik huquqbuzar kishini jabrlanuvchining qarzdori mavqeiga tushirgan.

XII jadval qonunlariga ma`lum bo`lgan shunday deliktlardan ko`plari kelajakda jinoyat sifatida ko`rila boshlangan. Lekin **kvirit huquqi bo`yicha xususiy huquqbuzarliklar turkumiga shaxsiy ozor yetkazish (injuria), og`ir tan jarohati yetkazish, shuningdek, o`g`irlik (furtum) taalluqli bo`lgan.** Aybdor (ochig`ini aytganda, XII jadval qonunlari bo`yicha aybga e`tibor berilmagan, delikt sodir etish faktining o`zi kifoya bo`lgan) zimmasidagi majburiyat avvalo jabrlanuvchi foydasiga (25 assdan 200 assgacha) jarima to`lash majburiyatida ifodalangan. Biroq tan jarohati yetkazganda tallionga ham yo`l qo`yilgan. Agar o`g`ri jinoyat ustida qo`lga tushsa, darra bilan urilgan. O`g`ri kaltaklangandan so`ng jabrlanuvchiga berilgan. Jabrlanuvchi unga qarzini to`lamagan qarzdordek muomila qilgan. Kechasi o`g`rilik qilgan o`g`ri jinoyat qilgan joyida o`ldirilishi mumkin bo`lgan. XII jadval qonunlariga binoan birovning daraxtlarini kesish (VII,11) yoki imoratlarini yoki uy oldiga taxlangan bug`doy g`aramlarini ehtiyotsizlik bilan yoqish (VIII, 10) natijasida jarimalar to`lash va birovga zarar yetkazish ko`rinishidagi majburiyatlar kelib chiqqan.

Xalqlar huquqiga, xususan, XII jadval qonunlariga **ommaviy deliktlar (delictum publicum), ya`ni rim xalqi nomidan jazolanadigan jinoyatlar** ham ma`lum. Bunday jinoyatlar uchun jarimalar xususiy shaxslar foydasiga emas, davlat foydasiga undirilgan. Biroq, jinoyatlar doirasi hali uncha keng bo`lmagan. Ularga avvalo respublikaga qarshi jinoyatlar kirgan. "Rim xalqi dushmanlarini Rim davlatiga hujum qilishga" g`ijg`ilovchi yoki "rim fuqarosini dushmanga" (X, 5) sotuvchi shaxslar ham o`limga mahkum qilingan. Boshqa jinoyatlar ichida, shuningdek, odam o`ldirish, tuhmat yoki boshqa shaxslarni sharmanda qiladigan qo`shiqlarni to`qish va aytish, yolg`on guvohlik berish, qasddan o`t qo`yish, birovning hosilini yashirincha xarob qilish, shuningdek birovning ekinini kechasi payhon qilish yoki o`rish va boshqalar ajralib turadi.

XII jadval qonunlarida ko`rsatilishicha, o`lim jazosi kam jinoyatlar uchun qo`llanilgan bo`lsa-da, lekin bu haqda ko`pgina moddalarda eslab o`tilgan. Jinoyatlarning xarakteriga qarab o`lim jazosi turlicha shakllarda

qo`llanilgan. Bular boshini kesish, suvga cho`ktirish, qo`l-oyoqlarini butga tortib mixlash, Torpeya qoyasidan tashlab yuborish va hokazolardir. Asta-sekin o`lim jazosi qo`llanilmay borgan va rim fuqarolari uchun fuqarolikni yo`qotuvchi haydab yuborish jazosi ("olov va suvdan mahrum etish") bilan almashtirilgan. Tan jazolaridan qamchi bilan urish, jarimalar va mol-mulkini musodara qilish, fuqarolik holatini cheklash (masalan, magistrat bo`lishni taqiqlash), dafn etilish huquqidan mahrum qilish kabi jazolardan ham foydalanilgan. Ba`zi jinoyatlar xudolarni tahqirlash sifatida ko`rilgan (masalan, patron tomonidan kliyentga zarar yetkazish) va diniy la`natlanishga olib kelgan.

Ommaviy deliktlar (jinoyatlar) tizimining rivojlanmagan va oddiyliги sharoitida eng qadimgi rim huquqida hali jinoiy javobgarlikning umumiy tamoyillari (ayb, jinoyatda ishtirok etish darajasi va boshqalar) ishlab chiqilmagan edi. Faqat ba`zi hollardagina qasddan va ehtiyotsizlikdan qilgan jinoyatlar ajratib ko`rsatilgan va turli yuridik oqibatlariga sabab bo`lgan. Alohida moddalarda voyaga yetmaganlar uchun jazolarning yumshatilishi ko`zda tutilgan. Masalan, birovning maydonida kechasi ekinni payhon qilgan (VIII, 9), o`g`rilik qilgan joyda qo`lga tushgan (VIII, 14) voyaga yetmaganlarga yengilroq jazo nazarda tutiladi. Eng qadimgi davrlardayoq jinoyat huquqi hukmron tabaqapar manfaatiga xizmat qilgan. Umumiy qoida bo`yicha, qullar ozod kishilarga qaraganda ancha og`ir jazolarga tortilgan. Qullar ozod kishilarga qaraganda ko`proq o`limga mahkum qilingan.

XII jadval **qonunlari bo`yicha** **nikoh va oila**

Qadimgi rim huquqi patriarxal oilani mustahkamlaydi. Nikoh erning xotin ustidan to`la hokimiyatini o`rnatgan. Lekin xotin, agar eri mustaqil oila bo`lmasa, ko`pincha uy xo`jayinining (erning otasi) hokimiyati ostida bo`lgan. Xotin o`zining qarindoshlari (kognatlari) bilan to`la aloqani uzgan, yangi uy xo`jayinining hokimiyati ostiga tushgan va erining oila a`zolari (agnatlar) bilan qarindoshlik munosabatlarida bo`lgan. Er yoki uy xo`jayini uning ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo`lgan. Ular uni sotishi, qulga aylantirishi yoki o`limga mahkum etishi mumkin bo`lgan. Qadimgi davrda erning hokimligini cheklovchi yuridik me`yorlarning yo`qligi erning xotinidan o`zboshimchalik bilan, qarindoshlarining (agnatlarning), ba`zan esa xotini kognatlarining maslahatsiz foydalanish mumkin degan emas edi. Uy xo`jayini va erning hokimiyati asta-sekin yumshab borgan.

Nikohga kirish uchun ikkala oila boshliqlarining roziligi va nikohga kiruvchilarning ham roziligi talab qilingan. Nikoh yoshi ayollar uchun 12

yosh boʻlgan, erkaklar uchun koʻrik-tekshiruv yoʻli bilan oʻrnatilgan. Xalqlar huquqi boʻyicha faqat fuqarolar nikoh tuzishlari mumkin boʻlgan. Bunday huquqqa qullar, peregrinlar, lotinlar (Lotin urushlarigacha) ega boʻlmaganlar. Uzoq vaqtlargacha patriksiylar va plebeylar oʻrtasidagi nikohga ruxsat etilmagan. Bu taqiq XII jadval qonunlarida ham oʻz aksini topgan. Lekin miloddan avvalgi 445 yilda Kanuley qonuni bilan bu taqiq bekor qilingan. Nikoh turli shakllarda tuzilishi mumkin boʻlgan. Jumladan, diniy marosimlar yoʻli bilan xotinni soxta sotib olish koʻrinishida (mansipatsiya tipi boʻyicha) yoki er va xotinni bir yil davomida birga yashab turishlari natijasida nikoh tuzilishi mumkin. Agar er-xotin bir yil davomida birga yashab tursalar-da, shu vaqt davomida xotin erning uyidan uch kecha ketgan boʻlsa, unda erning xotin ustidan hokimiyati kelib chiqmagan.

Nikoh er-xotindan birining vafoti bilan yoki ularning huquq layoqatini yoʻqotishi bilan, shuningdek, ajralish natijasida bekor qilingan. Eng qadimgi davrda ajralish juda kam uchraydigan hodisa boʻlgan. Ajralishga faqat erning tashabbusi bilan va qatʼiy cheklangan shartlar bilan yoʻl qoʻyilgan. Masalan, xotinning bevafoqligi yoki homilani yoʻq qilishi erga ajralish huquqini bergan.

Qadimgi rim oilasi uchun kuchli ota hokimiyati ham xarakterli boʻlgan. Ota bolalarini qulchilikka sotish, jazolash va hatto hayotidan mahrum etish huquqiga ega boʻlgan. Bolalar mulkka mustaqil egalik qila olmaganlar. Ular tomonidan sotib olingan barcha mulklar otasining hisoblangan. Oʻgʻilning majburiyatlari otaga daxl qilmagan. Biroq jabrlanuvchi delikt holatida oila hokimiyati ostidagi javobgarning otasini mulkiy javobgarlikka tortishi mumkin.

Oʻgʻil qilib olish pontifiklar ishtirokida xalq, majlisida amalga oshirilgan. Bunda oila boshligʻi koʻpincha tekin ishchi kuchiga ega boʻlish maqsadini koʻzlagan. Oʻgʻil qilib olish oila aʼzosini uch marta qullikka soxta sotish yoʻli bilan amalga oshirilgan. Eng qadimgi rim huquqi yosh bolalar va erga chiqmagan ayollar ustidan oʻrnatiladigan homiylikni, shuningdek, aqldan ozganlar va isrofgarlar ustidan oʻrnatiladigan vasiylikni ham biladi.

Arxaik davrda rim huquqida oʻlgan uy egasining mulkini **meros** qoldirishning ikkita usuli mavjud boʻlgan. Umumiy qoida boʻyicha meros oʻlgan kishining ("hokimiyati ostidagilarga") bolalari yoki nabiralari yoxud u bilan yaqin tugʻishgan aloqalarida turuvchi boshqa agnatlarga oʻtgan. Faqat agnatlar boʻlmagan hollarda mulk oʻlgan kishining boshqa qarindosh-urugʻlariga oʻtgan. Rimda vasiyat boʻyicha meros qoldirish juda erta vujudga kelgan. Biroq dastlabki vaqtlarda bolalari mavjud boʻlgan

meros qoldiruvchilar mulkni vasiyat qilishlari mumkin emas edi. Vasiyat umumiy qoidadan istisno sifatida ko`rilgani uchun xalq majlislarida tasdiqlangan. XII jadval qonunlarida ko`rsatiladiki, vasiyat farmoyishlari o`lim hollarida buzilmas hisoblanadi (V, 3). Vasiyatda merosxo`r o`rnatilishi bilan birga boshqa farmoyishlar: homiyar tayinlash, qullarni erkinlikka chiqarish, legatlar ham bo`lishi mumkin. Vasiyat bo`yicha meros oluvchilar merosdan boshqa kishilar foydasiga voz kechishi mumkin bo`lgan. Bunda mulkdan kimning foydasiga voz kechilgan bo`lsa, ushbu shaxs merosxo`rdan o`sha mulkni talab qilib olishga xaqli bo`lgan.

Legisaksion jarayon (fuqarolik) tartibda ko`rilgan. Eng qadimgi davrdan boshlab sud tizimi va jarayonini tashkil etishning o`ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, **sud ishlarini yuritish 2 ta bosqich: "in yure" (in jure) va "in yuditsio" (in judicio)dan iborat bo`lgan.**

Birinchi bosqichda ish magistratlar tomonidan (odatda pretor tomonidan) ko`rilgan. Bunda da`vogar va javobgar shaxsan ishtirok etishi lozim bo`lgan. XII jadval qonunlarida magistratga javobgarning da`vogar tomonidan chaqirishning maxsus tartibi o`rnatilgan edi. Bunda agar javobgar kelmasa, da`vogarning hokimiyati ostiga berilgan. Da`vogar uni "qo`lini bog`lash", ya`ni unga qarzini to`lamagan qarzdordek muomala qilishi mumkin bo`lgan. Da`vogar pretor huzurida javobgarga nisbatan o`z da`volarini tantanali shaklda bayon qilgan. Agar javobgar da`vogar bilan kelishsa, u holda sud jarayoni birinchi bosqichda yakunlangan. Biroq, qoida bo`yicha, javobgar ham o`z e`tirozlarini tantanali tarzda bayon qilgan. **Sudda tomonlar va magistrat tomonidan qilinadigan diniy marosimlarga oid va qat`iy rasmiy harakatlar, imo-isholar va so`zlar yigindisi "legis aksio" (Legis actio) deyilgan. Legisaksion jarayon degan nom ham shundan kelib chiqqan.** Beshta asosiy legisaksion formula ishlab chiqilgan. Ularning ichida eng ko`p tarqalgani **Legis actio per sacramentum** bo`lib, bunga ko`ra, tomonlar tantanali bayonotlar qilishlari bilan birga garovga narsa qo`yganlar. Bunda ishda yutqazgan tomonning garovga qo`ygan narsasi xazinaga o`tkazilgan. Tomonlardan biri garovga qo`yish tartibini buzsa, uning beixtiyor ishda yutqazishiga olib kelgan.

Agar ikkala tomon pretor huzurida o`rnatilgan tartibga rioya qilsalar, ish ikkinchi bosqichga o`tgan va pretor tomonidan tayinlangan sudya yoki sudyalalar hay`ati tomonidan ko`rib hal qilingan. Bu bosqichda tomonlarning vakillari va himoyachilari (advokatlar) qatnashish huquqiga ega bo`lgan. Agar tomonlardan biri uzrli sababsiz sudga kelmasa, ishda

yutqazgan. Bu bosqichda sud jarayoni qat'iy shakllar bilan bog'liq bo'lmagan. Sudyalar dalillar bilan tanishganlar, tomonlarning va ular himoyachilarining nutqlarini tinglaganlar. Sudlarning qarori qat'iy bo'lgan va shikoyatga yo'l qo'yilmagan.

Jinoyat ishlarida ish yurituvchi magistrat **inkvizitsiga oid (shafqatsiz, vahshiyona)** tartibdan foydalangan. Butun protsess davomida u ayblovni qo'llagan, so'roq qilgan. Agar konsul o'lim jazosi haqida hukm chiqarsa, buni xalq majlisi ma'qullagandan so'nggina ijro etish mumkin edi.

4. Klassik va postklassik davrlarda Rim huquqi

Xalqlar huquqi va xususiy huquq Rimning sud amaliyoti va yurisprudensiyasida klassik davrda xalqlar huquqi va xususiy huquqqa bo'linish ishlab chiqilgan. Har qanday sivilizatsiyaga erishgan jamiyatda xususiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ifoda etuvchi bunday bo'linish huquqning keyingi tarixida chuqur iz qoldirgan. Ulpian tavsiflanganidek, xalqlar huquqi rim davlati holatiga, xususiy huquq esa - alohida shaxslarning foydasiga taalluqlidir.

Xalqlar huquqi imperativ (qat'iy talab qiluvchi, amr, buyruq beruvchi) xarakterga ega bo'lgan, o'z ichiga hokimiyat bo'ysunish munosabatlari olgan. Xususiy huquqda rasman teng, lekin jamiyatda mulkiy jihatdan noteng bo'lgan shaxslarning munosabatlari o'z ifodasini topgan. Uning-sub'yektlari ma'lum huquqiy va xo'jalik avtonomiyasiga ega bo'lganlar. Xususiy manfaatlarni qo'riqlash faqat manfaatdor shaxslarning tashabbusi bo'yicha amalga oshirilgan.

Rim yuristlari o'rnatganidek, xalqlar huquqi "jamoat manfaati" ifodasi sifatida xususiy huquqdan ustun turadi ("xususiy bitimlar xalqlar huquqidan yuz o'girishi mumkin emas"). Lekin klassik va postklassik davrning xalqlar huquqi xususiy huquqqa nisbatan kam ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari, respublika tartiblarining inqirozi, so'ngra esa monarxiya tuzumining o'rnatilishi munosabati bilan xalqlar huquqi asosida yotuvchi "jamoat manfaati" rim yurisprudensiyasida ochiqdan-ochiq imperatorlarning manfaatlari bilan bog'lana boshlagan. Imperiya davrida o'z podshosiga sodiqlik kayfiyatidagi yuristlar tomonidan mazmunan yangi xalqlar huquqi yaratilib, u respublika va demokratik an'analardan uzilib qolgan, rim imperatorlarining o'zboshimchaliklarini asoslagan.

Xususiy huquq klassik davrda ancha chuqur va nozik ishlab chiqilgan. U o'zida rivojlangan tovar-pul aylanishining ob'yektiv zaruriyatlarini aks ettirib, ilgari rasmiyatchiligini bartaraf etgan va tovar ishlab chiqarish-

bilan bog`liq bo`lgan ancha keng doiradagi munosabatlarni qamrab olgan. Rim xususiy huquqi klassik zamonda o`z davri uchun yuridik texnikaning juda yuqori darajasiga erishgan. Aynan Rimning xususiy huquqi huquqning keyingi tarixiga katta ta`sir ko`rsatgan, o`rta asrlarda va yangi davrda ko`p huquqiy tizimlar tomonidan qabul qilingan. Rim yurisprudensiyasining yutuqlari, hatto, huquqi ommaviy (xalqlar) va xususiyya bo`linmagan maktablarning huquqida va yuridik fanida ham foydalaniladi.

Ashyo huquqi Mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish rim xususiy huquqida markaziy o`rin egallaydi. Ashyo huquqi tushunchasi hali rim yuristlariga ma`lum emas edi. Lekin ular ashyoviy da`volarni (actiones in rem) majburiyat munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy da`volardan (actions in personam) aniq ajratganlar.

Amaliy maqsadlar uchun klassik va postklassik davrning rim yuristlari ashyolarini qator klassifikatsiyasidan foydalanganlar. **Ashyolar mansipatsiyali va mansipatsiyasiz** (bunday bo`linish ilgarigi ahamiyatini yo`qotib borgan), **xarakatdagi va ko`chmas, bo`linadigan va bo`linmaydigan, almashtiriladigan va almashtirilmaydigan** va boshqalarga bo`lingan.

Rim davlati iqtisodiyoti agrar xarakterga ega bo`lgani uchun mulkiy munosabatlarda yer alohida o`rin egallaydi. Yerlar qadimgi davrlardayoq alohida quldorlar qo`liga o`tib, xususiy egalikdagi yerlarni tashkil etardi. Shuningdek, uzoq vaqtgacha **jamoat yerlari (ager publicus)** sifatida ko`rilgan davlat yerlari ham mavjud bo`lgan. Litsiniy qonuni qabul qilinganidan keyin bunday yerlar atrofidagi kurash nafaqat kuchsizlandi, balki yangi kuchlar bilan alanga oldi. Nobilitet bu yerlarni talon-taroj qilgan, ulardan yirik quldorlik latifundiyalarini tuzgan. Bunday latifundiyalar bilan mayda dehqon xo`jaliklari raqobat qila olmas edi. Yerlarni mayda mulkdorlar foydasiga qayta taqsimlash maqsadida aka-uka Grakxlar amalga oshirgan favqulodda qonun hujjatlari natija bermagani sababli miloddan avvalgi 111 yilda agrar qonun qabul qilingan. Bunga ko`ra, jamoat fondini tashkil etgan yerlar, endi qayta taqsimlanmaydigan bo`lgan. Bu bilan yerga xususiy mulkchilik batamom mustahkamlangan, xususiy yer egaligi hukmron bo`lib qolgan.

Mulk aylanishi zaruriyati va rim davlati hududining kengayishi klassik davrda mulk huquqining yangi turlari paydo bo`lishiga olib kelgan. Modomiki, o`tgan davrga ma`lum bo`lgan kvirit mulkchiligi ochiq ko`rinishdagi milliyrim xarakteriga ega bo`lgan va uni egallashning qator shartlari mavjud bo`lganligi bois borgan sari arxaik bo`lib qolgan ekan,

hayotning o'zi mulkiy manfaatlarni mustahkamlashning yangi va ucha murakkab bo'lmagan shakllarini ishlab chiqishni talab qilgan. Pretor huquqi doirasida maxsus yuridik vositalar yordamida **pretor yoki bonitar mulkchilik** deb ataladigan mexanizm (tuzilish) tashkil etilgan. Pretor kvirit huquqi rasmiyatchiliklariga amal qilinmasligi oqibatida ashyo sotib oluvchining kvirit mulk egasi maqomini ololmagani hollarida sotib oluvchining manfaatini o'z himoyasi ostiga olgan, ya'ni sotib oluvchi tomonidan sotib olingan ashyoni uning mulki tarkibiga kiritgan (in bonis).

Bonitar mulk egalarning huquqlarini himoya qilish uchun pretorlar kvirit huquqiga ma'lum bo'lgan egalik qilish muddati institutidan ham foydalanganlar. Pretor oxir oqibatda kviritlarning bonitar mulkchiligi huquqi, agar egalik qilish muddati asosida kelib chiqsa, bunday huquqni ham tan olgan. Shunday qilib, ashyoga egalik qiluvchi bonitar mulk egasi kvirit mulk egasi tomonidan talab qilinishidan pretor himoyasini olgan. Vaqti-vaqti bilan pretorlar bonitar mulk egalari u yoki bu hollarda boshqa shaxslardan (jumladan, kvirit mulk egalaridan ham) ashyolarini qaytarib olishga erishishlarida yuridik qo'llab-quvvatlaganlar. Bu maqsadda maxsus **Publitsianlar da'vosi (actio in rem Publiciana)** qo'llangan.

Rim davlati chegaralarining kengayishi, unga yangi-yangi provinsiyalarning kiritilishi va chet elliklar sonining o'sishi munosabati bilan, shuningdek, **provinsial mulkchilik (rim fuqarolari uchun) va peregrinlar mulkchiligi ham tan** olingan.

Rim yuristlari mulk huquqining aynan konstruksiyasini maxsus ishlab chiqmaganlar, lekin ular mulk egasining ashyoga nisbatan turli vakolatlarini tan olish yo'li bilan mulk huquqining mazmunini ochganlar. Rim yuristlari mulk egasining ashyoga nisbatan vakolatlariga: egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi, tasarruf etish huquqi, ashyo keltiradigan hosillarga yoki daromadlarga bo'lgan huquq, o'z ashyosini uchinchi shaxslardan talab qilish huquqini kiritganlar. Mulq huquqiga shaxsning ashyo ustidan to'la hukmronligi sifatida, mutlaq va cheklanmagan huquqi sifatida qaralgan. Xususiy mulkchilikni bunday tushunish, oqibatda, yangi davrda ko'p davlatlarning huquqida foydalanilgan va rivojlantirilgan edi.

Klassik va postklassik davrning rim huquqida **mulq huquqiga ega bo'lish usullariga** katta e'tibor berilgan, chunki mulkiy aylanishning rivojlanishi huquqiy munosabatlarda juda aniqlikni va mulq huquqiga ega bo'lishning huquqiy asosi haqidagi masalada o'ta oydinlikni talab qilgan.

Tobora kam foydalanilayotgan mansipatsiya dominat davriga kelib amalda iste'moldan chiqib ketgan. Shu bilan birga **"an'ana (traditsiya – teaditio)** mulq huquqidan voz kechishning asosiy usuli sifatida hal qiluv-

chi ahamiyat kasb etgan. Bu usulning qulayligi uning oddiyliги va norasmiy xarakterda ekanligida edi. An'anada mulk huquqi ashyoning faqat "adolatli", ya'ni qonuniy asoslar (justa cousa) mavjudligi sharoitlarida o'tkazilishi orqali kelib chiqqan.

Klassik davrda, ayniqsa "xalqlar huquqi"da mulk huquqiga ega bo'lishning boshqa bir qancha usullari ham ancha batafsil ishlab chiqilgan. Ulardan ba'zilari qadimgi davrlardayoq ma'lum bo'lgan. Bunga tashlandiq ashyolarni, shuningdek, egasiz ashyolarni (masalan, baliq, ovlash, ov mahsulotlari va hokazolarni) egallab olish kirgan. Dushmanidan tortib olingan ashyolar ham shunga kirgan. Adrian reskriptiga binoan, topib olingan xazina uni topib olgan shaxs va xazina ko'milgan yer uchastkasining egasi o'rtasida teng bo'lingan.

Mulk huquqiga ega bo'lishning maxsus usullari qatoriga begona materialdan yangi ashyo yaratish ham kirgan. Bunday holda ashyo kimga - uni tayyorlagan shaxsgami yoki materyal egasimi tegishli bo'lishi lozimligi xususida rim huquqshunolarining asosiy maktablari (sabinyanlar va prokulyanlar) o'rtasida tortishuvlar ketgan. Mulk huquqi, shuningdek, ashyolarning qo'shilishi yo'li bilan vujudga kelishi mumkin. Masalan, biror shaxs o'z qurilish materiallari bilan boshqa birovga tegishli yer uchastkasida uy qursa, yer egasi mazkur uyga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan. Klassik davrda ega bo'lib olish muddati (usucapio) yanada rivojlantirilgan. Pretor huquqida egalik qilish muddati bo'yicha mulk huquqiga egalik qilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi kengaytirilgan. Masalan, ashyoni o'n yildan ortiq halol va uzluksiz egallab turgan hatto peregrinlarga ham ashyoga nisbatan mulk huquqi berilgan. Postklassik davrda (Yustinian imperatorligi davrida) ashyoga 30 yildan ortiq vaqt davomida uzluksiz egalik qilib turishlik natijasida, hatto bunga qonuniy unvoni, ya'ni "haqqoniy egalik asosi" bo'lmasa ham, mulk huquqi tan olingan.

Klassik davrda xususiy mulk egasi huquqlarini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy shakllari yanada rivojlangan. Ularning ichida ancha muhimi **vindikatsion da'vo** bo'lgan. Bu da'vo mulk egasiga qandaydir sabablar bilan yo'qolgan va uchinchi shaxsga o'tib qolgan ashyoni taqdim qilgan. Vindikatsion da'vo o'z mazmuniga ko'ra mulk huquqi haqidagi tortishuv hisoblangan. Bunda haqiqiy mulk egasi janjalli mulkka nisbatan o'z huquqini isbotlashi lozim edi. Agar u buni dalillar asosida isbotlansa, ashyo oxirgi (begona) egaga qanday tushib qolganligidan qat'iy nazar, haqiqiy egasiga qaytarilgan. Agar begona ashyoga egalik qilib turgan shaxs halol bo'lsa, ya'ni buni noqonuniy ekanligini bilmagan bo'lsa, u holda mulk egasiga ashyoni qaytargan va vindikatsion da'vo chiqqandan

buyog`iga undan olingan hosilni ham bergan. Agar begona ashyoga egalik qilib to`rgan shaxs noinsof, ya`ni buni g`ayriqonuniy ekanligini bilgan bo`lsa, u holda mazkur shaxs ushbu ashyo bilan birga unga egalik qilish davomida olgan barcha hosilni da`vogarga berishi lozim edi.

Xususiy mulk egasining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun klassik va postklassik davrning rim huquqida **negator va progibator** da`volardan ham foydalanilgan. Negator da`vo begona ashyoga (masalan, qo`shnisining yer uchastkasiga) asossiz da`voni ilgari suruvchi uchinchi shaxslarga qarshi qaratilgan. Progibator da`vo esa mulk egasiga o`z ashyosidan normal foydalanishiga to`squinlik qiluvchi to`siqni yo`qotish maqsadini ko`zlagan.

Pretor huquqining rivojlanishi bilan ashyo huquqining yana bir mustaqil turi - **egalik (possessio) instituti** yuridik jihatdan batamom rasmiylashtirilgan. U xususiy mulkchilik munosabatlari tuzumidan kelib chiqqan va ma`lum ma`noda mulk huquqini to`ldirgan. Ashyoga egalik qilish deganda unga mulk huquqi sifatida **mustaqil egalik qilish (animus possessions)** maqsadida davom etgan **haqiqatan egalik qilib turish (corpus possessions)** tushunilgan. Animus **possessions** egalikni **ashyoni oddiy ushlab turish (detento)**dan farqlagan. Detento ko`pincha shartnoma va ashyoni uning egasi tomonidan ushlab turuvchiga uzatilishi asosida kelib chiqqan.

Ashyo egasining manfaatlarini himoya qilish mulk egasining huquqini himoya qilish uchun xizmat qiluvchi da`volar yordami bilan emas, balki pretorlik **interdiktlari (buyruqlari)** vositasi bilan amalga oshirilgan. Bunday interdiktlar ashyo egasi huquqlarining buzilishiga xavf tug`ilgan holda egalikni ushlab qolish haqida yoki uchinchi shaxs tomonidan allaqachon olib qo`yilgan ashyoning qaytarilishi haqida bo`lishi mumkin edi. Interdiktlar da`vo ega bo`lgan yuridik kuchga ega bo`lmasa ham o`zining ancha soddaligi (osonligi) bilan ajralib turgan, chunki u ashyo egasini ashyoga egalik qilish titulini (huquqini) isbotlashning murakkab tartibiga murojaat qilish zaruriyatidan xalos qilgan. Shu sababli pretorlik interdiktiga o`zlarining buzilgan huquqlarini himoya qilishning ancha tez yo`lini afzal ko`rgan ashyo egalari ham murojaat qilganlar.

Klassik davrda ashyo huquqining **begona ashyoga nisbatan huquq (jura in re aliena)** kabi turi ham yanada rivojlangan. Qator yangi yer, ayniqsa, shahar servitutlari: begona uyga taqab imorat solish huquqi, o`z devorini qo`shnisining uyi devoriga suyab qurish huquqi, qo`shnining o`z qurilishlari bilan yon qo`shnisini yorug`lik va tashqi ko`rinishlardan mahrum qilmasligiga bo`lgan yon qo`shnining huquqi va boshqalar paydo

bo`lgan. Klassik davrning huquq manbalarida begona ashyoga nisbatan huquqning birovning yerida uy qurish bilan bog`liq vujudga kelgan **superfitsiya** kabi turi paydo bo`lganligi eslab o`tiladi. Dastlab quruvchining huquqi mulkiy ijara shartnomasi bilan tartibga solingan, chunki uyga bo`ysundirilgan ashyo sifatida qaralgan, shu sababli yer uchastkasi egasining mulki bo`lib qolgan. Biroq, keyinchalik pretor quruvchining manfaatlarini ancha keng himoya qilinishini amalga oshira boshlagan, uni uyga nisbatan shaxsiy huquqini emas, balki ijara shartnomasidan kelib chiqadigan ashyo huquqini tan olgan. Bu davrda yunon huquqidan **emfitevzis - o`rnatilgan to`lovni to`lash bilan avloddan-avlodga meros bo`lib o`tadigan yer ijarasi** o`zlashtirib olingan edi. Yerni ushlab turuvchi (emfitevt)ning ashyo huquqi pretor tomonidan tan olingan va himoya qilingan bo`lib, u bu yer uchastkasini hatto uchinchi shaxsga bo`shatib berishi ham mumkin edi (uni yer uchastkasidan haydab yuborish mumkin bo`lmagan).

Klassik davrda **garov huquqi** ham rivojlangan. Bu vaqtda ishonchga asoslangan va garovga qo`yilgan ashyo kreditorning mulki (feduksiya) hisoblangan garovning qadimgi shakli kamdan-kam qo`llaniladigan bo`lib qolgan edi. Bunda, agar qarzdor o`z majburiyatini bajarmasa, bu ashyo, agar uning summasi qarz summasidan yuqori bo`lsa ham, abadiy kreditorda qolgan. Tovar muomalasining rivojlanishi bilan ko`proq **pignus** degan garovdan foydalanila boshlangan. Bunda garovga qo`yilgan ashyo kreditorga mulk sifatida emas, ushlab turish sifatida o`tkazilgan, u qarzdorning ashyoga egalik huquqini interdikt yordami bilan himoya qilib, ahvolini ancha yengillashtirgan. Imperatorlik davrida yunon huquqining ta`siri ostida **ipoteka** degan garov shakli ham rivojlangan. Bunda garovga qo`yilgan ashyo (odatda yer) qarzdorning o`zida qolgan, kreditor esa cheklangan ashyo huquqiga - qarzdor tomonidan garovga qo`yilgan yerning sotilishiga yo`l qo`ymaslik va majburiyatlar bajarilmagan holda talab qilib olish huquqiga ega bo`lgan.

Klassik davrda **shaxsiy servitutlar** ham rivojlangan va ishlab chiqilgan. Bular, odatda, vasiyatlarda nazarda tutilgan. Bu begona ashyodan undan keladigan hosilni olish huquqi (**uzufrukt**) bilan yoki bunday huquqsiz (**uzus**) foydalanishni nazarda tutuvchi servitutlar bo`lib, bunda servitut kimning foydasiga o`rnatilgan bo`lsa, o`sha shaxsning umrbod mulki hisoblangan.

Majburiyat huquqi Rim huquqining majburiyat huquqi instituti klassik davrda ancha taraqqiy etgan. Bu, albatta, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan edi.

Majburiyatlarga hech bo'lmaganda **xuddi ikkita shaxsning huquqiy aloqasi (juris vinculum)** sifatida qaralgan. Rym yuristi Pavel ta'kidlaganidek, majburiyatning mazmuni (ashyo huquqiga qarama-qarshi o'laroq) shundan iborat bo'lganki, "u bizga nimanidir bergan, qilgan yoki taqdim etgan kisini bog'liq qilib qo'ygan".

Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan majburiyatlar ma'lum darajada o'zining ilgarigi rasmiyatchiligini yo'qotgan, shuningdek, bir tomonlamalikdan ikki tomonlamalikka aylangan, chunki unda ishtirok etuvchi har ikki tomon ham huquqqa, ham majburiyatga ega bo'lgan. Qarzorning majburiyat bo'yicha javobgarligi uning shaxsiga daxl qilmagan va faqat uning mulki doirasi bilan chegaralangan.

Klassik davrda ayniqsa **shartnomalar** (kontraktlar) ancha batafsil va aniq ishlab chiqilgan. Lekin hamma shartnoma munosabatlari yuridik kuchga ega bo'lavermagan. Ba'zi bitimlar (paktlar) norasmiy xarakter kasb etgan va, garchi, ularda nazarda tutilgan majburiyatlarga, odatda, amalda rioya qilinsa ham, ammo da'vo himoyasidan foydalanmaganlar. Vaqti-vaqti bilan alohida paktlar pretor huquqi bilan tan olingan, postklasik davrda esa imperatorlik qonunlari bilan mustahkamlangan.

Klassik yuristlar tomonidan shartnoma haqidagi ba'zi umumiy qoidalarining ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega edi. Masalan, shartnomalar tuzish uchun tomonlarning erkin ifodalangan roziligi talab qilingan. Chalg'itish, aldash yoki qo'rqitish yo'li bilan tuzilgan shartnomalar haqiqiy emas deb hisoblangan. Shartnomalar bevosita og'zaki yoki yozma, shu jumladan, yozishmalar orqali tuzilishi mumkin edi. Kreditor yoki qarzdor tomoniga yangi shaxslarning qo'shilishiga, shuningdek, shartnomaning dastlabki ishtirokchilarini boshqa shaxslar bilan to'liq almashtirishi (novatsiya)ga yo'l qo'yilgan. Shartnomalar buzilmas sifatida ko'rilgan va qat'iy bajarilishi lozim bo'lgan. Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yuridik javobgarlikni, masalan, ashyoning majburiy suratda tortib olinishini yoki boshqa tomonga yetkazilgan zararlarni to'lash majburiyatini keltirib chiqargan. Biroq zararlarni undirish uchun shartnoma shartlarini bajarmagan tomonlarning harakatlarida ayblarning o'rnatilishi (qasd yoki ehtiyotsizlik) talab qilingan. Javobgarlik darajasi qo'pol yoki yengil bo'lishi mumkin bo'lgan ehtiyotsizlikning o'z xarakteri bilan ham belgilangan.

Gay Institutsiyalarida shartnomalar (kontraktlar) quyidagi to'rt asosiy guruh: verbal, literal, real va konsensualga ajratilgan.

Verbal shartnomalar (lotincha verbum - so'z demakdir) qadimiy diniy shartnomalar - qasamlardan o'zining boshlang'ich asosiga ega

boʻlgan, biroq klassik davrda ularning shakli ancha soddalashtirilgan. Majburiyatlarning kelib chiqishi uchun bunday shartnomalarda maʼlum oʻrnatilgan soʻzlarni aytish (ifoda etish) talab qilingan. Verbal shartnomalarning asosiy va ancha keng tarqalgan turi ilgorigidek **stipulyatsiya** boʻlgan. Lekin uning tuzilishi uchun endilikda ilgorigidek koʻp qattiq shartlarga rioya etish talab qilinmagan. Masalan, kreditorning savolida va qarzdorning javobida nafaqat "**spondeo**" tantanali feʼlidan, balki boshqa feʼllardan ham foydalanish mumkin boʻlgan. Stipulyatsiyaning tomonlari peregrinlar ham boʻlishi mumkin edi. Savol-javob izhor qilishda hatto faqat lotin tilidan emas, balki boshqa tildan ham foydalanishga yoʻl qoʻyilgan.

Literal shartnomalar (lotincha littera - harf demakdir) savdo oborotida qabul qilingan maxsus yozma shartnomalar hisoblangan. Majburiyat bu shartnomalardan tomonlardan birining maxsus kitoblarga daromad va harajatlarni yozish, ikkala tomondan imzolangan (singrafa) yoki faqat qarzdor imzolagan (xirografa) qarzdorlik tilxatini tuzish oqibatida kelib chiqqan. Keyingisi yunon huquqidan oʻzlashtirib olingan edi.

Real shartnomalar (lotincha res - ashyo demakdir) tomonlarning kontrakt asosiy shartlari boʻyicha kelishuvidan tashqari, shartnoma predmetini tashkil etgan ashyoni albatta oʻtkazilishini talab qilgan. Ashyoning oʻtkazilmasligi majburiyat munosabatini keltirib chiqarmagan. Real shartnomaga hammadan avval **qarz (mutuum)** shartnomasi taalluqli edi. Bu shartnomaning huquqiy mazmuni shuni tashkil qilganki, bunda kreditor qarz oluvchiga pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi. Qarz oluvchi esa kreditorga koʻrsatilgan muddatda oʻshancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi. Qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Bu shartnoma asosan haq olmay tuzilgan, biroq koʻpincha qarz shartnomasi bilan bir vaqtda foizlar toʻlash haqidagi stipulyatsiyaga oid bitim ham rasmiylashtirilgan. Real kontraktlar jumlasiga shuningdek, **ssuda (commodatum)** ham kirgan. Bunda ashyo tekinga yakka tartibda foydalanish uchun taqdim etilgan (qarzga oʻxshab mulk sifatida berilmagan) va qarzdor bu ashyoni koʻrsatilgan muddatda qaytarish majburiyatiga ega boʻlgan. Real shartnomalar guruhiga **saqlash (depositum)** shuningdek, **garovga oid shartnomalar** ham kirgan.

Ancha batafsil ishlab chiqilgan va uncha rasmiy boʻlmagan **konsensual shartnomalar (lotincha consensus - rozilik, bitim, kelishuv - demakdir)** boshqa guruhdagi shartnomalardan keyinroq tan olingan. Maj-

buriyat konsensual shartnomalarda tomonlarning kontraktning hamma asosiy shartlari bo'yicha oddiy kelishuvi asosida kelib chiqqan. Bu guruhdagi shartnomalar qatorida avvalo **oldi-sotdi (emptio-venditio)** shartnomasi asosiy o'rin tutadi. Bu shartnomada tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabat sotuvchi qandaydir ashyoni sotishga kelishgan, oluvchi ma'lum summani to'lash majburiyatini olgan vaqtdan boshlab vujudga kelgan. Ashyoni yoki pulni haqiqatdan o'tkazilishi keyinroq sodir bo'lishi mumkin edi. Olish-sotish hali mahsulot sifatida tayyor bo'lmagan, lekin sotuvchi tomonidan ishlab chiqarish va ko'rsatilgan muddatda yetkazib berish majburiyati olingan ashyoga nisbatan bo'lishi ham mumkin edi.

Pretor huquqida sotuvchining sotilgan ashyo uchun javobgarligi batafsil ishlab chiqilgan va belgilangan edi. Masalan, sotuvchi sotilgan ashyoning kamchiliklarini yashirganligi uchun javobgar bo'lgan. Bunda oluvchi ashyoni sotib olayotgan vaqtda uning kamchiliklarini bilmasa va keyinchalik bilib qolsa hamda bu kamchiliklar muhim xarakterga ega bo'lsa, u holda yo ashyo narxining pasaytirilishini, yoki to'langan summaning to'liq qaytarilishini talab qila olgan. Sotuvchi, shuningdek, agar sotgan ashyosi vindikatsion da'vo yordamida haqiqiy egasiga o'tkazilganda ham javob bergan. Sotuvchi ashyoni sotib oluvchiga o'tkazguniga qadar ehtiyotsizlik bilan saqlashi oqibatida unga shikast yetgani uchun, shuningdek, tasodifan nobud bo'lgani uchun ham javobgar bo'lgan.

Konsensual shartnomalar jumlasiga, shuningdek, **ijara shartnomasi (locatio - conductio)** kirgan. Ashyoni ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga ashyoni vaqtincha berish (locatio-sondustio rerum) shartnomasida ijaraga egalik qilish va foydalanish uchun topshirish majburiyatini olgan, Rimda bu vaqtda yerni ijaraga (arendaga) berish shartnomasi keng tarqalgan edi. Postklassik davrda shunday qoida o'rnatilgan ediki, unga ko'ra, kolon (yoki uning merosxo'ri) ijaraga shartnomasini qaytadan yangilamagan holatda tomonlarning sukutli roziligi (bitimi) bilan yer ijarasi muddatsiz bo'lib qolgan.

Ishchi kuchi ijarasi shartnomasi (locatio-conductio oper arum) ma'lum muddatga va belgilangan haq evaziga tuzilgan, lekin bu shartnoma qullar asosiy ishchi kuchini tashkil etgan quldorlik tuzumi sharoitlarida unchalik rivojlanmagan. Rim huquqiga **pudrat shartnomasi (locatio-conductio opers)** ham ma'lum bo'lgan. Bunga ko'ra bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Pudrat shartnomasi ashyoni tay-

yorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi. Albatta, bunday turdagi ijara pudratchidan maxsus bilimlar va malakalar talab qilgan. Biroq Rim quldorlik jamiyatida erkin kishilar uchun haq to'lanadigan yollanma mehnat obro'yini to'kadigan mashg'ulot hisoblangan. Shu sababli yuristlar, rassomlar va boshqa "erkin" kasblarning vakillari bunday turdagi shartnomani tuzmaganlar. Ular o'zlari tomonidan bajarilgan ishlar uchun yoki ko'rsatgan xizmatlari uchun yollanma haq emas, balki "faxriy mukofot" - gonorar olishgan.

Konsensual kontraktlarga, shuningdek, **topshiriq (mondatum) shartnomasi va sherikchilik (societas) shartnomasi** ham kirgan. Topshiriq shartnomasi topshiriq beruvchi va topshiriq, oluvchi (vakil) o'rtasida tuziladigan shartnoma bo'lib, bunda vakil topshiriq beruvchining nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Sherikchilik shartnomasi esa qandaydir muayyan xo'jalik faoliyatini birgalikda yuritish uchun tuzilgan.

Klassik davrda **deliktlardan (huquqni buzishdan) kelib chiqadigan majburiyatlar** yanada rivojlangan. Bir tomondan, bir qator xususiy deliktlar ommaviy deliktlar (jinoyatlar)ga aylanishining sezilarli jarayoni kuzatilgan, boshqa tomondan - xususiy deliktlarning yangi turlari yaratilgan. Yangi turdagi xususiy deliktlar qatoriga **aldash (dolus malus) va do'q-po'pisa (metus)** kirgan. Aldash yetkazilgan zararga teng miqdorda haq to'lash majburiyatini keltirib chiqargan, metus esa yetkazilgan zararining to'lab aravar miqdorini qoplab majburiyatiga olib kelgan. Pretor huquqiga kreditorlarni aldash kabi o'ziga xos delikt ham ma'lum bo'lgan.

Delikt huquqining rivojlanishida **Akviliy qonuni** (miloddan avvalgi III asr) katta mavqega ega bo'lgan. Unda mulkka zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning ilgari mavjud turlari tizimlashtirilgan. Bu qonunda umumiy xarakterga ega hisoblangan delikt nazarda tutilib, bunga ko'ra, begona mulkni yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish (**damnam injuria datum**) yetkazilgan zararni undirish bo'yicha majburiyat tug'dirgan. Akviliy qonunida ayniqsa begona chorva va qullarni yo'q qilish uchun javobgarlikka alohida e'tibor berilgan.

Nikoh-oila huquqi Klassik davr nikoh-oila huquqining xarakterli belgisi patriarxal oilaning progressiv yemirilishi hisoblangan. Er hokimiyatiga asoslangan nikoh II asrga kelib qo'llanmay qo'ygan, xotinning eri uyida yashashi yillar o'tishi bilan er hukmronligining avtomatik vujudga kelishiga olib kelmaydigan bo'lgan. **Er hokimiyatisiz nikoh (sine manu mariti)ning** yangi shakli tarqala

boshlagan. Bunday nikohga kirgan ayol o`zining avvalgi oilasi bilan aloqasini uzmagani, ma`lum mulkiy mustaqilligini saqlab qolgan, bolalariga nisbatan ba`zi huquqlarni olgan.

Er hokimiyatiga asoslanmagan nikoh er-xotinning o`zaro kelishuvi bo`yicha, shuningdek, ulardan birining talabi bo`yicha osongina bekor qilinishi mumkin bo`lgan. Rim quldorlik jamiyatining umumiy inqirozi oilaviy munosabatlarni ham kuchsizlantirgan, ajralishlar oddiy hodisa bo`lib qolgan. **Konkubinat - erkaklar va xotinlarning rasmiylashtirilmagan doimiy birgalikda yashashi** keng tarqalgan. Imperator Avgust oilaviy munosabatlar sohasidagi salbiy hodisalarni bartaraf etish maqsadida nikohsizlik va bolasizlikni jazolovchi qonun chiqargan. Hatto ikkita konsuldan qaysi birining bolalari ko`p bo`lsa, o`shanisi xizmat bo`yicha imtiyozga ega bo`lgan.

Bu vaqtda sep-sidirg`a bilan bog`liq yangi qoidalar joriy etilgan. Bunga ko`ra, garchi sep-sidirg`a ilgorigidek erning mulki bo`lib qolavergan bo`lsa ham, er undan birgalikda turmush kechirish maqsadlarida foydalanishi lozim edi va ajralish hollarida undan mahrum bo`lgan. Avgust vaqtdan boshlab sep-sidirg`a sifatida olgan yer uchastkasini er faqat xotin yoki uning qarindoshlari (kognatlari) roziligisiz begonalashtirishi mumkin bo`lgan. Nikoh-oila munosabatlari sohasida bunday yangi qoidalarning joriy etilishidan asosiy maqsad bu vaqtda keng tarqalgan va asosan boy rimlik oilalar aziyat chekib kelayotgan ko`p erkaklarning boy rimlik ayollar bilan g`araz niyatlardagi nikohiga barham berishga qaratilgan edi.

Patriarxal oilaning yemirilishi ota hokimiyatining kuchsizlanishida ham o`z ifodasini topgan. Bolalarni sotish amaliyoti tugagan va ularni ota tomonidan o`ldirilishiga esa postklassik davrda og`ir jinoyat deb qaraladigan bo`lgan. Oila boshlig`i hukmronligidagi oila a`zolarining mulkiy mustaqilligi kuchaygan. O`g`illar ko`pincha dehqonchilik, hunarmandchilik yoki savdo bilan shug`ullanish uchun otasidan maxsus mulk (peku-liy) olganlar. O`g`illar tomonidan otadan olingan pekuliylar va boshqa barcha mulklar yuridik jihatdan otaning mulki hisoblangan. Biroq, pekuliylar, ayniqsa, harbiy xizmatga kirgan o`g`ilga ajratilgan yer uchastkasi tobora ajralib borgan. O`g`il amalda bunday yerni o`z mulki qilib olgan, o`z merosxo`riga qoldira olgan va hatto mazkur mulk yuzasidan otasi bilan bitim tuza olgan.

Vasiylik instituti ham qator o`zgarishlarga uchragan. Pretorlik edikti bilan vasiyning vasiyligidagilarning ishlarini yuritish uchun javobgarligi o`rnatilgan. Voyaga yetgan ayollar ustidan vasiylik qilish asta-sekin yo`qolib, postklassik davrda ularning muomala layoqati amalda erkaklarning

muomala layoqati bilan tenglashtirilgan.

Meros huquqi

Kuchli ota hokimiyatining yumshatilishi meros huquqida ham ba'zi o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Pretorlik edikti bilan merosxo'rlarning doirasi ancha kengaytirilgan. Merosxo'rlar tarkibiga, shuningdek, o'lgan kishining erkinlikka chiqarilgan bolalari va eri bilan yashagan xotinning oltinchi darajagacha bo'lgan tug'ishgan kognatlari ham kiritilgan. Qarindoshlik agnat tizimining ilgari ahamiyatining zaiflashishi va meros huquqida qondoshlik aloqalariga asoslangan kognat qarindoshlikning tan olinishi asta-sekin imperatorlik qonunlarida ham mustahkamlanib borgan.

Pretorlik edikti **vasiyat** shakliga ham o'zgarish kiritgan. Vasiyatni endi murakkab tartibot asosida ("mis va tarozi yordami bilan") tuzish talab qilinmaydigan bo'lgan. Vasiyat, qoida bo'yicha, og'zaki tarzda emas, balki ma'lum shakllarga amal qilgan holda yozma ravishda tuzila boshlangan. Prinsipat davrida faqat askarlarning vasiyatlari qandaydir rasmiyatchiliklar talab qilmagan. Postklassik davrda yettita guvoh ishtirokida tuziladigan xususiy vasiyatnomalar bilan bir qatorda yunon huquqidan o'zlashtirib olingan magistratlar ishtirokida tuziladigan va mahalliy hokimiyatlarning qaydnomalariga kiritiladigan yoki imperatorlik arxiviga saqlash uchun o'tkaziladigan ommaviy vasiyatnomalar ham amaliyotga kirib kelgan. Vasiyat erkinligining cheklanishi kuchaygan. Masalan, qonuniy merosxo'rlarni yetarlicha asoslar bo'lmay turib mulkdan mahrum qiluvchi vasiyatnomalarning yuridik kuchi tan olinmagan. Vasiyatnomalar tuzishda qonuniy merosxo'rlar uchun majburiy hissaning miqdori (mulkning 1/3 qismi miqdorigacha) ko'paytirilgan.

Klassik davrda vasiyatnomalarda **legatlar** (vasiyatnomadan voz kechish) o'rnatish keng tarqalgan. Bunga ko'ra, merosxo'r vasiyat qilingan shaxsning ko'rsatmasi bilan mulkning ma'lum qismini boshqa shaxsga berishga majbur bo'lgan. Merosxo'rning manfaatlarini himoya qilish maqsadida miloddan avvalgi I asrda shunday qoida qonuniy mustahkamlangan ediki, unga ko'ra, legatlar ko'rinishida mulkni berishda merosxo'r hech bo'lmaganda merosning to'rtidan bir qismini o'zida saqlab qolishi mumkin bo'lgan. Mulkning ma'lum qismini qandaydir shaxsga berish haqidagi farmoyish (ko'rsatma) vasiyatnoma tuzmasdan ham berilishi mumkin bo'lgan. Bu, masalan, vasiyat bo'yicha rasman meros olishi mumkin bo'lmagan shaxslarga - peregrinlarga, ayollarga va boshqalarga nisbatan amalga oshirilgan. **Fideikomisar** deb ataladigan bunday farmoyishlar dastlab merosxo'rlar uchun majburiy hisoblangan. Biroq Avgust imperatorligi davrida ularga yuridik kuch berilgan. Postklassik davrda

(ayniqsa Yustinian kodifikatsiyasida) ko`pgina fideikomislar amalda legatlar bilan qo`shilib ketgan.

Fuqarolik jarayoni shakllaridagi o`zgarishlar

Pretor huquqining rivojlanishi bilan murakkab va arxaik legisaksion jarayon o`rniga **formulyar jarayon** kelgan. Bunday ko`rinishdagi jarayon **maxsus qonun (Lex Aebutio)** qabul qilindan keyin miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmidan boshlab o`rnatilgan. Formulyar jarayonda pretorning roli ancha oshgan. Pretor endi ilgari legisaksion jarayonda bo`lganidek taraflar tomonidan bajariladigan diniy marosimlarning passiv ishtirokchisi bo`lmay qolgan. Birinchi bosqichdagi sud ishlari yuritish ("in yure")ning ahamiyati o`sgan. Aynan shu yerda nizoning huquqiy mohiyati o`rnatilgan. U pretorning xulosa (formula)sida o`z ifodasini topgan. Bunday xulosada qasamxo`r sudyaga muayyan ishni qanday hal qilish kerakligi ko`rsatilgan. Pretorlar savdo aylanishi talablariga va xususiy mulkchilikni mustahkamlash zaruriyatiga qarab asta-sekin qonunlar va odatlardan voz kechib, da`volarning yangi formulalarini tuza boshlaganlar. Pretor yangi formulalar va da`volar tuzib, o`z edikti vositasida xususiy huquqning mazmunan rivojlanishiga ko`maklashgan.

Klassik davrning oxiriga kelib, ayniqsa dominat davrida **ekstraordinar jarayon** keng tarqala boshlagan. Milodning III asriga kelib ekstraordinar jarayon formulyar jarayonni to`la siqib chiqargan. Formulyar jarayon endi hatto sud ishlari yuritish haqida so`z boruvchi muhim Diokletian qonunida ham eslab o`tilmaydi. Ekstraordinar jarayonda sud ishlari yuritishning an`anaviy ikki bosqich: "**in yure**" va "**in yuditsio**"ga bo`linishi yo`qolgan. Ishni ko`rishga qabul qilib olgan magistrat endi uni boshidan oxirigacha, ya`ni qaror chiqarishgacha yuritadigan bo`lgan. Agar oxirgi bosqichga qasamxo`r (haqam) sudya jalb qilinsa, unda bu sudya o`zini tayinlagan magistrat nomidan harakat qilgan. Javobgarni sudga olib kelish da`vogarning tashvishi bo`lmay qolgan. Magistrat endi qattiq protsessual doiralar bilan bog`liq bo`lmay, jarayon ishtirokchilariga majburiy ta`sir etish choralari qo`llay oladigan, ularni o`z farmoyishlarini bajarishga majburlay oladigan bo`lib qolgan. Jarayon oshkora bo`lmay qolgan, yopiq binolarda o`tkazilgan. Agar ilgari sud ishlarini yuritish bepul (tekinga) bo`lgan bo`lsa, endi sud poshlinalarini yig`ish joriy qilingan. Bu ayniqsa dominat davrida keng tarqalgan. Garchi fuqarolik jarayoni hali asosan og`zakiligicha qolgan bo`lsa ham, ammo tomonlarning asosiy bayonotlari sud qaydnomalariga yozib qo`yilgan. Bu esa o`z navbatida yozma sud ishlari yuritishga asos solgan.

Magistrat tomonidan chiqarilgan sud qaroriga apellatsiya qilish joriy etilgan. Biroq oliy apellatsiyaga bergan shaxslar ishda ikkinchi marta ham yutqazsalar juda katta jarima to'laganlar.

Jinoyat huquqi va jarayoni

Rimda respublika institutlarining inqirozi va imperatorlar butun hokimiyatchiligining o'sishi bilan bog'liq o'zgarishlar ta'sirida rim jinoyat huquqi sohasida ham muhim o'zgarishlar yuz bergan. Rim jinoyat huquqi bu vaqtda imperiyaning butun hududiga va aholining barcha toifalariga, jumladan, peregrinlarga ham yoyilgan. Mavjud tartibotlarni har tomonlama himoya qilish maqsadida jinoiy repressiya kuchaytirilgan.

Mazkur davrda jinoyat huquqi rivojlanishidagi xarakterli tendensiya shundan iborat bo'lgan ediki, **qator xususiy deliktlar asta-sekin jinoiy jazolanadigan bo'lgan, jinoyatlar (crimen publicum) kategoriyasiga kiritilgan.** Masalan, o'g'rilik ilgarigidek xususiy delikt hisoblangan, lekin qator hollarda (buzib yoki kuch ishlatib o'g'rilik qilish, katta yo'llarda o'g'rilik qilish va h.k.) an'anaviy jarima choralariga yana davlat tomonidan beriladigan jazolar ham qo'shilgan.

Bu davrda juda ko'p yangi jinoyatlar, shu jumladan **davlat asoslariga xavfli tajovuz sifatida ko'riladigan jinoyatlar** paydo bo'lgan. Agar respublika davrida "ulug'larni haqorat qilish" (magistratlarga qarshilik ko'rsatish va boshqalar) respublika institutlariga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, prinsipat davrida bu tushuncha endi imperator hokimiyatiga qarshi jinoyatlar deb qaraladigan bo'lgan. Bunday jinoyatlar qatoriga - imperatorni ag'darish maqsadida fitna uyushtirish, imperator yoki uning chinovnigi hayotiga suiqasd qilish, imperatorning diniy marosimlarini tan olmaslik va boshqalar kirgan.

Rim davlatining manfaatlariga bevosita taalluqli bo'lgan jinoyatlarga, shuningdek, xazina mulkini o'zlashtirish va davlat mablag'larini talon-taroj qilish, poraxo'rlik, soxtakorlik, soxta pullar yasash, taqiqlangan yig'ilishlarda va birlashmalarda ishtirok etish, don va boshqa mahsulotlar bilan chayqovchilik qilish, soliqlar to'lamaslik va boshqalar kirgan. Doimiy armiyaning o'sishi munosabati bilan harbiy jinoyatlar soni ham o'sgan. Ularning ichida jangda xiyonat qilish, qochish, qurolini yo'qotish, qo'mondonga bo'ysunmaslik va hokazolar ajralib turgan. Yuqoridagilar bilan birga shuningdek qator diniy jinoyatlar ham mavjud bo'lgan. Diniy jinoyatlar, ayniqsa, postklassik davrda xrestianlikning rasman tan olinishidan keyin ancha o'sgan.

Shaxsga qarshi jinoyatlar ichida turli ko'rinishlardagi odam o'ldirishdan tashqari "ozor yetkazishlar", avvalo, XII jadval qonunlari

bo'yicha xususiy delikt deb qaralgan tan jarohati yetkazishlar ommaviy deliktlar deb hisoblanadigan bo'lgan. Mulkiy va ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashuvi munosabati bilan imperiya davrida tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlik jabrlanuvchining ijtimoiy mavqeiga qarab belgilana boshlagan.

Oila va axloq soxasiga taalluqli jinoyatlar doirasi ham kengaygan. Bunda ayniqsa xristianlik dinining ta'siri katta bo'lgan. Bunday jinoyatlarga yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo'lishi, er-xotinning bir-biriga xiyonati, ko'p xotinlilik (poligamiya), erga tegmagan ayol bilan birga yashash, bachchabozlik va boshqalar kirgan.

Rim imperiyasida shuningdek **jazolarning turlari** ham birdaniga o'sgan. Agar jazo dastlabki vaqtlarda yetkazilgan zararni undirish tamoyili asosiga qurilgan bo'lsa, dominat davrida esa u borgan sari ko'proq qo'rqitish maqsadini ko'zlagan. Kechki respublika davrida rim fuqarolariga qo'llanilmagan o'lim jazosi imperatorlik davrida yana qayta tiklangan, buning ustiga uning yangi ko'rinishlari: yoqib yuborish, osish, qo'l-oyoqlarini butga (krestga) tortib mixlash, suvga cho'ktirish paydo bo'lgan.

Og'ir jinoyatlar uchun, shuningdek, konlarda juda og'ir ishlarga mahkum etish (bunda mahkumlarga davlatning abadiy qullari sifatida qaralgan), ma'lum muddatlarga majburiy ishlarga (yo'llar qurishga va boshqalarga) jo'natish, gladiatorlikka⁴⁷ berish ham tayinlangan. Surgun qilishning turli ko'rinishlari: fuqarolikni yo'qotish bilan Rimdan haydash, to'liq yakkalab qo'yish bilan orolga surgun qilish, vaqtincha surgun kabilar keng qo'llanilgan. Surgun joyini o'z holicha tashlab ketgan mahkumlarga o'lim jazosi tayinlangan. Jinoyatlarning ba'zi turlari bo'yicha tan jazolari nazarda tutilgan, mahkumlarning mol-mulkini musodara qilish tez-tez qo'llanib turgan (bunda faqat mulkning ma'lum qismi bolalar uchun qoldirilgan).

Imperatorlik davrida (ayniqsa dominat davrida) jinoyat huquqining xarakterli belgisi jinoiy javobgarlikning ochiq ko'rinishdagi tabaqaviy tamoyilda ekanligida edi. Ilgarigi davrlardagi kabi bu davrda ham ayniqsa qullar shafqatsizlarcha jazolanganlar. Yangi jazo choralari ham nazarda tutilgan. Milodning 10 yilida qabul qilingan senatus-konsultga binoan biror qul tomonidan xo'jayinni o'ldirganlik uchun shu uyda bo'lgan va uning hayotini saqlab qolishga harakat qilmagan barcha qullar ham o'limga mahkum etilgan. Oliy tabaqalarning vakillari (senatorlar, suvoriylar, deku-

⁴⁷ **Gladiator** - qadimgi Rimda tomosha maydonida kurash tushirilgan qul, harbiy asir.

rionlar va boshqalar) juda og`ir ishlarga (katorga) va majburiy ishlarga jo`natish, savalash va hokazolardan ozod etilgan, bunday jazolar surgun bilan almashtirilgan.

Ilk imperiya davrida imtiyozli shaxslar o`z qarindoshlarini o`ldirgan holda o`lim jazosi bilan jazolanishlari mumkin edi, dominat davrida esa to`rt holatda: odam o`ldirish, o`t qo`yish, sehr-jodu bilan shug`ullanish va janobi oliylarini haqorat qilish hollarida o`limga mahkum etilganlar. Shu vaqtning o`zida quyi tabaqadagi shaxslar o`ttiz bir turdagi jinoyatlar uchun o`lim jazosi bilan jazolanganlar. Jazolar sohasida askarlar ba`zi imtiyozlardan foydalanganlar, ya`ni osib o`ldirilmaganlar, konlarga surgun qilinmaganlar. Lekin ba`zi harbiy jinoyatlar uchun qattiq jazolanganlar. albatta. Jazo tanlash va uning og`irligini belgilash ko`p darajada sudyalarga bog`liq edi. Sudyalar bu sohada ayniqsa, imperatorlik davrida butun jinoiy sud tizimi va jarayonining qayta tuzilishi munosabati bilan katta imkoniyatlarga ega bo`lgan edilar.

Jinoyat jarayoni (ayniqsa dominat davrida) ochiq ifodalangan inkvizitsiyaga oid (shafqatsiz, vahshiyona) xarakter kasb etgan. Sudya (imperator chinovnigi) o`z qo`lida ham ayblov, ham sud qilish funksiyalarini to`plagan. Sud yopiq eshiklarda o`tkazilgan, ayblanuvchi huquqiy yordam huquqidan mahrum etilgan, respublika davrida mavjud bo`lgan boshqa protsessual kafolatlar yo`qotilgan. Sud jarayoni davomida quyi tabaqaga mansub kishilarga ilgari qullarga qilingani kabi qiynoqlar qo`llana boshlangan. Sud hukmi ustidan yuqori turuvchi imperatorlik sudiga apellyatsion tartibda shikoyat qilish mumkin edi (dastlab ikkita instansiyaga, Diokletianidan so`ng uchta instansiyaga yo`l qo`yilgan). Ayblanuvchi uchun yangi va yagona kafolat imperatorlik ibodatxonalarida va imperatorlarning haykali yonida boshpana topish huquqi bo`lgan. Bu uni qamoqqa olinishdan vaqtincha saqlashi mumkin edi.

Klassik davrning Rim jinoyat huquqida yuridik texnika sohasida ba`zi progress holat ko`zga tashlangan. Masalan, ayb, ishtirokchilik, suiqasd va boshqa tushunchalar ishlab chiqilgan. Biroq imperatorlar o`zboshimchaliklarining o`sishi natijasida bunday ko`pgina umumiy va muhim tushunchalardan imperatorlik sudlarida amalda foydalanilmay qolgan. Lekin ular keyinchalik g`arbiy Yevropaning o`rta asrlardagi jinoyat huquqi rivojlanishiga ma`lum ta`sir o`tkazgan.

SO`Z BOSHI 3

KIRISH. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi - asosiy tarixiy-huquqiy fan 4

1. Fan va uning tarixi 5

2. Fanning vazifasi, predmeti va ahamiyati 10

3. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixining yuridik va ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o`rnini 2

4. Fan o`rganadigan masalalarni tekshirish uslublari 16

5. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo`lib (sistemaga solib) o`rganish 24

MUQADDIMA BO`LIM. Davlat va huquq tarixidan oldingi davr 26

1. Ibtidoiy jamiyat va davlat paydo bo`lgunga qadar mavjud bo`lgan ijtimoiy boshqarish shakllari 26

2. Jamiyat ustidagi qurilmalarning paydo bo`lishi va ilk davlatlarning tashkil topishi 31

I BO`LIM. Qadimgi Sharq mamlakatlari davlati va huquqi

✓ **I bob. Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va huquq rivojlanishining xususiyatlari** 39

II bob. Qadimgi Misr davlati va huquqi 45

1. Qadimgi Misrda davlatning tashkil topishi va davrlarga bo`linishi 45

2. Ilk podsholik (miloddan avvalgi 3100-2800 yillar) 48

3. Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi 2800-2250 yillar) 51

4. O`rta podsholik (miloddan avvalgi 2250-1750 yillar) 57

5. Yangi podsholik (miloddan avvalgi 1584-1071 yillar) 60

6. So`nggi podsholik (miloddan avvalgi XI-VI asrlar) 63

7. Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari 65

III bob. Qadimgi Mesopotamiyada davlat va huquq (Shumer va Akkad) 75

1. Davlatlarning paydo bo`lishi 75

2. Qadimgi Shumerning ijtimoiy va davlat tuzumi 81

3. Babil davlatining ijtimoiy tuzumi 82

4. Babilning davlat tuzumi 91

5. Qadimgi Mesopotamiyada huquqning asosiy belgilari 96

IV bob. Qadimgi Hindiston davlati va huquqi 123

1. Qadimgi Hindiston davlatining tashkil topishi va rivojlanishiga umumiy tavsif 123

2. Ijtimoiy tuzumi 126

3. Davlat tuzumi.....	131
4. Huquqning asosiy belgilari	139

V bob. Qadimgi Xitoy davlati va huquqi.....	151
1. Eng qadimgi Xitoy to`g`risida umumiy ma`lumot	151
2. Qadimgi Xitoydagi ilk Shan (In) davlati (miloddan avvalgi XVIII -XII asrlar).....	152
3. Chjou davlati (miloddan avvalgi XI-III asrlar)	155
4. Sin davlati (miloddan avvalgi 221-207 yillar)	160
5. Xan davlati (miloddan avvalgi 206-yildan-miloddagi 220-yilgacha)	162
6. Qadimgi Xitoyda huquqning asosiy belgilari	166

II BO`LIM. Antik dunyo davlati va huquqi

VI bob. Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davlati va huquqiga umumiy tavsif.....	184
1. Antik dunyoda davlatning vujudga kelishi va polis tizimi.....	184
2. Antik dunyo davlatlarida huquqning umumiy va o`ziga xos xususiyatlari	190

VII bob. Qadimgi Yunonistonda davlat va huquq.....	193
1. Qadimgi Yunoniston tarixiga umumiy tavsif.....	193
2. Yunonistondagi eng qadimgi davlatlar	195
3. Gomer va arxaik davrlarda Yunoniston	198
4. Qadimgi Afina davlatining tashkil topishi	201
5. Afina davlatining rivojlangan davri (miloddan avvalgi V-IV asrlar).....	214
6. Afina davlatining (demokratiyasining) inqirozi va yemirilishi.....	224
7. Sparta quldorlik davlati.....	225
8. Afina va Spartada huquqning asosiy belgilari	237

VIII bob. Qadimgi Rim davlatining tashkil topishi va rivojlanishi	251
1. Qadimgi Rimda davlatning tashkil topishi.....	252
2. Respublika davrida Rimning ijtimoiy-siyosiy tuzumi	259
3. Respublikaning qulashi va imperiyaga o`tish	273
4. Rim imperiyasi.....	278

IX bob, Rim huquqi	290
1. Rim huquqining dunyo tarixida tutgan o`rni va uning rivojlanishidagi asosiy bosqichlar	290
2. Rim huquqi manbalarining rivojlanishi	292
3. Eng qadimgi davrda Rim huquqi	307
4. Klassik va postklassik davrlarda Rim huquqi	316

Haydarali Muhamedov

XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

(Qadimgi dunyo davlati va huhuqi tarixi)

I qism

Muharrir: **K. Boymuhamedova.**

Texnik muharrir: **A. Boymamatov.**

Kompyuterda teruvchi: **S. Muhamedov.**

Kompyuterda sahifalovchi: **A. Hudaybergenova.**

Bosishga ruxsat etildi: 25.08.2005.

Bosma tabog'ı 18, 1/16. Bichimi 47/65. Adadi:1000.

Buyurtma: № 545. Narxi shartnoma asosida.

TDYUI kichik bosmaxonasida bosildi.

